$$\frac{1}{2\pi iz}\int_L\left[\gamma_0(\zeta)+(\overline{z}-\overline{\zeta})\gamma_1(\zeta)\right]\frac{d\zeta}{1-\frac{\zeta}{z}}-\frac{1}{\pi z}\iint_{D_i}(\overline{z}-\overline{\zeta})f(\zeta)\frac{d\xi d\eta}{1-\frac{\zeta}{z}}=0$$

yoki

$$\sum_{n=0}^{\infty}\left(\frac{1}{2\pi iz^{n+1}}\int_L\left[\gamma_0(\zeta)+(\overline{z}-\overline{\zeta})\gamma_1(\zeta)\right]\zeta^n d\zeta-\frac{1}{\pi z^{n+1}}\iint_{D_i}(\overline{z}-\overline{\zeta})f(\zeta)\zeta^n d\xi d\eta\right)=0 \tag{9}$$

ni hosil qilamiz.

Darajali qatorga yoyilmaning yagonaligi va (9) dan (5) ni hosil qilamiz. (3), (4) tengliklarga asosan (6) formulaning o'rinli ekanligi (8) formuladan kelib chiqadi.

Yetarliligi. $\gamma_0\in C^1(L,\mathrm{C}),\ \gamma_1\in C(L,\mathrm{C})$ funksiyalar (5) shartlarni qanoatlantirsin. (3) tenglamaninng (4) shartlarni qanoatlantiruvchi yechimining mavjudligini ko'rsatamiz. (8) formulaning chap tomonini (3) va (4) ga asosan quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{1}{2\pi i}\int_L\left[\gamma_0(\zeta)+(\overline{z}-\overline{\zeta})\gamma_1(\zeta)\right]\frac{d\zeta}{\zeta-z}-\frac{1}{\pi}\iint_{D_i}(\overline{z}-\overline{\zeta})f(\zeta)\frac{d\xi d\eta}{\zeta-z}. \tag{10}$$

Bu ifoda ikkita funksiyani aniqlaydi. D_i sohada bu ifoda (3) tenglamaning yechimi bo'lgan $W_1(z)$ funksiyani aniqlaydi. D_e sohada (10) ifoda $W_2(z)$ bianalitik funksiyani aniqlaydi. $f\in L_p(D_i,\mathrm{C}),(p>2)$ bo'lganligidan (10) dagi ikkinchi qo'shiluvchi butun C kompleks tekislikda uzluksiz bo'ladi ([3]). Bianalitik funksiyalar uchun Koshi tipidagi integralning chegaraviy qiymatlari uchun Soxotskiy-Plemel formulasiga ko'ra ([2])

$$W_1(\zeta)-W_2(\zeta)=\gamma_0(\zeta),\quad \frac{\partial W_1(\zeta)}{\partial\overline{\zeta}}-\frac{\partial W_2(\zeta)}{\partial\overline{\zeta}}=\gamma_1(\zeta),\ \zeta\in L \tag{11}$$

tengliklar o'rinli bo'ladi. Ikkinchi tomondan (5) tengliklardan moduli bo'yicha yetarli katta $z\in D_e$ uchun (9) tenglik kelib chiqadi va yagonalik teoremasiga ko'ra (8) ning ikkinchi tengligiga kelamiz.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Bu $W_2(z) \equiv 0$ ekanligini bildiradi. U holda $\zeta \in L$ uchun $W_2(\zeta) \equiv 0,\ \dfrac{\partial W_2(\zeta)}{\bar{\zeta}} = 0$ tengliklar o'rinli bo'ladi. Agar Dirixle masalasining izlanayotgan yechimi sifatida $W = W_1(z)$ funksiyani olsak, bu funksiya (3) tenglamani va (11) tenglikka asosan (4) shartlarni qanoatlantiradi.
Teorema isbot bo'ldi.

(3) tenglamaning yechimini regulyarlik sohasi chegarasi qismidagi qiymatlariga ko'ra davom ettirish masalasini qaraymiz. $z = x + iy$ kompleks tekisligida bo'lakli silliq chegarali D_1 sohani qaraymiz. Uning chegarasi haqiqiy o'qning AB kesmasidan va yuqori yarim tekislikda yotuvchi S egri chiziqdan iborat.

2-masala: Qanday shartlarda $\varphi_0 \in C^1(S),\ \varphi_1 \in C(S)$ funksiyalar bir jinsli bo'lmagan bianalitik tenglama yechimi va hosilasining izi bo'ladi.

Oldin bir jinsli bo'lmagan bianalik tenglama uchun Karleman formulasini keltiramiz.

2-teorema. $f \in L_p(D_1),\ p > 2$ bo'lsin. $W(z)-$ (1) tenglamaning D_1 sohadagi regulyar yechimi bo'lib, $\overline{D}_1 = D_1 \cup \partial D_1$ yopiq sohada uzluksiz differensiallanuvchi va

$$W(z) = \varphi_0(z),\ \frac{\partial W(z)}{\partial \bar{z}} = \varphi_1(z),\ z \in S$$

shartlarni qanoatlantirsin. U holda quyidagi ekvivalent davom ettirish formulalari o'rinli bo'ladi:

$$W(z) = \lim_{\sigma \to \infty} \left\{ \frac{1}{2\pi i} \int_S \exp[-i\sigma(\zeta - z)] \left[\varphi_0(\zeta) + \left(\bar{z} - \bar{\zeta}\right)\varphi_1(\zeta) \right] \frac{d\zeta}{\zeta - z} - \right.$$
$$\left. - \frac{1}{\pi} \iint_{D_1} \exp[-i\sigma(\zeta - z)] \left(\bar{z} - \bar{\zeta}\right) f(\zeta) \frac{d\xi d\eta}{\zeta - z} \right\},\ z \in D_1, \tag{12}$$

$$W(z) = \frac{1}{2\pi i} \int_S \frac{\left[\varphi_0(\zeta) + \left(\bar{z} - \bar{\zeta}\right)\varphi_1(\zeta) \right]}{\zeta - z} d\zeta - \frac{1}{\pi} \iint_{D_1} \frac{\left(\bar{z} - \bar{\zeta}\right) f(\zeta) d\xi d\eta}{\zeta - z} +$$
$$+ \int_0^\infty \left[-\frac{1}{2\pi} \int_S exp\left[-i\sigma(\zeta - z)\right] \left[\varphi_0(\zeta) + \left(\bar{z} - \bar{\zeta}\right)\varphi_1(\zeta) \right] d\zeta + \right.$$
$$\left. + \frac{i}{\pi} \iint_{D_1} \exp\left[-i\sigma(\zeta - z)\right] \left(\bar{z} - \bar{\zeta}\right) f(\zeta) d\xi d\eta \right] d\sigma,\ z \in D_1. \tag{13}$$

Teoremaning isboti [2] da bir jinsli bianalitik tenglama uchun keltirilgan.

3-teorema. $f \in L_p(D_i),\ p > 2$ va $\varphi_0 \in L(S) \cap C^1(S^0),\ \varphi_1 \in L(S) \cap C(S^0)$, $S^0 = \text{Int } S$ bo'lsin. U holda:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1) Agar D_1 sohada (3) tenglamani hamda

$$W(\zeta)=\varphi_0(\zeta),\qquad \frac{\partial W(\zeta)}{\partial\bar{\zeta}}=\varphi_1(\zeta)\qquad \zeta\in S \tag{14}$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi $W(z)$ funksiya mavjud bo'lsa

$$\left|\int_0^{\infty}\left\{-\frac{1}{2\pi}\int_S \exp[-i\sigma(\zeta-z)]\left[\varphi_0(\zeta)+\left(\bar{z}-\bar{\zeta}\right)\varphi_1(\zeta)\right]d\zeta+\right.\right.$$

$$\left.\left.+\frac{i}{\pi}\iint_{D_1}\exp[-i\sigma(\zeta-z)]\left(\bar{z}-\bar{\zeta}\right)f(\zeta)d\xi d\eta\right\}d\sigma\right|<\infty \tag{15}$$

xosmas integral har bir $K\subset\{\mathrm{Im}z>0\}$ kompaktda tekis yaqinlashadi;

2) agar $\varphi_0(\zeta)$ va $\varphi_1(\zeta)$ funksiyalar (15) shartni qanoatlantirsa, u holda (3) tenglamaning D_1 sohada S° gacha uzluksiz differensiallanuvchi bo'lgan va (14) shartlarni qanoatlantiruvchi yechimi mavjud bo'lib, bu yechim (12) va (13) ekvivalent formulalar bilan beriladi.

Isbot. 1), (3) tenglamaning $\bar{D}_1$ sohada uzluksiz differensiallanuvchi, hamda (14) chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi $W(z)$ yechimi mavjud bo'lsin. (15) shartni bajarilishini ko'rsatamiz. $f\in C^1(D_1)\cap C(\bar{D}_1)$ funksiya uchun o'rinli bo'lgan Grin formulasining kompleks analogi ([3])

$$\iint_{D_1}\frac{\partial f}{\partial\bar{\zeta}}d\xi d\eta=\frac{1}{2i}\int_{\partial D_1}f(\zeta)d\zeta$$

dan foydalanamiz. Bu formulada

$$f(\zeta)=F(\zeta)+\left(\bar{z}-\bar{\zeta}\right)\frac{\partial F(\zeta)}{\partial\bar{\zeta}}$$

funksiyani qo'yamiz, bu yerda $F(z)$ -(3) tenglamaning $\bar{D}_1$ sohada uzluksiz differensiallanuvchi yechimi:

$$\frac{1}{2i}\int_{\partial D_1}\left[F(\zeta)-\left(\bar{\zeta}-\bar{z}\right)\frac{\partial F(\zeta)}{\partial\bar{\zeta}}\right]d\zeta=\iint_{D_1}\left(\bar{\zeta}-\bar{z}\right)\frac{\partial^2 F(\zeta)}{\partial\zeta\partial\bar{\zeta}}d\xi d\eta.$$

Oxirgi tenglikda

$$F(\zeta)=\frac{i}{\pi}W(\zeta)\exp[-i\sigma(\zeta-z)]$$

deb olsak

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

$$-\frac{1}{2\pi}\int_{\partial D_1}\exp[-i\sigma(\zeta-z)]\left[W(\zeta)-\left(\bar{\zeta}-\bar{z}\right)\frac{\partial W(\zeta)}{\partial\bar{\zeta}}\right]d\zeta+$$

$$+\frac{i}{\pi}\iint_{D_1}\left(\bar{\zeta}-\bar{z}\right)\exp[-i\sigma(\zeta-z)]\frac{\partial^2 W}{\partial\bar{\zeta}^2}d\xi d\eta=0,\ \ \mathrm{Im}z>0$$

tenglikni hosil qilamiz. Oxirgi tenglikdan $W(z)$ funksiya (3) va (14) masalaning yechimi bo'lgani uchun

$$-\frac{1}{2\pi}\int_{S}\exp[-i\sigma(\zeta-z)]\left[\varphi_0(\zeta)+\left(\bar{z}-\bar{\zeta}\right)\varphi_1(\zeta)\right]d\zeta+$$

$$+\frac{i}{\pi}\iint_{D_1}\left(\bar{z}-\bar{\zeta}\right)\exp[-i\sigma(\zeta-z)]f\left(\zeta\right)d\xi d\eta=$$

$$=\frac{1}{2\pi}\int_{AB}\exp[-i\sigma(\xi-z)]\left[W(\xi)+\left(\bar{z}-\bar{\xi}\right)\frac{\partial W(\xi)}{\partial\bar{\xi}}\right]d\xi$$

tenglikni olamiz. Bu yerdan

$$\left|-\frac{1}{2\pi}\int_{S}\exp[-i\sigma(\zeta-z)]\left[\varphi_0(\zeta)+\left(\bar{z}-\bar{\zeta}\right)\varphi_1(\zeta)\right]d\zeta+\right.$$

$$\left.+\frac{i}{\pi}\iint_{D_1}\left(\bar{z}-\bar{\zeta}\right)\exp[-i\sigma(\zeta-z)]f(\zeta)d\xi d\eta\right|\le C_1\exp[-\sigma Imz] \qquad (16)$$

tengsizlikni olamiz, bu yerda C_1 -musbat o'zgarmas (16) tengsizlikdan (15) shartning bajarilishi kelib chiqadi.

2) Endi $\varphi_0(\zeta)$ va $\varphi_1(\zeta)$ funksiyalar teorema shartlarini qanoatlantirsin. (3) tenglamaning (16) shartini qanoatlantiradigan $W\in C^2(D_1)\cap C^1(D_1\cup S^0)$ yechimi mavjud bo'lishini ko'rsatamiz. Buning uchun (13) tenglikning o'ng tomonidagi ifodani (*) orqali belgilaymiz. (*) dagi birinchi va ikkinchi qo'shiluvchilar Borel-Pompey tipidagi integral bo'lib D_1 sohada (3) tenglamani qanoatlantiradigan $h_1(z)$ funksiyani va $\{\mathrm{Im}z>0\}\setminus\overline{D}_1$ sohada bir jinsli bianalitik tenglamani qanoatlantiradigan $h_2(z)$ funksiyani beradi. Bu funksiyalar va ularning hosilalarining S dagi chegaraviy qiymatlari Saxotskiy-Plemel formulasiga asosan

$$h_1(\zeta)-h_2(\zeta)=\varphi_0(\zeta),\qquad \frac{\partial h_1(\zeta)}{\partial\bar{\zeta}}-\frac{\partial h_2(\zeta)}{\partial\bar{\zeta}}=\varphi_1(\zeta),\qquad \zeta\in S$$

tengliklarni qanoatlantiradi. (*) dagi uchinchi xosmas integral teorema shartiga ko'ra $\mathrm{Im}z>0$ yuqori yarim tekislikda bianalitik funksiyani ifodalaydi. Shunday qilib (*) ifoda D_1 sohada (3)

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tenglamaning yechimi - $W_1(z)$ funksiyani va $\{\mathrm{Im} z > 0\} \setminus \overline{D}_1$ sohada bianalitik bo'lgan $W_2(z)$ funksiyani aniqlaydi. Bu funksiyalarning va hosilalarining S dagi chegaraviy qiymatlari

$$W_1(\zeta) - W_2(\zeta) = \varphi_0(\zeta), \qquad \frac{\partial W_1(\zeta)}{\partial \bar{\zeta}} - \frac{\partial W_2(\zeta)}{\partial \bar{\zeta}} = \varphi_1(\zeta), \qquad \zeta \in S \tag{17}$$

tengliklarni qanoatlantiradi. Ikkinchi tamondan (*) ifoda (12) tenglikni o'ng tomonidagi ifodaga teng. (12) formuladan $\mathrm{Im} z > \max_S(\mathrm{Im}\zeta)$ yarim tekislikda $W_2(z) = 0$ ekanligi kelib chiqadi. Bianalitik funksiyalar uchun yagonalik teoremasiga ko'ra $\{\mathrm{Im} z > 0\} \setminus \overline{D}_1$ sohada $W_2(z) \equiv 0$ ekanligi kelib chiqadi. Bundan $W_2(z)$ funksiyaning hosilasi bilan $\left(\{\mathrm{Im} z > 0\} \setminus \overline{D}_i\right) \cup S^0$ ga uzluksiz davom etishligi kelib chiqadi va

$$W_2(\zeta) = 0, \ \zeta \in S^\circ, \qquad \frac{\partial W_2(\zeta)}{\partial \bar{\zeta}} = 0, \ \zeta \in S^\circ$$

tengliklar o'rinli bo'ladi. U holda $W_1(z)$ funksiya ham hosilasi bilan $D_1 \cup S^0$ ga uzluksiz davom etadi. (17) tenglikdan

$$W_1(\zeta) = \varphi_0(\zeta), \ \zeta \in S^\circ, \qquad \frac{\partial W_1(\zeta)}{\partial \bar{\zeta}} = \varphi(\zeta), \ \zeta \in S^\circ$$

tengliklarning o'rinli bo'lishi kelib chiqadi. Oxirgi tenglikdan teoremaning tasdig'i kelib chiqadi, (1) tenglamaning $W(z)$ yechimi sifatida $W_1(z)$ funksiyani olish mumkin. Teorema isbot bo'ldi.

Uchinchi teorema $f \equiv 0$ bo'lganda bir jinsli bianalitik tenglamalar uchun V.A.Fok va F.M.Kunilarning teoremasini umumlashtiradi ([2], [5]).

Izoh 1. Bir jinsli bo'lmagan polianalitik tenglama uchun Dirixle masalasi [7], [8] da ko'rib chiqilgan.

Izoh 2. Umumlashgan analitik funksiyalar uchun Fok-Kuni teoremasi [9] da olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Privalov I.I. "Boundary Properties of Analytic Functions". LGTI, (1950), pp.336

2. Ишанкулов Т., Фозилов Д. Ш., "Продолжение полианалитических функций". Известия высших учебных заведений. Математика (2021)

3. Vekua I.N. "Generalized Analytic Functions".-: Fizmatgiz, Moscow (1959).

4. Muskhelishvili N.I. Singular Integral Equations, Fizmatgiz Moscow:, (1962).

5. Fock V.A., Kuni F.M. "Introduction of a "Damping" Function into Dispersion Relationships" Papers of the Academy of Sciences of the USSR., vol.127, no. 6. (1959), pp.1195-1198.

6. Bitsadze A.V. "Fundamentals of the Theory of Analytic Functions of a Complex Variable". Nauka, Moscow (1984).

7. Begehr H. and Kumar A. “Boundary value problems for the inhomogeneous polyanalytic equation”, Analysis., vol 25 (2005), pp. 55–71.
8. Begehr H. “Boundary value problems in complex analysis” I, II, Boletin de la Asosiación Matemática Venezolana, vol. 12 (2005), pp. 65–85, 223–241.
9. Ishankulov T. “On the possibility generalized analytical continuation in the domain functions given on a pies of the boundary”, Siberian Mathematical Journal, vol. 1 no 2, (2000), pp. 1350–1356.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

КИМЁ ФАНЛАРИ
02.00.00 ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ
CHEMICAL SCIENCES

СУВ МОЙИ ЭМУЛЬСИЯЛАРИНИ ОЛИШ

[1.]Исмоилова М.А., [2.]Адашев Б.Ш., [3]Салиханова Д.С.,
[4.] Рахматуллаева М.М., [5.] Хакимова А.Д, [6.] Саидханова Ш.А
[1,2]Наманган Муҳандислик Технология Институти докторантлари;
[3]ЎзРФА УНКИ “коллоид кимё ва саноат экологияси” лабораторияси бош илмий ходими т.ф.д.,проф;
[4]Тошкент Фармоцевтика Институти “Ноорганика, Физика ва Коллоид кимё” кафедраси т.ф.д.,проф в.б;
[5,6]Ўзбекистон Миллий Университети талабаси.

Аннотация. *Мақолада қолип ва листларни мойлашга мўлжаллаган сув-мой эмулсиясини олиш учун ўсимлик мойининг физик-кимёвий ҳусусиятлари ўрганилган.*

Пахта ёғи таркибидаги тўйинган ёғ кислоталари бошқа намуналарга нисбатан 2 баробар кўплиги аниқланган бўлиб, ундан фойдаланиш қийинчиликлар туғдиради. Сув-мой эмулсиялари морфологияси олинган эмулсияларнинг асосан майда заррачалардан таркиб топганлигини кўрсатади.

Калит сўзлар: *ўсимлик мойи, эмульгатор, лецитин, сув, каротиноид, ёғ-кислотали таркиб, барқарорлик.*

ПОЛУЧЕНИЕ ВОДОМАСЛЯНЫХ ЭМУЛЬСИЙ

[1.]Исмоилова М.А., [2.]Адашев Б.Ш. [3]Салиханова Д.С., [4.]Рахматуллаева М.М., [5.]Хакимова А.Д, [6.]Саидхонова Ш.А.
[1,2.]докторанты Наманганского инженерно-технологического института;
[3.]д.т.н., проф. гл.н.с. лаб. Коллоидной химии и промышленной экологии института ИОНХ АН РУз;
[4.]д.ф.н., и.о. проф. каф. неорганической, физической и коллоидной химии Ташкентского фармацевтического института;
[5,6.]. студентка Национального Университета Узбекистана

Аннотация. *В данной работе изучено физико-химические характеристики растительных масел, с целью получения водомасляной эмульсии для смазки форм и листов.*

Установлено, что в хлопковом масле почти в 2 раза больше насыщенных жирных кислот чем у остальных образцов, что приводить трудностей при эксплуатации. Морфология водомасляных эмульсий показывают о том, что в основном полученные эмульсии обладают мелкодисперсные частицы.

Ключевые слова: *растительные масло, эмульгатор, лецитин, вода, каротиноид, жирно-кислотный состав, устойчивость.*

OBTAINING OIL-WATER EMULSIONS

[1.]Ismoilova M.A., [2.]Adashev B.Sh. [3]Salikhanova D.S., [4.] Rakhmatullaeva M.M., [5.] Khakimova A.D, [6.] Saidkhonova Sh.A.

[1.2.]doctoral students of the Namangan Institute of Engineering and Technology;

[3.]D.Sc., prof. chief researcher lab. Colloidal chemistry and industrial ecology of the Institute of Institute of General Chemistry of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan;

[4.]d.ph.s., acting prof. cafe inorganic, physical and colloidal chemistry of the Tashkent Pharmaceutical Institute, farmi69@mail.ru;

[5,6.] student of the National University of Uzbekistan

Annotation. *In this paper, the physicochemical characteristics of vegetable oils were studied in order to obtain a water-oil emulsion for lubricating molds and sheets. It has been established that cottonseed oil contains almost 2 times more saturated fatty acids than other samples, which leads to difficulties in operation. The morphology of oil-in-water emulsions shows that the emulsions obtained mainly have fine particles.*

Key words: *vegetable oils, emulsifier, lecithin, water, carotenoid, fatty acid composition, stability.*

Введение

Пищевые эмульсии широко применяются в технологиях продуктов питания в качестве улучшителей реологических, физико-химических и органолептических показателей качества этих продуктов. В состав пищевых эмульсий входят растительные масла и различные другие ингредиенты, недостатком таких эмульсий является нестабильность их реологических показателей, расслаивание на исходные компоненты в процессе хранения, что отрицательно сказывается, например, на равномерности их термической обработки, и приводит к браку [1-3].

Расслаивание компонентов в пищевых эмульсиях обуславливается недостаточной степенью дисперсности компонент в эмульсиях. Современным направлением интенсификации процесса эмульгирования нерастворимых друг в друге ингредиентов является применение кавитационного воздействия на эмульсию ультразвукового воздействия и дополнительного структурирующего воздействия магнитного поля. Равномерное распределение частиц и их деполяризация при воздействии магнитного поля может способствовать стабилизации реологических характеристик эмульсий. [4-6].

Растительные масла (т.к. подсолнечное, рапсовое, соевое и др.) - одним из основных компонентов водомасляной эмульсии. Для приготовления водомасляной эмульсии в преведущих работах показано что содержание масла колеблется в пределах 15-30%. В составе растительных масел, как известно [7,8]. имеются ценные пищевые компоненты, т.к. Е360 (смесь токоферолов), Е307 (альфа-токоферол), Е308 (гамма-токоферол), Е309 (дельта-токоферол). Это один из форм витамина Е который действует как антиоксидант в организм и укрепляет иммунную систему, а также снижает развитие болезней сердца. Ценность таких компонентов заключаются в том, что они способны тормозить радикальные реакции, особенно окислительные. Присутствие в водомасляной эмульсии этих витаминов положительно влияет на качество получаемой продукции.

Дефицит витамина Е, каротина и других биоантиоксидантов снижает активность иммунной системы и является одним из факторов, повышающих риск сердечно-сосудистых заболеваний.

Экспериментальная часть. Многочисленные исследования больших групп населения в различных странах свидетельствуют: чем меньше поступление с пищей этих витаминов, чем ниже их уровень в крови, тем больше частота атеросклероза и многих видов рака, тем выше смертность от этих заболеваний.

Как известно α-токоферол 10 раза активнее чем β-токоферол и 30 раза γ-токоферол. С этой целью изучены содержание токоферолов в основных употребляемых маслах приведенные в табл.1.

Таблица 1.

Содержание токоферолов в растительных маслах [4,5].

Компоненты	Масла					
	Подсол-е	Рапс-е	соевое	Хлоп-е	кукурузное	кокосовое
Содержание токоферолов, мг/100, всего	40,0-70,0	40,0-55,0	90,0-280,0	80,0-100,0	100,0-200,0	3,0-9,0
Если количество всех токоферолов в масле принять за 100 %, то содержание отдельных их классов, в % от общего содержания, составит						
α-токоферол	92,0	27,0	13,5	58,0	11,0	-
β-токоферол	-	73,0	59,0	42,0	89,0	-
γ-токоферол	8,0	-	27,5	-	-	-

Как видно, из табл.1. видно, что подсолнечное масло обладает на 92% α-токоферола, а в рапсовом, соевом и кукурузном масле большая часть токоферола составляет β-токоферол.

Исходя из того, что, в республике производится в основном 80-90% хлопковые масла, которые в основном употребляется для пищи. Но количество для получения эмульсии для смазки листов и форм данное масло будет недостаточным. Поэтому необходимо изучение других альтернативных источников растительных масел для эмульсий.

Как видно из табл 1. наибольшее количество β-токоферол имеется в рапсовом и кукурузном масле. В данной работе будет изучено возможности получения водомасляных эмульсии для смазки форм и листов на основе рапсового, соевого и кукурузных масел.

Для сравнения физико-химических свойств изучено жирно кислотный состав вышеуказанных растительных масел.

Для определения состава жирных кислот хорошо перемешанного образца поместили в круглодонную колбу на 50 мл, добавили 20 мл 2N метанольного раствора KOH и колбу поместили на водяную баню. Омыление липидов вели при кипячении в течение 1 часа.

К водному раствору мыла добавили 50%-ный водный раствор H_2SO_4 для разложения мыла и высвобождения жирных кислот (ЖК). Серную кислоту добавляли до появления розовой окраски раствора по метилоранжу. Из полученного кислого раствора ЖК экстрагировали трижды диэтиловым эфиром по 20-30 мл. Объединенные эфирные вытяжки промывали дистиллированной водой до нейтральной среды по метилоранжу, сушили над безводным сульфатом натрия, затем эфир отгоняли на роторном испарителе в вакууме водоструйного насоса. Жирные кислоты переводили в метиловые эфиры путем обработки свежеприготовленным диазометаном.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Очистку полученных метиловых эфиров ЖК (МЭЖК) проводили методом препаративной тонкослойной хроматографии (ПТСХ) на пластинках с силикагелем в системе растворителей гексан: диэтиловый эфир (4:1) в двукратной повторности. Зону МЭЖК на сорбенте проявили в парах J_2, счищали с пластинки и десорбировали с силикагеля многократным элюированием хлороформом. Хлороформные элюаты объединяли, и хлороформ упаривали на роторном испарителе. Полученные МЭЖК растворяли в гексане и анализировали на газожидкостном хроматографе.

Анализ осуществляли на газовом хроматографе Agilent 8860 GC с пламенно-ионизационным детектором, используя капиллярную колонку Supelco 100м х 0,25мм с фазой SP^{tm}-2560, газ-носитель гелий, температура программирования колонки от 140^{0}С до 250^{0}С. Идентификацию ЖК проводили путём сравнения времён удерживания пиков с таковыми пиков стандартного образца смеси 37 метиловых эфиров жирных кислот (Supelco ® 37 component FAME mix, Sigma-Aldrich, США). Состав и содержание МЭ жирных кислот образцов представлены в таблице 2.

Таблица 2.

Жирно-кислотный состав растительных масел

Жирная кислота	Подсолнечное масло (прессовое)	Соевое масло (прессовое)	Рапсовое масла	Хлопковое масло
Лауриновая, 12:0	Сл.	-	-	
Миристиновая, 14:0	0,06	0,07	сл	0.81
Пальмитиновая, 16:0	6,30	11,16	6,01	23.64
Пальмитолеиновая, 16:1	0,06	0,05	0.31	0.63
Стеариновая, 18:0	4,44	4,99	3.01	2.38
Олеиновая, 18:1	14,55	29,20	54.2	15.2
Линолевая, 18:2	73,48	48,44	18.1	53.5
Линоленовая, 18:3	0,08	5,10	14.0	2.7
Арахиновая, 20:0	0,12	0,42	1.46	0.28
Эйкозеновая, 20:1	Сл.	Сл.	0.55	0.07
Бегеновая, 22:0	0,72	0,36	1.79	0.16
Эруковая, 22:1	-	0,04	0.31	-
Лигноцериновая, 24:0	0,19	0,17	0.71	0.10
$\Sigma_{\text{насасыщенных ЖК}}$	11,83	17,17	13.07	27.45
$\Sigma_{\text{ненасыщенных ЖК}}$	88,17	82,83	86.9	72.55

Из табл.2. видно, что в хлопковом масле насыщенные жирные кислоты составляют 27.45%, а ненасыщенные 72.55%. Однако высокое содержание насыщенных жирных кислот в водно-жировых эмульсии приводит к трудностям при эксплуатации при низких температурах.

В способе получения эмульсии масла с водой для смазки хлебных форм, включающий введение в подогретое до температуры 60-70^{0}С растительное масло, при перемешивании, эмульгатора в количестве 5% к общему количеству эмульсии до полного растворения, горячую воду с температурой 40-50^{0}С, эмульгирование смеси в течения 10-30 минут. При этом полученная эмульсия содержит: растительное масло 25%, 5% эмульгатора, вода – остальное.

Недостатком данного способа является высокой расход растительного масла, эмульгатора, сложность технологии.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Для приготовления водомасляной эмульсии для смазки хлебных форм, включающий введение в подогретое до температуры 60-70^{0}С растительное масло, при перемешивании, эмульгатора в количестве 2% к общему количеству эмульсии перемащивая до полного растворения, горячую воду с температурой 40-50^{0}С, эмульгирование смеси продолжается в течении 10-30 минут.

С этой целью изучено влияние времени на агрегативную устойчивость полученные данные приведены в рис.1.



Рис.1. Агрегативная устойчивость в зависимости от времени

Как видно из рис.1 с повышением временем выдержки снижается стабильность данной эмульсии почти в 2 раза. Нужно отметить, что со временем под действием силы тяжести разделяется на жировую и водяную фазу. Так как для эксплуатации водно-жировой эмульсии 2 месяца достаточна и 2% эмульгатора от общей масса водно-жировой эмульсии считается достаточным. С применением 2%-ного эмульгатора устойчивость вода-жировой эмульсии полученных из подсолнечного масла устойчивые чем хлопковое почти на 10%.

Морфологии водомасляной эмульсии изучено в микроскопе марки NLCD-307B. Результаты приведены в **рис 2.**



www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



(а) (б)



(в) **(г)**

Рис.2. Вид из микроскопа водомасляная эмульсия увеличенный в 100 раза.

(а) водомасляная эмульсия полученный из хлопкового масла;

(б)-водомасляная эмульсия полученный из подсолнечного масла.

(в) - водомасляная эмульсия полученный из рапсового масла.

(г)- водомасляная эмульсия полученный из соевого масла.

Как видно из рис. 2. водомасляная эмульсия полученный из хлопкового масле много более крупных капель, что приводить к неустойчивости. Как видно из рисунков основные капли являются мелкодисперсные.

Заключение

Таким образом, для получения водомасляной эмульсии из различных масел изучено их жирно-кислотный состав, количество каротиноидов и морфология. Установлено, что в хлопковом масле почти в 2 раза больше насыщенных жирных кислот чем у остальных образцов, что приводить трудностей при эксплуатации. Морфология водомасляных эмульсий показывают о том, что в основном полученные эмульсии обладают мелькодисперсные частицы.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Использованные литературы

1. Сорокина В.В. Разработка технологии и оценка потребительских свойств фракционированных функциональных фосфолипидных продуктов: Дис. ... канд. техн. наук. - Краснодар. - 2004.- 120 с. - Библиогр.: С. 108-12.
2. Тимофеенко Т.И. Фосфолипидные продукты функционального назначения / Т.И. Тимофеенко, И.П. Артеменко, Е.П. Корнена // Краснодар: КубГТУ. -2002.-210с.
3. Покровский В.И. Структура питания и здоровье населения России // Хранение и переработка сельхоз сырья. -1997.- J\2 7. - 46 с.
4. Антуфьев, В.Т., Иванова, М.А. Воздействие ультразвука на выпечку мелкоштучных хлебобулочных изделий / В.Т. Антуфьев, М.А. Иванова // Хлебопродукты. – 2011. – №5 – С. 50-51.
5. Богуш, В.И. Сонохимическая обработка молочных продуктов / В.И. Богуш, М. Ашоккумар, О.Н. Красуля и др. // Переработка молока. – 2011. – № 8. – С. 40-42.
6. Berestova A.V., Zinyukhin G.B., Mezh-uyev L.V. Features of technology of food oil and fat emulsions of functional purpose. Vestnik Orenburgskogo gosudarstvennogo univer-siteta [Bulletin of the Orenburg state university]. 2014. No. 1 (162). pp. 150–155 (in Russia)
7. Юдина Т.П. Применение растительных эмульгаторов в производстве эмульсионной продукции / Юдина Т.П., Никитина И.Н., Цыбулько Е.И., Иванова О.И., Курганова И.В. // Хранение и переработки сельхозсырья. - 1997. № 6.
8. К.С.Ахмедов, Х.Р.Раҳимов.\\Коллоид химия\\ “Ўзбекистон” нашриёти. 1992.й.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
03.00.00 БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
BIOLOGICAL SCIENCES

УЎК: 591.531.1

ФАРҒОНА ВОДИЙСИ АГРОЭКОТИЗИМЛАРИ ПАРВОНА КАПАЛАКЛАРИ (LEPIDOPTERA: PYRALIDAE) ФАУНАСИГА ОИД

Шерматов Маликжон Рахматжонович
Фарғона давлат университети докторанти, б.ф.н., доцент
Тел.: 90 405-06-31 e-mail: malikjonshermatov78@gmail.com

Аннотация: *Мақолада Фарғона водийси агроэкотизимлари парвона капалаклари фаунасини ўрганишга оид маълумотлар келтирилган. Андижон, Наманган, Фарғона вилояти агроэкотизимларида олиб борилган тадқиқотлар натижасида,* Pyralidae *оиласининг 5 авлодига мансуб 5 тур капалаклари илк бор қайд этилган.*

Калит сўзлар: Pyralidae, *капалак, қурт, тарқалиш, ривожланиш, морфология, зараркунанда, озуқа ўсимлиги, агроэкотизим.*

К ФАУНЕ ОГНЁВОК (LEPIDOPTERA: PYRALIDAE) АГРОЭКОСИСТЕМЫ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Шерматов Маликжон Рахматжонович
Докторант Ферганского государственного университета, к.б.н., доцент
Тел.: 90 405-06-31 e-mail: malikjonshermatov78@gmail.com

Аннотация: *В статье изложены результаты изучению фауны огневки в агроэкосистемах Ферганской долине. В результате проведенных исследований в агроэкосистемах Андижанской, Наманганской, Ферганской областей впервые отмечены 5 видов бабочек, относящихся к 5 родам семейства* Pyralidae.

Ключевые слова: Pyralidae, *бабочка, личинка, распространения, развития, морфология, вредитель, кормовые растения, агроэкосистема.*

TO THE FAUNA OF PYRALID MOTHS (LEPIDOPTERA: PYRALIDAE) OF THE AGROECOSYSTEM OF THE FERGANA VALLEY

Shermatov Malikjon Rakhmatjonovich
Doctoral student of the Ferghana State University, Candidate of Biological Sciences
Tel.: 90 405-06-31 e-mail: malikjonshermatov78@gmail.com

Annotation: *The article presents the results of the study of the fauna of pyralid moths in the agroecosystems of the Ferghana Valley. As a result of the research in the agroecosystems of Andijan, Namangan, Ferghana regions, 5 species of butterflies belonging to 5 genera of the* Pyralidae *family were noted for the first time.*

Key words: Pyralidae, *butterfly, larva, distribution, development, morphology, pest, fodder plants, agroecosystem.*

Кириш

Дунё миқёсида кузатилаётган иқлим ўзгаришлари ва антропоген омиллар фитофаг ҳашаротларни географик минтақалар бўйлаб жадал тарқалиши ва ареалининг кенгайишига сабаб бўлмоқда. Натижада, айрим ҳашаротларнинг энтомоценозлардаги статусининг ўзгариши ҳамда доминант тур сифатида жиддий зараркунандалар қаторидан ўрин эгаллаши кузатилмоқда [18]. Pyralidae оиласи 5000 га яқин турларни ўз ичига олади [19]. Улар орасида табиий ландшафтлар ҳамда агроэкотизимларни афзал кўрадиган ўзига хос ихтисослашган гурухлар, шунингдек, ўта пластик эврибионтлар ва кенг полифаглар, шу жумладан, қишлоқ хўжалиги экинларининг жиддий зараркунандалари мавжуд. Шундан келиб чиқиб, Фарғона водийси агроэкотизимлари энтомофунаси таркибида содир бўлаётган ўзгаришларни комплекс ўрганиш долзарб илмий-амалий аҳамият касб этади. Ушбу мақола муаллифнинг Фарғона водийси агроэкотизимлари тангачақанотли ҳашаротларини ўрганиш борасидаги тадқиқотларининг бир қисми бўлиб, Sphingidae, Noctuidae, Lymantriidae, Arctiidae, Erebidae оилалари фаунасига доир таҳлиллар илмий нашрларда эълон қилинган [24; 15].

Адабиётлар таҳлили

Фарғона водийси агроэкотизимларининг тангачақанотли ҳашаротлари комплекс тадқиқ этилмаган бўлиб, уларнинг ўрганилиши асосан айрим агроценозлар энтомофаунасини тадқиқ этиш борасидаги илмий изланишлар таркибида олиб борилган [9; 4; 16; 5]. Тангачақанотли ҳашаротларнинг алохида турларини ўрганишга қаратилган тадқиқотлар тенгсиз ипакчи (1972), тут одимчиси (1985), тут парвонаси (2010), анор қурти ҳамда анжир парвонасини (2010) ўрганишга бағишланган ишлар билан чегараланган [12; 11; 14; 8].

Ўзбекистон ҳудуди энтомофаунасига доир илмий манбаларда тангачақанотли ҳашаротларнинг парвона капалаклар (Pyralidae) оиласини иқтисодий зарари юқори бўлган – махсар капалаги (Myelois cinctipalpella), кунгабоқар парвонаси (Homoeosoma nebulella), анор қурти (Euzophera punicaella = bigella) каби турлари ҳақида маълумотлар келтирилган [13; 17]. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, сўнгги таксономик таҳлилларга кўра минтақамизда илгари парвона капалаклар оиласининг вакиллари сифатида қайд этилган тут парвонаси (*Glyphodes pyloalis*) Crambidae оиласига, анжир парвонаси (*Choreutis nemorana*) эса, Choreutidae оиласига мансуб эканлиги маълум бўлди [10]. Фарғона водийси шароитида анор меваҳўри ва кунгабоқар парвонаси ушбу оилага мансуб кенг тарқалган зараркунанда турлар сифатида қайд этилган [13; 17; 8; 27; 3]. Ўзбекистон агроэкотизимларида, шу жумладан, Фарғона водийсида маданий ўсимликлар билан трофик алоқада бўлган парвона капалакларнинг бошқа турлари ҳақида маълумотлар учрамайди.

Тадқиқот объекти ва услублари

Фарғона водийси агроэкотизимлари парвона капалаклари фаунасини ўрганишга оид тадқиқотлар 2015-2022 йиллар давомида Фарғона, Андижон ва Наманган вилоятлари ҳудудларидаги агроценозларда олиб борилди. Капалакларни йиғиш асосан кечалари, ДРЛ-250 лампа ҳамда муаллиф томонидан тайёрланган тунги ёритгичли мослама ёрдамида амалга оширилди. Йиғилган капалакларнинг коллекциялари тайёрланди ҳамда морфологияси ўрганилиб, тур даражасида тадқиқ этилди. Илк бор учратилган капалакларнинг қуртларини озуқа ўсимлигида ривожланиш хусусиятлари кузатилиб, зарур ҳолларда, шиша толали пластик идишларда етарли ҳарорат ва намлик таъминланган

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ҳолда, капалаклари чиққунга қадар озиқлантириб турилди. Йиғилган материалларни аниқлашда энтомологик аниқлагичлар ва электрон каталоглардан фойдаланилди [10; 30]. Капалакларнинг морфологиясини ўрганиш ва турини аниқлашда NLCD-307B бинокуляр микроскопдан, фотосуратларини олишда Canon EOS 5D Mark IV фотоаппаратидан фойдаланилди. Йиғилган намуналарнинг коллекциялари Фарғона давлат университети Экспериментал биология лабораториясида сақланмоқда. Капалаклар қайд этилган худудлар харитаси 1-расмда, аниқланган турларнинг фотосуратлари 2-расмда келтирилган.



1-расм. Фарғона водийси агроэкотизимларида парвона капалаклари қайд этилган худудлар.

Тахлиллар ва натижалар

Авлод: *Oncocera* Stephens, 1829. Ушбу авлод вакиллари 50 га яқин турларга эга бўлиб, Шимолий Америка, Европа ва Осиё минтақаларида тарқалган. Большаков ва ҳаммуаллифлари томонидан Россиянинг ғарбий қисмида жойлашган Пенза худудида ушбу авлоднинг 2 та тури [1], Гладун ва Кустовлар томонидан Шимолий-Ғарбий Кавказ худудларида 1 та тури тарқалганлиги маълум қилинган [2].

***Oncocera semirubella* Scopoli, 1763.** Ушбу тур Россиянинг европа қисми, Кавказ орти, Урал, Хабаровск ва Амур ўлкаларида, Хитой, Ҳиндистон, Япония, Корея, Марказий Осиёда тарқалган. Қуртлари беда ва бошқа дуккакли ўсимликларнинг барги, гуллари ва уруғлари билан озиқланади [7]. Мезоксерофил тур сифатида табиий ўтлоқларда ёввойи дуккакдошлар билан озиқланиб ҳаёт кечиради. Маданий ценозларда асосан беда ўсимлиги билан озиқа занжири орқали боғланган бўлиб, популяция зичлиги ортиб кетган мавсумларда сезиларли даражада зарар келтиради. Фарғона водийси шароитида капалаклари апрель ойидан октябрь ойига қадар учраши кузатилди. Ўзбекистонда ушбу турнинг тарқалиши тўғрисида маълумотлар мавжуд эмас.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Аниқланган жойи ва муддати: Мингбулоқ тумани Терак қ. (09.07.2020) ♂1; ♀1; Улуғнор тумани Сариқсув қ. (11.07.2020) ♂2; Фарғона тумани Саткак қ. (23.04.2020) ♂1; (10.05.2021) ♂3; Оқбилол қ. (07.08.2022) ♀1.

Агроценоздаги озуқа ўсимлиги: *Medicago sativa.*

Қисқача морфологик тавсифи: Капалагини олдинги қаноти асосидан учига қадар узунасига уч хил ранглар билан ажралган. Жумладан, қанотнинг юқори чети бўйлаб оқ ёки оқиш сариқ ранг (нисбатан ингичка), ўрта қисми бўйлаб қизғиз сиёҳранг, остки чети бўйлаб сариқ рангдаги ҳошиялар кўзга ташланиб туради. Ҳошияларнинг ранги, айниқса, қизғиш сиёҳ ранг ҳошияси турли индивидларда оч ёки тўқ рангда кузатилади. Кейинги қаноти қорамтир жигарранг (баъзан кулранг) бўлиб, учки қисми нисбатан оч рангдаги тукчалар билан қопланган. Фарғона тумани Саткак қишлоғидан 23.04.2020 йилда олинган наъмунадаги капалакнинг олдинги қанотини узунлиги 12 мм, эни 4,5 мм ни ташкил этди. Кейинги қанотининг узунлиги 10,5 мм, эни 11 мм. Мўйловлари ипсимон кўринишда, узунлиги 8 мм. Капалак танасининг узунлиги 11 мм, қанотлари ёзилганда кенглиги 26 мм га тенг эканлиги аниқланди (2-расм, А).

Авлод: *Etiella* Zeller, 1839. Авлод вакиллари Шимолий ва Жанубий Америка, Африка, Европа, Австралия ва Осиё минтақаларида тарқалган. Асосан дуккакдошларга мансуб ўсимликларда ҳаёт кечиради [28].

***Etiella zinckenella* Treitschke, 1832 (Акация парвонаси).** Ушбу тур Жанубий ҳамда Шарқий Европа, Шимолий Африка, Кичик Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқ, Марказий Осиё, Ҳиндистон, Хитой ва Японияда кенг тарқалган [6]. Синёв томонидан Россиянинг ўрта ва жанубий Европа, ғарбий ҳамда шарқий Кавказ, Қрим, жанубий Урал худудларида тарқалганлиги қайд этилган [10]. Шунингдек, Эроннинг шимолий-ғарбий қисмида ҳамда шарқий Озарбайжонда мазкур турнинг паразитлари ўрганилган [23]. Кўплаб мамлакатларнинг маданий ценозларида дуккакли экинларнинг жиддий зараркунандаси ҳисобланади. Жанубий Фарғонанинг адир олди худудларидаги агроценозлардан 2 дона капалаги қайд этилди. Ўзбекистон энтомофаунасида илгари учратилмаган.

Аниқланган жойи ва муддати: Фарғона тумани Саткак қ. (14.06.2021) ♂1; Оқбилол қ. (24.07.2021) ♂1.

Агроценоздаги озуқа ўсимлиги: Phaseolus vulgaris; Vigna radiata; Pisum; Glycine max; *Medicago sativa*.

Қисқача морфологик тавсифи: Капалак олдинги қанотининг ранги қизғиш жигарранг бўлиб, қанотнинг асос қисмига яқин жойдан қизғиш ҳамда сариқ лентасимон ҳошиялар кўндалангига кесиб ўтган. Қаноти оқ ғуборлар билан қопланган. Танасини узунлиги 7,5 мм, олдинги қанотининг узунлиги 9 мм ни ташкил этади. Капалакнинг боши сарғиш, оёқлари оқ рангда. Мўйловлари ипсимон кўринишда (2-расм, В).

Авлод: *Ancylosis* Zeller, 1839. Ушбу авлод вакиллари хилма-хил бўлиб, дунё миқёсида 175 та турларни бирлаштиради. Хусусан, Палеарктика минтақасида 125 та, Европада 49 та турлари қайд этилган [20]. Россиянинг тангачақанотли ҳашаротлар каталогига 38 та турлари киритилган [10]. 2018 йилда Қозоғистонда ушбу авлодга мансуб 2 та янги тур қайд этилган [26].

***Ancylosis hellenica* Staudinger, 1871.** Ушбу тур Россия, Болгария, Греция, Туркия ҳамда Афғонистонда қайд этилган. Туркияда илк бор 1964 йилда Анқарада қайд этилиб, тавсифланган [30]. Ҳ.Амсел томонидан 1956 йилда Афғонистоннинг Сароби худудида илк

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

бор аниқланган [20]. Илмий манбаларда мазкур тур ҳақида маълумотлар кам. Хусусан, *Ancylosis hellenica*ни Ўзбекистон энтомофаунасида тарқалишиги оид маълумотлар мавжуд эмас. Фарғона водийсининг жанубий худудлари агроценозларида илк бор қайд этилди.

Аниқланган жойи ва муддати: Фарғона тумани Чекшўра қ. (29.05.2020) ♂1; Қувасой шаҳри Кокилон қ. (12.05.2021) ♀1; ♂1.

Агроценоздаги озуқа ўсимлиги: Beta vulgaris.

Қисқача морфологик тавсифи: Капалакни олдинги қанотини ранги сарғиш, айрим индивидларида сарғиш кулранг. Олдинги қанотининг асос қисмига яқин ва ўрта қисмидан қизғиш сиёҳранг ҳошия кесиб ўтган. Қанотнинг учки қисмида шунга ўхшаш ҳошиялар бирлашиб, учбурчаксимон кўриниш ҳосил қилган. Наъмуна учун олинган капалак олдинги қанотининг узунлиги 8 мм, эни 3 мм ни ташкил этди. Кейинги қаноти оч кулранг (айримларида қорамтир кулранг). Кейинги қанотининг узунлиги 6 мм, эни 4,5 мм. Капалак танасининг узунлиги 8 мм, қанотлари ёзилганда кенглиги 19 мм га тенг эканлиги аниқланди (2-расм C).

Авлод: *Coenochroa* Ragonot, 1887. Ушбу авлодни Австралиядан ташқари барча худудларда 10 га яқин турлари қайд этилган. Палеарктика минтақасида 1 та тури учраши таъкидланган [21].

***Coenochroa ablutella* Zeller, 1839.** Украиналик олим Бидзиля томонидан (2020) мазкур турнинг 8 та синоними келтирилган бўлиб, улардан *Anerastia flaveolella* ни Ўзбекистонда, хусусан, Марғилонда 1887 йилда таниқли олим Рагонот томонидан "Diagnoses d'espèces nouvelles de Phycitidae d'Europe et des pays limitrophes" ("Европа ва чегарадаги мамлакатларда Phycitidae янги турларининг таҳлиллари") номли илмий асарида қайд этилгани таъкидланган [21]. Ушбу асардаги (260-бетда) турнинг қанотлари морфологиясига оид қисқача тавсиф *Coenochroa ablutella* га яқин келса-да, айнан шу тур эканлиги ҳақида хулоса чиқариш учун етарли эмас. Ўзбекистонда ушбу турнинг учраши тўғрисида бошқа маълумотлар мавжуд эмас. Фарғона водийси шароитида кенг тарқалган бўлиб, капалаклари май ойи бошидан октябрь ойига қадар учрайди. Қуртлари маккажўҳори ҳамда жўҳори ўсимликлари билан трофик алоқага эга.

Аниқланган жойи ва муддати: Мингбулоқ тумани Қорашаҳар қ. (27.06.2019) ♂3; Терак қ. (09.07.2020) ♂3; ♀1; Чуст тумани Саримсоқтепа қ. (16.06.2019) ♂2; Улуғнор тумани Сариқсув қ. (11.07.2020) ♂5; ♀2; Фарғона тумани Чекшўра қ. (07.05.2019) ♂3; (14.07.2020) ♂2; ♀1; Чимён қ. (14.09.2022) ♂4; Хўжаобод тумани Ипакчи қ. (11.05.2020) ♂3.

Агроценоздаги озуқа ўсимлиги: Zea mays; Sorghum.

Қисқача морфологик тавсифи: Капалак олдинги қанотининг ранги оч сарғиш рангда бўлиб, қанотнинг ўрта қисмида қора нуқтаси кўзга ташланиб туради. Қанот учи бўйлаб ҳам майда қора нуқтачалари бор. Олдинги қанотининг узунлиги 8 мм, эни 3 мм ни ташкил этади. Кейинги қаноти тиниқ оқиш рангда бўлиб, узунлиги 7 мм, эни 6 мм. Мўйловлари ипсимон кўринишда, узунлиги 5 мм. Капалак танасини узунлиги 7 мм, қанотлари ёзилганда кенглиги 18 мм ни ташкил этади (2-расм, D).

Авлод: *Nyctegretis* Zeller, 1848. Авлод вакиллари Европа, Жанубий Африка ва Осиёда тарқалган. Россияда 3 та тури рўйхатга олинган [10].

***Nyctegretis lineana* Scopoli, 1786.** Европадан Хитой, Корея, Монголияга қадар [29], шунингдек Туркияда [22] тарқалганлиги қайд этилган. Ушбу турни Марказий Осиё

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

минтақасида учрашига оид маълумотлар келтирилмаган. Фарғона водийси шароитида капалаклари май ойи бошидан сентябрь ойига қадар учрайди.

Аниқланган жойи ва муддати: Хўжаобод тумани Ипакчи қ. (11.05.2020) ♂2; Фарғона тумани Саткак қ. (08.05.2021) ♂3, ♀1; Водил қ. (11.06.2021) ♂2; Чекшўра қ. (28.08.2022) ♂1, ♀1.

Агроценоздаги озуқа ўсимлиги: *Medicago sativa*.

Қисқача морфологик тавсифи: Капалак олдинги қаноти қизғиш қўнғир рангда бўлиб, қанотнинг ўрта қисми ҳамда кейинги қисмидан оқиш рангда кўндаланг лентасимон ҳошия кесиб ўтган. Қанот охиридаги ҳошиядан кейинги учки қисми нисбатан оч рангда ажралиб туради. Олдинги қанотининг узунлиги 8 мм, эни 3 мм га тенг. Кейинги қаноти оч кулранг, узунлиги 7 мм, эни 5 мм. Капалакнинг танасини узунлиги 7,5 мм, қанотлари ёзилганда кенглиги 17,5 мм ни ташкил этади (2-расм, Е).

Хулосалар. Фарғона водийси агроэкотизимларида парвона капалакларнинг *Oncocera semirubella*, *Coenochroa ablutella*, *Etiella zinckenella*, *Ancylosis hellenica*, *Nyctegretis lineana* турлари илк бор қайд этилди. *Oncocera semirubella* Фарғона водийсининг Марказий Фарғона минтақасига яқин (Мингбулоқ т., Терак қ., Улуғнор т., Сариқсув қ.) ҳамда жанубий худудлари (Фарғона т., Саткак қ., Оқбилол қ.) агроценозларида учратилди. *Coenochroa ablutella* нисбатан кенг тарқалган бўлиб, Фарғона водийсининг шимолий-ғарбий (Чуст т., Саримсоқтепа қ.), шарқий (Хўжаобод т., Ипакчи қ.), Марказий Фарғона минтақасига яқин (Мингбулоқ т., Терак қ., Улуғнор т., Сариқсув қ.) ҳамда жанубий худудлари (Фарғона т., Чекшўра қ., Чимён қ.) агроценозларида қайд этилди. *Etiella zinckenella* ҳамда *Ancylosis hellenica* жанубий Фарғонанинг адир олди худудларидаги (Фарғона т., Саткак қ., Оқбилол қ. ҳамда Фарғона т., Чекшўра қ., Қувасой ш., Кокилон қ.) агроценозларда локал тарқалган. *Nyctegretis lineana* водийнинг шарқий (Хўжаобод т., Ипакчи қ.) ҳамда жанубий (Фарғона т., Саткак қ., Чекшўра қ., Водил қ.) худудларида учратилди. *Etiella zinckenella* маданий ценозларда дуккакли ўсимликларнинг бир нечта турлари (Phaseolus vulgaris, Vigna radiata, Pisum, Glycine max, *Medicago sativa*) билан озиқланиши мумкин. *Oncocera semirubella*, *Nyctegretis lineana* беда ўсимлиги билан, *Ancylosis hellenica* лавлаги ўсимлиги, *Coenochroa ablutella* маккажўхори ҳамда жўхори ўсимликлари билан трофик алоқага эга.



www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2-расм. *Oncocera semirubella* (A), *Etiella zinckenella* (B), *Ancylosis hellenica* (C), *Coenochroa ablutella* (D), *Nyctegretis lineana* (E) капалакларининг оригинал фотосуратлари.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Большаков Л.В., Полумордвинов О.А., Шибаев С.В. Огневки (Lepidoptera: Pyraloidea) Пензенской области // Кавказский энтомол. бюллетень. – 2009, № 5(1). - С. 91-110.
2. Гладун В.В., Кустов С.Ю. Определитель насекомых (Arthropoda: Insecta) заказника «Камышанова Поляна»: Монография // – Краснодар: Кубанский гос. ун-т, 2016. - 258 с.
3. Дусманов С., Ярашев Р., Убайдуллаев С. Инсектоакарицидларнинг мойли экинлар зараркунандаларига таъсири // Агросаноат мажмуи тармоқларида инновацион бошқарув фаолиятини модернизациялаш ва ривожлантириш муаммолари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2014. – Б. 122-124.
4. Жабборов А.М. Фарғона водийси айрим агроценозларидаги муҳим ҳашаротларнинг экологияси: Биол. фан. номз. …дисс. автореф. –Тошкент, 1997. - 20 б.
5. Зокиров И. И. Марказий Фарғонанинг сабзавот-полиз экинлари хашаротлари фаунаси ва экологияси // Биол. фан. докт. дисс.(DSc) автореф.-Тошкент. – 2019. – Т. 59.
6. Кузнецов В.И. Насекомые и клещи – вредители сельскохозяйственных культур. Том III. Чешуекрылые. Ч. 2. -СПб.: Издательство "Наука", 1999. - 410 с.
7. Лантухова И.А. Огнёвкообразные чешуекрылые (Lepidoptera, Pyraloidea) заповедника «Бастак». Диссертация на соискание учёной степени кандидата биологических наук. Благовещенск, 2016. - 161 с.
8. Мирзаева С.А. Анор ва анжир зараркунандаларига қарши уйғунлашган кураш тизимини яратиш: Биол. фан. номз. …дисс. автореф. – Тошкент, 2010. - 20 б.
9. Мустафакулов Х. Основные вредители в агроценозах важнейших сельскохозяйственных культур Ферганской долины и управление их численностью энтомофагами: Автореф. дисс. ... канд. биол. наук. –Баку, 1992. - 21 с.
10. Синёв С.Ю. Каталог чешуекрылых (Lepidoptera) России (Второе издание). – Санкт-Петербург: Зоологический институт РАН, 2019. - 448 с.
11. Султанов Р.А. Биология и экология тутовой пяденицы в Узбекистане: Автореф. дисс. ...канд. биол. наук. – Воронеж, 1985. - 24 с.
12. Хамдам-зада Т.К. Непарный шелкопряд в абрикосовых садах северо-восточных районов Средней Азии и меры борьбы с ними: Автореф. дисс. ...канд. биол. наук. –Ташкент, 1972. -22 с.
13. Хўжаев Ш.Т. Ўсимликларни зараркунандалардан уйғунлашган ҳимоя қилиш, ҳамда агротоксикология асослари. – Тошкент, 2014. - 540 б.
14. Шерматов М. Тут парвонаси (*Glyphodes pyloalis* Walker) нинг Фарғона водийсида тарқалиши, биологияси ва экологик хусусиятлари. Автореф. б. ф. номзоди унвони учун // Тошкент, 2010. -23 б.
15. Шерматов, М. Р. Фарғона водийси агроэкотизимлари тунламсимон тангачақанотлилари (Insecta, Noctuoidea) фаунаси. Academic Research in Educational Sciences, (2021). 2(10), 1014-1025. https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-10-1014-1025.
16. Юсупов. А.Х. Мевали боғлар тангачақанотлилари (Insecta, Lepidoptera) биоэкологияси ва уларнинг сонини бошқариш: Қ/х. фан. докт. …дисс. автореф. –Тошкент, 2016. - 73 б.
17. Яхонтов В.В. Ўрта Осиё қишлоқ хўжалиги ўсимликлари ҳамда маҳсулотларининг зараркунандалари ва уларга қарши кураш. –Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. - 696 б.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

18. Abhishek Pareek et.al. Impact of Climate Change on Insect Pests and Their Management Strategies. In book: Climate Change and Sustainable Agriculture, 2017. –P. 253-286.
19. Alma M. Solis. Phylogenetic studies and modern classification of the Pyraloidea (Lepidoptera). Revista Colombiana de Entomología, 2007. Vol. 33 (1). –P. 1-9.
20. Bidzilya O., Budashkin Y., Yepishin V. A review of the genus *Ancylosis* Zeller, 1839 (Lepidoptera: Pyralidae: Phycitinae) from Ukraine. Zootaxa, 2019. Vol. 4657 (3). –P.437-473.
21. Bidzilya O., Budashkin Y., Yepishin V. Review of the tribe Anerastiini (Lepidoptera: Pyralidae: Phycitinae) from Ukraine. Zootaxa, 2020. Vol. 4718 (1). –P. 001-024.
22. Koçak Ahmet Ö. & Muhabbet Kemal. On the Pyralidae of South East Turkey (Lepidoptera). Cesa News, 2015. Vol.119. –P.11-37, 18 figs. https://zoobank.org/References/7885B5BF-09A4-497C-BBED-CC1F6A40C2C3
23. Lotfalizadeh H. & Hosseini F. Chalcidoid parasitoids (Hymenoptera) of *Etiella zinckenella* (Treitschke) (Lep.: Pyralidae) on *Sophora alopecuroides* L. in Iran. North-Western Journal of Zoology . – Romania, 2014. Vol. 10 (2). –P. 251-258.
24. Shermatov M, Botirov E, Mukhammedov M, Qayumova O, Mirzaeva Z, Sotvoldieva G. Distribution of Butterflies of the Family Sphingidae (Insecta, Lepidoptera) in the Fergana Valley. International Journal of Virology and Molecular Biology. 2021;10(2):27-33. http://article.sapub.org/10.5923.j.ijvmb.20211002.01.html.
25. Shermatov M.R. Fargona vodiysi tangachaqanotli hasharotlar (Lepidoptera) faunasining agroekotizimlarda taqsimlanish xususiyatlari. Academic Research in Educational Sciences, 2022. 3(3), 566-576. https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-3-566-576 .
26. Tsvetkov E.V. Description of two new species of the genus *Ancylosis* Zeller, 1839 from Russia and Kazakhstan (Lepidoptera: Pyralidae, Phycitinae). Shilap Revta. lepid. –2018. Vol. 46. №182. P. 241-249.
27. Umurzakova Kh., Kayumova Y. Biology of caterpillar of Pomegranate seed moth (*Euzophera punicaella* Zeller) and specific features of fodder Plant infection. International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). Volume: 6. Issue:3. March 2020. –P. 179-182.
28. Whalley P.E.S. The genus *Etiella* Zeller (Lepidoptera: Pyralidae): a zoogeographic and taxonomic study. Bull. British Museum, Entomology, 1973. Vol. 28. №1. –P. 1-21.
29. Yang-Seop Bae, Munki Paek, Mujie Qi. Insect Fauna Of Korea. Pyralid Moths II. National Institute of Biological Resources Ministry of Environment, Korea. 2017. Vol. 16. №15. https://www.nibr.go.kr/aiibook/access/ecatalogs.jsp?start=5&Dir=158&catimage=&callmode=admin.
30. https://lepiforum.org/.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

УДК 581.1

ЗАВИСИМОСТЬ КОНЦЕНТРАЦИИ КЛЕТОЧНОГО СОКА ЛИСТЬЕВ СОИ ОТ ВЛАЖНОСТИ ПОЧВЫ

Фозилов Шерзод Мусурмонович
Докторант(PhD) Национального университета Узбекистана,
E-mail: sherzodfozilov@mail.ru *Тел:+998937629034*

Аннотация: *В статье проанализирована динамика изменения концентрации клеточного сока листьев растений сои в условиях нормальной и ограниченной влаги и периодов вегетации.*

Ключевые слова: *сорта сои, концентрация клеточного сока листьев, диагностика, водный дефицит.*

UDK 581.1

SOYA O'SIMLIGI BARGLARNING HUJAYRA SHIRASI KONSENTRASIYASINI TUPRAQ NAMLIGIGA BOG'LIQLIGI

Fozilov Sherzod Musurmonovich
O'zbekiston milliy universiteti Tayanch doktoranti.
E-mail: sherzodfozilov@mail.ru *Тел:+998937629034*

Annotatsiya*. Maqolada soya o'simligi normal namlik sharoiti va cheklangan namlik sharoitida hamda vegetatsiya davrlari bo'yicha barg hujayra shirasining konsentratsiyasi o'zgarish dinamikasi tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Soya navlari, barg hujayra shirasining konsentratsiyasi, diagnostika, suv tanqisligi*

UDC 581.1

THE DEPENDENCE OF CELL SAP CONCENTRATION OF SOY PLANT LEAVES ON SOIL MOISTURE

Fozilov Sherzod Musurmonovich
Doctoral student of the National University of Uzbekistan
E-mail: sherzodfozilov@mail.ru *Tel:+998937629034*

Annotation: *The paper analyzes the dynamics of changes in the concentration of leaf cell sap in soybean plants under normal and limited moisture conditions and vegetation periods.*

Key words: *soybean varieties, concentration of sap cells, diagnostics, water deficit.*

Kirish

Тунлам капалаклари сийрак ўсган ғўза ниҳоллари ва бегона ўтларга тухум қўйиши ҳам кузатилди. Бир дона урғочи капалак ўртача 500-800 донагача, айримлари эса 1800 донагача тухум қўйишига гувоҳ бўлдик. Капалаклар тухумларининг асосий қисмини баргнинг остки юзасига қўяди. Янги қўйилган тухумлар оқ бўлади. Эмбрионал ривожланиш ташқи муҳит ҳароратига боғлиқ ҳолда 3-6 кун давом этади. Ғўза, нўхат экинларида тухумларнинг яшовчанлиги юқори бўлади. Капалак тухуми 50^0С фойдали ҳарорат олгандан сўнг, улардан майда қуртлар чиқади. Даладан йиғиб келинган тухумлардан лаборатория шароитида узунлиги 1,2- 1,5 мм, боши қора, танаси кулранг-яшил тусли, танаси туклар билан қопланган личинкалар чиқди. Баҳорда қуртлар 25-30 кун ҳаёт кечиради. Кичик ёшдаги личинкаларнинг ривожланиши учун 25-30^0 ҳарорат ва 50-80% намлик энг қулай шароит ҳисобланади. Шу сабабли баҳор ва кuздаги личинкалар ёз мавсумидагиларга нисбатан анча йирик бўлади [6].

IV ёшда личинкалар ранги тўқ тусга киради. V- VI чи ёшда эса уларнинг тана узунлиги 5-6 см га етади. Нўхатга илдиз қуртининг асосан 1- авлоди зарар етказади. Кузги тунлам нўхат ёш ниҳолларининг ўсиб чиқиш даври (3 чи жуфт чин барглар чиқиш фазаси) да кемириб зарарлайди. Биринчи ёшдаги личинкалар ўсимлик баргини буйраксимон шаклда ўйиб, шикастлайди. Иккинчи ёшда эса ёш ниҳолларнинг илдиз бўғзини ярим ойсимон шаклда ўйиб кемиради. Қуртлар таъсирида экинларнинг уруғпаласидаги илдиз ва бошланғич барглари қуриб қолиши кузатилди (21.IV.2019). Нўхат ниҳоллари пояси қотгандан сўнг зарар етказа олмайди.

Кейинги авлодларидан баҳорда бузиб экилган ва кечки сабзавот-полиз ҳамда такрорий экинлар қаттиқ зарар кўради. Личинкалар нормал ҳароратли нам ва ғовак тупроқни хуш кўриб, тупроқнинг 2-3 см чуқурликдаги қатламига киради. Ғумбакка киришдан аввал 2-3 кун мобайнида улар озиқланмайди. Бу вақтда улар танасидан сувни ажратиб, ўлчами кескин қисқаради. Шунингдек, ҳаракатланишдан тўхтаб, дағал терисини ташлайди ва бешикча ичида ғумбакка киради. Об-ҳаво шароитига қараб баҳорда 15 кундан 30 кунгача ғумбак ҳолида яшайди. Қурғоқчилик шароити ва қуруқ тупроқ ғумбакка салбий таъсир қилади. Нормал шароитларда 10-20 кундан сўнг ғумбаклар капалакка айланади.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Бунда фойдали ҳарорат йиғиндиси 150^0 С даражасига етганда ғумбакдан капалаклар учиб чиқа бошлайди. Капалаги қанот ёзганда 4 см гача боради. Олдинги қаноти сарғиш кулранг, буйраксимон доғлари бор, орқа қаноти оқ тусда. Бегона ўтларга қарши кураш кечиктирилганда тунлам қуртлари ёш ғўза ниҳолларига 5-7 чин баргли фазасида зарар келтиради. Бегона ўтлардан ҳоли бўлган ғўза майдонларида кемирувчи тунламлар кам сонда учрайди. Мазкур экин майдонларида тунлам қуртлари калорияли озиқа етишмовчилигидан нобуд бўлади. Шунингдек паразит ва йиртқич энтомофаглар уларнинг сонини чеклаб туради.

Марказий Осиёнинг турли географик шароитларида тунлам 4-5 авлод беради [10]. Тадқиқот йилларида вилоят шароитида тунламнинг 4 авлоди тўлиқ етилиши кузатилди. Зараркунанда етук қурт ҳолида тупроқнинг 10-15 см чуқурлигида қишлаб чиқади. Ҳайдалмаган ерларда тунламнинг қишлаб қолган личинкаларига бой бўлиб, илиқ келган қиш кунлари зараркунандани келгуси йилда оммавий кўпайиши учун замин яратади. Март ойининг 2-3 ўн кунлигида қишлаб чиққан илдиз қурти суткалик ҳарорат 10^0С дан ошганда тупроқнинг устки қатламига кўтарилиб 5-6 см чуқурликда ғумбакка айланади. Биринчи авлоди жуда сермаҳсул бўлади. Ёзги генерациялар эса об ҳавонинг иссиқ ва тупроқда намликнинг пастлиги, нектар сақловчи ўсимликларнинг етишмовчилиги боис кам насл беради. Кузги авлоди юқори насл бериб, деярли барча кечки сабзавот экинлари тунлам билан кучли зарарланади

Хулосалар

Кузги тунламнинг табиатдаги биринчи авлоди бегона ўтлар, нўхат, ғўза каби ўсимликларда ривожланади. Кейинги авлодлари сабзавот экинларини жиддий зарарлайди. Шунинг учун қарши кураш чораларини ишлаб чиқишда зараркунанданинг биоэкологик хусусиятларини ҳисобга олиш лозим.

Адабиётлар

1. Алимухамедов С., Хўжаев Ш. Ғўза зараркунандалари ва уларга қарши кураш. - Тошкент: “Меҳнат”, 1991.- 193 б.

2. Zokirov I.I. Markaziy Farg‘onaning sabzavot-poliz ekinlari hasharotlari faunasi va ekologiyasi: Biol. fan. dokt. (DSc) ...diss. avtoref. – Toshkent, 2019. - 59 b.

3. Норқулов А.Н. Жиззах вилоятининг лалми шароитида нўхат биоценозидаги зараркунандалар сонини бошқариш усуллари: Қ\х. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 42б.

4. Палий П.Ф. Методика фенологических и фаунистических исследований насекомых. – Фрунзе, 1966. -154 с.

5. Сулаймонов Б.А. Иссиқхоналарда сабзавот экинлари зараркунандалари, биоэкологияси ва улар сонини бошқаришнинг биологик асослаш: Биол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 45 б.

6. Тилавов Т., Ураков А., Кудратов Г. Биология и вредоносность озимой совки - *Agrotis segetum Schiff. (Lepidoptera, Noctuidae)* в условиях Кашкадарьинской области. // Международный научный журнал «Символ науки», № 3/2018. – С.16-18.

7. Фасулати К.К. Полевое изучения насекомых беспозвоночных. – М.: Высшая школа, 1971. - 96 с.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

8. Хасанов Б.О. и др. Вредители и болезни хлопчатника. Ташкент: “Университет”, 2002. – 379 с.
9. Яхонтов В.В. Вредители сельскохозяйственных растений и продуктов Средней Азии и борьба с ними. – Ташкент. 1953. – 661 с.

GILOS (*PRUNUS AVIUM*) NING LITTLE CHERRY (LCHV) VIRUSI VA UNING O‘ZIGA XOS ALOMATLARI

Amindjonova Gulmira Karimjonovna
Chirchiq davlat pedagaika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Bioligiya kafedrasi tadqiqotchisi
gulmira@mail.com.
Fayziev Voxid Baxromovich
Chirchiq davlat pedagaika instituti Tabiiy fanlar fakulteti
Bioligiya kafedrasi mudiri, b.f.d.
fvaxid@mail.ru
Yoqubjonov Olimjon Rahimjon o’g’li
Namangan davlat universitet, Biologiya mutaxassisligi magistranti
o.yoqubov@mail.ru

Аннотация: *So‘ngi yillarda gilos o‘simligining tez qurib qolishi, mevaning sifatsiz va mayda bo‘lib qolishi va to‘kilishi kabi salbiy holatlar ko‘plab kuzailmoqda. Bu esa tosh mevali o‘simliklardan sifatli meva va mo‘l hosil olishda iqtisodiy zararga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari dolzarbdir. Maqolada gilos o‘simligida kasallikning tarqalishini, hamda o‘simlik bargi va mevalaridagi alomatlari, mevalar tarkibini buzilishi, virusli kasalliklarning qishloq xo‘jaligi o‘simliklariga salbiy ta’siri haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Fitopotagen viruslar, nekrotik dog‘lar, xloroz, xlorofilning yemrilishi, iqtisodiy zarar, stilet, virus kasalliklari, simptom, yashil mozayka, olma mevaxo‘ri, uzum shirasi, fruktozanig kamayishi.*

Аннотация: *В последние годы произошел ряд негативных явлений, таких как быстрое усыхание черешни, плохое качество и мелкие размеры плодов, осыпание. Это приводит к экономическим потерям при получении качественных плодов и обильных урожаев косточковых культур. Поэтому исследования в этой области актуальны. В статье рассмотрено распространение болезни в вишне, а также симптомы на листьях и плодах растения, ухудшение состава плодов, негативное влияние вирусных заболеваний на сельскохозяйственные культуры.*

Ключевые слова: *Фитопотагенные вирусы, некротические пятна, хлороз, деградация хлорофилла, экономический ущерб, стилет, вирусные заболевания, симптомы, зеленая мозаика, яблочный уксус, виноградный сок, снижение фруктозы.*

Annotation: *In recent years, there have been a number of negative developments, such as rapid drying of the cherry plant, poor quality and small size of the fruit, and shedding. This leads to economic losses in the production of quality fruits and abundant crops from stone fruit plants. Therefore, research in this area is relevant. The article discusses the spread of the disease in the cherry plant, as well as the symptoms on the leaves and fruits of the plant, the deterioration of the composition of the fruit, the negative impact of viral diseases on agricultural crops.*

Keywords. *Phytopotagenic viruses, necrotic spots, chlorosis, chlorophyll degradation, economic damage, stiletto, viral diseases, symptoms, green mosaic, apple cider vinegar, grape juice, decreased fructose.*

Kirish

Bugungi kunda dunyo miqyosida meva va sabzavotchilik o‘simliklarini yetishtirish import va eksportini mamlakatlar o‘rtasida jadallashuvi natijasida, turli o‘simlik urug‘lari va ko‘chatlarining bir davlatdan boshqa bir davlatga olib o‘tilishida b’azi hollarda o‘simlik ko‘chatlari va urug‘lari bilan birgalikda turli kasalliklar chaqiruvchi parazitlar ham kirib kelmoqda. Ushbu fitopatogen viruslar bog‘dorchilik va dehqonchillik sohalariga shu jumladan hosildorllikning keskin pasayishiga olib keladi. Bu esa har bir mamlakatning iqtisodiyotiga jiddiy ta’sir qiladi. Ushbu kassallik qo‘zg‘atuvchilardan biri gilos (LCHV) virusidir.

O‘rganish obekti va metodlari

Gilos (*Prunim avium*) o‘simligi vitaminga va menerallarga boyligi va imunitetni ko‘tarish xususiyati barchaga ma’lumdir. Shuning uchun ham gilos yetishrtish jahonnig bir qator rivojlangan mamlakatlarida, shu jumladan bizning mamlakatimizda ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Gilos yetishtirish dunyo miqiyosida yiliga 2,3 milion tonnaga yetgan. Osiyo (43%), Yevropa (37%) va Amerika (18%) gilos yetishtiradi [1]. Hozirgi kunda gilos ekspotri boshqa meva eksporti singari respublikamizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa bog‘dorchilikda sifatli va mo‘l hosil olishni talab etadi. Mevalarning sifatiga va hosildorlikka salbiy tasir qiluvchi omillardan biri o‘simlik viruslaridir. Fitopatogen viruslar gilos (Prunus avium) o‘simligida ham turli darajadagi kasalliklarni keltirib chiqaradi. Gilos o‘simligida kasallik keltirib chiqaruvchi viruslarning 20 ga yaqin turi fanga ma’lum bo‘lib, ushbu viruslarga misol qilib, Little cherry virusi (LCHV), cherry mottle leaf virusi (CHMLV), straw berry latent rasp virus (SLRV), prunus nekrotik ringspot virusi (PNRSV) va boshqa viruslarni misol qilish mumkin [7]. Gilos (Prunus avium) o‘simligida kasallik keltirib chiqaruvchi fitoviruslardan biri little cherry virusi (LCHV) dir. Birinchi marta 1938 yilda Kanadaning Kootenay vodiysida kasallangan gilos daraxtlarida aniqlangan. Shu yili little cherry virusi Kanadadajuda katta epidemiyaga sabab bo‘lgan. Buning natijasida yirik gilos bog‘laridagi gilos daraxtlari yalpisiga olib tashlangan.

Little cherry virus (LCHV) *Closteroviridae* oilasiga mansub virus bo‘lib, ikki turi mavjud. Bu viruslar little cherry virus -1 (LChV-1) va Little cherry virus -2 (LChV-2). Little cherry virus -2 *Ampelovirus* avlodiga mansub bo'lsa, little cherry virus-1 *Velarivirus* avlodiga mansubdir [8]. Little cherry virus-1 gilos daraxtlaridan tashqari olxo'ri, bodom va shaftoli daraxtlarida ham qayd etilgan [8] Litle cherry virus-1 bilan kasallangan o‘simliklarning hosildorligi pasayadi. Ba’zi hollarda hosildorlik 12-65% gacha pasayishi kuzatiladi.

Little cherry virusi (LCHV) ning ikki turi keltirib chiqaradigan kasallik kachil olcha kasalligi deb yuritiladi. WSU/OSU Extension (Molnar, 2021) tomonidan o'tkazilgan so'nggi so'rovga ko'ra, 2015 va 2020 yillar oralig'ida Kichkina olcha kasalligi tufayli 974 gektar shirin gilosga teng 238 856 dan ortiq daraxt olib tashlangan. Kesilgan daraxtlar sanoat daromadini 2020 yilda taxminan 30 million dollarga va 2015 va 2020 yillar orasida 65 million dollarga kamaytirdi. Qayta tiklashning yetti yillik davrida yo‘qotilgan daromadlar va ishlab chiqaruvchilarning o‘rnatish xarajatlari taxminan 115 milion dollarni tashkil etadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, gilos viruslari gilos yetishtiruvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Gilos (Prunus avium)ning little cherry virusi (LCHV) va uning kasallik belgilari. Gilos o‘simligida ushbu kasallik bir necha yil davomida rivojlanadi.

1. 1-2 yosh: kichik mevalar bitta shox bilan cheklanishi mumkin, meva rangi normal rivojlanishi mumkin yoki alohida rangsiz mevalar kuzatilishi mumkin.
2. 2-3 yil: tizimli infektsiyalangan daraxt, ko‘p yoki barcha shoxlarda kichik meva kuzatiladi va och rangli mevalar rivojlanishi aniqlanadi.
3. 4+ yil: navga bog‘liq, ammo meva hosildorligining keskin pasayishi bilan tavsiflanadi. Ta'mga ega bo'lmagan normal va kichik o'lchamdagi mevalarni keltirib chiqaradi [5].

Asosiy alomatlar yig‘im-terim paytigaca uncha sezilmaydi. Hosil pishganda mevalarning rangi och qizg‘ish yoki pushti rangli bo‘lib qolishi kuzatiladi. Virus mevalarning sifatiga ham jiddiy ta‘sir qiladi. Virus bilan kasallangan gilos mevalarida asosan fruktoza miqdori keskin pasayadi, bununig natijasida mevalar ta’msiz chuchmal yoki achchiq ta’mli bo‘lib qoladi. Mevalarning shakli kichik va uchli bo‘lishi kuzatiladi (1-rasm).

b.

1-rasm. Virus bilan kasallangan o’simlik (a) va sog‘lom o’simlik mavasi (b) [5].

Little cherry virusi bilan kasallangan gilos daraxtlari bir oz kuchsizlanadi, ammo daraxtning umumiy xolatiga sezilarli ta’sir qilmaydi. Gilosning ba’zi navlarida meva shakli va rangi keyinchalik qaytishi mumkin, lekin meva ta’mi hech qachon tiklanmaydi. Little cherry virusi-1 ta’sirida gilos barglarida erta kuzda qizg‘ish rang rivojlanadi.

Little cherry-2 virusi asosan little cherry 1 virusidan deyarli farq qilmaydi. Meva rangining och rangda bo‘lishi, mava ta’minihg o‘zgarishi, meva shaklining kichiklashishi kabi belgilar kuzatiladi. Little cherry 2 virusining simptomlarini daraxtning barcha to‘qimalarida yil bo‘yi aniqlash mumkin. Gilos barglarida qizg‘ish dog‘larni yil davomida kuzatish mumkin [5]. Ba'zi gilos navlarida barglarda kasallik belgilari namoyon bo‘ladi. Barglarning biroz chekka burilishidan va barg yuzalarining qizarishi belgilar kuzatiladi.

Little cherry virusi (LCHV) bilan kasallangan gilos o‘simliklarining hammasida ham kasallik belgilari kuzatilmasa ham barcha mevalar sifatsiz bo‘ladi.

Kichik olcha kasalligi gilosdan tashqari olxo‘ri, shaftoli kabi bir qancha tosh mevali o‘simliklarda ham uchraydi. Kasallik belgilari odatda shaftoli va olxo‘rida sarg'ayib ketgan jingalak barglar va barglardagi o‘q tomirlardagi teshiklari, shuningdek mayda deformatsiyalangan mevalar bilan bilan namoyon bo‘ladi. Infektsiyalangan shaftolida barglarning sarg'ayishi kuzatiladi. Bu asosan o'rim-yig'imdan taxminan ikki oy oldin paydo bo'la boshlaydi va asta-sekin yomonlashadi, o‘rim-yig‘im mavsumi o'tgandan so‘ng barglarda teshiklar paydo bo'lishni boshlaydi [9].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

a

b

2- rasm.Shaftolida kichk olcha kasalligining belgilari (a) meaning kichiklashishi (b) barglar shaklining o‘zgarish va nekrotik dog‘larning hosil bo‘lishi [7].

Little cherry virusi (LCHV) asosan payvandlash, o‘simliklarga umumiy ishlov bersh va o‘simlik shira-bitlari orqali yuqishi aniqlangan. Olma *mevaxo’ri* (*Phenacoccus aceris*) va uzum *shirasi* (*Pseudococcus maritimus*) LChV-2 ning asosiy vektorlari hisoblanadi. Ushbu hashorotlar gilos o‘simligida parazitlik qiladi va LChV-2 vrusini tarqatadi.

a b

7-rasm. Little cherry virusining tarqatuvchilari a)Uzum shirasi (Pseudococcus maritimus) b)Olma mevaxo’ri (Phenacoccus aceris) [7]

Little cherry virus-1 uchun hasharotlar vektori ma'lum emas. O‘simlik shira –bitlariga qarshi samarali kurash olib borilgan hududlarda o‘simliklarda virusli kasalliklar chalinish birmuncha kam aniqlangan.Infektsiyalangan o‘simlik kurtaklari yoki ildizpoyani payvand qilish ham kasallikni tarqalishiga sababchi bo‘ladi, shuningdek, tabiiy ildizpoyalar orqali ham virus yuqishi mumkin. O‘simlik shiralariga qarshi kurashilagan maydonlardagi o‘simliklarda virusga chalinish holatlari kam kuzatilgan. Little cherry virusiga qarshi turli yollar qo‘llanib ko‘rilgan, ammo kop ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu virusga qarshi kurashishning yagona yo‘li bu virus bilan kasallangan o‘simliklarni olib tashlashdir. Gilos daraxtlari olib tashlangandan so‘ng ildizlari ham olinishi lozim, aks holda boshqa sog‘lom o‘simliklarga ildiz orqali ham yuqishi mumkin

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Xulosa

Umuman olganda, ushbu olib borilgan tadqiqot natijasi va virus zararining juda yuqoriligini e'tiborga olgan holda shuni aytish mumkinki, fitoviruslar o'simliklarning o'sib rivojlanishiga va hosildorligiga jiddiy zarar yetkazadi. Buning natijasida mamlakat iqtisodiyoti va bog'dorchilik kata zarar ko'rishi mumkin. Gilos viruslari ham gilos yetishtirish va gilos eksportiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunig uchun gilos viruslarini aniqlash, biologiyasini o'rganish va yuqish vektorlarini anqlash zarur. Gilos viruslari tarqalagan xududlarda monitoring ishlarini olib borish va kasallangan daraxtlarni olib tashlash kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sattorov M., Sheveleva A. A., Fayziev V., Chirkov S. (2020). First report of Plum pox virus on plum in Uzbekistan. Plant Disease, Published Online:1 Jul 2020https://doi.org/10.1094/PDIS-03-20-0456-PDN

2. Field Guide to Sweet Cherry Diseases in Washington. By Kenneth C. Eastwell, Gary A. Grove, Dennis A. Johnson, Gaylord I. Mink, Ralph S. Byther, Ronald P. Covey, Jr., and Robert Parker.

3. Ceroska N, Moravec T, Plchovec H, Hoffmeisterova H, Folwarezna J, Dedic P.(2010) Production of polyclonal antibodies to Potato Virus X using recombinant coat protein. J. Phytopathology Vol.158, pp. 66-68.

4. Subcommittee on Plant Health Diagnostics (2018). National Diagnostic Protocol for Cherry leaf roll virus (cherry and walnut strains) NDP10 V2. (Eds. Subcommittee on Plant Health Diagnostics) Authors Rodoni B, Mackie J and Constable F; Reviewer Thomas J, Veerakone S. ISBN-13: 978-0-6481143.

5. Written by: Scott Harper, WSU Plant Pathology; Andrea Bixby Brosi, Betsy Beers, WSU Entomology; Tianna DuPont, WSU Extension. Updated May 2019. Updated April 2020. Updated June 2020.

6. Deikmann M., Putter C.A.J. Stone Fruits. FAO/IPGRI Technical Guidelines for the Safe Movement of Germplasm. No. 16 b- 35 2.

7. Woo E.N. Y. & G. R. G.Clover & M. N. Pearson First report of Cherry leaf roll virus (CLRV) in Malus domestica Australasian Plant Dis. Notes (2012) 7:151–156 DOI 10.1007/s13314-012-0072-8 b-4 3.

8. Gall Le O. Cheravirus and Sadwavirus: Two unassigned genera of plant positivesense singlestranded RNA viruses formerly considered atypical members of the genus Nepovirus (family Comoviridae)/Gall Le O., H. Sanfacon, M. Ikegami,T.Iwanami, T. Jones, A. Karasev, K. Lehto, J. Wellink, T. Wetzel, N. Yoshikawa//Arch. Virol. – 2007. – Vol. 152. – P. 1767–1774

9. X Phytoplasma and little cherry virus scouting and sampling guide. *Compiled and edited by Tianna DuPont, WSU Extension; Scott Harper, WSU Plant Pathology; Bernardita Sallato, WSU Extension; Ashley Thompson, OSU Extension Edition 1. Copyright © 2020 Washington State University.First printing June 2020*

10. Prunus (Stonefruit) Post-Entry Quarantine Testing Manual. New Zealand Government. Growing and Protecting New Zealand. 2006 may.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

11. Hansen, A.J. and L. Green. 1985. Canindex I, a superior indicator cultivar for little cherry disease. Plant Dis. 69:11-12
12. Smith, I.M., D.G. McNamara, P.R. Scott and K.M. Harris (eds.) 1992. Quarantine pests for Europe. Data sheets on quarantine pests for the European Communities and for the European and Mediterranean Plant Protection Organization.CAB International, Wallingford, UK, and European and Mediterranean Plant Protection Organization, Paris, France
13. Desvignes, J.C., R. Boye, D. Cornaggia and N. Grasseau. 1990. Maladies Virus des Arbres Fruitiers (Maladies à virus, à Mycoplasmes et à Viroïdes). Centre Technique Interprofessionel des Fruits et Legumes (CTIFL), Paris, France.
14. Knapp E., A. da Câmara Machado, H. Pühringer, Q. Wang,V. Hanzer, H. Weiss, B. Weiss, H. Katinger and M. Laimer da Câmara Machado. 1995. Localization of fruit tree viruses by immuno tissue printing in infected shoots of *Malus* and *Prunus* sp. J. Virol. Meth. 55:157-173
15. Knapp E., V. Hanzer, H. Weiss, A. da Câmara Machado, Q. Wang, B. Weiss, H. Katinger and M. Laimer da Câmara Machado. 1995. New aspects of virus elimination in fruit trees. Acta Hort. 386:409-41
16. Hansen, A.J. and L. Green. 1985. Canindex I, a superior indicator cultivar for little cherry disease. Plant Dis. 69:11-12.

ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИДА ТАРҚАЛГАН ЭНДЕМ ТУР *NANOPHYTON BOTSCHANTZEVII* U.P. PRATOV ЦЕНОПОПУЛЯТСИЯСИНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ, МАҚОМИ ВА IN SITU МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

[1]Аминджонова Гулмира Каримжоновна, [2]Абдупаттоева Шохида Бахтиёр қизи
[1]Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ботаника институти.
[2]Наманган Давлат Университети, магистрант

Аннотация: *Мақолада Тошкент вилоятидаги Билдирсой ва Нурекота тракларида ўсадиган Чотқол тизмасининг ноёб эндемик тури бўлган Nanophyton botschantzevii U.P. Pratov популяцияларининг тарқалиши, кўплиги ва ҳозирги ҳолати ҳақида маълумотлар келтирилган. Турнинг сақланиш ҳолати IUCN Қизил рўйхати тоифалари ва мезонларига мувофиқ баҳоланди.*

Калит сўзлар: *Гарбий Тян-Шан, Қизил китоб, онтогенетик спектр, ноёб турлар, Ўзбекистон, ценопопуляция, эндемик, Nanophyton, IUCN Red List.*

Аннотация: *В статье представлены сведения о распространении, численности и современном состоянии популяций Nanophyton botschantzevii U.P.Pratov редкого эндемика Чаткальского хребта, о в произрастающего в урочищах Бельдерсай и Нуреката в Ташкентской области. Проведена оценка природоохранного статуса вида согласно IUCN Red List Categories and Criteria.*

Ключевые слова: *Западный Тянь-Шань, Красная книга, онтогенетический спектр, редкий вид, Узбекистан, ценопопуляция, эндемик, Nanophyton, IUCN Red List.*

Annotation: *The article presents information on the distribution, abundance and current state of the populations of Nanophyton botschantzevii U.P. Pratov, a rare endemic of the Chatkal Range, growing in the Beldersay and Nurekat tracts in the Tashkent region. The conservation status of the species was assessed according to the IUCN Red List Categories and Criteria.*

Key words: *Western Tien Shan, Red Book, ontogenetic spectrum, rare species, Uzbekistan, cenopopulation, endemic, Nanophyton, IUCN Red List.*

Кириш

Ўсимликлар ер юзидаги ҳаёт учун жуда муҳим ва барча экотизимларнинг ҳал қилувчи элементидир. Уларнинг аҳамиятига қарамай, бутун дунёда ўсимликларнинг биологик хилма-хиллиги хавф остида ва ҳар йили йўқолиб бораётган турлар сони кескин кўпаймоқда [8]. Табиий популяциялар ёки ҳатто бутун турларнинг йўқолиши одатда антропоген омилларнинг таъсири натижасида уларнинг ўсиш жойларининг йўқ қилиниши ва ўзгариши билан боғлиқ бўлиб, экологиянинг ифлосланиши ва иқлим ўзгариши генетик хилма-хилликнинг йўқолишига олиб келади [4].

Nanophyton Less. Жануби–Ғарбий Сибир, Ўрта Осиё, Мўғулистон ва Шинжондаги чўл ва чўл даштларида кенг тарқалган *Amaranthaceae* Juss оиласига мансуб петрофит ёстиқли буталар туркуми (Сухоруков, 2014). Замонавий маълумотларга кўра, жаҳон флорасида *Nanophyton* Less. туркумининг 8 та тури бўлиб, Узбекистонда 3та тур. Улардан 2 та тур - миллий эндемиклар ва иккала эндемик тур, жинснинг бошқа вакилларидан фарқли тоғли ҳудудларда тарқалган.

Nanophyton saxatile Botsch. Помир-Олой тоғ тизимининг Шимоли-ғарбий қисмида, Молгузар тизмаларида, Нурота ва Зирабулоқ-Зиадин тоғларида, Жиззах, Самарқанд ва Навоий вилоятлари ҳудудида ўсади (Бочанцев, 1975; Тожибоев ва б., 2018, 2019, 2021).

Nanophyton botschantzevii U.P. Pratov Чотқол тоғ тизмасининг камёб реликт, эндемик туридир. Турни Chenopdiaceae оиласининг таксономия, биогеография ва экология бўйича таниқли мутахассиси (ўсимлик дунёсининг замонавий филогенетик тизимида *Amaranthaceae* Juss оиласига киритилган) проф. У.П. Пратов 1975 йилда 1974 йил 26 октябрда Нурекота худудан (ҳолотип TASH 000915) тўпланган намунага асосланган (Пратов, 1975).

Nanophyton Less. туркуми вакилларининг тарқалиши ва ўсиш нуқталари, янги турларни тадқиқ қилиш бўйича Ўзбекистонда Пратов ва бошқалар томонидан бир қанча илмий тадқиқотлар олиб борилган (Бочанцев, 1975). Сўнгги йилларда Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Ботаника институти ходимлари томонидан мамалакатимизнинг вилоятлари кесимида юксак ўсимликлар кадастрини тузишга қаратилган илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда [14]. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Ботаника институти Камёб ўсимлик турлари кадастри ва мониторинги лабораторияси ходимлари томонидан 2020 йилдан буён Тошкент вилояти флораси кадастрини тузиш бўйича қатор илмий изланишлар олиб борилди.

Тадқиқот объекти ва методлари

Тадқиқот объекти Ўзбекистон флорасида тарқалган *Nanophyton botschantzevii* U.P. Pratov ҳисобланади. 20-40 см баландликдаги бутача, жуда кучли, зич ёстиқ ҳосил қилади (1-расм). Пояси ўрмалаб ёки бироз кўтарилиб, кўп марта шохланади. Барглари узунлиги 6 мм гача. Гуллар шохларнинг учида 2-9 тадан йиғилади. Ҳар бир гулда новда ва 2 туп бор. Тепалар мембранадир. Уруғлари вертикал, узунлиги 4-6 мм. Июн-июлда гуллайди, октябрда мева беради. Чотқол тизмасида денгиз сатҳидан 1600–2200 м баландликда тош-шағалли ёнбағирларда ва қояларда ўсади (Ўзбекистон Қизил китоби, 2019) ва Ўзбекистон Миллий гербарийлари (TASH) маълумотларига кўра, бу тур Чотқол тизмасидаги Билдирсой ва

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Нурекота сойларида учрайди. Фақат 4 та ўсиш жойи маълум (2-расм). Нуракота сойда Ўйнатой сувайирғичида кичик майдонда (3 гектар атрофида) ва Иргайлисойда 10-20 тупдан иборат туплар ҳосил қилиб учрайди. Ўзбекистон Қизил китобининг 1-4 нашрида (1984, 1998, 2006, 2009) тур 1-мақом билан (йўқолиб кетиш хавфи остида), 5-нашрида (2019-йил) тур 2-тоифа (камдан-кам) рўйхатга киритилган.



1-расм. Nanophyton botschantzevii. А-Умумий кўриниши. Б-Гуллаган шохи.

Мазкур тур ценопопуляциянинг онтогенетик структураси трансект ташлаш (10х1) методи ёрдамида аниқланди [8] Тупларнинг зичлиги хамда популятциянинг экологик зичлиги Ю.Одум [9] таклиф этган метод ёрдамида аниқланди. Ўсимликлар жамоасини ёзишда умумий қабул қилинган Полевая геоботаника [10] методларидан фойдаланилди.

Турнинг ҳозирги муҳофаза мақоми Халқаро Табиатни Муҳофаза қилиш Иттифоқи тавсиялари асосида аниқланган (IUCN) Қизил рўйхати тоифалари ва мезонлари, 2012; (IUCN Қизил рўйхати тоифалари ва мезонларидан фойдаланиш бўйича кўрсатмалар, 2019 йил).

Натижалар ва муҳокама

Энг ноёб реликт эндемик *Nanophyton botschantzevii* U.P. Pratov ценопопуляцияларининг онтогенетик тузилиши илгари ўрганилмаган. Чотқол тизмасининг ғарбий қисмидаги Билдирсой ва Нурекота дарёлари сувайирғичида 05.09.2020 ва 14.06.2022 йилда ушбу турнинг ценопопуляциясини тасвирлаб бердик (1-жадвал, 1-расм). Ушбу тур порфиритли тошлоқ қияликда, битта арча ва чия ўсган ўтлоқли жамоа орасида, 2175 м баландликда, 41°28'18" шим. 69°57'50" Е, 41° 28'16" N 69°57'53" E. ва 41°28'13" N 69°57'51" E оралиғида жойлашган. Умумий проектив қоплама тахминан 10% ни, *N. botschantzevii* эса тахминан 1% ни ташкил қилади. Жамиятнинг флористик таркиби 27 ўсимлик тури, шу жумладан. 19 тур - кўп йиллик ўсимликлар, 1 - дарахт, 2 - бута, 4 - ярим бута, бир ва икки ёшли - 1 турни ташкил қилади.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Nanophyton botschantzevii U.P. Pratov иштирокидаги ценопопуляцияни ўсимлик турларининг таркиби.

1-жадвал

№	Ўсимлик турлари	ўсимлик бўйи См.	Зичлиги	Копланиш даражаси %	Ҳаётий шакли	Фенофаза
1	*Achillea filipendulina* Lam.	50	sol	+	н	пл
2	*Allium tschimganicum* B.Fedtsch.	20	sp	+	н	пл
3	*Dianthus angrenicus* Vved.	20	sp	+	н	пл
4	*Geum heterocarpum* Boiss.	15	sol	+	н	пл
5	*Helichrysum maracandicum* Popov ex Kirp.	40	sol	+	н	пл
6	*Hypericum perforatum* L.	40	Cop1	2	н	пл
7	*Hypericum scabrum* L.	50	sp	1	н	пл
8	*Juniperus seravschanica* Kom.	200	sol	1	н	вег
9	*Lappula* sp.	25	sol	+	н	отм
10	*Leonurus turkestanicus* V.I.Krecz. & Kuprian.	60	sol	+	н	пл
11	*Nanophyton botschantzevii* U.P.Pratov	15	sp	1	н	пл, вег
12	*Phlomoides fulgens* (Bunge) Adylov, Kamelin & Makhm.	20	sol	+	н	вег
13	*Piptatherum* sp.	40	sol	+	н	пл
14	*Plantago lanceolate* L.	10	sp	+	н	пл
15	*Poa bulbosa* L.	25	Cop1	1	н	отм
16	*Polygonum coriarium* Grig.(=*Koenigia coriaria* (Grig.) T.M.Schust. & Reveal)	50	sp	+	н	пл
17	*Polygonum paronychioides* C.A.Mey.	15	sol	+	н	пл
18	*Prunus erythrocarpa* (Nevski) Gilli	20	sp	2	н	пл
19	*Pseudolinosyris grimmii* (Regel & Schmalh.) Novopokr.	25	Cop1	2	н	пл
20	*Rheum maximowiczii* Losinsk.	90	sp	1	н	пл
21	*Rosa fedtschenkoana* Regel	50	sol	+	н	пл
22	*Schrenkia golickeana* (Regel & Schmalh.) B.Fedtsch.	35	sol	+	н	отм
23	*Scutellaria ramosissima* Popov	40	sol	+	н	св, пл
24	*Sphaenolobium tenuisectum* (Korovin) Pimenov	30	sol	+	н	пл
25	*Taraxacum sonchoides* (D.Don) Sch.Bip.	15	sol	+	н	св
26	*Tulipa bifloriformis* Vved	10	sol	+	н	отм
27	*Ziziphora pedicellate* Pazij & Vved.	20	sol	+	н	пл

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



2-расм. ***Nanophytron botschantzevii*** **U.P. Pratovнинг тарқалиш харитаси.**

Популятсия 0,5 га. майдонни эгаллайди. 10 х 1 м ўлчамдаги 5 та трансектада турнинг 48 та индивидлари ҳисобланган. Уларнинг 33 таси (68,7%) генератив, 2 таси (4,2%) прегенератив ёш ўсимликлар ва 13 таси (27,1%) кекса ўсимликлардир. Шахсларнинг зичлиги 0,96 инд./м2 ни ташкил етди. Популятсия нормал, тўлиқ аъзоли, марказлаштирилган турдаги спектрга эга, бу турнинг характерли онтогенетик спектрига тўғри келади. Турларнинг яшаш муҳити антропоген таъсирларнинг ўртача даражасига эга эканлиги аниқланди (асосий салбий омиллар – чорва молларининг боқилиши ва дам олиш жойлари, сайёҳлик, янги тоғ-чанғи курортларини қурилиши) (3-расм). Бу ценопопуляциядаги ёш фракциянинг паст улуши билан характерланади. Бундан ташқари, ёш етилмаган ўсимликлар кучли ёмғир ва қор қопламининг эриши натижасида юзага келувчи сув эрозияси таъсирида ҳам кўплаб нобут бўлади. Қолган 3 та ценопопуляциянинг ҳозирги ҳолати ўрганилмаган, аммо бизнинг ҳисоб-китобларимизга кўра, турнинг генератив шахсларининг умумий сони 2000-2500 дан ошмайди.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

3-расм. Амирсой тоғ-чанғи курорти. Nanophytron botschantzevii U.P. Pratovнинг яшаш жойларида Билдирсай ва Нурекота трактларининг сув ҳавзасида қурилган янги чанғи йўналиши

IUCN Қизил рўйхати тоифалари ва мезонларига мувофиқ (IUCN Қизил рўйхати тоифалари ва мезонлари, 2012; IUCN Қизил рўйхати тоифалари ва мезонларидан фойдаланиш бўйича кўрсатмалар, 2019) турнинг сақланиш ҳолатини баҳолаш қуйдагича баҳоланди: B мезонига кўра (тармоқни чеклаш) турнинг ҳолати CR (Critically endangered) тоифасига тўғри келади, чунки турнинг тарқалиш майдони (EOO) 19 км2 0,036 ва яшаш жойи майдони (AOO) 8 км2). (IUCN Қизил рўйхати тоифалари ва мезонлари, 2012; IUCN Қизил рўйхати тоифалари ва мезонларидан фойдаланиш бўйича қўлланма, 2019). Билдирсой ҳудудида янги тоғ-чанғи курортлари қурилиши ва чорва моллари боқиш туфайли турлар жиддий хавф остида. Яъни яшаш жойлари ва сифати, генератив индивидлар сонининг доимий пасайиши аниқланган. Бундан ташқари, *Nanophytron botschantzevii* D мезонига жавоб беради, чунки унинг яшаш жойи 20 км2 дан кам ва антропоген ёки табиий омиллар таъсири остида 5 дан кам жойдан иборат бўлиб, у ерда турларнинг критик ҳолатига ёки келажакда қисқа муддат ичида йўқ бўлиб кетишига олиб келиши мумкин. Шундай қилиб, IUCN Қизил рўйхати мезонларига кўра, турнинг ҳолати B1ab(iii)+2ab(iii), D2, Critically Endangered деб баҳоланиши мумкин.

Ушбу натижадан шуни кўриш мумкинки, *Nanophytron botschantzevii* U.P. Pratov тури жиддий ҳавф остида қолган турдир. Ушбу турнинг ёввойи табиатда йўқ бўлиб кетиш эҳтимоли мавжуд. Уруғидан экилганда ижобий натижа бермаганлиги ва униб чиққан ниҳоллари ёзнинг иккинчи ярмида қуриб қолганлиги жиддий муҳофазага мухтож эканлигини кўрсатади.

Хулоса

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, Ўзбекистон флорасида учровчи *Nanophytron botschantzevii* U.P. Pratovнинг тарқалиш ареали жуда тор, популяциялар кам ва популяцияларда ёш ўсимликларнинг улуши жуда паст, Билдирсай трактида янги тоғ-чанғи

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

курортлари қурилиши ва чорва моллари боқиш туфайли турларнинг популяцияси ва яшаш муҳити жиддий хавф остида ва махсус муҳофаза остига олиниши зарурдир. Шуни ҳисобга олиб, бу тур махсус муҳофаза остига олиниши зарурдир. IUCN Қизил китоби ва мезонлари бўйича турнинг сақланиш ҳолатини баҳолаш шуни кўрсатадики, турнинг ҳолати B1ab(iii)+2ab(iii), D2, мезонлар бўйича эса Critically Endangered деб баҳоланиши мумкин. Ўзбекистон Қизил китобининг навбатдаги нашрида ушбу тур йўқолиб кетиш хавфи остида қолган, сақлаб қолиниши учун махсус муҳофазани талаб этадиган тур (1-тоифа) деб таснифланиши лозим

Ушбу тур муҳофазасида аввало чорва молларини бетартиб боқилишига йўл қўймаслик муҳимдир. Бундан ташқари, Билдирсой ҳудудида тоғ-чанғи курортларини қуриш ва реконструксия қилиш жараёнида туристик инфратузилмани ривожлантириш турларнинг популяциясига зарар етказмаслиги учун ҳудудни атрофлича экологик текширувдан ўтказиш зарур. Ушбу турнинг ценопопуляцияси ва ўсиш нуқталарига оид маълумотлар камёб турлар ва йўқолиб бораётган турларни мониторингида, Тошкент вилояти кадастрини тузишда фойдаланилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Бочанцев В.П. Новые маревые из Средней Азии // Ботанический журнал, 1975, т. 60, № 8. – С. 1158–1160.

Пратов У.П. Второй новый вид рода Nanophyton Less. (Chenopodiaceae) // Ботанический журнал, 1975, т. 60, № 8. – С. 1161.

2. Пратов У.П. О систематике и филогении рода Nanophyton Less. (Chenopodiaceae) // Материалы совещания по филогении центросеменных. – М.: МГУ, 1977. – С. 44–46.

3. Сухоруков А.П. Карпология семейства Chenopodiaceae в связи с проблемами филогении, систематики и диагностики его представителей. – Тула: Гриф и КК, 2014. – 400 с.

4. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Кодиров У.Х., Батошов А.Р., Мирзалиева Д.У. Кадастр флоры Узбекистана: Самаркандская область. – Ташкент: ФАН, 2018. – 220 с.

5. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Шомуродов Х.Ф. и др. Кадастр флоры Узбекистана: Навоийская область. – Ташкент: Фан, 2019. – 216 с.

6. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Эсанкулов А.С., Батошов А.Р., Азимова Д.Э. Кадастр флоры Узбекистана: Джизакская область. – Ташкент: Zamin nashr, 2021. – 368 с.

7. Уранов А.А., Смирнова О.В. Классификация и основные черты развития популяций многолетних растений. — Бюл. МОИП. 1969. Отд. Биол, Т.74. – №2. – С. 119-134.4. 5. Ценопопуляции растений (основные понятия и структура). М., 1976. –216 с.

8. Ценопопуляции растений (очерки популяционной биологии). М., 1988. –183с.

9. Одум Ю. Экология. Мир, 1986. Т.2. – С.6-8

10. Полевая геоботаника / Под общей редакцией Е.М.Лавренко и А.А. Корчагина. – М.: Наука, 1964.– Т.3. – 230 с.

11. FAO. The State of the World's Biodiversity for Food and Agriculture. In: Bélanger J., Pilling D., editors. FAO Commission on Genetic Resources for Food and Agriculture Assessments. FAO; Rome, Italy: 2019. [(accessed on 18 January 2020)].

12. International Plant Names Index [Электронный ресурс]. – URL: www.ipni.or.

13. Plants of the World Online, 2021. [Электронный ресурс]. – URL: http://powo.science.kew.org/

ISSN: 2181-0427

14. Газиев А.Д. 2021—2022. Флора Ташкентской области [флористический список] // Плантариум. Растения и лишайники России и сопредельных стран: открытый онлайн атлас и определитель растений
[Электрон ресурс]. –RL:https: //www.plantarium.ru/page/flora/id/1123.html.
16. Красная книга Республики Узбекистан: Редкие и исчезающие виды растений и животных (в 2-хтомах). Т. 1. Растения. – Ташкент: Tasvir, 2019. – Т. 1. – 240 с.
17. Ўзбекистон Республикаси Қизил китоби: Ноёб ва йўқолиб кетиш хавфи остида турган ўсимлик ва ҳайвонлар турлари: (2 жилдда): В.1. Ўсимликлар ва қўзиқоринлар. - Тошкент: Чинор ЕНК, 2009. - 356 б.
18. Ўзбекистон Республикаси Қизил китоби: Ноёб ва йўқолиб кетиш хавфи остида турган ўсимлик ва ҳайвонлар турлари. Т.1. Ўсимликлар ва қўзиқоринлар. - Тошкент: Чинор ЕНК, 2006. - 250 б.
19. Ўзбекистон Республикаси Қизил китоби: Ноёб ва йўқолиб кетиш хавфи остида турган ўсимлик ва ҳайвонлар турлари: (2 жилдда): В.1. Ўсимликлар. - Тошкент: Чинор ЕНК, 1998. - 335 б.
20. Ўзбекистон ССР Қизил китоби. 2-жилд: Ўсимликлар. – Тошкент: Фан, 1984. – 150 б.
Guidelines for Using the IUCN Red List Categories and Criteria. Ver. 14. – IUCN Standards and Petitions Committee, 2019. [Электронный ресурс]. – URL: http://www.iucnredlist.org/documents/RedListGuidelines.pdf.
IUCN Red List Categories and Criteria. Version 3.1 Second edition. – IUCN, Gland, Switzerland and Cambridge, U.K., 2012. – 32 p.

ДЕНГИЗКЎЛ КОЛЛЕКТОРИ ЎРТА ОҚИМ СУВЛАРИДА УЧРАЙДИГАН САПРОБ СУВЎТЛАР

Negmurod Elmurodovich Rashidov b.f.n. dotsent
Zarina Faxriddinovna Xodjayeva tayanch doktorant
Buxoro davlat universiteti
xadjaeva@2993gmail.com

Аннотация: *Мақолада денгизкўл зовурининг шўрта оқими сувўтлари ҳамда унинг сапроблилик даражаси келтирилган*

Калит сўзлар: *сапроб,зовур,экосистема,флора, индикатор, гидрокимёвий*

САПРОБИОТИЧЕСКИХ ВОДОРОСЛЕЙ В СРЕДНЕМ ТЕЧЕНИИ ДЕНГИЗКОЛЬСКОГО КОЛЛЕКТОРА

Негмурод Элмуродович Рашидов доцент
Зарина Фахриддиновна Ходжаева докторант
Бухарский государственный университет
xadjaeva@2993gmail.com

Аннотация: *в статье представлены водоросли Денизкольского коллектора и уровень их сапробности.*

Ключевые слова: *сапроб, коллектор, экосистема, флора, индикатор, гидробионт*

SAPROBIOTIC ALGAE IN THE MIDDLE REACHES OF THE DENGIZKUL POND

Negmurod Elmurodovich Rashidov b.f.n. dotsent
Zarina Faxriddinovna Khodjaeva doctoral student
Bukhara state university
xadjaeva@2993gmail.com

Annotation: *The article presents the algae of the Dengizkul pond and the level of their saprobity*
Keywords: *saprob, pond, ecosystem, flora, indicator, hydrobiont*

Кириш

Сувўтлар юксак ўсимликлар сингари экосистеманинг муҳим компонентларидан саналади. Сув ҳавзалардаги сувўтлар флорасини ўрганиб, ҳавзанинг экологик санитария ҳолатини баҳолаш, ҳамда уни келажакдаги ҳолатини башорат қилиш имкониятлари мавжуд.

Сувўтлар жамоаларини сифат ва сон жиҳатдан тадқиқ этиш кейинги ишларнинг имкониятларини очувчи асосий босқичдир. Сувнинг ўз-ўзини тозалаш ва сув сифатини шаклланишида органик моддаларнинг бунёдкори бўлмиш – сувўтлар муҳим аҳамиятга эга бўлиб, улар сувни тозалашда фаол иштирок этади ва сувни эриган кислород билан бойитади. Улар моддаларнинг гидроэкосистемадаги даврий харакатида, озиқа занжирида иштирок этади, сув гидробионтлари ҳаётий фаолиятига муҳим таъсир кўрсатади. Сапробиологик индикатор сувўтлари эса, сувни сифат кўрсаткичини баҳолашда муҳим ролни бажаради, буларнинг барчаси нафақат илмий, балки муҳим амалий аҳамият касб этади.

Мавзунинг илмий янгилиги

Сапроб сувўтларни миқдорий баҳолашда сувўтларнинг нисбий учраш даражаси (h) ва алоҳида турларни сапробиологик системасидаги (s) маълум бешта сапроблик даражасига (валентликка) бўлган муносабати ўрганилди.

Тадқиқот услублари

Сувўтларнинг экологик гуруҳлари алоҳида йиғилади. Планктонлар № 76-78 рақамли планктон тўрда, бентослар ва перифитонларни зовурдаги бетонланган жойлардан, тош, юксак ўсимликларга ёпишган жойларидан скальпел, ўткир пичоқ билан маълум майдончадан (10 см^2) олинди. Ипсимон сувўтларни (*Spirogyra, Cladophora*) илмоқли таёқ ёки қўлда йиғиб олинди. Намуналарни бир қисмига озиқа муҳити қўшилди, қолган қисмини 4% ли формалин эритмаси билан фиксация қилинди. Айрим тирик намуналар жойнинг ўзида аниқланди.

Сувни сифатини, зовурнинг экология-санитария ҳолатини белгилайдиган индикатор сапроб сувўтлар ҳамда зоопланктонлар ҳақида умуман тадқиқотлар олиб борилмаган. Шу сабабдан Денгизкўл коллекторининг учта оқими сувўтлари ва зоопланктонларини ўрганиш ва сувнинг экология-санитария ҳолатини аниқлаш ҳозирги кундаги долзарб муаммолардан биридир. 2020 йилдан бошлаб Денгизкўл коллектори сувининг гидрокимёвий таркибини аниқлашда мавсимий намуналар йиғили, сувўтларнинг тур таркиби, систематикаси, доминант турлар ҳамда индикаторлик хусусиятлари ўрганилиб келинмоқда. Сапроб сувўтларни миқдорий баҳолашда сувўтларнинг нисбий учраш даражаси (h) ва алоҳида

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

турларни сапробиологик системасидаги (s) маълум бешта сапроблик даражасига (валентликка) бўлган муносабати ўрганилди (1-диаграмма).



Бундай сувўтларига Бухоро вилояти коллекторларида учраган қуйидаги полисапроб турларни келтириш мумкин. Уларга кўк-яшил сувўтларидан – Anabaena constricta, Spirulina jenneri; эвглена сувўтларидан - Euglena deses, E. proxima ва яшил сувўтларидан – Chlorella pyrenoidosa лар мисол бўла олади.

Мезосапроб зонада ифлосланиш даражаси нисбатан кам бўлиб, бу ерда оқсиллар тўлиқ парчаланган бўлади, водородсульфид ва углерод диоксиди кам миқдорда учрайди. Қисман сувда эриган кислород учрайди, ҳали тўлиқ парчаланишга улгурмаган азот бирикмалари яъни аммиак, амино- ва амидокислоталар учрайди. Мезосапроб зона ўз новбатида α ва β- мезосапроб кичик зоначаларига бўлинади. Биринчи кичик зонада аммиак, амино- ва амидокислоталар учрайди. Шунга қарамасдан сувда эриган кислород бўлади. Бу кичик зонада α - мезосапроб кўк – яшил сувўтларидан Oscillatoria ва Phormidium туркуми вакиллари учрайди. Органик моддаларнинг парчаланиши аэроб шароитда, асосан бактериялар ёрдамида амалга ошади. α - мезосапроб кичик зонасига хос кўк-яшил сувўтларидан Oscillatoria brevis, O. chalybea, O. formosa, O. princeps, O. tenuis, O. terebriformis, Phormidiumfoveolarum; яшил сувўтларидан–Chlamydomona sehrenbergii, Chlorellavulgaris, Enteromorphain testinoalis; диатом сувўтларидан – Strephanodi scushantzschii, Calonei samphisbaena, Hantzschiaamphioxys, Nitzschia acicularis, N. palea, N.tryblionella каби турларни келтириш мумкин.

Кейинги, яъни β-мезосапроб кичик зона аммиак ва унинг ҳосилалари (азот кислоталари) борлиги билан характерланади. Бу кичик зонада аминокислоталар батамом учрамайди, водородсульфид кам миқдорда учрайди, сувда эриган кислород миқдори кўп, минерализация органик моддаларнинг тўлиқ парчаланиши ҳисобига амалга ошади. Бу кичик зонада сувўтларининг тури кўп, лекин уларнинг сони ва биомассаси олдинги кичик зонага нисбатан анча кам бўлади. Бу кичик зонага диатом сувўтларидан - Melosira, Diatoma, Navicula; яшил сувўтларидан – Cosmarium, Spirogyra, Cladophora, Scenedesmus туркум вакиллари характерлидир, β- мезосапроб кичик зонасига эвглена сувўтларидан Euglena

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

acus, E. hemichromata, E. sanguinea, E. spirogyra, E. texta, Phacus caudatus, Ph. pleuronectes; кўк-яшил сувўтларидан – Microcystis aeruginosa, Oscillatoria amphibia, O. limosa, Phormidium molle; яшил сувўтларидан – Pediastrum boryanum, P. duplex, P. tetras, Ankistrodesmusacicularis, Actinastrumhantzschii, Scenedesmusacuminatus, S. bijugatus, S. denticulatus, S. obliquus, S. quadricauda, Cladophoracrispata, C. fracta, C. glomerata, Closteriumparvulum, Spirogyracrassa, S. neglecta; диатом сувўтларидан – Melosiragranulata var. angustissima, M. varians, Cyclotellakuetzingiana, Strephanodiscusastraea, S. dubius, Fragilariaconstruens, Synedracapitata, S. pulchella, Cocconei spediculus, C. placentula, Achnanthes lanceloata, Rhoicosphenia curvata, Diploneisovalis, Anomoeonei ssphaerophora, Stauroneisanceps, Naviculacincta, N.exigua, Pinnularia major, Gyrosigmaacuminatum, G. atteniatum, Amphoraovalis, Cymbellaaffinis, C. aspera, C. prostrata, Gomphonema constrictum, Epithemiasorex, E. turgida, Nitzschia communis, N. sigmoidea, N.stagnorum, N.vermicularis, Cymatopleurasolea, Surirella angustata, S. ovata ларни мисол қилиб кўрсатиш мумкин.

Олигосапроб зонада водородсульфид бўлмайди, углерод диоксидининг миқдори кам, сувда эриган кислороднинг тўйиниш даражаси меъёрга яқин, сувда парчаланган органик моддалар деярли бўлмайди, чунки улар сувўтлари томонидан тўлиқ ўзлаштирилган бўлади. Бу зона сувўтлари турларининг кўплиги ва хилма-хиллиги билан ажралиб туради. Лекин уларнинг сони ва биомассаси кам. Бу зонага характерли сувўтларидан – Gloeocapsa minuta, G. turgida (кўк-яшил сувўтлари); Ulothrix aequalis, U. tenerrima, U. tenuissima, Draparnaldia plumose, Closterium dianae (яшил сувўтлари); Cyclotella comta, Fragilaria capucina, F. crotonensis, Achnanthes linearis, Rhopalodia gibba, Nitzschia dissipata, N. fonticola, N. hantzschiana (диатом сувўтлари) ларни кўрсатиш мумкин (2-диаграмма).



Бухоро вилояти Когон тумани ўрта оқими сувларида топилган 343 та тур ва 46 та тур хилларини таҳлил қилганимизда ҳаммаси бўлиб 106 та сапроб сувўтлари борлиги аниқланди. Уларнинг асосий қисмини Bacillariophyta (53 та ёки 50%) ва Chlorophyta (27 та ёки 25,5%) сувўтлари вакиллари ташкил этди. Улардан ксеносапроблар – 2 та (1,9%), олигосапроблар 15 та (14,2%), бета-мезосапроблар – 63 та (59,4%), альфа- мезосапроблар – 21 та (19,8%) ва полисапроблар 5 та (4,7%) ни ташкил этади.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Хулоса: Сапроб сувўтларнинг доминант турларини ялпи кўпайтиришда нафақат минерал тузлардан ва уларнинг комплексидан тайёрланган озуқа муҳитларидан, балки қишлоқ хўжалик ҳайвонлари ва паррандалари гўнгидан қўшиб тайёрланган органо-минерал муҳитлардан, қишлоқ хўжалик ва саноат корхоналаридан чиқадиган оқова сувларидан, коммунал хўжалик оқова сувларидан, коллектор – сизот сувларидан фойдаланиш ҳам иқтисодий жиҳатдан катта самара бериши ва атроф-муҳит, очиқ сув ҳавзалари ва ерости сувларини коллектор сизот сувларидаги турли хил заҳарли моддалардан (пестицидлар, дефолянтлар, ортиқча азот бирикмалари ва бошқ.) тозалаш мумкинлиги кўрсатилди.

Муаммонинг ечими: Олиб борилаётган тадқиқотларнинг кейинги мақсади– сувўтларнинг доминант турларини коллектор сувларида ялпи кўпайтириш ва уларни коллекторлар сувларини биологик усул билан тозалашдан ва халқ хўжалигининг кўпгина соҳаларида қўллашдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Н.Э.Рашидов Бухоро вилояти коллекторларининг альгофлораси (Монография) Бухоро - “Дурдона” 2020 С. 7-13.

2. Xodjayeva, Z. (2022). Сезонный анализ рва Денгизкуль. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, *8*(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4984

3. Xodjayeva, Z. (2022). ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ И ЭКОЛОГИШЕСКИЙ АНАЛИЗ КОЛЛЕКТОРА ДЕНГИЗКУЛЬ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, *8*(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5782

4. Xodjayeva, Z. (2022). ГИДРОХИМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВОД СРЕДНЕГО ТЕЧЕНИЯ КОЛЛЕКТОРА ДЕНГИЗКУЛЬ . *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, *7*(7). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4973

5.Xodjayeva, Z. (2022). ГИДРОХИМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВОД НИЖНЕГО ТЕЧЕНИЯ КОЛЛЕКТОРА ДЕНГИЗКУЛЬ L . *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, *8*(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4975

6. Xodjayeva, Z. (2022). ГИДРОХИМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВОД ВЕРХНЕГО ТЕЧЕНИЯ КОЛЛЕКТОРА ДЕНГИЗКУЛЬ . *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, *7*(7). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4974

ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ШИМОЛИЙ АДИР ФЛОРАСИ ТУРЛАРИНИ ТЎР ТИЗИМЛИ ХАРИТАЛАШ

[1]Хошимов Хушбахт Рустамжон ўғли, [2]Батошов Авазбек Рисқулович, [3]Ёқубжонов Олимжон Рахимжон ўғли
[1]Наманган давлат университети, таянч докторанти
[2]Наманган давлат университети, б.ф.д. доцент
[3]Наманган давлат университети магистранти
Email: xushbaxt_2090@mail.ru
Tel: +99 891 362 02 25

Аннотация: *Мақолада Фарғона водийси шимолий адир флорасини янги тўр тизимли хариталаш (grid mapping) методини қўллаш асосида инвентаризациялашнинг дастлабки натижалари келтирилган. Фарғона водийси шимолий адир флорасининг тўр тизимли харитаси илк бор 5x5 км² ўлчамдаги 160 та индекслар бўйича турлар бойлиги (species richness) ва йиғмалар зичлиги (collection density) кўрсатгичлари бўйича маълумотлар таҳлил қилинган. Натижада тадқиқот ҳудудида 61 оила 354 туркум 804 турларнинг ўсиш нуқталарини акс эттирувчи 35 945 га яқин географик кординаталар асосида тўр тизимли хариталар яратилган.*

Калит сўзлар. *Флора, тўр тизимли харита, ГАТ, индекс, тур, эндем.*

СЕТОЧНОГО КАРТИРОВАНИЯ ВИДОВ ФЛОРЫ СЕВЕРНЫХ ПРЕДГОРИЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

[1]Хошимов Хушбахт Рустамжон угли, [2]Батошов Авазбек Рискулович, [3]Ёқубжонов Олимжон Рахимжон угли
[1]Наманган государственный университет, докторант (PhD)
[2]Наманган государственный университет, б.ф.д. доцент
[2]Наманган государственный университет, магистрант
Email: xushbaxt_2090@mail.ru

Аннотация: *В статье первые итоги инвентаризации флоры северных предгорий Ферганской долины с новым методом сеточного картирования (grid mapping). На сеточного картирования флоры северных предгорий Ферганской долины впервые были проанализированы данные о видовом богатстве (species richness) и плотности сбора (collection density) указателей по 160 индексам размером 5x5 км2. В результате на территории исследования была создана сеточного картирования, основанная примерно на 35 945 географических координатах, представляющих точки роста 61 семейства 354 видов 804 видов.*

Ключевые слова. *Флора, сеточное картирование, ГИС, индекс, вид, эндем.*

GRID MAPPING FLORA OF IN THE NORTHERN FOOTHILLS OF THE FERGANA VALLEY

[1]Hoshimov Hushbaht Rustamjon o’g’li, [2]Batoshov Avazbek Risqulovich, [3]Yokubjonov Olimjon Rakhimjon o'g'li

[1]Namangan State University, doctoral student (PhD)
[2]Namangan State University, Professor (DSc)
[3]Namangan State University, master's student
Email: xushbaxt_2090@mail.ru

Annotation: *The article presents the first results of the inventory of the flora of the northern foothills of the Fergana Valley with a new method of grid mapping. For the first time, data on the species richness and collection density of indexes on 160 indexes measuring 5x5 km² were analyzed on the grid mapping of the flora of the northern foothills of the Fergana Valley. As a result, a grid mapping system based on approximately 35,945 geographical coordinates representing the growth points of 61 families of 354 species of 804 species was created in the study area.*

Keywords. *Flora, grid mapping, GIS, index, species, endemic.*

Кириш

Жаҳонда, маҳаллий ва миллий флоралар хилма-хиллигини аниқлаш, ҳимояга муҳтож турларини сақлаб қолиш ва муҳофазалашга қаратилган ҳалқаро дастурларни такомиллаштиришга катта эътибор қаратилмоқда. Бу борада, жумладан, локал ва глобал флораларнинг таркиби ва келиб чиқиши аниқланди, уларнинг халқаро маълумотлар базаси яратилди, йўқолиб кетиш хавфи остидаги тур популяцияларини сақлаб қолишнинг самарали усуллари ишлаб чиқилди. Таъкидлаш лозимки, сўнгги йилларда ўсимлик турлари таркибини ўзгариши туфайли флора тўғрисидаги классик ва замонавий маълумотларни ўзаро мос келмаслиги, локал флораларнинг "қайноқ нуқталари" ёки "камчилик худудлари" тўғрисида ишончли маълумотларни етишмаслиги турларнинг ҳудудий тақсимланишини баҳолаш ва уларни муҳофаза қилишда аҳамиятли ҳисобланган флораларнинг рақамли тизимни самарали йўлга қўйишни талаб этмоқда. Бу ўринда, ўзига хос флористик ҳудудлардаги турларнинг тарқалиши ва замонавий локализациясини геоахборот усуллар орқали дастурлаш ва шу асосда ҳимояга муҳтож объектларни муҳофазалаш чораларини такомиллаштириш муҳим саналади[7].

Ўзбекистонда кейинги икки ўн йилликларда флористика соҳасида олиб борилаётган изланишларда рақамли технологиялардан кенг фойдаланилмоқда. 2010 йилдан бошлаб турли табиий-географик ҳудудларнинг флора таркибини аниқлаш ва замонавий рўйхатини тузишга бағишланган тадқиқотларнинг 80% маълумотларнинг электрон базаларини тузиш, ГАТ хариталарини яратиш билан якунланган [1, 4, 7, 13, 15]. Гербарий намуналарини йиғиш кўлами ортди, кам ўрганилган ҳудудларнинг флора таркиби аниқланмоқда, Ўзбекистон ёки айрим ҳудудларнинг флоралари учун янги турлар аниқланмоқда. Бу борада чоп этилган илмий ишларни қуйидаги тўртта асосий гуруҳларга ажратиш мумкин: (а) махалий флоралар конспектлари; (б) янги флористик топилмалар; (в) айрим таксономик гуруҳларнинг маҳаллий флоралардаги ўрни ва тарқалиш хариталари (г) турларнинг ботаник-географик районлар бўйича тақсимланишининг таҳлили. Сўнгги йилларда эса тўр тизимли хариталашга асосланган тадқиқотлар бошланди.[17].

Ҳозирга қадар маҳаллий флоралар таркибидаги турларнинг тўр тизимли асосида тарқалишини акс эттирадиган тадқиқотлар нафақат Ўзбекистонда, балки бутун Ўрта Осиё учун янги йўналиш ҳисобланади [7]. Шу жумладан, Ўзбекистон флораси бўйлаб амалга оширилаётган флористик тадқиқотларни марказлаштириш, маълумотларнинг ягона

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

платформасини шакллантириш ва Ўзбекистон флорасини тўр тизимли хариталашнинг миллий лойиҳасини шакллантириш мақсадида мамлакат ҳудуди 5х5 км квадратдан иборат бўлган 19 240 индексларга ажратилди. Ҳар бир индексга турлар бойлиги (species richness) ва йиғмалар зичлиги (collection density) кўрсатгичлари бўйича маълумотлар жамланмоқда ва улар охирги 150 йилдан ортиқ муддат давомида олиб борилган тадқиқотларнинг натижаларини ҳам ўз ичига олади Ўзбекистон флораси таркибини ўрганиш бўйича олиб борилган тадқиқотларнинг қисқача таҳлили, Зарафшон тизмасининг ғарбий тармоқлари флорасини янги тўр тизимли хариталаш лойиҳаси амалга оширилмоқда[14, 15].

Мазкур тадқиқотларнинг давоми сифатида Фарғона водийси шимолий адир флорасининг тўр тизимли харитаси илк бор 5х5 км^2 ўлчамдаги 160 та индекслар бўйича турлар бойлиги (species richness) ва йиғмалар зичлиги (collection density) кўрсатгичлари бўйича маълумотлар таҳлил қилинди.

Тадқиқот методологияси

Адир атамаси Қ.З. Зокиров келтирган маълумотларга кўра “адир” атамаси - тоғ олди теккисликларидан тоғларга ўтадиган, ўзига хос бутун табиий хусусиятлари мажмуасига эга бўлган баландликлардан иборат ҳудуд тушунамиз[5].

Фарғона водийси шимолий адири Ўзбекистон ҳудудида 3052 км^2 майдонни (1-расм) эгаллайди. Узунлиги 120 км (шарқдан-ғарбга), эни 45 км гача (шимолдан жанубга). Тадқиқот ҳудуди денгиз сатҳидан 457-1424 м баландликни ташкил этади. ФВША қисми шимоли-ғарбдан Қурама (Қамчиқ довони), шимолдан Чотқол (40.9 E– 70.6 N ва 41.17 E–71.34 N), шимоли-шарқдан Бузбутау тоғи ҳамда шарқий томондан Фарғона (41.43 E–71.79 N ва 41.23 E–71.9 N) тоғ тизмаси, жанубдан шарқий томондан Норин дарёси (41.12 E–72.04 N) ва жанубдан Сирдарё дарёси ўраб туради [6]. Иқлими қуруқ ва иссиқ[3]

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



1-Расм. Тадқиқот ҳудудининг географик жойлашуви.

Мазкур тадқиқот иши флористикада кенг қўлланилиб келинаётган классик ҳамда замонавий методларнинг уйғунлигида амалга оширилган. Дала тадқиқотлари 2020 йилдан 2022 йилгача март ойининг ўрталаридан октябр ойигача бўлган табиий вегетация даврида кенг кўламли дала тадқиқотлар олиб борилди. Дала тадқиқотлари А.И. Толмачев [17], Б.А. Юрцев [21], А.В. Щербаков, С.Р. Майоровлар [20] томонидан ишлаб чиқилган методлардан фойдаланилган ҳолда олиб борилди.

Ўсимлик турларининг тўр тизимли хариталаш орқали таҳлили А.П. Серегин [8, 12], “Atlas Flora Europea” [2] илмий асарлардан фойдаланилган ҳолда амалга оширилди. Адабиётлар [8, 10, 11] ва илмий мақолаларни таҳлил қилиш натижасида [8, 9, 11, 12], Фарғона водийси шимолий адирлари ҳудуди рельефининг тузилиши ва ўсимлик қопламининг зичлигини инобатга олган ҳолда мазкур ҳудуд учун 5×5 км² ли 160 та индекс белгилаб олинди.

Биз турларни GPS жойлашув нуқталарини аниқлаш ва белгилаш учун Google Earth Pro 7.3.4 дастури (https://www.Google.com/earth/) ёрдамида амалга оширилди. Шунингдек, ArcGIS 10.6.1 дастури ёрдамида тўр тизимли ГАТ харитаси таёрланди.

Таҳлил ва натижалар

Тўр тизимли хартиталашда келтирилаётган маълумотлар аниқлик даражасининг ортиши, таҳлил учун жалб этилган маълумотларнинг ҳажмига боғлиқ. Шу жумладан, Фарғона водийси шимолий адирида 2020-2022 йиллардаги дала тадқиқотлари натижалари

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

асосида 32 489 та дала ёзувлари ва TASH, MW, GAT, Bot. Berol-да сақланган 1461 гербарий намуналари, шунингдек Плантариум-онлайн ўсимликлар аниқлагичи (https://www.plantarium.ru/) ва Глобал биологик хилма-хиллик ахборот хизмати (www.//gbif.org/) маълумотлар базасидан олинган маълумотлардан фойдаланилган. Бундан ташқари, адабиёт манбаларининг таҳлили (Кнорринг О.Э. 1915, Кудряшев С.Н. 1933-1935, Бондаренко О.Н. 1949-1950, Арифханова М.М. 1967, Верник Р.С., Рахимова Т. 1982, Тожибаев К.Ш. 1999-2002,) амалга оширилди [19]. Натижада тадқиқот ҳудудида 61 оила 354 туркум 804 турларнинг ўсиш нуқталарини акс эттирувчи 35 945 га яқин географик кординаталар асосида тўр тизимли хариталар яратилди. Хариталарни яратиш икки асосий кўрсаткич: индекслар бўйича аниқланган турлар бойлиги (species richness) ва йиғмалар зичлиги (collection density) бўйича олиб борилди. (2,3-расмлар).



2-Расм. Турлар хилма-хиллиги (species richness) бўйича тайёрланган харита

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



3-Расм. Турларнинг йиғмалар зичлиги (collection density) бўйича тайёрланган харита

Юқорида қайд этилганидек Фарғона водийси шимолий адир флорасидан терилган барча гербарий намуналари турлар кесимида таҳлил қилинди. Олинган натижалар таҳлили шуни кўрсатадики, 1 та катакда аниқланган турларнинг энг юқори кўрсаткичи 251 та тур ўсимлик қайд этилди. Турларнинг йиғмалар зичлиги бўйича энг юқори қиймати эса 995 тани ташкил этади.

Хулосалар

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки Фарғона водийси шимолий адир флораси бўйича таёрланган тўр тизимли харитада қизил ва жигарранг билан ифодаланган индекслар турлар хилма-хиллиги (species richness) ва йиғмалар зичлиги (collection density) бўйича “қайноқ нуқталар” ҳисобланади. Бундай ҳудудларга Арбағиш (Чортоқ), Парамон, Косон ўрмон хўжалиги (Косонсой), Сурхи (Варзик, Чуст) ҳамда Чап адирлари (Поп, Чуст, Тўрақўрғон) каби табиий ҳудудлар тўғри келади. Яшил билан ифодаланган индекслар асосан аҳоли яшаш жойлари ва қишлоқ хўжалиги ҳудудларига туғри келади. Бу ҳудудларда антропоген таъсирнинг юқорилиги турлар хилма-хиллиги (species richness) ва йиғмалар зичлиги (collection density) бўйича ўсимликлар хилма-хиллиги заифлигини кўришимиз мумкин.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдураимов А.С. Торқопчиғай ботаник-географик райони флораси: Дис. ...канд биол наук. – Гулистон, 2021. – 127 б.
2. Atlas Florae Europaeae (AFE) – Distribution of Vascular Plants in Europe. https://www.luomus.fi/en/atlas-florae-europaeae-afe-distribution-vascular-plants-europe
3. Баратов П (1996). Ўзбекистон табиий географияси. Ўқитувчи, Тошкент, 250 бет.
4. Батошов А.Р. Жанубий-шарқий Қизилқум қолдиқ тоғлари флорасининг электрон маълумотлар базаси 2016. (Microsoft Access, 2007).
5. Верник Р.С., Рахимова Т.Т. Естественная растительность и пастбища адыров Наманганской области. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 4-85.
6. Dekhkonov D, et al. Mapping and analyzing the distribution of the genus *Tulipa* (*Liliaceae*) species in the Ferghana Valley of Central Asia. // Korean J. Pl. Taxon, 2021. Vol. 51(3): – P. 1-11. https://doi.org/10.11110/kjpt.2021.51.3.1.
7. Қодиров У.Ҳ. Ургут ботаник-географик райони флораси: Дис. ...канд биол наук. – Тошкент, 2020. – 130 б.
8. Серегин А.П. 2014 г. Флора Владимирской области: анализ данных сеточного картирования // Товарищество нау. изд. КМК. Москва 2014. – С. 418.
9. Серегин А.П. Важнейшие новые флористические находки во Владимирскойобласти // Бюл. МОИП. Отд. биол. – 2013. – Т. 118, вып. 3. – С. 65-66.
10. Серегин А.П. Пространственная структура Флоры Владимирской области // Москва. 2014. – С. 5-518.
11. Серегин А.П. Флора Владимирской области: конспект и атлас / А.П. Серегинпри участии Е.А. Боровичева, К.П. Глазуновой, Ю.С. Кокошниковой, А.Н. Сенникова.– Тула, 2012. – С. 20-620.
12. Серегин А.П. Флора сосудистых растений национального парка «Мещера» (Владимирская область): Аннотированный список и карты распространения видов.– М., 2004. – 182 с.
13. Тожибаев К.Ш. Флора Юго-Западного Тянь-Шаня (в пределах республики Узбекистан). Дис. ...докт.биол. наук. ⊚ Ташкент, 2010. ⊚ 178 с.
14. Tojibaev K., Khassanov F., Turginov O., AkbarovF., Pulatov S., Turdiboev O. Endemic plant species richness of Surkhondaryo province, Uzbekistan. Plant Diversity of Central Asia 1 (2022) 71–84
15. Тожибаев К.Ш., Батошов А. Р., Қодиров У.Ҳ., Акбаров Ф.И. Ўзбекистонда флора таркибини тўр тизимли хариталаш: дастлабки натижалар ва ривожланиш истиқболлари. НамДУ илмий ахборотномаси 2020 йил Махсус сон.
16. Тургинов О.Т. Электронная база данных флоры Байсунского ботанико-географического района 2017. (Microsoft Access, 2007).
17. Толмачев А.И. Введение в географию растений. – Л.: ЛГУ, 1974. – 244 с.
18. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ботаника институти Ўзбекистон флораси лабораториясида бажарилган, Зарафшон тизмаси ғарбий тармоқлари флорасини тўр тизимли хариталаш ва алоҳида аҳамиятга эга ботаник ҳудудларни аниқлаш номли амалий лойиҳа ҳисоботи. Тошкент, 2020. – 176 б.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

19. Хошимов Х.Р., Батошов А.Р., Тоғаев И.У., Абдуллаев Ш.С. Фарғона водийси шимолий адирлари ва унга чегарадош бўлган ҳудудларда олиб борилган изланишлар таҳлили. НамДУ илмий ахборотномаси–2022-йил махсус сон, С. 174-180
20. Щербаков А.В., Майоров С.Р. Инвентаризация флоры и основы гербарного дела (Методически Флора сосудистых растений е рекомендации). Москва: Товарищество научных изданий КМК, 2006. ◎С. 48.
21. Юрцев Б.А. Программа сравнительно флористических исследований. В кн. Теоритические вопросы сравнительной флористики. – Л.: Наука, 1987. – С. 156-198.

МЕРЫ ОХРАНЫ И ВЛИЯНИЕ АНТРОПОГЕННЫХ ФАКТОРОВ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ НА РЕДКИЙ ВИД *DOREMA MICROCARPUM* KOROVIN

Мирзаолимова Мохизар Мухаматкарим қизи
Докторант Наманганского государственного университета
e-mail: mohizar_95@mail.ru

Аннотация: *В данной статье представлены результаты естественных научных исследований, информации и меры защиты эндемичного и Краснокнижного вида Dorema microcarpum относящийся к роду Dorema Don из семейства Apiaceae Lindl., распространенная только во флоре Ферганской долины. В результате проведенных исследований найдены новые местонахождения данного вида.*

Ключевые слова: *Флора, Тянь-Шань, Памиро-Алай, Apiaceae, Dorema microcarpum, антропогенный фактор, генофонд, охрана, экология.*

FARG'ONA VODIYSIDA TARQALGAN KAMYOB *DOREMA MICROCARPUM* KOROVIN TURIGA ANTROPOGEN OMILLARNING TA'SIRI VA HIMOYA QILISH CHORALARI

Mirzaolimova Mohizar Muhamatkarim qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: mohizar_95@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada faqat Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan Apiaceae Lindl. oilasiga Dorema Don turkumiga mansub Dorema microcarpum endem va Qizil kitobga kiritilgan tur bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari, ma'lumotlari va himoya choralari keltirilgan. Tadqiqotlar natijasida ushbu turning yangi tarqalish areallari topildi.*

Kalit so'zlar: *Flora, Tyan-Shan, Pomir-Oloy, Apiaceae, Dorema microcarpum, antropogen omil, genofond, himoya, ekologiya.*

PROTECTION MEASURES AND INFLUENCE OF ANTHROPOGENIC FACTORS IN THE FERGANA VALLEY ON THE RARE SPECIES *DOREMA MICROCARPUM* KOROVIN

Mirzaolimova Mokhizar Mukhamatkarimovna
PhD student of Namangan State University
e-mail: mohizar_95@mail.ru

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Abstrakt: *This article presents the results of natural scientific research, information and protection measures for the endemic and Red Book species Dorema microcarpum belonging to the genus Dorema Don from the family Apiaceae Lindl., distributed only in the flora of the Ferghana Valley. As a result of the research, new localities of this species were found.*

Key words: *Flora, Tien Shan, Pamir-Alai, Apiaceae, Dorema microcarpum, anthropogenic factor, gene pool, protection, ecology.*

В связи с тем, что в современный век передовой науки и техники природные ресурсы природы подверглись серьезным антропогенным воздействиям, охрана природы, то есть сохранение биоразнообразия, стала одной из актуальнейших проблем современности.

За последнее столетия влияние хозяйственной деятельности человека на окружающую среду во всем мире, в том числе и в Узбекистане многократно усилилось. Одной из наиболее острых глобальных проблем современности является сокращение биологического разнообразия и невосполнимая утрата генофонда растительного мира. Для решения этой проблемы в Республике Узбекистан создана специальная законодательная база регулирующая отношения в области охраны, в связи с этим охрана окружающей природной среды, рациональное использование биологических ресурсов является основой успешного социально-экономического развития любого государства. На данный момент стоит отметить, что сохранение мира растений, которому в настоящее время угрожает исчезновение, и его рациональное использование является главной задачей, стоящей перед человечеством.

Территория Ферганской долины окружена высокими горными хребтами на севере, Тянь-Шанем и Памиро-Алаем на юге, образуя эллиптическую форму и резко отличается от других долин уникальной флорой и уникальной растительностью (1.рис).



1 – рисунок. ***Территория Ферганской долины***

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Проведенные в последние годы в этом районе флористические и ботанико-географические исследования показывают, что в структуре отдельных видов и их локальных популяций происходит ряд негативных изменений. В холмистых и горных районах Ферганской долины интенсивный выпас скота отрицательно сказывается на состоянии пастбищ и численности редких растений. Следует сказать, что Ферганская долина является одним из регионов, особо отличающихся актуальностью проблемы сохранения природных ландшафтов [2].

По данным М.Г. Пименова и Т.А. Остроумовой в семействе *Apiaceae* насчитывают 474 рода и 3922-4050 видов [4]. На территории Средней Азии было зарегистрировано 420 видов и 94 рода входящих к данному семейству [5]. Сейчас эти цифры изменились незначительно.

В постановлении № 13 Кабинета Министров Республики Узбекистан, принятом 8 января 2018 года, прилагается регламент о том, как должны вести себя люди на охраняемых природных территориях. В заключительных положениях каждого Закона или подзаконных актов ответственность определяется в установленном законом порядке. Кроме того, упоминаются виды наказаний за незаконное использование растительного мира или нарушение правовых норм охраны Кодекса «Об административной ответственности Республики Узбекистан».

Кодексом об административной ответственности установлена отдельная административная ответственность за правонарушения в области экологии, охраны окружающей среды и природопользования, которые отражены в 31 статье (глава VIII, статьи 65-96).

Анализ правовой базы по охране особо охраняемых природных территорий и естественно распространенных (дикорастущих) редких растений показал, что статус особо охраняемых ботанических территорий практически не встречается в действующем законодательстве. В Республике Узбекистан действует ряд законов и подзаконных актов об окружающей среде, природных ресурсах и их рациональном использовании, основной целью которых является охрана и сохранение природы, флоры и фауны республики и передача ее будущим поколениям.

Систематическое положение семейства: отдел Цветковые, или Покрытосеменные (*Magnoliophyta*, или *Angiospermae*) Подкласс Розиды (*Rosidae*) Семейство Сельдерейные, или Зонтичные (*Apiaceae*, или *Umbelliferae*), род *Dorema Don.* В этом семействе много пищевых, кормовых, эфирномасличных, лекарственных и других растений, используемых человеком с глубокой древности.

Существует 12 видов небольшого рода *Dorema* семейства *Apiaceae*, встречающихся в основном в Центральной Азии и Иране. На территории Узбекистана встречается два вида данного рода *D. microcarpum* и *Dorema sabulosum* Litv. В Ферганской долине встречается только *D. microcarpum* (рис.2).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



2 – рисунок. Общий вид *D. microcarpum*. А-период цветения; В-имматурный этап

D. microcarpum, имеющая небольшую популяцию в регионе, отличается уникальностью и редкостью. Изучение этого вида, его распространения и оценки места в человеческом и растительном сообществе имеет большое научное и практическое значение. В настоящее время исследователи ведут актуальную работу по сохранению и увеличению ареала этого малочисленного вида в Ферганской долине.

Материалы и методы

Основным материалом для написания этой работы послужили данные наших исследований, которые проводились в 2021-2022 годах, по целеустремленным маршрутам Ферганской долины и были обнаружены новые местонахождения данного растения в Наманганском области Давлатабадском районе, Чустском районе, Уйчинском районе, а также в Касансайском районе.

На основании имеющейся литературы, анализа гербарных образцов, хранящихся в крупных гербарных фондах в Ташкенте (TASH), Москве (MW), Санкт-Петербурге (LE) и в результате полевых исследований было оценено влияние фрагментации, эксплуатации, урбанизации и антропогенной трансформации на виды *D. microcarpum* в Ферганской долине и были разработаны меры защиты.

Название вида дано на основании International Plants Names Index (www.ipni.org), Plants of the world online (www.plantsoftheworldonline.org), данных виртуального гербария (www.plant.depo.msu.ru) международные электронные базы данных [8, 9, 10]. Карты, показывающие видовое разнообразие и плотность сообществ, были созданы в ArcGIS (10.6.1).

Результаты и обсуждение

По новым местонахождениям найденным исследователям популяция *D. microcarpum* насчитывается не более чем 25-30 особей. Длительность цветения и плодоношения этого монокарпа, 6-8 лет и это является лимитирующим фактором для быстрого роста числа видов в популяции. Кроме того, антропогенные факторы, выпас скота считаются основным фактором, влияющим на разрушение экосистем и исчезновение генетического разнообразия, видов и популяций [7].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

3-рисунок. Основные причины угрозы биологическому разнообразию и вымирания видов растений

Влияние деятельности человека на развитие территорий всесторонне изучено в мировом масштабе, и споры о снижении их воздействия продолжаются [1].

Дано современный синопсис, дающий исчерпывающее представление о виде [8]. В данном конспекте дан ряд достоверных сведений о мерах охраны, библиографии, типе, жизненной форме, фенологии, экологии, общем распространении и значении вида.

Dorema microcarpum Korovin, Not. Syst. Herb. Inst. Bot. & Zool. Acad. Sci. Uzbekistan. viii. 6 (1947).

Type: “Tian-Schan, mont. Ferganici, vallis fl. Kara-su, 14 VII 1927, N 612, 613, 614, E.P. Korovin” (TAK).

Меры охраны. Не охраняется.

Размножение. Семенное [3].

Библиография. ***D. microcarpum*** Korovin, 1947, Bot. Herb. Inst. T. Et Zool. Acad. Sci. Uzbek., 8: 6; К. Корол., 1951, во Фл. СССР, 17: 164; Никитина, 1959, во Фл. Кирг. ССР, 8: 99; Пименов, 1983, в оПР. Раст. Средней Азии, 7: 315. – *D. namanganicum* K. Korol., 1951, цит.соч.:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

165, descr. Ross. – D. hyrcanum Koso-Pol., 1921, Бот.мат. (Ленинград), 16-17: 68, p.p., quoad pl. e Fergana. – Д. мелкоплодная. (Табл. XXIX, Г) [6].

Распространение. Киргизия и Узбекистан. Эндемик восточной горной Ферганы (Ферганский и Алайский хребты).

Жизненная форма. Многолетнее, монокарпическое растение, корень редьковидный.

Фенология. Цветет в май-июнь и плодоносит в июне-июле.

Экология. Пестроцветные, гипсоносные и глинистые обнажения, щебнисто-каменистые и каменистые склоны, конгломераты, по крутым склонам сухих водотоков шиферные сланцы в составе эфемероидно-разнотравной гипсофильной растительности и ксерофильных кустарников. 700-1800 м над ур. моря.

Описание. Вид является редким и эндемичным занесенный в Красную книгу республики Узбекистан, встречается единичными экземплярами и находится под угрозой исчезновения. Корень стержневой. Многолетное травянистое растение до 1-1,5 м высоты, стебель одиночный. Прикорневые листья в очертании широкотреугольные 15-30 см длины, трижды- четырежды тройчаторассеченные, яйцевидные или продолговато-ланцетные. Стеблевые листья сильно редуцированы. Зонтички на коротких до 3-10 мм длины голых ножках, без оберточек или с очень короткими листочками в числе 2-3. Лепестки желтые. Завязи голые, с чашевидным, по краю расширенным подстолбием [3].

В заключение, считаем важным принять необходимые меры по сохранению увядающих редких и узкораспространенных видов растений в природных зонах, поскольку места произрастания этого растения находятся близки к районам проживания населения, в результате антропогенных факторов вегетативные органы данного растения заражаются. Поэтому одной из важных задач является просвещение населения о том, как предотвратить выпас скота на данной территории и применять защитные меры.

Использованные литературы

1. Голубець М. Урбанизация и социальна суть на экологичны наслидки// Урбанизация як фактор змин биогеноценотичний покриву. Материяли конф.-Львыв: Академичний экспресс, 1994. – С. 37-41.
2. Ковалевская С.С. Определитель растений Средней Азии – Ташкент, 1971 – 355 с.
3. Красная книга Республики Узбекистан. – Ташкент: Chinor ENK, 2019. – С. 83.
4. Пименов М. Г., Остроумова Т. А. Зонтичные (Umbelliferae) России. –Москва, – 2012. – 477с.
5. Пименов М.Г. Зонтичные (Umbelliferae - Apiaceae) Средней Азии и Казахстана. Автореф. дисс. на докт. биол. наук – Москва, 1983. – С. 29.
6. Пименов М.Г., Клюйков Е.В. Зонтичные Киргизии – Москва, 2002. – С. 206.
7. Groom M.J, Mefe G.K & Carroll C.R. Principle of Conservation Biology. Sinauer Inc, Sunderland MA, 2006.
8. International Plant Names Index [Elektroniy resurs]. – URL: www.ipni.org (Akkessed 22 March 2021). [International Plant Names Index].
9. Plants of the world online [Elektroniy resurs]. – URL: www.plantsoftheworldonline.org 26 February 2021). [Plants of the world online].
10. Plant depo Moscow State University [Elektroniy resurs]. – URL: www.plant.depo.msu.ru (Akkessed 25 March 2021). [Plant depo Moscow State University

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ТЕХНИКА ФАНЛАРИ
05.00.00 ТЕХНИЧЕКИЕ НАУКИ
TECHNICAL SCIENCES

НОАНЪАНАВИЙ ХОМ-АШЁЛАРДАН ЦУКАТЛАР: ТАЙЁРЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ВА СТАНДАРТЛАР.

Б.С.Тошпўлатов1, Ш.Н.Атаханов1, Д.Б.Тошпўлатова1, О.Маматқулов2,
Наманган давлат университети.
Наманган мухандислик-технология институти

Аннотация: *“Ноанъанавий хом-ашёлардан цукатлар” техник шартлар ташкилот стандарти ишлаб чиқилди. Мазкур хужжатда қўллаш соҳаси; меъёрий хаволалар, терминлар, таърифлар, қисқартувлар, техник талаблар, қабул қилиш қоидалари, инов усуллари, ташиш ва сақлаш, ёнгин хавфсизлиги ва меҳнат муҳофазаси, библография. Тайёр маҳсулот ёнғоқ, қовун, тарвуз пўчоқларини турли ўлчам ва шаклларда кесилган, технологик ишловда аччиги чиқарилиб, қанд қиёмида пиширив, қуритиб, жўхори крахмали ва антисептик суюқликда ишлов берилган маҳсулот. Цукат ишлаб чиқариш учун ишлатиладиган ноанъанавий хом-ашёлар тоза, қишлоқ хўжалик зараркунандалари билан зарарланмаган яроқли бўлиши шарт. Ноанъанавий хом-ашёларни қўллашда уларни яроқсиз қисимларидан тозаланади, ёнғоқ пўчогини аччигини чиқариш учун маҳсус ишлов берилади. Тайёр маҳсулот ГОСТ талаблари бўйича идишларга жойлаб, қадоқланади. Стандарт қадоқларда қуруқ жойда, яхши шамоллатиладиган омборларда, 75% ҳаво нисбий намлиги, 0-200С хароратда 12 ой сақланади.*

Калит сўзлар: *цукатлар, қовун пўсти, тарвуз пўчоғи, кўк ёнғоқ пўчоғи, токсин элементлар, ташиш, сақлаш, қадоқлаш, синов усуллари, сифат кўрсаткичлари.*

Аннотация: *Разработан стандарт организации “Цукат из нетрадиционных видов сырья”. Технические условия, в который включены следующие разделы: область применения: нормативные ссылки; термины; определения; сокращения; технические требования; правила приемки; методы испытаний: транспортирование и хранение; охрана труда и пожарная безопасность, библиография. Продукт представляет собой кожура грецкого ореха, арбузные и дынные корки, нарезанные различной формы и размера из каторых удаляет горечи с помощью технологических операции, сваривают в сахарном сиропе, высушенные, обсыпанные кукурузным крахмалом и обработанные антисептическом раствором. Нетрадиционное сырье предназначенное для производства цукатов должны быть в состоянии чистыми, свежими, не загрязненные сельхоз вредителями. При использовании нетрадиционного сырья удаляет не пригодные части, кожура ореховая по специальной обработке удаляет горечь. Готовый продукт фасуют и упаковывают в тару, рекомендованную ГОСТ. Стандартной упаковке цукаты хранят в сухом, вентемеруемом помещении при относительной влажности 75% при температуре 0-200С, в течении 12. месяцев.*

Ключевые слова: *цукаты, дынные корки, арбузные корки, кожура грецкого ореха, токсичные элементы, транспортировка, хранение, упаковка, методы испытаний показатели качества.*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Кириш

Ер юзида юз бераётган глобал ўзгаришлар аҳоли сонини ўсиши инсоният олдига ечилиши зарур бўлган глобаль муаммоларни қўймоқда. Шундай глобаль муаммолардан бири инсониятни озиқ-овқат билан таъминлашдир. Бу муаммоларни ечиш учун инсон тинмай изланиши зарур ва ўсимликлардан янги ҳосилдор, қурғоқчиликка чидамли навлар, зотдор тез етилувчан хайвонларни кашф этиш ҳамда ноанъанавий хом-ашёлардан озиқ-овқат учун фойдаланиш йўлларини излашдир. Ноанъанавий хом ашёларни қўллаш нафақат инсон рационини бойитиш балки, уларни турли хил менераллар, витаминлар, озиқавий клетчаткага бойлиги инсон организми иммунитетини ошишиги ҳам ҳизмат қилади. Бугунги кунда турли эпидемиялар ривожланган бир пайтда бу ҳам муҳим масалаларни ечими деб қараш мумкин. Биз ноанъанавий хом-ашёлар деганда кунлик рационда кўп қўлланиладиган (семиз ўт, тарра, кўк ёнғоқ ва х..) ёки истеъмолга яроқли бўлиб, (сабзавот, мева, гўшт, сут, балиқ махсулотлари иккиламчи хом ашёлари) ишлатилмайдиганларни тушунамиз.

Юқорида кўрсатилган ноанъанвий хом-ашёларни кимёвий таркиби ва озуқавий қиймати бўйича ўтказилган адабиётлар шарҳида уларни витаминлар, минерал моддалар, озуқавий клетчатка, озиқавий толаларга бойлиги кўрсатди. Шуни ҳисобга олган ҳолда биз ноанъанавий ашёлар ёнғоқ, қовун тарвуз пўчоқларидан цукатлар ишлаб чиқариш технологияси ва рецептураси ишлаб чиқилди ва шу асосида тармоқ стандарти яратилди.

Тадқиқот объектлари:

Ёнғоқ, қовун, тарвуз пўчоқларидан тайёрланган цукатлар тадқиқот объектлари бўлди. Ёнғоқ пўчоғидан цукат тайёрлаш технологияси, уни олиб келиш, навлаш, инспекциялаш, ювиш ва 6-19 минут 10% қайноқ ишқор эритмасида ишлов бериш, сўнгра оқава сувда ишқор тўла кетгунча ювилади.Ювилган пўчоқларни тахта бочкаларда сувда ҳар 6соатда сувини алмаштириб жигар рангга киргунча ушлаб турилади. Сўнгра ёнғоқ пўчоғини 8-10% ишқор сувида қора сиёх рангга киргунча 24 соат ушлаб турилади. Ишқорлашдан сўнг уни тозалаб ювиб, 1,5-2% аччиқ тош эритмасида бланширланади. Бланширлашдан сўнг уни бир соат совуқ сувда ушлаб туринг, сўнгра сиропда 8-10 минутдан 3 марта пиширади, 3 марта 1-1,5 соат давомида совутади. Совуган цукатларни сиропдан ажратиб, қуритиб, унга маккажўҳори краҳмали ёки йод-глицеринли эритмада ишлов бериб, қадоқлаб сотувга чиқарилади.

Тарвуз пўчоғидан цукат тайёрлаш технологияси.

Тарвуз пўчоғидан цукат тайёрлаш учун, тарвуз пўчоғи олинади ва кучсиз туз эритмасида ивитилади ва тиндирилади, сўнг туз тўла йўқолгунча ювилади, юмалоқ, квадрат, тўртбурчак бўлакларга кесилади ва пўстнинг яшил қисми олиб ташланади, шакар сепилиб шарбат ажралгунча тутиб турилади, сўнг қайнаш даражасига келтирилиб, 3 марта 10-25 минутдан пиширилади ва 120-150 минут тиндирилади. Учинчи пишириш охирида лимон кислота қуйилади ва тарвуз пўчоқлари шарбатдан ажратилади, қуритилади ва қуритилган цукатларга кучсиз йодглицерин эритмаси билан ишлов берилади, маккажўхори крахмали билан ишлов берилиб, сотувга чиқарилади.

Қовун пўчоғидан цукат тайёрлаш технологияси.

Қовун пўчоғидан цукат тайёрлаш учун, қовун пўчоғи олинади, ювилади ва алюмокалийли аччиқтошнинг кучсиз эритмасида ушлаб турилади, бир соат қолдирилади,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

сўнг ювилади, юқори қисми кесиб ташланиб, квадрат тўртбурчак, юмалоқ шаклларда кесилади, шакар сепилпди, шарбат ажралгунча ушлаб турилади, шундан сўнг қайнаш даражасигача қиздирилиб, 10-15 минут қайнатилади, 90-120 минут қолдирилиб, бу технологик операция уч марта қайтарилади, сўнг қовун пўчоқлари шарбатдан ажратилади, қуритилади, қуритилган пўчоқларга йодглицерин эритмаси билан ишлов берилади ва маккажўхори крахмали сепилади ва сотувга чиқарилади.

Маккажўхори крахмалининг назорати ишлаб чиқаришга келтирилишида органолептик кўрсаткичлари бўйича ўтказилади.

Бизлар Наманган давлат университети олимлари ноаьанавий хомашёлардан цукатлар учун ташкилот стандарти ишлаб чиқилди.

Стандартни биринчи бўлими унинг ноаньанавий хом-ашёлар ёнғоқ, қовун, тарвуз пўчоғини шакар сиропида озиқавий кислоталар қўшиб пиширилгани, қуритиб, махсус суюқликда ишлов бериб, крахмал сепилганларига тегишли эканлигини кўрсатади.

Иккинчи бўлим ҳавола берилган меьёрий хужжатлар рўйхатидан иборат.

Учинчи бўлим техник талаблар, ҳамда цукатларни сифат кўрсаткичларига талаблар ёритилган.

Сифат кўрсаткичлари бўйича ноаньанавий хом-ашёлардан тайёрланган цукатлар талаб ва меьёрларга мос келиши шарт: ташқи кўриниш, ранг,ҳид, таьм. (1-жадвал)

Ноаньанавий хом-ашёлардан олинган цукатларни сифат кўрсаткичлари.

Кўрсаткичлар	Характеристика ва меьёр		
	Ёнғоқ пўчоғидан цукат	Тарвуз пўчоғидан цукат	Қовун пўчоғидан цукат
1	2	3	4
Ташқи кўриниш	Думалоқ, тўртбурчак кесилган ёнғоқ пўчоқлари	Думалоқ, тўртбурчак кесилган тарвуз пўчоқлари	Думалоқ, тўртбурчак кесилган тарвуз пўчоқлари
Ранг	Тиниқ қора	сарғиш қизил сояли	сарғиш оқ сояли
Ҳид	Ёт хидларсиз ҳушбўй	Ёт хидларсиз ҳушбўй	Ёт хидларсиз ҳушбўй
Таъм	Ёт таъмларсиз, ёқимли	Ёт таъмларсиз, ёқимли	Ёт таъмларсиз, ёқимли
Консистенция	Бироз қаттиқ синувчан	Бироз қаттиқ синувчан	Бироз қаттиқ синувчан
Қуруқ модда миқдори, % дан кўп эмас	80	78	78
Кул миқдори, %	2,1	2,0	2,1
Намлик миқдори, %	20	22	22
Қанд миқдори, %	60	60	60
Ёт аралашмалар	Рухсат этилмайди	Рухсат этилмайди	Рухсат этилмайди

2. Микробиологик кўрсаткичлар

Кўрсаткичлар	Характеристика ва меьёр		
	Ёнғоқ пўчоғидан цукат	Тарвуз пўчоғидан цукат	Қовун пўчоғидан цукат
Мезофил аэроб ва факультатив анаэроб	5x105	5x105	5x105

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

микроорганизмлар миқдори КОЕ/г, кўп эмас			
БГКЦ/ ичак таёқчалари бактериялар гурухи (калиформа) 10,01г	Рухсат этилмайди	Рухсат этилмайди	Рухсат этилмайди
Патоген микроорганизмлар шунингдек salmontlla, 25г	Рухсат этилмайди	Рухсат этилмайди	Рухсат этилмайди
Пўпанаклар, КОЕ/г, кўп эмас	Рухсат этилмайди	Рухсат этилмайди	Рухсат этилмайди
Bacillus cereus, КОЕ/г, кўп эмас	1x103	1x103	1x103

Маҳсулот партиясида ёт ҳид ва таъмга эга бўлган цукатлар сифатли маҳсулот чиқишини камайтириб бутун партия яроқсизлигига олиб келади.

Микробиологик кўрсаткичлар бўйича ноанъанавий хом-ашёдан тайёрланган цукатлар СанПиН 0366 талабларига жавоб бериши керак.

Ушбу стандартда заҳарли элементлар бўйича ҳам талаблар аниқланган: оғир металлар, пестицидлар, нитратлар, радионуклидлар. Улар ҳам СанПиН 0366 да белгиланган кўрсаткичлардан ортиб кетмаслиги керак.

Қабул қилиш талаблари бешинчи бўлимда келтирилган ГОСТ13341, ГОСТ 26313.

Ўлтинчи бўлим сифат назоратини тахлил қилиш услубларини ўз ичига олади. Бу бўлимда намуна олиш, органолептик ва физик-кимёвий кўрсаткичлар, минерализация, заҳарли моддани аниқлаш, нитрат, пестицид, радионуклид, қандни миқдор улушини аниқлаш ГОСТ лари келтирилган.

Еттинчи бўлим- жўнатиш ва сақлаш ГОСТ лари келтирилган.

Сакказинчи бўлимда цукат ишлаб чиқариш технологик жараёнида меҳнат мухофазаси ва техник хавфсизлиги қоидалари бўйича ГОСТ лар ёритилган.

Тўққизинчи бўлим стандартда келтирилган ГОСТ ларни библиографик хаволалари рўйҳати келтирилган.

Стандарт сифатли маҳсулот ишлаб чиқариш, технологк интизомни мустахкамлашга қаратилган. Стандарт даражаси замонавий талабларга жавоб беради.

Ноанъанавий хом-ашёлардан цукат ишлаб чиқариш бўйича меъёрий хужжатлар йўқ. Шунинг учун Наманган давлат университети олимлари ушбу стандартни ишлаб чиқишди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Перспективы использования нетрадиционного сырья в производстве цукатов// Universum: технические науки: электрон. научн. журн. Тошпулатов.Б.С. [и др.]. 2021. 9 (90).
2. Цукать из арбузных и дынных корок: технология их приготовления Тошпулатов Б.С и др. Межлународная научно-техническая конференция. Техника и технология пищевых производства БТТУ. 2022. Апрел.
3.Сабзавотлардан цукат ишлаб чиқариш технологик

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

линиясининг принципиал схемасини ишлаб чиқиш. ***Отаханов Ш.Н., Атаханова Ш.Н.*** [и др.]. Продовольственная безопасность: Глобальные и национальные проблемы. 2022. Октябр. Самарканд.
4. Цукаты из арбузных и дынных корок. Тошпулатов Б., Юлчиева С., ТошпулатоваД., ОтахановШ., БолтаеваМ.,Маматкулов О.Техника и технология пищевых производств Материалы XIV Международной научно-технической 42
конференции. технология их приготовления. 21–22 апреля 2022 год Беларуссия. (88).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

09.00.00 ФАЛСАФА ФАНЛАРИ
ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ
PHILOSOPHICAL SCIENCES

ХАЛҚАРО АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИ ТИЗИМИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ

Алиев Олимбек Айбекович
Андижон давлат университети тадкикотчиси

Аннотация: *Мақолада халқаро ахборот хавфсизлиги тизими, унинг шаклланиши ва ривожланиши, ахборот хавфсизлигининг халқаро-ҳуқуқий асосларини ривожлантириш, жаҳон ахборот майдони доирасида ахборот хавфсизлигига қаратилган қонунчилик ҳужжатларининг қабул қилиниши билан боғлиқ масалаларга эътибор қаратилган.*

Калит сўзлар: *ахборот хавфсизлиги, ахборот майдони, ахборот қуроли, ахборот уруши, ахборий экспансия, киберхавфсизлик, манипуляция*

МЕЖДУНАРОДНАЯ СИСТЕМА ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ

Алиев Олимбек Айбекович
Научный сотрудник Андижанского государственного университета

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы, связанные с международной системой информационной безопасности, ее формированием и развитием, развитием международно-правовой базы информационной безопасности, принятием законодательных актов, направленных на обеспечение информационной безопасности в рамках мирового информационного поля.*

Ключевые слова: *информационная безопасность, информационное пространство, информационное оружие, информационная война, информационная экспансия, кибербезопасность, безопасность*

INTERNATIONAL INFORMATION SECURITY SYSTEM FORMATION AND DEVELOPMENT

Aliev Olimbek Aybekovich
Research Fellow of Andijan State University

Annotation: *The article focuses on issues related to the international system of information security, its formation and development, development of international legal framework of Information Security, adoption of legislative acts aimed at information security within the framework of the world information field.*

Keywords: *information security, information space, information weapon, information war, information expansion, cybersecurity, security*

Кириш

XX асрнинг иккинчи ярмига келиб ахборот-коммуникациявий технологияларнинг (АКТ) ривожланиб бориши билан нафақат миллий давлатларда, балки халқаро ташкилотлар даражасида ҳам ахборот хавфсизлигига оид назариялар, ҳуқуқий асослар ва амалиёт тажрибаси ривожлана бошлади. Шу билан бирга, халқаро майдонда ахборот хавфсизлигининг ўзига хос тушунчалари ҳам шаклланди.

Ахборот хавфсизлигининг назарий жиҳатдан асослаш сифатида унинг халқаро майдонда амал қиладиган тушунчалари шаклланди. БМТ томонидан халқаро ахборот хавфсизлиги "ахборот майдонидаги давлатлар ва жаҳон ҳамжамиятига таҳдидлар келтириб чиқарадиган ва дунёвий барқарорликни издан чиқаришга йўл қўймайдиган тарздаги халқаро муносабатлар ҳолати"дир[1.315] деган таъриф ишлаб чиқилди.

-Женева (12 август 1949 й.)[2] ва Гаага [6] конвенциялари томонидан белгилаб берилган қуролли конфликтлар қоидалари;

-1973 йилда қабул қилинган Халқаро телекоммуникация конвенцияси;

Бу конвенция ахборот қуролларини қўллаш оқибатлари ва бу жараённинг ўзига хос хусусиятларига эга бўлган ахборот майдонларини шаклланишига боғлиқ ҳолда қабул қилинган эди.

Адабиётлар таҳлили ва методлар

1998 йил 4 декабрда БМТ томонидан қабул қилинган "Халқаро хавфсизликда ахборотлашиш ва телекоммуникация соҳаларидаги ютуқлар" номли ҳужжат субъекти ахборот, ахборот технологияси ва улардан фойдаланиш усуллари бўлган бутунлай янги халқаро-ҳуқуқий режимни ташкил этишнинг расмий жиҳатдан бошланиши бўлди[5.48]. БМТ Бош Ассамблеясида 2000 йил бу ҳужжат мавзуси муҳокама қилиниб, унда "ахборот қуроли", "ахборот уруши" ва "ахборот хавфсизлиги" каби таянч (базавий) тушунчаларни аниқлаштириш ва шакллантириш тавсия этилди. Бунда қабул қилинган 1-принцип қоидаларида халқаро ахборот хавфсизлиги соҳасидаги асосий таҳдидлар аниқлаштирилиб, уларни бартараф этишдан келиб чиқиб БМТнинг бу соҳадаги фаолияти йўналишлари белгиланиши таъкидланди. Бунинг учун давлатлар ўртасида битимлар тузилиб, иштирокчи-давлатлар бу соҳада ўзларига мажбуриятлар олиши белгиланди. Бу мажбуриятларда давлатлараро ахборот майдонларида ахборот тизимлари ва жараёнларига, шунингдек, бошқа давлатлар ахборот ресурсларига, муҳим тузилмаларига зиён етказадиган хатти-ҳаракатлар қилмаслиги, сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий тизимларига путур етказмаслиги, бошқа давлатлар жамиятини беқарорлаштириш мақсадида унинг аҳолисини психологик ишлов бермаслиги кабилар ифодаланди.

Битим иштирокчилари жамоавий ахборот хавфсизлиги режимини ташкил этиш учун қуйидагилардан воз кечишлари мажбуриятлари юкланди:

бошқа давлатларнинг ахборот ресурслари ва тизимларига зиён етказадиган ва таъсир қиладиган воситаларни ишлаб чиқиш яратиш ва фойдаланиш;

бошқа давлатларнинг ахборот-телекоммуникация ресурслари ва тизимларига ноқонуний равишда аралашмаслик, шунингдек, улардан ҳуқуқий асосларсиз фойдаланиш;

ахборот майдонларида назорат қилиш ва устунлик қилиш учун хатти-ҳаракатлар қилиш;

янги ахборот технологиялари кириб келишига тўсқинлик қилиш, бошқа давлатлар зарарига ахборотлашиш соҳасида технологик қарамлик шароитларини яратиш;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

халқаро террорчилик, экстремистик ва жиноий ҳамжамиятлар, ташкилотлар, гуруҳлар ва алоҳида олинган шахсларнинг ҳаракатларини рағбатлантириш;

ахборот урушлари келтириб чиқарадиган, давлатлараро муносабатларда тангликлар ҳосил қиладиган, қуролланиш пойгасига олиб келадиган, ахборот урушларини қўзғайдиган режалар, доктриналар ишлаб чиқиш ва қабул қилиш;

ахборот соҳасида инсон ҳуқуқлари ва эркинликларига зиён етказадиган ахборот технологиялари ва воситаларидан фойдаланиш;

алоҳида бир давлат ички қонунчилиги, халқаро ҳуқуқ меъёрлари ва принципларига зид бўлган ахборотларни чегараолди ҳудудларида тарқатиш;

жамиятга нохуш таъсир этиш мақсадларида ахборот оқимларини манипуляция қилиш, ёлғон ахборотлар тарқатиш, ахборотларни қасддан яшириш;

бошқа давлатлар миллий ахборот-телекоммуникация инфратузилмаларини назорат қилишни тортиб олиш, уларни ахборий экспансия қилиш, уларни халқаро ахборот майдонида иштирок этиши шарт-шароитларига ҳалал бериш[3.193].

Окинава саммитида махсус халқаро комиссия – “Рақамли технологиялар имкониятлари бўйича гуруҳлар” (Digital Opportunity Task Force, DOT Force) ташкил этилди. Унинг асосий мақсади ривожланаётган мамлакатлар, халқаро ташкилотлар ва нодавлат ташкилотлар билан “рақамли узилиш” муаммолари бўйича мулоқотларни кўпайтиришга кўмаклашиш, ахборот технологиялари соҳасидаги дастурлар, лойиҳаларни назорат қилиш, бу соҳага ажратиладиган инвестицияларни мувофиқлаштиришга қаратилди.

2001 йилда БМТ иқтисодий ва ижтимоий кенгашининг тавсияси билан БМТ Бош котиби “Ахборот ва коммуникация технологиялари бўйича ишчи гуруҳи”ни (United Nations Information and Communication Technologies Task Force, UNICTTF) ташкил этди. Бу ташаббус “жаҳон рақамли узилишларига барҳам бериш хатти-ҳаракатлар мажмуасини янги глобал даражага олиб чиқиш, шу билан бирга, АКТни барчанинг ривожланиши учун хизмат қилишига эришиш” кабилардан иборат вазифаларни амалга ошириши белгиланди. 2002 йил 29 апрелда Женевада ишчи гуруҳларининг учрашуви ташкил этилиб, унда Европа ва Марказий Осиё учун минтақавий Мақсадли гуруҳлар ташкил этди. 2002 йил май ойи охиригача яна шундай олтита гуруҳлар ташкил этилиб, яна етакчи экспертлар иштирокида ахборот жамиятини ривожлантиришнинг келишилган сиёсати шакллантириш бўйича иш бошлаган Минтақавий тармоқлар бюроси тузилди[7].

2011 йил 22 сентябрда БМТ Бош Ассамблеяси “Халқаро ахборот хавфсизлигини таъминлаш тўғрисидаги конвенция”ни қабул қилди. Унинг асосий мақсади “халқаро тинчлик ва барқарорликни бузиш учун фойдаланилаётган АКТга қаршилик қилиш, шунингдек, давлатлар ахборот майдонидаги фаолиятларига кўмаклашишга оид чора-тадбирларни амалга ошириш деб белгиланди[4].

2016 йилда Россия Федерациясининг таклифи билан 84 та давлат ҳаммуаллифлигида ишлаб чиқилган “Халқаро хавфсизлик контекстидаги ахборотлашиш ва телекоммуникациялар соҳасидаги ютуқлар” янги резолюция лойиҳаси қабул қилинди. Уни ишлаб чиқишда BRIKS, ШҲТ, МДҲ, Лотин Америкаси ва Осиёдаги давлатлар иштирок этди. Бу ҳужжатнинг ҳаммуаллифлигига биринчи марта АҚШ, Япония, ЕИ аъзолари – Буюк Британия, Германия, Испания, Нидерландия ва Франция қўшилди. Шу тариқа, бу резолюция БМТ доирасидаги ҳамкорликнинг янги ва юқори даражаси даври бошланганлигини англатди.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2018 йил 22 октябрда БМТ Бош Ассамблеясининг 73-сессиясида БМТнинг “Халқаро хавфсизлик контекстидаги ахборотлашиш ва телекоммуникациялар соҳасидаги ютуқлар” номли навбатдаги резолюцияси қабул қилинди. Унда “тинчликка асосланган ахборот-коммуникация муҳити ва хавфсизликни таъминлашнинг асосий масъулияти давлатлар зиммасида бўлса-да, фуқаролик жамияти, хусусий сектор ва илмий доиралар ташкилотларини зарурат туғилганида жалб этиш механизмларини аниқлаш, халқаро ахборот хавфсизлигини таъминлаш учун халқаро ахлоқ кодекси лойиҳасини қабул қилиш халқаро ҳамкорлик самарасини ошишига кўмаклашиши мумкинлиги” қайд этилди.

Резолюция биринчи марта халқаро институтларнинг жаҳондаги ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг, шунингдек, ахборот урушларини тийиб турувчи механизмининг базавий таянчи бўлиши кераклигини таъкидлади. Халқаро институтлар ёрдамида халқаро ахборот хавфсизлигини таъминлаш масалаларига тааллуқли бўлган халқаро ҳуқуқ субъектларига таъсир эта олиш имкониятлари пайдо бўлди[8].

Тадқиқот методологияси:

Очиқ таркибдаги ишчи гуруҳ (ОТИГ) мандатига биноан маъруза ўз ичига қуйидаги мавзуларни олди:

-мавжуд ва юз бериши мумкин бўлган таҳдидлар;

-давлатлар масъуллик хулқининг меъёрлари, қоидалари ва принциплари;

-халқаро ҳуқуқнинг қўлланишлик масалалари;

-ишончни мустаҳкамлаш чоралари;

-АКТ соҳасидаги салоҳиятни ошириш чоралари;

-ахборот хавфсизлиги бўйича доимий равишдаги институционал мулоқотларни ташкил этиш масалалари.

ОТИГ иштирокчилари давлатлар ўртасидаги конфликтларда АКТдан фойдаланишларни юз бериши муқаррарлиги, давлатлар, шунингдек, нодавлат субъектлар томонидан бу каби имкониятлардан фойдаланишдаги хавотирланишларнинг ўсиб бораётганлигини қайд этди. Шунингдек, маърузада жиддий ахборот тузилмаларига нисбатан вайронкор ҳужумлар оқибатлари тўғрисидаги таҳлиллар эълон қилинди. Жумладан, COVID-19 пандемияси даврида соғлиқни сақлаш соҳасидаги инфратузилмаларни ҳимоялашнинг муҳимлиги қайд этилди. Бу соҳани ҳимоялаш ҳам халқаро, ҳам давлатлараро, ҳам хусусий сектор учун муҳимдир.

Франция ва Миср бошчилигидаги 40 та давлатдан иборат гуруҳ тавсиялар қаторига ўзларининг ташаббусларини киритишга эришди. 2020 йилнинг баҳорида улар Очиқ таркибдаги ишчи гуруҳи ва Ҳукуматлар эксперт гуруҳини ўрнини босиши мумкин бўлган киберхавфсизлик бўйича ягона, ўтказиш вақти чекланмаган музокаралар жараёни ғоясини қабул қилишни таклиф этган эди. Бу ташаббус кўтарилиши билан ОТИГ ўз маърузасининг бир банди сифатида қабул қилган эди[9].

Таҳлил ва натижалар: Ҳозирги даврга келиб таниқли олимлар томонидан “ахборий хавфсизлик”, “ахборий муҳит”, “ахборот хавфсизлиги”, “ахборот жамияти”, “шахс ахборот хавфсизлиги”, “жамиятнинг ахборот хавфсизлиги” “давлатнинг ахборот хавфсизлиги”, “коммуникациявий сиёсат”, “медиа сиёсати” тушунчалари таърифлари шаклланди.

Шунингдек, кейинги беш йилликда Ўзбекистонда ҳам давлатнинг ахборот хавфсизлиги сиёсати такомиллашди, ривожланган давлатларга хос бўлган жиҳатлари шаклланди. Шу билан бирга, БМТ ва халқаро ташкилотлар томонидан ахборот хавфсизлигининг назарий

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

жиҳатдан асослаш сифатида унинг халқаро майдонда амал қиладиган тушунчалари шакллантирилди. Халқаро майдонда ахборот алмашинувларининг глобаллашуви натижасида халқаро ҳамжамиятда ахборот оқимларининг хавфли таъсирларини камайтиришнинг халқаро механизмларини топишга зарурат туғилди. Шу туфайли ахборот хавфсизлигининг халқаро-ҳуқуқий асослари ривожлана бошлади. Жаҳон ахборот майдонига оид қонунчилик шаклланди. Айниқса, халқаро ахборот майдонида кейинги даврда кибержиноятчиликнинг янги турлари кўпая бошлади.

Хулоса: қилиб айттанда, XXI бошларига келиб ахборот хавфсизлиги жаҳондаги ҳар бир давлат, жамият, шунингдек, халқаро сиёсий майдонда шахс, жамият ва давлат ижтимоий-сиёсий барқарорлигини сақлашнинг асосий омили ҳисобланмоқда. "Ахборот дунёни бошқаради" деган қанотли сўз ҳақиқатга айланди. АКТ такомиллашиб, кенгайиб боргани сайин ахборот хуружлари ҳам кучайиб, авж олиб бормоқда. Бу ҳолат ахборот хавфсизлиги ва ахборот сиёсатининг ҳам мукаммаллашиб ва ривожланиб боришини тақозо эта бошлади, бу соҳа энг долзарб масалага айланди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Доклад Генеральной Ассамблеи ООН A /55/40,10 июля 2000 года; A/55/140/Add. 1,3 октября 2000// информационные вызовы национальной и международной безопасности.-M.,2001.–C.315.i mezhdunarodnoj bezopasnosti (InformationChallenges to National and International Security).-Moscow,2001. --P. 315.
2. Женевская конвенция от 12 августа 1949 года о защите гражданского населения во время войны// https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/geneva_civilian_1.shtml.
3. Информационные вызовы национальной и международной безопасности / Под ред. А.В. Федорова, ВН. Цыгичко.-М:ПИР-Центр,2001.-С.193.
4. Конвенция об обеспечении международной информационной безопасности// https://www.mid.ru/foreign _policy/official_documents/-/asset_publisher/CptICkB6BZ29/content/id/191666.
5. Крутских А.В. Информационный вызов безопасности на рубеже XXI века // Международная жизнь.- 1999,№2.-С.48.
6. Саямов Юрий Николаевич. О Гаагских конференциях 1899 и 1907 гг // Россия и современный мир.- Москва, 2017.-Вып.3(96).
7. Convention on Cybercrime (Будапешт, 23 ноября 2001 г.) //http://conventions. coe.int.
8. См.:Резолюция от 2 декабря 2014 г. A/RES/69/28 «Достижения в сфере информатизации и телекоммуникаций в контексте международной безопасности».URL: https://documentsdds-ny.un.org/doc /UNDOC/ GEN/N14/662/43/PDF/N1466243.pdf (дата обращения:16.11.2019).
9. Шакиров О. ООН считает применение кибероружия все более вероятным// https://expert.ru/2021/03/ 23/oon-i-kiberugrozy-peregovory-zaversheny-da-zdravstvuyut-peregovory/.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

BURHONIDDIN MARG‘INONIYNING AXLOQIY-HUQUQIY TARBIYAGA OID QARASHLARINI FALSAFAIY MOHIYATI

Ergasheva Hayotxon Samandarovna
Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *maqolada Burhoniddin Marg‘inoniy asarlarida mehr-shavqat, muruvvat, diyonat, saxovat, tinchlik, adolat, mulk, meros, vaqf, vasiyat, qasam, jinoyat va jazo kabi axloqiy-huquqiy tushunchalarning mazmun-mohiyati atroflicha izohlangan va bugungi kundagi ahamiyati qiyosiy tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *axloq, tarbiya, burch, vijdon, mulk, meros, omonat, hadya, vaqf, vasiyat, qasam.*

ФИЛОСОФСКАЯ СУТЬ ВЗГЛЯДОВ БУХОНИДДИНА МАРГИНОНИ НА НРАВСТВЕННО-ПРАВОВОЕ ВОСПИТАНИЕ

Эргашева Хаятхан Самандаровна
Независимый научный сотрудник Навоийского государственного педагогического института

Аннотация: *в статье в произведениях Бурхониддина Маргинани раскрываются значение и сущность таких этико-правовых понятий, как добро, милосердие, религия, великодушие, мир, справедливость, собственность, наследство, одаренность, воля, присяга, преступление и наказание. подробно объясняется, и их значение сегодня сравнительно анализируется.*

Ключевые слова*: нравственность, воспитание, долг, совесть, имущество, наследство, задаток, дар, пожертвование, завещание, присяга.*

THE PHILOSOPHICAL ESSENCE OF BURHONIDDIN MARGHINONI'S VIEWS ON MORAL AND LEGAL EDUCATION

Ergasheva Hayatkhan Samandarovna
Independent researcher of the Navoi State Pedagogical Institute

Annotation: *in the article, in the works of Burhoniddin Marginani, the meaning and essence of ethical and legal concepts such as kindness, mercy, religion, generosity, peace, justice, property, inheritance, endowment, will, oath, crime and punishment are explained in detail, and their importance today is comparatively analyzed.*

Key words: *morality, upbringing, duty, conscience, property, inheritance, deposit, gift, endowment, will, oath.*

Kirish

Bugungi kunda Sharq musulmon olamida o‘zining beqiyos salohiyati bilan buyuk ilmiy maktab yaratgan, islom huquqshunosligining buyuk namoyandalaridan biri Burhoniddin Marg‘inoniydir. Bu fiqhshunos Sharq olamida “Burhoniddin va milla”, ya’ni “Din va millatning hujjati” degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan. Xususan, allomaning asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mulkchilikning turli xil shakllari (davlat va siyosiy mulkchilik), jinoyat va jazoning huquqiy jihatlarini, fuqarolik va jinoiy huquqqa oid masalalar batafsil bayon qilingan. Bu esa, Burhonniddin Marg‘inoniyning axloq va huquqqa oid qarashlarida jamiyatda

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

adolat tuyg‘usi, o‘z davrining huquqiy mezonlari asosida yashash, eganing mol-mulkiga ko‘z olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi axloqiy va huquqiy tushunchalarning mohiyati ochib berilgan. Allomaning Ilmu urfon yo‘lidagi fidoyiligi, kamtarinligi, insonparvarligi, jamiyatdagi turli adolatsizlikka qarshi kurashishi, har qanday nojo‘ya xatti-harakat uchun jazo muqarrarligiga oid qarashlari o‘z asarlarida muxtasar bayon qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Burhoniddin Marg‘inoniy asarlaridagi g‘oyalar huquqshunos olimlar, sharqshunoslar, tarixchilar va boshqa sohadagi ilmiy izlanuvchilar faoliyatida asosiy metodologik manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, allomaning “Al-Hidoya” asarining N.I.Grodekov tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasining huquqshunoslik fanlari doktori, professor A.X.Saidov tomonidan yozilgan mukammal so‘z boshi bilan qayta nashr qilingani, sharqshunos olim Odiljon Qoriyev “nikoh, oila, farzand tarbiyasi, sherikchilik haqida qarashlari[1], Abdulhay Laknaviy o‘zining “al-Favoid ul bahiyya fi tarojim il hanafiyya” asarida shunday ta’riflagan edi: “Burhoniddin Marg‘inoniy imom, faqih, muhaddis, Qur’on mufassiri bo‘lib, uni yod bilgan olim, fanlarni yig‘ib tartibga soluvchi, zakiy, tadqiqotchi, xudojo‘y va pokdomon inson, ulug‘ faqih, adabiyotchi, shoir, fan va adabiyotda uning tengi yo‘q”[2] deya e’tirof etganligi, K.Kattayev “Hidoya” asari huquq ilmi borasida o‘ta mukammal ekanligini nafaqat islom olami, hatto Ovrupo ahli ilmlari ham e’tirof etishganligi[3], S.Isxakov “Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asari muhim huquqiy manba” [4] ekanligiga oid qarashlarida diniy, huquqiy masalalar tadqiq etilgan. Jumladan: vaqf, vasiyat, qasam, jinoyat va jazo tizimiga o‘z davrida mukammal sharh yozganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari N.Yusupova Burhoniddin Marg‘inoniyning islomda oila qoidalarining ahamiyati va o‘rni, uning o‘ziga xos jihatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilgan va allomaning asarlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy g‘oyalarning bugungi kundagi ahamiyatini asoslagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Islom olamida (nafaqat islom olamida) dong taratgan mashhur yurtdoshlarimizdan biri – ilmi fiqh, ya’ni islom huquqshunosligi ilmining eng zabardast allomalaridan biri “Burhoniddin val-milla” (ya’ni, islom olami xalqlari va islom dinining hujjati, dalili, isboti degani) nomi bilan mashho‘r bo‘lgan buyuk faqih Imom Abu-l-Hasan Burhoniddin Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljamil al-Farg‘oniy ar-Rishtoniy al-Marg‘inoniydir. Burhoniddin Marg‘inoniy asarlarining hammasi bizgacha yetib kelmagan. Allomaning eng mashhur va eng yirik asari “Hidoya” to‘rt jilddan iborat bo‘lib, uning har bir jildi turli muammolarni huquqiy yechimiga bag‘ishlangan.

Birinchi jild 5 kitobdan iborat bo‘lib, tahorat va amaliy ibodatlar (namoz, ro‘za, zakot va haj)ga bag‘ishlangan. Bu jild 47 bob va 37 fasldan iborat.

Ikkinchi jildiga nikoh, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolaning nasabini aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yo‘qolganlar, sherikchilik va vaqf huquqi kabi masalalar kiritilgan. Bu jild 60 bob, 36 fasldan tashkil topgan.

Uchinchi jildida (14 kitob) oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, pulni birovga o‘tkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da’vo, iqror bo‘lish, sulh, bir ishda pul bilan sherik bo‘lish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg‘a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, voliylik (patronat), majbur qilish, homiylik, qisman ozod bo‘lgan qullar va bosqinchilik xususidagi masalalar o‘rin olgan. Bu jildda 36 bob, 37 fasl bor.

To‘rtinchi jildida (76 kitob) esa shafoat, merosni taqsimlash, dehqonchilik hamda bog‘dorchilik xususida shartnoma, qurbonlikka so‘yishadigan jonzod haqida, umuman qurbonlik

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

qilish haqida, shariatga zid yomon narsalar haqida, tashlandiq yerlarni o‘zlashtirish xususida, taqiqlangan ichimliklar haqida, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar xususida, xun haqi to‘lash, vasiyat kabi masalalar yoritilgan. Bu jild 23 bob, 38 fasldan iborat.

Burhoniddin Marg‘inoniy sunniylardagi to‘rtta asosiy mazhab asoschilari va ularning shogirdlari yaratgan barcha asarlarni o‘rganib chiqib, ularni mukammal bilibgina qolmasdan, uning o‘zi ham fiqhga oid bir qator fundamental asarlar yaratgan. Uning bizgacha yetib kelgan eng mashhur asarlari quyidagilar:

-“Al- Hidaya fi sharh bidayat al-mubtadi” (Boshlovchilar uchun dastlabki ta’lim asarining sharhi – To‘g‘ri yo’lga boshlovchi kitob);

- “Bidayat al-mubtadi” (Boshlovchilar uchun ilk ta’lim);

- “Kifoyat al-muntahiy” (Yakunlovchilar uchun tugal ta’lim);

- “Nashr al-mazhab” (“Mazhabning yoyilishi”);

-“Kitab al-tajnis va-l-mazid” (Ajratish va ilmni ziyoda qilish kitobi);

-“Manasik al-haj” (Haj arkonlari);

- “Kitab majmu al-navazil” (Nozil bo’lgan narsalar to’plami);

- “Kitab al-faraid” (Meros haqidagi kitob) singari asarlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, bu zotning qalamiga mansub “Kitob ul-mashoyix” (Shayxlar haqidagi kitob) asarida o‘zi ta’lim olgan 40 dan ortiq shayx va allomalarni sanab o‘tgan. Bu ro‘yxatda Najmuddin Umar ibn Muhammad an-Nasafiy, Abu al- Asir al-Badaviy, Abu Yoqub as-Sayariy, Abu Ishoq an-Navqadiy va Ja’far al- Hinduvoniylarning nomlari bor. Afsuski, bu manba to‘g‘risida biz boshqa manbalar vositachiligida bilamiz, xolos. Unda keltirilgan ma’lumotlar esa o‘sha manbalar uchun dastur bo‘lib xizmat qilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Burhoniddin Marg‘inoniy o‘z asarlarida o‘sha zamonning ijtimoiy muhiti, iqtisodiy munosabatlarni, jamiyatdagi mulkiy va nomulkiy masalalarning turlari (davlat va siyosiy mulkchilik), jinoyatchilik va jazoning huquqiy jihatlarini, fuqarolik huquqi va amaliyotini, jinoiy ishni ko‘rishda diniy va huquqiy masalalarini uyg‘unlashgan holda batafsil yoritib bergan. Allomaning asarlarida jamiyat rivoji uchun odamlarda avvalo adolat tuyg‘usi, o‘z hayotlarini huquqiy mezonlari asosida qurmog‘i, o‘zganing mol-mulkiga ziyon yetkazmaslik, birovning haqqidan hazar qilish, mehr-oqibat, insof, diyonat kabi tushunchalarning mohiyatini ochib bergan.

Burhoniddin Marg‘inoniyning o‘zi hayoti davomida ana shunday insoniy fazilatlarga amal qilib yashadi. Ilmu urfon yo‘lidagi fidoyiligi, kamtarinligi, o‘z asarlarida biron marta ham “men” degan so‘zni ishlatmay, hokisorlik bilan izoh berishida ko‘rinib turadi. Allomaning asarlarida vijdon, diyonat, burch, tenglik, tarbiya kabi axloqiy tushunchalar bayon etilgan. Jumladan:

- quyosh nurlarini berkitib bo‘lmaganidek, haqiqatning chirog‘ini ham so‘ndirib bo‘lmas;

- yozilgan kitob nusxasining to‘g‘riligi ko‘z qorachig‘ining boqqaniga bog‘liqdir, rivoyatning inobatlisi (ishonchlisi) esa serob suvdan ham ortiqroq qondirar;

- zimmangda farz bo‘lgan narsani qarz va burch o‘rniga qo‘y. Bu hol qalbingu dilingga rohat baxsh etib, sharafing va obro‘yingni saqlash uchun eng to‘g‘ri yo‘ldir;

- o‘zi sazovor bo‘lmagan hamdu sanoyu maqtovlarni talab qilish uyatsiz, telba odamlarning odatlaridandir;

- ilmli bo‘lish o‘qish, o‘qitish, yozish bilan hosilu mukammal bo‘ladigan bir saboqdir. Agar olim kishi chiroyli, xushxat yozuvga ega bo‘lsa, bu uning kamolotga yetganidan dalolatdir;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

- ezgulik, xayrli ishlarga astoydil kirish, ularni paysalga solib, keyin qilarman degan o‘ylardan voz kech, shayton yo‘ldan uradigan shoshma-shosharlik bilan emas, tafakkur va idrok bilan ish tut;

- sotib olgan narsangda aldanib, moliyaviy ziyon-zarar ko‘ruving sen bundan kelgusida ko‘radigan ziyonlaringdan, ancha yengilroq va osonroqdir;

- yaramas va xasis kishining eshigini taqqillatishda saxiy va mo‘tabar kishining oziq tishini sug‘urish bilan barobar ranju izza bordir. Ya’ni, saxiy kishi ishi tushib zaruratdan xasis odamning eshigini qoqsa, u buni o‘zining oziq tishini sug‘urtirgandek ozoru aziyat chekkan holda qiladi.

Xulosa va takliflar

Musulmon olamida Burhoniddin Marg‘inoniyning hayotini, asarlaridagi g‘oyalarning mazmun-mohiyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish doimo katta bo‘lgan. Allomaning diniy, huquqiy, falsafiy qarashlari bugungi kunda o‘quvchi yoshlarimizni yurtimizdan chiqqan buyuk olim haqidagi ma’lumotlardan o‘rganishga dav’at etadi. Shuning bilan bir qatorda buyuk fiqhshunoshning asarlari mamlakatimiz ma’naviyati tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi va yoshlarni yuksak fazilatlarga ega qilib tarbiyalashda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қориев О.А. “Бурҳониддин ал-Марғиноний – хуқуқшунос”// Шарқшунослик. 1993 й.
2. Маҳмуд Ҳасаний. Ал-Марғинонийнинг “Ҳидоя” асари ва унга ёзилган шарҳлар. Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, Т. 2000. – Б.23.
3. Kattayev K. Imom Burhoniddin Marg‘inoniy, Imom Ali Sug‘diy va huquqshunoslik. Samarqand, 2007. –B. 21-27.
4. Isxakov .S.A. “Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asari muhim huquqiy manba”. Avtoreferat. Toshkent:.2002-y.

TINCHLIK, ADOLAT VA SAMARALI BOSHQARUV BARQAROR RIVOJLANISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Pulatov Jaxongir Nazirovich
Navoiy viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
pulatovjahongir00@gmail.com

Annotatsiya: *maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan barqaror rivojlanish maqsadlari, mamlakatimizning 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarning mazmun mohiyati, tinchlik, adolat, bag‘rikenglik, barqarorlik, qonun ustuvorligini ta’minlash, zo‘ravonlikka barham berish, korrupsiya va poraxo‘rlikni oldini olish, boshqaruvning barcha bosqichlarida davlat organlarining samaradorligi, hisobdorligi va shaffofligini oshirish, qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari hamda fuqarolik jamiyati tashkilotlarining ishtirokini kengaytirish barqaror rivojlanish kafoloti ekanligi nazariy jihatdan asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *barqarorlik, taraqqiyot, adolat, tinchlik, forovonlik, insonparvarlik, kreativlik, kompetentlik, inson intellekti*

МИР, СПРАВЕДЛИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ КАК ГЛАВНЫЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Пулатов Джахонгир Назирович
Доцент кафедры «Методология социально-экономических наук», доктор философских наук (PhD)
pulatovjahongir00@gmail.com

Аннотация: *в статье описываются цели устойчивого развития, принятые Организацией Объединенных Наций, содержание национальных целей и задач в области устойчивого развития нашей страны до 2030 года, мира, справедливости, толерантности, стабильности, обеспечения правопорядка, насилия. Теоретически он основан на том, что устранение, предупреждение коррупции и взяточничества, повышение эффективности, подотчетности и прозрачности деятельности государственных органов на всех уровнях управления, расширение участия граждан, субъектов предпринимательства и организаций гражданского общества в процессе принятия решений является гарантия устойчивого развития.*

Ключевые слова*: стабильность, развитие, справедливость, мир, процветание, человечество, творчество, компетентность, человеческий интеллект*

PEACE, JUSTICE AND EFFECTIVE GOVERNANCE AS THE MAIN FACTOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Pulatov Jakhongir Nazirovich
Associate Professor of the Department "Methodology of Socio-Economic Sciences", Doctor of Philosophy (PhD)
pulatovjahongir00@gmail.com

Annotation: *the article describes the goals of sustainable development adopted by the United Nations, the content of national goals and tasks in the field of sustainable development of our country until 2030, peace, justice, tolerance, stability, ensuring the rule of law, violence It is theoretically based on the fact that eliminating, preventing corruption and bribery, increasing the efficiency, accountability and transparency of state bodies at all levels of management, expanding the participation of citizens, business entities and civil society organizations in the decision-making process is a guarantee of sustainable development.*

Keywords: *stability, development, justice, peace, prosperity, humanity, creativity, competence, human intelligence.*

Kirish

Bugungi kunda jamiyat barqaror rivojlanishi 2015-yilning sentyabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi sammitida qabul qilingan 70-sonli rezolyusiyasiga asosan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda 17 maqsadni o‘z ichiga olgan barqaror rivojlanish maqsadlari asosida taraqqiy etmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlari – kambag‘al, boy va o‘rtacha rivojlangan barcha mamlakatlar tomonidan harakatga chorlovchi o‘ziga xos da’vatdir. Ular

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

bizning sayyoramizning farovonligi va himoyasini yaxshilashga qaratilgan. Dunyo mamlakatlari qashshoqlikni bartaraf etish, iqtisodiy o‘sishni kuchaytirish va ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoyani ta’minlash, shuningdek, iqlim o‘zgarishi hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha sa’y-harakatlar bilan birgalikda qabul qilinishi zarurligini tan oladilar. Bu kabi ustuvor vazifalarga mamlakatimiz davlat siyosati darajasida e’tibor qaratmoqda. “Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat” [1] ekanligi barqaror rivojlanishning kafolotidir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosi insondir. Taraqqiyot uchun, avvalo, insonning o‘zi taraqqiy etishi kerak, inson esa taraqqiyotni barpo qiladi, bu eng to‘g‘ri yo‘ldir. Shu munosabat bilan 2030- yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimiz barqaror taraqqiyot sari rivojlanayotganligiga ishoradir.

Barqaror rivojlanish, tinchlik, adolat, samarali boshqaruvga oid sharq mutaffakirlari Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Burxoniddin Marg‘inoniy, Alisher Navoiylar jamiyat barqaror rivojlanishi ilm-fanning qanchalik rivojlanganligiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Xususan, Abu Rayxon Beruniy[2] o‘zining Meneralogiya asarida jamiyatda tinchlik va farovonlik vujudga kelishi ilm-fanning ravnaq topishiga bog‘liq jarayon deb hisoblaydi. Barqaror rivojlanish masalasi xorijlik olimlar: amerikalik D.Kellner bozor munosabati sharoitida insonni iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash lozimligini, germaniyalik J.Xabermas[3] jamiyatni modernizasiyalashda inson manfaatlari va taraqqiyoti masalalarining uzviyligini ta’minlash kabi muammolarni o‘rganishga oid tadqiqotlar olib borgan. MDH davlatlarida L.Tiximirov, V.Chirkin, S.Dyatlov[4] barqaror rivojlanishni iqtisodiy va huquqiy jihatdan tadqiq qilgan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan maxsus tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, shu sohaga yaqin muammolar (inson, uning huquq va manfaatlari, davlat boshqaruvi, inson intellekti) ma’lum darajada tahlil etilgan. Jumladan, O‘zbekistonlik olimlardan A.Saidov[5]“Demokratik o‘zgarishlar va inson taraqqiyoti masalalarining falsafiy-huquqiy asoslari” ni, S.Otamuratov[6] “Jamiyat modernizasiyasida inson manfaatlari muammolari”ni ilmiy–nazariy jihatdan tadqiq etishgan.

Natijalar va muhokama

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga oid konsepsiyasi – kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan holda o‘zaro uzviy bog‘langan ekologik xavfsiz, iqtisodiy ta’minlangan, ijtimoiy muhofazalangan va institutsional birlashgan hayot tarzini shakllantirishni o‘z ichiga olgan g‘oyalar tizimini qamrab olgan. Ushbu konsepsiyadagi masalalarini hal qilishda insonning o‘zi ijtimoiy hayotda faol ishtirok etayotganligi bilan bevosita bog‘liq jarayondir. Inson barqaror taraqqiyotning ob’ekti va sub’ekti bo‘lib qolmasdan u taraqqiyotning asosiy vositasi va omillaridan biridir. Barqaror rivojlanish dastlab kelajak avlodlarining resurslariga ziyon etkazmasdan hozirgi zamon ehtiyojlarini qondirish deb ta’riflangan. Bu esa, jamiyat barqaror taraqqiyoti iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va madaniy o‘lchovlar o‘rtasidagi muvozanatni kafolatlashga ishoradir.

Jamiyatning rivojlanish darajasi imkoniyatlar tengligiga, jamiyatda aholining turli qatlamlari o‘rtasida huquq va majburiyatlar adolat bilan taqsimlanishiga ko‘ra baholanishi kerak.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Imkoniyatlar tengligi – mavhum tushuncha emas. Uning mohiyati shundaki irqi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, millati, diniga qarab huquq va imkoniyatlari taqsimlanishi kerak.

Barqaror rivojlanish insonning ijtimoiy, siyosiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishni, sog‘lom muhitni saqlashni hisobga oladi. O‘z navbatida, barqaror rivojlanishning avlodlararo o‘lchovi, ya’ni kelajak avlodlar uchun bir xil ehtiyojlarni qondirish xavfini tug‘dirmaydi. Shu nuqtai-nazardan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga hamohang tarzda rivojlanayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, O‘zbekiston tarixida sifat va mazmun jihatdan yangi taraqqiyot davri boshlanganiga alohida e’tibor qaratildi. Bu yangi davrning eng muhim va ustuvor xususiyatlari, avvalo, mamlakatimizda davlat va boshqaruv organlari, barcha rahbarlar bundan buyon o‘z faoliyatini “Inson-jamiyat-davlat ” va “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyillar asosida olib borishida aks etadi[7]. Barqaror rivojlanishga erishish borasida quyidagi amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- Zo‘ravonlikning barcha turlari tarqalishini qisqartirish va ushbu hodisa sababli o‘lim ko‘rsatkichlarini kamaytirish;
- bolalar va ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha turlarini tugatish;
- qonun ustuvorligiga ko‘maklashish hamda barcha uchun odil sudlovdan foydalanish bo‘yicha teng imkoniyatlarni ta’minlash;
- boshqaruvning barcha bosqichlarida davlat organlarining samaradorligi, hisobdorligi va shaffofligini oshirish;
- boshqaruvning barcha bosqichlarida qarorlarni tayyorlash va qabul qilish jarayonida fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari hamda fuqarolik jamiyati tashkilotlarining ishtirokini kengaytirish;
- 2030-yilgacha barcha uchun yuridik bir xillikni, shu jumladan, tug‘ilishni qayd etishni ta’minlash;
- fuqarolarning axborotga bo‘lgan huquqini amalga oshirishlari uchun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot oshkoraligini kuchaytirish hamda fuqarolarning asosiy erkinliklari himoyasini ta’minlash kabi islohotlar davlat dasturi asosida izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Xulosa

Shuni ta’kidlab aytish o‘rinliki, mamlakatimizning bugungi taraqqiyot bosqichida inson huquqlarini ta’minlash, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, islohotlar xalq manfaatlariga xizmat qilishi, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratlashtirish va mamlakatimizni dunyo hamjamiyatiga integrasiyalashuvi bo‘yicha maqsadlarimizga yetishishda hal qiluvchi omil bo‘lib qoladi. Bu esa, O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosati bu maqsadlarga to‘liq hamohang bo‘lib, aholi uchun qulay shart-sharoit yaratish, odamlar salomatligini muhofazalash, iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш.Мирзиёев. “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик -ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”. -Тошкент: Ўзбекистон, 2017 .- 53 б.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2. Абу Райҳон Беруний. Феруза (Жавоҳирлар ҳақида нақл ва ҳикоятлар).-Тошкент.: 1993.-Б.42
3. Habermas J. Postmetaphysical Thinking.–Cambridge: Polity, 1992.– pp. 127-132.
4. Дятлов С.А. Теория человеческого капитала: Учебное пособие. – СПб.: СПбУЭФ, 1996. - С.72.
5. Саидов А. Философско-правовое наследие Иммануила Канта и современная юриспруденция. –Ташкент: 2008
6. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик (сиёсий-фалсафий таҳлил).–Тошкент: 2013.
7. Sh.mirziyoyev "Yangi O'zbekisto taraqqiyot strategiyasi" T:. "O'zbekiston" 2022. 10 -bet

MA'RIFATLI JAMIYAT BARPO ETISHDA AXBOROT-MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI

Xudayberdiyev Asomiddin Kurbonkulovich
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar
pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat barpo etishda axborot-mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari va «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» g'oyasi asosida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda olib borilayotgan yangilanishlar haqida fikr bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *Ma'rifatli jamiyat barpo etish, axborot-mafkuraviy xavfsizlik, globallashuv, axborot xuruji, milliy mafkura, «ommaviy madaniyat»*

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПРИ ПОСТРОЕНИИ ПРОСВЕТЛЕННОГО ОБЩЕСТВА

Худайбердиев Асомиддин Курбонкулович
Доцент кафедры социальных наук, педагогики и психологии
Ташкентский педиатрический медицинский институт

Аннотация: *В данной статье выражается мнение по вопросам обеспечения информационно-идеологической безопасности в условиях становления просвещенного общества Узбекистана и проводимых обновлений в социально-экономической и политической сферах на основе идеи «Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари».*

Ключевые слова: *Построение просвещенного общества, информационно-идеологическая безопасность, глобализация, информационная атака, национальная идеология, «массовая культура»*

ISSUES OF ENSURING INFORMATION AND IDEOLOGICAL SECURITY IN BUILDING AN ENLIGHTENED SOCIETY

Khudayberdiev Asomiddin Kurbonkulovich
Tashkent Institute of Pediatric Medicine, Social Sciences
associate professor of the department of pedagogy and psychology

Annotation: *This article gives an opinion on the issues of ensuring information and ideological security in the context of the formation of an enlightened society in Uzbekistan and ongoing updates in the socio-economic and political spheres based on the idea of "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari".*

Keywords: *Building an enlightened society, information and ideological security, globalization, information attack, national ideology, "mass culture".*

Yangilanayotgan O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davlatimiz ravnaqi uchun tamal toshi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday jarayon, tabiiyki, xalqimiz o‘sishini talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ma’naviy-ma’rifiy va targ‘ibot tizimini takomillashtirishni, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalariga jiddiy e’tibor qaratishni taqoza etadi.

2021-yil 26-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaror mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning navbatdagi qadami, desak adashmaymiz. Mazkur qaror negizida ilgari surilgan «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» g‘oyasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda olib borilayotgan yangilanishlar, ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda olib borilayotgan faoliyatning uzviy davomi sanaladi hamda bu boradagi ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar belgilandi

- ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;
- oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;
- targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;
- el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;
- madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;
- geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish[1] masalalariga alohida e’tibor berish vazifalari qo‘yildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan «Uchinchi renessans» davri nafaqat yoshlarda, balki har bir shaxs, har bir fuqaroda mas’uliyat hissini yuzaga keltirmay qolmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ma’lumki, milliy mafkura milliy manfaatlarning qobig‘i bo‘lib, uning vazifasi davlat va jamiyat jipsligini ta’minlashdan iborat. Milliy mafkura har bir davlatda turli nom va qarashlar majmuidan iborat bo‘ladi. Masalan: AQShda liberalizm g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan “Amerika orzusi”, Yaponiyada imperator va xalq yagona g‘oyasini ifoda etuvchi “Yapon ruhi”, XXRda “Mushuk oqmi yo qora - farqi yo‘q, asosiysi sichqon tutsa bas” shiori asosida konfutsianlik

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

g‘oyalari yotadi. Mafkura borasida mag‘lubiyat sobiq Ittifoq misolida mamlakatning parchalanishiga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ostona shahrida o‘tkazilgan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha Kengashning VI-sammitida “Biz radikal g‘oyalarning keng xurujiga yanada ko‘proq to‘qnash kelmoqdamiz. Buzg‘unchi kuchlar targ‘ibot va mafkuraviy ta’sirning yangi usullaridan foydalangan holda, ekstremistik tashkilotlarga yoshlarni faol jalb etmoqda. Shu munosabat bilan yosh avlodni radikalizmdan asrash, ularning kuch-g‘ayrati va azmu shijoatini bunyodkorlik sari yo‘naltirish uchun tizimli hamkorlikni o‘rnatishimiz kerak. O‘g‘il-qizlarimiz o‘z kuchiga ishonishi, adolatli kelajakni qaror toptirishdagi o‘z ishtirokini his etishi, salohiyat va orzu-umidlarini amalda ro‘yobga chiqarish imkoniyatlariga ega bo‘lishi lozim” [2] deya chiqishi yoshlarni axborot-mafkuraviy xavfsizlikni hamkorlikda ta’minlashga da’vat qiladi.

Milliy mafkuralar o‘rtasidagi kurash axborot-mafkuraviy urush yordamida olib boriladi. Shu sababli, qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda yuzaga kelgan siyosiy voqelikni atroflicha ilmiy tahlil etish, milliy iqtisodiy, ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash bilan bir qatorda axborot-mafkuraviy xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor berish shart hisoblanadi.

Ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan axborot urushi o‘z ichiga:

1.Sof mafkuraviy ta'sir o‘tkazish.

2. Mamlakat aholisiga noto‘g‘ri ma'lumot berish (davlat va hukumat rahbarlarimga ishonchsizlik o‘yg‘otish, davlat siyosatining ayrim yo‘nalishlariga norozilik kayfiyatini tug‘dirish, rasmiy targ‘ibot va axborot manbalari va kanallariga ishonchni yo‘qotish).

3. Fuqarolarga psixologik bosim o‘tkazishga urinish (mish-mishlarni tarqatish, nosog‘lom kayfiyat tug‘dirish, turli ijtimoiy guruhlar orasida dushmanona kayfiyatlarni – millatchilik, rasizm, diniy ekstremizm va fanatizmni yuzaga keltirish) kabi vazifalarni qamrab oladi.

Bugungi kunda xalqaro maydonda yangi jahon tizimining shakllanishi, Yevrosiyo makonida vaziyat va kuchlar nisbatining o‘zgarib borishi davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Globallashuv jarayonlarining kuchayib borishi axborot-mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash masalasini tobora dolzarblashib boradi. Axborot-mafkuraviy urushning asoslari xorijiy mamlkatalarning aqliy markazlarida XX asrning 60-yillaridan boshlab amaliyotga joriy etilib kelinmoqda. Axborot xuruji raqib sanalgan yoki geosiyosiy manfaatlar doirasida joylashgan davlatlar milliy manfaatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatish, ichki siyosatida ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarishda ham arzon ham samarali amaliyot sanaladi.

Axbort-mafkuraviy urush globallashuv jarayonining mahsuli bo‘lib, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, turfa xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini ta’kidlash o‘rinli. Insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan qudratli shaxslar harbiy aslahalardan ming chandon ustun turgan «axborot quroli»dan samarali foydalanib kelganlar. Bu borada, Yevroosiyo makonida vaziyat va kuchlar nisbatining o‘zgarib borishi, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash masalasi mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar negizida muntazam ravishda kuzatib borish, bu borada yangicha yondashuvlarni izlab topishni taqoza etmoqda. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavsizlik tizimining shakllanish jarayoni yakuniga yetmaganligi, mintaqada turli ekstremistik guruhlarning bosh ko‘tarib chiqishlari ehtimolining mavjudligi, jahondagi yetakchi davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasini o‘z «ta’sir doiralari»ga tortishga intilishlari milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik masalalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Bugungi kunda

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ijtimoiy tarmoqlar axborot-mafkuraviy xurujlarni amalga oshirishda eng kuchli va samarali qurolga aylanib bormoqda. Shu bois, xorijiy davlatlar axborot-mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashda OAV, televideniye, radio bilan birgalikdav ijtimoiy tavrmoqlar ustidan nazorat o'rnatishga alohida e'tibor qaratadilar. AQSH Qurolli kuchlari ustavida: «Axborot mafkuraviy urush - raqib tomon sanalmish o'zga davlat fuqarolariga «haqiqat»ni matndan uzib olgan holda, yolg'on xulosaga keltiruvchi dalillar orqali ta'sir ko'rsatish sanaladi», -deb ta'rif beriladi [3].

XXR harbiy fanlar akademiyasi xodimlari, harbiy xizmatchilar Van Baotsun va Li Fey: «Axborot xavfsizligi ham tor ma'noda, ham keng ma'noda qo'llaniladi. «Jang maydonidagi axborot urushi» deb ataluvchi tor ma'noda «qo'mondonlik va boshqaruv urushi»ning mohiyatini tashkil etadi... Keng ma'noda «axborot urushi» tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda harbiy/xavfsizlik darajasi bilan birga: 1) raqib davlatning axborot tizimiga zarba berish; 2) raqib axborot oqimiga zarba berish; 3) jamiyatni boshqarish hamda aks ta'sirlarga tegishli javob bera olish tizimi imkoniyatlarini cheklashni nazarda tutadi [4].

Xorijiy davlatlarda targ'ibot tizimi samaradorligini oshirish maqsadida o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha yo'nalishlarda faoliyat olib boriladi.:

1. Nashriyot va OAV yo'nalishi.
2. Ijtimoiy tarmoqlar yo'nalishi.
3. Ommaviy targ'ibot va tashviqot yo'nalishi.
4. Ta'lim – Xalq ta'limi va Oliy o'quv yurtlari yo'nalishi.
5. Ilmiy-tadqiqot yo'nalishi.
6. Madaniy-oqartuv yo'nalishi.

Mazkur yo'nalishlar davlat boshqaruvining barcha markaziy va hududiy bosqichlarini qamrab olgan bo'lib, axborot sohasida yagona davlat siyosatini ta'minlab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Bugun axborot xuruji yurtimizga nisbatan tizimli asosda olib borilib, uning ko'lami tobora ortib bormoqda. Ma'lumki, «Axborot urushi» harbiy hatti-harakatlarga nisbatan juda samarali bo'lib, u yadro qurolidan ham qudratliroq kuchga ega. Ya'ni, axborotga ega shaxs har qanday jarayonni nazorat qila olishi va undan o'z maqsad va manfaati yo'lida samarali foydalana olish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Bu kurashning ob'ekti ham, sub'ekti ham inson sanaladi. Ayrim davlatlar tomonidan ilgari surilayotgan kontseptsiya va doktrinalarda «insonlardagi ijtimoiylashuv –g'oyalarini yo'qotish zarur»ligi ochiqdan-ochiq aytiladi.

Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar yuzaga kelmoqda. Mazkur jarayonlar xorijiy aqliy va tahlily markazlar doirasida ishlab chiqilishi bilan birga, ushbu jarayonga yurtdoshlarimizning ham jalb etilishi, afsuski kuzatilmoqda.

Atrofimizdagi madaniyat sohasida kechayotgan voqealarni tahlil qilib ko'rsak, badiiy film, reklama, jumladan ko'chalardagi bannerlarda, musiqa va kliplarda faqat pul, boylik va ma'naviyatsizlik targ'iboti mavjud. Ayrim hollarda mutlaqo milliy ma'naviyatimizga zid ko'rinishlar, sahnalar namoyish etiladi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarida bunday «badiiy asarlar» faqat «sarmoyadorlar» tomonidan homiylik qilinishi ham hech kimga sir emas.

Tahlil va natijalar

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Bugungi voqelikni ilmiy tahlil qilish asosida quyidagi yo‘nalishlarda «axborot xuruji» olib borilayotganini ko‘rish mumkin:

Birinchi yo‘nalish, davlat rahbari, deputatlar, hukumat a’zolari sha’ni va faoliyatiga nisbatan xuruj.

Ikkinchi yo‘nalish, olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar mohiyatini tushirish, xalqning ishonchini yo’qotishga qaratilgan intilish.

Uchinchi yo‘nalish, jamiyatni turli guruhlarga ajratish orqali defragmentatsiyalash, ularni bir-birlariga qarshi qo’yish.

To’rtinchi yo‘nalish, milliy va ma’naviy qadriyatlarni barbod qilish, «ommaviy madaniyat»ga asoslangan soxta qadriyatlarni singdirish.

Beshinchi yo‘nalish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar - ichki ishlar, mudofaa, sud, prokuratura va xavfsizlik idoralari faoliyatiga nisbatan salbiy kayfiyatni tug’dirish.

Oltinchi yo‘nalish, kelgusida muayyan maqsadlarni amalga oshirish mumkin bo‘lgan shaxslarni ommalashtirish, ularni «xalq qahramonlari»ga aylantirish.

Demak, axborot xurujini bartaraf etish maqsadida axborot xavfsizligini ta’minlash borasida huquqiy, tuzilmaviy va g‘oyaviy asoslarni o‘zida mujassam etgan yagona davlat siyosatini ishlab chiqishga ehtiyoj tug‘ilgan. Bu borada, axborot xavfsizligini ta’minlash, tashqi xurujlar manbalarini aniqlash, baholash va bashorat qilish, davlat hokimiyati organlari va axborot-matbuot xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, mamlakat milliy manfaatlarining axborot sohasidagi milliy manfaatlarini kafolatli ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan qarorda ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil qilishda yaxlit tizimning mavjud emasligi, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilmayotganligi, ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda hususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmaganligi ta’kidlab o‘tiladi.

Milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga xuruj kecha yoki yaqin o‘n yilliklar oldin emas, balki bir necha asr avval boshlangan. «Demokratik nur» olib kelishga intilgan qator yozuvchi-shoirlar, kinorejissyorlar, san’at arboblari ajdodlarimiz naqadar qoloq, madaniyatsiz bo‘lganliklarini ifoda etuvchi asarlar barpo etganlar.

Afsuski, qonunchilikda tegishli qoidalar belgilangan bo‘lsada, sohadagi davlat siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vazirlik va idoralar tomonidan amaliy ishlarni ijobiy baholab bo‘lmaydi.

Хулоса ва таклифлар

Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni bartaraf etishda, birinchidan, targ‘ibot-tashviqot tizimini shakllantirish, ikkinchidan tashqi va ichki ijtimoiy-siyosiy holatni milliy mafkura bilan bog‘lagan holda milliy manfaatlar negizida ko‘rib chiqish va baho berish, uchinchidan, milliy mafkura negizlarini aniqlash va aniq siyosiy maqsadlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi masalalarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi:

Birinchidan, «O‘zbekiston Respublikasi axborot-mafkuraviy xavfsizlik konsepsiyasi»ni ishlab chiqish va qabul qilish. Ushbu hujjat o‘z ichiga qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarni qamrab olishi talab etiladi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ikkinchidan, axborot-mafkuraviy xavfsizlik tizimini shakllantirish, uning sub'ektlari, ob'ekti, predmeti va vositalarini aniq belgilab berish.

Uchinchidan, barcha strategik soha va yo'nalishlar bo'yicha aqliy markazlar joriy etish va ularni yagona markazga yo'naltirish.

To'rtinchidan, xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda ta'limning barcha qatlami, OAV, televideniye va radio faoliyatini muvofiqlashtirish.

Beshinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda ilgari surilayotgan g'oya va fikrlavrni monitoring qilish, ularning dinamikasini aniqlash, ushbu fikrlarni ilgari surayotgan shaxslarning psixologik portretini yaratish.

Oltinchidan, mamlakatimizda muayyan sohalarni qamrab olgan ilmiy-amaliy tahliliy markazlarni tashkil etish.

Ma'lumki davlat siyosati milliy manfaatlar hamda tashqi siyosatga javob tariqasida olib borilishi bilan birga «aqliy markazlar»ning ilmiy konsepsiya va nazariyalariga tayangan tavsiyalari asosiga ham tayaniladi. Mamlakatimizda ham shunday tahliliy ilmiy-amaliy markazlar bo'lishi maqsadga muvofiq. Globallashuv jarayonida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqot markazlari o'rni va roli tobora ortib bormoqda. Shuningdek, tegishli muassasalar mazkur yo'nalishlarda doimo izlanishda bo'lishni, ustuvor yo'nalishlarni muntazam ravishda korreksiyalash, ularni amalga oshirishda keng o'lchamli va chuqur o'ylangan faoliyat olib borishni geosiyosiy va geostrategik tendensiyalarni kuzatib borishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://lex.uz/docs/5344692. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5040-son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 13 oktyabrь kuni Ostona shahrida o'tkazilgan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengashning VI sammitidagi nutqi.

3. Information Operations. Joint Publication 3-13. 27 November 2012 Incorporating Change 1 20 November 2014 // https:www.jcs.mil / Portals / 36 / Dokuments / Doctrine / pubs / jp3_13.pdf.

4. Wang Baocun, Li Fei. Information Warfare // Liberation Army Daily, 13 June 1995. – Url-adress: https: // irp.fas.org / world / china / docs / iw_wang.htm.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

МАЪРИФАТ, МАЪРИФАТЛИ ЖАМИЯТ ВА ИНСОН ҲАҚИДА ҚАРАШЛАРНИНГ ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ

Саидаҳмадов Шуҳрат Шамиевич
Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети
мустақил тадқиқотчиси

Аннотация: *Ушбу мақолада Шарқ, хусусан, Ўзбекистон тарихида буюк алломалар илгари сурган маърифат тушунчаси ва маърифатли жамият ҳақидаги қарашлар фалсафий жиҳатдан таҳлил этилади. Унда маърифатнинг диний-тасаввуфий ва ижтимоий-фалсафий мазмуни, унинг жамият ҳаёти ва инсон тафаккури ривожидаги ўрнига баҳо берилади, янги Ўзбекистон шароитидаги мавқеи ва ўрни илмий таҳлил қилинади.*

Калит сўзлар: *Маърифат ва жамият, ислом таълимоти, тасаввуф, инсон маънавияти, комил жамият, янгича қараш, миллий колорит, фалсафий таҳлил.*

ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ НА ПРОСВЕЩЕНИЕ, ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЕ ОБЩЕСТВО И ЧЕЛОВЕКА

Саидахмадов Шухрат Шамиевич
Независимый исследователь Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

Аннотация*: В данной статье философски анализируется концепция просвещения и взгляды на просвещенное общество, выдвинутые великими учеными в истории Востока, в частности, Узбекистана. В ней оценивается религиозно-мистическое и социально-философское содержание просвещения, его место в развитии общественной жизни и человеческого мышления, научно анализируется его положение и место в условиях нового Узбекистана.*

Ключевые слова: *Просвещение и общество, исламское учение, суфизм, духовность человека, совершенное общество, новое видение, национальный колорит, философский анализ.*

HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF VIEWS ON ENLIGHTENMENT, ENLIGHTENING SOCIETY AND HUMAN

Saidakhmadov Shukhrat Shamievich
Independent researcher Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Annotation: *This article philosophically analyzes the concept of enlightenment and views on an enlightened society put forward by great scientists in the history of the East, in particular, Uzbekistan. It evaluates the religious-mystical and socio-philosophical content of enlightenment, its place in the development of social life and human thinking, scientifically analyzes its position and place in the conditions of the new Uzbekistan.*

Key words: *Enlightenment and society, Islamic teaching, Sufism, human spirituality, perfect society, new vision, national flavor, philosophical analysis.*

Кириш

Тарихдан маълумки, Шарқ ижтимоий-маънавий ҳаёти тафаккур ва мушоҳада, фалсафа ва ҳикмат, башарият ва илоҳиёт билан бевосита боғлиқ ҳолда шаклланган эди. Шарқ маданиятини асрлар давомида илҳомлантириб келган тасаввуф таълимоти ва

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

айтилганидек кейинчалик юзага келган жадидлик ҳам маърифат тарихига боғланади. Шарқ, хусусан, Ўзбекистон тарихида жамият ижтимоий-иқтисодий ҳаёти ва шахс маънавий даражасини ифода этувчи қатор чуқур маъноли, этимологик ва мазмун-моҳият жиҳатидан қамровдор фалсафий тушунчалар амалда кенг қўлланилади. Шундай тушунчалардан бири сифатида маърифат ифодасини айтиш мумкин. У сўз бойлигида пайдо бўлгандан маъноси кенгайиб, амалда ижтимоий-маданий ҳаётнинг ажралмас қисмига айланиб келмоқда.

Адабиётлар тахлили

Соҳавий луғатларда маърифат (кўпликда "маориф") "билмоқ", "билиш", "танимоқ", "таниш", "билим", "англамоқ" деган маъноларда изоҳланади ва "аҳли маърифат", "маърифат эгалари" тарзида билимли кишиларни назарда тутади [6.379]. Бироқ шуни айтиш керакки, ижтимоий-фалсафий жиҳатлардан бу тушунча доирасида ниҳоят теран мушоҳадалар ўз аксини топади. Ушбу масала моҳияти ҳақида кейинги йилларда доимий равишда мулоҳазалар билдирилиб келинмоқда, унинг фалсафий-бадиий, илмий-луғавий хусусиятларини ойдинлаштириш борасида қарашлар илгари сурилмоқда. Гап шундаки, "маърифат, маърифатли инсон ва жамият" тўғрисидаги фикрлар ҳам айни тушунчалар сингари ҳар бир даврда ўз изоҳини талаб этади, янгича қарашлар ва нуқтаи назарларга эҳтиёж сезади, бир сўз билан айтилганда, ҳар бир талқин-таҳлилда долзарб муаммога айланади. Шу нуқтаи назардан мазкур илмий мақолада айни масалага ҳозирги глобаллашув шароити талаблардан келиб чиқиб фалсафий баҳо берилади. Маълумки, тарихий жиҳатлардан қаралганда, маърифат тушунчаси шахсий ва ижтимоий маъноларда ислом таълимотидан олдинги диний-руҳоний, илмий-фалсафий қарашларда ҳам у ёки бу сабаб эътироф этиб келинган эди. Хусусан, Шарқ манбаларида, қомусий илмлар хариталарида, қадимги шумер-акад ёзувларида, Ҳиндистон, Миср, Хитой фалсафасида, антик Юнон ва Рим ёдгорликларида, қадим туркий битикларда маърифат, маърифатли жамият ва инсон ҳақида қарашлар учрайди. Уларда одил шоҳ, адолатли жамият ва билимли шахс хусусида мулоҳазалар юритиш асносида илм-маърифат масаласига муносабат билдирилган эди. Жаҳон тарихида алоҳида ҳодиса бўлган ислом таълимоти ва маданиятининг пайдо бўлиши билан барча соҳалар, жумладан, ижтимоий-фалсафий қарашларда бўлгани сингари илм-маърифатга ҳам муносабат тубдан ўзгарди.

Тадқиқот методологияси

Бизга маълумки, шарқона манбаларда исломгача бўлган тарих "жоҳилия даври" деб юритилади ва унинг акси ўлароқ ислом вужудга келишидан бошланган замон "маърифат даври", "саодат асри" сифатида тилга олинади. Албатта, дунё тарихини маънавий жиҳатлардан бу тарзда муайян даврларга ажратилиш ислом таълимоти ва мафкураси нуқтаи назаридан эди. Бироқ, ислом манбаларида ўтмиш диний-фалсафий қарашларининг чуқур ислоҳ қилиниши (масалан, будпарастлик, оташпарастликнинг кескин рад этилиши ёки яҳудийлик, насронийликка муносабатнинг ўзгариши кабилар), ислом таълимотининг умуминсоний ғоялари, ислом туфайли тавҳид фалсафасининг юксак нуқтага кўтарилиши айни шаклда даврлаштиришни тақозо қилган эди.

Ислом фалсафасида маърифат масаласи исломнинг қарор топиши маъносида ўртага ташланган ва у араб тилида "арафа", "маориф", "ориф" тушунчалари билан бир ўзакдаги "билиш" фалсафасини англатган эди. Унинг негизида борлиқни билишдан тортиб Ҳақни

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

англашгача, иймондан илмгача бўлган ақлий-нақлий (рационал ва иррационал) жараёнларни ўз ичига олган оламшумул қадрият мужассам эди. Бу ҳақда жаҳон миқёсида шухрат қозонган олимлар, ислом мутафаккирлари, Шарқнинг донишманд алломалари, дину дунё илм аҳли намоёндалари маърифат, маърифатли шахс ва жамият ҳақида ўз қарашларини билдирганлар, ўз асарларида маърифат нима, маърифатли инсон ким, маърифатли жамият қандай бўлиши лозим деган саволлар хусусида мулоҳаза-мушоҳада юритганлар. Айниқса, Қуръон, Ҳадис, тафсир, фиқҳ, калом, нубувват каби ислом таълимоти ва маданияти манбалари асосида шаклланган тасаввуф фалсафасида маърифат ғояси ва орифлик анъанаси етакчи мақом касб этади. Шу билан бирга маърифат ва маърифатчилик ғояси асрлар давомида дунё олимларини ўзига жалб қилиб келган. Хусусан, XX асрнинг оламшумул ҳодисаси жадидчилик оқими ҳам айни жараён тарихи билан боғлиқ ҳолда вужудга келган эди.

Таҳлил ва натижалар

Шарқ маърифатининг мумтоз ва беназирлиги ҳам, албатта, илоҳий қарашлар, тавҳиднинг энг юқори мақомдаги ифодасида намоён бўлади. Уни англашда маърифат ва ирфон, илм-тафаккур ғайрати ва шижоати талаб этилади. Айтиш керакки, маърифат, орифлик ва улар замирида ётган маъно бошқа тилларда муқобили учрамайди. У ислом негизида шаклланган ўзга тушунчалар қатори хос бир мазмун-моҳиятни англатади ва мумтоз шарқона фалсафа табиатини акс эттиради. Шундан маърифат, ирфон тасаввуф ва шу руҳдаги илмнинг ҳам бош масаласи ҳисобланади. Манбаларда таъкидланганидек, тасаввуф фалсафасининг муҳим масалалари "маърифат ва орифлик мақоми" билан боғланади. Гап шундаки, тасаввуф маърифатининг бепоёнлиги, кўпгина масалалар, жумладан, олам ва одамни идрок этиш, инсон моҳиятини англаш ҳақидаги қарашлари ниҳоятда мураккаб ва шу билан биргаликда жозибадордир. Шу маънода, маърифат, маърифатли жамият ва инсон масаласи ҳам, уни чуқур ўрганишни, у ҳақда давомли мушоҳада юритишни талаб қилади. Бу масала ҳозирги кундаги глобал тараққиёт, замонавий илм ва фалсафа учун зарурлигини тасдиқлайди. Шарқ тасаввуфида маърифат тадрижий тарихга эга бўлиб, у фалсафий қарашлар ва талқинларда турфа тимсол-ифодаларда акс этади. Айтиш керакки, маърифат сўфий ва ориф, орифлик ва тасаввуф бир заминда пайдо бўлганлиги кўринади. Шу боис ҳам тадқиқотларда тасаввуф атамасининг пайдо бўлиши изоҳланган ўринларда маърифат масаласининг диний-фалсафий талқинларига ҳам урғу берилади. Шарқ мутафаккирлари маърифат моҳияти, унинг илоҳиёт, инсоният ва жамиятдаги мавқеи ҳақида теран фикрлар билдирганлар. Масалан, Абдулкарим Қушайрий "Уламо наздида маърифат илм маъносида келур. Уларга кўра, ҳар илм бир маърифатдир, ҳар маърифат эса бир илмдир. Аллоҳ ҳақида олим бўлган ҳар киши орифдир, ҳар ориф эса олимдир. Маърифат – хусусий тажриба, амалиётда ҳосил қилинган билим. Бу билим ҳар бир мурид қалбида янгидан турли кўламда кашф этилади. Демак, маърифат илҳом натижасида хос бандаларга ҳадя этилган илоҳий инъомдир. Илм эса умумий, куллий, назарий, мужаррад билим. Қалбнинг маълумотларни билишига – маърифат ва ирфон, ақлнинг маълумотларни билишига – илм дейилган. Маърифатнинг манбаси – сезги (кашф, илҳом), илмнинг манбаси далилдир. Маърифат – сўфийларга тегишли бўлган илми ладундир. Орифлар мана шу маърифат ва илҳомга мазҳардирлар", – дейди [9.29]. Имом Ғаззолийнинг таъкидига кўра, "Қалбда маърифат майдонга келгач, қалб ҳоли ўзгаради. Қалб ҳолати ўзгаргач, аъзоларнинг амаллари ҳам ўзгаради. Яъни амал ҳолга,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ҳол илмга, илм тафаккурга боғлиқ бўлиб қолади", "Одам ботиний кўзи очилмагунча, то маърифат ҳосил қилмагунча Ҳақ жамолини кўролмас, Ҳақ таоло жамолини мушоҳада қилолмас. Бас, маърифати илоҳийнинг калиди Ҳақ таолонинг ажойиб яратиш ва ғаройиб қудратларини мушоҳада қилмоқдур... Ва дилни ҳазрати Ҳақ субҳонаҳу ва таолонинг жамоли бокамолин мушоҳада қилмоқ учун халқ қилибдур... Ва дилнинг ғизоси (озиғи) Ҳақ таолонинг маърифати ва муҳаббатидур", – дейди [4.10]. Ибн Ато эътирофига кўра: "Маърифат икки қисмдан иборат. Бири – Ҳақ маърифати, иккинчиси, ҳақиқат маърифатидир". Ҳужвирий эътирофида: "Маърифатнинг ҳақиқати орифнинг қалбида пайдо бўлади. Маърифат – қалбнинг ҳаёти (тириклик манбаи) бўлиб, ҳар бир киши қадру қиммати маърифат билан фарқланади. Маърифатсиз кўнгил нурланмайди ва илоҳий асрорни кашф эта олмайди. Бундай қалб файзсиз бўлгани боис Тангри олдида қадр топаолмайди".

Ҳазрат Алишер Навоий эса бир рубоийсида:

Ирфон аҳлига эл ниёзи яхши,
Таъзим ила лутфи дилнавози яхши,
Гар маърифат ўлса чорасози яхши,
Тоат кўпидин, маърифат ози яхши - деб "кўп тоатдан оз маърифат яхши" ҳикмати маъносини шеърий йўлда бадиий ифодалайди [5.194]. Бу хил фикр-қарашлар Шарқ сингари Ғарб ижтимоий-фалсафий ҳаётида ҳам кўп келтирилади. Уларда маърифат инсоният бугуни ва келажаги учун хизмат қиладиган омил сифатида юқори баҳоланади. Шуни айтиш керакки, тарихдан фалсафа ва тафаккур ирфоний истилоҳларга эҳтиёж сезади. Бу истилоҳлар ҳозирги даврларда маънолари ўзгарган ҳолда бўлса-да, фаол қўлланади. Айниқса, туркий тасаввуфий шеърияти-тариқати асосчиси Аҳмад Яссавий, унинг издошлари Сулаймон Боқирғоний, Юнус Эмро, Убайдийлар меросида маърифат ҳақида чуқур фалсафий-бадиий фикрлар билдирилади. Бизнинг фикримизча, тасаввуф адабиётида маърифат ғоясини Хожа Ахмад Яссавий ва унинг издошлари сингари теран талқин этган ижодкорлар учрамаса керак. Алишер Навоий ҳам ҳаётдаги маърифатли инсонлар ҳақида фикр юритган. Айтиш лозимки, бу таърифларда маърифатли инсон – комиллик, маърифатли жамият – одиллик тимсоли сифатида эътироф этилади. Шу маънода Ахмад Яссавийнинг ўзи ҳам тарихда ориф сифатида машҳур бўлган шахсдир. Айниқса, маърифат ва орифлик иккинчи бир тўлқинда Алишер Навоий сиймоси ва ижодида юқори босқичга кўтарилади. Алишер Навоийнинг "Насойим ул-муҳаббат", "Назм ул-жавоҳир", "Ҳайрат ул-аброр", "Маҳбуб ул-қулуб", "Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер" сингари асарлари асосида маърифат талқинига доир умумназарий қарашлар илгари сурилади. Унда шоир дин ва ахлоқ, адолат ва комиллик, маърифат ва орифлик, фано ва бақо масалаларидан баҳс юритади. Аслида маърифат, яъни Ҳақ ва ҳақиқатни танимоқ Шарқ мутафаккирларининг бош мақсади бўлган эди. Зеро, маърифат орқали инсон ўзининг шарифлигини, дунёга келиш мақсадини тушунади. Шарқ мумтоз адабиётида ўлмас асарлар яратган улуғ сўз санъаткори Алишер Навоий айни замонда улкан маърифат ва маданият дарғаси ҳам эди. Унинг борлиқ, олам ва одам ҳақидаги қарашлари, фалсафий-тасаввуфий мазмундаги асари моҳияти ҳам мана шу маърифат нури билан йўғрилган эди.

Хулоса

Юқорида қайд этилган фикрлардан кўринадики, маърифат, маърифатли инсон ва жамият ҳақидаги қарашлар ҳам Шарқ фалсафасига кўра иррационал таҳлил этилади.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Бунда маърифат – Ҳақни англаш илми, маърифатли инсон – Ҳақни англаган зот, маърифатли жамият эса Ҳақ ҳақиқатлари қарор топган макон сифатида талқин қилинади. Бироқ бу қарашлар ижтимоий-башарий маъноларда ҳам илоҳий-ирфоний нуқтаи назарларда бўлгани сингари бирдек аҳамият касб этади. Чунки, қадим Шарқ фалсафасига биноан дунёвийлик илоҳийликнинг, фонийлик боқийликнинг мажоз ифодаси сифатида талқин этилади. Шу нуқтаи назардан Шарқда диний ва дунёвий илм, дунёвий ва диний жамият, дин ва дунё илми соҳиби бир масалада: маърифат, маърифатли жамият ва инсон якдиллик ҳосил қилади. Шунинг учун ҳам Шарқнинг буюк қомусий алломалари (дунёда хоҳ Шарқ, хоҳ Ғарбда бўлсин, дин-илоҳиёт маърифатидан бехабар бирор шахс улуғ мақомларга кўтарила олмаган – таъкиб бизники) яратган илмий кашфиётлар негизида ҳам Ҳақ ва ҳақиқатга бўлган мустаҳкам иймон-эътиқод турган эди.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, инсоният пайдо бўлган даврлардан бошлаб, ҳозирги замонларгача маърифатли инсон, инсонпарвар жамият аждодлар орзуси бўлиб келган. Бу йўлда қилинган сай-ҳаракатлар ҳозирги даврларда ҳам ниҳоят муҳим ҳисобланади ва янги Ўзбекистон келажаги учун пойдевор бўлиб хизмат қилади. Шу боис технология асрида ҳам, глобал ҳаёт жабҳаларидан ҳам энг аввал маърифатли инсон, маданиятли шахсгина гуманистик жамият манбаи, таянчи саналади. Бугунги мураккаб халқаро вазият эса маърифатга ҳар қачонгидан ҳам ортиқ эҳтиёж сезмоқдаки, бу ушбу масаланинг зарурати ва аҳамиятини белгилайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи. 2017 йил 4 август.
2. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-жомиъ ас-саҳиҳ. 4-жилдлик. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти,1992. 1-жилд. – 560 б.
3. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-жомиъ ас-саҳиҳ. 4-жилдлик. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти,1997. 2-жилд. – 608 б.
4. Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний. Тасаввуф ва инсон. – Тошкент: Адолат, 2001. – 203 б.
5. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 2-том. Назм ул-жавоҳир. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 194
6. Ислом тасаввуфи манбалари. Тўпловчи Ҳ.Болтабоев. – Т.: Ўқитувчи, 2005. – 400 б.
7. Ислом энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 450 б.
8. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фан, 1969. – 785 б.
9. Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма. -М.: Наука,1989. -284 с.
10. Суфизм в контексте мусульманской культуры. – М.: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1989. – 341с.
11. Абдулкарим Қушайрий. Қушайрий рисоласи. Ҳозирлаган: Сулаймон Улудағ. – Аралиқ: Даргоҳ йойинлари. 1991. – Б. 29 .
12. Сафаров А. И., Хаккулов Н. К. Свойственные качества совершенному человеку в суфизме //Современная наука как социально-политический фактор развития государства. – 2019. – С. 48-50.
13. Qahramonovich H. N. WORTHY DESCENDANTS OF THE SAMARKANDIANS: ENLIGHTENERS JADIDS //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 13. – С. 37-40.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ЖАМОАТЧИЛИК ЭКОЛОГИК НАЗОРАТИНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ

Ашуров Аброр Уралович
“Оила ва хотин-қизлар” илмий -дқиқот институти таянч докторанти.
email: ilm_hikmati@mail.ru

Аннотация:*Ушбу мақолада жамоатчилик экологик назоратининг умумий тавсифи тадқиқ этишнинг назарий методологик жиҳатлари кўрсатилган. Жамоатчилик экологик назорати тушунчасига оид ҳуқуқий ҳамда ижтимоий ва сиёсий фанлар конценцияларини илмий ўрганишнинг ўзига ҳос хусусиятлари тадқиқ этилган ва ўрганилган.*

Калит сўзлар: *жамоатчилик экологик назорати, назорат, табиат, экология назорат*

ОБЩЕЕ ОПИСАНИЕ ОБЩЕСТВЕННОГО ЭКОЛОГИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ

Ашуров Аброр Уралович
Докторант НИИ «Семья и женщина».
электронная почта: ilm_hikmati@mail.ru

Аннотация: *В данной статье показаны теоретико-методологические аспекты исследования общей характеристики общественного экологического контроля. Исследуются и изучаются особенности научного изучения юридических и социально-политологических понятий, связанных с понятием общественного экологического контроля.*

Ключевые слова: *общественный экологический контроль, контроль, природа, экологический контроль.*

GENERAL DESCRIPTION OF PUBLIC ENVIRONMENTAL CONTROL

Ashurov Abror Uralovich
Doctoral student of the Research Institute "Family and woman".
email address: ilm_hikmati@mail.ru

Abstract: *This article shows the theoretical and methodological aspects of the study of the general characteristics of public environmental control. The features of the scientific study of legal and socio-political concepts related to the concept of public environmental control are investigated and studied.*

Keywords: *public environmental control, control, nature, environmental control.*

Кириш

Бугун биз глобал муаммолар маконида яшаяпмиз. Инсониятнинг ақл идроқи ривожи ва унинг илм фандаги ютуқлари асносида вужудга келган техника тараққиёти хатто коинотни забт эта олган инсоният баъзида эса табиат кучлари олдида ожизлигича қолмоқда. Глобал исиш, унинг оқибатида вужудга келган қурғоқчилик ва турли ҳил экологик муаммолар инсоният олдида ечимини кутаётган аммо ечими эса ҳалигача топилмаган муаммолар қуршовида қолган. Бинобарин бугун бизнинг мамлакатимизда табиат мухофазаси ва экологик муаммолар ва уларни бартараф этишда улкан амалий ишлар олиб борилмоқда. Хусусан Ўзбекистон Республикаси Экологик назорат тўғрисидаги қонунда белгилаб қўйилган [1]. Бу ислоҳотлар натижаси таъсирида жамоатчилик

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

назоратини кучайтириш ва жамоатчилик томонидан назорат қилишни ташкил этиш жарёни, фуқаролик-ҳуқуқий жамиятини барпо этиш йўлидан бораётган Янги Ўзбекистоннинг бугунги олиб бораётган сиёсатига тўла мос келади.

Адабиётлар таҳлили

Лунев А.Е. Теоретические проблемы государственного управления., Жўраев Й.О. Жамоат назорати., Калонов Б.Ҳ. Ўзбекистон Республикасида давлат экология назоратининг ҳуқуқий муаммолари.

Тадқиқот методологияси

Мақолада Эмперик тадқиқот, мантиқийлик, тизимлилик, ўзаро алоқадорлик илмий тадқиқот тамойилларидан келиб чиққан ҳолда қиёсий таҳлил каби тадқиқот усулларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар

Асосан ҳуқуқий адабиётларда назорат тушунчаси давлатда қонунийлик ва ҳуқуқий тартиботни таъминлашнинг асосий усули, бошқарувнинг муҳим функцияси[2] давлат бошқарувида қонунийликни таъминлаш воситаси[3] сифатида таърифланади.

Аммо бошқа гуматар фанлар кесмида бу тушунча бошқача таърифга эга. Чунки юридик фанлар терминлар фақат ҳуқуқий жиҳатдан ўрганади ва моҳиятига юридик жиҳатдан баҳо беради.

Умуман олганда экологик назорат деганда инсоннинг табиат ресурсларидан фойдаланиш, уни назорат қилиш, шунингдек муҳофаза қилишда қонунийлик нуқтаи назаридан тартибга солиниб туриладиган ҳуқуқий фаолиятлир. Аслида ҳам ҳуқуқий жиҳатдан шундай аммо жамиятшунослик фанлар нуқтаи назаридан таърифда асосан аҳлоқий меъёрларга таянади.

Илмий манбаларда “назорат” тушунчасининг экологияга боғланганлигини ҳар хил кўринишлардаги ”экологик назорат”, “давлат экология назорати”, “жамоатчилик экология назорати” ва бошқа шу каби сўзлар бирикмалари билан ифодаланганлигини учратиш мумкин. Мазкур тушунчаларнинг ичида энг кенг маъно касб этадигани “экология назорати”дир. Уни кенг маънодаги тушунча дейишимизга сабаб, у барча турдаги назоратларни, яъни давлат экология назоратини ҳам, фуқаролик жамияти институтлари олиб борадиган жамоатчилик экологик назоратини[4] ҳам, тижорат (хусусий) корхоналар ва давлат ташкилотлари олиб борадиган назоратни ҳам ўз ичига қамраб олади[5].

Профессор Ш.Х.Файзиев таъқидлашича эса, “экология назорати атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва экологик хавфсизликни таъминлаш қоида–талабларини барча вазирлик, давлат қўмиталари ва идоралари, корхоналар, ташкилотлар, муассаса, мансабдор ва жисмоний шахслар томонидан бажарилишини текшириш, табиий муҳит ҳолатини ўрганиш ва кузатиш, чора–тадбирларни қўллаш билан боғлиқ сиёсий–ҳуқуқий, ижтимоий–иқтисодий ва маънавий-маърифий чора тадбирлар йиғиндисини ўз ичига олади”[6].

Й.О.Жураев нинг қайд этишича, “экологик назорат – корхона, муассаса, ташкилотлар, вазирликлар, давлат қўмиталари, идоралари ва фуқаролар томонидан атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ҳамда экологик хавфсизликни таъминлаш бўйича талабларга риоя этилишини текшириш, атроф табиий муҳит ҳолатини ўрганиш ва мониторингини юритиш, экологик экспертиза ўтказиш, шунингдек, ушбу соҳада бошқа ташкилий–ҳуқуқий чора–тадбирларни амалга

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

оширишдан иборат”[7]. Б.Ҳ.Калонов бу ҳақда “экология назорати дейилганда, жамиятда мавжуд бўлган давлат ва нодавлат органлари томонидан амалга ошириладиган назоратни умумлаштирувчи тушунча тушунилади”[8], деб қайд этади.

Демак, экологик назаорат тушунчаси кенг қамровли тушунча бўлиб, нафақат табиатни муҳофаза қилиш, балки уни асраш, унинг мувозанатини ушлаб туришда инсон омили муҳим аҳамият касб этиши, техноген жарёнларни назорат қилиш, атроф-муҳитга таъсири назорат қилиш каби функцияларга эга.

Экология назорати муаммолари бўйича махсус илмий тадқиқот олиб борган А.К.Голиченков ҳам В.В.Петров сингари умумий тарздаги экология назорати давлат бошқаруви функциясига киради, деб ҳисоблаб, уни икки хил нуқтаи назардан, яъни биринчидан, атроф табиий муҳит муҳофазаси ҳамда табиатдан фойдаланиш борасидаги давлат бошқарувининг функцияси сифатида ва иккинчидан, табиатни муҳофаза қилиш тадбирларни тартибга солувчи ҳуқуқий нормаларнинг, табиатни муҳофаза қилиш борасидаги давлат бошқарувининг қонунийлигини таъминлаш усулларининг амалга оширилиши сифатида кўриб чиқади[9]. Айни дамда Б.В.Ерофеев ҳам экологик назоратни давлатнинг экологик фунцияларидан бири сифатида таърифлайди. Агар давлат экологик назорат бутунлай ўз назаоратига олса, жамиятдаги айрим аҳлоқий меъёрларни чеклаб ўтиш унинг меъёрларнинг бузилиш ва ҳуқуқий нормаларнинг қарор топишидек вазият вужудга келади.

Экология назорати тушунчасининг умумий, кенг маънодаги тушунча эканлигини табиий муҳитни муҳофаза қилишга қаратилган айрим қонунларда ҳам кўришимиз мумкин. Чунончи, “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги қонуннинг 29–моддасида “экологик назорат тизими давлат атроф табиий муҳит ҳолатини кузатиб бориш хизмати, табиатни муҳофаза қилиш соҳасидаги давлат, идоравий, ишлаб чиқариш ва жамоат назоратидан иборат” деб белгиланган.[10]

Таъкидлаш жоизки, умумий маънодаги экология назоратини М.М.Бринчук таъкидлаганидек, ҳар доим ҳам “ҳуқуқий тадбир” деб таърифлаш мумкин эмас[11]. Чунки у Б.Ҳ.Калонов таъкидлаганидек, “ижтимоий категория бўлиб, агар у фақатгина давлат органлари фаолияти воситасида амалга оширилганида эди, уни сўзсиз ҳуқуқий тадбир деб, тан олган бўлар эдик. У давлат органларидан бошқа институтлар, масалан жамоат ташкилотлари томонидан ҳам олиб борилар экан, уни ҳуқуқий тадбир деб бўлмайди.

Умумий олганда экологик назоратнинг айрим турларини ҳуқуий тадбирлар деб эътироф этиб бўлмайди. Чунки мазкур соҳдаги муносабатлар нафақат ҳуқуқ фанининг, балки бошқа ижтимоий –гуманитар фанларнинг тадқиқот объекти ҳам ҳисоблагиши мумкин.

Мавжуд экологик назорат тизимига кишиларнинг ижобий ёки салбий муносабатлари ҳам, дунёқарашининг муҳим жиҳатлари ҳисобланади. Ўзбекистон мустақилликка эришгач, кишиларнинг дунёқарашларидаги ўзгаришлар экологик назорат тизимига нисбатан муносабатларида ҳам кўзга яққол ташланмоқда. Хусусан, унга ҳар бир шахснинг экологик масъулиятини шаклланишига шароит яратиб берувчи омил, имконият сифатида қарамоқда.

Экологик дунёқарашнинг яна бир хусусияти инсоннинг табиатни муҳофаза қилишга доир давлат сиёсий фаолиятини назорат қилишда тутган ўрни масаласидир.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Экологик назорат тизимининг асосий функцияларидан бири шу омил имкониятини инсоннинг баркамол ривожланиш мақсадига йўналтиришдан иборат бўлиб, уни баҳолаш, фаолият мотивларини шакллантириш, ижтимоий эҳтиёжларга кўра бошқариш, унинг институционал тизимини ўзгарган вазиятга мослаштириш, тартибга солиш, истиқбол режалари ва дастурларини ишлаб чиқишдан иборат. Экологик назорат институционал тизимининг яна бир характерли хусусияти, унинг функционал йўналтирилганлигидир. Яъни, асосий функцияси - экологик назорат фаолиятининг идеал моделини ва уни амалга оширишнинг механизмини яратиш ҳамда мақсад йўналишларини аниқлашдан иборат. Шу хусусиятининг бошқаларига нисбатан доминантлиги, устуворлигини таъминлаш давлат экологик сиёсатининг мазмунини белгилайди.

Хулоса

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, Инсониятнинг бутун фаолияти унинг албатта табиат билан узвий боғиқ бўлади. Жамоатчилик экология назоратига оид қонунчиликни такомиллаштиришда масаланинг қуйидаги жиҳатларига алоҳида эътибор қаратиш лозим: Аввалambор, жамоатчилик экологик назоратининг идораларга бўйсинмаслиги принципини мустаҳкамлаш зарур. Бу биринчидан, жамоат назоратининг идоравий манфаатларига боғлиқ бўлмаслигини кафолатлайди ва иккинчидан, жамоатчилик экологик назорати органларининг қонуний талаблари ва кўрсатмаларига барча юридик ва жисмоний шахслар томонидан риоя қилиниши таъминлашга хизмат қилади. жамоатчилик экологик назоратни амалга оширишнинг ташкилий механизмини яратиш лозим. Ҳозирги пайтда амалда бўлган назорат механизми ниҳоятда самарасиз, таъбир жоиз бўлса, зарур ҳуқуқий асосларга эга бўлмай, бу экологик назоратни амалга оширишга нисбатан идоравий–соҳавий ёндашувга асосланганлигидан далолат беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. https://lex.uz/docs/2304953
2. Жураев Ю.А. Проблемы правового режима и охраны государственных памятников природы (на материалах Узбекской ССР)// Отв. ред. д.ю.н. О.С.Колбасов. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 55
3. Лунев А.Е. Теоретические проблемы государственного управления. – М.: 1974. – С. 139–140; Заславская Л.А., Колбасов О.С., Полянская Г.Н., Усова Л.Н. Государственный и общественный контроль над
использованием природных ресурсов // Правовые вопросы охраны природы. – М.: 1963. – С. 62–64.
4. Жўраев Й.О. Жамоат назорати // Фидокор. – 2002. – 22 сентябр
5. Калонов Б.Ҳ. Ўзбекистон Республикасида давлат экология назоратининг ҳуқуқий муаммолари. Юрид. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: 2004. – Б. 16–17.
6. Экология ҳуқуқи. Дарслик / М.Б.Усмонов таҳрири остида.–Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2001. – Б. 81.
7. Экологическое право Республики Узбекистан. Учебник для студентов, обучающихся по специальности «Правоведение» / Авторский состав: Рустамбаев М.Х., Усманов М.Б., Жураев Ю.А. и др. / Ответственные редакторы: Скрипников Н.К., Жураев Ю.А. – Тошкент: Издательство ТГЮИ, 2006. – С. 133.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

8. Калонов Б.Ҳ. Давлат экология назоратининг ҳуқуқий муаммолари. Юрид. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – Б. 35.
9. Голиченков А.К. Экологический контроль: теории практика правового регулирования. – М.: МГУ, 1992. –С. 72.
10. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 09.12.1992 йилдаги 754-XII-сон. https://lex.uz/docs/107115
11. Бринчук М.М. Экологическое право: Учебник. – 2–е изд., перераб. и доп. – М.: Юристь, 2004. – С. 449

ИНСОН ҚАЛБИДА БУЗҒУНЧИЛИК ИСТАКЛАРИНИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ФАЛСАФИЙ-АНТРОПОЛОГИК ТАҲЛИЛИ

Асатуллоев Иномжон Абобакир ўғли
Фарғона давлат университети доценти,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: *Мазкур мақолада* инсон қалбида *бузгунчилик истакларини шаклланишининг фалсафий-антропологик таҳлили келтирилган. Шунингдек, мақолада инсон қалбининг ғарб фалсафий фикрида талқин қилиниши ва инсон тўғрисидаги фалсафий антропологик қарашларнинг шаклланиши баён қилинган.*

Калит сўзлар*: қалб, жон, руҳ, руҳий қувват, инсон қалби, маънавий-руҳий олам, руҳият, фалсафий антропология.*

ФИЛОСОФСКИЙ И АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ РАЗРУШИТЕЛЬНОГО ЖЕЛАНИЯ В СЕРДЦЕ ЧЕЛОВЕКА

Асатуллоев Иномжон Абобакир угли
Доцент Ферганского государственного университета,
Доктор философии по философии (PhD)

Аннотация: *В данной статье представлен философско-антропологический анализ формирования деструктивных желаний в сердце человека. В статье также описывается интерпретация души человека в западной философской мысли и формирование философско-антропологических взглядов на человека.*

Ключевые слова: *душа, душа, душа, духовная сила, душа человека, духовный мир, психика, философская антропология.*

PHILOSOPHICAL AND ANTHROPOLOGICAL ANALYSIS OF THE FORMATION OF DESTRUCTIVE DESIRE IN THE HUMAN HEART

Asatulloev Inomjon Abobakir ugli
Associate Professor of Fergana State University,
Doctor of Philosophy in Philosophy (PhD)

Annotation: *This article presents a philosophical and anthropological analysis of the formation of destructive desires in the human heart. The article also describes the interpretation of the human soul in Western philosophical thought and the formation of philosophical anthropological views on man.*

Key words: *soul, soul, soul, spiritual power, human soul, spiritual world, psyche, philosophical anthropology.*

Эрих Фромм фалсафий антропологиясида инсон табиати ва характерини шакллантирувчи асослар тадқиқи билан бирга, қалб истаклари, инсоннинг эзгулик ва ёвузликка мойиллиги, мазохизм, садизм ва некрофилия тенденцияларининг намоён бўлиши ҳамда шакллантирувчи омиллари таҳлил қилинади. Мутафаккир инсонлардаги ҳукмронликка интилишни ёки бўйсунишга мойилликни – садизм ва мазохизм тенденсиялари орқали, ҳаётга муҳаббат ва нафратни некрофилия ҳамда биофилия тенденциялари орқали очиб беради. Ушбу категорияларни бирма бир кўриб чиқиш инсон қалбини тушунишга, унинг ижтимоий аҳамиятини кўрсатиб беришга ҳизмат қилади. Биз ҳам тадқиқотимиз доирасида ушбу тушунчаларни фроммча таҳлилини келтиришни мақсад қилдик.

Мутафаккир қарашларида инсон қалбидаги бўйсунувчанлик, қарамликка мойиллик мазохизм тушунчаси орқали ёритилади. Мазохистик тенденсия бу инсон ўзининг номукаммаллиги, кучсизлиги ва ҳеч нима эмаслигини ҳис этишидир. Эрих Фромм мазохист инсон хусусиятларини ташқи кучларга: бошқа одамларга, қандайдир ташкилотга, табиатга қарамлик сифатида баҳолайди. Инсонларда мазохистлик ўзларининг хоҳишларига кўра эмас, балки ташқи ҳаққоний ва тасаввурий буйруқларга асосланган ҳолда келиб чиқади. Кўпинча улар «ўзлигини йўқотган» бўлади ва «мен»ига эга бўлмайди. Умуман олганда, улар ҳаётга худди бир кучли, бошқариб бўлмайдиган нарса каби қарайди.

Инсон қалбининг ҳукмронлик истаги, бошқаларни эзиш ва камситиш орқали лаззатланиш майли садизм дейилади. Мазохистик хусусиятга қарама-қарши холат садизм ҳиссобланади.

Эрих Фромм садистик тенденцияни 3 типини кўрсатади: «биринчиси, бошқа одамларни ўзига қарам қилиш ва уларни хоҳлаганча бошқариш; иккинчиси, одамлар устидан мутлоқ ҳукмронлик ўрнатибгина қолмай, уларни эксплутация қилиш ва улардан фойдаланиш ҳисобланади. Эгалик қилиш ҳисси бошқаларни моддий бойликларинигина эмас, ахлоқий ва интеллектуал сифатларига ҳам қаратилган бўлади; учинчиси, бошқа одамларни азоблаш ва уларни қийналаётганлигини кўришда намоён бўлади»[1]. Файласуф садизмнинг келиб чиқиши жинсий муносабатларни бузилиши билан боғлиқ эмаслигини илгари суради. Бу мойилликни нафақат жинсий алоқада, балки бошқа табиий алоқаларда ҳам кузатиш мумкин. Инсон бошқа бир мавжудотни назорат қилишни, азоблашни истайди ва бу унинг яширин хоҳиши ҳисобланади. «Садизмнинг моҳияти тирик мавжудот устидан чинакам ва чексиз ҳукмронликка эга бўлишдир. Биров ўзини ҳимоя қилиш қобилиятига эга бўлмаса, унга оғриқ ва таҳқир етказиш мутлақ устунликка эга бўлади»[2;58]. Фроммгача садизм ва мазохизм жинсий алоқа анамалиялари феномени сифатида кўрилган. Олим хулоса қиладики, «садизм (ва мазохизм) жинсий зўравонлик сифатида бу улкан соҳанинг фақат кичик қисмини ифодалайди, бу ҳодисалар жинсий алоқа билан боғлиқ эмас. Жинсий бўлмаган садистликда одам - ожиз ва ҳимоясиз мавжудотни (инсонни ёки ҳайвонни) топади ва унга жисмоний азоб беради, ҳатто уни ҳаётдан маҳрум қилишга уринади»[2;61]. Жамиятда ўз ўрнини топаолмаган ёки болаликдан истаклари бостирилган инсон оила аъзоларига ёки бошқаларга садистик муносабатда бўлади.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Мазохистик ва садистик мойилликлар бошқалар тўғрисида хаддан ташқари ғамхўрлик қилиш ва мехрибонлик қилиш каби ниқоблар билан яширинган бўлади. Мазохистнинг қарамлиги очиқ ойдин кўринса, садистга ўзига тегишли одам керак, зеро, у ўзининг кучли деб ҳис этиши унинг кимнидир хўжайини эканлигига асосланади. Аслида одамлар ўз ҳукмронлиги остидаги инсонларга ҳамма нарсани - меҳр-муҳаббат, эътибор, ҳурматни бериши мумкин, фақат бир нарасани бермайди - озодлик ва мустақиллик ҳуқуқини бермайди. Ушбу ҳолатларни ота-оналарнинг фарзандлари билан бўлган муносбатларида ҳам учратиш мумкин.

Америкалик олим характернинг мазохистик белгилари ва тегишли бузуқлик қаердан келиб чиқади, деган савол қўяди. Яъни, ҳам мазохистик, ҳам садистик майлларнинг умумий белгилари нималардан иборат? Унинг фикрича, ҳам мазохистик, ҳам садистик интилишлар индивидга ёлғизлик ва кучсизликнинг чидаб бўлмайдиган уқубатларидан ҳалос бўлишга кўмаклашади. Мазохистлар устида олиб борилган психоналитик кузатишлар уларда ёлғизлик даҳшати ва ўз ожизлигини ҳис этиш кучайиб боришини намоён қилади. Эрих Фромм фикрига кўра, «мазохизмда индивид ёлғизлик ва хақирлик (ҳечлик)нинг чидаб бўлмас ҳисси туфайли ҳаракатга келади. У психологик маънодаги ўз «мен»идан воз кечиб бу ҳисни бартараф этмоқчи бўлади; бунинг учун ўзини камситади, азоб чекади ва ўзини ҳаддан ташқари хақирликка олиб боради. Бироқ оғриқ ва изтироб-асло у интилаётган нарса эмас; оғриқ ва изтироб - бу баҳо бўлиб, у ана шу баҳони англанмаган умидда, англанмаган мақсадга эришиш учун тўлайди. Бу жуда оғир баҳо; ўзини азобга тиқаётган бу тўловчига яна ва яна кўпроқ тўлашга тўғри келади; у ҳеч қачон тўлаганлари эвазига ички олами ва хотиржамликка эриша олмайди»[1;131-132]. Демак, инсон қалбидаги сиқилган истаклар ва унинг тадрижий давоми инсонда янгича характерни шакллантиради.

Мазохист сифат инсонлар бошқа инсонга, тузилмага, Худога бўйсунишга интилади, бу билан ёлғизликдан қутулишни истайди. Садист, аксинча, ҳукмронликка интилиб, ўз ҳукми ва иродасини бошқага ўтказишни истайди. Бундай носоғломликнинг яққол намоёни ўзига маҳлиёликка олиб келади, бунда одамларга қўшилиш ўрнига, аксинча, ички субъектив дунёга берилади. «Ҳавотир ва ожизлик, қўрқув ва тушкунлик ҳолати бирданига жоҳилликка айланиб, бузғунчиликни келтириб чиқаради, яъни бегона, душман дунёни яксон қилиш истаги туғилади. Муросасоз инсон тўдага сингиб кетишни истайди, шахссизликда эриб кетади, шундай ҳолда ёлғизлик ва юқори ҳавфнинг «ноқулай» ҳолатидан қочади»[3;112]. Демак, жамиятимиздаги инсонларнинг ҳокимият истаги, бошқарувга ўчликда ҳам ҳавотир ва ожизлик ҳолатидаги бузғунчилик акс этади.

Эрих Фромм азобдан ҳузурланишнинг тез-тез учрайдиган шакли, - бу шахсий тўлиқсизлик, ожизлик, тубанлик ҳиссиёти, деб ҳисоблайди. Бу ҳиссиётлар – ўз камчилиги ва ожизлигини оддийгина англашнинг ўзи эмас. Бундай инсонлар доимо ташқи дунёга муҳтожликларини яққол намоён қилади. «Улар фаолликни хоҳламайди, яъни ўзлари истаган нарсани қилмайди, балки ҳақиқий ёки ҳаётий бўлган ташқи кучларнинг буйруғига бўйсунади, одатда, одамлар «мен хоҳлайман» ёки ўз шахсий «мен»ининг ҳиссиётини синаб кўришга қодир эмас. Улар, умуман, ҳаётни енгиб бўлмайдиган бошқариб бўлмайдиган, оғир куч сифатида ҳис қилади»[3;113]. Бундай мазохистик характерни шакллантирувчи муҳит шахсий «мен» ни ўлдиради ва шахсий тўлиқсизликни юзага келтиради.

«Мазохистча анъаналар мазмунсиз бўлиб, ғайриақлий хусусиятга эга. Лекин кўп ҳолларда бу ақлга мувофиқ деб қабул қилинади, шунда мазохистча одатлар муҳаббат ёки

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

садоқат ниқобида рўёбга чиқади, номукаммаллик комплекси ҳақиқий камчиликларни англаш ўрнини қоплайди, изтироб чекиш ўзгармас шароитга юкланади. Мазохистча анъананинг қарама-қарши томони – садистлик (шафқатсиз)дир. У кучли ёки кучсиз тарзда намоён бўлади, тўлиқ ёки қисман англанади, лекин бу ҳолнинг умуман бўлмаслиги жуда кам учрайди. Изтироб чекиш жисмоний бўлиши мумкин, лекин кўп ҳолда – бу руҳий ҳолатдир. Олим фикрича, камситиш, қўрқитиш яширин ҳолда бировнинг камситилганини, қўрқувини кузатиш»[4;197], - бу интилишнинг мақсади ҳисобланади. Садистик ва мазохистик тенденциялар инсоннинг руҳий ҳолати ҳиссобланиб, ҳаётда ўз ўрнини топишга зўраки интилишни англатади.

Садистик ва мазохистик характер таҳлил қилингандан сўнг, авторитар характер тушунчасига тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқ бўларди. Лекин авторитар характерни таҳлилидан олдин «авторитет», «ҳокимият» тушунчаларига аниқлик киритиш керак бўлади. Эрих Фромм ҳокимиятни ички ва ташқи ҳокимиятга ажратиб, ички ҳокимият бурч, виждон сифатида намоён бўлишини таъкидлайди ва виждон ҳақида шундай ёзади. «Виждон ташқи ҳокимиятга қараганда шафқатсизроқ бошқаради, яна бунинг устига, виждон буйруқларининг мазмуни кўпинча инсоний қадр-қимматга нисбатан ахлоқий нормаларнинг талабларига мутлақо мос келмайди»[1;141-142]. Виждон ўзининг қаттиққўллиги билан ташқи ҳокимиятдан ўзиб кетиши мумкин: ахир, инсон виждон буйруқларини ўзининг буйруқлари сифатида ҳис этади-ку! У қандай қилиб ўзига қарши бора олади? Бугунги кунга келиб, «виждон» кўп жиҳатдан ўз салмоғини йўқотди. Ҳар бир одам агар бошқа одамларнинг қонуний ҳуқуқини бузмаса, мутлақо эркин. У авторитар ҳокимиятнинг муҳим хусусияти сифатида ҳокимият ва кучга бўлган муносабатни келтиради. Унинг фикрича, куч автоматик равишда муҳаббатни вижудга келтиради. Куч уни куч ортида турган қадриятлар туфайли эмас, балки ўз-ўзидан, куч бўлгани учун жалб этади. Эрих Фромм фикрича, «ҳокимиятга ташналик куч билан эмас, балки ожизлик билан боғлиқдир. Ҳокимият кимнидир устидан ҳукмронлик қилиш бўлса, куч ўзгаришлар қилишга қодир бўлиш деганидир. Агар инсон кучли экан, яъни ўз шахсининг озодлиги ва яхлитлиги асосида ўз имкониятларини рўёбга чиқаришга қодир экан, унга одамлар устидан ҳукмронлик қилишнинг кераги йўқ ва у ҳокимиятга интилмайди»[1;138]. Шундай экан, жамиятимиз инсонларида ҳокимиятга эгаликни эмас, кучга эгаликни қадрлашни ўргатишимиз керак. Чунки ҳукумронлик ожизлик, куч қодирликни англатади.

Мутафаккир ҳокимиятга бўлган муносабатни иккига ажратади: агар одамлар ҳокимиятнинг кучи етарли эмаслигидан умидсизликка тушсалар, бундай ҳокимиятга қарши курашишлари мумкин, айни вақтда ёки кейинроқ бошқа система ўзининг катта қудрати ёки катта ваъдалари билан уларнинг мазохистик истакларини қондирса, ўшанга бўйсунишлари мумкин. Авторитар характернинг ҳокимиятга қарши кураши моҳиятан қуруқ мақтанишдир. Бу ўзидаги кучсизлик ҳиссини бартараф этишга уриниш бўлиб, англанган ва англанмаган тарзда барибир бўйсунаверади. Файласуф авторитар характерни револютсионер эмас, исёнчи деб атайди ва авторитар характернинг ҳаётга бўлган муносабатини шундай баҳолайди, «у инсон озодлигини чеклайдиган шароитни севади, у тақдирга хурсандчилик билан бўйсунади. «Тақдир»нинг қандай бўлиши унинг социал аҳволига боғлиқ. Лекин автритар характер учун ташқи ҳокимият мавжуд ва ҳар доим унга итоат қилади. Демак, бутун авторитар тафаккурнинг умумий белгиси ҳаёт инсондан ташқаридаги, унинг манфаат ва истакларидан ташқаридаги кучлар томонидан белгиланган,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

деган ишончдадир. Бахтли бўлишнинг ягона имконияти ана шу кучларга бўйсунишдир. Шундай экан, Фромм фалсафасига кўра, ҳар қандай неврознинг моҳиятини худди нормал ривожланиш сингари-озодлик ва мустақиллик учун кураш ташкил этади. Жуда кўплаб нормал одамлар учун бу кураш ортда қолган: бу кураш тўла таслим бўлиш билан якун топган; улар ўз шахсини қурбон қилиб, улар яхши мослашиб олдилар ва нормал одамлар ҳисобланадилар. Невротик - бу тўла бўйсунишга қаршилик кўрсатишни давом эттираётган, неврозни ички бартараф этиб бўлмайдиган қарамлик билан озодликка интилиш ўртасидаги конфликтни ҳал этишга самарасиз уринаётган киши сифатида тушуниш мумкин»[1;160-161]. Инсон қалбидаги тўла бўйсунишга қаршилик унда невротик холатни келтириб чиқаради.

Инсон ҳаётини ҳалокатга бошловчи ёвузлик манбаи бўлган майллар мавжуд бўлиб, уларга некрофилия ва нарцицизм киради. Эрих Фромм вайронкорликни яратувчи ушбу майллар устидаги изланишлари асосида улар келтириб чиқарадиган хасталиклар ва холатларни таҳлил қилади. Вайронакорлик ҳисси ҳаётга нисбатан қарашга ва ўзини тутишга асосланган икки қарама-қаршилик ҳолатида намоён бўлади: некрофилия ва биофилия. Биофилнинг ички дунёсида ҳаётга муҳаббат асосий маънога эга бўлади. Бундай одамнинг дунёқараши механикликка умуман қарама-қарши, у учун асосий мазмун бу функционал органик дунёқараш: яъни у ҳаётдаги ҳамма нарсани умумий боғлиқ бўлган бирлик сифатида кўради, боғлиқ бўлмаган механик бирлик сифатида эмас[5;59]. Мутафаккирнинг некрофилия тенденцияси тадқиқи испан олими Унамуно томонидан айтилган «Яшасин ўлим!» шиорига асосланади[6;34]. Бу шиор орқали инсондаги некрофил ҳолатнинг моҳиятига кириб бориш мумкин. Инсондаги руҳий ва ахлоқий хатти-ҳаракатлардан биофилия ва некрофилия ўртасида жуда катта тафовут йўқлиги келиб чиқади. Бир инсон тамоман биофил ёки тамоман некрофил бўлмайди[6;36] . Кўпчилик инсонларда иккала майл ҳам, яъни биофиллик ҳам, некрофиллик ҳам мавжуд бўлади. Аҳамиятлиси, инсонда иккала майлдан бирининг аниқ мавжудлиги ёки йўқлигида эмас, инсоний муносабатларда қай бирининг кўпроқ намоён бўлишидадир.

Адабиётлар рўйхати

1. Fromm E.Özgürlükten kaçiş. –Ankara:Teknografik Matbaası, 1996. –S.123-124.
2. Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности / Э. Фромм. –Москва: Республика, 1994. –С.58.
3. Фромм Э. Бегство от свободы. – Москва: Прогресс, 1990. – С.112.
4. Рузматова Г. Руҳият таҳлили фалсафаси. –Тошкент: Нишон-ношир, 2014. – Б.197.
5. Агапов П.В. Эрих Фромм о человеческой агрессивности и деструктивности: опыт философско-антропологического анализа. // Вестник МГУКИ, 2012. № 6 (50) ноябрь–декабрь.-С.59.
6. Fromm E. Sevginin ve şidetin kaynağı. –Istanbul: Payel yayınevi, 1990. -S.34.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ЖИНОЯТ ВА ЖАЗО ТИЗИМИДА ИНСОНПАРВАРЛИК ПРИНЦИПНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Исмоилов Ихтиёр
ФарДУ тарих факултети
фукаролик жамияти кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: *Ушбу мақолада жиноят ва жазо тизимида инсонпарварлик принципини такомиллаштириш масалалари бўйича Республикамизда олиб борилаётган ўзгаришлар айтиб ўтилган. Шунингдек жазо тизими соҳасида айбдорга нисбатан жазони енгилроғи билан алмаштириш каби нормалар киритилган.*

Таянч сўзлар: *Жиноят, Жазо, Айбсизлик презумпцияси, Инсонпарварлик, пробация, Дефинитив норма*

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРИНЦИПА ЧЕЛОВЕЧЕЧНОСТИ В УГОЛОВНО-КАРАТНОЙ СИСТЕМЕ

Исмоилов Ихтиёр
Исторический факультет ФарГУ
преподаватель кафедры гражданского общества

Аннотации:*В данной статье описываются происходящие в республике изменения по совершенствованию принципов гуманности в уголовно-исполнительной системе. Существуют также нормы в сфере уголовно-исполнительной системы, например, замена наказания правонарушителю более легким.*

Ключевые слова:*Преступление, наказание, презумпция невиновности, гуманность, испытательный срок, окончательная норма*

ISSUES OF IMPROVING THE PRINCIPLE OF HUMANITY IN THE CRIMINAL AND PENALTY SYSTEM

IsmoilovIkhtiyor
FerSU Faculty of History
teacher of the department of civil society

Annotation: *This article describes the changes taking place in the Republic on improving the principles of humanity in the criminal and penal system. There are also norms in the field of the penal system, such as the replacement of the punishment with a lighter one for the offender.*

Keywords: *Crime, Punishment, Presumption of Innocence, Humanity, Probation, Definitive Norm*

Кириш

Ҳозирда давлат ва ҳуқуқ назариясида жиноят ва жазоларни қонунчиликда такомиллаштириш ва либераллаштириш,жиноий жазолар ва уларни ижро этиш тартибини инсонпарварлаштириш муаммоларини ҳал этишда қонун устуворлигини таъминлаш суд-ҳуқуқ тизимини янада ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланиб, бу соҳани тадқиқ этиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Хусусан, 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг иккинчи йўналишида қонун устуворлигини таъминлаш суд-ҳуқуқ тизимини янада ислоҳ қилишнинг устувор йўналиши сифатида белгиланган бўлиб, унинг 2.4-банди жиноятчиликка қарши курашиш ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришга бағишланади[1].

Давлат ва ҳуқуқ назариясида Жиноий жавобгарлик ҳуқуқий жавобгарликнинг бир тури бўлиб, жиноят ҳуқуқнинг асосий тушунчаларидан бири ҳисобланади. Бизга маълумки "жиноий жавобгарлик" атамаси юридик адабиётларда турлича. Асосий жиноий жавобгарлик; жиноий жавобгарликка тортиш; жиноий жавобгарликдан озод қилиш деб талқин қилинади.

Жиноятни ҳар доим аниқ жисмоний шахслар содир этади. Шунинг учун ҳам жиноят содир этган шахс жиноятнинг субйекти деб тан олинади. Жиноят субъектининг йўқлиги жиноят таркиби ва жиноятнинг ўзи мавжуд эмаслигини билдиради.

Жиноятга оид қонунларда субъектга нисбатан айбдор, маҳкум, жиноят содир этган шахс, жиноят содир этишда айбдор бўлган шахс каби тушунчалар ишлатилади.

Юридик шахслар, яъни ташкилотлар, корхоналар, муассасалар ва жамоат бирлашмалари жиноят субъекти бўла олмайди. Шунинг учун ижтимоий хавфли ҳаракат давлат корхонаси, муассаса, ташкилот ва жамоат бирлашмаларида хизмат ёки ишлаб чиқариш фаолияти билан боғлиқ ҳолда содир етилса, мазкур вазифага масъул бўлган тегишли мансабдор шахслар ёки бошқа хизматчилар жиноят субъектига айланади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили

Жиноят субъектининг ақли расо бўлиши шарт, яъни у ўз ҳаракати ёки ҳаракатсизлигининг ижтимоий хавфли хусусиятини англаган бўлиши ва уларни бошқара олиши шарт.

Ақли расолик айб ва жиноий жавобгарликнинг зарурий шартидир. Фақат ўз ҳаракати ёки ҳаракатсизлигининг ижтимоий хавфли хусусиятини англаган ва уларни бошқара олган шахслар, айбдорни тузатиш мақсадида, жиноий жавобгарликка тортилади.

Шахснинг қонун билан белгиланган жиноий жавобгарлик ёшига етганлиги жиноят субъектининг зарурий белгиларидан бири ҳисобланади.Қонунда ёш чегараси аниқ тартибга солинганлиги жиноят содир етган шахснинг ёшини (кун, ой, туғилган йилини) тўғри белгилаш заруратини туғдиради. Бу зарурат Жиноят-процессуал кодексининг 314-моддасида қайд этилган.

Давлат ва ҳуқуқ назариясида Жиноий жавобгарлик жиноят ҳуқуқи нормалари билан қўриқланадиган ижтимоий муносабаларга жиддий зарар етказадиган ёки шундай зарар етказиши мумкин бўлган тажовуз қилингандагина вужудга келади. Шундай экан, жиноий жавобгарлик ўз навбатида қандайдир ҳуқуқий оқибатни вужудга келтиради. Жиноий жавобгарлик эса жиноят ҳуқуқий муносабатдир. Аммо жиноят ҳуқуқий муносабатнинг келиб чикиши учун бирон-бир юридик факт содир этилиши талаб қилинади ва бундай юридик факт жиноятнинг содир этилиши хисобланади..Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 16-моддасида [2] жиноий жавобгарлик тушунчаси берилган: Жиноят учун жавобгарлик - жиноят содир этишда айбдор бўлган шахсга нисбатан суд томонидан ҳукм қилиш, жазо ёки бошқа ҳуқуқий таъсир чораси қўлланилишида ифодаланадиган жиноят содир этишнинг ҳуқуқий оқибатидир.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида ҳам бу борадаги ислохотларга катта эътибор қаратилганлигини айтиб ўтишимиз лозим. Бундан буён биринчи марта озодликдан маҳрум этилган шахсга берилган жазо енгилроғи билан алмаштирилса, у манзил-колонияга ўтказилмасдан, тўғридан-тўғри пробация назоратига олинади. Мазкур енгиллик натижасида ҳозирда жазо ўтаётган 6 минг нафар шахсга ўз маҳалласи назорати остида оиласи бағрида бўлиш имконияти яратилади.Шу билан бирга, жазони енгилроғи билан алмаштириш ва шартли озод қилиш тўғрисида тақдимнома киритиш ваколати жазони ижро этиш муассасаларидан янги ташкил этиладиган инсонпарварлик комиссияларига ўтказилади.

Таҳлил ва натижалар

Суд-ҳуқуқ соҳаси, жумладан, жиноий жазоларни либераллаштириш борасидаги ислоҳотларимиз ҳам изчил давом эттирилмоқда. Натижада бу йил судланган шахсларнинг 74 фоизига нисбатан озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазолар тайинланди. Жазо муддатини ўтаётган ва тузалиш йўлига қатъий кирган 616 нафар фуқаро афв этилди[3].

Жиноят ҳуқуқи нормаларининг ҳуқуқни қўллаш асносида нормаларинибериб ўтамиз.

Улар моҳиятига кўра қуйидаги турларга бўлиш мумкин:

1. Норма-принциплар- жиноят ҳуқуқининг умумий қоидалари ҳисобланган жиноят ҳуқуқи вазифалари ва принципларини белгилаб берувчи нормалар. (Жиноят кодекси 2-10 моддалари).
2. Дефинитив нормалар- жиноят-ҳуқуқий тушунчаларни белгилаб берувчи нормалар. Масалан, жиноят ва ижтимоий хавфли қилмиш тушунчалари (Жиноят кодекси 14-моддаси), жиноят учун жавобгарлик тушунчаси (Жиноят кодекси 16-моддаси), акли расолик тушунчаси (Жиноят кодекси 18-моддаси), иштирокчилик тушунчаси (Жиноят кодекси 27-моддаси), жазо тушунчаси (Жиноят кодекси 42-моддаси).
3. Муҳофаза қилувчи нормалар - жиноят қонуни билан аниқ бир объектни - ижтимоий муносабатларни муҳофаза қилувчи нормалар. Жиноят кодекси Махсус қисмидаги барча нормалар муҳофаза қилувчи нормалар ҳисобланади.
4. Тақиқловчи нормалар - Жиноят кодекси Махсус қисми моддалари таркибида мавжуд бўлиб, маълум бир қилмишлар содир этиш ёки этмасликни тақиқлаб қўювчи нормалар. Масалан, одам ўлдириш(97- модда), шахснинг соғлигига шикаст етказиш(104-111 моддалар), ўғрилик(169- модда) ва шу каби қилмишларни тақиқловчи нормалар[4].

Бу кўрсатиб ўтилган Жиноят ҳуқуқи нормалар бугунги кундажазо чораси либераллаштирилган холатлари бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқиляпти.

Айбсизлик презумпцияси деган тушунча ҳам бугун эътибордан четда эмаслигини кўришимиз мумкин. Гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчи унинг жиноят содир етишда айбдорлиги қонунда назарда тутилган тартибда исботлангунга ва қонуний кучга кирган суд ҳукми билан аниқлангунга қадар айбсиз ҳисобланади.

Бу борада жазони ижро этиш тизимида инсонпарварлик тамойилини кенг қўллаш борасидаги ишлар давом эттирилмоқда. Жиноят кодекси 43-моддасида жазо тизими берилган бўлиб, унда жиноятни содир этишда айбдор деб топилган шахсларга нисбатан қўлланиладиган жазо турлари кўрсатилган. Бу белгиланган жазо тизими содир этилган жиноятнинг оғирлиги ёки унча хавфли эмаслиги нуқтаи назаридан жиноят ҳуқуқи

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

назариясига мувофиқ бўлиши тўғрисидаги фикрларга мос келади. Аввалги Жиноят кодексидан фарқли равишда янги Жиноят кодексидаги жазо тизими ўзининг оғирлиги нуқтаи назаридан юқоридан пастга қараб эмас, балки, пастдан юқорига қараб белгиланган. Жазо тизимининг бундай тартибда белгиланиши ўзида «инсонпарварлик» принципини тўла акс эттиради.Жазо тизими оғиридан енгилига қараб жойлаштирилган жазо турлари йиғиндисидир. Янги Жиноят кодексида белгиланган жазо тизимида аввалги жиноят қонунидаги бир қанча жазолар: бадарға, сургун, вазифасидан бўшатиш, етказилган зарарни қоплаш мажбуриятини юклаш, жамоат иззаси каби жазолар ўрин олмаган. Бунинг сабаби юқоридаги жазоларининг амалда ижобий натижа бермаганлигидадир. Бугунги ислохотларимиздан кўриниб турибдики, Олий Мажлис палаталари, Инсон ҳуқуқлари бўйича Миллий марказ қийноқларнинг олдини олиш бўйича Омбудсман ваколатларини кенгайтириш, шунингдек, жамоатчилик назоратини кучайтириш юзасидан бир қатор таклифлар ишлаб чиқилмоқда. Бунда Омбудсман томонидан ҳар чоракда жамоатчилик вакиллари билан биргаликда тергов изолятори ва жазони ўташ муассасаларига “мониторинг ташрифлари” тизими йўлга қўйилиши кераклиги бугунги даврнинг долзарб васифаси саналади.

Бу борадаги мавжуд қонунчиликни либераллаштириш йўлида ташланган дадил қадамларимизнинг далили сифатида куни кеча Жиноят кодексининг оммавий ахборот воситалари орқали “туҳмат” ва “ҳақорат қилиш” каби моддалари бўйича озодликдан маҳрум қилиш шаклидаги жазо чоралари бекор қилинди[5].Бундай ислохотларимиз эса Жазолар тизими ва уларни тайинлаш механизмларини қайтадан кўриб чиқиш, эскирган ҳамда замонавий талабларга жавоб бермайдиган жазолар шакли ва турларини чиқариб ташлаш, Рағбатлантирувчи нормаларни, жумладан жазони енгиллаштириш ёки шахсни жиноий жавобгарлик ёхуд жазодан озод қилиш шартларини ўрнатувчи нормаларни кенгайтириш[6] каби бир қатор ўзгартиришларни таъкидлаб ўтиш зурур.

Хулоса ва таклифлар

Хулоса қилиб айтишимиз жоизки, Мустақилликнинг дастлабки кунлариданоқ Республикамизда барча соҳаларда, шу жумладан, ҳуқуқий соҳада кенг қамровли ислоҳотлар олиб борилмоқда. Бу каби ўзгаришлар фуқароларимизни ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият даражасини янада юксалишига олиб келади. Фуқароларнинг ҳуқуқий онгини шакллантириш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, жиноятчиликка қарши курашишнинг зарурурий талабидир. Президентимиз Ш. М. Мирзиёевнинг “Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятнинг шаклланиши, аввалambор, тарбия ва муҳит билан бевосита боғлиқдир. Биргина мисол. Канаданинг 1 миллиондан ортиқ транспорт воситаси мавжуд бўлган Калгари шаҳрида жорий йилнинг 10 ойида автоҳалокатлар туфайли 10 нафар шахс нобуд бўлган. Ўзингиз солиштириб кўринг: жами 2 ярим миллиондан зиёд автотранспорт мавжуд бўлган бизнинг юртимизда эса, шу даврда 1 минг 600 дан ортиқ киши автоҳалокат қурбони бўлган. Бу – оғир кулфат, катта йўқотиш эмасми?!”. Биз жамиятимизда ҳуқуқий маданиятни лозим даражада шакллантирмас эканмиз, ҳуқуқбузарликка чек қўймас эканмиз, қонунни бузиш ҳолатлари давом этаверади. Қонунларга ҳурмат одамларимизнинг ҳуқуқий онги ва маданияти асосида шаклланади[7]. Ҳақиқаттан ҳам шундай, ҳуқуқий иммунитет шаклланган шахсга ташқаридан кириб келадиган ёт ғоялар, қарашлар, қонунга хилоф хатти-ҳаракатлар ўз таъсирига эга бўлмай қолади.Бундан ташқари ҳуқуқий тарғибот-ташвиқот олиб бориш ишлари ҳам бир мунча

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

яхшиланган. Маҳаллаларда, жойларда малакали ҳуқуқшунослар томонидан тушунтириш ишлари олиб борилмоқда. Қонун ижодкорлиги фаолиятига аҳолининг кенг қатламини жалб етиш мақсадида “Телеграм” мессенжеридаги Ҳуқуқий аҳборот каналида махсус “Қонунчиликка таклиф” боти ишга туширилган. Мазкур бот орқали фуқаролардан минглаб таклифлар келиб тушади ва кўриб чиқилиб инобатга олинаяпи.

Ҳозирги кунда мазкур масала давлат сиёсати даражасига кўтарилмоқда, шу мақсадда фуқароларнинг ҳуқуқий онги, ҳуқуқий маданияти, таълим-тарбияси, ҳуқуқий саводхонлигини янада юксалтириш, ёшларнинг ҳуқуқ соҳасига бўлган қизиқишларини ошириш, уларни ҳуқуқий жиҳатдан етук ва баркамол авлод етиб тарбиялаш асосий мақсад ва муддаолардан бири ҳисобланади. Жамиятда ўз ҳақ-ҳуқуқларини биладиган ва қонун-қоидаларга оғишмай амал қиладиган фуқаролар жиноят содир этмайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. 2017-йил 7-февралдаги Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ– 4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. - 2017.
2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 16-моддаси. https://www.lex.uz/acts/111453.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, Халқ сўзи газетаси, 2020 йил 30 декабрь, № 276 (7778)
4. "Уголовное право". Общая часть. Учебник // Под.ред. Н.И. Ветрова, Ю.И. Ляпунова - М.: Новый Юрист, КноРус, 1997. - С. 12
5. ЎзбекистонРеспубликасинингЖиноятважиноят-процессуалқонунчилигинитакомиллаштиришконцепцияси.2018 йил 14 май,ПҚ-3723-сон.
6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги “Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир” номли маърузаси 2018 й 10 декабрь. Халқ сўзи газетаси.2018 йил 8 декабрь, № 253 (7211)

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАР ИНҚИРОЗИ МУАММОСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Ўзбекистон Республикаси
“Оила ва хотин-қизлар”давлат қўмитаси ҳузуридаги
“Оила ва хотин-қизлар”илмий-тадқиқот институти
таянч докторанти Иноятова Саодатхон Жаҳонгир Қизи

Аннотация: *Мазкур мақолада оилавий муносабатларнинг инқироз сабаблари ижтимоий-фалсафий жиҳатдан таҳлил қилинган. Оилавий муносабатларнинг инқирози жамият муаммосининг ўзига хос хусусиятларини бартараф этиш билан оилавий муносабатлар мустаҳкамланиши очиб берилган. Бу эса ёш оилаларни мустаҳкамланиши билан жамият тараққиётига хизмат қилишини янада такомиллаштириш заруратини асосланган.*

Калит сўзлар. *Оила, оилавий муносабатлар, оилавий муносабатлар инқирози, шахс, жамият, ишсизлик, маънавий-ахлоқий меъёрлар.*

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE PROBLEM OF THE CRISIS OF FAMILY RELATIONS

Republic of Uzbekistan
"Family and Women"under the state committee
"Family and Women"scientific research institute
foundation doctoral student
Inoyatova Saodatkhan Jahangir's daughter

Annotation: *This article analyzes the causes of the crisis in family relations from a socio-philosophical point of view. It is revealed that the crisis of family relations strengthens family relations by eliminating the specific features of the problem of society. This is based on the need to further improve the service of the development of society with the strengthening of young families.*

Keywords*. Family, family relations, crisis of family relations, individual, society, unemployment, moral and ethical norms.*

ОСОБЕННОСТИ ПРОБЛЕМЫ КРИЗИСА СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ.

Республика Узбекистан
«Семья и женщины» при государственном комитете
«Семья и женщины» научно-исследовательский институт
базовый докторант Иноятова Саодатхан Джахангира дочь

Аннотация: *В данной статье анализируются причины кризиса семейных отношений с социально-философской точки зрения. Выявлено, что кризис семейных отношений укрепляет семейные отношения, устраняя специфические черты проблемы общества. Это основано на необходимости дальнейшего совершенствования службы развития общества с укреплением молодых семей.*

Ключевые слова. *Семья, семейные отношения, кризис семейных отношений, личность, общество, безработица, морально-этические нормы.*

Кириш

Бугун дунёда содир бўлаётган иқтисодий инқироз, геосиёсий ўзгаришлар, глобал эпидемияни кенг миқёсда тарқалиши, шунингдек, миллиардлаб одамларнинг одатий турмуш тарзининг ўзгариши жамиятнинг негизини ташкил этувчи оилавий муносабатларга ҳам жиддий таъсир кўрсатди. Коронавирус пандемияси нафақат инсониятни глобал рақамли назорат остига олишга ҳисса қўшади, балки оилавий муносабатларни мустаҳкамлашнинг янги йўлларини излаб топишга ҳам шарт-шароит яратиб берди. Шу боисдан ҳам бугунги глобал ўзгаришлар талаблари нафақат жамиятнинг балки ҳар бир оиланинг ўзига хос маънавий-ахлоқий меъёрларга мослаштириш, айниқса миллий ва умуминсоний қадриятларни уйғунлаштиришни тақозо этмоқда. Чунки, шахс – жамият – табиат тизимидаги деярли барча муаммолар, шу жумладан, глобал маънавий инқирозларнинг илдизини бартараф этишда маънавий-ахлоқий қадриятлардан самарали фойдаланиш устувор аҳамият касб этади.

Жаҳон миқёсидаги университет, институт ва илмий марказларда олиб борилаган тадқиқотлардан маълум бўладики, ишсизлик даражасини ошиши ва меҳнат бозоридаги муаммолар оилавий муносабатларни мустаҳкамланишига салбий таъсир кўрсатмоқда. Чунки ҳеч қандай ижтимоий ҳимоя инқироз билан боғлиқ узоқ муддатли ишсизликнинг узоқ муддатли таъсирини бартараф этаолмайди. Шу сабабли ёш оилаларни иш билан таъминлаш бўйича давлат хизматларини янада такомиллаштириш лозим.

Оиладаги муаммолар универсалдир. Айнан оила ва унда турли миллат ва динларга мансуб кишилар ўртасида содир бўлаётган жараёнларнинг ўхшашлиги барчамизни бир давр одамлари, дунёвий инсонлар қилади ва бир хил муаммоларни илгари суради. Ҳеч қачон бутун дунёда оиланинг ахлоқий асослари ҳозирги каби синовларга дуч келмаган ва эҳтимол дунё ҳеч қачон бирлик, инсонпарварлик, ҳалоллик каби тушунчаларни умумий тушунишга муҳтож эмас эди. кўрсаткичлари, шунингдек, ижтимоий тараққиётни тезлаштиради.

Никоҳ ва оилавий муносабатлар маданияти ахлоқий маданиятнинг алоҳида туридир. Оилада яшаш қобилияти болаликдан тарбияланган ахлоқ даражаси билан мутаносибдир. Иқтисодиётда, ижтимоий ҳаётда ва жамиятнинг ахлоқий ривожланишидаги салбий тенденцияларни бартараф этиш жараёни барча ижтимоий ресурслар ва биринчи навбатда оила фаолиятининг кучайишини назарда тутади. Бундан ташқари, ушбу жараённи ўз вақтида узайтириш мумкин эмас. Бугунги кунда, келажак авлодда сезиларли ўзгаришларга эришиш учун, никоҳни мустаҳкамлаш, оила функциясини фаоллаштириш талаб этилади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили

Ўзбекистонда юзага келиши мумкин бўлган оилавий муносабатларни мустаҳкамлашдаги муаммоларни янгидан ўрганиш ва тадқиқ қилиш учун кенг имкониятлар очиб берилган. Мамлакатимизда ҳар бир оила давлат муҳофазасига олинган[1.]. Оила кодекси ва бошқа қонун ҳужжатлари оилавий муносабатларни тартибга солиш, оилавий ажримларнинг олдини олиш, нафақат эр-хотин, айни чоғда вояга етмаган фарзандларнинг ҳам ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишда муҳим аҳамиятга молик. Бу ижтимоий фанлар, хусусан фалсафа фани олдига оилавий муносабатларни мустаҳкамлаш билан боғлиқ мезоний тушунчалар, ижтимоий-сиёсий тамойиллар, диний меъёрларнинг назарий-методологик асосларини такомиллаштириш ва жамият ҳаётига миллий ва

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

умуминсоний қадриятларни янада чуқурроқ сингдириш каби вазифаларни белгилаб беради. Айнан, ижтимоий-фалсафий билимлар тараққиёти оилавий муносабатларни юксалтириш билан боғлиқ муаммоларнинг чуқурроқ ўрганилишига замин яратди. Хусусан, оилавий муносабатлар маданиятнинг таркибий қисмлари, унинг инсон маънавий камолотидаги ўрни масаласи ҳақидаги мулоҳазалар ўзининг дастлабки илмий-фалсафий кўринишида Шарқ ва Ғарбнинг буюк мутафаккирлари асарларида ўзига хос талқин этилган.

Тадқиқот методологияси

Глобал ўзгаришлар шаротида оила инқирози - бу оилавий муносабатлар ривожланишининг турли босқичларида оилаларда учрайдиган ижтимоий-психологик қийинчиликлардир. Одатда жамиятшунос олимлар томонидан оилавий инқирозларни меъёрий ва меъёрдан ташқари ҳолатларини ажратган ҳолда тадқиқ қиладилар. Меърий оилавий инқирознинг ўзига хос хусусияти шундаки, барча оилалар уларни катта ёки кичик даражада бошдан кечиришади. Шу боисдан ҳам Виржиния Сатир оилавий ҳаёт даврини 10 та асосий инқироз босқичларини қуйидагича ажратиб кўрсатди:

1. Ҳомиладорлик ва биринчи боланинг туғилиши. Янги туғилган чақалоқ пайдо бўлиши билан, оилавий иттифоқ эгоистик муносабатлар сифатида алтруистик муносабатларга айланади: турмуш ўртоқлар олдида боланинг эҳтиёжлари ва талабларини ҳисобга олган ҳолда ўз ролларини қайта тақсимлаш вазифаси туради.

2. Боланинг инсон нутқини ўзлаштиришининг бошланиши. Нутқни ривожлантириш, унинг тўлиқлиги ва бойлиги бутунлай ота-онадан жиддий талаб қилинадиган яқин катталар билан мулоқотга боғлиқ бўлади.

3. Боланинг атроф-муҳит билан муносабатларини ўрнатиш. Кўпинча биз мактаб жамоасидаги муносабатлар ҳақида гаплашамиз. Ота-оналар ва уларнинг фарзандлари ушбу босқичда мактаб муҳитига, устозлари ва тенгдошларининг ҳақиқати, атроф-муҳитга мослашиш, шунингдек, мактабда қабул қилинган ахлоқ одоб меъёр ва қоидаларни ўзлаштириш ва уларга риоя қилишга интилади.

4. Боланинг ўспиринлик даври. Ўсмирлик давридаги психологик хусусиятлар туфайли ота-оналар ва болалар ўртасида зиддиятлар пайдо бўлиши мумкин, масалан, алданган муносабат, ота-она ҳукумронли билан кураш, умумий ҳиссий беқарорлик ва бошқалар. Бу даврда оиладаги психологик микроиқлим ҳам оғирлашади. Ота-оналарнинг ёшига қараб ўзлари оғир вазмин бўлишлари ва бола эса ўрта ёшдаги инқирозни бошдан кечириши мумкин.

5. Мустақиллик ва эркинликни излаш орқали боланинг ўсиш жараёни. Ушбу босқичда ота-оналар кўпинча "бўш уй" синдромини ривожлантирадилар, чунки улар биргаликда яшашни тугатишни йўқотиш деб билишади.

6. Вояга етган болаларнинг никоҳи, янги аъзоларнинг оиласига кириш (келин, куёв). Турмуш ўртоқлар олдида янги вазифа турибди - янги одамлар билан муносабатларни ўрнатиш, уларни оила аъзоларининг тор доирасига қабул қилиш жараёни мураккаб кечиши мумкин.

7. Аёл-хотин ҳаётида менопаузанинг бошланиши. Ушбу босқичда танада физиологик ўзгаришлар юз бериши оқибатда аёл болани кўтариш қобилиятини йўқотади, бу эса оиладаги турли қийинчиликларларни келтириб чиқариши мумкин.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

8. Эркакларда жинсий фаолликнинг пасайиши. Ушбу босқичда эркак танасида қариш билан боғлиқ бўлган норматив физиологик ўзгаришлар мавжуд бўлиб, улар энг муҳим эркак сифатини - либидо энергиясини йўқотиши билан боғлиқ бўлиши мумкин. Бу ерда эркакнинг вазифаси - ўзининг жинсий ҳаётига нисбатан ҳозирги физиологик имкониятларини қабул қилиш талаб этилади.

9. Ота-бобо сифатида ота-онага айланиш. Янги бобо-бувиларнинг вазифаси - бу ролни ўз зиммасига олиш, шунингдек, оила тизимидаги етакчиликни ёш авлодга топшириши.

10. Турмуш ўртоқларнинг ҳаётини тарк этиши. Турмуш ўртоғининг ўлими кўпинча ҳаётий ресурсларни фаоллаштиришни ва бошқа оила аъзоларининг ёрдамини талаб қиладиган энг қийин воқеаларни келтириб чиқаради[2.45.].

Ушбу босқичларнинг ҳар бири оилавий муносабатлардаги инқирознинг кучайиши билан бирга келади. Бу эса оилавий муносабатлардаги инқирозга қарши курашга тайёрланишни ва кейинчалик барча оила аъзоларининг кучларини қайта тақсимлашни талаб қилади.

Таҳлил ва натижалар

Меъёрдан ташқари содир бўладиган оилавий инқирозлар, ҳамма оилаларда ҳам бўлмайди. Уларнинг кўриниши касаллик, уй-жой муаммолари, атрофдаги одамлар билан зиддият, ижтимоий-иқтисодий жараёнлар (уруш, молиявий инқироз) ва бошқалар каби бир қатор ноқулай шароитларга боғлиқ. Э.Г.Эйдемиллер ва В.В.Юстицкислар[3.656.] оилада инқирозни келтириб чиқариши мумкин бўлган қийинчиликларни таъсир кучига ва давомийлигига қараб қуйидагича ажратиш мумкин деб таъкидлайдилар: ўткир тирнаш хусусияти келтириб чиқарадиган сабаб: оила аъзоларидан бирининг ўлими, хиёнат қилиш, тўсатдан касаллик, ижтимоий ҳолатнинг кескин ўзгариши (банкротлик ёки қамоқхонага бориш) ва ҳакозо; Ажралишнинг қуйидаги сабаблари бор:

йўқотиш ва севги, ўзаро ҳурмат, ишонч ва тушунишнинг йўқлиги;

турмуш ўртоқларнинг хиёнати, никоҳдан ташқари жинсий алоқалар, рашк;

алкоголизм ва турмуш ўртоқлардан бирининг ҳаддан ташқари тобелиги;

турмуш ўртоқлардан бирининг ягона устунлиги, шеригини бостириш;

уй вазифаларини адолатсиз ва нотекис тақсимлаш (аёлларнинг ортиқча юкланиши: меҳнат, болаларни тарбиялаш ва уй вазифалари);

турмуш ўртоғининг ота-оналари оилавий ҳаётга ҳаддан ташқари аралашуви;

ота-оналарга қарама-қарши қарашлар;

умумий манфаатларнинг йўқлиги;

эр ва хотиннинг қарашлари ва қадриятларининг мос келмаслиги;

турмуш ўртоқларнинг турмуш қуришга тайёр эмаслиги;

жинсий келишмовчилик;

оиладаги зўравонлик;

турмуш ўртоқлардан бирининг ижтимоий бўлмаган хатти-ҳаракатлари;

турмуш ўртоғидан бирининг фарзанд кўришни истамаслиги;

оиладаги моддий, молиявий ва уй-жой муаммолари.

Элизабет Кюблер-Росснинг сўзларига кўра, ажрашаётган эр-хотинлар маънавий-руҳий инқирозга учраш босқичларига ўзаро ўхшашдир: инкор қилиш; ғазаб; суҳбат; депрессия; хиёнат ва бошқалар.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ғайритабиий оилавий инқироз сифатида алдаш, бир томондан, никоҳнинг барбод бўлишидан далолат беради, бошқа томондан, бу ўз жуфтининг эътиборини жалб қилиш ва турмуш ўртоғи бўлмаган эҳтиёжларини қондириш орқали никоҳ муносабатларини сақлаб қолишдир.

Оиладаги зўравонлик ғайритабиий оилавий инқироз сифатида жисмоний (калтаклаш), иқтисодий (тирикчиликдан маҳрум этиш ёки моддий боғлиқлик), психологик ва жинсий бўлиши мумкин. Эр ва хотин, ота-она ва бола, бошқа қариндошлар ўртасида оилавий зўравонлик мавжуд. Оиладаги зўравонликнинг энг кўп учрайдиган қурбонлари аёллар ва болалардир. Оилавий (оилавий) зўравонликнинг қуйидаги сабаблари бор:

кўча ва ижтимоий зўравонликнинг давоми сифатида оиладаги зўравонлик: жамиятда қабул қилинган зўравонликка оид маданий меъёрлар ва қадриятлар оила аъзолари томонидан ўзаро ассимиляция қилинади ва қўлланилади деб ишонилади; оиладаги ролларни нотўғри тақсимланиши ва унинг аъзолари ўртасидаги самарасиз алоқа натижасида зўравонлик; болалик даврида олинган психологик травма натижасида зўравонлик ва тажовуз.

Фарзандликка олиш, васийлик ва ҳомийлик болани - оиланинг янги аъзосини оилага қабул қилиш ғайритабиий инқироздир, чунки бу оиладаги муносабатлар тизимини тўлиқ қайта қуришни талаб қилади. Фарзандликка олишнинг қуйидаги сабаблари бор:

бепуштлик туфайли туғилишни давом эттириш истаги;

асраб олинган бола ёрдамида "ҳаёт мазмуни" ни излаш;

ёлғизликни енгиш;

алтруистик: болани етимхонадан олиш истаги, шу билан уни ҳимоя қилиш;

ўз фарзандининг йўқолиши учун товон пули;

никоҳ муносабатларини барқарорлаштириш ва мустаҳкамлаш;

етим бола давлатдан олган тўловлари ва васийларга тўланадиган тўловлар туфайли моддий ва уй-жой шароитларини яхшилаш[4.63.].

Ушбу инқирознинг тезлиги бевосита янги оилада боланинг мослашиш даврига боғлиқ.

Фалсафий жиҳатдан олиб қараганда бундай ноодатий оилавий муносабатларга чек қўйиш учун оилавий қадриятларга жиддий амал қилиш муҳим аҳамиятга эга. Чунки айнан оилавий қадриятлар (шунингдек, анъанавий оилавий қадриятлар) - бу жамиятда ишлаб чиқилган оила ҳақидаги эзгу ғоялар тўплами, оиланинг эзгулик ва одамийлик мақсадларини танлашга, ҳаётни ва ўзаро муносабатларни оқилона ташкил этиш усулларини танлашга таъсир қилади[5.230.]. Анъанавий оилавий қадриятларни қўллаб-қувватловчилар кўпинча анъанавий оилага жамиятнинг ахлоқий жиҳатдан мақбул бўлган ягона бўлаги мақомини беришади

Жамиятнинг асосий бўлаги ва оила ва никоҳ муносабатлари сифатида оила муаммолари доимо ижтимоий фалсафа манфаатлари соҳасида бўлиб келган. Тарихий ривожланиш жараёнида оила ва жамият, оила ва шахс ўртасидаги муносабатлар ишлаб чиқариш усули, турмуш тарзи, ижтимоий муносабатлар, маълум бир жамиятда ҳукмронлик қилган тизим таъсирида доимий равишда ўзгариб турди. Оила қадриятлари янги авлодларга анъаналар орқали оила ва жамиятда ўзини тутиш модели сифатида етказилади. Шу билан бирга, жамоат ҳаётида энг мураккаб ижтимоий ўзаро таъсирлар, бир томондан, реал ижтимоий муносабатлар ва жамиятда ўрнатилган қадриятлар дунёси

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ўртасида, иккинчидан, шахсий қадриятлар йўналишлари дунёси ўртасида доимий равишда ривожланиб боради[6.103.]. Шахснинг ривожланиши, такомиллашиши ва фаровонлиги, шунинг учун инсоннинг ички дунёсини ташқи оламга жалб қилиш, уларнинг ўзаро таъсирига боғлиқдир. Шу муносабат билан индивидуал ва жамоат манфаатларини мувофиқлаштириш алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, у ҳам жамият ривожланиши учун, ҳам шахснинг ўзи фаровонлиги учун муҳимдир.

Хулоса ва таклифлар

Қадриятлар йўналишининг ўзига хос хусусиятларини кўриб чиқишга қаратилган услубий ёндашувларни таҳлил қилиш ижтимоий-фалсафий қарашлар асосида оила ва оилавий қадриятларни ўрганишнинг асосий ёндашувини аниқлашга имкон берди. Ғарбий Европа ва Ўрта Осиё фалсафасининг тарихи, шунингдек, замонавий ижтимоий ва фалсафий фанларда, оилани инсонларнинг умумий умумий оилавий фаолиятига асосланган никоҳ - ота-она - қариндошлик ришталари билан боғлаб қўйилган умумий инсоний қадрият деб ҳисоблаш мумкин. Бошқа томондан, оилавий қадриятлар, одамларнинг турли хил оилавий соҳалардаги ижтимоий-маданий афзалликлари сифатида (никоҳгача бўлган хатти-ҳаракатлар соҳаси ва турмуш ўртоғини танлаш, ота-она тарбияси, никоҳ ва оилавий муносабатлар соҳаси оилавий ва оилавий ролларнинг доираси, никоҳ доираси), оила аъзоларининг эҳтиёжларини қондиришга қодир. Оила аъзоларининг баҳолашига чамбарчас боғлиқдир. Ушбу ёндашув оилавий қадриятларни, уларнинг аҳамиятини, тузилишини, аҳамиятини, жамият ва давлат эволюцион ривожланишидаги ўзгаришларнинг хусусиятларини таҳлил қилишга кенг имкон берди.

Президентимиз таъкидлагаларидек, “Халқимиз азалдан оилани муқаддас билиб, уни доимо асраб-авайлаб келади. Оила қанчалик мустаҳкам бўлса, жамият ҳам шунчалик барқарор бўлади. Бир нарсани унутмаслигимиз лозим: хонадонларимиздаги тинчлик-тотувлик, аввало, оиладаги соғлом муҳитга ... бевосита боғлиқ”[7.]. Замонавий оила институтининг ачинарли ҳолати замонавий жамиятда содир бўлаётган бир қатор жараёнларнинг натижаси ҳам, асоси ҳамдир. Асосий ижтимоий институтлардан бири сифатида оила ўз ривожланишида муқаррар равишда бутун жамият ривожланишининг муҳим тенденцияларини акс эттиради. Замонавий жамиятдаги оила институти нафақат ижтимоий-маданий динамиканинг барча омилларининг улкан таъсирини ҳис қилади, балки кўп жиҳатдан ушбу омилларни ўзи белгилайди ва акс эттиради. Оила соҳасида содир бўлаётган жараёнларни ҳар томонлама таҳлил қилмасдан, ажралмас ижтимоий ҳаётни тўлиқ англаб етиш мумкин эмас.

Оила соҳасида шахсларнинг ҳаётий фаолиятининг намоён бўлишининг хилма-хил шаклларини синтез қилиш тенденцияси фақат оилани ижтимоий-маданий ҳодиса сифатида тушуниш асосида мумкин. Агар биз, бир томондан, оилани фалсафий ва илмий тушунишнинг ўзига хос хусусиятларини англаб етсак, унда оила жамиятнинг асосий функцияларидан бири - унинг аъзоларини кўпайтириш ва уни амалга оширадиган махсус ижтимоий институт сифатида тушунилади. Бошқа томондан, агар бугунги цивилизациянинг энг муҳим тенденцияларидан бири - шахсни индивидуаллаштиришга интилиш ва шахснинг ўзини ўзи англашини ҳисобга олсак, оиланинг келажаги тўғрисида прогнозлар яратиш, лойиҳалар ишлаб чиқиш мумкин бўлади. Ушбу ҳолатлар ушбу иш доирасида оила институтини ижтимоий-фалсафий ўрганишни тақозо этади.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Оила ва унинг институционал ўзгаришларини ўрганиш, шунингдек, оила алоҳида ижтимоий-маданий институт эканлиги, бутун жамият тараққиётининг барқарорлиги кўп жиҳатдан унга боғлиқ бўлганлиги нуқтаи назаридан ҳам ўрганиш муҳимдир. Бу тадқиқотчиларнинг оилавий ўзгаришларга доимий қизиқишини ошишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

Ўзбекистон Республикасида Оила институтини мустаҳкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори. Тошкент ш., 2018 йил 27 июнь, ПҚ-3808-сон.

Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Тошкент ш., 2022 йил 1 март, ПҚ-146-сон

Оила институтини янада ривожлантириш ва ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Тошкент ш., 2020 йил 31 декабрь, 820-сон.

Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. – Тошкент: «Ўқитувчи» МУ МЧЖ, 2021.

Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020.

6. **Абдураимова С.А. Мен ва Биз : этика муаммоларига замонавий қараш / С. А. Абдураимова; Масъул муҳаррир Б.Р. Каримов. - Тошкент : Янги аср авлоди, 2005.**

7. Абдурауф Фитрат. Раҳбари Нажот.-Т.: Шарқ, 2000.

8. Азроянц Э., Глобализация: катастрофа или путь к развитию? М., Новый век, 2002.

9. Вирджиния Сатир. Как строить себя и свою семью. The New Peoplemaking Science and Behavior Books, Mountain View, CA, 1972.

10. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. - М: Гардарики, 2005.

11. Qaxxarova, M. (2021). SOCIAL-SPIRITUAL ENVIRONMENT OF SOCIETY AND SPIRITUAL IDEAL. *Oriental Journal of Social Sciences*, 30-36.

12. Qaxxarova, M., & Raximshikova, M. (2020). MORAL CONTINUITY IS A SOCIAL-PHILOSOPHICAL, HISTORICAL PHENOMENON. *The Light of Islam*, *2020*(3), 103-112.

13. Нажмиддинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. Диссертация. Фалс. фан.ном. – Т.: 2004.

14. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси. – Т.: ЎФМЖ, 2004.

15. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.

16. Парсонс Т. Система современных обществ. М., Аспект Пресс, 1998.

17. *Психология семейных кризисов. Олифирович Н.И, Зинкевич-Куземкина Т.А, Велента Т.А. М.: Речь, 2006*.

18. Ғаниев А. Ғарб оламидаги ахлоқий муаммолар : монография / А. Ғаниев; масъул муҳар. М.Ж. Жакбаров; Республика Маънавият ва маърифат кенгаши, Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази, Республика Маънавият тарғибот маркази. - Тошкент : Ворис, 2007.

19. Қобилов Ш. Глобаллашув ва хавфсизлик. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2006..

20. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В.В. Психология и психотерапия семьи. 3-е. СПб: Питер, 2002.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

21.Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Тошкент. Университет, 1998/
22. https://daryo.uz/k/2020/12/26/shavkat-mirziyoyev-songgi-11-oyda-yosh-oilalar-ortasida-qancha-ajrim-qayd-etilganini-malum-qildi.

НАФОСАТ ФАЛСАФАСИНИНГ МОҲИЯТИ, МАҚСАДИ ВА ВАЗИФАЛАРИ

Кадирова Дилбар Солиҳовна
Ўзбекистон Миллий университети проф. в.б

Аннотация:*Ушбу мақолада эстетика, нафосат фалсафаси фанининг моҳияти, фаннинг инсон ва унинг борлиги масаласига ўзига хос ёндашуви, тадқиқод доираси ва предмети, амалий фаолиятдаги ўрни ва замонавий аҳамияти ўрганилган.*

Калит сўзлар*:Нафосат, эстетика, эҳтиёж, борлиқ, фалсафа, ҳис қилиш, фан, тафаккур, онтология, эстетик завқ, ижод, санъат, гўзаллик, бадиий фаолият.*

СУТЬ, НАЗНАЧЕНИЕ И ОБЯЗАННОСТИ ФИЛОСОФИИ ЭЛЕГАНТНОСТИ

Кадырова Дильбар Солиховна Национальный университет Узбекистана проф.

Аннотация; *В данной статье изучаается сущность науки эстетики, философии эстетического, ее своеобразный подход к проблеме человека и его сущности, объем и предмет исследования, ее роль в практической деятельности и современное значение.*

Ключевые слова: *Утонченность, эстетика, потребность, бытие, философия, чувство, наука, мышление, онтология, эстетическое наслаждение, творчество, искусство, прекрасное, художественная деятельность.*

THE AIM AND FUNCTION OF ELEGANCE PHILOSOPHY AND ITS MAIN POINTS

Kadirova Dilbar Solihovna National University of Uzbekistan prof

Abstract; *This article studies the essence of the science of aesthetics, the philosophy of aesthetics, its peculiar approach to the problem of man and his essence, the scope and subject of research, its role in practical activities and modern significance.*

Key words: *Refinement, aesthetics, need, being, philosophy, feeling, science, thinking, ontology, aesthetic pleasure, creativity, art, beauty, artistic activity.*

Kirish

Нафосат ва эстетика тушунчаларининг талқини

Маълумки, нафосат фалсафаси “эстетика“ деб ҳам юритилади у, эса, бир неча асрлардан бери Европа университетларида ўқитилиб келинаётган классик фанлардан биридир. Замонавий Ғарб эстетикасида таъкидланадики: “Эстетика бу инсонлар учун сув ва ҳаводек зарур бўлган бизни фикрлашга ундайдиган маҳорат, дид, савия ва фахмимизни оширадиган фандир. Агар инсонда эстетик салоҳият, дид, фаросат бўлмаса у дунё гўзалликларини кўра олмайди[1].

Бугунги кунда эстетика фанининг келиб чиқиши хусусида бир қанча қарашлар мавжуд.Унинг келиб чиқишида эса, синергетика, (хаосдан гармониянинг яралишида), рационал ақл ҳамда интуитив омиллар (ақлий ва ҳиссиётга асосланган), халқларнинг анъана

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ва маросимлари, одатлари, ижод жараёни ва буюк шахсларнинг асарлари, архетиплар(жамоавий онгланмаганлик), ўйин назарияси, мимемсис(тақлид) меҳнат ва б. салмоқли ўринни эгаллаган деб ҳисоблаймиз. Шунингдек, секин-аста инсон томонидан орттирилган ҳаётий тажрибалар, кўникмалар, билимлар орқали эстетика фани шаклланиб борди ва ривожланди. Эстетиканинг келиб чиқишида инсоннинг гўзалликка бўлган эстетик эҳтиёжи муҳим ўринлардан бирини эгаллаган.

Маслоу пирамидаси ва инсон эҳтиёжлари диаграммасида ишлаб чиқади ва унда эстетик эҳтиёжлар инсоннинг физиологик, хавфсизлик, муҳаббат, ҳурмат, билиш, эҳтиёжларидан кейин 5-чи ўринни эгаллайди. 6-чи ўринда эса, ўз-ўзини англаш туради. Энг қизиқарлиси, ушбу диаграммадаги эҳтиёжларнинг деярли барчасида эстетикага маълум даражада боғлиқ дейиш мумкин.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Адабиётларда "фан"ни дунё тўғрисидаги, шу жумладан одамнинг ўзи тўғрисидаги, объектив билимларни ишлаб чиқариш бўйича юксак даражада ташкил этилган ва ихтисослаштирилган фаолиятдир, деб таърифлаш қабул қилинган. Эстетика фанини энг қадимги фанлардан бири эканлигини қайд этсак-да, мутафаккирлар ушбу фаннинг 18 - асрнинг ўрталарига қадар бўлган даврини "Инплицид эстетика" деб юритадилар. Инплицид эстетика, тарихий даврлар мобайнида фалсафа, риторика, филология каби бошқа фанлар тизимида мавжуд бўлган эстетик тажрибаларни ўзлаштиришни англатади.

Ҳозирги замон фалсафаси доирасида кўпинча қуйидаги мустақил соҳаларни ажратишади: *фалсафа тарихи, онтология* - борлиқ тўғрисидаги таълимот, *гносеология* (эпистемология) - билиш тўғрисидаги таълимот, *аксиология* - қадриятлар тўғрисидаги таълимот, *фалсафий антропология* - инсон тўғрисидаги таълимот, *ижтимоий фалсафа* – жамият тўғрисидаги таълимот, *мантиқ* – тафаккур қонунлари ва шакллари тўғрисидаги таълимот, *этика* – ахлоқ тўғрисидаги таълимот, *эстетика* – гўзаллик тўғрисидаги таълимот. Эстетика фан сифатида А. Баумгартен томонидан "эстетика" атамаси киритилиб (1735), унинг мавзусини аниқланганидан **сўнг, "Эксплицит(очиқ, аниқ) эстетика"га, яъни**-фалсафанинг мустақил тармоғига айланди. Баумгартен эстетикани гўзалликни, гўзал санъат асарлари асосида ижод ва идрок қонунларини ҳиссий жиҳатлан ўрганадиган фан деб таърифлайди. Баумгартеннинг сўзларига кўра, эстетика учта асосий бўлимдан иборат: биринчиси нарсаларда ва тафаккурда гўзалликни ўрганишга қаратилган; иккинчиси - санъатнинг асосий қонунларига; учинчиси – семиотика, эстетик белгиларга, шу жумладан ва санъатдаги семиотик белгиларга ҳам.

А.Шер қайд этадики: Баумгартенгача ақл–идрокни ўрганадиган фан – мантиқ, ирода-ихтиёрни ўрганувчи фан эса – ахлоқшунослик (этика)нинг фалсафада кўпдан буён ўз ўрни бор эди. Бироқ ҳис-туйғуни ўрганадиган фан фалсафий мақомда ўз номига эга эмасди. Баумгартен эстетикани ҳиссий идрок этиш назарияси сифатида олиб қаради. Баумгартеннинг бу борадаги ҳизмати шундаки, у «ҳис қилиш», «сезиш», «ҳис этиладиган» сингари маъноларни англатувчи юнонча aisthetikos – «ойэстетикос» сўзидан «эстетика» (олмонча «*estetik*» – «эштетик») иборасини олиб, ана шу бўшлиқни тўлдирди[2].

Natijalar

Энди "нафосат" иборасига тўхталсак. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида "нафосат" иборасининг: нафислик нозик хусусиятга эгалик, аҳамият, қимматбаҳо нарса, бойлик; нарса ва ҳодисаларнинг ташқи кўринишидаги алоҳида мукаммалликни, мунатосибликни

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ифодаловчи белгилар мажмуи; нафислик гўзаллик, латофат, маъноларини англатиши қайд этилган.

Шундай қилиб, нафосатшунослик, ёки эстетика - воқеликнинг муҳим эстетик хусусиятларини акс эттирувчи қонуниятлар системаси, эстетик категориялар, уларнинг гўзаллик қонунларига мувофиқ ривожланиш жараёнини, шу жумладан бадиий фаолият, турмуш эстетикаси, дизайн, кундалик ҳаёт эстетикасини, санъат ва унинг эстетик қонуниятларини, ижод ва идрок этиш масалаларини, эстетик фаолият ва муносабатлар ва б.ни ўз ичига олади

Muhokama

2.Нафосат фалсафасининг фалсафий фан сифатида борлиқ, инсон ва унинг борлиғи масаласига ўзига хос ёндашуви. Гераклит инсон маънавий камолотида ҳиссий ва мавҳум билим тўплаш содир бўлишини, эстетик маданият эса ҳар иккаласини бирга олиб боришни тақозо этишини таъкидлайди. Чунки, ҳиссиёт жисмнинг табиати ҳақида узул - кесил билим беролмайди. Тўлиқ билимни фақат тафаккур бера олишини таъкидлайди[3]. Антик фалсафадаёқ софистлар ва Сократ дунёқарашининг асосий масаласини инсоннинг табиатга, субъектнинг объектга, тафаккурнинг борлиққа муносабати масаласи сифатида илк бор таърифлаб берган эдилар. Борлиқ нафақат предметларни, жисмларни, объектив реалликни, балки, маънавий ҳодисаларни, руҳиятни, онг ва тасаввурни, *субъектив реалликни* ҳам ўзига қамраб олади. Нафосат-объектив воқелик сифатида нарса-ҳодисаларнинг эстетик хусусиятларини англатса, субъектив воқелик тарзида инсоннинг ана шу эстетик хусусиятларини англаш ва идрок этиш борасидаги ботиний фаолиятидир. Фалсафа «дунё-инсон» тизимини тушунишга интилади, унда юз бераётган жараён ва муносабатларни «*Эзгулик*», «*Мурувват*», «*Ёвузлик*», «*Фойда*», «*Гўзаллик*» ва нуқтаи назаридан баҳолаш ҳам фалсафа учун муҳимдир. Эстетика, бадиий ижоддаги, табиат ва ҳаётдаги гўзалликнинг моҳияти ва шакллари, санъатнинг ижтимоий онгнинг алоҳида шакли сифатида фалсафий таълимот экан, фан сифатида у, борлиқ, инсон ва унинг борлиғи билан чамбарчас боғлиқдир. Демак, дунёни билиш нафақат қонунларни акс эттирувчи категория ва тушунчалар, балки санъатда яратиладиган образлар, олий шакллар, яъни бадиий образлар орқали ҳам амалга оширилади. Санъат оламида ҳар бир бадиий асар яхлит ҳолда билиш, фалсафий, эстетик моҳиятнинг мужассамлигини талаб қиладики, ушбу моҳиятсиз мусиқа қуруқ товушлар йиғиндиси, тасвирий санъат қуруқ ранглар йиғиндиси, шеърият эса сўзлар йиғиндиси бўлиб қолаверади. Айниқса, мақом жанри, симфония, роман, достон, портрет жанрлари мураккаб фалсафий тизимдир.

Эстетика фанининг предметига: 1. Табиатдаги гўзаллик. 2. Санъатда гўзаллик. 3. Ижтимоий ҳаётдаги гўзаллик, (кундалик ҳаёт, меҳнат ва эстетик фаолиятлар) киради.

Демак, эстетиканинг тадқиқот доираси миқёсий ва кўпёқламалик экан, эстетика предметини аниқлашда турли ёндашувлар мавжуд. Эстетика – илм сифатида, шаклларда ифодаланган, мавжудликнинг структуравий ва **семантик** қонунларини, уларни тушуниш усулларини, ҳиссий англашнинг хусусиятлари ва унинг инсон , унинг қобилияти ва мақсадлари билан ўзаро муносабатини ўрганади. Эстетик билимлар ўзига хос ва универсалдир. Эстетика санъатнинг пайдо бўлиши шартларини, унинг структуравий ва фармал хусусиятларини, гўзалликни ва бошқа эстетик категориялар ва уларнинг гўзалликка нисбатини, эстетик ҳиссиёт ва унинг ўзига хос хусусиятларини, санъат, дизайн, бадиий асар тузилиши жанрлари, усуллари, ифода воситалари, бадиий ижод ва идрок

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

жараёнларини, носанъат объектлар эстетикаси (спорт, мода ва б.), табиат эстетикасини, эстетик тарбия масалаларини, эстетик маданият ва унинг ўрнини тадқиқ этади. Шунингдек, ушбу атамани кундалик ҳаётимизни барча жабҳаларида жуда кенг маънода ишлатилишини кузатишимиз мумкин (масалан: интерер эстетикаси, спектакль эстетикаси), ушбу тушунча санъат асарларининг ҳам, кундалик буюмларнинг ҳам, табиат ҳодисаларининг ҳам ҳиссий ифодали сифатини умумлаштирувчи ягона принципни билдиради.

Демак, "Эстетика" фанининг мақсади табиат ва санъатдаги гўзалликнинг ўзига хос хусусиятларини очиб бериш ва гўзалликни идрок этиш хусусиятларини тавсифлашдан иборат. Тарихан эстетикани бир неча марта мустақил фанларга ажратмоқчи бўлишган. Масалан; эстетик қадриятлар назарияси, эстетик идрок назарияси, санъат назарияси, лекин тажриба шуни кўрсатдики, ушбу назариялар ўзаро шунчалик чамбарчас боғлиқки, уларни ажратиб ташлаш, деярли мумкин эмас экан. Ҳозирги кунда эстетика кўпроқ соҳавий кўринишга эга. Масалан: мусиқа эстетикаси, дизайн эстетикаси, ландшафт эстетикаси ва ҳ.к. Бугунги кунда эстетиканинг қўлланилниш соҳаларини қуйидагича таснифлаш мумкин:

1. Фан, илм соҳаси. Мустақил фан сифатида. Турдош фанларда.

2.Фаолиятлар соҳаси. Эстетик фаолиятлар билан амалий шуғулланаётган инсон ҳам эстетик қонуниятлари билмоғи, уларга лаёқати, диди, бўлмоқлиги лозим. Фаолиятлар соҳалари эстетикаси иккига бўлинади:

Бадиий фаолиятларда. Бадиийлик билан боғлиқ соҳаларнинг барчаси эстетик қонуниятлар амал қилади. Санъат, дизайн, ва б.

Бадиий бўлмаган фаолиятларда. Меҳнат эстетикаси, маркетинг ваб.

3.Эстетик қиймат ёки баҳо маъносида (масалан ҳозирги кунда ландшафтларнинг эстетик баҳоси, қиймати белгиланади).

4.Барча соҳаларда сифат даражасини белгиловчи омил сифатида (турли фаолият номлари, бренд ва логотипларда).

5. Тарбия соҳасида.

Бу таснифни яна давом эттириш мумкин, лекин, шуни алоҳида таъкидлашимиз жоизки, жамият ривожланган сари эстетикага, гўзалликка бўлган талаб ошиб бораверади.

Шунингдек, санъат ҳам эстетика фанининг предмети бўлиб хизмат қилади. Санъат нафақат қатор фанлар предмети, балки инсон дунёси онтологиясини, инсон фаолиятининг турли шаклларини қамраб олган ҳодисадир. Эстетика **санъат** меъёрларини, қонунларини (эстетиканинг бадиий ижодга бўлган муносабатини) белгилаш имконига эгами ?-деган савол кўп бахсларга сабаб бўлиб келган. Тарихда эстетика ва санъат ўртасидаги ўзаро муносабатларга нисабатан иккита қараш мавжуд: 1) классицизм назариётчиси Н.Буало (XVII аср) эстетикани ижодкорга қоидаларни белгилаб берувчи фан сифатида таърифлаган; 2) бошқа француз олими И.Тэн эса (XIX аср) эса аксинча, санъат эстетика қараганда бирламчидир ва у эстетика фанига тадқиқот объектини яратиб беради деб қайд этади[4]. Рус нафосатшуноси Боревнинг таъкидлашича, ижодкор мавзу, бадиий воситалар, образли фикр шаклларини танлашда эркинликка эга, бироқ агар у нафосат қонунларини бузса, у ҳолда унинг асари санъат чегараларидан чиқиб кетади. Бироқ санъат қонунлари абсолют эмас – улар тарихдан ўзгарувчандир. Бадиий меъёрлар қатъий ва ўзгармас тизимли бўлган, *канон* (ўрта аср санъати, клаассицизм) шаклида намоён бўлган давр ва йўналишлар мавжуд

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

бўлган. Айни вақтда қоидалардан ҳар қандай чекиниш- аввалгисидан келиб чиққан ҳолда мавжуд бўлади. Санъатдаги меъёрлар нафақат инвариантни, яъни такрорланувчи ўзгармас тузилмани (классицизмдаги юксак услуб ва унинг атрибутлари) тан олиш, балки бошқа варинтларнинг (*реализм* тизимидаги индивидуал услублар) мавжуд бўлишини ҳам қабул қилиш демакдир. Эстетика фанининг энг асосий мезони-категорияси бу гўзаллик бўлса, тарихнинг ҳар бир давридаги ғоявий мезон уни ўзича кўради ва айнан уни ўзи кўролган гўзалликни ҳақиқат деб билади. Масалан: *Антик эстетика* мезонларни табиатга тақлид қилиш санъати сифатида ифодалаган, бадиий асарларни табиат қонунлари, унинг прообрази, мукаммалликнинг асоси сифатида таърифлаган. *Ўрта аср эстетикаси (Августин, Фома Аквинский)* гўзалликнинг юксак, илоҳий ибтидога эга бўлган мезон эканлиги ғоясини илгари сурган. Шекспир, *Леонардо да Винчи, Альберти,* М. Сервантес, А. Дюрерлар инсон ва унинг юксаклиги ғояларини мезон деб билишган. Янги даврда *классицизм* вакиллари (П. Корнель, *Буало)* ўз эътиборларини инсон ҳаёт-фаолиятининг маънавий-эстетик жиҳатларига қаратадилар; классика-эстетик меъёрлар ва мезонлар доминантасига айланди.

5.Нафосат фалсафасининг амалиётдаги ўрни. Эстетика ҳам, фалсафа ҳам аввал бошиданоқ назарий фанлардир. Масалан: юнон файласуфи Арасту шундай деб ёзган эди: «Тажрибага эга бўлганлар «нима» эканлигини биладилар, аммо «нима учун эканлигини, яъни сабабини билмайдилар»[5]. Эстетика назарий фанлар туркумига кирса-да, бугунги кунда ушбу назариянинг амалиётини кундалик турмушимизнинг деярли барча соҳаларида кузатишимиз мумкин.Масалан:

ижод; меҳнат эстетикаси; дизайн; турмуш гўзаллиги; атроф муҳитни гўзаллаштириш; эстетик тарбия.

20 асрга келиб эстетика жадаллик билан ривожланди. 20 асрда; феноменологик, психоаналитик, семиотик, экзистенсиалистик эстетикасини; 1960 - йилларга бориб тақаладиган структурализм ва посцтруктурализм таркибидаги эстетикаси ва постмодерн эстетикасини алоҳида қайд этиш мумкин. Нафосатшуносларнинг фалсафий ва услубий муносабатига қараб, эстетика: эмпирик; психологик расмий; тартибга солувчи; спекулятив эстетикаларга ажратилди.

20 асрда эстетиканинг ривожи ва бошқа фанлар билан интеграцияси. 20 асрда эстетик муаммолар махсус тадқиқотлар билан эмас, балки бошқа фанлар контекстида, биринчи навбатда санъат назарияси ва санъатшунослик, психология, социология, семиотика, тилшунослик ва энг охирги (асосан постмодерн) фалсафий матнлар майдонида ишлаб чиқилди.

Масалан: математиканинг гўзаллиги - бу математикани мусиқа ва шеъриятга ўхшаш эстетик завқ обекти сифатида қабул қилишдир. математиклар илмий фаолият билан боғлиқ бўлган ҳолда, объектлар, теоремалар, ечимлар ва геометрик шаклларнинг ўзига хос гўзаллиги ҳақида гапиришади. Физиклар ҳам, эстетика-физик назариялар, қонунлар, формулалар гўзаллиги, фанлараро алоқалар эстетикаси, далилларнинг мантиқийлиги ва бошқаларни ўз ичига олишини таъкидлайдилар.

Xulosa

Турли соҳалардаги эстетика билан боғлиқ махсус фанларга эса, “биоэстетика”ни ёки “рақамли эстетика”ни киритишимиз мумкин.

Физик олима Л.А.Гаврилинанинг “Физика ва эстетика” мақоласида, таъкидлайдики, гўзалликнинг жозибали таъсирининг сири шундаки, гўзаллик - бу бизни одатдагидан

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

юқорига кўтарадиган, ижодкорликни рағбатлантирадиган кўзга кўринувчи идеал. Гўзал билан алоқа инсоннинг барча ҳис -туйғуларини чархлайди, уни атрофдаги ҳаётга нисбатан сезгир қилади, қувончли ва кўтаринки кайфиятни яратади, фандаги ижодий изланишлар ҳар доим ҳиссий рангга эга бўлиб, улар тажрибалар, шу жумладан эстетика билан боғлиқдир. Товуш, ранг, чизиқ, симметрия, ритм, сон, нисбат ва бошқалар нафақат физика, математика, балки шеърият, мусиқа, тасвирий санъат билан ҳам бевосита боғлиқ. Бунинг сабаби шундаки, илмий ва бадиий соҳалардаги ижодкорларнинг умумий жиҳатлари кўп. Илмий -техник усуллар ёрдамида табиат гўзаллигининг янги ва янги қирралари пайдо бўлади - микро дунёдандан то космосгача. Илмнинг гўзаллиги, худди санъат сингари, қисмларнинг мутаносиблиги ўзаро боғлиқлиги, ҳамда, яхлитлигини ташкил этувчи “гармония” белгиланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Blackwell Companions to Philosophy. A Companion Aeshtetics. Edited by Stephen Davies, Kathleen Marie Higgins, Robert Stecker and Devid E. Cooper . WILEY –BLACKWELL Ajohn Willy Sons Ltd. Publication.2017.
p. 529
2. Материалисты Древней Греции. - М.: Наука, 1995. – 51 с.
3. А.Шер “Эстетика” Дарслик.Тошкент.”Ўзбекистон”. 2014. 6-бет.
4. Ю.Борев. Эстетика. Москва «Высшая школа» 2002.С.15.
5. Аристотель. Сочинения. Т. 1. 66-б.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ЁШЛАРНИНГ МЕДИАМАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

Абдуҳолиқова Насиба Алижоновна
Turan International Unirersity
Мустақил татқиқодчиси
E-mail: Sotsial.nauki@gmail.com

Аннотация: *Замонавий ахборот технологиялари ривожланган даврда ёшларнинг медиа воситалридан фойдаланиш имкониятлари кенгаймоқда. Ёшлар бир вақтнинг о'зида ахборот қабул қилувчи мақомидан ахборот тарқатувчи ва ахборот ишлаб чиқувчи мақомга о'тмоқда. Шу боисдан мақолада ёшларнинг ахборот билан ишлаш ко'никмаси ва медиа воситаларидан фойдаланиш малакаларини шакллантиришнинг фалсафий тахлилига багишланган.*

Калит сўзлар: *Медиамаданият, медиатаълим, маърифат, ахборот маърифати, бегоналашув, ахборий маданият, медиасаводхонлик*

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ МОЛОДЕЖНОЙ МЕДИАКУЛЬТУРЫ

Абдухоликова Насиба Алижоновна
Международный университет Туран
Независимый исследователь
Электронная почта: Social.nauki@gmail.com

Аннотация: *В век современных информационных технологий возможности молодежи в использовании средств массовой информации расширяются. Молодежь одновременно переходит из статуса получения информации в статус распространения информации и разработки информации. Поэтому статья посвящена философскому анализу формирования навыков работы с информацией и навыков использования медиасредств.*

Ключевые слова: *Медиакультура, медиаобразование, просвещение, информационное просвещение, отчуждение, новостная культура, медиаграмотность*

FACTORS OF YOUTH MEDIA CULTURE FORMATION

Abdukholikova Nasiba Alijonovna
International University of Turon
Independent researcher
Email: Sotsial.nauki@gmail.com

Abstract: *In the age of modern information technologies, the opportunities of young people to use mass media are expanding. Young people are simultaneously changing from the status of receiving information to the status of information dissemination and information development. Therefore, the article is devoted to the philosophical analysis of the formation of information processing skills and the skills of using mass media.*

Key words: *Media culture, media education, enlightenment, information enlightenment, alienation, information culture, media literacy*

Кириш

Глобаллашув ва оммавий ахборот технологияларининг ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларини қамраб олиши, айниқса таълим соҳасида ҳар қачонгидан долзарб муаммога айланиб бормоқда. Ижтимоий-гуманитар фанларда маънавият ва маърифат муаммолари олимларимиз томонидан фаол ўрганилса-да, лекин ёшлар медиамаданиятининг мазмун-моҳияти хусусида ҳалигача фундаментал тадқиқотлар амалга оширилмаган[1]. Ваҳоланки, фуқаролик жамиятида миллий ғоя шаклланиши учун қадриятлар устувор аҳамиятга эга бўлиб, миллий маданиятни аҳоли турмушида юксалтириш учун ижтимоий зарурати ўсиб боради. Медиамаданият ўз моҳиятига кўра маърифатга синоним сифатида ҳам қўллаш мумкин. Чунки, Ўзбекистон Миллий энциклопедиясида "1) билим тарқатиш, таълим бериш; 2) мамлакатдаги таълим-тарбия ва маданий-маърифий муассасалар тизими" таърифи қабул қилинган[2].

Ёшларни медиа маданияти маърифатнинг энг умумий қирралари билан чекланиб қолмасдан, унинг мазмунига сиёсий тус беради. Шу билан бирга мазкур иқтибосда маърифатга дунёвийлик нуқтаи назаридан гносеологик таъриф берилганда, инсоннинг дунёқарашида ахборотнинг моҳиятини ифодалашга ҳизмат қилади. Демак, ахборотлашув жараёни инсоннинг билим доираси ва дунёқарашини интенсив кенгайиб бориши натижасида медиа маданиятни ҳосил этади. Айни вақтда маърифатпарварликнинг тарихий тараққиёти илк бора мифологик, ўрта асрда диний ахлоққа таянса, илмий маърифатда интеллектуал баркамоллик, медиа маданиятда эса секулярлик, идеалсизлик, худбинликка чалғитувчи хусусиятлари билан ажралиб туришини кузатиш мумкин.

Методлар

Ўзбекистоннинг медиа таълимига рақамли технологияларнинг кириб келиши билан мобил қурилма орқали интернетга уланиш оддий сёрфинг ва чатлардаги мулоқотларнинг янги ривожланган ахборот алмашинув тезлиги туфайли смартфон дунёнинг ахборот майдонига кенг йўл очади. Натижада, фойдаланувчи ахборот тарқатувчи даражасига ўтиб, рақамли ахборотнинг муҳим тушунчаси – просьюмер /медиани яратиш/ ахборот ишлаб чиқарувчиси ёки ахборотни қабул қилувчи "консьюмер"га айланади. Аналогик фикр-мулоҳазалар Э. Тоффлернинг ахборот медиатаълимини изоҳлаш учун қўллаган3. У замон талаб ва эҳтиёжлари ахборий маданиятнинг медиатаълим ютуқларини англаш ва тарғиботи шаклида таърифлаган. Анъанавий жамиятда аҳоли орасида суҳбат, маъруза, баҳс-мунозаралар орқали илмий янгиликларни одамлар онгига сингдириш орқали ижтимоий тараққиётга етаклаш назарда тутилса, замонавий ахборот қурилмалари маълумотлар базасининг беқиёслиги билан информатив қизиқиш ва эстетик туйғулар билан қурилмага боғлайди. Натижада, ёшларнинг анъанавий китобхонлик ва ОАВдан "бегоналашуви"ни ҳам кузатилади4.

Таниқли социолог Д. Белл ахборотлашган жамиятнинг ахборот маърифатига эҳтиёжни таҳлил қилиб, ёшларнинг воқеликдан хабардорлик салоҳияти ва малакаси

[1] Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari/ Uslubiy qo'llanma. –T.: StarPoligraf, 2008, -Б. 25.

[2] Ўзбекистон Миллий энциклопедияси – Т.: ЎМЭ нашриёти, 2003. – Б. 322

[3] Тоффлер Э. Шок будущего. – М.: АСТ, 2001. – С.669

[4] Вишняков С.М. Профессиональное образование: Словарь. Ключевые понятия, термины, актуальная лексика –М.: НМЦ СПО, 1999. – С. 260.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

миллий элитани ҳосил этишига эътибор қаратган. Шу боис у “Тадқиқотчи ахборотни жисмонан истеъмол қилинмайдиган ва эскирмайдиган «жамоавий маҳсулот» сифатида талқин қилиб, индустриал жамиятда инсон ҳаётий фаолиятидаги мутлақо янги маҳсулот бўлгани учун унга нисбатан ўша даврда муомалада бўлганидан ўзгача меъёр ва мезонларни қўллаш кераклигига эътибор қаратади” деб ёзади5. Маърифат ўз навбатида турли-туман билимларни аҳоли орасида тарқатиш, таълим ва тарбия шаҳобчаларини кенгайтириш ижтимоий тажриба ёки фалсафий фикрнинг прогрессив ғояларининг тарғиби билан боғлиқ бир даврни назарда тутади. Шу боис биз мазкур таърифда маърифат башариятнинг мақсадли фаолияти доирасида ижтимоий тараққиёт ҳақиқатини англаш, ўзгаларни мазкур ҳақиқат ортидан эргаштириш билан умумий фаровонликка интилиш деган хулосага келдик.

Натижалар

Маърифатли жамиятда омманинг юксак билимли, ижтимоий фаол, жамоавий ҳамжиҳатлик ила янгиликларни билиш ва ҳаётга қўллаш тушунилади. Бу ҳол жамиятда кенг омма орасида таълим ва тарбияни ташкили, мактаб ва маориф тизими фаолиятини бошқариш, ёшларни тўлақонли мактаб таълимига қамраб олиш, уларни юксак савияда билим олишига эришув деб ҳисоблаймиз. Айни вақтда маърифатни амалга оширишда театр ва кино, кутубхона ва музейларнинг роли ҳам беқиёс эканлигини ёдда тутмоқ керак. Демак, жамият маърифатга энг қуйи босқичда зарурият сезган бўлса, тараққиётнинг юқори даврида муаммоли вазиятдан чиқиш, таълим-тарбияга бир неча баробар эҳтиёжни ортишида зарурият сезади. Шўролар тузумининг сиёсатида Маориф вазирлиги таълим тизимининг умумий асосларини ифодалаган. Чунки маърифатнинг муҳим кўрсаткичи инсон томонидан оламни билишда илмий услубиятга эгалиги, ижтимоий алоқада ҳақиқат ва гўзалликка таяниш билан ижтимоий фалсафий информатив қадриятга айланади.

Мухокама

Медиатаълимда инсонни доноликка интилиши, объектив воқеликни билишга интилиш билан шахснинг комиллигини ҳам англатади. Зеро, тарбиянинг мазмун-моҳияти жамиятда идеал инсонни шакллантириш мақсадлари жамиятнинг “аҳлоқий буюртма”сини ҳам ифодалайди. Шу билан бирга медиа компонентлик ёшларнинг ижтимоий меъёр ва қоидаларни ўзлаштириши билан жамиятнинг тўлақонли аъзосига айланишига тадқиқотчилар эътибор қаратади 6. Миллий ахборотлашувда “миш-миш” омилини ҳам ёдда тутиш, уни ижтимоий тармоқларга “миграцияси”ни муҳим жиҳат деб ҳисоблаймиз. Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда ахборот маърифати шахснинг ижтимоий моддий ва маънавий алоқаларга киришиш қобилияти, миллий маънавий одоб, хулқ феъл-атворини эгаллаганлиги, айниқса хушмуомалалик, кийиниш, юриш-туришда ўзгаларни ранжитмасликка интилишда ўз ифодасини топади. Ахборот маърифати ўз моҳиятига кўра ёшларнинг миллий маданиятлиги, яъни халқимизнинг бой маданий мероси, урф-одат ва аньаналарини эвристик англаши ва праксиологиясида намоён бўлади.

[5] Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. Пер.с англ. В. Л. Иноземцева. – М.: Academia,1999. – С. 24 (956 с.)

[6] Эшмаматов И.А. Педагогнинг ахборот-коммуникатив компетентлигини таълим фаолиятида лойиҳалаш // Илмий ахборотнома. – Самарқанд, 2016. – № 4. – Б. 182.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ахборот маърифати тарихий шаклланган инсоннинг энг олий маънавий билиш эҳтиёжи: у диалектик мулоқот, таълим ва тарбиявий жараёндир. Шунинг учун ахлоқий маърифат инсонни ижтимоий муҳитга мослашиш чоғида оладиган билимлар, ўртоқлик, дўстлик ва мухаббатини амалга ошириш имкониятларидан фойдаланиш лаёқатидир. Ахборот маданияти оиладан бошланиши билан маърифат ота-онадан болага, ота-онанинг тарбияси билан муаллимга бериш удуми орқали шахснинг идеалликка интилиши, яъни яхши одам бўлиш орзу-нияти деб ҳам тушуниш мумкин. Ота-оналар фарзандларини бой-бадавлат, юксак мансабдорлиги эмас, балки ахборот маърифатининг этика ва эстетикасини ҳам англатади. этика ва эстетикасини ҳам англатади.

Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсати ўз моҳиятига кўра давлатнинг маърифатпарварлик фаолиятини назарда тутган ҳолда Кадрлар тайёрлаш миллий дастури ва “Таълим ҳақида”ги Қонунни амалга оширишнинг энг самарали йўлларини излаб топишдир. Таълимнинг барча бўғинларида ёшларнинг феъл-атвори, айниқса одоби, яъни салом-алик ила хушмуомаласи, медиатаълимда ҳал қилувчи омиллардан бирига айланди. Мазкур муаммонинг кундан кунга мураккаблашиб боришини Ўзбекистон Республикаси “Оила” маркази маълумотларида кузатиш мумкин. Марказ 2017 йилда 20 мингдан ортиқ жиноят вояга етмаган ёшлар, жумладан 310 нафари мактаб ўқувчилари томонидан содир этилганини алоҳида таъкидлаб ўтган. Мутахассислар фикрича, 769 ҳолатда мактаб ўқувчиларининг ҳуқуқбузарлик ва безорилигини олдини олиш билан боғлиқ талаблар бажарилмаган[7].

Медиатаълим деганда ўқув масканининг хусусиятидан келиб чиққан ҳолда ёшлар билан доимий маънавий-аҳлоқий дастур асосида барча тузилмаларнинг ҳамкорлиги асосида ёшлар орасида маънавий-аҳлоқий билимларни тарқатиш, аслида яхши феъл-атвор, юриш-туришга ўргатишни назарда тутиш лозим. Зеро замонавий таълимга келаётган ёшлар турли-туман ҳудуд ва оилалардан келар экан, уларнинг медиатаълими ички тартиб қоидалар, ёшлар жамоаси таълим маданиятини шакллантиришга тўғри келади. Чунки медианинг ижобий ва салбий томонларини олимлар тахлил қилган. Жумладан, проф. Б. А. Алиев, А. Н. Меликуловлар зарарли медиа маҳсулотларига: “- керак бўлмаган реклама; - инсоннинг иш қобилиятини зарарлашга, диструктив таъсир кўрсатишга қаратилган ахборотлар; - ахлоқий бузуқликни тарғиб қилувчи ахборотлар; - мамлакатда мавжуд меъёрий-ҳуқуқий меъёрларга зид келувчи ахборотлар; - фуқаролик жамияти қарашларига мос келмайдиган ахборотлар”ни киритганлар[8]. Бу ҳол медиа маҳсулотларнинг истеъмоли маданиятини ўқув жараёнига тадбиқ этишни кўрсатади. кейинги йилларда қизлар тарбиясига алоҳида эътибор қаратиш лозимлиги уларнинг доимий эътиборда тутиш зарурияти, гендер ўзига хослиги ва ўзга демографик жиҳатлари билан асослаш мумкин. Улар билан олиб бориладиган маънавий-маърифий тадбирларда аёл устозларнинг иштироки ижобий самара беради. Чунки кейинги йилларда қизларнинг ҳам медиа

[7] Ўқувчи ёшлар жиноятчилигининг ўсиши // Оила даврасида. – 2018. – № 21 – 24 май

[8] Алиев Б.А. Меликулов А.Н. Ахборот оқимларининг ижобий ва аалбий оқимлари // Замонавий таълим. Современное образование. – 2021. № 3. – Б. 12

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

майдонда фаоллашувининг тадқиқот натижаларини илмий тадқиқотларда ҳам кузатиш мумкин[9].

Хулоса

Маърифатнинг ахлоқийлиги Шарқона турмушга хос бўлиб, жамоавийлик асосида жамият ўзининг ижтимоий ҳолат ва қиёфасини шакллантириб, унда индивидуалликдан кўра коллективизм устунроқдир. Ғарбона маърифатнинг мазмун-моҳияти инсон ва фуқароларнинг ҳуқуқ эркинлиги, ҳурфикрлилик маърифатида илмийлик устувор ғоя сифатида ўрнатилган. Муаммо ўзбек ҳалқи ўзининг миллий аҳлоқий мақомини сақлаб қола оладими, жаҳон маърифатли цивилизациясидан ўз ўрнини топа оладими? деган саволга бориб тақалади. Медиатаълимнинг барча бўғинида ахборотлашув маърифатини оила ва маҳалладан айро тушуниб бўлмаслигини тасдиқлади. Ёш ота-оналарнинг бола тарбиясида тажрибасизлигини англаган ҳолда бобо ва бувиларнинг ҳам иштирокини эътиборга олиш лозим, деб ҳисоблаймиз. Таълим тизими оиладаги бола тарбиясида ота-оналарнинг масъулияти, ҳатто жавобгарлигини кўп вақт ёдга солиш, бола тарбиясида шерикликни қоғозда эмас, балки реал таъминлаши шарт бўлиб қолди. Айни вақтда тарбияда оиланинг муҳим ҳамкори маҳалла ҳам ўзининг шон-шарафи, обрўсини сақлашда бола тарбиясида тасирчан механизмларидан фойдаланиш вақти келди. Зеро, тарбия миллатимизда ҳамиша жамоавий иш саналган. Юқоридагиларга таяниб ёшларни медисаводхонлигини оширишни оиладан ва кейинги босқичларида еса таълим-тарбия масканларида давом еттирилса уларнинг медиа воситаларидан фойдаланиш маданияти хам ошади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ёқубова М. Ахборот технологияларининг фалсафий асослари/ Услубий қўлланма. –Т.: СтарПолиграф, 2008, -Б. 25.Ўзбекистон Миллий энциклопедияси – Т.: ЎМЭ нашриёти, 2003. – Б. 322
2. Тоффлер Э. Шок будущего. – М.: АСТ, 2001. – С.669
3. Вишняков С.М. Профессиональное образование: Словарь. Ключевые понятия, термины, актуальная лексика –М.: НМЦ СПО, 1999. – С. 260.
4. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. Пер.с англ. В. Л. Иноземцева. – М.: Academia,1999. – С. 24 (956 с.)
5. Эшмаматов И.А. Педагогнинг ахборот-коммуникатив компетентлигини таълим фаолиятида лойиҳалаш // Илмий ахборотнома. – Самарқанд, 2016. – № 4. – Б. 182.
6. Ўқувчи ёшлар жиноятчилигининг ўсиши // Оила даврасида. – 2018. – № 21 – 24 май
7. Алиев Б.А. Меликулов А.Н. Ахборот оқимларининг ижобий ва аалбий оқимлари // Замонавий таълим. Современное образование. – 2021. № 3. – Б. 12
8. Нигматуллина Л. Компьютерга тобеликнинг шахс характериологик хусусиятларига таъсири. Псих.фан. номз.дисс. автореф. – Т.: ТДПУ. 2019. – 47 б.

[9] Нигматуллина Л. Компьютерга тобеликнинг шахс характериологик хусусиятларига таъсири. Псих.фан. номз.дисс. автореф. – Т.: ТДПУ. 2019. – 47 б.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ВА ДЕМОКРАТИЯ УЙҒУНЛИГИ

Абдурахманова Нодирахон Хуснутдиновна
Тошкент Тиббиёт Академияси
“Ижтимоий фанлар” кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. *Ушбу маколада жаҳонда рўй бераётган глобал ўзгаришлар аввало демократияни қарор топтириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларин таъминлаш, шахс ва жамиятда ҳуқуқий маданиятни шакллантиришга бориб тақалмоқда. Илгор давлатларда шаклланган либерал демократик гоялар ва ҳуқуқий -маданий воқелик ижтимоий тараққиётнинг моделлари, андозалари хакида илмий тадкикот ишлари ўрганилган.*

Калит сўзлар. *демократик давлат, сиёсий, иқтисодий, маданий, мустақиллик.*

СОЧЕТАНИЕ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ И ДЕМОКРАТИИ

Абдурахманова Нодирахон Хуснутдиновна
Ташкентская медицинская академия
Преподаватель кафедры “Общественных наук”

Аннотация. *Глобальные события, происходящие в этом регионе, в первую очередь направлены на установление демократии, обеспечение прав и свобод человека, формирование правовой культуры личности и общества.Либерально-демократические идеи и нормативно-культурная реальность, сформированные в развитых государствах, являются моделями общественного развития, шаблонами, по которым изучалась научно-исследовательская работа.*

Ключевые слова*. Демократическое государство, политическое, экономическое, культурное, независимость.*

COMBINATION OF LEGAL CULTURE AND DEMOCRACY

Abdurakhmanova Nodirakhon Khusnitdinovna
Tashkent Medical Academy
Lecturer of the Department of” Social Sciences”

Abstract. *The global events taking place in this region are primarily aimed at establishing democracy, ensuring human rights and freedoms, and forming a legal culture of the individual and society.Liberal-democratic ideas and normative-*

cultural reality formed in developed countries are models of social development, templates, according to which research work was studied.

Key words. *Democratic state, political, economic, cultural, independence.*

Кириш

Дунёдаги демократик давлатларда кишиларнинг сиёсий, иқтисодий ва ҳуқуқий онгини, билим ва кўникмаларини шакллантиришга алоҳида эътибор берилади, чунки уларсиз демократик ривожланишни таъминлаш қийин. Ҳуқуқий маданият демократик тараққиёт, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш кафолати, шахс фуқаролик позициянинг ифодасидир. Шунчаки ҳуқуқнинг ўзи эмас, унинг, интегратив хусусиятига мувофиқ, ижтимоий муносабатлар билан узвийлиги, сиёсий, иқтисодий ва маданий

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

фаоллик билан диалектик уйғунликда келиши қимматли. Ҳуқуқнинг интегративлиги долзарблашган ва объективлашган жойдагина демократик қадриятлар қарор топиши мумкин.

Ўзбекистон бугун демократик янгиланишларнинг янги босқичига қадам қўйган, у мустақиллик йилларида тўпланган ижобий тажрибаларга таяниб, мамлакатни инновацион ривожлаништиришни стратегик мақсади қилиб қўйган. Кейинги олти йил ичида янги ҳуқуқий маданиятни алоҳида воқелик, феномен сифатида шаклантиришга қаратилган кенг ислоҳотлар амалга оширилди, Янги Конституция ишлаб чиқилди. Бу ўринда Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг Конституциявий ислоҳотларга оид билдирган тўртта йўналишларни, яъни

1) инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, қадри, қиммати, дахлсиз ҳуқуқлари ва манфаатлари;

2) Ўзбекистон ижтимоий давлат;

3) эркин ва адолатли фуқаролик жамияти;

4) Ўзбекистон инсонпарвар, демократик ҳуқуқий давлат, деган тамойилларни келтириш мумкин[10].

Бундан ташқари, Президентимизнинг “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар и тўғрисида” (2016, 29 декабрь), “Ўзбекистон Республикасида 2020- 2030 йилларда Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш стратегияси”каби 600 дан зиёд Қарор ва Фармонлари қабул қилинди. Уларда давлат институтларини инсон манфатларига, ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашга хизмат қилдириш, мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг ҳуқуқий заминини янада кучайтириш назарда тутилади.

Адабиётлар таҳлили

Демократик ҳуқуқий давлат, инсонпарвар, идеал жамият барпо этиш инсониятнинг қадимдан орзуси бўлиб келади. Инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари, ҳуқуқий -маданий воқелик ана шу идеал ва орзулар орқали тадқиқ этиб келинган. Платон, Аристотель, Цицерон, Конфуций, Хан Фэй, Форобий, Ибн Сино, Ғаззолийдан тортиб, то Дж. Локк, И. Кант, Гегель, Монтескьё, Э.Дюркгейм, М.Вебер, Р.Даль, Ф.А. Хайек, Э.Фромм, О Тоффлергача ҳуқуқий маданият давлат, иқтисодий демократия, ҳокимиятнинг бўлиниши ва фуқаролик жамияти каби сиёсий-этатистик таълимотлар синтези орқали англанган

Уларда “ҳуқуқий маданият” воқелик алоҳида мавзу сифатида тадқиқ этилмайди, бироқ фуқаро ва давлат, шахс ва бошқарув, инсон ва демократия масалалари марказида доим ҳуқуқий маданият алоҳида феномен, воқелик (маданий-ҳуқуқий) туради. Ҳуқуқий маданият феноменини махсус назария сифатида тадқиқ этган А.Саидов ва У. Тожихоновдир. Айнан улар ҳуқуқий маданиятнинг бор ички ва ташқи тизимларини очиб берганлар. Х.Маматов эса ҳуқуқий маданиятнинг юридик- аксиологик жиҳатларини, Н. Собуров ҳуқуқ ва ахлоқ феноменлари диалектикасини, О.Насриддинова ҳуқуқий маданиятнинг фуқаролик жамиятидадги ўрнини, М.Қаххарова ҳуқуқ фалсафасининг методологик масалаларини, М.Атауллаев ҳуқуқий қадриятларининг мамлакатни

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

модернизациялаш жараёнларига таъсирини, Д.Адилова эса мустакилликнинг илк йилларидаги миллий тажрибаларни ўрганган. Шундай бўлса-да , қишлоқ аҳолисининг ҳуқуқий маданиятини шакллантириш масалалари тадқиқотчилар томонидан етарли очиб берилмаган. Шундай экан бизнинг мақсад шундайки, Янги Ўзбекистон қишлоқ аҳолисининг агросоциал хаёти ва ҳуқуқий маданиятида содир бўлаётган ўзгаришлар, унинг ижтимоий хукукий фаоллигини юксалтириш йўлларини ўрганишдир

Тадқиқот методологияси

Х.Б.Бобоевнинг фикрига кўра, ҳуқуқий маданият ҳуқуқ билан маданият ўртасидаги алоқаларда эмас, балки ўзининг ва бошқаларнинг эркини англаб, улар билан ижтимоий муносабатларга киришган заҳоти намоён бўлади. Демак, эрк ва ижтимоий муносабатлар ҳуқуқий маданият намоён бўлишининг негизларидир. Савол уйғониши мумкин, нима учун ҳуқуқ ва маданият феноменлари эмас, балки эрк ва ижтимоий муносабатлар ҳуқуқий маданиятнинг негизларига айланди? Ҳақиқатан ҳам, ҳуқуқий маданият негизларини ҳуқуқ ва маданият феноменларидан излаш тўғри эмасмиди? Нима учун тиббиётшунослар тиббий маданиятни тиббиёт ва маданият уйғунлигидан, сиёсиёсатшунослар сиёсий маданият негизини сиёсат ва маданият уйғунлигидан излашадию, ҳуқуқшунослар ҳуқуқий маданият негизини эрк ва ижтимоий муносабатлардан излашади? Ижтимоий тараққиёт тарихи кўрсатадики, ҳуқуқ ва эрк узвий боғланган воқеликлардир. Эрк учун кураш ҳуқуқ учун, ҳуқуқ учун кураш эрк учун кураш бўлиб келган. Уларни бир-бирига айнан, синоним деб қараш ҳам учрайди. Бироқ эрк ҳуқуқдан кенгроқ, у мудом ҳуқуқни ўз ичига олади

Таҳлил ва натижалар

Масалан, ҳуқуқ амал қилмайдиган жой(эр-хотин алоқалари, шахсий ҳаётни йўлга қўйиш кабилар)да эрк қатнашади, инсон ихтиёрий хатти- ҳаракатларининг экзистенциал ифодаси сифатида келади. Шунинг учун эрк ихтиёрий хатти- ҳаракат, ихтиёрий ирода, ҳуқуқ эса расмий, яъни давлат томонидан ўрнатилган умуммажбурий нормалар ҳисобланади. Биринчисини бажариш ёки бажармаслик мудом инсон ихтиёрида, иккинчисини бажариш ёки бажармаслик инсон ихтиёрида эмас, у бу умуммажбурий нормаларга амал қилиши шарт. Лекин бундай ёндашув ҳуқуқни муталақлаштиришга олиб келмаслиги зарур, чунки инсон ихтиёрийлик тамойилларига асосланадиган эрк билан мажбурийлик тамойилига таянадиган ҳуқуқ ўртасида яшайдиган ижтимоий мавжудот. Унинг ушбу хислати ижтимоий муносабатларида, ижтимоий ҳаёт қўйнида яшашида мужассамдир

Хулосалар

Ҳуқуқий маданият ва демократия уйғунлиги мавзусини тадқиқ этганда, бизнинг фикримизча, ҳуқуқ феноменига урғу бериш матиқан тўғри бўлади. Демократияга оид фалсафий ёндашувлар ва концепциялардаги ҳуқуқнинг ўрни, инсон эрки, озодлик, меҳнат ҳуқуқи, яшаш ҳуқуқи, сайлаш ва сайланиш, давлат ишларини олиб боришда иштироки ҳуқуқи, ҳурфикрлик, ижод эркинлиги кабиларга эътибор қаратилади. Айнан улар ҳуқуқ фалсафасининг предмети ҳисобланади ва бизни ижтимоий-сиёсий таълимотлар томонга оғиб кетишдан асрайди. Бизга демократик ёндашувлар ва концепциялардаги ижтимоий-сиёсий воқеликлар эмас, улардаги инсон ҳуқуқи ва эркинликларига оид қарашлар зарур.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Конститутциявий комиссия аъзолари билан учрашувдаги нутқи //"Янги Ўзбекистон", 2022, 21 июнь).
2. Платон. Государство. - Москва : АСТ, 2022. 448 с.; Аристотель. Сочинения в четирех томах. Том 3. - Москва : Мысль, 1981.612 с.; Цицерон. Диаологи. О государстве. О законах. - Москва : "Наука", 1966.. 228 с.;
3. История китайской философии. - Москва : Прогресс, 1988. 508 с.;
4. Форобий, Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашр., 1993. 286 б.;
5. Ибн Сино. Избранные философские произведения. - Москва : Гл. ред. Восточной литературы, 1993. 603 с.; Ғаззолий, Имом Ҳомид. Иҳёу улумид дин. МУНИР нашриёти, 2021; 216 б.;
6. Мусулмон эрнинг аёли ва оиласи олдидаги вазифалари. Нашрга тайёрловчилар А.Аҳмад, И.Нуриллоҳ. - Тошкент: Мовароуннаҳр, 2020. 382 б.;
7. Мусулмон аёлнинг эри ва оиласи олдидаги вазифалари. Нашрга тайёловчилар А.Аҳмад, И.Нуруллоҳ. - Тошкент: Мунир, 2021. 432 б.; Локк Дж. Два трактата о правлении.Сочинения в 3 томах. Том 3. - Москва : Мысль, 1998. 578с.;
8. Кант И. Сочинения в шести томах. Том 4. Часть 1,2. - Москва : Мысль, 1974. 534 с.;
9. Гегель. Философия права. - Москва : Мысль, 1979. 602 с.; Дюркгейм Э. Избранные произведения. - Москва : "Наука", 1993. 508 с.; Вебер М. Избранные произведения. - Москва : Наука, 1986. 636 с.;
10. Даль Р. Введение в экономическую демократию. - Москва : "Наука" СП ИКВА , 1991. 148 с.; Хайек Ф.А. Обшество свободных.- Лондон, ОРИХЛ, 1990. 308 с.; 2004. 244 с.;
11. Фромм Э. Здоровое обшество. - Москва : Изд.АСТ, 2019. 526 с. Тоффлер Э. Метаморфози власти. - Москва : Изд. АСТ, 2004. 669

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ВИРТУАЛЛИК ФАЛСАФАСИ

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидиқович
фалсафа фанлари доктори, профессор
Наманган мухандислик-технология институти
mirzahmedov@mail.ru

Аннотация. *Кишилик жамияти реал ва виртуал борлиқ билан боғлиқ муаммоларни англаш, ўз турмуш тарзини оқилона ташкили, келажакни фаровон турмуши учун интилган. Натижада, антик даврдан бошлаб реал воқелик ва нариги дунёнинг виртуал тасаввурлари ҳиссий тасаввурларни ҳосил қилган. Илм-фан, технологияларнинг тараққиёти туфайли инсон ахборот виртуал дунёсини ҳосил қилишга эришиб, ундан ўз манфаатларини қондириш, турмуш фаровонлигини таъминлаш билан бирга салбий қурол сифатида ҳам фойдаланиш имкониятларини қўлга киритди. Шу маънода мақола виртуалликнинг мазмун-моҳияти, асосий жиҳат ва хусусиятларини фалсафий тахлилларини амалга оширишни мақсад қилиб қўйган.*

Калит сўзлар. *Макон, виртуал, реал ва виртуал борлик, виртуаллик шакл ва йўналишлари.*

ФИЛОСОФИЯ ВИРТУАЛЬНОСТИ

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидович
доктор философии, профессор
Наманганский инженерно-технологический институт
mirzahmedov@mail.ru

Аннотация. *Человеческое общество стремится осмыслить проблемы, связанные с реальным и виртуальным существованием, рациональной организацией своего образа жизни и благополучной жизни в будущем. В результате с древних времен реальная реальность и виртуальные видения потустороннего мира формировали эмоциональные видения. Благодаря прогрессу науки и техники человек сумел создать виртуальный мир информации и получил возможность использовать его как негативное оружие, а также для удовлетворения своих интересов и обеспечения благополучия своей жизни. В этом смысле в статье ставится задача провести философский анализ сущности, основных аспектов и характеристик виртуальности.*

Ключевые слова. *Пространство, виртуальность, реальное и виртуальное бытие, формы и направления виртуальности.*

PHILOSOPHY OF VIRTUALITY

Mirzakhmedov Abdirashid Mamasidovich
doctor of philosophy, professor
Namangan Institute of Engineering and Technology
mirzahmedov@mail.ru

Annotation. *Human society seeks to comprehend the problems associated with real and virtual existence, the rational organization of their lifestyle and a prosperous life in the future. As a result, since ancient times, real reality and virtual visions of the other world have shaped emotional visions. Thanks to the progress of science and technology, a person has managed to create a virtual world of information and has been able to use it as a negative weapon, as well as to satisfy his interests and ensure the well-being of*

his life. In this sense, the article aims to conduct a philosophical analysis of the essence, main aspects and characteristics of virtuality.

Keywords. *Space, virtuality, real and virtual being, forms and direction of virtuality.*

Кириш

Фалсафий тафаккур тарихида борлиқ ва унга муносабат масаласи бош масала сифатида қизғин муҳокама этилиб, материализм ва идеализм доирасида инсоннинг борлиғи масаласи баҳс предмети бўлган. Дарҳақиқат, шахснинг реал макони ва унинг ўлимидан кейинги жойлашадиган виртуал макони, сунъий (жаннат ва дўзах шаклида) тасаввур этилган. Мазкур маконнинг яхлитлиги борлиқнинг моддийлиги билан фалсафа илмий ёндашувининг муқобили сифатида ижтимоий онгда виртуал сунъий макон ҳам ҳосил қилинган. Виртуалликнинг негизида инсоннинг руҳий ҳолатидан келиб чиққан ҳолда илоҳий кучлар Аллоҳ, Худо, Будда каби яратувчи туради.

Адабиётлар таҳлили

Абдухолиқова Н К вопросу о компьютерной зависимости., Рузавин Г. И. Виртуальность., Егоров А. Ю. Нехимические зависимости.

Тадқиқот методологияси

Мақолада Эмперик тадқиқот, мантиқийлик, тизимлилик, ўзаро алоқадорлик илмий тадқиқот тамойилларидан келиб чиққан ҳолда қиёсий таҳлил каби тадқиқот усулларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар

Россиялик тадқиқотчи М. Кузнецов «виртуаль реаллик» атамасини ўтган асрнинг 80 – йилларида хакер Жарон Ланье “электрон қурилма ёрдамида фойдаланувчининг янги ўлчамли борлиққа кириши, у инсоннинг реал борлиғидан тубдан фарқланиб интерактив алоқага боғлаши туфайли сенсор ҳиссиётли борлиқ фаолияти” маъносида таърифлаган [8, 72 б]. Дунёнинг йирик таълим марказлари онлайн таълимдан фойдаланиб, виртуал реалликда янги таълим тизимини яратиб бизнесни ҳам ҳосил қилди. Фикримизни АҚШнинг Массачусетс, Стенфорд, Англиянинг Оксфорд, Хитойнинг Цинцуа университетларининг онлайн таълим виртуаллик соҳасида дунёда етакчилиги билан далиллаш мумкин. Чунки, дунёнинг бир қатор давлатларидаги ёшлар санаб ўтилган олий ўқув юртларига бормай, масофали онлайн усулда олий касбий маълумот ёки малака ошириш имконига эга бўлмоқда. Шу маънода таълим соҳасида виртуаллик Ўзбекистон учун ҳам виртуал таълим сервисини ташкилида ижтимоий-амалий вазифалардан биридир.

Виртуаллик одатда инсоннинг имконият доирасидаги сунъий тасаввур, имконият, яъни реал мавжуд бўлмаган воқелик, лекин алоҳида шароитда яратилиши мумкин бўлган ҳолат тушунилади. Атаманинг келиб чиқиши “vir” (лат. – эркак) тушунчаси билан боғлиқ бўлиб, “виртус” ҳар томонлама комил ва жасур эркаклик фазилатларини тасаввур этиш учун ишлатилган. Римликларнинг шу маънодаги худоси ҳам фантастик тасаввурда ёшларда ҳақиқий чин маънодаги эр йигитнинг фазилатларни ҳосил қилиш тушунилган. Фалсафий жиҳатдан масалани муҳокамасида онтологик ёндашув асосида виртуаллик мавжуд реаллик билан бирга яна қандайдир борликни сабаби ва бошланғич “туртки”си (Г. Гегель), яъни амалга ошмаган актуал борлиқни англашилган. Масалага Ф. Аквинский оламни онтологик тасаввурларда янада инсондан ташқаридаги иккинчи борлиқни талқинида янада яққол тавсифланган [4]. Томизм отнологиясида реал дунёдан ташқарида Худо виртуал олам

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

соҳиби ва сарвари сифатида намоён бўлиб, антропологиясида эса инсоннинг танаси ва жони актуал ва виртуал реалликда бўлиши асосланган. Натижада, атама ўзга тилларга даврлар ўтиши ва трансформацияшуви ахборот технологиялари тараққиёти таъсирида "программали компьютер технологиялари ёрдамида ҳосил қилинадиган оралиқ (масофали) макон" маъносида янги мазмун касб этди [2].

Интернет фойдаланувчиси монитор экранида онлайн алоқа учун клавиш тугмасини босиши билан "МЕН ва У", "МЕН ва УЛАР" тамойилида чексиз "парда ортида"ги суҳбатдош билан реал вақт ва маконда боғланиш имконига эга бўлади. Айни вақтда мазкур маконда шахснинг эркинлиги, назоратсизлиги, шахсининг (айниқса, юзма-юз жонли мулоқотда) яшириш имконияти, томонларнинг тенглиги ўзаро қизиқишлар бўйича "ширин суҳбатдош", "диндош", "биродарлик" жиҳатлари билан одамни ўзига психологик банд этади. Бу жараён рухий "банд" этиш билан "банди"ликка қараб қадам қўйиш маъносида ҳам тушуниш мумкин. Масаланинг моҳиятини далиллашда биз таниқли психиатр К. С. Янгнинг кейинги йилларда ёшларнинг ижтимоий тармоқларга тобелиги бўйича тадқиқотининг натижаларида рухий патология ташхиси ҳақидаги қарашларига қўшиламиз [12, 24].

Замонавий информацион технологияларининг тараққиёти остида мазкур тушунча жиддий трансформациялашган ҳолда шахснинг информацион қурилмалар ёрдамида янги ўзига хос ҳиссий борлиқни яратиши билан онг ва идрок этиш туфайли ижтимоий фанларда реаллик ва виртуалликнинг онлайн ҳолати маъносида ижтимоий фанларда қўлланилмоқда. Виртуал реаллик сунъий реаллик бўлиб, ахборот қабул қилиш қурилмалари ёрдамида яратилган реаллик инсонга сезгилари орқали ҳосил қилинади. Виртуал реаллик таъсири остида воқеликни тақлид қилиш ҳолатидир. Шу боисдан компьютер технологияси виртуал реалликни сунъий жиҳатдан бир макондан иккинчи бир маконни тўлақонли сунъий ҳолатини реал вақтда ҳосил қилиши мумкин. Виртуал реалликда компьютерчи моддий реалликни объектив қонунлар асосида мумкин қадар аниқликда виртуалликни программ ҳолатини яратиши мумкин. Дастурчи ёшлар учун турли ўйинлар, клиплар ва ўзга кўнгилочар виртуалликни жуда ҳам реалликка мос аниқликда яратиши мумкин. Шу маънода виртуал реалликни тўлдирилган воқелик билан чалкаштирмаслик даркор. Чунки, виртуал реаллик янги сунъий оламни фойдаланувчи учун техник яратиши билан тўлдирилган реалликдан мукаммаллиги билан фарқланади. Масала моҳиятининг аниқлигини луғат сайтлардаги таърифлар билан далиллашимиз мумкин [3].

Виртуал реалликнинг намоён бўлиши компьютер технологиялари тизими билан бевосита амалга оширилиб, унинг таъсири инсоннинг барча сезги органларига таъсир эта олади. Виртуал реалликни интерфейслар орқали яратиш ўта ривожланиб, шлем ёки кўзойнак билан унга ўрнатилган мосламаларда виртуал реалликни актуаллаштиришга эришилади. Виртуал реаллик сунъий реаллик бўлиб, ахборот қабул қилиш қурилмалари ёрдамида яратилган реаллик инсонга сезгилари орқали ҳосил қилинади. Виртуал реаллик таъсири остида вокеликни тақлид қилиш ҳолатидир. Шу маънода компьютер технологияси виртуал реалликни сунъий жиҳатдан бир макондан иккинчи бир маконни тўлақонли сунъий ҳолатини реал вақтда ҳосил қилиши мумкин.

Виртуал реалликнинг тахлилида "***MotionParallax3D-дисплеи***" намойиш этувчи мослама ёрдамида экранда фойдаланувчига тўлақонли сунъий воқелик объектининг шакл ва мазмунини иллюион шаклда яратишни эътиборга олиш мумкин. Виртуал реалликни

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ҳосил қилишда мазкур қурилма асосан инсоннинг кўзи орқали ҳосили қилиши билан объектни сунъий ҳолатини тасаввурга сингдиради. Шу боис виртуалликнинг негизида инсон ҳиссий билишининг рационаллик ҳолати билан изоҳлаш ҳам мумкин.

Замонавий компьютер технологиялари ёшлар учун виртуал воқеликни сунъий яратиш, айниқса ўйинларда воқеликни тўла яратиб, ёшларни ўйинларга, ҳатто қимор ўйинларига муккасидан кетиб қолиш ёки патологик касалликка ҳам олиб келмоқда. Биз ахборот технологиялари ёшлар учун замонавий таълим тизимининг услубий имкониятларини янги босқичини бошлаб берган омил эканлигини эътироф этиш билан бирга ўқув материали, илмий манбаларни виртуал макони билан бир вақтда ўзга зарарли маконга тортиб кетади, деб ҳисоблаймиз.

Виртуал реалликнинг методологик жиҳати турли-туман касб-корларга таълим беришда ҳам муҳим аҳамият касб этади. Чунки, оддий хайдовчиликдан тортиб, ўта хавфли касбларга ёшларни тайёрлашда муҳим аҳамият касб этади. Мутахассиснинг касбий соҳаси ўта оғир мураккаблик, яъни тоғ-кон саноати, ҳарбий ҳавфли, ҳатто инсон ҳаётига таҳдид солиши туфайли касбий таълимда виртуал реалликнинг илмий тадқиқи методологик аҳамият касб этади. Шунинг учун таълим тизимининг самарадорлигида виртуал реаллик муҳим таркибий қисм бўлиши қонуний ҳолатдир. Талабанинг олган назарий билимини конкрет воқеликда амалий жиҳатдан мустаҳкамлаш учун зарурий назарий таълимнинг элементи бўлиб қолади. Виртуал реалликнинг таълим соҳасида Ю. В. Корнилов моҳият мазмуни, амалий-методологик жиҳатларини атрофлича тахлил ва хулосаларига биз қўшиламиз [6, 174 б].

Виртуаллик ўз моҳиятига кўра психологик жиҳатларга эга бўлиб инсоннинг ҳиссий шаклда ҳосил бўлиши билан рационал руҳиятини қамраб олади. Унинг шахс маънавий-руҳий шаклланишида ижтимоий мавқеи ва ахволи билан ҳам бевосита боғлиқдир. Чунки, виртуалликка олий маълумотли ахборот саводхонлигига эга одам ўзини ўзгалардан кўра онгли бошқара олиши мумкин. У “сунъийлик” маконида соғлом фикр билан ахборотни фойдали ва зарарли жиҳатини аниқлай олади. Шу билан бирга интернет сайтлардаги янги ўйинлар замонавий урушларнинг тўла виртуаллигини ҳосил қилиш, ундаги барча ҳарбий қурол ва ҳаракатларни клип шаклида виртуаллаштириши билан ёшларнинг руҳиятига жиддий таҳдид солиши аниқланди. Тадқиқотларда биз миллий ижтимоий фанларда виртуалликнинг методологик жиҳат ва хусусиятларини тахлилидаги ижтимоий таълим жиҳатларини қўллаб қувватласакда, унинг йўналишлари бўйича ўзгача фикрга эгамиз [11, 6 б].

Виртуалликнинг мазмун-моҳияти давр, соҳа, муҳитга мос равишда ҳиссий в рационал билишга таяниб, миллий ёки диний, методологик ёки технологик йўналишларда шаклланишини шартли гуруҳлаштирдик. Мазкур гуруҳлаштиришнинг биринчи омили инсон руҳиятида реал борлик ва виртуал нариги дунё шакллантирилган. Таълим соҳасида ёшларни касбийлаштириш учун назарий билимларнинг экспериментал маконида амалий синовларини ўтказиш орқали олинган билимларни мустаҳкамланади. Саноат ишлаб чиқарилишида виртуал маконда маҳсулотнинг турли вазиятларга бардоши апробацияланади. Шу билан бирга ижтимоий реал борлиқда виртуалликнинг технологик йўналиши оммалашган йўналиш бўлиб, ахборот коммуникацияси фойдаланувчининг олам билан виртуал боғланиш имкониятини ҳосил қилади. Натижада, мобил алоқа орқали виртуалликка ўтиш қулай ахборот виртуал маконига айланди. Виртуаллиқда технологик

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

йўналишнинг тараққиёти компьютер, ноутбук, нетбук, планшет, уяли телефонларнинг замонавий юксак сифатли авлодини ишлаб чиқилиши билан шахс виртуал ва реал борлиқ ўртасида қолиши, турли ахборот патологияси билан беморланиши МДҲ олимлари томонидан ўрганилмоқда [7, 33 б]. Шу билан бирга биз кейинги йилларда ёшларнинг виртуаллашуви ижтимоий-иқтисодий муносабатларга салбий таъсир этиши юзасидан хавотирли фикрларга ҳамфикрмиз [9]. Республикамизда тадқиқотчи Н. А. Абдуҳолиқова талаба ёшлар орасида компьютер виртуал қадрияти туфайли ижтимоий тармоқларга тобелигини ахборот хатари сифатидаги фикрларини қўллаб-қувватлаймиз [11, 17 б].

Хулоса

Жамиятнинг ахборотлашуви маълумот ва хабарларнинг тарқалиш тезлиги, уларни саралаш: чин ва ёлғон, фойдали ва зарарли, илмий ёки ноилмий жиҳат ва хусусиятларини тахлил этиш фойдаланувчидан ахборот саводхонлигини талаб этади. Шу билан бирга, виртуалликдаги ахборотларнинг мафкуравийлашуви, ундан диний ва сиёсий қурол сифатида фойдаланиш ёшларни медиа тарбиясини йўлга қўйишни талаб этади. Бу ҳол ёшларнинг кибер жиноятчиликка қарши ҳуқуқий билимларини юксалтириш орқали миллий маънавиятни сақлаш, “Оммавий маданият” таҳдидларидан муҳофазаланиш имкониятини ҳам яратади.

Глобал ахборотлашув маконида виртуал борлиққа ёшларни тортилиши, аниқроғи интернет коммуникациясига муккасидан кетиши маънавий-руҳий беморлик патологияси ҳисобланади. Виртуалликнинг бу хатаридан таълим тизимининг барча кесимида реал борлик тамойилида ёшлар учун турли-туман маънавий-маърифий тадбирларни янада жонлантириш, уларни жонли учрашув, бадиий кўргазма ва чиқишлар, диний ва дунёвий олимларнинг учрашувларида қизиқарли давра столлари билан бандлиги муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдухолиқова Н К вопросу о компьютерной зависимости // GLOBUS. –2021. –Том 7. – № 4 (38). –С.16-18
2. Виртуальность// https://ru.wikipedia.org/wiki
3. Виртуальная реальность// https://ru.wikipedia.org/wiki/
4. Рузавин Г. И. Виртуальность // Новая философская энциклопедия / Ин-т философии РАН; Нац. обществ.-науч. фонд;. –2-е изд., испр. и допол. — М.: Мысль, 2010.
5. Егоров А. Ю. Нехимические зависимости. - Спб.: Речь, 2007.- 190 с.
6. Корнилов Ю. В. Иммерсивный подход в образовании (рус.) // Азимут научных исследований: педагогика и психология. – 2019.– Т. 8, вып. 1 (26). – С. 174 – 178.
7. Краснова С. В., Казарян Н.Р., Тундалева В.С. Как справиться с компьютерной зависимостью.Бросить – легко! – М.: Эксмо, 2008. -231 с.
8. Кузнецов М. М. Виртуальная реальность - техногенный артефакт или сетевой феномен?// Виртуалистика: экзистенцио-нальные и эпистемологические аспекты. - М.: Инфо-М. 2004. - С. 72.
9. Осипова А. Г. Виртуальная «личность» и реальное «я»: проблема идентичности // Вопросы культурологии. – 2008. – № 1. – С. 16–17.
10. Павлова Е.А. О необходимости профилактики интернет-зависимости студентов – Самара: СамГУ. 2003. – 123 с.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

11. Хайдарова А. Х. Виртуалликнинг методологик йўналишлари. Фал. фан. док. дисс.автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2022. – 48 б.
12. Янг К.С. Диагноз - интернет-зависимость // Мир интернет. - 2000. - № 2 - С.24-29.

ЖАМИЯТ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИДА ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРГА ОИД ҚАРАШЛАР

Юлдашев Серобжон Урмоналиевич
Фарғона давлат университети в.б.доценти (PhD)

Аннотация: *Мазкур мақолада жамиятни трансформациялашувида ижтимоий-маданий технологияларнинг аҳамияти очиб берилган. Жамиятни трансформациялашуви ижтимоий-сиёсий, маданий-маърифий жараёнларни зарурати ижтимоий воқеликда "тизимни ўзгарувчанлик" динамикаси билан алоқадорлиги илмий таҳлил қилинган. Бу эса жамиятни ижтимоий-сиёсий модернизациялашуви ва маънавий жиҳатдан юксалтиришга хизмат қилиши асосланган*

Калит сўзлар. *Жамият, трансформация, модернизация, ижтимоий-маданий технологиялар, жамият трансформацияси, ижтимоий трансформация*

VIEWS ON SOCIO-CULTURAL TECHNOLOGIES IN THE TRANSFORMATION OF SOCIETY

Yuldashev Serobjon Urmonalievich
Associate Professor (RhD) of Fergana State University

Abstract: *This article reveals the importance of socio-cultural technologies in the transformation of society. The necessity of social-political, cultural-educational processes for the transformation of the society and its connection with the dynamics of "systemic change" in social reality have been scientifically analyzed. This is based on the socio-political modernization of the society and spiritual upliftment.*

Keywords. *Society, transformation, modernization, socio-cultural technologies, society transformation, social transformation*

ВЗГЛЯДЫ НА СОЦИОКУЛЬТУРНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕОБРАЗОВАНИИ ОБЩЕСТВА

Юлдашев Серобжон Урмоналиевич
Доцент (RhD) Ферганского государственного университета

Аннотация*: В данной статье раскрывается значение социокультурных технологий в преобразовании общества. Научно проанализирована необходимость общественно-политических, культурно-образовательных процессов для преобразования общества и ее связь с динамикой «системных изменений» социальной действительности. В основе этого лежит социально-политическая модернизация общества и духовный подъем.*

Ключевые слова. *Общество, трансформация, модернизация, социокультурные технологии, трансформация общества, социальная трансформация.*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Кириш

Ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар шароитида мавжуд динамик жараёнлар тизимнинг дастлабки ҳолатининг ўзгаришига олиб келади. Ушбу динамик жараёнлар бошқарилмайдиган ва бошқариладиган (ташқи таъсир мезонига кўра), шунингдек, “тизимни ўзгартирувчи” ва “тизимни шакллантирувчи” (якуний натижа мезонига кўра) тоифаларига бўлиниши мумкин. Шу билан бирга, ўрганилаётган ҳодисанинг динамикаси танланган илмий парадигма ва методологик ёндашувга қараб инқилоб, эволюция, трансформация, ривожланиш, таназзул, регрессия, тараққиёт сифатида тавсифланиши мумкин. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев “Жамиятни сиёсий-ҳуқуқий ва ижтимоий-иқтисодий модернизация қилиш, маънавий жиҳатдан тиклаш ва юксалтириш, мавжуд қонунларни, давлат бошқаруви, иқтисодий тизимни қайта кўриб чиқиш, бу борада таъсирчан ва самарали механизмларни яратиш, демократик тамойил ва меъёрларни ҳаётга татбиқ этиш бўйича мисли кўрилмаган кенг кўламли ва изчил чора-тадбирларни амалга оширдик. Бунда одамларни ҳаётдан рози қилиш, уларнинг узоқ келажакда эмас, балки бугунги кунда фаровон яшашини таъминлаш, ҳаётий муаммоларини ҳал этиш ва орзу-умидларини рўёбга чиқаришни олий мақсад этиб белгиладик”[1.41.], деб таъкидлайди. Бу эса жамият трансформациялашувининг илмий қарашларига, унинг теварак-атрофдаги воқеликни ва ижтимоий-сиёсий жараёнларни тизимли идрок эта олиш қобилиятига боғлиқ эканлигини асослайди. Тизим ҳолатини ҳар бир ўрганиш тарихий қайта қуриш (ўтмишнинг тавсифи), футурология (келажакнинг тавсифи) бўлиши мумкин, аммо тизимнинг ҳолатини объектив тавсифлашнинг ўзига хос “суратини” олиш деярли мумкин эмас. Бир вақтнинг ўзида кечаётган ижтимоий-сиёсий жараёнларни ҳеч бўлмаганда маълум даражада ўрганиш учун “модернизация” тушунчасидан фойдаланилади. Бу атама ижтимоий-сиёсий тизимларнинг динамикадаги хусусиятларини, шу жумладан, мамлакатда содир бўлаётган сиёсий жараёнларни ҳисобга олган ҳолда тавсифлайди. Файласуф олим П.Штыковнинг фикрича ““Трансформация салоҳияти” модернизацияга етиб олишдан” анча кенгроқдир, чунки уни жамиятнинг маълум бир даврда содир бўладиган чуқур ўзгариши деб ҳисоблаш мумкин. Трансформация назарияси эски муаммоларни эмас, балки анъанавий демократия назарияларини дуч келадиган янги муаммоларни ҳал қилишга ёрдам беради”[2.]. Демак, жамият трансформациялашуви ёки “ижтимоий-сиёсий трансформация”га оид қарашлар эволюциясини ўрганиб чиқишга эҳтиёж туғилади. Чунки, бир ижтимоий-сиёсий тизимнинг бошқасига ўтишдан иборат воқелик трансформация жараёни бўлиб, бунинг натижасида турли векторлар юзага келиши мумкин. Давлат ривожланиши ва уларни прогнозлашнинг мураккаблигидан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки, ушбу трансформация ташқи омиллар таъсирида ҳам, маълум бир иштирокчининг хоҳишига кўра ҳам, тизимнинг ўзида тўпланган табиий импулслар натижасида ҳам содир бўлиши мумкин.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили

Жамиятни трансформациялашувига оид ижтимоий-маданий технологиялар ҳақидаги ғоялар Шарқ ва Ғарб мутафаккирлари асарларида баён этилган. Жумладан, Абу

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Наср Форобий “Фазилатли шаҳарлар аҳолиси эса, уларнинг руҳлари аввалги аждодлари қолдирган маърифат ва маънавиятни ўзлаштириб, камолотга етишганлари сабабли моддий мол-мулкларга кишанланиб, қаттиқ боғланиб қолмайдилар”[3.255.], бу эса жамиятни янгиланиши бевосита инсонларнинг маърифати ва маънавий қиёфасига боғлиқ эканлигини билдиради. Абу Райҳон Беруний фикрича, “Оламда нарсалар ривожланиб туради, нарсаларнинг ниҳоясиз равишда “яширинликдан юзага чиқиши”[4.30.], мавжудликка чиқиши – ривожланишга, трансформациялашувга далилдир. Бу фикр моҳият билан ҳодиса орасидаги боғланиш чексиз жараён эканини ифодалайди.

Жамиятни трансформациясида ижтимоий-маданий технологияларга оид қарашлар ижтимоий фанларда 20-асрнинг ўрталаригача жуда кам қўлланилган. Лекин файласуф ва жамиятшунос олимлар Н.А.Бердяев, П.А.Сорокин томонидан бирор нарсанинг чуқур, сифат жиҳатидан ўзгариши, тарихнинг бурилиш нуқтаси маъносида қўлланилган. Бироқ, ижтимоий муносабатларни ўзгартириш муаммоси “тараққиёт”, “эволюция”, “инқилоб”, “ислоҳот” “ўзгариш” каби тушунчалар ёрдамида ўрганилган. 1960-йилларда “трансформация” тушунчаси махсус назариясига кўра, биринчи навбатда, давлат бошқарувининг ҳуқуқий тизимларидаги инновациялар масалаларида қўлланила бошланди, бу ерда у кўпроқ узоқ вақтдан бери мавжуд бўлган “модернизация” тушунчасининг модификацияси сифатида ўрганилади.

Сиёсатшунос олим Д.Истон ўзининг “Сиёсий тадқиқотлар модели” асарида трансформация шароитида ижтимоий-сиёсий тизим ичидаги динамизмнинг моҳияти ҳақида ёзган. У ижтимоий-иқтисодий ёки маданий детерминантларга заиф боғлиқ бўлган ижтимоий-сиёсий тизимнинг абадий моделини сифатида таҳлил қилади[5.250.]. Бизнингча, ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар шароитида асосий кўрсаткич тез ўзгарувчан шароитларга, сиёсий ва ижтимоий институтларнинг фаолият кўрсатиш шартларига мослашувчанлик (реакция) даражасидир.

Жамият трансформациялашувида ижтимоий-маданий технологияни фойдалилиги П. Штомпке фикрича, муҳим ижтимоий ўзгаришлар шаклларини ифодаловчи тушунчалардан бири морфогенез (мутлақо янги ижтимоий шароитларнинг, жамият шароитларининг, ижтимоий тузилмаларнинг пайдо бўлиши), трансмутация (мавжуд ижтимоий муносабатларни ўзгартириш, ислоҳ қилиш ёки қайта кўриб чиқиш), кўпайтириш (компенсацион, мослашувчан, мувозанатлаштирувчи, қўллаб-қувватловчи жараёнлар, жамият мавжудлигини ўзгармаган ҳолда сақлаб, атрофдаги шароитларга мослашиш)га имкон беради. Шундан келиб чиққан ҳолда трансформациянинг асосий сифати ўзгаришлар, ижтимоий воқелик асосида силжишлар содир бўлганда, уларнинг ижтимоий ҳаёти соҳаларида сезилиб, унинг энг муҳим қисмларини ўзгартиради.

Жамиятшунос олим К. Поланьи фикрича, “Ижтимоий жараёнларга трансформациялашувига таъсир этувчи омилларнинг кўплигини эътироф этган ҳолда, энг муҳим ўзгариш омил бу иқтисодий ўзгаришлар омили эканлигини[7.59.][11] таъкидлайди. Бу эса иқтисодий тафаккур орқали жамиятнинг ҳар томонлама ўзгаришига туртки бўлашини асослайди.

Тадқиқот методологияси

[11] «Великая трансформация» Карла Поланьи: прошлое, настоящее, будущее. Под общей ред. Р.М. Нуреева. М.: ГУ-ВШЭ, 2007.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Жамият трансформацияда ижтимоий-маданий технологияларни заруратини П. Штомпке фикрича, муҳим ижтимоий ўзгаришлар шаклларини ифодаловчи тушунчалардан бири морфогенез (мутлақо янги ижтимоий шароитларнинг, жамият шароитларининг, ижтимоий тузилмаларнинг пайдо бўлиши), трансмутация (мавжуд ижтимоий муносабатларни ўзгартириш, ислоҳ қилиш ёки қайта кўриб чиқиш), кўпайтириш (компенсацион, мослашувчан, мувозанатлаштирувчи, қўллаб-қувватловчи жараёнлар, жамият мавжудлигини ўзгармаган ҳолда сақлаб, атрофдаги шароитларга мослашиш)га[8.36.]имкон беради. Шундан келиб чиққан ҳолда трансформациянинг асосий сифати ўзгаришлар, ижтимоий воқелик асосида силжишлар содир бўлганда, уларнинг ижтимоий ҳаёти соҳаларида сезилиб, унинг энг муҳим қисмларини ўзгартиради.

Ижтимоий-маданий технологияларни жамият трансформациялашувида *биринчидан*, анъанавий-классик жамиятшунос-файласуф олимлар О.Конт, Г.Спенсер, Т.Парсонс қарашларида ўз ифодасини топган. Уларнинг фикрича, жамиятнинг “тизимли модели” ишлаб чиқилиб, ривожланишнинг барқарорлигига эътибор қаратилади. Бизнингча, жамиятнинг маълум бир барқарор ҳолати мавжуд бўлиб, у ижтимоий ўзгаришлар бир тизимнинг вақт бўйича кетма-кет содир бўладиган турли ҳолатлари тушунилади.

Иккинчидан, жамиятдаги “статик, барқарор ҳолат сифатида эмас, балки жараён сифатида, объект сифатида эмас, балки доимий давом этувчи, чексиз ҳодисалар оқими сифатида” қараш жамият трансформациялашувининг моҳиятини ифодалайди. Бу эса тадқиқот методологияси сифатида назарий ва амалий қарашларни ўзаро таққослаш ва солиштириш имкониятини тақдим этади.

Таҳлил ва натижалар

Жамиятдаги ижтимоий-маданий технологияларни ҳозирги вақтда кўп мамлакатларнинг ўтиш даври деб аталадиган ноёб тажрибаси “трансформацион” терминологияси билан ўз ифодасини топмоқда. Бироқ “ижтимоий ўзгаришлар” тушунчасидан фойдаланишни юқоридаги қарашлардан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки, маълум соҳа билан чеклаш нотўғри бўлар эди. Чунки “жамият трансформациялашуви” кенг ва самарали илмий талқинларни ўрганиш заруратини тақозо этади. Жамият тизимидаги ўзгаришлар барча соҳалардаги “трансформация” тушунчасининг мазмунини ифодалайди. “Ривожланиш” ва “эволюция” тушунчаларини мазмунан аралаштириб юбормаслик зарур. Таъкидлаш лозимки, трансформацияни мазмунни сақлаб қолган ҳолда фақат шаклдаги ўзгариш сифатида тушуниш нотўғри, яъни бунда ижтимоий соҳадан ташқари барча соҳалардаги ўзгаришларни табиий қабул қилиш шарт.

Хулоса ва таклифлар

Жамиятдаги ижтимоий ўзгаришларнинг асосий фазилатлари қуйидагиларни ўз ичига олади. *Биринчидан*, бу жараёнда юзага келадиган ўзгаришларнинг тизимли бўлиши зарур, бу эса тизимни ташкил этувчи элементларни, ижтимоий институтларни тузилмавий жиҳатдан ўзгаришига сабаб бўлади. Муҳими ижтимоий ўзгаришларни ислоҳот, қайта ташкил этиш, қайта қуриш каби жараёнлар билан ажратиб туради. *Иккинчидан*, ижтимоий ўзгаришларни ривожланиш, тараққиёт, инқилоб, модернизациядан ажратиб турадиган аниқ прогрессив, ижобий ўзгаришлар йўналишини белгилайди. *Учинчидан*, ижтимоий ўзгаришларни янада шиддатли инқилобий силжишлар ва секин эволюцион ўзгаришлардан ажратиб турадиган нисбатан тез ўзгаришлар суръати дейиш мумкин.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Тўртинчидан, субъектив омилларнинг ролини ошириш орқали ижтимоий ўзгаришларни амалга ошириш нафақат тактик, балки стратегик жиҳатдан ҳам кўп жиҳатдан индивидуал, гуруҳ манфаатларига боғлиқ бўлади. Демак, жамиятдаги ижтимоий трансформация – бу бутун жамиятда ёки унинг асосий элементларида сезиларли ўзгаришлар жараёни бўлиб, жамият хусусиятини ўсиши, ўзгаришларни амалга оширишнинг нисбатан юқори суръати ва субъектив омиллар таъсирининг кучайиши билан тавсифланади. Бинобарин, тараққиёт мезонини ташқи эмас, балки жамиятнинг ичидан ўзидан излаш керак.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2022.
2. Штыков П. Исследование трансформационных процессов в Восточной Германии и Восточной Европе: достижения, проблемы и перспективы немецких социальных наук (1990–2002 годы)/ П. Штыков http://www.rapn.ru/index.php?doc=lib213
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2016.
4. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Тошкент. “Фан”. 1968.
5. Истон, Д. Категории системного анализа политики / Д. Истон // Антология мировой политической мысли: зарубежная политическая мысль XX в / отв. ред. Г. Ю. Семигин. — М.: Мысль, 1999..
6. «Великая трансформация» Карла Поланьи: прошлое, настоящее, будущее. Под общей ред. Р.М. Нуреева. М.: ГУ-ВШЭ, 2007.
7. «Великая трансформация» Карла Поланьи: прошлое, настоящее, будущее. Под общей ред. Р.М. Нуреева. М.: ГУ-ВШЭ, 2007.
8. Штомпка П. Социология социальных изменений. Москва. 1996.
9.Юлдашев С.У. Роль функции стабилизации и развития общества в научном управлении (как социокультурной технологии). Научный вестник Наманганского государственного университета, 2019. 1 (6), - С. 255-259.
10. Yuldashev, S. (2020). Socio-Cultural Technologies in Uzbekistan: History and Now. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, *18*(1), 171-173.
11.Yuldashev, S. U. (2019). THE ROLE OF SOCIO-CULTURAL TECHNOLOGIES IN SOCIETY. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *1*(10), 187-192.
12.Yuldashev, S. U. (2019). The role of the function of stabilization and development of society in scientific management (as socio-cultural technology). *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *1*(6), 255-259.
13.Yuldashev, S. U. (2019). TECHNOLOGY OF SOCIAL AND CULTURAL PROJECTION IN SCIENTIFIC MANAGEMENT OF SOCIETY. *Theoretical & Applied Science*, (11), 621-623.
14.Юлдашев, С. Ў. (2022). Жамиятни инновацион бошқаришда илмий ёндашув. *Scientific progress*, *3*(1), 20-25.
15.Yuldashev, S. U. (2022). SOCIO-CULTURAL FEATURES OF INCREASING THE INNOVATIVE ACTIVITY OF PERSONNEL. *Oriental Journal of Social Sciences*, *2*(1), 36-43.
16.Юлдашев, С. У. (2021). Давлат ва жамият бошқарувида кадрлар инновачион фаолиятини юксалтиришнинг ижтимоий-маданий хусусиятлари. *НамДУ илмий ахборотномаси-Научный вестник НамГУ*.
17.Yuldashev, S. U. (2022). SOCIO-CULTURAL FEATURES OF INCREASING THE INNOVATIVE ACTIVITY OF PERSONNEL. *Oriental Journal of Social Sciences*, *2*(1), 36-43.

18.Urmonalievich, Y. S. (2021). The essence of socio-cultural design in the process of scientific management of the society. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(7), 236-243.
19. Yuldashev, S. U. (2020). THE HARMONIZATION OF SOCIO-CULTURAL TECHNOLOGIES AND SPIRITUAL LIFE. In *ПЕДАГОГИКА. ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ, ИННОВАЦИИ* (pp. 32-34).
20. Yuldashev, S. U. (2020). SCIENTIFIC MANAGEMENT AS A SOCIAL AND CULTURAL TECHNOLOGY OF "STRATEGY OF ACTIONS". In *ПЕДАГОГИКА. ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ, ИННОВАЦИИ* (pp. 35-37).

ТАСАВВУФ ТАЪЛИМОТИНИ ЎРГАНИШГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАР ТЎҒРИСИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР

Соатов Расул, ЖДПУ ўқитувчиси
Соатов Расул, ЖДПИ тадқиқотчиси
E-mail: soatov1985rasul@gmail.com
ЖДПИ профессори, фал.ф.д.(DSc) А. Саитқосимов тақризи асосида

Аннотация: *Мазкур мақолада буюк ўзбек шоири ва мутафаккири Бобораҳим Машрабнинг тасаввуф таълимотига қўшган ҳиссаси фалсафий тадқиқ қилинган. Шунингдек, тасаввуф фалсафасининг намояндаларининг Машраб ҳаёти ва ижодига таъсири масалалари ёритилган.*

Калит сўзлар: *Тасаввуф, мутасаввиф, шариат, тариқат, маърифат, ҳақиқат, Қуръон, ҳадис, шарқшунос, файласуф, Мансур Ҳаллож, Аҳмад Яссавий, Ибн Арабий, Иброҳим Адҳам, Баҳоуддин Нақшбанд, пайғамбар, сўфизм*

НЕКОТОРЫЕ КОММЕНТАРИИ К ИССЛЕДОВАНИЯМ, СВЯЗАННЫМ С ИЗУЧЕНИЕМ СУФИЗМА

СОАТОВ РАСУЛ, ПРЕПОДАВАТЕЛЬ ЖДПУ

Абстрактный*: В данной статье философски исследуется вклад великого узбекского поэта и мыслителя Боборахима Машраба в суфизм. Также освещаются вопросы влияния представителей философии суфизма на жизнь и творчество Машраба.*

Ключевые слова: *Суфизм, мистицизм, шариат, тарикат, просвещение, истина, Коран, хадис, востоковед, философ, Мансур Халладж, Ахмед Яссави, Ибн Араби, Ибрагим Адхам, Бахауддин Накшбанд, пророк, суфизм.*

SOME COMMENTS ON RESEARCH RELATED TO THE STUDY OF SUFISM

Soatov Rasul, JDPU teacher

Abstract: *In this article, the contribution of the great Uzbek poet and thinker Boborahim Mashrab to Sufism is philosophically researched. Also, the issues of influence of representatives of Sufism philosophy on Mashrab's life and work are covered.*

Keywords: *Sufism, mysticism, sharia, tariqat, enlightenment, truth, Quran, hadith, orientalist, philosopher, Mansur Hallaj, Ahmed Yassavi, Ibn Arabi, Ibrahim Adham, Bahauddin Naqshband, prophet, Sufism.*

Бобораҳим Машраб XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфининг улкан намояндаси, яссавия, кубровия, нақшбандия тариқатлари ғояларининг тарғиботчиси, мутасаввиф шоир ва сўфий аллома сифатида тасаввуф тарихи ва туркий-форсий адабий-маънавий ҳаётида ўзига хос ўринга эга мутафаккирдир.

Машраб тасаввуфий қарашлари, унинг ҳаёти, фаолиятини илмий асосда тадқиқ қилиш, тасаввуфнинг моҳияти, шоир ижодига таъсир ўтказган мутасаввифлар, илми ҳол, илми қол, тасаввуфий илмлар ҳосил қилиш йўллари (шариат, тариқат, маърифат, ҳақиқат) усуллари ҳақида аниқ ва ишончли билимга эга бўлишга эҳтиёж сезади. Зеро, Е.Э.Бертельс таъкидлаган, тасаввуфни ўрганмасдан, алоҳидалик (тариқатлар) ва ўзига хослик ҳақида фикр ва мулоҳаза юритиб бўлмайди.

Фикримизча, Машрабнинг Марказий Осиё халқлари тасаввуфи тарихидаги ўрни ва ролини холисона белгилаш учун тадқиқотчилар эътирофини илк зоҳидликдан то бугунги кунгача турли соҳа олимлари, хусусан, файласуфлар ўртасида баҳс-мунозаралар предмети бўлиб келаётган тасаввуф моҳиятини фалсафий билишнинг назарий-методологик масалаларига эътибор қаратиш мақсадга мувофиқдир.

Машрабнинг тасаввуфий дунёқарашида из қолдирган ва уни ҳайратга солган илк зоҳид-сўфийлар Муҳаммад (с.а.в.), Робиа Адавия, Муҳаммад Ғаззолий, Мансур Ҳаллож, кейинчалик X-XV асрдан то ўзи яшаб ўтган давргача бўлган тасаввуфнинг улкан намояндалари Аҳмад Яссавий, Сулаймон Боқирғоний, Нажмиддин Кубро, Абдулхолиқ Ғиждувоний, Боязид Тайфур ал-Бистомий, Жалолиддин Румий, Жунайд Бағдодий, шайх Шиблий, Иброҳим Адҳам, Ибн Арабий, Баҳоуддин Нақшбанд, махдуми Аъзам Хожаги Косоний, Хожа Убайдулла Ахрор, Ҳидоятулло Офоқхожа, Мулло Бозор охунд, Сўфи Оллоёр тасаввуфий ғоялари муҳим рол ўйнаганлигининг факти ҳам тасаввуфий дунёқараш ва тафаккур ривожи ҳақида муайян тасаввурга эга бўлишни талаб этади.

Таъкидлаб қайд этмоқ керак, то мустақилликкача (74 йил) тасаввуф ҳақида маълумот берувчи бирорта китоб чоп этилмади. Қрим Боғчасаройининг Ғаспра қишлоғидан Исмоилбек Гаспринский “Европанинг бугунги улуғ зиёси мусулмонлар ёққан шам ва чироқларнинг ёғдусидан майдонга келгандир”,- деб адолатли фикрни ёзганида ҳақли эди.

Собиқ совет тузуми ҳукмронлик қилган коммунистик мафкура даврида фалсафа ва жамиятшунослик Қуръони карим, тасаввуф ҳақида гапириш эмас, уларни бидъат, афюн деб эълон қилган, ғайри илм урчиган давр ислом тасаввуфи моҳиятини илмий асосда ўрганишга йўл бермади.

Бироқ, ўша даврда таниқли совет шарқшунослари, академиклар Е.Э.Бертельс[4], И.П.Петрушевский[13], М.Т.Степанянц[16] ислом тасаввуфи моҳиятини марксизм методологияси асосида тадқиқ этишга бағишланган асарлар яратдилар.

И.П.Петрушевскийнинг ёзишича, Ғарб шарқшунослари ва XX аср бошларидаги рус шарқшунослари (В.А.Жуковский, А.Е.Крымский, А.Э.Шмидт) тасаввуф тарихига, айниқса, сўфизмнинг келиб чиқиши ва ғоявий илдизларига жуда катта қизиқиш билан қарадилар. Ғарб шарқшунослари сўфизм тарихини ўрганишда унинг ғоявий илдизларини социал антагонизмлар ва Шарқ мамлакатларидаги социал ҳаракатлар билан боғламадилар[13].

Ўтган асрнинг 70-80-йилларида ислом тасаввуфи тадқиқига бағишланган инглиз шарқшуноси Ж.С.Тримингэм[5] асари рус тилига таржима қилинди ва кўп марта нашр этилди. 2004 йили дунёга келган машҳур шарқшунос Александр Кнышнинг

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

“Мусульманский мистицизм. Краткая история” асари инглиз тилидан рус тилига таржима қилинди ва муаллиф таҳрири остида Москва ва Санкт-Петербург шаҳарларида чоп этилди[2].

Миллий мустақиллик шароитида адабиётшунос Нажмиддин Комиловнниг тасаввуф масалаларига бағишланган икки китоби[9] ни тасаввуфнинг илмий-академик тадқиқи дейишдан кўра адабиётшунослар ва кенг китобхонлар учун тасаввуф ҳақида умумий тушунча бериш йўлидаги илк қадам дейиш тўғрироқ бўлади[14:18].

Файласуф Қодирқул Рузматзоданинг фикрича, Ўзбекистонда Европага нисбатан жуда кам тасаввуф адабиёти тарихи бўйича саноқли ҳимоялар бўлган, бу борадаги ишлар талаб даражасидан пастлигини кўрсатмоқда.

Шундай бўлса-да, файласуф олимлардан Шодиев Рустам[18], Наврўзова Гулчеҳра[12], Сафарова Нигора[15], Маматов А.[11], адабиётшунос олимлардан эса Абдуқодиров А.[1], Ҳаққулов Иброҳим[17] лар диссертация ҳимоя қилдилар.

Миллий мустақиллик йилларида шаклланган янгича сиёсий онг ва дунёқараш юксак маънавият жамият тараққиётининг асоси, комил инсон (шахс) тарих ижодкори эканлигини зўр бериб тарғиб этгани ҳолда жамиятнинг бугунги муаммолари ва истиқболи учун масъул бўлган элитар қатлам дунёқараши, ҳаёти, турмуши ва тафаккури тарзини белгилашга буюрилган миллий фалсафанинг минг йиллар давомида халқимиз маънавиятининг тамал тоши бўлиб келган ислом тасаввуфи таълимотини ўрганиш бугунги кунда биз дуч келган муаммоларни оқилона ҳал этишдаги ўрни ва ролини англамаслик ҳалақит беряпти[14:20].

Совет жамиятида танҳо ҳукмронлик қилган, методологик плюрализмга асло йўл қўймаган марксча методология дин ва тасаввуфнинг “реакцион таълимот” эканлигини исботлашга зўр берган бир шароитда Европанинг жаҳонга машҳур мутафаккирлари оламни мистик билиш ва идрок этишнинг олам, Худо ва инсонни рационал билишдан кўра самаралироқ усули эканлигини исботлашга ҳаракат қилдилар[14:20].

Ҳамма замонларда жамият аъзолари ўзларининг маънавий-интеллектуал салоҳиятлари ва жамиятда тутган ўринларига қараб “аҳли хос” (элита) ва “аҳли ом” (илмсиз авом)га бўлиниб келган ва бу табақаланиш Қуръони карим (Зумар, 9-оят)нинг: “Билганлар билмаганлар билан тенг бўлурму”[10:459] оятида ҳам ўз ифодасини топган. Ўзлигини “билганлар” ҳамма замонларда ҳам “билмаганлар”га қараганда нисбатан озчиликни ташкил этган ва унинг қарашлари, фикрлаш ва ҳаёт тарзи авомнинг фикрлаш тарзи, дунёқарашига мутлақо зид бўлган[14:20].

Илмсиз авомга идеал, намуна бўла оладиган ижтимоий қатлам йўқ эди. Бундай “яхлит” жамиятнинг идеали ўзи сингари ожиз ва шармандали эди: коммунизм-моддий неъматлар мўл-кўллигининг рамзи эди. Демак, инсоний ҳаётнинг маъноси билан ҳайвоний ҳаётнинг маъноси айнан бир хил эди. Ана шу ғайриинсоний фалсафа охир-оқибатда совет жамиятини умумий инқирозга олиб келди[14:22].

Тасаввуф тўғрисидаги кўп асарлар, шунингдек, сўфийларнинг ўзлари ёзган асарлари “тасаввуф” атамасининг келиб чиқишини муҳокама қилишдан бошланади.

Мен бу ерда фақат унинг келиб чиқиши тўғрисида кенг тарқалган назарияларга тўхтайман.

“Тасаввуф” (“сўфизм”) сўзи арабча с-(в)-ф ўзакни лотинчалаштиришдан келиб чиққан, унинг маъноси ҳақида илк сўфий адабиётларнинг муаллифлари ўртасида баҳс-мунозаралар бўлган.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Мусулмон сўфийлари уни 1) арабча “сафо” сўзи билан боғлайдилар (унинг асосий маъноси “поклик”; 2) аҳли суфф (“суфа кишилари”), булар Муҳаммад пайғамбарнинг мулксиз сафдошлари бўлиб, масжид ёнидаги суфада яшаганлар; 3) “аҳл ас-саффа”-масжидда ёки Худо олдида биринчи сафда турувчилардир[3:18].

Бироқ кенг ёйилган тахминга кўра, бу атаманинг этимологияси арабча “суф” (жун) сўзи билан боғлиқдир. Арабча “тасаввафа” феъли шу сўздан келиб чиққан бўлиб, “жун матони кийиш” маъносини англатади. Ана шу ердан арабча “тасаввуф” сўзи келиб чиққан. Кейинчалик ана шу арабча атамадан лотинча “Sufismus”, “Sufi(i)sm”, немисча-“Sufitums” ёки “Sufik”, французча “Soufisme”, русча- “суфизм” ва ҳ.о. келиб чиқди. Мусулмонлар илоҳий маърифат, сирли илмга интилувчиларни одатда сўфий ёки мутасаввиф, кўпликда суфийа ёки мутасаввифа деб атайдилар. Пайғамбар ва унинг айрим саҳобалари диний қонунга юзаки амал қилишдан қониқиш ҳосил қилмаганлар ва шу сабабдан ўзларига қўшимча чекловлар қабул қилганликлари учун сўфий адабиётларда кўпинча уларни биринчи сўфийлар деб тавсифлайдилар. Бироқ тасаввуф атамаси ҳижрий III (IX) асрнниг биринчи ярмига келиб кенг ёйилди, деган назария энг ишончлироқдир, чунки ўша вақтда бу тушунчани Ироқ, Сурия, шунингдек, Мисрдаги мусулмон зоҳидларга нисбатан қўллай бошладилар.

Пайғамбарнинг ён-атрофидаги илк зоҳидлар бўлиб. Уларни сўфий муаллифлар “сўфизм” тушунчаси пайдо бўлишидан олдинги сўфийлар сифатида кўрсатадилар. Тасаввуфнинг анча кейинги вакиллари Пайғамбарнинг бундай фидойи издошларини сўфий анъаналари билан боғлаб, уларнинг барчаси учун жун кийимда юриш хос эди, деб ёздилар[7:11-12]. Ўз навбатида тасаввуфнинг анча кейинги душманлари, масалан, Ибн Жавзий (ваф. 597/1200 й.) бу фактни қатъий рад этди[6:161-165]. Тасаввуфга бевосита алоқадор бўлмаган мусулмон адабиётларда Пайғамбарнинг бундай художўй издошлари, худди уммавий ва илк аббосийлар даври (185/800 й.) мусулмон художўйлари (зоҳидлари) “нуккос” (фидойи), “зуҳҳод” (зоҳидлар) ёки “уббод” (ибодат қилувчилар) деб аталадилар[3:19].

Оиша (р.а.) ривоят қиладилар: “Мен: “Ё Расулуллоҳ, одамлар дунёда нима билан афзал бўладилар?” деб сўрадим. Ул зот: “Ақл билан”, деб жавоб қилдилар. “Охиратдачи?” дедим. “Ақл билан”, дедилар. “Унда амалларига қараб мукофотланмайдиларми?” деб сўрадим кейин. Расулуллоҳ (с.а.в.) жавоб қилдилар. “Эй Оиша, улар Аллоҳ азза ва жалла берган ақл миқдорича амал қилмайдиларми? Амаллари берилган ақл миқдорича бўлади. Қилган амаллари миқдорича мукофотланади”[8:209], деб жавоб қилдилар.

Ибн Аббос (р.а.) ривоят қилишларича, Расулуллоҳ (с.а.в.) айтганлар: “Ҳар бир банданинг асбоб-ускунаси бўлади, мўминнинг асбоби ақлидир. ҳар бир нарсанинг сири бўлади, кишининг сири ақлдир. ҳар бир нарсанинг устуни бўлади, диннинг устуни ақлдир. Ҳар бир қавмнинг ғояси бўлади, банданинг ғояси ақлдир. ҳар бир қавмнинг даъватчиси бўлади, обидларнинг даъватчиси ақлдир. Ҳар бир тожирнинг моли бўлади, мужтаҳидларнинг моли ақлдир. Ҳар бир аҳли байтнинг қадрияти бўлади, сиддиқлар оиласининг қадрияти ақлдир. Ҳар бир кишининг у билан эсланадиган зурриёти бўлади, сиддиқларнинг зурриёти ақлдир. Ҳар бир мусофирнинг чодири бўлади, мўминларнинг чодири ақлдир”[8:209].

Пайғамбар (с.а.в.) айтадилар: “Албатта, мўминларнинг Аллоҳ азза ва жаллага маҳбуброғи Аллоҳ азза ва жалла тоатида қойим бўлгани ва унинг бандаларига насиҳат

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

қилгани, ақли комил бўлгани, ўзига насиҳат этиб ўнглангани ва ҳаёт чоғларида унга амал қилиб нажот ва муваффақият топганидир”[8:209].

Яна Расулуллоҳ (с.а.в.) айтадилар: “Сизларнинг ақли комилингиз Аллоҳ таолога хавфи қаттиқроғингиз, унинг буйруқ ва қайтариқларига тафаккури гўзалроғингиздир. Гарчи бунда ихтиёрий амалингиз кам бўлса ҳам”[8:209].

Ислом дини ва тасаввуфи ўзининг кўп асрлик тарихи давомида ўзига хос бетакрор маданият ва цивилизация яратди. Бу билан жаҳон маданияти ва цивилизацияси ривожига салмоқли ҳисса қўшди. Демократик жамиятнинг маънавий ҳаётида фалсафа ва фан бир-бирисиз ривожлана олмагани сингари ислом дини ва тасаввуф ҳам кўп асрлар давомида бир-бирини тўлдириб, қўллаб-қувватлади: ислом дини кўпчиликнинг дунёқараши, ҳаёт ва фикрлаш тарзи бўлса, тасаввуф жамиятнинг юқори қатлами бўлган хос кишилар (аҳли хослар)нинг маънавий-интеллектуал эҳтиёжларини қондириши ва илоҳий маърифатга эришишида жуда муҳим роль ўйнади[14:24].

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдуқодиров А. Тасаввуф ва Алишер Навоий ижодиёти (Ваҳдат ал-вужуд проблемаси бўйича). Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т: 1998.
2. Александр Книш Мусульманский мистицизм. Краткая история.-М.-С-Пб., «ДИЛЯ», 2004.
3. Александр Книш. Мусулмон тасаввуфи. Таржимон Қодирқул Рузматзода. –Т.: “Фан зиёси”, 2022.
4. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. –Москва: Наука, 1965.
5. Дж.С. Тримингэм. Суфийские ордены в исламе. Перевод с английского под редакцией и с предисловием О.Ф.Акимушкина.-Москва: СОФИЯ ИД «Гелиос» 2002.
6. Ибн ал-Джаузи. Талбис Иблис. Каир, (Б.Г.).
7. Ибрахим Байсуни. Нашъат ат-тасаввуф ал-ислами. Каир, 1969.
8. Имом Абу Ҳомид Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Ғаззолий. Иҳёу улумид-дин (Дин илмларини жонлантириш).-Т.: “Мовароуннаҳр”, 2003.
9. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. –Тошкент: Ёзувчи, 1996. Комилов Н. Тавҳид асрори. Иккинчи китоб. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999.
10. Қуръони карим маъноларинниг таржимаси. Таржимон ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. –Т.: Тошкент ислом университети, 2001.
11. Маматов А.А. Тасаввуф таълимотининг тарихий-фалсафий моҳияти. Фалсафа фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Т.: 2018.
12. Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Докт. дисс. автореферати. Тошкент, 2002.
13. Петрушевский И.П. Ислам в иране VII-XV веках. –Ленинград. Издательство Ленинградского университета, 1966.
14. Рузматзода Қодирқул Рузмат ўғли. “Хожамназар Ҳувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривожидаги ўрни” мавзусидаги фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертацияси. 2020.
15. Сафарова Н. Фундаментализм, экстремизм ва терроризмга қарши ғоявий курашда тасаввуф таълимотини ва ирфоний қарашларнинг аҳамияти. Фалс. фан. док.дисс.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

автореферати. Т.: 2004.
16. Степанянц М.Т. Философские аспеты суфизма. –М: 1987.
17. Ҳаққулов И.Ч. Ўзбек тасаввуф шеъриятининг шаклланиши ва тараққиёти (ғоявийлик, издошлик, образлар олами). Филолог.фан. доктори диссетация автореферати. –Тошкент, 1995.
18. Шодиев Р. Суфизм в духовной жизни народов Средней Азии (IX-XIII вв.). автореферат дисс. докт. филос. наук. –Т.: 1993.

ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ТАЪЛИМ- ТАРБИЯ БОРАСИДАГИ ИЛМИЙ ҚАРАШЛАРИ

Турсунбоева Наргиза Комилжон қизи
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти
Тарих факультети тьютори

Аннотация. *Мазкур мақолада шарқ мутафаккирларининг таълим тарбия борасидаги илмий қарашлари таҳлил этилган. Шунингдек, мақолада мамлакатимизда илм-фанни янада равнақ топтириш, ёшларимизни чуқур билим, юксак маънавият ва маданият эгаси этиб тарбиялаш борасидаги фикрлар ёритилган.*

Калит сўзлар: *шарқ, мутафаккир, таълим, тарбия, маънавият, маданият, миллий ғурур, ватанпарварлик, ислоҳат.*

НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ НА ОБРАЗОВАНИЕ

Турсунбоева Наргиза Комилжон қизи
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Аннотация. *В данной статье анализируются научные взгляды восточных мыслителей на образование. Также в статье освещены мысли о дальнейшем развитии науки в нашей стране, воспитании нашей молодежи с глубокими знаниями, высокой духовностью и культурой.*

Ключевые слова*: восток, мыслитель, образование, воспитание, духовность, культура, национальная гордость, патриотизм, реформа.*

SCIENTIFIC VIEWS OF EASTERN THINKERS ON EDUCATION

Tursunboeva Nargiza Komiljon qizi
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Annotation. *This article analyzes the scientific views of Eastern thinkers on education. The article also highlights thoughts about the further development of science in our country, the education of our youth with deep knowledge, high spirituality and culture.*

Key words*: east, thinker, education, upbringing, spirituality, culture, national pride, patriotism, reform.*

Кириш

Бугунги кунда мамлакатимизда Янги Ўзбекистонни барпо этишда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳатлар дунё миқёсида алоҳида эътироф этилмоқда. Алабатта, мамлакатимиздаги мана шундай ижобий ўзгаришлар дунё ҳамжамиятида

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ўзбекистонга бўлган қизиқишни янада ошириб, унинг жаҳондаги нуфузини тобора мустаҳкамлашга хизмат қилмоқда. Бу борада дунё миқёсидаги мана шундай эътирофни чуқур ҳис этиб, юртимизни тараққий этишини мақсад қилган ҳолда Президентимиз Шавкат Мирзиёев мамлакатимизда илм-фанни янада равнақ топтириш, ёшларимизни чуқур билим, юксак маънавият ва маданият эгаси этиб тарбиялаш, уни замонавий босқичга кўтариш мақсадида Шарқ донишмандларининг: "Энг катта бойлик - бу ақл-заковат ва илм, энг катта мерос - бу яхши тарбия, энг катта қашшоқлик - бу билимсизликдир!"[1] деган ҳикматли сўзларини мисол келтириб, замонавий билимларни ўзлаштириш, чинакам маърифат ва юксак маданият эгаси бўлиш, ёшларимизни билим савиясини ошириш учун, аввало, илм-маърифат, юксак маънавият кераклигини, илм йўқ жойда қолоқлик, жаҳолат ва албатта, тўғри йўлдан адашиш ҳолатлари кузатилишини алоҳида таъкидлаб ўтгани эди.

Адабиётлар таҳлили

Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси, Sh.Usanov, Sh.Axmedova. Qizlar tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari.

Тадқиқот методологияси

Мақолада Эмперик тадқиқот, мантиқийлик, тизимлилик, ўзаро алоқадорлик илмий тадқиқот тамойилларидан келиб чиққан ҳолда қиёсий таҳлил каби тадқиқот усулларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар

Бугунги кунда юртимизда илм-фан, таълим-тарбия соҳаларида амалга оширилаётган катта ўзгаришлар, хусусан, мактаб таълимини ривожлантириш борасидаги ислоҳотлар буюк умуммиллий мақсадга, умумхалқ ҳаракатига тобора айланиб бормоқда. Бу борада, аждодларимиз томонидан яратилган бебаҳо маънавий меросимиз ва қадриятларимизни авайлаб-асраш ва ривожлантиришга алоҳида аҳамият берилмоқда. Бу ҳақда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз бир йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқида биз, ўтмишдаги буюк зотларимиз: "Имом Бухорий, Имом Термизий, Муҳаммад Хоразмий, Абу Наср Форобий, Аҳмад Фарғоний, Абу Мансур Мотуридий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино каби мутафаккир боболаримиз ҳаёти, фаолияти, асарларида ўз талқинини топган адолат ва адолатпарварлик ғояларида мужассам бўлди"[2] -, дея алоҳида таъкидлаб ўтгани бежиз эмас, албатта. Зеро, аждодларимиз қолдирган улкан бебаҳо маънавий меросдан ўрнак ва ибрат олиб, бу ғояни ёшлар қалби ва онгига сингдирсак, ёшларимизнинг илмга, тарихимизга бўлган ҳурмат-эҳтиромини янада ошириб, уларда миллий ғурур ва Ватанпарварликни шаклланишига замин яратган бўламиз.

Тарихдан маълумки, ҳар бир миллатнинг ўзига хос менталитети хусусан, маънавиятини юксалтиришда энг аввало, шонли ва буюк ўтмишга эга бўлган миллий қадриятларининг ўрни айниқса беқиёсдир. Зеро, ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда мутафаккирларимизнинг тарбия борасидаги қарашлари муҳим аҳамият касб этади.

Бугун Янги Ўзбекистон ёшларимизни ҳар томонлама етук ва баркамол этиб тарбиялашда буюк аждодларимиз меросини чуқур ўрганиш айниқса беқиёсдир.

Буюк ўтмиш ва шонли тарихга эга халқимиз дунё тамаддунида ўзининг юксак илм-маърифати ва ақл заковати билан доимо эътирофга сазовар бўлиб келган.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Донишманд халқимиз ҳамиша фарзандларни парваришлаш, уларга таълим ва тарбия беришга алоҳида эътибор қаратиб келишган. Шоирона таъбир билан айтганда "Ўғил бола уйнинг, қиз бола кўнгилнинг султони" ҳисобланади.

Азалдан шарқ халқларида тарбия борасида улкан маънавий мерос яратилган. Бу мерос асрлар давомида аждодлардан авлодларга ўтиб сайқалланиб ёш авлодни баркамоллигини таминлаш учун хизмат қилиб келмоқда.

Шарқ халқларининг бебаҳо фалсафий дидактик асари Кайкавуснинг "Қобуснома"си шахснинг шаклланиши ва вояга етиш жараёнини барча томонларини ўз ичига олади. Унинг "Фарзанд парвариши қилмоқ зикрида" деган боби бевосита оиладаги бола тарбиясига бағишланади. "Қобуснома" асарида ота-оналарнинг қатор вазифалари санаб ўтилади. Булар қуйидагилардан иборат. 1) Болага яхши от қўймоқ; 2) Оқил ва меҳрибон энагага топшириш; 3) Тўй томоша қилиб бериш; 4) Ўқиш-ёзишни ўргатиб касб ҳунар ва илмли қилиш; 5) Ҳарбийлар аҳлидан бўлса, сипоҳийликни ўргатиш. Эътиборли томони ана шундаки, Кайковус болага ҳунар ўргатганда, унинг учун бошқалар қилиши мумкин бўлмайдиган ҳунарлар ўргатиши лозим дейди. Ана шундай ҳунарлар ёрдамида у мушкул вазиятлардан чиқа олсин. Шунда бола ҳам отадан рози бўлади. «Агар қизинг бўлса, уни мастура доялларга топширғил, токи яхши парвариш қилғайлар ва каттароқ бўлғондин сўнг муаллимга топширғил… балаоғатга этғондин сўнг ҳаракат қилиб эрга берғил, унга шафқат ва марҳамат кўргузғил, недимким қиз отанинг асири бўлур. Ўғил отасиз бўлса ҳам бир иш талабига бора олур ўзин маишатлиғ тутар. Қиз эса ожиз ва бечора бўлур. Ҳар на боринг бўлса, аввало бурун қизга берғил ва унинг асбобин тузатғил. Тезроқ уни бир кишининг бўйиға банд этғил, токи унинг ғамидан қутилғайсан. Агар қизинг эрга тегмағон бўлса, уйланмағон йигитга топширғил, токи унга кўнгил боғласин ва ул бунга кўнгил боғласин» ва яна «Лекин агар ўғлингни уйлантирмоқ ва қизингни ерга бермоқ тиласанг, зинҳор ўз қариндошларинг била бериши болишмағил» -деб ота оналарга насиҳат қилади.

Абу Райхон Беруний "Ўтмиш авлодларидан қолган ёдгорликлар", "Ҳиндистон", "Эътиқодлар ва динлар ҳақида", каби кўпгина асарларида болаларни ахлоқий тарбиясида оид қимматли фикрларни баён этиб ўтган. Ҳатто, "Минералогия" номли асарида маъданлар ҳақида тўхталган бўлсада, инсоний фазилатларнинг аҳамиятини ёддан кўтармайди ва инсон қалби жавоҳирлардек тоза ва покбўлмоқлигини уқтириб қўяди. Инсон фазилатлари қимматбаҳо тошдек катта бойлик эканлигига эътиборни қаратади.Оила тутишда маънавиятнинг шароит тақозо этган тамоиллари борки, бу ҳақида алломаларимиз эслатиб ўтишган. Беруний оила қураётган қизларга ота-онанинг панд насиҳатларини келтириб, оиладаги тинч тотувлик кўпроқ аёллар зиммасига тушишни таъкидлаб шундай ёзади: "Эй қизим! Сен ўрганган уйингдан кетиб, нотаниш хонадонга тушмоқдасан, сен бўлажак куёвингнинг ҳамма хислатларини билмайсан. Сен эр бўл, у эса осмон бўлади. Демак сен у билан шундай йўл тутки, унинг олдида эр каби камтар бўлсанг, у осмон каби олижаноб бўлади. Осмон шифобахш ёмғири билан эрни кўкартиргани каби ҳам ўз меҳри шавқати ила сени хушнуд этади.

Эринг сендан фақат юмшоқ ва ширин сўзлар эшитсин, ярамайдиган ва эски либосда ёки сочларинг тартибга солинмаган ҳолда унинг олдида ўтирма. Қизим, куёвингдан кучи етмаган ва сотиб олишга қудрати етмаган нарсаларни талаб қилма. Бундай қилсанг орада тотувлик йўқолади, турли хил жанжаллар пайдо бўлади. Қизим рашк қилишдан сақлангин, чунки у ажралиб кетиш (талақ)нинг калитидир. Эрингга ҳадеб гина (танбеҳ) қилишни мен

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

сенга ман этаман(тақиқлайман). Яхшиси, сен у билан хушмуомалада ширин сўзли бўлгин, бу ишинг ҳар қандай сеҳру жодудан яхшидир.Ўзингга хушбўй нарсалар билан аро бергил, покизалик ҳамиша йўлдошинг бўлсин" -деб насиҳат қилган. Беруний «Минералогия» асарида ота-оналарга насиҳат қилиб, "Болаларнинг чиройлилиги, юз кўриниши она қорнида шаклланиб ривож топади, бундан кейин уни ўзгартирадиган куч йўқ" -деб таъкидлагани бежиз эмас. Хулоса қилиб айтганда, бошланғич синф ўқувчи қизларида ижтимоий-фаол шахс сифатларини тарбиялаш орқали уларда она Ватанга муҳаббат тўйғусини шакллантириш ўз халқи, миллати, динини ва юртини севадиган инсон этиб тарбиялаш бугунги кундаги энг долзарб вазифаларимиз эканлигини ҳар бир Ватандошимиз англаши лозим.

Буюк қомусий олим Юсуф Хос Ҳожиб болалар тарбиясини жуда мураккаб жараён деб тушунади. У белдан мадорни, танадан қувватни, кўздан нурни, дилдан оромни талаб қилади. Унинг таъкидлашича, агар инсоннинг ўзида гўзал фазилатлар бўлса, уларни бошқаларга ўргатиши лозим. Лекин одоб-ахлоқ, расм-русум, одат ва аҳлоқни ҳосил қилиш учун зўр куч ва ҳаракат керак бўлади[3].

Азалдан, ҳар қандай халқ ва миллат ҳаётида боланинг тарбиясига жуда ҳам нозик ва жиддий масала сифатида алоҳида эътибор қаратилиб келинган. Бунинг асосий сабаби болага берилаётган тарбия туфайли келажакда уларнинг қандай одам бўлиб етишиши мамлакат тараққиётини белгилаб берган.

Аждодларимиз қадимдан бебаҳо бойлик бўлмиш маърифат, таълим ва тарбияни, инсон камолоти ва миллат равнақининг энг асосий мезони ва гарови сифатида эъзозлашган. Албатта, таълим тарбия инсон онги маҳсули сифатида халқ маънавиятини шакллантирадиган ва бойитадиган энг муҳим омилдир.Шарқ уйғониш даври маданиятининг равнақ топишида таълимий-дидактик асарларида инсон шахсининг камол топиш йўллари, усуллари баён этилган. Шуни алоиҳад қайд этиш керакки, мамлакатимизда таълим соҳасидаги амалга оширилаётган туб ислоҳотлари узвийлигини мунтазам давом эттириш орқали Ўзбекистонда янги Уйғониш даври, яъни Учинчи Ренессанс пойдеворини яратиш ва унинг мазмун-моҳиятини жамият ҳаётида чуқур сингдириш борасидаги тарғибот ишларини амалга ошириш стартегик вазифа сифатида белгиланди. Бу ҳақда фикр юритганда Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев қайд этганидек: "Ҳаммамизга аёнки, тараққиётнинг тамал тоши ҳам, мамлакатни қудратли, миллатни буюк қиладиган куч ҳам бу – илм-фан, таълим ва тарбиядир. Эртанги кунимиз, Ватанимизнинг ёруғ истиқболи, биринчи навбатда, таълим тизими ва фарзандларимизга бераётган тарбиямиз билан чамбарчас боғлиқ"[4], - дея таъкидлагани бежиз эмас. Айниқса, бугунги глобаллашув шароитида замон шиддати ва кескин рақобатга бардош бера оладиган миллий таълим тизимини яратиш, дарслик ва ўқув қўлланмаларини замон талаблари асосида такомиллаштириш ва уларни янги авлодини яратиш, ўқув дастурларини оптималлаштириш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Хулоса

Бугунги кунда мамлакатимиз таълим-тарбия тизимида фаолият кўрсатаётган педагоглар, профессор-ўқитувчилар ва илм-фан соҳалари вакилларининг жамиятдаги ўрни ва мақомини ошириш учун моддий ва маънавий рағбатлантириш ишларини амалга ошириш кун тартибидаги асосий масалага айланиб бормоқда. Хулоса қилиб айтганда, ёшларимизни ватанга садоқат, фидоий этиб тарбиялашда мактаблардаги маънавий-

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

маърифий муҳитни ўзгартириш, ўқитувчи касбини нуфузини ошириш, янги давр педагогларини тарбиялаш, педагогика фанини ривожлантириш, инновацион таълим технологияларини жорий этиш бугунги кунининг асосий вазифаларидан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020
2. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси.–Тошкент:Ўзбекистон, 2021.–Б.16.
3. Sh.Usanov, Sh.Axmedova. Qizlar tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2018. B.16
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020 .
5. Мусаев М.Т. Янги Ўзбекистоннинг инсонпарвар сиёсати. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари журнали. Тошкент. 2022. №1 сон. Б-15-18
6. Мусаев М.Т. “Глобаллашув шароитида миссионерлик ва прозелитизмнинг маънавий-сиёсий таҳдид сифатида намоён бўлиш хусусиятлари” Konsensus xalqaro jurnali. International journal of consensus №2 (2020)
7. Мусаев М.Т. “Сайенталогия” – энг хавфли тоталитар секта. Ижтимоий фикр- инсон ҳуқуқлари журнали. 2020 йил. №4
8. Мусаев М.Т. Миссионерлик ва прозелитизмнинг жамият барқарорлигига таҳдиди. Монография. Республика Маънавият ва маърифат маркази. “Мумтоз сўз” нашриёти. Тошкент. 2021.
9. Мусаев М.Т. Глобаллашув шароитида халқаро сиёсат ва миссионерлик. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. pp. 69-76
10. Мирзахмедов Х.А. Формирование культуры толерантности как ценность ислама. Социальная политика и социальное партнерство. – 2019. – № 6 (173). – С. 55-60.
11. Мирзахмедов Х.А. Ёшлар маънавий ҳаётида янги мафкуравий хавфлар. Ижтимоий тадқиқотлар, 2019. №6.– Б. 66-72. Импакт-фактор: SJIF-2019=4.865.
12. Мирзахмедов Х.А. Ёшларда “одат”ланиш аҳлоқи. Фалсафа ва ҳуқуқ журнали, 2021. №2. – Б. 146-149.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

БЎЛАЖАК ИНГЛИЗ ТИЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ТОЛЕРАНТЛИК ТАФАККУРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДАГИ ПЕДАГОГИК ОМИЛЛАР

Фарғона давлат университети мустақил тадқиқотчиси
Умурзакова Дилфуза Илхомовна
e-mail: ilmiy@inbox.ru

Аннотация: *Мазкур мақолада хозирги кунда таълим тизимида инновацион педагогик ва ахборот технологияларини жорий этишга эътибор янада ортиб бораётган бир вақтда таълим мазмуни ва сифатини такомиллаштиришни бугунги кун нуқтаи-назардан янги педагогик инновация йўналишисиз тасаввур этиб бўлмайди. Таълим тизимида инновацион жараёнлар ва инновацион янгиликларни жорий этиш ўқитувчининг касбий имконияти билан апробация қилишига ёрдам беради.*

Калит сўзлар: *маънавий-ахлоқий фазилатлар, назарий-амалий, технопарк, форсайт, технологиялар трансфери, акселератор, илм-маърифат, инновация, ақлий меҳнат, илм-фан, таълим-тарбия.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТОЛЕРАНТНОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Соискатель Ферганского государственного университета
Умурзакова Дилфуза Илхомовна
mail: ilmiy@inbox.ru

Аннотация: *В данной статье уделяется внимание внедрению инновационных педагогических и информационных технологий в систему образования, повышение и качества образования невозможно представить с сегодняшней точки зрения без нового направления педагогических инноваций. Внедрение инновационных процессов и инновационных навыков в систему образования помогает учителю утвердить свои профессиональные возможности.*

Ключевые слова: *духовно-этические качества, теоретико-практический, технопарк, форсайт (предвидение), трансфер технологий, акселератор, наука-просвещение, инновации, умственный труд, наука, образование.*

PEDAGOGICAL FACTORS IN IMPROVING THE MENTALITY OF TOLERANCE OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Umurzakova Dilfuza Ilhomovna, independent researcher
of Fergana State University.
e-mail: scientific @inbox.ru

Annotation: *In this article, at a time when attention is being paid to the introduction of innovative pedagogical and information technologies in the educational system, improvement of the content and quality of the teacher cannot be imagined from today's point of view without a new direction of pedagogical innovation. The introduction of innovative processes and innovative innovations in the educational system helps the teacher to be approved by his professional opportunity*

Key words: *spiritual-ethical qualities, theoretical-practical, technopark, foresight, technology transfer, accelerator, genius, innovation, intellectual work, science, education.*

Кириш

Олий таълим тизимида талаба ёшларнинг инглиз тилларни мукаммал эгаллашларидан ташқари, инновацион янги педагогик технологиялар ва интерфаол усулларни пухта ўзлаштиришларини замонамизда бугунги кунда талаб қилмоқда. Замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш бугунги олий таълим тизимининг бош вазифаси бўлиб, бунинг учун олий таълим муассасаларида ўқув жараёнини босқичма-босқич, тизимига ўтказиш, халқаро тажрибалардан келиб чиқиб, олий таълимнинг илғор стандартларини жорий этиш, олий таълим мазмунини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларининг барқарор ривожланишига муносиб ҳисса қўшадиган, меҳнат бозорида ўз ўрнини топа оладиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш, олий таълим муассасаларининг академик мустақиллигини таъминлаш, хорижий инвестицияларни кенг жалб қилиш, пулли хизматлар кўламини кенгайтириш жараёнлатини ҳисобига олий таълим муассасаларида технопарк, форсайт, технологиялар трансфери, акселератор марказларини ташкил этиш ҳамда уларни тегишли тармоқ, соҳа ва ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини ва прогнозлаштирувчи илмий-амалий муассасалар даражасига олиб чиқиш талаб этилади.[1]

“Таълим тўғрисида”ги қонун ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг қабул қилиниши билан узлуксиз таълим тизими орқали рақобатбардош кадрларни тайёрлаш асоси яратилди. Шунингдек, узлуксиз таълим тизимида фаолият олиб бораётган ёш авлоднинг келажаги, истиқболи, таълим-тарбиясига масъул бўлган устоз ва мураббийларнинг касбига бўлган муносабат ҳам тубдан ўзгарди. Шундай экан, бугунги кун педагогларнинг асосий вазифаси таълим ва тарбия билан боғлиқ бўлган барча янгиликларни ўрганилаётган фаннинг моҳиятидан келиб чиққан ҳолда таълим жараёнига татбиқ этиш ва амалга оширишдан иборат. Ҳозирги кунда таълим тизимида инновацион педагогик ва ахборот технологияларини жорий этишга эътибор янада ортиб бораётган бир вақтда таълим мазмуни ва сифатини такомиллаштиришни бугунги кунда янги педагогик инновация йўналишисиз тасаввур этиб бўлмайди. Таълим тизимида инновацион жараёнлар ва инновацион янгиликларни жорий этиш ўқитувчининг касбий имконияти билан белгиланади. Жумладан, жаҳон таълим тизими фанини ўқитишда ҳам замонавий ўқитиш усуллари, интерфаол услублар, инновацион технологияларнинг ўрни ва аҳамияти беқиёсдир. Таълим муассасалари педагог ўқитувчилари учун амалий тавсияларда ўқув-тарбиявий жараёнда педагогик технологиялардан фойдаланишга алоҳида эътибор берилаётганлигининг асосий сабаби қуйидагилар деб таъкидланган:

Биринчидан, педагогик технологияларда шахсни ривожлантирувчи таълимни амалга ошириш инмкониятининг кенглиги асосида, “Таълим тўғрисида”ги қонун ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида ривожлантирувчи таълимни амалга ошириш масаласига алоҳида эътибор қаратилган.

Иккинчидан, педагогик технологиялар ўқув-тарбия жараёнига тизимли фаолият ёндашувини кенг жорий этиш имкониятини беради.

Учинчидан, педагогик технология ўқитувчининг таълим-тарбия жараёни мақсадларидан бошлаб ташхис тизимини тузиш ва бу жараён кечишини назорат қилишгача бўлган технологик занжирни олдиндан лойиҳалаштириб олишга ундайди.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Тўртинчидан, педагогик технологиялар янги воситалар ва ахборот усулларини қўллашга асосланганлиги сабабли уларнинг қўлланилиши натижасида кадрлар тайёрлаш миллий дастури талабларини амалга оширишни таъминлайди. Шундай экан, анъанавий таълимда талабаларни фақат тайёр билимларни эгаллашга ўргатилган бўлса, замонавий технологиялар уларни эгаллайдиган билимларни қидириб топишларига, мустақил ўрганиб, таҳлил қилишларига, ҳатто хулосаларни ҳам ўзлари келтириб чиқаришларига ўргатса, бўлажак инглиз тили ўқитувчи шахсининг ривожланиши, шаклланиши, билим олиш ва тарбияланишига шароит яратади, шу билан бир қаторда бошқарувчилик, йўналтирувчилик функциясини бажаради. Бу ҳолатда талаба асосий фигурага айланади. Шунинг учун ҳам олий таълим муассасаларида малакали касб эгаларини тайёрлашда замонавий ўқитиш методлари–интерфаол методлар, инновацион технологияларнинг ўрни ва ролини ошириб бориш лозим. Жумладан, жаҳон таълим тизимида ҳар бир дарс, мавзу, ўқув предметининг ўзига хос технологиялари бор бўлиб, яъни ўқув жараёнидаги педагогик технология якка тартибдаги жараён асосида, у ўқитувчи талабанинг эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда бир мақсадга йўналтирилган, натижа беришга қаратилган педагогик жараёндир.

Ўзбекистон Республикасида “Таълим тўғрисида”ги Қонуни ва “Кардлар тайёрлаш миллий дастури” асосида талаба-ёшларнинг бугунги ахборот муҳитидаги ижтимоий фаоллигини ошириш, хорижий тилларга қизиқишларига нисбатан мотивацион муҳитни шарт-шароитларини яратиш хозирги кунда муҳум ахамият сифатида касб этмоқда.[2] Улардаги мотивацияларни бевосита хорижий тилларга доир инновацион лойиҳаларни яратишга йўналтириш, илм-фаннинг амалиёт билан боғлиқлигини таъминлашга шароитини ташкиллаш бизнинг олий мақсадимиздир. Бугунги таълим тизимида бўлажак инглиз тили ўқитувчиларнинг толерантлик тафаккурида инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш асосида таълимни юқори сифат даражасини ташкил этиш, таълимдан олинадиган самарадорликни олдиндан белгилаб олиш, ҳамда зарурий таълим воситалари, бошқа керакли шарт-шароитларни олдиндан ташкил этишни талаб этмоқда.

Бу борада таълим соҳасида Ўзбекистон давлатининг сиёсати Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепсиясининг[3] узуликсиз таълимнинг барча турларида амалга оширилиши билан чамбарчас боғлиқдир. Бўлажак инглиз тили ўқитувчилари толерантлик тафаккурини шакллантириш ҳамда кўникмаларида мустақил таълим олишнинг мустақиллик, мантиқийлик, эркинлик, фаоллик, изчиллик, ташаббускорлик, системалилик, ижодкорлик, қиёсий таҳлил, ҳаққонийлик, толерантлилик каби тамойилларга амал қилади. Ушбу тамойиллар асосида ўзаро алоқадорликда ва мутаносибликда мустақил таълим самарадорлигини таъминлашда, илмий тадқиқотлар жараёнида бўлажак инглиз ўқитувчиларини толерантлик тафаккурини такомиллаштиришда, тилларни ўқитиш (хорижий тил) йўналиши бўйича чет тиллари ўқитувчилари, педагог ва раҳбар ҳамда заҳира кадрлари малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш курсларида, таълим менежерининг компетентлиги ва креативлиги, инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик модуллари мазмуни ишлаб чиқилиб ҳамда амалиётга киритилади. Инсон хаёти жуда катта вазифалар устида сабр билан меҳнат қиларкан, ҳаётнинг шаклан ва маънан катта бўлган бутун қисми хаётнинг ўзи нима эканлигини соғлом турмушида кўрсатиб туради. Бунда бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг толерантлик тафаккурини шаклланишида эзгуликни хаммаси айрим

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

саъй-ҳаракатлар туфайли атрофга тарқалади, унинг маънавий қуввати ортади, ўзини аниқлашда булар ахлоқ қиймати эмас, ақлга сингиб кетадиган энг яхши тарафга интилиш каби мақсадлидир. Бўлажак инглиз тили ўқитувчиси-ўта мураккаб ва шарафли махсус касб эгаси, аудитория остонасида, ўқитувчининг толерантлилиги, талабалар билан нозик ўзаро инькоси бошланиши, натижасида устознинг атрофдаги ўқувчи-ёшларга этикет доирасидан чиқмаган ҳолда унинг муносабатига боғлиқ ҳолда шаклланади. Фақатгина "қанотли" бўлажак ўқитувчи "қанотли" шогирдни тарбиялайди, фақат бахтли бола бахтли одамни келтириши мумкин.[4] Жамият тараққиётида бўлажак инглиз тили ўқитувчиси қанчалик касбий тайёрланган бўлишидан қатъи назар у ўз шахсий ижодкорлик хусусиятлари доимий равишда ўзидаги креативлигини такомиллаштириб, ўзининг маънавий-руҳий олами, ижобий қиёфаси асосида таълим ва жамиятнинг ривожланиши замонавий шароитида толерантлик тафаккури шаклланиши муҳум ахамиятга эгадир. Ўқитувчи мақоми пасайиши бошланганда унинг сифатини шахс, айниқса, ҳозирги босқичида муносабатлар асоси бўлган пайтда ўқитувчининг билим, савияси жуда ўринли бўлади. Бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг таълимдаги аҳамияти, ўз ўрнида ижобий ўзгаришлари, янгиликлардан хабардорлиги, кунлик ахборотга эҳтиёжи мавжудлиги, жахон ҳамжамиятида бўлаётган воқеа-ходисалардан талаба-ёшлар онги, шурурига тушунарли тарзда етказиш муҳим ҳисобланади. Бўлажак инглиз тили ўқитувчисининг касбий фаолиятини аниқлаш, ўқитувчининг касбий қиёфасини шакллантиришнинг ўзига хос хусусияти бўлишлилиги, асосий мақсад замонавий бўлажак инглиз тили ўқитувчиси образини мақсадли шакллантириш зарурлигини такомиллаштиришдан иборатдир.

Таълим сохасида касбий таълим методи бўлган мустақил ишлаб чиқариш топшириқларини бажаришдан ўқувчиларнинг машқлар жараёнида ҳосил қилган меҳнат ва касб кўникмалари, малакаларини тўла-тўкис шакллантириш, янада такомиллаштириш, мустаҳкамлаш мақсадида фойдаланилади. Талавба-ёшлар ўқув жараёнида мустақил ўқув-ишлаб чиқариш топшириқларини бажариш вақтида ўқувчилардан мустақиллик намунасини кўрсатишни, ишда зарур аниқликка, меҳнатни ташкил этишда пухталикка, оз жисмоний ва ақлий меҳнат сарфлаган ҳолда ишнинг унумли бўлиши, унга ижодий ёндашишга риоя қилишни талаб этиш лозим. Креативликда касб таълими бўйича амалий машғулотлар доирасида мустақил ўқув ишлаб чиқариш топшириқларини бажариш дарснинг бошқа қисмларига нисбатан кўп вақт олади.[5] Бинобарин, назарий-амалий машғулотнинг бу қисми талабаланинг меҳнат ва касб таълими ҳамда тарбиясига оид кўпгина масалаларни ҳал қилишда етакчи роль ўйнайди. Қуйидаги шартлар мавжуд бўлгандагина талабаларнинг мустақил ишлаб чиқариш топшириқларини бажаришда таълим-тарбия муваффақиятларига эришиш мумкин: биринчидан; талабалар бажарадиган ишнинг мазмунини яхши тушунишлари ва уни бажариш тартибини аниқ тасаввур қилишса. Иккинчидан; талабалар топшириқни қандай асбоб-ускуналар билан бажариш кераклигини, уларнинг тузилиши ва ишларига оид хусусиятларини, уларни иш режимига мослаш усулларини, ишдаги нуқсонларининг олдини олиш чораларини билишса. Учинчидан; иш ўрнини тўғри ташкил этиш, топшириқларни бажариш изчиллигини ва унинг натижаларини таҳлил қила билиш ҳамда хулосалар чиқаришга эришсалар.

Талабаларнинг ўқув-ишлаб чиқариш топшириқларини бажариш вақтидаги мустақиллиги типик ишларни бажариш вақтида, яъни ташқи кўриниши жиҳатидан ҳам,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

илмий-назарий жиҳатидан ҳам кўпгина умумийликка эга бўлган ишларни тайёрлашда кўпроқ намоён бўлиши лозим.

Бўлажак инглиз тили ўқитувчисининг толерантлик тафаккурини шакллантириш жараёнида, атрофдагиларга хушмуомалалиги ва ҳурмат билан муносабатда бўлиши омили тадқиқот натижасига кўра бош омил сифатида намоён бўлаолишидир. Ушбу омиллар устун ифодаланган бўлғуси ўқитувчилари ўзини назорат қилишга юқори даражада қобилиятли, ўз халқининг анъаналари, қадриятлари, урф-одатлари, диний маросимлари ва расм-русумларини яхши биладиган, қадрлайдиган ва унга амал қиладиган инсон сифатида гавдаланади. Ўзбек миллатида энг аввал болаларга, қарияларга, ночор, бемор ва ногиронларга ҳурмат билан муносабатда бўлиш, ўйлаб-фикрлаб иш тутиш, камгаплик ва мулоқотда ниҳоятда хушмуомалалик юқори баҳоланади. Шунга кўра, бўлажак инглиз тили ўқитувчисининг ушбу қиёфасида биринчи галда етарли даражада касбий билимларни эгаллашга интилиш бўлиб, ўзининг ижтимоий-типик хулқида характернинг қуйидаги этник хислатларини намоён қилади: юксак ҳиссий барқарорлик, онглилик, оқилона ишонувчанлик ва киришимлилик, ўзига нисбатан назоратнинг кучлилиги ва ўрта даражадаги доминантлик, ўзига ишониш, шунингдек, кенг кўламдаги ўзига бўлган муносабатнинг ижобийлиги. Чет тили ўқитувчисига мансуб юқорида таърифланган ва аслида асрлар бўйи миллий, ижтимоий-маданий муҳитнинг таъсири остида шаклланган педагогнинг миллий қиёфаси халқ онгида чуқур изчил из қолдирганлиги билан таснифланади. Бўлажак инглиз тили ўқитувчи сифатида ўзини тутиши ва амалиётчилиги омили муаллимининг ижтимоий-психологик тавсифида муҳим ўрин эгаллайди.[6] Ушбу қиёфага кўра, бўлажак инглиз тили ўқитувчиси ўзининг ҳиссиёти ва кайфиятини оқилона бошқариш қобилиятига эга бўлиб, уларни айнан бир хил тушунтира олади ва амалда ифодалайди. Унда ўзлигини тўғри баҳолай олиш, ўзини назорат қилиш, уюшқоқлик ва ижтимоий интизомлилик, ўзига оқилона ишонувчанлик ва киришимлилик юқори даражага эга. Бундай тоифага тааллуқли бўлғуси бўлажак инглиз тили ўқитувчилари мустақиллик кўрсатишга мойилдир, миллий анъана ва қадриятларни ҳисобга олишга, бошқалар билан маслаҳатлашишга ҳам қарши эмас. Улар одатда ўзбек халқининг тарихи, урф-одатлари, қадриятлари, маданияти ва анъаналари ҳақидаги ўз билимларини кенгайтиришга ҳаракат қиладилар, шунингдек, миллий тадбирларда шахсан ўзларини ижодкорлик қобилиятлари билан мунтазам қатнашадилар. Улар касбий фаолиятида, асосан муваффақиятга эришишга интилиш мотивига, педагогик фаолиятнинг ташкилотчилик-конструктив, ахборот, коммуникатив сифатлари ва компонентларига таянишни афзал кўрадилар. Шу омилга эга бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг ҳаёти ва фаолиятида руҳий-асаб соҳасининг қўзғалиши билан бирга ортиқча конформлик салбий акс этади. Натижада ўқитувчига хос миллий идентивликнинг шаклланганлиги омили намоён бўлади. Бу омилни ташкил этувчилар этноснинг миллий психологияси ва ўзини англашнинг моҳиятини айнан акс эттиради. Бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг толерантлик тафаккурини такомиллаштиришда, миллатнинг қиёфаси, асосан, унинг ўзига юқори ижобий муносабати, вазминлиги, чуқур билими, ўзини етарлича назорат қилиши ҳамда ташқи ва ички назоратининг йўналиши уйғунлашганлиги билан белгиланади. Бўлғуси бўлажак инглиз тили ўқитувчиси ўзгалар томонидан ўзини ҳурмат қилиши тўғрисида доимо ғамхўрлик кўрсатишга интилади, у ёши улғайиши ва тажрибасининг ортиши билан жамоатчилик олдида ўзининг юксалишини ҳис этади. Бундай ўқитувчилар

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

етарлича моҳирлик билан ишлайдилар, педагогик фаолиятнинг ташкилотчилик-конструктив, ахборот-коммуникатив сифатлари ва компонентларини самарали амалга оширадилар. Бунда ўқитувчи ўзилигини англашида, ўзини ўз халқига қиёслаши катта ўрин эгаллайди. У этноснинг миллий-маданий анъаналари ва урф-одатларини, удуми ва дидини етарли даражада чуқур ўзлаштирган ва уларга риоя қилишга интилади, ўқувчиларда ватанпарварлик ва миллий ғурур туйғуларини таркиб топтиришга интилади. Касбий фаолиятда вазминлик, сабр-тоқатлилик ва юқори маълумотлиликни намойиш этади ҳамда ўзида мужассамлаштиради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, -Б.464. 2021й.
2.“Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони.
3. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг “XXI асрнинг Олий таълими” Бутунжаҳон декларацияси (1998 й.), ЮНЕСКО нинг “Олий таълимни ислоҳ қилиш ва ривожлантириш” дастурий ҳужжати (1995 й.)
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 8 майдаги “Узлуксиз таълим тизимининг чет тиллар бўйича Давлат стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 124-сонли қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг “Олий таълим муассасаларининг матбуот котиби тўғрисдаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 2018 йил 17 июлдаги 625-сонли буйруғи.
6.Аслонов. И.Н. Ўқувчиларни касбга йўналтиришда оила, махалла ва таълим муассасаларининг ҳамкорлиги масалалари. 2016 й.
7. Рискулова К.Д. “Бўлажак инглиз тили ўқитувчилари социолингвистик компетентлигини шакллантириш тизими” диссертацияси автореферати. Тошкент 2017й.
8. Жуманазаров. У. У. “Таълимни рақамлаштириш муҳитида бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг лингвистик компетенциясини ривожлантириш”. Диссертацияси автореферати. Жиззах 2021й.
9. Rahmatullayeva A.I. “O‘quvchilar diqqatini rivojlantirish pedagogik-psixologik muammo sifatida”. “MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA INTEGRATSIYA VA INNOVATSION TAFAKKUR UYG‘UNLIGI MASALASI:MUAMMO VA YECHIMLAR” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi (2020-yil, 20-may) MATERIALLARI.
10. Sodiqov G‘.A. “Pedagogik texnologiyalarni o‘quvchi shaxsini tarbiyalashdagi o‘rni”. “MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA INTEGRATSIYA VA INNOVATSION TAFAKKUR UYG‘UNLIGI MASALASI:MUAMMO VA YECHIMLAR” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi (2020-yil, 20-may) MATERIALLARI.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

SURAH "NAHL" IN THE QUR'AN SCIENTIFIC-PHILOSOPHICAL ANALYSIS.

Salamova Xakima Yusupovna-Bukhara State University " Islamic history and source studies. Professor of the Department" philosophy", doctor of philosophy

Abstract: *The article discusses the scientific and philosophical analysis of the Surah "Nahl" in the Quran. In order to cover the topic of the article, scientific and philosophical works of medieval eastern scholars were used.*

Key words: *Islam, bees, word, peace seeker, outer, inner*

НАУЧНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СУРЫ "НАХЛ" В КОРАНЕ.

Саломова Ҳакима Юсуповна-Бухарский государственный университет " Исламская история и источниковедение. Профессор кафедры "философия", доктор философских наук

Абстракт: *В статье речь идет о научно-философском анализе суры "Нахль" в Священном Коране. Для освещения темы статьи были использованы научно-философские труды средневековых восточных ученых.*

Ключевые слова: *ислам, пчелы, слово, миролюбивый, внешний, внутренний.*

ҚУРЪОНИ КАРИМДАГИ "НАҲЛ" СУРАСИНИНГ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ

Саломова Ҳакима Юсуповна
Бухоро давлат университети, "Ислом тарихи ва манбашунослиги. Фалсафа."кафедраси профессори, фалсафа фанлари доктори

Аннотация: *Мақолада қуръони каримдаги "Наҳл" сурасининг илмий-фалсафий таҳлили хақида сўз боради. Мақола мавзусини ёритиш мақсадида ўрта аср шарқ алломаларининг илмий-фалсафий асарларидан фойдаланилди.*

Калит сўзлар: *ислом,асалари,калом, тинчлик истовчи, зохирий, ботиний.*

Кириш

Ислом инсонларни комилликка етакловчи, Ер юзидаги барча инсониятга тинчлик истовчи, уларни эзгуликка, илм-маърифат ва юксак ахлоққа чорловчи диндир. Ислом динининг муқаддас китоби Қуръони карим инсонни Оламда яшаш одоби ҳақидаги сермаъно, кўп қиррали манбадир. Қуръони Карим – Оллоҳ каломи бўлган муқаддас китоб йигирма уч йил давомида нозил қилинган. Ҳеч қачон ва ҳеч қайси инсон бир ўқишда унинг тўла мазмунини ўқиб англай олмайди. Сиз 23 йилдан нозил қилинган китобни асло юзаки, тафаккурга шўнғимай ўқий олишингиз мумкин эмас. Бутун фикрларингизни бир нуқтага жамлаб, уни тоза ва сокин руҳингизда ўқишни бошласангиз ўшандагина уни тушуна бошлайсиз.

Мавзуга оид адабиётларнинг тахлили

Шамс Табризий фикрича "Қуръони Карим" ўқишни тўрт хили мавжуд.
Ҳазрати Шамс Табризий ёзадилар: **"**Қуръони Карим тўрт савияда ўқилиши мумкин:

1. Зоҳирий маънодир.
2. Ботиний маънодир.
3. Ботинийнинг ботинийсидир.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

4. Бу савия шу даражада чуқурки, уни таърифлашга калималар кифоя қилмайди.

Маънавий-руҳий оламлари Шамсиддин Табризий билан уйғун бўлган Жалолиддин Румий эса бу ҳақда бундай ёзганлар:

“Қуръонга кўзинг билан боқсанг, ёзувни кўрасан,
Ақлинг билан қарасанг, илмни кўрасан.
Қалбинг билан боқсанг, ишқни кўрасан
Бутун руҳинг билан боқсанг, Роббингни кўрасан!”.

Биз Қуръони каримга яқин келишни истадик.

Қуръон Каримни ўқиган инсоннинг қалби мулойим бўлади.

Қуръони Каримни ўқиган инсон тупроқ каби камтар бўлади. Инсонни асло хафа қилмайди. Қалбида кибр, нафс, кўра олмаслик, ёвузликдан асар ҳам бўлмайди. Қуръони карим 114 сурадан иборат бўлиб, 86 сура Маккада, 28 сура эса Мадинада нозил қилинган.

“Наҳл” – асаларилар сураси Маккада нозил бўлган бўлиб у 128 оятдан иборат.

Абдуллоҳ ибн Масъуд розияллоҳу анҳудан ривоят қилинади: “Қуръонда икки шифо бор: Қуръон ва асал. Қуръон қалблардаги касалликларга шифо, асал ҳар бир дардга даводир.”[2] Пайғамбаримиз алайҳиссалом шундай деганлар: “Кимда-ким ҳар ойда уч марта, наҳорда (оч қорнига) асал яласа, касалликнинг каттаси унга яқин йўлламайди”.

Сурада асаларичиларнинг намунали ҳаёт тарзи ҳақида оятлар мавжудлиги учун унга шу ном берилган.

Тадқиқот методологияси

Наҳл сурасида Олам – табиат борлиғининг ҳикмат билан яратилганлиги, биосферадаги табиий экологик мутаносибликлар, мувозанат, хилма-хил экотизимлар “ўлик” ва “тирик” ерлар, тоғлар, “ўтлоқлар”, “чорва моллари”, уларнинг зийнат учун – отлар, хачирлар, эшаклар (биота-С.Х.), денгиз ва ер маҳсулотларидан олинадиган тақинчоқлар, турли экинлар: зайтун, хурмо, узум ва мевалар; ҳақида эзгу иш қилувчилар ҳақида кенг ахборот берилган.

Ҳар бир оят шу қадар сермаъноники, унинг реал, объектив ҳаёт фактлари билан аниқлиги инсонни лол қолдиради.

Асаларичилик эрамиздан 15 минг йиллар олдин ривожланган бўлса-да, 1848 йилда биринчи марта Туркистонга, 1872 йилда эса Тошкентга келтирилди.

Суранинг 68-оятида: “...Раббингиз асаларичиларга ваҳий (бўйруқ) қилди: “Тоғларга, дарахтларга ва (одамлар) қурадиган нарсаларга ин қурингиз.

69 – оятда. Сўнгра турли мевалардан еб, Правардигорингиз (сиз учун) қулай қилиб қўйган йўллардан юрингиз!” Уларнинг қорнларидан одамлар учун шифо бўлган турли рангдаги шарбат (асал) чиқур. Албатта, бунда фикр юритадиган қавм учун аломат бордир.”[3]

Биргина мана шу икки оятни таҳлил этсак. Ҳақиқатдан ҳам асалари биосферадаги энг митти тур бўлса-да, биосфера миқёсида энг катта зарурий ҳамда ўта фойдали фаолият юритади. Асалари табиат борлиғидаги меъёрларга қатъий амал қиладиган энг кучли ва энг қудратли, фидойи, жуда меҳнаткаш мавжудотдир.

Юсуф Ҳамадоний, Абул Фаррож табиат борлиғи, инсон ва табиат тизимида ҳадд, меъёр приницини ўзак сифатида кўрсата олган бўлсалар, Жалолиддин Румийда меъёри принципини ёритиш билан бир қаторда биологик хилма-хиллик, уларни ҳар бирининг

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

табиат борлиғидаги функцияларини жуда ибратли мисоллар орқали ёритиш устунлик қилган.

“Арилар ҳам турфадирким, ҳар маҳал
Биттаси заҳру, бири йиққай асал.”[1]

Жалолиддин Румий назаридан бир тур ўрнини-функциясини биологик ибора билан айтганда, оламда бажараётган ишини иккинчи бир тур асло бажара олмаслиги алоҳида уқтирилган:

“Болари этган юмушни, йўқ шак,
На арслон удда айлар, на эшак”[1].

Асалари мисолида фалсафадаги меъёр категориясининг амалий аҳамиятини чуқурроқ англаш учун қуйидаги чизмани диққатингизга ҳавола этишни лозим деб топдик. Зеро, асаларидек жажжи бир мавжудот Оламга келиб, ўз ҳаддини (меъёрини-С.Ҳ.) билиб, одоб билан яшаркан, нега биз одамлар Оламдаги буюк тартибот, ҳад, меъёрга амал қилмай яшаймиз, Табиат борлиғининг сарҳадларини бузамиз. Биз табиий-экологик меъёрга қараб яшашни, меҳнатсеварликни саховат ва олийжанобликни асаларидан ўрганишимиз лозим эмасми? Ўзингиз ўйланг, шира қидириб бораётган асаларининг тезлиги 60 метр/соат бўлса, шира тўлиб келаётган пайтдаги тезлиги 30-35 м/соатга камаяди. Ахир у биз ва сиз истеъмол қиладиган асалнинг хом ашёсини олиб келаябди.

Табиат борлиғи мукаммал яратилган. Табиат борлиғидан инсониятга берилаётган нозу-неъматлар ниҳоятда чексиз...Барча ўсимлик ва ҳайвонот олами табиат борлиғидаги меъёрга амал қилади. Барча мавжудот ўз табиий-экологик меъёр чегарасидан асло чиқмайди. Инсон ушбу табиат борлиғидаги меъёрларни ўрганиб, унга амал қилсагина оламда экологик инқироз асло рўй бермайди.

Асалари 100 граммгина асал йиғиши учун 46 000 километр масофани, бошқача сўзлар билан айтганда, Ер шари экваторини бир марта айланиб чиқадиган - тенг масофада учаркан.

Жалолиддин Румий табиат оламидаги бу мурғаккина ҳашаротга атаб икки мисра ёзадиларки, бу унинг форс-тожик тилида битилган икки мисрада
табиат борлиғидаги ҳикмат тўла ифодасини топган:

Хонаҳо созанд аз ҳалвои тар,
Ҳақ бар он ки илмро бикшод дар.
Таржимаси:
Ҳақ таъоло илми бирлан бол ари,
Хона тиклайди тўла ҳолвалари.[4]

Асалари оиласи бўлиши учун **Она асалари** (Беруний иборалари билан айтганда, **йаассиб)** 1 дона: Эркак ари (**Трутни**) бир неча юз дона: **ишчи асалари** мингдан юз мингтагача бўлиши лозим. Бу миқдорий мутаносиблик сақлангандагина “оила” фаолиятига путур етмайди. Она асалари**-йаассиб** барча оила аъзоларига ишларни тақсимлаб беради, қайси бир асалари хона тозалигига, қайси бири хона ҳароратига, қайси бири эшик соқчилигига, яна бири нектар олиб келишга, бири уя ичидаги хоналар қурилишига жиддий масъул этиб тайинланган. Асаларининг экологик меъёрларидан Она асалари меъёригина **лимитрик[5]**, яъни асосий ёинки, бошқа табиий-экологик меъёрларни бошқарувчи ва марказий меъёр саналади. Фикримизни ёрқинлаштириш учун юнон тарихчиси ва ёзувчиси Ксенофонтнинг Она асалари ҳақидаги ибораларини келтирсак: “Она

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

асалари хонада қолиб, ҳеч бир асаларини ишсиз ўтиришга йўл қўймайди. Ҳамма ариларга иш топиб, улар олиб келган асал хом ашёларни текшириб, қабул қилади, уларни ўз ўрнига жойлаштиради. Уя хоналарининг чиройли ва мустаҳкам бўлишини, уларга асал маҳсулотларини тўлиқ жойлаштирилишини кузатади», уя ҳароратини мўътадиллигига алоҳида эътибор беради. Навбатчи, соқчи асаларилар ҳам анчагина бўлиб, улар арихона «эшиги» олдида туриб, душманларнинг кирмаслигини таъминлайди. Фақатгина Она асалари ишламайди, аммо унинг ўз биологик функцияси бор". Она асаларининг биологик функцияси авлодни кўпайтиришдан иборат бўлиб, у уруғланган ва уруғланмаган тухумлар қўяди. Уруғланмаган тухумлардан эркак арилар (трутни), уруғланган тухумлардан ишчи асаларилар ривожланади.

Асаларларнинг ҳаёт тарзи инсонлар учун беқиёс ибрат намунасидир. Асаларларнинг тириклиги чаманзорлар, яйловлар, мевазор-боғлар, пахтазорлар, ўрмонлар ичида ўтади. Гул ширалари бу жажжи – мўжаз жониворнинг таомидир. Илмий манбаларда уқтирилишича асаларилар камида 3000 хил ўсимлик гулидан шира-нектар йиғади.

Асаларилар нектарида қанд моддаси 4,25%дан кам бўлган гулларга асло қўнмайди. Бу миқдор унинг пастки меъёр чегарасини билдиради. Нектарда қанд моддасининг меъёрдан камлигини қандай билади? – деган савол туғилиши табиий. Асаларининг ҳар бир мўйловида 15 000 жуфтдан 500 000 жуфтгача ҳид билиш аъзолари бор. Мабодо ҳидли моддани 1:1500 нисбатда эритсак, ўша ҳидни ҳам асаларилар пайқаш қобилиятига эга. Шу сабабли ҳам ер юзидаги уни энг нозик дегустатор десак, асло муболаға қилмаган бўламиз. Бошқача иборалар билан айтганда ҳид билиш сезгиси инсонникига қараганда жуда-жуда кучли. **Демак, юқоридаги фикрлардан шундай хулосага келинадики, асаларларни йўқотмаслигимиз учун биз – инсонлар атмосфера ҳавосини ҳар доим тоза сақлашимиз лозим. Ҳар қандай чиқинди маҳсулотларни ёқиш, кимёвий чиқитларни ҳавога юбориш асалари оилаларининг йўқолишига сабаб бўлади.**

Фақатгина бир ўсимлик гулидан асал йиғадиган асаларларни **монофлерли асаларилар**, ҳар хил гул нектарларидан асал йиғадиганларни эса **полифлерли асаларилар** деб ажратилади. Бир килограмм асал йиғиш учун 10 миллион дона гулга қўнади. Бу вақт ичида ҳар бир асалари ўз уясига 120-150 марта қатнайди. Асалари ўз уясидан 14 километргача масофага учиб боради. Учиш тезлиги соатига 65 километрга етади. Шира олиб қайтишда бу тезлик 35 километрни ташкил этади. Масалан, асалари уяси олтибурчакли табиат мўжизасидир. Хўш, нега уялар олти бурчакли? Тўрт ёки уч бурчакли эмас. Олти бурчакли хоналарга асал тўрт ёки уч бурчакли хоналарга нисбатан кўпроқ сиғар экан. Асал ари хонаси бурчаги $109^{0}28'$ га тенг. 9600 бурчакли хонага жами 4 килограмгача асал йиғилади. **Энг қизиғи, асалари ўзи йиққан асалнинг юздан бир қисминигина истеъмол қилади, қолган 99%ини инсонларга туҳфа қилади.** Табиатда асал бермайдиган асаларилар ҳам мавжуд. Уларнинг ҳам табиат борлиғида ўз вазифалари бор. Мавлоно Румий табиат борлиғидаги хилма-хилликни кўриб, улар орасидаги боғлиқлик, ўзгаришларни кўриб Ҳақ илмини мукаммаллигига таҳсин айтади.

Ўсимликлар орасида хурмо, қовун худди асалари сингари ўзини инсониятга бахшида этган бўлса, жажжи асалари ҳам худди улардек фидойи.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Асаларининг маҳсулотлари:

I. Асал
II. Асалари муми
III. Прополис
IV. Перга
V. Асалари заҳри
VI. Бачадон сути
VII. Ўсимлик чанги

Асалнинг ҳар бир томчиси таркибида 70дан ортиқ саломатлик учун фойдали моддалар - микроэлементлар бор. Бошқа ҳеч бир табиий маҳсулотда бунчалик асалдагидек кўп микроэлементлар бўлмайди. Асал таркибидаги угдеводлар - глюкоза ва фруктоза оддий шакарга қараганда қонга тез сўрилади. Мушаклар кучини сақлашга, ўсишга ёрдам беради. Асални истеъмол қилиш иммунитетни кучайтиради ва организмга фойдали таъсир қилади. Асал - витамин, оқсил ва минерал моддаларга бой. Асал таркибидаги витамин ва минерал моддалар орасидаги миқдорий мутаносиблик оптимал даража бўлгани туфайли жуда организмга ижобий таъсир кўрсатади. Асалдаги витаминлар синтетик витаминдан катта фарқ қилади, асалдаги витаминлар фойдалироқдир.

Қуръони каримдаги “Наҳл” сурасининг изоҳини Жалолиддин Румийнинг боларига бағишланган мисралари мантиқий изчилликда ишда ўз изоҳини топган. Бу “митти” жониворнинг биосфера олдидаги улкан функцияси ҳақида фикр-мулоҳаза юритишни лозим деб билдик.

Демак, турлар хилма-хиллиги сақланиши шарт. Бошқа жойда:

“Ер ҳалолдир – бехиёнат ҳар маҳал
Экканингни қайтариб бергай тугал.”

- деб ёзган мисраларида ер билан муомала қилишдаги “Қайтариш қонуни” (В.Р.Вильямс қонуни); барча тирик ва нотирик, ўсимлик ва жонзот алоқадорликлари “Бутун коинот бир-бирига муҳаббат риштаси ила боғлангандир”(Шамс Табризий – С.Х.) детерминизм нуқтаи назаридан ҳартомонлама илмий таҳлил этилган. Франциялик машҳур адиб ва файласуф Виктор Гюго: “Таълим дин асосида бўлиши лозим, шундагина яхши одамлар етишади” деган[6]. Бу файласуф эътирофига кўра ҳар бир таълим олувчининг салоҳиятли бўлиб шаклланиши учун диний ва дунёвий илмлар зарурдир.

Меҳнатсеварликни, олийжанобликни, муравватни, табиат оламидаги ҳад (меъёрни) бузмасликни асаларидан ўрганишимиз лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Жалолиддин Румий. Ҳикматлар. Т.: “ Шарқ”. 2008
2. Саламова Х.Ю. Мера – как философская категория. Бухара. Изд.”Дурдона”. 2018. 186 Б.
3. Саломова Х.Ю. Меъёрнинг фалсафий моҳияти ва амалий аҳамияти. Бухоро. “Дурдона” нашриёти. 2018. 196 Б.
4. Саломова Х.Ю. Ижтимоий экология асослари. Т.: “FAN VA TEXNOLOGIYA” 2004.158 Б.
5. Саломова Х.Ю.,Тўлаганов А.А. Шарқ архитектурасида гўзаллик ва меъёр.(Гувоҳнома №654-355).Бухоро.: “Дурдона”.2019.148 Б.
6. Саййид Мубашшир Тарозий. Соф табиат дини. Т.:”HILOL-NASHR”. 2013.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

7. Қуръони Карим.Т.: “Тошкент ислом университети” нашриёти. 2001.

ЖАМИЯТ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҒОЯ МАСАЛАСИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ АҲАМИЯТИ

Аббосова Шохида Турдалиевна
Фарғона давлат университети
“Ўзбекистон тарихи” кафедраси ўқитувчиси
Email: snishonava@bk.ru

Аннотация: *Мазкур мақолада жамият барқарорлигини таъминлашда миллий ғоя масаласининг долзарблиги илмий-фалсафий аҳамияти очиб берилган. Миллий ғоя жамият тараққиётининг янги босқичида шахс дунёқарашининг ўзгаришини янгича юксалиш зарурлиги ўрганилган. Жамиятдаги миллий ғоянинг жамият юксалишидаги хусусияти барқарорликни таъминлаши илмий асосланган.*

Калит сўзлар: *Миллий ғоя, ғоя, жамият, барқарорлик, миллий қадриятлар, умуминсоний қадриятлар, маънавий таҳдид, тараққиёт, ёшлар*

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ РОЛЬ ПРОБЛЕМЫ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОСТИ ОБЩЕСТВА

Аббосова Шохида Турдалиевна
Ферганский государственный университет
Преподаватель кафедры “История Узбекистана”
Email: snishonava@bk.ru

Жаҳон адабиёти тараққиётига салмоқли ҳисса қўшган америка адиблари асарларини ўзбек тилига таржима қилиш жараёни асосан XX асрдан жадаллашди. Ўзбекистонда бир нечта америка ҳикоялари тўплами турли йилларда таржима қилиниб нашр этилган, шунингдек Т.Драйзернинг кўплаб роман ва ҳикоялари, В.Ирвинг ҳикоялари, Ф.Купернинг бир неча романи, Ҳ.Лонгфелло шеърлари, Ж.Лондоннинг ўнлаб жозибадор асарлари, Э.По, Ж.Рид, Ҳ.Фаст, Ж.В.Шульц каби адибларнинг шеърий ва насрий, шунингдек публицистик асарлари ўзбек ўқувчилари қўлига бориб етган, М.Твеннинг, Э.Хемингуэйнинг дунё адабиётида янгича услуб ва оқимларга негиз бўлган насридан китобхонларимиз баҳраманд. Аслиятдан ўгириш заруратини 30-йиллар бошида англаган Санжар Сиддиқ инглиз тилидан бевосита таржимага қўл урди. Аммо бу мутаржим қатағон қурбони бўлгач, бевосита таржима тарихида узоқ узилиш даври бошланди. Унга қайта жиддий ёндошув орадан қарийб қирқ йил ўтиб амалга ошди – 1972 йилда мутаржим Абдуқаҳҳор Иминов қатор америка ёзувчилари ҳикояларини инглиз тилидан бевосита таржима қилиб, нашр эттирди [1].

Тадқиқот методологияси

Мақолада халқ психологияси, миллий турмуш тарзи, маиший ва маданий ҳаёти, миллий анъана, урф-одатлар каби омилларни ўзида акс эттирувчи хос сўзларнинг таржимада бериш муаммолари ҳамда воситачи тил орқали амалга оширилган таржима нуқсонлари тадқиқ этилган. Таҳлиллар баробарида миллий-маданий компонентлар ҳисобланувчи хос сўзлар таржимасида эътибор берилиши лозим бўлган жиҳатлар тилга олинган, оптимал таржима усуллари таклиф қилинган.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Таҳлиллар ва натижалар

“Асарга ўймакорлик, жимжимадорлик киритаверган билан миллий руҳ туғдириб бўлмайди. Умумий тил воситаларидан ташқари, ҳар бир ижодкорнинг ўзига хос индивидуал услубидан келиб чиқадиган, таъбир жоиз бўлса, “таркибий миллийлик”, “услубий миллийлик”, “индивидуал миллийлик”, “даврий миллийлик”, “нутқий миллийлик”ни аниқлаш ва буни таржимада қандай акс эттириш йўлларини излаб топиш фақат ташқи миллий-этнографик белгилар, миллийлик компонетларини бериш йўлларини аниқлашга қараганда беқиёс мураккаб ва муҳим” [5, 83].

Таржимада энг тўғри усулни танлай олиш учун аслият матнидаги нотаниш хос сўзларнинг маъно-мазмунини тўғри англаб олиш муҳим. Нотаниш реалия – бу аслият матнига четдан киритилган реалиядир. Муаллиф уни асосан китобхонга нотаниш бўлган муҳит, халқ ҳаётидан маълум бир лавҳани тасвирлаш мақсадида киритади. Ушбу тушунчалар китобхон таржима асарини ўқиш жараёнида уларни қийналмасдан қабул қилиши ва шу билан бирга нотаниш миллий руҳиятни ҳис қилиб турадиган қилиб киритилиши керак. Муаллиф уларни беришда сал хатога йўл қўйдими, ўқувчи бу сўзларни атайин қўлланилган экзотика сифатида қабул қилади. “Асл нусхадаги тарихий ва миллий ўзига хосликнинг барча унсурларини сақлаб бўлмайди, лекин уларнинг орасидан шундайларини ушлаб қолмоқ керакки, натижада ўқувчида тарихий ва миллий муҳит тасаввури пайдо бўлсин”[6, 104].

Ҳар бир миллат кишисининг ўзига хос хусусиятларини тасвирлаш бадиий асарга миллийлик тусини беради. Таржимада миллий ўзига хосликни акс эттиришда у ёки бу халқ вакилига хос психологик ҳаракатлар, одат, қиёфа, муомала меъёрлари, хулқ-атвор ва маросимларини бера билиш таржимонлик маҳоратини белгилайди. Буюк америкалик ҳикоянавис О`Ҳенри ҳикояларининг миллий ўзига хосликларидан бири шундаки, муаллиф асарларида маълум услубий мақсадни кўзлаган ҳолда диний ва афсонавий реалиялардан кўплаб фойдаланади. Ушбу реалиялар ҳикояда ўз бадиий функциясига эга бўлганлиги учун таржимон уларни ўгиришда эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлиши керак. Ижодкор ўзбек китобхони ўзга дин тарихи, образлари, ўзига хос тушунчаларидан қай даражада хабардор эканлигидан келиб чиққан ҳолда иш кўриши лозим. О`Ҳенри асарларида таржимон бу борада қанчалик муваффақиятга эришганини ёки қандай хатоларга йўл қўйганлигини амалда кўриб чиқсак.

“Сеҳргарлар туҳфаси” ҳикоясидан бир мисол: О`Ҳенри: “The magi, as you know, were wise men, who brought gifts to the Babe in the manger” [7, 6]. Инглиз тилидан таржима: “Маълумки, янги туғилган Исога туҳфалар келтирган фаришталар жуда доно, фавқулодда олижаноб бўлганлар” [3,139]. Рус тилидаги таржима: “Волхвы, те, что принесли дары младенцу в яслях, были, как известно, мудрые, удивительно мудрые люди” [2, 277]. Рус тилидан таржима: “Охурдаги чақалоққа совға берган сеҳргарлар жуда доно бўлишган” [4, 21].

Ҳикояда икки севишган ўзларидаги энг қимматбаҳо нарсаларини сотиб, Рождество байрамига бир-бирларига мутлақо кераксиз бўлган совғаларни ҳадя қилишади. Муаллиф уларнинг муҳаббат йўлида келтирган бу қурбонликларини юксак баҳолаб, “аслида чинакам сеҳргарлар ҳам шулардир” деб қиссадан ҳисса чиқаради. Муаллифнинг ҳикоя сўнгида бевосита қаҳрамонлар тушган вазиятга нисбатан билдирган фикридан асарнинг ғояси аён

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

бўлади. Мана шу хулоса чиқарилувчи қисмида ёзувчи диний воқеа – Исо пайғамбарнинг дунёга келганида уни топиб, ҳадялар билан таъзим қилгани келган сеҳргарлар воқеасига мурожаат қилади ва ҳикоянинг икки қаҳрамонини ана шуларга тенглаштиради. Демак, бу диний воқеадан хабардор бўлган ўқувчигина муаллифнинг нимани таъкидламоқчи бўлганини кенгроқ тушуниб етади. Ушбу мисолда русча матнга таяниб иш кўрган таржимон реалияни сўзма-сўз ўгиради. Рус таржимони ўз халқининг диний эътиқодидан келиб чиқиб, тушунтиришларга берилиб ўтирмасдан аслиятдаги бор нарсани таржимага олиб ўтган, аммо билвосита таржима эгаси ўзбек китобхонининг ўзга дин тушунчалари тўғрисидаги билимини ҳисобга олмай матннинг ушбу қисмида тушунарсизликка йўл қўйган. Агар таржимон қисқа шаклда охур ичидаги чақалоқ воқеасини сатр остида изоҳлаб кетганида, таржима тили ўқувчиларининг бу борада тасаввури шаклланиб, асарни англаб етиши осон кечарди. Орадан йиллар ўтиб ушбу асарни инглиз тилидан бевосита ўгирган ёш таржимон Д.Бегматова “янги туғилган Исога туҳфалар келтирган фаришталар” дея бу ҳолатга бирмунча аниқлик кирита олган.

Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, О`Ҳенри ҳикояларида афсонавий, умуман олганда, ўз халқи тарихига мансуб реалияларни кўплаб ишлатади. Айниқса, бу ҳолат персонажлар нутқи тасвирида тез-тез кўзга чалинади. Шу сабабдан, О`Ҳенри асарлари таржимасида бу жиҳатга жиддий эътибор қаратиш керак бўлади. Бу масалани таржимон қай тариқа ҳал этганини кўриб чиқиш учун қуйидаги икки мисолга диққатингизни тортамиз:

О`Ҳенри: 1. “Oho! Won’t it? - thundered the champion of the root of evil. "You tell me where your exclusive circles would be if the first Astor hadn't had the money to pay for his steerage passage over?” [7, 33] Рус тилидаги таржима: “Ого! Неужто не могут? - прогремел защитник корней зла. - Ты лучше скажи, где был бы весь твой высший свет, если бы у первого из Асторов не хватило денег на проезд в третьем классе?” [2, 286] Рус тилидан таржима: “Ўҳ-ў, наҳотки, шунга қурби етмаса? – ўдағалайди мол-дунёга ҳирс қўйган чол. - Қани, бўлмаса айт-чи, Асторларнинг бобокалони пароходнинг учинчи классига тушиб, бу ерга келишга пул топа олмаганида, киборларнинг аҳволи нима кечарди” [4, 26].

2. “Well, of course, you can't order eternity wrapped up and delivered at your residence for a price, but I've seen Father Time get pretty bad stone bruises on his heels when he walked through the gold diggings” [7, 34]. Рус тилидаги таржимада: “Ну, разумеется, нельзя заказать, чтобы вечность завернули тебе в бумажку и доставили на дом за такую-то цену, но я сам видел, какие мозоли на пятках натер себе старик Хронос, гуляя по золотым приискам” [2, 287]. Рус тилидан таржимада: “Ҳа, албатта, вақтни қоғозга ўраб, фалон нарх билан уйга элтиб беринг, деб буюриб бўлмайди. Лекин шунга қарамай, кекса Хроноснинг олтин конларида жонини жабборга бериб ишлаганлигини мен ўз кўзим билан кўрганман” [4, 28].

Бунда “Хронос” ҳамда “Астор” тушунчалари эслатиб ўтилган бўлиб, муаллиф ўз одатига кўра, уларнинг бирини грек мифологиясидан (вақт тимсоли), иккинчисини Америка тарихидан олган ҳамда улар орқали мол-дунёга ҳирс қўйган қаҳрамони характерини тўлақонли оча олган. Ҳатто аслият ўқувчиларининг ҳам барчаси билавермайдиган бу реалияларни ўзбек китобхони тарихий манбаларга мурожаат қилмай қандай англаши мумкин? Таржимон бу ҳолатда, биринчидан, таржима китобхонига нотаниш бўлган тушунчаларни шундайлигича тақдим этиб, тушунарсизликни келтириб чиқарган, иккинчидан, сатр ости изоҳи ҳам бермай, ўқувчи олдида яна тўсиқ пайдо қилган.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Биринчи мисолда бош қаҳрамон Янги дунёга сузиб келган инглиз киборларига ишора қилиш орқали оқсуякларни мазах қилади ва пулнинг кучини бўрттирмоқчи бўлади. Иккинчисида эса, вақт олтин изловчиларга хайрихоҳлик қилиб, уларнинг бойликларига бойлик қўшганлигини айтиб, яна олтиннинг қудратини кўрсатади. Ана шу миллий қирралардан бебаҳра бўлган ўқувчи муаллифнинг мақсад-муддаосини қандай тушунсин? Эҳтимол таржимон америкаликларнинг ўзига хос тушунчаларини акс эттириш мақсадида уларни шундайлигича беравергандир. Бироқ асар услуби ва унда тасвирланган халқнинг миллий ўзига хослигини акс эттиришдек асосий мақсадни рўёбга чиқариш бош масаладир. “Таржима “ўзининг” ўқувчиси учун қилинади; агар матнга шундайлигича олиб ўтилган реалиялар ўқувчи идрокидан ташқарида қолса, демак, таржиманинг коммуникатив мақсади амалга ошмаган бўлади”[15].

Навбатдаги мисолда ҳам ҳолат шунга яқин: О`Ҳенри: “Bill says: Sam, do you know who is my favourite Biblical character? King Herod [7, 194]. Рус тилидаги таржима: “Сэм, знаешь, кто у меня любимый герой в Библии? Царь Ирод [2, 95-96]. Рус тилидан таржима: “Билл айтди: Сэм, менинг Тавротдаги энг севган қаҳрамоним ким эканлигини биласанми? Шоҳ Ирод” [4, 135-136].

Ҳикоя қаҳрамони Билл ўз назоратидаги шум боланинг қилиқларидан азбаройи қийналиб кетганидан Тавротдаги ёвуз шоҳ Ирод образига ҳавас қилиб, уни тилга олади. Ўзбек мутаржими билвосита таржимага таяниб реалияни яна шундай шаклда таржима матнида берган. Ўзбек тилидаги таржима ўқувчиси, табиийки, биринчи навбатда, эътиборини асар қаҳрамонининг кулгили аҳволига эмас, Шоҳ Ироднинг ким эканлигини аниқлашга қаратади. Ахир таржимада нотаниш диний тушунча берилган ва бу ҳақида ҳатто контекстдан қўшимча маълумот олиш имкони йўқ. Агар саҳифа остида “Буюк шоҳ Ирод биринчи. Христиан афсоналарига кўра, Исонинг туғилиши ҳақида ваҳий келганидан сўнг ёвуз шоҳ мамлакатдаги барча янги туғилган чақалоқларни йўқ қилишни буюрган”, дея қисқача изоҳ бериб кетилганида, Биллнинг бу шумтака чиқараётган муаммолардан қанчалик безиб кетганлиги ҳолатини таржима тили ўқувчиси дарров илғаб олган бўларди. Бу рус тили орқали билвосита таржиманинг камчиликларига яна битта мисол бўлди.

Қуйидаги мисолларда вазият яхшиланган, чунки рус тилидаги талқинда сатр ости изоҳи мавжуд бўлмаса-да ўзбек таржимони уларни бериб, мустақил тадбир қўллаган:

О`Ҳенри: 1. “For these things Cupid will have to answer when he stands at the bar of justice” [7, 271]. Рус тилидаги таржима: “За эти дела Купидону придется ответить, когда он предстанет перед страшным судом” [2, 221]. Рус тилидан таржима: “Бу қилмиши учун Купидон* қиёмат куни жавоб беради”. Сатр ости изоҳи: Купид, севги тангриси (тарж.)” [4, 46].

2. “But don`t forget to burn a few punk sticks in the joss house the the great god Mazuma” [7, 34]. Рус тилидаги таржима: “Не забывай только время от времени воскурять фимиам на алтаре великого бога Маммона” [2, 287]. Рус тилидан таржима: “Улуғ тангри Маммоннинг* меҳробида вақти-вақти билан хутба ўқишни унутмагин. (изоҳ: Қадимги грек ва Сурия афсоналарида мол-дунё ва пулга ҳирс қўйиш худоси)” [4, 28].

[15] Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: ИМО, 1980. – С. 102.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Шундай образлар бўладики, улар бир миллатнинг яратган маҳсули бўлса-да, оммалашиб кетгани сабабли бора-бора тўлалигича халқаро хос сўзларга айланиб қолади. Улар барчага бирдек таниш бўлгани учун ҳам маълум миллат адабиёти асарида ҳеч қандай изоҳсиз қўлланилиши ҳамда муаллиф кўзлаган зарурий эмоционал таъсирни етказиб бера олиши мумкин. Масалан, Дон Кихот образи ўзбек халқи онгида дарбадар, ночор, хаёлотга ўта берилгани учун ҳаммага кулки бўлиб юрадиган, лекин софкўнгил ва виждонли испан рицари сифатида мухрланган. Таржимон китобхон оммасининг бу борадаги билим даражасидан келиб чиқиб, Дон Кихотга муқобил вариант қидириш ўрнига уни халкаро реалия сифатида таржима матнига киритиб, тўғри йўл тутган:

O`Ҳенри: “It seemed that the collodion-scented Don Quixote and the smallest minted coin were strangers” [7.3]. Рус тилидаги таржима: “Казалось, этот пропахший коллодием Дон Кихот и самая мелкая монета никогда не имели друг с другом ничего общего” [2, 275]. Рус тилидан таржима: “Ҳамиша коллодий ҳиди анқиб турадиган бу Дон Кихот умри бино бўлиб косаси оқармаган, қўлига ҳатто энг майда чақа ҳам ушламаган кўринади” [4, 109].

Худди шу мисолда қаҳрамоннинг ғариб ҳолатини тасвирлаш ва асарнинг ўқилишида силлиқликни таъминлаш мақсадида таржимон “косаси оқармаган” бирлигини муваффақиятли ишлатган. “Майда танга” тушунчасига муқобил “майда чақа” ҳам ўринли қўлланилган.

Хулосалар

Миллийликни акс эттиришда таржимон учун энг муҳим ва мураккаб вазифа – реалияларни қайта тиклашдир. Таржималардаги энг кўп қусурлар ҳам айнан турмушга хос тушунчалар билан боғлиқ бўлиб қолмоқда. Маданияти, дини, турмуш тарзи ўзбекларникидан тубдан фарқ қилувчи америка реалияларини таржима қилиш ва китобхонга тушунарли шаклда етказиш ҳар доим ўзбек таржимони олдига қатор мураккаб масалаларни қўяди. Юқорида таҳлил этилган мисоллардан кўриниб турибдики, хос сўзлар таржимасида ҳар бир ҳолатда ўзига хос тадбир қўлланган. Аслият миллий руҳини бекаму кўст қилиб яратишда асосий юк миллий турмуш тушунчаларини англатадиган сўзлар таржимасига тушар экан, уларнинг қайта талқинига ўта жиддий ёндашув талаб этилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Олтин сароб. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 264 б.
2. O`Генри. Рассказы. – Ташкент: Укитувчи, 1987. – 336 с.
3. Олтин кўприк. – Тошкент: Ношир, 2010. – 204 б.
4. O`Генри. Ўғрини қароқчи урди. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1964. – 164 б.
5. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – Б. 83.
6. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1983. – Б. 104.
7. O`Henry. Best stories of O`Henry. – New York: The sun Dial Press, 1945. – P. 338.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

UDK: 811.531

O‘ZBEK VA KOREYS TILIDAGI RASMIY XATLARINING MADANIY BOG‘LIQLIGI VA O‘ZBEK TILIDAGI TARJIMASIDAGI O‘ZGARISHLAR

Amirova Latofat G‘aybulla qizi
2-bosqich magistranti,
Toshkent Davlat Jahon Tillari Universiteti
Ilmiy rahbar: PhD. Yunusova G.D.

Annotatsiya. *Maqolada koreys va o‘zbek tilidagi rasmiy xatlarning tarjimasi, uning umumiy xususiyatlari, qonun hujjatlarida qo‘llanilgan umumtil xususiyatiga ega leksik birliklari, uslubi, vazifasi hamda rasmiy yozishmalarining madaniy bog‘liqligi va o‘zbek tilidagi tarjimasi davomidagi muammolar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *madaniy bog‘liqlik, tadbirkorlar o‘rtasidagi yozishmalar, o‘zbek tili, koreys tili, tarjima, farqlar.*

Аннотация. *В статье анализируются перевод официальных писем на корейский и узбекский языки, его общие черты, лексические единицы с универсальными признаками, используемые в юридических документах, стиль, функция и культурная значимость официальной корреспонденции, а также проблемы при переводе на узбекский язык.*

Ключевые слова: *культурная связь, переписка между предпринимателями, узбекский язык, корейский язык, перевод, различия.*

Abstract. *The article analyzes the translation of official letters in Korean and Uzbek, its general features, lexical units with universal features used in legal documents, style, function, and cultural relevance of official correspondence, as well as problems during translation into Uzbek.*

Key words: *cultural connection, correspondence between entrepreneurs, Uzbek language, Korean language, translation, differences.*

Kirish

Hozirgi kunda mamalakatimizda O‘zbekiston-Koreya hamkorlik aloqalari yanada mustahkamlanib borayotgan bir paytda, koreys tadbirkorlari tomonidan yurtimizdagi turli sohalarda invistitsya kiritilib, turli hududlarda koreys hamkorlik korxonalari soni kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa tilshunoslik sohalarining yanada rivojlanishiga katta omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek va koreys tilidagi rasmiy yozishmalarida ular umumiy mulk sifatida qayd etilgan bo‘lib, farqlari ham qayd etilgan. Koreys biznes xatlari yuqori darajadagi hushmuomalalikni talab qiladi. Bu esa xatto koreys millatining o‘zlariga ham qiyinchilik tug‘diradi. Koreyada offis xodimi bo‘lgandan keyin elektron pochta orqali hisobot, ish rejasi, so‘rovnoma kabi rasmiy hujjatlarni yuborishga to‘g‘ri keladi. “Samyan”[1] ish topib beruvchi kompaniyasining izlanishlariga ko‘ra offis ishchilarining 88% “Hujjatlarni yozishda stress olganman” deya jabvob berishgan. Shuning uchun ham koreys biznes yozishmalarini tarjimasi hamda o‘zbek rasmiy xatlarini ikki tilda tarjima qilishda nimalarga e‘tibor berish kerakligi bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Natijalar va muhokama

Rasmiy xatlar boshqa matnlar bilan ajralib turadigan maxsus birliklari alohida ajralib turadi. Ular hujjatlar matniga rasmiylik ko‘rinishini ta‘minlab beradi, hamda ongimizda ma‘lum bir qolib shaklida saqlanib qoladi. Xususan koreys tilida “하고자 하다” [Hagoja hada], “도록 하다” [Dorok hada] fe‘llarining o‘zbek tilidagi tarjimasi “~moqchimiz”, “~sh niyatidamiz” deya tarjima qilinadi. Bunda koreys tilida eganing ko‘plik yoki birlik shaxsga mansubligi nomalumligicha qolsada, o‘zbek tilida hurmat ma‘nosida albatta ko‘plik shaxsda yoziladi.

안녕하세요. [annyeonghaseo]

홍보팀 OOO 입니다. 사내 홍보 강화를 위해 홍보팀 주최 회의를 진행하고자 합니다. [ho’ngpo’tim OOOimnida. Sane ho’ngpo’ kanghvaril uiye ho’ngpo’tim chuchue hueril chinhenghago’ja hamnida.]

1.일시:2017 년 2 월 23 일 오후 3 시~4 시 [ilshi 2017nyon 2 uol 23 il o’hu 3 shi~ 4shi

2. 장소: 5 층 소회의실 D 룸 [changso: 5 ching so’hueiyshil D lum]

3.참석자: 홍보팀 전원 및 마케팅팀 실무 담당자 [chamsokja: ho’ngpo’tim chongvon mit maketingtim shilmu tamtangja]

*부득이하게 참석이 어려우신 경우, 회신부탁드립니다. [butikihage chamsogi oryoushin kyongu, hveshinputaktirimnida]

4. 안건: 사내 홍보 강화를 위한 방안 [angon: sane ho’ngpo’ kanghvaril uihan pangan]

감사합나다! [kamsahamnida]

Ushbu elektron pochta orqali yuborilgan taklifnoma xatini yozishda birinchi navbatda yuboruvchi shaxsini tanishtirib, xat mazmuni qisqacha bayon qilingan. Qo‘shimcha tarzda yozilgan so‘rov oxirida “부탁드립니다” [putaktirimnida] deya ifodalangan. O‘zbek tilida ham shunday murojatlar yakunida “Iltimos qilib qolamiz” deya yakunlanishi ikki millat o‘rtasidagi madaniy bog‘liqliklarga yaqqol misol bo‘la oladi. Va albatta har bir xat yakunida “감사합니다” [kamsahamnida], “수고하세요” [sugohaseyo], “업무에 수고가 많으십니다” [obmue sugoga manishimnida] deya iltifot bilan yakunlash tabiiy holatlardan biridir. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek tiliga tarjima qilishda qiyinchilik tug‘diradi. Masalan "업무에 수고가 많이십니다” gapini o‘zbek tilida bunday ifoda yo‘qligi sababli ko‘pgina tarjimonlar ushbu gap tarjimasini tushirib qoldirish holatlari ham uchraydi. So‘zma so‘z tarjima qilib tushunmovchilikni oldini olish maqsadida bir xil ma‘no beruvchi ifodalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bilamizki, tarjima jarayonida muallif va tarjimon orasida doim kurash, raqobat tinimsiz ko‘rinishda davom etib boradi. Ya‘ni, tarjimon o‘z faoliyatini olib borayotganida muallifni matnini boyitishga yoki qisqartishga urinishlar bo‘ladi. Chunki tarjima qilingan asarning barcha ma‘suliyati tarjimon qo‘liga o‘tadi.[2]

O‘zbek tilshunosligida ham rasmiy hujjatlar matnida konselyarizmlar ajratilgan, ularning mohiyati, matn hosil qilishdagi ahamiyati qayd etilgan. Konselyarizmlar rasmiy matnni tuzishda nihoyatda zarur.[3] Bu haqda fikr yuritar ekan, prof. Mahmudov quyidagilarni bayon qiladi: “Rasmiy ish qog‘ozlari, umuman, idoraviy yozishmalar uslubida doimiy qo‘llanadigan, turg‘unlashgan, qoliplashgan so‘z, so‘z birikmasi va iboralar ham mavjudki, ularni ishlatishda aqlga kuch kelmaydi, ular ayni uslubda matn tuzishda nutqiy odatga aylangan. Tilshunoslikda idoraviy so‘z va iboralar yoki konselyarizmlar deb yuritiladigan bunday birliklar hujjatlar tili uchun zaruriy unsurlardir, chunki ularning qoliplashganligi ham nutq tuzishni, ham bu nutqni jadal tushunishni sezilarli darajada qulaylashtiradi”.[4]

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O‘zbek tilshunosligida ham rasmiy hujjatlar matnida konselyarizmlar ajratilgan, ularning mohiyati, matn hosil qilishdagi ahamiyati qayd etilgan. Konselyarizmlar rasmiy matnni tuzishda nihoyatda zarur.[5] Bu haqda fikr yuritar ekan, professor Mahmudov quyidagilarni bayon qiladi: “Rasmiy ish qog‘ozlari, umuman, idoraviy yozishmalar uslubida doimiy qo‘llanadigan, turg‘unlashgan, qoliplashgan so‘z, so‘z birikmasi va iboralar ham mavjudki, ularni ishlatishda aqlga kuch kelmaydi, ular ayni uslubda matn tuzishda nutqiy odatga aylangan. Tilshunoslikda idoraviy so‘z va iboralar yoki konselyarizmlar deb yuritiladigan bunday birliklar hujjatlar tili uchun zaruriy unsurlardir, chunki ularning qoliplashganligi ham nutq tuzishni, ham bu nutqni jadal tushunishni sezilarli darajada qulaylashtiradi”.

Quyidagi elektron so‘rovnoma tarjimasining o‘ziga xos uslublarini tahlil qiladigan bo‘lsak;

안녕하세요, [annyeonghaseo]

OO 웹사이트 리노베이션 프로젝트에 저희 팀에서 참여하는 것을 요청하셨는데 현재 진행 중인 OO 프로젝트 최종 보고가 11 월 20 일이라, OO 프로젝트 제안서 제출마감과 겹칩니다. [OO uebsait linobeishon projektie chohue timeso chamyohanin gosil yochonghashyonninde hyonje chinheng chungin OO projekti chuechong po’goga 11 uol 20 irira, OO projekti cheanso chechulmagamgva kyopchimnida.] A 팀장님과 잠깐 논의해 보니, 최근에 비슷한 프로젝트를 해봤고 여유가 있는 상황이라서 OO 프로제트 참여가 가능하다고 합니다. 이번 프로젝트는 A 팀과 진행하시는 게 어떨까요? [A timjangnimgva chamkan no‘nehe po‘ni, chuegne pisithan projektiril hepuatgo yoyuga innin sanghvangiraso OO projekti chamyoga kaninghadago hamnida. Ibon projektinin A timgva chinhenghashinin ge ottolkayo?]

그럼 검토해주시기 바랍니다. [krom komtohe chushigi paramnida]

Tarjima:

Assalomu Alaykum,

OO Vebsayti qayta tiklash loyihasida bizning jamoamizning ishtirok etishi bilan bog‘liq so‘rovingizga binoan, hozirgi kunda amalga oshirilayotgan loyihaning yakuniy hisoboti 20-noyabr kunida belgilanganligi, OO loyihasi taqdimot hisobotini topshirish kuni bilan bir kunda to‘g‘ri kelgar ekan.

A guruhi yetakchisi bilan biroz maslahatlashish natijasida, yaqinda shunga o‘xshash loyihani amalga oshirganligi va uddalashga ko‘zlari yetishi munosabati bilan OO loyihasida ishtirok eta olishlarini ma‘lum qildilar. Ushbu loyihani A guruhi ishtirokida olib borish haqida qanday fikrdasiz? (A guruhi boshlig‘ini ham ushbi elektron pochta ma‘lumotiga qo‘shdim)

Fikringizni bayon etishingizni iltimos qilaman.

Koreys tilidagi rasmiy murojatni namunada ko‘rishingiz mumkinki matn mazmuni o‘zbek tiliga tarjimasiga qaraganda qisqa va lo‘nda qilib yozilgan. Koreys tilidagi ba‘zi jumlalar masalan: “요청하셨는데” [yochonghashyoninde] so‘zi o‘zbek tiliga “so‘ragan edingiz, ammo” deya tarjima qilib o‘quvchiga murojatning qo‘pollik ta‘surotini qoldirmaslikni oldini olish maqsadida “Ishtirok etishi bilan bog‘liq so‘rovingizga binoan” deya ifodalandi. Shuningdek, “여유가 있는 상황이라서” [yoyuga innin sanghvangiraso] so‘zini esa “Uddalashga ko‘zlari yetishi munosabati bilan” deya tarjima qilindi. Shu bilan birga, gap yakunida ushbu so‘rovnomani o‘qib mulohaza qilish so‘ralgan “그럼 검토해주시기 바람니다” [komtohe chushigi paramnida] jumlasini tarjima qilishda ham biroz o‘zgartirish kiritilib “iltimos qilaman” deya tarjima qilindi. Ammo mazmun mohiyati hamda muallifning aytmoqchi bo‘lgan gapida ma‘no jihatdan o‘zgarish bo‘lmadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, koreys tilidagi rasmiy xatlarda umumtil xususiyatiga ega leksik birliklar ustuvorligi kuzatiladi. Uning leksik qatlamidan uslubiy belgisi, vazifasi, rasmiy

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

matnni shakllantirishdagi o‘rniga ko‘ra farqlanuvchi birliklar, jumladan, uslubiy xoslangan leksik birliklar, umumtil nutqiga oid neytral birliklar hamda rasmiy matnni mantiqiy-semantik jihatdan shakllantiruvchi tayanch birliklar maqomidagi maxsus birliklar o‘rin olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Koreya Axborot rasmiy saytlaridan biri. https://www.saysamyang.com/
2. Milliy o‘ziga xos so‘zlarning o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi murakkabliklari.
Текст научной статьи по специальности «Языкознание и литературоведение».
Nadjimxodjayev Ma‘rufxo‘dja Sunnatovich.
3. Lutfullayeva D.E. Mustaqillik davri rasmiy-idoraviy ish uslubi taraqqiyoti. Monografiya. – Toshkent., 2020. – B. 31.
4. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashr., 2007. – B. 131, 146.
5. Lutfullayeva D.E. Mustaqillik davri rasmiy-idoraviy ish uslubi taraqqiyoti. Monografiya. – Toshkent., 2020. – B. 32.

THE BEST LITERARY ACHIEVEMENTS OF EASTERN AND WESTERN LITERATURE OF THE XX CENTURY IN THE FIGURE OF SADRIDDIN AYNI

Gulomova Ziyodakhon
PhD student of National University of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
E-mail: ziyodakhongulomova@gmail.com

Abstract. *The article provides an idea of the principles of development of Uzbek novel-writing, which took shape and entered the path of development during the 20th century, clarifying the communication relations of national literature and world literature of the literary and poetic development of the New School of novel-writing, as well as Eastern and Western literature of the 20th century. It is argued that the special place in the literature of the XX century is occupied by the works of Sadriddin Ayni.*

Keywords: *literature, society, human essence, writer, development of world literature, work, translation, artistic achievement, cultural property.*

ХХ АСР ШАРҚ ВА ҒАРБ АДАБИЁТИНИНГ ЭНГ ЯХШИ БАДИИЙ ЮТУҚЛАРИ САДРИДДИН АЙНИЙ СИЙМОСИДА

Ғуломова Зиёдахон
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети докторанти
E-mail: ziyodakhongulomova@gmail.com

Аннотация. *Мақолада ХХ аср давомида шаклланиб, ривожланиш йўлига кирган ўзбек романчилигининг ривожланиш тамойиллари, янги романчилик мактаби бадиий-поэтик тараққиётининг миллий адабиёт ва жаҳон адабиёти алоқа-муносабатларини ойдинлаштириш, шунингдек, ХХ аср шарқ ва ғарб адабиёти ҳақида фикр билдирилган. ХХ аср адабиётида Садриддин Айнийнинг ижоди алоҳида ўрин эгаллайди, деган хулоса илгари сурилади.*

Калит сўзлар: *адабиёт, жамият, инсон моҳияти, ёзувчи, тараққиёт, асар, таржима, бадиий ютуқ.*

ЛУЧШИЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ДОСТИЖЕНИЯ ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ XX ВЕКА В ФИГУРЕ САДРИДДИНА АЙНИ

Гуломова Зиедахон
Докторант Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека
E-mail: ziyodakhongulomova@gmail.com

Аннотация. *В статье дается представление о принципах развития узбекского романотворчества, которое сформировалось и вступило на путь развития в течение XX века, проясняются коммуникативные связи национальной литературы и мировой литературы, художественно-поэтическое развитие Новой школы романотворчества, а также восточной и западной литературы XX века. Утверждается, что особое место в литературе XX века занимает творчество Садриддина Айни.*

Ключевые слова*: литература, общество, человеческая сущность, писатель, развитие, произведение, перевод, художественное достижение.*

Introduction

It is known that by the XX th century there were great changes in the social, economic and political life of society. During this period, Science and Technology developed at an incredibly fast pace. In such conditions, by the middle of the twentieth century in Western countries, great attention began to be paid to the analysis of human essence, interests, the study of Eastern philosophy, which gives priority to humanitarian and justice values, issues of human spiritual perfection. The new Uzbek literature, which came to the field as jadid literature at the beginning of the XX th century, has grown so many great writers and poets over a hundred years of history that their works and creative achievements have contributed not only to the development of new Uzbek literature, but also to the development of world literature.

Literature analysis

After the Second World War, the works of Sadriddin Ayni and Oybek, and later by Abdullakh Kadiri, Abdulla Kakhkhor, Adil Yakubov, Pirimkul Kadyrov and other writers were also translated into the languages of the peoples of Europe and Asia and began to become cultural property of these peoples. Therefore, the works of these writers were considered as the works that correspond to the specimens of world literature, and they themselves were creative people who could be on a par with the current figures of world literature.

Research methodology

A special place in the history of centuries-old Uzbek literature is occupied by literature of the XX th century. In this century, Uzbek literature has mastered the best literary achievements of Eastern and Western literature, enriched with high works created in all types and genres of literary creativity.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Analyzes and results

The contributions of a number of writers are especially great in the conquest of great creative passes of Uzbek literature in the XX th century. They brought Uzbek literature and literary criticism to a new stage of development with their immortal prose and poetic works, scientific and literary-critical articles. There will be such poets and writers that they will gain fame between the works they wrote and people. An ordinary reader may not even know when and where they lived. But there are also such poets and writers that contemporaries, first of all, seeing and knowing what kind of person they are, either love and read the works written by them, or bypass them altogether, based on their vision of this. Most works in the world serve to make a person realize himself. The writer's skill causes the reader either to rise or to perish, that is, it is necessary to emphasize that literature irrigates our minds. And world literature expands our worldview, teaches us to look at the issue with a different eye. In order to study World traditions, politics, culture, spirituality, enlightenment, language circulation, it is necessary firstly to study the literature of the same state, after all, literature closely connects nations to the nation, people to the people, strengthens ties, causes peace and contributes to raising the individual to the level of personality.

Sadriddin Ayni, one of the writers among the writers whose works are read in love, is a great and inimitable writer of the XXth century. His path of life and creativity was in the complex and full-fledged traditions of socio-political and literary processes in the last quarter of the XIX century and the first half of the XX century. He received about twenty years of Madrasah Education, knew from within the emirate system as well as subsequent socio-political changes. Sometimes subjected to repression and discrimination, this great writer was able to present in his works as a major literary figure, one of the founders of new literature, which began to form in the early twentieth century, combining history and times in its own way with artistic depiction of the life of the people with all their complexity. While being alive Sadriddin Ayni was known in Western and Eastern countries as well as in Czech Dr. Irji Bechka, German Dr. Manfred Lorentz, Iranian professor Sayid Nafisiy, Afghan writer Sarvari as if Russian professor Alexander Boldirevs, our famous writers Gafur Gulam, Oybek, Kamil Yashin, Mirza Tursunzadeh and Zulfiyakhonim also pursued and recognized him as well-known Master.

In the XX th century, it is important to study such issues as the literary and historical sources of the historical novel, communication links of national literature and world literature, the specificity of the artistic structure, ways of development, factors, combining national literary and artistic traditions, experiences and Advanced Studies of World Art in its literary world, to draw certain scientific and theoretical conclusions. The study of the inter-literary process, in particular the artistic communication links of Central Asian literature, remains an urgent problem of Uzbek literary criticism. Especially in the first quarter of the XX th century, the study of cultural and educational, literary and aesthetic conditions, the path of its development, artistic and aesthetic features within the framework of world and Central Asian Literature, which created the "New School of novel-writing", founded by the great writer Abdullah Kadiri, is among the current problems of literary criticism. Inter-literary communication-links are a bright sign of friendship-brotherhood between peoples.

In Central Asian epic literature, novel-writing first arose and developed as a traditional historical novel. The multifaceted artistic and philosophical concept of the first national novel is based on national culture. The writer described history, its decisive, grandiose events, specific personalities based on the interests of the people, the motherland, humane ideas and ideals of the

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

hero, characters. M.Bakhtin had discovered that such a category of works belonged to the "Monological Literary World". “The Monological Literary World does not recognize the idea of alien thought, alien idea as an image. All ideological views are divided into two groups in such an area. The same opinions are truthful, significant from the point of view of the author..., while other thoughts and ideas are not correct, they are irrelevant." The main characters’ point of view is entirely objective, expressive eventual and the main character’s talent describes ethilism, man, personality and Monological Literary World makes basically a monologue discussion. It can be seen that the method of monological depiction of life and man helped novel-writing to more clearly state the folk views, to draw the attention of society to the world-wide problems that are relevant.

The writer imposes a big and serious task on the appearance of the characters: the apparent image of the favorite characters is well, while the image of negative characters emphasizes that they are evil and mischievous people. Seeing in proportion the appearance, physical structure of a person, his character, psychology-a common feature characteristic of the "original epic", examples of epic genres of folklore – folk poems, fairy tales, folk epics. In the works of the Indians "Makhabkhorat", "Ramayana", the Legends of the ancient Greeks about Hercules, Jason, Homer's "Iliad", "Odyssey", the Uzbek heroic epic "Alpomish", the appearance of negative characters in the "Book of Dada Kurghut" of the oghiz peoples, like their nature, are described as clumsy.

The novels of Sadriddin Ayni "Dokhunda" (1930), "Slaves" (1933) have a certain significance and place in Central Asian literary prose for their reflection in the political-ideological, artistic-poetic process of the 20-30s of the twentieth century, as well as the spirit of a complex period in their literary world. A huge poetic and literary source of Eastern and Western literature, the means bring closer to itself the works of one of the great writers of the twentieth century – Sadriddin Ayni in a large epic form. The literary and aesthetic world of the modern epic world of Sadriddin Ayni was effectively influenced by folklore genres, various artistic forms of Oriental classical literature. As the novel, which is a reflection (synthesis) of epic traditions, experiences of the East and West, introduces into its territory specific and artistic-poetic means of classical literature, subjecting them to the features of a composite, plot field, thus becoming the image methods of the novel genre.

This event can be clearly seen in the novels by Sadriddin Ayni. S.Ayniy is almighty Master of monological image as L.Talstay, A.Balzac. Both in “Dokhunda” and in “Slaves”, the speech, spiritual experiences of the characters, the author's thinking, worldview were manifested in the form of contemplation. On this basis, history, some of its events, personalities were evaluated. Sadriddin Ayni’s monological image in his works clearly shows the author's literary worldview, which is not devoid of multifaceted, complex period contradictions. The writer treated negative personalities in "Slaves","Dokhunda" as a literary image, in general, in a different way than works belonging to the "first wave" of Central Asian historical novel-writing. The appearance of evil persons is not overly negative, they are mainly reacted to through the literary image of action, speech, psychological states. In the formation and literary evolution of the Central Asian novel-writing, the novels "Dokhunda", "Slaves" have a special place. They show changes in form and content in the literary world of a large epic genre, the priority of realistic principles in the literary study of man, in particular, in the epic literature of the 60s and 80s, the chronotope, expressed in the novels of Sadriddin Ayni "Dokhunda", Chulpon "Day and Night", Oybek "Sacred Blood", was reworked from the point of view of the literary saturation of the new era, and its image territory expanded.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Conclusions

Early examples of the National School of novel-writing began with the traditional form of historical novels. In fact, such a novel, formed in European word art, has undergone serious qualitative changes as Central Asian Literature enters the literary territory. This large epic form, formed on the Western cultural and aesthetic ground and entering the stage of movement, development, began to transform and acquire new qualitative manifestations, both morphologically-poetically and in terms of artistic-ideological content, and according to the educational-cultural, physical-biological characteristics of the hero(s).

References

1. Жаҳон адабиёти дурдоналари: I жилд / Сўзбоши муаллифи ва масъул муҳаррир А.Х.Саидов. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2015. – 612 бет.
2. Жирмунский В. М., Сравнительное литературоведение и проблема литературных влияний, “Изв. АН СССР. Отд. обществ, наук”, 1936, № 3; Жирмунский В. М., Взаимосвязи и взаимодействия национальных литератур. Материалы дискуссии, – М., 1961.
3. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф, жанр, хронотоп. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриётматбаа ижодий уйи, 2015. – 356 б.
4. Садриддин Айний. Асарлар. 8 жилдлик. 5-жилд. Эсдаликлар. 1—2-қисм. (Ред. Р. Комилов) — Тошкент, «Тошкент» бадиий адабиёт нашриёти, 1965.
5. Садриддин Айний. Асарлар. 8 томлик. 3-том: Қуллар. Роман. — «Тошкент» бадиий адабиёт нашриёти, 1964.
6. Саидов.А. Қиёсий адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2020. 772 бет.
7. Топоров, В.Н. Пространство культуры и встречи в нем / В.Н.Топоров // Восток - Запад. Переводы. Публикации. - М., 1989. - С. 7.
8. Халлиева Г. Қиёсий адабиётшунослик – Тошкент: “Академ нашр”, 2020. – 160 б.
9. Ҳерман Ҳессе. Жаҳон адабиёти кутубхонаси // Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Озод Шарафиддинов таржималари). – Т.: “Маънавият”, 2010.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

NEOLOGISMS IN THE SPHERE OF INTERNET IN MODERN ENGLISH CONTEMPORARY SYSTEM OF LANGUAGE AND SPEECH

Jalolova Gulkhayo Mukhiddin kizi ,
Teacher, NUUz, Faculty of Foreign Philology
Department of Practical English and Literature
E-mail: jaloovagulkhayo@mail.com
Jalolova Yulduz Mukhiddin kizi
Tutor, Jizzahk state Pedagogical University
E-mail: yulkamuhiddinovna@gmail.com

Annotation: *This article will show you the importance of Neologism and how to use it. Neologisms remind us that language is not something set in stone, but an evolving body of work, subject to adjustment, deletions, additions, and change. As new things are invented, as slang becomes acceptable, and as new technologies emerge, new words must fill in the gaps in language. The language vocabulary is changing, renewing the words and phrases. Neologisms play a great role in the contemporary system of language and speech.*

Key words: *neologism, words, language, globalization, linguistics, translation, communication, concept, vocabulary*

Аннотация:*Эта статья покажет вам важность неологизма и как его использовать. Неологизмы напоминают нам, что язык - это не что-то высеченное в камне, а развивающийся комплекс произведений, который можно корректировать, исключать, добавлять и изменять. По мере того как изобретаются новые вещи, сленг становится приемлемым и появляются новые технологии, новые слова должны заполнять пробелы в языке. Меняется словарный запас языка, обновляются слова и словосочетания. Неологизмы играют большую роль в современной системе языка и речи.*

Ключевые слова: *неологизм, слова, язык, глобализация, языкознание, перевод, коммуникация, концепт, лексика*

Annotatsiya: *Ushbu maqola sizga neologizmning ahamiyatini va undan qanday foydalanishni ko'rsatib beradi. Neologizmlar tilning toshga yotqizilgan narsa emasligini eslatib turadi, balki tuzatilishi, o'chirilishi, qo'shilishi va o'zgarishi mumkin bo'lgan rivojlanib boruvchi asardir. Yangi narsalar ixtiro qilinar ekan, jargonlar qabul qilinadigan bo'lib, yangi texnologiyalar paydo bo'lgach, yangi so'zlar tildagi bo'shliqlarni to'ldirishi kerak. Tilning lug'at boyligi o'zgarib, so'z va iboralar yangilanadi. Til va nutqning hozirgi tizimida neologizmlar katta rol o'ynaydi.*

Kalit so'zlar*: neologizm, so'zlar, til, globallashuv, tilshunoslik, tarjima, aloqa, tushuncha, lug'at.*

Introduction

Nowadays, learning foreign languages plays an important role especially in the globalization process. Therefore we should pay extensive attention earnestly to the young generation`s occupation of foreign languages in order to make a tremendous progress in the future.

Neologisms form a highly relevant linguistic category for many reasons – they are the elements that make a language living and dynamic rather than dead, they are indicative of language change, they form a serious obstacle in computational analysis and translation, and they

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

help to show productive morphology of a language. There are two main goals in the linguistic observation of neologisms. On the one hand, updating existing lexicons and dictionaries with the newly arisen words. And on the other hand the analysis and description of the neologisms themselves in terms of distribution over word-classes, statistics on derivational methods, statistics on loan word origination, etc. Especially the latter type of research depends on the detection of all the neologisms occurring in a given corpus.

Any language is a dynamic system, which constantly develops, transforms and changes. The processes in social, cultural, scientific and political life, the contemporary level of technology development and intercultural communication implies constant language evolution. Both linguistic and extralinguistic factors play a significant role in appearing new units in the language (neologisms). These new units help us to understand and cope with change by creating mental bridges between the old and the new. The language vocabulary is changing, renewing the words and phrases. Neologisms play a great role in the contemporary system of language and speech.

The term neologism is used by linguists to describe a new word, usage, or expression. It is often created by combining existing words or by using a word in a different context. Some neologisms have now become a part of Standard English, while others have faded away. In the same way, some of today's neologisms will become a part of the dictionaries of the 22nd century, while others will be discarded, replaced by more descriptive language.

Our modern word rapidly changes, so does the language of a speech. The language change reflects every aspect of the changing life as well. New inventions and new discoveries have to be named and need proper vocabulary. New words (or neologisms) are raised by creativity of our minds and come into existence in everyday communication. They appear all the time continuously. The words table, sky once were neologisms. But soon they became vital and widespread to be felt neologisms. Names of different fruit, species were new names of new concepts (*pea, cherry, pepper*). The introduction of Christianity brought with it a great number of new concepts and words (*church, candle*). The Norman Conquest also contributed to the enrichment of the English vocabulary (*army*).

Literatures

Algeo J. Fifty Years among the New Words: A Dictionary of Neologisms., Crystal D. Language and Internet., Nikolenko A.G. English lexicology., Plag I. Word formation in English., Yule G, The Study of Language.

Methods of the research

According to the structure of compounding neologisms, they can be divided into three types:
New words formed without space and hyphen between two component words, such as arachnerd, fleshmeet.

Arachnerd: noun. (n.) A person who spends a great deal of time either surfing the Web or fussing with their home page.

Fleshmeet: n. A meeting in the flesh, especially one composed of people who usually or only converse online.

New words formed with hyphen by two or two more words, such as *drop-dial, get-rich-click.*

Drop-dial: verb (v.) To drop a user's existing Internet connection and then dial up a new connection that offers a service (such as a video or concert) over a premium-rate phone line. ‘Drop-dial’ is a verbal compound made by combining two verbs ‘drop’ and ‘dial’ with a meaning that it is an action sequence.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Get-rich-click: adjective (adj). Relating to people who want to get rich either through online investing or by creating an Internet-related business.

Silent run: The mass transfer of funds out of a troubled bank by online This word is made by combining an adjective 'silent' and verb 'run' to illustrate a phenomenon. The same with 'flash mob', it is also used to describe an emerging phenomenon.

Blending. Blending is the combination of clipping and compounding in which new words are created by the overlap of words or fragments of existing words, such as emotags from emotion and tag and Gootube from Google and Youtube.[4;p.23] All the blending neologisms in this dissertation can be classified into three kinds of formation: head+word, head+tail and word+tail. Taking *emotags* for example: n. Mock HTML tags used in writing to indicate emotional states. From the meaning, it can be figured out that this word is from the clipping of word 'emotion' and complete word 'tag' with the meaning that tags used for express emotions. *E-mentor* and *E-fence* are typical blending words by clipping of word 'electronic' and combining it with other words.

As a literary concept and term, neologism appeared in the 18th century and its old meaning was synonymous to «barbarism». In the modern meaning of neologism appeared early in the 19th century and, gained the acceptance towards the end of the century.

In accordance with the results of the analysis, we concluded the following conclusions:

In the process of writing we studied notion of neologisms, types and versions of neologisms. Besides this, there were given various definitions to the term neologism proposed by different scholars. Especially, Algeo. J and several scientists gave their fruitful examples about neologism but explanation of Peter Newmark can be defined as easy to understand.

The development of neologisms, origin of the term "neologism" were investigated. The period, which is rich in neologisms, is the nineties, due to rapid change in social relations and hi-tech developments. But as the processes became faster, more new words were coined, at the beginning of the XXI century. The major source is Media, tabloids as well as magazines. Mostly, among them the Internet plays a determinative role in forming new words.

Analysis and results

In linguistics a neologism (from Greek (neo-), -meaning *"new"*, and (logos), meaning *"speech, utterance entering common use"*, but has not yet been accepted into mainstream language. Many linguists searched neologism and gave their great definitions and opinions. For example, according to John Algeo a new word is a form or the use of a form not recorded in general dictionaries.[1;p.55]

Neologisms are words that have appeared in a language in connection with new phenomena, new concept but which have not yet entered into the active vocabularies of a significant portion of the native speakers of the language.[7;p.255]

As is written in the Collins Cobuild English Language Dictionary neologism is: a new word or expression in a language, or a familiar word or expression that is now being used with a new meaning.[2;p.100]

In the 80-s, 90-s of the 20th century neologisms were connected with lifestyles (*belonger, ladies who lunch, theme pub*); computerisation (*laptop, to back up, to toggle*); economics (*sunrise industry, sunset industry, dawn raid*); music (*acid house, MTV, New Age music*); mass media (*video nasty, video piracy, tabloid television*); art (*crossfader, body-popping*); medicine *(to burn out, PWA, ME*); education (*baker day, City technology college)*; fashion (*body conscious, leisure wear)*; cookery *(jacket crisp, tapas*).[8;p.51] New words are everywhere. Neologisms are words and expressions used for

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

new concepts that appear in the course of the language development, new meanings of the already existing words and new names of old concepts. Actually, the researchers have not been reached one general agreement on the question about neologism. Researchers with different knowledge backgrounds may define neologism in different ways. According to neologism type process they are divided into several types.

Different types of neologism:

- **New Coinages:**

It is the creation of totally new words. Nowadays, the main new coinages are brand or trade names:

1. Brand names are transferred.
2. It should be replaced by the same or equivalent morphemes.

- **Derived Words:**They designate scientific and technological terms:

1. Consult the appropriate glossary
2. Are they permanent/ functional/ worth translating?
3. Distinguish lexical parts (root and affixes)

- **Abbreviations.** Abbreviations have always been a common type of pseudo-neologism, probably more common in French than in English. i.e www = World Wide Web. Abbreviations and company/institution acronyms are transferred, with a descriptive explanation or note until they become widely known.
- **Collocations:**New collocations (noun compounds or adjective plus noun) are particularly common in the social sciences and in computer language. i.e lead time and cold-calling. It should be translated according to context.
- **Phrasal Words:** New 'phrasal words' are restricted to English's facility in converting verbs to Trade-off, check-out (dans, supermarkets). They should be translated by their semantic (meaning) equivalents.
- **Transferred Words:** Newly transferred words keep only one sense of their foreign nationality; they are the words whose meanings are least dependent on their contexts. They are likely to be 'media' or 'product' rather than technological neologisms.

Acronyms are an increasingly common feature of all non-literary texts, for reasons of brevity. In science the letters are occasionally joined up and become internationalisms. I.e. URL (pronounced "earl") uniform resource locator.

Some other types of neologisms:

- **Scientific:** Words or phrases created to describe new scientific discoveries. *Example: prion*
- **Political:** Words or phrases created to make some kind of political or rhetorical point, sometimes perhaps with an eye to the Sapir-Whorf hypothesis. *Example: pro-life*. Some political neologisms, however, are intended to convey a negative point of view. *Example: brutalitarian*
- **Pop-culture:** Words or phrases evolved from mass media content or used to describe popular culture phenomena (these may be considered a subsection of slang). *Example: carb*
- **Imported:** Words or phrases originating in another language. Typically they are used to express ideas that have no equivalent term in the native language. (See loanword.) *Example: tycoon*
- **Trademarks.** Trademarks are often neologisms to ensure they are distinguished from other brands. If legal trademark protection is lost, the neologism may enter the language as a generalized trademark. *Example: Kodak*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

• **Nonce words:** Words coined and used only for a particular occasion, usually for a special literary effect

• **Inverted.** Words that are derived from spelling (and pronouncing) a standard word backwards are called inverted. *Example: redrum*

• **Paleologism:** A word that is alleged to be a neologism but turns out to be a long-used (if obscure) word is called paleologism. It is used ironically.

Popular examples of neologism can be found in science, fiction, linguistic and also identified by stability

Types of Neologism:

• **Unstable:**

Extremely new, being proposed, or being used only by a very small subculture.

• **Diffused:**

Having reached a significant audience, but not yet having gained acceptance.

• **Stable:**

Having gained recognizable and probably lasting acceptance**.**

There are many circles include only those lexemes which have not existed up to a certain period of time, i.e. they cannot be found in the texts written before a given moment.

Word-formation process is a way of forming new words or terms from the use of old words. There is a basic concept concerning with word-formation: morpheme. A morpheme can be defined as the smallest meaningful unit. The morphemes can be classified into bound morphemes and free morphemes according to whether they can constitute words by themselves, while they may classified into roots and affixes. Affixes can be further classified into derivational affixes and inflectional affixes according to their respective functions.

In this study, five word-formation processes are included. Compounding is a process in which two individual bases are combined to form a new one, such as 'greenhouse'. Affixation can be defined as the word-formation processes of attaching something to the base, and it can be subcategorized into prefixation and suffixation according to the place where the affix is added. Conversion can be defined as the word-formation processes with altering the meaning of the word instead of altering the base. Through clipping, a new word is formed in the word-formation processes of shortening it by deleting part of the word. Blending is an integrated combination process of clipping and compounding.

There is no common definition for neologism among linguistics. It can be defined as "those derivatives that were newly coined in a given period".[6;p.12-16]

English internet neologism is defined as:

A type of language displaying features that unique to the internet, and encountered in e-mail, chat group, virtual world and worldwide web, arising out of its character as a medium which is electronic, global, and interactive.

The study on Internet neologism covers broad categories, such as the style of Internet, the linguistic features of internet neologism as well as the regulation of website. A lots of studies on the English Internet neologisms have been conducted, however, as the neologisms have the feature of timeliness, it is necessary to collect the recently neologisms to do the research which is extremely important for the study of new words.[5;p.100]

Compounding. It is an undeniable fact that compounding is the way used most frequently in creating neologisms. Among all the data the author collected, it can be calculated that compounds

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

constitute 73.8% of all the neologisms. The formation of compounding words can be analyzed from the perspective of their structures.

Conclusion

The classification of neologisms, linguists approaches, investigation and classification neologisms according to their structure, function were researched in our work. The most often encountered structural type of neologisms according to Rosen's classification is the first one; it contains neologisms consisting of morphemes which can occur in isolation and be parts of new words: *apathy-inducing, car-music*. As it has been stated before the compounding is one of possible ways of creating neologisms, and it is very
productive. So, it has been proved in practice.

Formation of internet neologisms, their peculiarities in terminology system, usage of the internet neologisms in contemporary system of language and speech. The enlargement of the English language vocabulary, as well as any other language, is closely connected with the humans' social life, internet.

Nowadays, computer technology has added a significant number of new terms to the language. *Webinar, malware, netroots, and blogosphere* are just a few examples of modern day neologisms that have been integrated into the modern English language.

There is no doubt that almost all internet neologisms have originally existed in vocabulary, the meaning s of words have been greatly changed under the background of rapid development of network culture. Internet neologisms which continues to influence the English vocabulary more heavily than any other living language, and it has contributed hundreds of new words to Present-Day English.

List of used literature

1. Algeo J. Fifty Years among the New Words: A Dictionary of Neologisms. - Oxford, 1991
2. Collins Cobuild English Language Dictionary. - London, 1987
3. Crystal D. Language and Internet. - Cambridge. 2001
4. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. - China, 2007
5. Nikolenko A.G. English lexicology. - Moscow, 1998
6. Plag I. Word formation in English. - Cambridge. 2002
7. Woodhouse dictionary. - London, 1972
8. Yule G, The Study of Language. - Cambridge: Cambridge University Press, 1985

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

MARSIYADA LIRIK QAHRAMON TALQINI

Asadov Maqsud Husenovich
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo‘limi mudiri
filolofiya fanlari doktori
e-mail: alpbek2010@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning temuriy shahzodalardan bo‘lgan Shoh G‘arib Mirzo – G‘aribiyning vafoti munosabati bilan yozilgan tarkibband-marsiyasi g‘oyviy-badiiy xususiyatlariga ko‘ra tahlil qilingan. Xususan, shahzodaning shaxsiyati, Alisher Navoiyning unga munosabati, Shoh G‘arib Mirzo vafoti tufayli qayg’u-hasratda qolgan yaqinlarining ruhiy holatiga chizgilar atroflicha ochib berilgan. Marsiyalarda lirik qahramon masalasi, ayniqsa, G‘aribiyga bag‘ishlangan mazkur marsiyada ulug‘ shoir kayfiyatining yoritilishi bilan bog‘liq jihatlarga diqqat qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *tarkibband, sinkretiklik, marsiya, motam, lirik qahramon*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛИРИЧЕСКОГО ГЕРОЯ В МАРСИИ

Асадов Максуд Хусенович
Институт узбекского языка, литературы и фольклора АН УзР
Заведующий отделение истории узбекской классической литературы
доктор филологических наук
электронная почта: alpbek2010@mail.ru

Аннотация: *В данной статье с точки зрения духовно-художественных особенностей анализируется панихида великого мыслителя поэта Алишера Навои, написанная по случаю смерти шаха Гариб Мирзы-Гариби, одного из тимуридских князей. В частности, подробно раскрывается личность принца, отношение к нему Алишера Навои, душевное состояние его близких, опечаленных смертью Шах Гариб Мирзы. Проблема лирического героя в маршах, особенно в этом марше, посвященном Гариби, сосредоточена на аспектах, связанных с освещением настроения великого поэта.*

Ключевые слова: *таркиббанд, композиция, синкретизм, скорбь, лирический герой*

INTERPRETATION OF THE LYRICAL HERO IN THE “MARCHIA”

Asadov Maksud Husenovich
Institute of Uzbek language, literature and folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Head of the Department of History of Uzbek Classical Literature
Doctor of Philological Sciences
e-mail: alpbek2010@mail.ru

Annotation: *In this article, the great thinker poet Alisher Navoi’s dirge written on the occasion of the death of Shah Garib Mirza - Garibi, one of the Timurid princes, is analyzed according to its spiritual and artistic characteristics. In particular, the personality of the prince, Alisher Navoi’s attitude towards him, and the mental state of his loved ones who are saddened by the death of Shah Gharib Mirza are revealed in*

detail. The issue of the lyrical hero in the marches, especially in this march dedicated to Garibi, is focused on the aspects related to the illumination of the great poet's mood.

Key words: *tarkibband, composition, syncretism, sorrow, lyrical hero*

Ma'lumki, tarkibband inson ruhiy dunyosi, tasavvur va taxayyul olami, orzu-armonlarini badiiy jihatdan yorqin tasvirlashda ijodkorga keng imtiyozlar beradigan she'riy janrdir. O'ziga xos murakkab kompozitsion qurilishi, sinkretiklik xarakteriga egaligi tarkibbandning poetik xususiyatlarini dalillaydi. Ammo mavzu, ma'no va ifoda yo'liga ko'ra tarkibbandlar marsiya mazmunini ifoda etishi bilan ham e'tiborlidir.

Mazkur maqolada biz ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning shahzoda Shoh G'arib mirzo vafoti munosabati bilan yozilgan tarkibband-marsiyasiga to'xtalamiz.

Tarkibband-marsiya haqida dastlab prof. Hamid Sulaymonov "Alisher Navoiyning G'arib Mirzo vafotiga atab yozgan marsiyasi" maqolasini yozgan edi. Adabiyotshunos Yo.Ishoqov bu haqda shunday deydi: "Tarkibband – marsiyaning ikkinchisi faqat "Xazoyin ul-maoniy"ning Dushanbeda 1990 raqami ostida saqlanayotgan (904/1499-1500 yilda kitobat qilingan) nusxasida mavjud. Tarkibband-marsiya "Badoe' ul-bidoya" devoni oxirida mayda janrlar orasida joylashtirilgan". Biroq filolofiya fanlari doktori D.Yusupovaning ko'rsatishicha, "tojikistonlik olim B.Maqsudovning xabar berishi va bizga yuborgan qo'lyozma varaqlari fotonusxasi asosida ma'lum bo'ldiki, tarkibband "Xazoyin ul-maoniy"ning so'nggi devoni – "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan. She'r "Marsiya" sarlavhasi ostida so'nggi 650 – na't g'azaldan so'ng "Bordim bu sahar..." deb boshlanuvchi mustahzoddan oldin keltirilgan. Darhaqiqat, bu tarkib "Favoyid ul-kibar" devoniga mos, chunki kulliyotning fanga ma'lum bo'lgan deyarli barcha nusxalarida ushbu mustahzod "Favoyid ul-kibar" tarkibida keladi". [4, 76]

5 band 29 bayt – jami 58 misradan tashkil topgan mazkur marsiyada lirik qahramonning iztirobi, qayg'u-hasrati vasf va hijron kayfiyati bilan parallel tarzda ifodalangan. Bu esa qahramon haqidagi tasavvurlarni bir qadar aniqlashtirib, motam sababini kengroq tushunishga imkon beradi. Quyidagi baytda ham talmeh san'ati vositasida Shoh G'arib mirzoning pok axloqi, go'zal fazilatiga e'tibor qaratilgan:

Ul Masiheki ulus jon topar erdi so'zidin,
Bordiyu xalqni o'z furqatidin qildi halok [1, 770].

Ma'lumki, Shoh G'arib mirzo iste'dodi baland shoir bo'lib, G'aribiy taxallusi bilan she'rlar yozgan va devon ham tartib bergan edi. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da bu haqda shunday yozadi:

"Shoh G'arib Mirzo – sho'x tablig' va mutasarrif (tasarruf etuvchi, sohib, o'tkir. – M.A.) zehnlik va nozuk taxayyulluq (fikrli. – M.A.) va daqiq taaqqulluq (fahmli, idroki baland. – M.A.) yigitdur. Nazm va nasrda naziri ma'dum (naziri yo'q, benazir. – M.A.) va mutaxayyila (dunyoqarashi keng. – M.A.) va hofizada adili noma'lum. Ov va qush xotirig'a marg'ub va qurro (Qur'onni qiroat bilan yoddan o'quvchi, qiroatli. – M.A.) va o'qush ko'ngliga mahbub. Bu matla' aningdurkim:

Qaysi bir gulchehra ul gulbargi xandonimcha bor,
Qaysi bir shamshod qad sarvi xiromonimcha bor? [2, 413]

Takrir, istiora, tajohuli orif kabi go'zal badiy san'atlar bilan ziynatlangan mazkur bayt ham G'aribiyning yuksak iqtidori, shoirlik mahoratini yaqqol ko'rsatib turibdi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Marsiyada tashxis va tazod san'atlari vositasida ifodalangan quyidagi fikrlar ana shu – G'aribiyning shoirlik mahoratiga ishora qiladi:

She'ru devoni bu motamda qaro aylab yuz,

O'ylakim so'z boshi, shingarfi dog'i qolmay ol. [1, 771].

Quyidagi baytda esa bu yo'qotishdan shoirlarning ruhiyatida aks etgan qayg'u va motam kayfiyati jonli ifodalangan:

Shuaro shahrda barcha yaqolar chok aylab,

Tosh urub ko'ksiga, har yon chekibon vovaylo. [1, 771].

Umuman, Shoh G'arib Mirzoning axloqiy qiyofasi, go'zal insoniy fazilatlari haqida boshqa tarixiy asarlarda ham ma'lumotlar mavjud. Jumladan, "Boburnoma" muallifi u haqida quyidagilarni yozgan: "Yana Shoh G'arib Mirzo edi, bukri edi. Agarchi hay'ati yomon edi, tab'i xo'bedi. Agarchi badani notavon edi, kalomi marg'ub edi. "G'aribiy" taxallus qilur edi, devon ham tartib qilib edi, turkiy va forsiy she'r aytur edi" [3, 148]. Ko'rinadiki, "Boburnoma"dagi fikrlar "Majolis un-nafois"dagi ma'lumotlarni to'ldiradi va tarixiy shaxs haqidagi qarashlarimiz va tasavvurlarimizni boyitishga xizmat qiladi. Marsiyada bu mulohazalarning o'ziga xos tezis shaklida, ammo yuksak badiiyat bilan ifoda topganiga guvoh bo'lamiz. She'rda G'aribiyning vafotidan iztirob chekkan qalb kechinmalarini quyidagicha tartiblash ham mumkin:

1. Lirik qahramonning motam kayfiyati ifodasi. Do'stona munosabatlarda samimiy, qalb ko'zi ochiq, ma'naviy olami go'zal insonning bu hayotdan ko'z yumishi lirik qahramon ruhiyati, kayfiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatgan va she'rda afsus-nadomat tuyg'ulari ifodasini chuqurlashtirgan:

Dahr bog'ida ajab tafriqadur, ey aflok,

Xalq ichi lola kibi qon, yaqosi gul kibi chok [1, 770].

Baytda tashbeh san'ati G'aribiyning motamidan ko'ngli ozor chekkan "xalq"ning mahzun holatini yorqin tasvirlash imkonini bergan bo'lsa, nido san'ati vositasida lirik qahramonning achinish hissini ham, taassufi, qayg'usini ham teranroq anglash mumkin. Marsiyaning keyingi misralari ham ana shu mazmunga hamohang:

Ko'zga olam qoradur, kiydi magar olam ham,

Motamiylar to'ninu ayladi o'zni g'amnok. [1, 771].

Baytda tashxis va istiora san'atlari fikrning jonli va ta'sirchan yortilishini ta'minlagan.

2. Shoh – Husayn Boyqaroning ruhiy qiyofasi, o'g'lining o'limidan qayg'uga tushgan holati ifodasi. Ya'ni:

Shoh dilbastalig'in anlagay ul mahzunkim,

Ketmish o'lg'ay bir aningdek dunyodan farzandi. [1, 771].

Ulug' shoir G'aribiyni "shohning hamdam"i, "hamsuhbat"i, "yuragi payvandi" deb ta'riflaydi. Bu sifatlashlardan Husayn Boyqaroning o'g'liga bo'lgan mehri, otalarcha muhabbati va samimiy munosabati ayon bo'ladi. Faqat shugina emas, bu dunyoda Shoh G'arib mirzo kabi dilbar sifatlarga ega biror insonni topish qiyin edi, deydi Alisher Navoiy:

Barqdek dahrga gar keldi-yu bo'ldi nobud,

Furqati shu'lasidin lek jahon o'rtandi. [1, 771].

"Barq", "shu'la" so'zlarining "o'rtandi" so'zi bilan mutanosiblikda qo'llanishi baytning mazmuni, tavsiflanayotgan qahramonning shaxsiyati va unga yaqin kishilarning motam kayfiyatini yanada chuqurroq tushunishga imkon bergan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

3. “Mahdi ulyo” – Shoh G‘arib Mirzoning onasi Xadichabegimning qayg‘uli qiyofasi tasviri. Farzandining vafotidan “jahon” ko‘ziga “qorong‘u” bo‘lgan mushtipar onaning mungli holati yurakni larzaga keltirmay qolmaydi. Marsiyada bu quyidagicha ifodalangan:

Mahdi ulyog‘a jahon bo‘ldi qorong‘u onsiz,
Ko‘nglida yo‘q tarab-u ko‘zida uyqu onsiz. [1, 771].

Keyingi baytda mubolag‘a san’ati vositasida Xadichabegimning ruhiy holati mana bunday bo‘rttirilgan:

Yuz tirnog‘ ila zahm etganidan qonmu borur,
Yo erur qong‘a mubaddal ko‘zida suv onsiz. [1, 771].

4. “Shahr eli” – Hirot ahlining ushbu motam tufayli chekkan iztirob-u qayg‘usi ifodasi. Shoh G‘arib Mirzo ijtimoiy-siyosiy masalalarda shohning yaqin maslahatchisi, hamsuhbati bo‘lishi bilan birga, hukumat boshqaruvi ishlarida ham uquvi baland edi. Husayn Boyqaro unga poytaxt Hirotning hokimligini ishonib topshirgani ham bejiz emas, albatta. Marsiyadagi mana bu misralar ham yuqoridagi fikrlarimizni quvvatlaydi:

Shahr eli hokimi odil g‘amidin navha chekib,
Dodxoh istab oni, har sori aylab g‘avg‘o.
Kishi qolmayki, bu motam aro mahzun bo‘lmay,
Zohid-u rindi xarobotiy agar shoh-u gado. [1, 771].

Xullas, marsiyada motam kayfiyati badiiy san’atlar vositasida yorqin tasvirlangan. Shoh G‘arib Mirzoning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, insoniy fazilatlari, shoirlik mahorati va atrofdagilarga munosabati ham she’rda hayotiy misollar orqali dalillangan. Har bir so‘z, misra va bandda uning vafotidan motamda bo‘lgan kishilarning ruhiy holati chuqur lirizm bilan yo’g’rilgan. Mazkur marsiyani tadqiq etish esa nafaqat Shoh G‘arib Mirzo haqidagi haqiqatlarni, lirik qahramon xarakterining o‘ziga xosligi hamda Navoiy va G‘aribiy o‘rtasidagi samimiy munosabatlarni yanada oydinlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. TAT. 10 jildlik. 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. 838 b.
2. Alisher Navoiy. TAT. 10 jildlik. 9-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. 822 b.
3. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: Sharq NMIU, 2002. 612 b.
4. Kazakbaeva D. O‘zbek mumtoz adabiyotida tarji’band va tarkibband janrlarining takomili. Filol.fan.b.fals.doktori diss. – Toshent, 2022. 138 b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

GLOBALLASHUV DAVRIDA O'ZBEK TILINI MUHOFAZA QILISH.

Isroilova Barchinoy Abdug'appor qizi
Andijon davlat universieti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi doktoranti, ollidamas@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada ko'p millatli O'zbekistonda til siyosatining amalga oshirilishi tahlil qilinadi. Mazkur muammoning tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan "Davlat tili to'g'risida"gi qonun ijrosi bosqichma-bosqich amalga oshirilib, respublikadagi barcha xalqlarga teng huquq va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Turli tillarda o'qitiladigan maktablar va ommaviy axborot vositalari tarmog'i kengaytirilgani, milliy madaniyat markazlari tashkil etilgani millatlararo munosabatlarni takomillashtirish va uyg'unlashtirish, mamlakatimizda barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilayotgani bu boradagi ijobiy jarayonlarning yorqin tasdig'idir.*

Kalit so'zlar: *til siyosati, milliy madaniyat markazlari, tilni manipulyatsiya qilish, tilni rivojlantirish, global muloqot.*

ЗАЩИТА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Isroilova Barchinoy Abdug'appor qizi

Аннотация: *В статье анализируется реализация языковой политики в многонациональном Узбекистане. Анализ данной проблемы показывает, что руководство Республики Узбекистан шаг за шагом реализует Закон «О государственном языке», создавая равные права и возможности для всех народов республики. Расширение сети школ и средств массовой информации на разных языках, создание национальных культурных центров, оздоровление и гармонизация межэтнических отношений, укрепление стабильности в нашей стране являются наглядным подтверждением позитивных процессов в этом направлении.*

Ключевые слова: *языковая политика, национально-культурные центры, языковая манипуляция, языковое развитие, глобальная коммуникация.*

PROTECTION OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE AGE OF GLOBALIZATION

Isroilova Barchinoy Abdug'appor qizi

Annotation: *The article analyzes the implementation of the language policy in multinational Uzbekistan. An analysis of this problem shows that the leadership of the Republic of Uzbekistan is implementing the Law "On the State Language" step by step, creating equal rights and opportunities for all peoples of the republic. The expansion of the network of schools and mass media in different languages, the creation of national cultural centers, the improvement and harmonization of interethnic relations, the strengthening of stability in our country are clear evidence of positive processes in this direction.*

Keywords: *language policy, national cultural centers, language manipulation, language development, global communication.*

Mavzuning dolzarbligi

Globallashuv davrida tilni manipulyatsiya qilish vositalari orqali ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali jahonning rivojlangan mamlakatlari milliy tafakkurini o‘z manfaatlariga mos ravishda o‘zgartirmoqda. Global muloqot "ikkinchi dunyo" mamlakatlarida til kengayishining dirijyori sifatida ishlaydi. Shu bois bugungi kunda har qachongidan ham ko'proq jahon tendensiyalari namoyon bo'lishining salbiy oqibatlarini minimallashtirish bo'yicha bir qator konseptual sa'y-harakatlarni amalga oshirish zarur.

Xalq tili uning milliy madaniyatining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u etnosning shakllanishi bilan birga shakllanadi, uning mavjudligining sharti bo’lib xizmat qiladi. Shunday ekan, etnik o‘zlikni anglashni tobora kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlariga qarshi turish muammolarini madaniy o‘zini-o‘zi ifoda etishning asosiy quroli – tilni hisobga olmasdan turib hal qilib bo‘lmaydi.

Tilning rivojlanishi falsafaning bir kategoriyasi bo'lib, u asl munosabatlar tizimini bizning davrimiz yo'nalishi bo'yicha izchil va barqaror o'zgartirishni anglatadi. Shunday qilib, kelajakni bashorat qilish, ertaga til va dunyo bilan nima bo'lishini tushunish mumkin bo'ladi [1].

Til va tafakkur munosabatlari muammosi falsafaning eng murakkab va dolzarb masalalaridan biridir. Muammoning murakkabligi ham tafakkur, ham til tabiatining murakkabligi va nomuvofiqligidan kelib chiqadi. Shaxsning zaruriy atributlari bo'lgan ikkala hodisa ham ijtimoiy va biologik narsalarni birlashtiradi. Ushbu tadqiqotning vazifasi milliy tafakkur va milliy til o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, ularning o‘zaro ta’siri va o‘zaro bog‘liqligini aniqlashdan iborat.

Ba'zi olimlarning fikrlariga ko'ra, milliy tillar global aloqa tizimlari orqali birlashib, tiqilib qolsa, madaniyat qo'pol muloqot va jaholatning global soyasiga ega bo'ladi. Har bir tilning orqasida madaniyat, jonli tilning ifodali boyligi, dunyoda tafakkurning cheksiz xilma-xilligini aks ettiruvchi tillarning ko'pligi bor. Har bir tilning o'limi bilan bizning dunyomiz boshqacha fikrlash, bilish, mavjud bo'lish, harakat qilish va shu bilan hukmron madaniyatdan farq qilish uchun yana bir imkoniyatni yo'qotadi.

Shu bois zamonaviy sharoitda etnolingvistik jarayonlar tadqiqotchilarni alohida qiziqtirayotgani bejiz emas. Biroq jahon hamjamiyatining globallashuvining yangi sharoitida milliy mentalitetga ta’sir etuvchi harakatlantiruvchi mexanizm va omillarni to‘liq tushuntirish va tushunish jahon ijtimoiy tajribasi sharoitidan kelib chiqiladi. Shu sababli dunyoning boshqa mintaqalarida til muammosiga zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish zarur.

Til taraqqiyoti, uning nufuzi va qo‘llanilish darajasini kengaytirish hukumatimizning doimiy e’tiborida bo‘lib kelmoqda.[2]

Tadqiqot maqsadi

Globallashuv sharoitida tilning rivojlanishini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirish quyidagi tadqiqot **vazifalarini** hal qilishni talab qildi:

- til va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligi muammosini o‘rganish;
- milliy tillar va milliy mentalitetlarning o'zaro ta'siri va mohiyatini ochib berish;
-milliy tafakkurni manipulyatsiya qilish jarayonida tilning rolini aniqlash;
- global aloqaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- lingvistik globallashuvga xos jarayonlarni o'rganish;
- o’zbek tilining rivojlanishi misolida milliy mentalitetlarga tahdid darajasini va globallashuv sharoitida o’zbek mentalitetining holatini aniqlash.

Tadqiqotning metodologik asoslari

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tadqiqot muammosining falsafiy va fanlararo maqomiga muvofiq, dialektik-materialistik falsafaning asosiy qoidalari, materialistik dialektikaning tamoyillari, qonunlari va kategoriyalari hamda falsafiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratuvchi kognitiv faoliyatning umumiy ilmiy metodologiyasi, ushbu ishning fundamental uslubiy asoslari sifatida qabul qilindi. Tadqiqotda izchillik, xolislik, tarixiylik, konkretlik tamoyillaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

- til va tafakkurning munosabati va o‘zaro bog‘liqligi haqidagi turli farazlarning mavjudligi tafakkur jarayonlari va til faoliyati o‘rtasida yaqin bog‘liqlik mavjudligidan dalolat berishi aniqlandi;

- dunyoning lisoniy tasviri inson ongiga singgan obyektiv dunyo ekanligi ta’kidlanadi;

- tilning barcha bo‘limlari milliy tafakkur va milliy xususiyat haqida ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi;

- turli tillarda so'zlashuvchilarning tafakkuri faqat o'z asosida o'xshashligi va mavzu kodeksi doirasidan tashqariga chiqadigan hamma narsa milliy shartli, o'ziga xos ekanligi isbotlangan;

- tabiiy muhit til yordamida avloddan avlodga o‘tadigan va xalqning tarixiy taqdirini geografik sharoitlar bilan birga belgilab beruvchi milliy tafakkur tarzini, xarakter zaxirasini belgilab berishi;

- milliy tafakkurni manipulyatsiya qilish - millatni o'z manfaatlariga zid bo'lgan harakatlarga undash uchun ta'sir qilish ekanligi aniqlandi. Siyosiy manipulyatsiyalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular muayyan siyosiy maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi va butun jamiyat yoki uning bir qismi uchun siyosiy oqibatlarga olib keladi;

- tilning pragmatik qo‘llanilishi uning milliy tafakkurni manipulyatsiya qilishdagi targ‘ibot roli ekanligi isbotlangan;

- til inson dunyoni va jamiyatni idrok qiladigan tushunchalar tizimi sifatida bo‘ysunishning eng muhim vositasi ekanligi ta’kidlanadi. Tilning hukmronlik quroliga aylanishi zamonaviy jamiyatda tilning yo'q bo'lib ketishi jarayonining boshlanishini ko'rsatdi;

- aqliy tushunchalarga aloqador bo‘lmagan so‘zlarni milliy tafakkurga kiritish, tilni shu so‘zlar bilan to‘ldirish xalqni bo‘ysundirish shakllaridan biri ekanligi ko‘rsatilgan;

- globallashuv jahon axborot almashinuvi amaliyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan obyektiv jarayon ekanligi asoslanadi. Globallashuv tendensiyalarining timsoli shakllari bugungi kunda dunyoda shakllangan siyosiy va iqtisodiy kuchlar muvozanatini aks ettiradi. Yetakchi transmilliy aloqa tuzilmalari jahon axborot oqimlarini ishlab chiqarish va tarqatishda hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi;

- global aloqa vositalari global hodisa sifatida iste'mol jamiyati qadriyatlarining kuchli tarjimoniga aylanganligi isbotlangan;

- ommaviy axborot vositalarining globallashuvi milliy davlat oldiga jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi aniqlandi. Jahon ommaviy axborot vositalari ilgari milliy davlatning axborot institutlari hukmronlik qilgan siyosiy va madaniy makonlarda hokimiyatni amalga oshirish vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Shuning uchun ommaviy axborot vositalarida global tendensiyalar namoyon bo'lishining salbiy oqibatlarini minimallashtirish bo'yicha sa'y-harakatlar majmuasini amalga oshirish zarur;

- globallashuv sharoitida lingvistik munosabatlar o'zlarining baholovchi idrok etishlari nuqtayi nazaridan turli xil ta'sirlarga duchor bo'lishi ko'rsatilgan, unga ko'ra texnologik

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

imkoniyatlarning kengayishini hisobga olgan holda milliy darajada va xalqaro miqyosda aloqalarni yengillashtirish uchun o'zaro tushunish zarurati tug'iladi, bunday o'zaro tushunish asoslari xalqlarning etnik-lingvistik identifikatsiyasiga zarar yetkazishi mumkin;

- tilning o'zgarishi quyidagi sabablarga ko'ra sodir bo'lishi aniqlandi: funksional uslublarga nisbatan tarkibiy o'zgarishlar (yuqori uslubni yo'q qilish), chet el so'zlarini asossiz ravishda olish, qo'pol lug'atni kiritish, gazeta markalarini suiiste'mol qilish, og'zaki nutqning yozma tilga kuchli ta'siri, o'zbek tiliga xos bo'lmagan o'zbekcha so'zni tor konseptual ma'noga qisqartirish;

- o'zbek tiliga o'zlashtirilgan so'zlarni idrok etish va talqin qilishda quyidagi nazariy qiyinchiliklar aniqlandi: leksikologik, stilistik, epistemologik, umumiy madaniy;

- o'zbek milliy tushunchalarini chet so’zlar bilan almashtirishga urinish bir qator ildiz so'zlarni yo'q qilib, semantik aloqalarning uzilishiga olib kelishiga sabab bo’ladi. Bu esa o'zbeklarning o'z fikrlash va yashash tarzini yo'qotish xavfi mavjudligini ko’rsatadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati

shundan iboratki, uning natijalari globallashuv sharoitida etnolingvistik jarayonlarni optimallashtirishda qo‘llanilishi va milliy munosabatlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘la oladi. Ushbu tadqiqot natijasida olingan xulosalar ijtimoiy-falsafiy bilimlarni qo'llash jarayonida qo'llanilishi mumkin.

Globallashuv atamasi birinchi bor 1960-yil Giddins tomonidan foydalanilgan. [3]. Bu atama XX asrning 90-yillarigicha deyarli foydalanilmagan. 1985-yilga kelib amerikalik sotsiolog R. Robertson «globallashuv» atamasiga ta’rif bergan. [4]

Globallashuv jarayonlari va yangi dunyo tartibini o'rnatishning milliy tillar rivojiga ta'sirining amaliy ahamiyati etnik-lingvistik o'ziga xoslikning har bir inson va umuman jamiyat hayotidagi o'ta muhimligini aniqlash va isbotlashdan iborat.

Bizga ma’lumki, XX asr oxiri – XXI asr boshlari jahonda globallashuv jarayonining keskin kuchayishi bilan belgilandi. Jahon hamjamiyati barcha ijtimoiy jarayonlarning murakkab bosqichini boshidan kechirmoqda, bu, xususan, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Globallashuv jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarini qamrab oldi. Bu hodisa zamonaviy fanning barcha sohalarida muhokama qilinadi: sotsiologiya, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, informatika va, albatta, tilshunoslik fanida ham.

Ko'rib chiqilayotgan muammoga muvofiq, globallashuvning ikkita asosiy jihatiga to'xtalib o'tish mumkin: bir tomondan, bu hayot olamini bir xillashtirish, umumiy madaniy qadriyatlarga sodiqlik, hamma narsani universallashtirishga intilish, ikkinchi tomondan, tabiiyki, globallashuv jarayonlari ta'siri ostida yagona, yaxlit umuminsoniy jamiyat shakllanayotganda ijtimoiy ongning individual shakllarining o'zaro bog'liqligi, integratsiyasi kuchaymoqda. Globallashuvning dunyoning lisoniy manzarasiga ta'siri ijobiy va salbiy. Katta millatlarning tillariga kundan kunga ehtiyoj ortib bormoqda, kichik millat tillari esa yo'q bo'lib ketish bosqichida.

Bu hodisa haqida til falsafasining taniqli olimi Q.Xonazarov “Globallashuv – mavjud tillarga zarar yetkazishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydigan obyektiv jarayondir. Biroq, u o'zining tezlashishi va kengayishi bilan tillar poydevoriga putur yetkazadi, minglab tillar saqlanib qolgan tuproqni va birinchi navbatda, kichik xalqlar, millatlar, qabila va elatlarning tillarini yuvib yuboradi”[16].

[16] http://mytashkent.uz/2010/12/09/globalizatsiya-i-perspektivyi-yazyikov/

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Kichik millatlar va elatlarning tillarini saqlab qolish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti bir qator xalqaro qoidalar va deklaratsiyalarni qabul qildi. Qabul qilingan hujjatlar kichik tillarni asrab-avaylash muammosi muhimligini global darajada anglashdan dalolat beradi. Ushbu harakatlarga quyidagilar kiradi:

• Inson huquqlari bo'yicha Butunjahon konferensiyasida (1993) qabul qilingan va "milliy va boshqa ozchilikni tashkil etuvchi xalqlarning o'z tillaridan foydalanish huquqini" tasdiqlovchi Vena deklaratsiyasi (19-modda);

• Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining ko'p tillilikka e'tiborni kuchaytirishga chaqiruvi (1999-yil dekabr);

• Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 52/262 (2-qism) rezolyutsiyasi, barcha tillarni saqlash va himoya qilishga urg'u beradi;

• Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining 58-sessiyadagi ma'ruzasi (2003-yil) dunyoning barcha tillarini himoya qilish, tarqatish va saqlash choralari.

Til xilma-xilligi va uning tarqalishining ahamiyati Jenevada (2003-yil dekabr) Axborot jamiyati bo'yicha Butunjahon sammitida qabul qilingan "Prinsiplar deklaratsiyasi"ning 52-53-bandlarida ham ta'kidlangan. Ushbu matnlarning aksariyati guruhlar va butun xalqlarning milliy tillardan foydalanish huquqlari uchun mumkin bo'lgan shaxsiy huquqlarga bag'ishlangan; xalqaro standartlar va ularni himoya qilish choralari hozirgacha juda kam darajada ishlab chiqilgan.

Globallashuv sharoitida o‘zbek tilining roli va faoliyati sezilarli darajada kengaydi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan so‘ng ijtimoiy-siyosiy sohalarda, fan, ta’lim, texnika va texnologiya, ishlab chiqarish, diplomatiya va hokazolarda faoliyat yurita boshladi.

Globallashuv sharoitida, shubhasiz, tilning hayotiyligi bilan bog'liq savol tug'iladi. Tilning hayotiyligi uchun qanday parametrlar mavjud? Bugungi kunda olimlar tilning hayotiyligining quyidagi parametrlariga rioya qilishadi:

• So'zlashuvchilarning mutlaq soni;
• Muayyan tilda so‘zlashuvchilar sonining etnik guruhning umumiy soniga nisbati;
• Tildan foydalanish sohalaridagi o‘zgarishlar;
• Tildan foydalanishning yangi sohalari;
• Ommaviy axborot vositalari;
• O‘quv materiallari va berilgan tildagi savodxonlik darajalari;
• Milliy tilda ta'lim uning hayotiyligida muhim rol o'ynaydi.

Xulosa

Bu ma’lumotlarni til nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘zbek tilining reytingini millat vakillarining o‘zi emas, balki ikkinchi til sifatida o‘qiyotganlar hisobidan oshirish mumkin.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston azaldan Sharq sivilizatsiyasi markazlaridan biri hisoblangan. Respublikamiz jahonga tanilgan mutafakkir va olimlarning boy ma’naviy-madaniy merosiga ega. Bugun esa ma’lum darajada fan-texnika yutuqlariga ega mamlakat. Agar tadqiqot nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo‘lsak, ma’naviy-madaniy merosimiz asosan MDH tillariga tarjima qilingan, chet tillarida esa - ingliz, nemis, fransuz, yapon, xitoy va boshqa tillarda oz miqdorda yoki mavjud emas. Yuqoridagilarni hisobga olib, tarjima maktablarini takomillashtirish zarur.

Hozirgi vaqtda fan va texnikani takomillashtirish zarur. O‘zbekiston boy davlat bo‘lgani uchun uning yerlarida Mendeleyev tizimining barcha elementlari topilgan. Respublikada uni rivojlantirish uchun yangi texnologiya yaratish, shuningdek, xorijiy hamkorlarda ishtirok etish, chet ellik mutaxassislarni jalb qilish, qo‘shma korxonalar ochish zarur – balki bular ishlab chiqarish

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

sohasida o‘zbek tilining rivojlanishiga sabab bo‘lar, va bu uning millatlararo va umumiy tillar orasida reytingini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Саидов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқот. –Т.: Академия, 2008. 66-бет.
2. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. T.: 2006
3. Шахрай С.М. Глобализация в современном мире: политико-правовые аспекты. – СПб : Фонд поддержки науки и образования в области правоохранительной деятельности «Университет»,2004.С.6
4. Что такая глобализация? По сайту http://www.univer.omsk.su/omsk/socstuds/glob/index.html
5. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017, 17-b
6. Маҳмудов Н. Матн ва тил тараққиёти. Ўзбек тили ва адабиёти журнали № 4. 2017. 3-б.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni
8. Алпатов В.М. 150 языков и политика. 1917-2000. Социолингвистические проблемы СССР и постсоветского пространства. М.: КРАФТ + ИВРАН, 2000. -С. 11-29.
9. Атлас языков мира. Происхождение и развитие языков во всем мире М.: Лик-пресс, 1998.- 212с.
10. Вайсгербер И.Л. Родной язык и формирование духа / Пер. с нем. О.А. Радченко. М.: Едиториал УРСС, 2004. - 232 с.
11. Глобалистика: Энциклопедия. М.: Диалог, 2003. - 1328 с.
12. Домовец О.С. Манипуляция в рекламном дискурсе / Языковая личность: аспекты лингвистики и лингводидактики. Волгоград, 1999. - 114 с

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

INTERPRETATION OF PHROSEOLOGICAL IN UNITS UZBEK AND ENGLISH

Xakimova Dildora Raximjon's daughter
Termiz State Pedagogical Institute, master's student
E-mail: uzbek2000@mail.ru Phone: +998994846097

Abstract: *Phraseology is a discipline in linguistics that studies expressions that have a certain stability, or the science of phraseological units. It studies the grammatical structure, semantic features, structure, pragmatic properties of phraseological units. This article defined that translation of phraseological units.*

Key words: *phraseology, phraseological unit, zoonym component, structural-semantic relation, comparative analysis, proverb, saying, idiom.*

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TALQINI

Xakimova Dildora Raximjon qizi
Termiz Davlat Pedagogika instituti magistranti
Elektron pochta: uzbek2000@mail.ru telefon: +998994846097

Annotatsiya: *frazeologiya-bu tilshunoslikda ma'lum bir barqarorlikka yega bo'lgan iboralarni yoki frazeologik birliklar fanini o'rganadigan fan. Frazeologik birliklarning grammatik tuzilishi, semantik xususiyatlari, tuzilishi, pragmatik xususiyatlarini o'rganadi. Ushbu maqolada frazeologik birliklarning tarjimasi aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *frazeologiya, frazeologik birlik, bionim komponent, struktur-semantik munosabat, qiyosiy tahlil, maqol, maqol, idioma*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Хакимовой Дилдоры Рахимжон дочь
Термизский государственный педагогический институт, магистрант
Elektron pochta: uzbek2000@mail.ru telefon: +998994846097

Аннотация: *Фразеология - это дисциплина в лингвистике, изучающая выражения, обладающие определенной устойчивостью, или наука о фразеологических единицах. В ней изучается грамматическая структура, семантические особенности, строение, прагматические свойства фразеологических единиц. В этой статье был определен такой перевод фразеологических единиц.*

Ключевые слова: *фразеология, фразеологическая единица, бионимический компонент, структурно-семантическая связь, сравнительный анализ, пословица, поговорка, идиома.*

So, what is a phraseological unit? According to L.V.Shcherba, a phraseological unit is a potential "equivalent of a word"; phraseological units are more expressive (expressively colored) than words and free combinations. According to the definition of A.V. Kunin, a phraseological unit is a stable combination of words with a fully or partially reinterpreted meaning. Moreover, according to the scientist, a phraseological unit is structurally and semantically a single, unmodeled formation consisting of at least two words. A.I. Smirnitsky defines that phraseological units are stylistically neutral phrases devoid of metaphoricity or have lost it. A.I. Smirnitsky refers

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

to phraseological units such as get up, fall in love, etc. Thus, a phraseological unit is a combination of words, characterized by stability and integrity in semantic and structural terms. Stable expressions include idioms, proverbs, sayings, speech cliches that occur in all languages and have different origins. The relevance of the article is characterized by the fact that the combined analysis of phraseological units makes it possible to better understand the past, morals, way of life and lifestyle of the English and Uzbek cultures, and to establish the same and distinctive features characteristic of these linguistic cultures. Since the most ancient times, animals have accompanied man, as a result of which many phraseological units have appeared comparing and evaluating him from various sides. The obvious inferiority and insufficiency of the FE analysis of this subject group is also due to the appropriateness of conducting such a detailed FE analysis with a zoonym component. The purpose of this article is to determine the identical and distinctive properties of a PHE with a zoonymic character in English and Uzbek using comparative analysis. The object of the article's research is Uzbek and English phraseological units with a zoonym component.

For the Uzbek people, the horse symbol meant homeland, ancestors, family: **от айланиб қозиғини топар -** the person will eventually return to his native places; For example, **flog a dead horse**-wasting energy, talking to the wind, **play for a dead horse**-to pay for something that has lost its price [1, p. 67]; however, the fee with the turnover of **good horse** is positive, for example, **a good horse should be self-spurred** - a good employee does not have to be adjusted and a blunder lives on big minds, **a good horse can't be of a bad color** – a good horse there can't be a bad suit.

In Uzbek FE, the dog symbolizes various aspects of human life. It has a negative quality, such as, **бўйнидан боғланган ит овга ярамас, зангланган милтиқ ёвга ярамас-**a tethered dog is not suitable for hunting, **ит суяк чайнамаса тиши қичийди-**if the dog does not gnaw the bone, her teeth itch.

If in English FE a dog depicts positive and negative features of a person's character, his professional qualities, then in Uzbek it is a home guard and an assistant in hunting..

Thus, English and Uzbek languages have a very rich stock of phraseological units. FE with a zoonym component belong to a special group of expressions that include the names of animals, birds, insects. A.V. Superanskaya in her work theory of proper names" notes that "zoonyms - the names of various animals, birds, etc. - are a special department of onomastics with their own traditions, which vary in a significant range among different peoples and in different epochs". They differ in brightness, expressiveness and emotionality, help to better understand the way of life, culture, national character, mentality of the British and Uzbeks. Attributing human qualities to animals helps to more clearly describe the advantages and disadvantages of a person. In the proverbs, sayings and idioms of the British and Uzbeks, negative qualities are exposed - laziness, deception, bragging, stupidity, and positive traits are welcomed - diligence, honesty, courage. In Uzbek phraseological units, unlike English, the feeling of attachment to the motherland and family is more clearly expressed.

References

1. Azizova F.S. A short English-Uzbek-Russian phrasal dictionary. - Tashkent: Discipline and Technology, 2010. - 160 P.

2. Kunin A.S. Course phraseologism of the modern English language. – 2nd ed. reprint. - Moscow: Higher School, 1996. - 156 P.

3. Kunin A. S. English-Russian phrasebook. - Ed. 3-or, Spanish, in two books. - M.: SE, 1967. - Vol.1.- 738c.; Vol. 2. - 739-1264 p. (Harps)

ISSN: 2181-0427

4. Superranskaya A.S. General theory of collected names. – 2nd ed. - Moscow: Nauka, 1973. - 368 p.
5. Rakhmatullaev Shavkat. Uzbek tiling izohli phrasebook dictionary. - Tashkent: Uzbekistan, 1978. - 405 b.
6. Sadikova M. The narrator of Uzbekcha-rusha makol-matallar dictionary. - Tashkent: Uzbekistan, 1993. - 95 b.

MAXSUS TA'LIM MUASSASALARIDA ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR UCHUN ONA TILI DARSLARINING MAZMUNI

Isoqjonova Dilfuzaxon Muxtorjon qizi
Nizomiy nomidagi TDPU, Surdopedagogika
va inklyuziv ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
Gmail: isoqjonovad@gmail.com

Annotatsiya: *Maxsus ta'lim muassasalarida ona tili darslari eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nuqson tabiatidan kelib chiqqan holda nutqni rivojlantirishga qaratilgan ishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada maxsus ta'lim muassasalarida ona tili darslarining asosiy mazmuni va xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *maxsus ta'lim, nutq, nutq shakllari, individual yondoshuv, nutq materiali, nutq kinesteziyasi.*

СОДЕРЖАНИЕ ЗАНЯТИЙ РОДНЫМ ЯЗЫКОМ ДЛЯ ДЕТЕЙ С ДЕФЕКТОМ СЛУХА В СПЕЦИАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Исокжонова Дилфузахон Мухторжоновна
ТГПУ, имени Низами
Преподаватель кафедры Сурдопедагогики и инклюзивного образования
Gmail: isoqjonovad@gmail.com

Аннотация: *Занятия родным языком в специальных образовательных учреждениях включают мероприятия, направленные на развитие речи учащихся с нарушением слуха с учетом характера нарушения. В данной статье описаны основное содержание и особенности занятий родным языком в специальных учебных заведениях.*

Ключевые слова: *специальное обучение, речь, формы речи, индивидуальный подход, речевой материал, речевая кинестезия.*

CONTENT OF NATIVE LANGUAGE CLASSES FOR CHILDREN WITH HEARING DEFECTS IN SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Isokjonova Dilfuzakhon
Tashkent pedagogical university
teacher of the surdopedagogy and inclusive education department
Gmail: isoqjonovad@gmail.com

Abstract: *Native language classes in special educational institutions include activities aimed at developing the speech of students with hearing impairment, taking into account the nature of the impairment.*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

This article describes the main content and features of native language classes in special educational institutions.

Key words: *special education, speech, forms of speech, individual approach, speech material, speech kinesthesia.*

Kirish

Mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatning sog‘lom qatlami bilan teng huquqliligini ta’minlash, ularni jamiyatga moslashtirish va sog‘lomlar qatorida ta’lim olish imkonini beruvchi inklyuziv ta’lim tushunchasiga ham alohida e’tibor berila boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qaroriga muvofiq 2020 - 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish kontsepsiyasining ishlab chiqilishi bu soha rivojidagi katta qadam bo‘ldi. Ushbu qaror inklyuziv ta’limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda inklyuziv ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni, shu jumladan, karlarni jamiyatga integratsiyalashuvida muloqotning ahamiyati katta. Shuni inobatga olgan holda zamonaviy ta’limning har qanday ko‘rinishida kar o’quvchilarni muloqotga o‘rgatish masalasi muhim hisoblanadi. Bugungi zamonaviy ta’lim tizimi bu yo‘nalishda yangi yondoshuvlarni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili

R.M.Boskis, E.V.Mironova, B.D.Korsunskaya, M.K.Sheremet, N.G.Morozova kabi qator olimlar tadqiqotlarida ham eshitishida muammolari bo’lgan o’quvchilar ta’lim-tarbiyasining o’ziga xos tomonlari qayd etiladi. E.I.Leongard, Ye.G.Samsonova, N.D.Shmatko, I.V.Koroleva, O.V.Zontova, N.V.Svodina kabi yetuk rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa eshitish va nutq muammosining erta korreksiya qilinishi orqali karlarning erta ijtimoiy moslashuviga samarali ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Kar bolalarni muloqotga o‘rgatish va to‘g‘ri shakllangan nutqni rivojlantirish jarayonida esa ona tili darslarining ahamiyati katta. Ona tili darslari orqali o‘quvchilar nafaqat so‘z bilan, balki uning grammatik shakllanishi, gap qurilishi kabi bilimlar bilan ham tanishadilar. Maxsus ta'limda ona tili fanining korreksion ahamiyatini inobatga olgan holda maxsus ta'lim jarayonida ona tili darslarining tashkiliy shakllari va mazmuni tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar

Maxsus ta'lim muassasasi sharoitida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqni rivojlantirish hozirgi vaqtda ikkita asosiy shaklda amalga oshiriladi: maxsus tashkil etilgan darslarda va kundalik hayotda. Ona tili darslarida o'qituvchining asosiy e'tibori ona tilini (fonetika, lug'at, grammatika) va nutq shakllarini (dialog va monolog) rivojlantirishga qaratiladi. Shu bilan birga, ona tilini o'qitish va nutqni rivojlantirishni tashkil etishning asosiy shakli sifatida yetakchi o'rin maxsus nutq o'stirish darsiga beriladi. Ona tilini o'rgatish va nutqni rivojlantirishda maxsus darslarning yetakchi ahamiyati bir qator holatlar bilan belgilanadi:

1) sinfda o'qitish dasturning barcha bo'limlari vazifalarini tizimli, ma'lum bir tizimda va ketma-ket bajarishga imkon beradi;

2) sinfda bolalarning diqqatini maqsadli ravishda ma'lum bir lingvistik hodisalarga qaratish;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

3) til qobiliyatining asosini tashkil etuvchi bir qator nutqiy malakalar (so'zning semantik tomonini rivojlantirish, monologik nutq ko'nikmalarini egallash va boshqalar) faqat maxsus ta'lim sharoitida shakllanadi;

4) sinfda tarbiyachining bolalar nutqiga ta'siridan tashqari, bolalar nutqining bir-biriga o'zaro ta'siri mavjud.

Nutqni rivojlantirish va ona tilini o'rgatish uchun darslar umumiy didaktikada nazarda tutilgan talablarga bo'ysunadi:

- darsga puxta tayyorgarlik ko'rish;
- dars materialining bolalarni aqliy va nutqiy rivojlantirishning yoshga bog'liq imkoniyatlariga muvofiqligi;
- bolalarda faol kognitiv pozitsiyani shakllantirishni ta'minlaydigan ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarning o'zaro bog'liqligi;
- darsning tarbiyaviy xususiyati
- darsning tuzilishi aniq bo'lishini ta'minlash;
- ta'limning jamoaviy xarakterini bolalarga individual yondashuv bilan optimal uyg'unlashtirish;
- darslarni to'g'ri tashkil etish;
- dars natijalarini hisobga olish;
- darsning nutqni rivojlantirish bo'yicha keyingi ishlar bilan bog'liqligi.

F. A. Soxin va O. S. Ushakova rahbarligida nutqni rivojlantirish amaliyotida mashg'ulotlar samaradorligini oshirish uchun nutq muammolarini hal qilishda bolalarga to'g'ri nutqni o'rgatish va aqliy faoliyatni tarbiyalashga yordam beradigan integratsiyalashgan yondashuv taklif qilindi. Muammolarni kompleks hal qilish deganda bir darsning dastur mazmunidagi nutqiy vazifalarni birlashtirish (birlashtirish) va bu vazifalarni bajarish uchun tegishli usullarni (uslublar, usullarni) tanlash tushuniladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ona tilini o'rgatish vazifalarini birlashtirish zarurati quyidagilar bilan izohlanadi:

- Til uni tashkil etuvchi quyi tizimlar va tarkibiy munosabatlardagi elementlarning murakkab tizimidir. Til birliklari (fonemalar, morfemalar, so'zlar, iboralar, gaplar) nutq faoliyatida o'zaro bog'liqdir, shuning uchun sinfda nutqqa o'rgatishda til elementlarining o'zaro bog'liqligini hisobga olish kerak;
- Dars jarayoni til o'rgatish va bolalar nutqini rivojlantirishning bir qator muammolarini hal qilishi kerak;
- O'quv vazifalarining kombinatsiyasi ona tilidagi darslarni to'ldiradi, ularni yanada mazmunli qiladi, bolalarning o'qituvchi tomonidan boshqariladigan nutq qobiliyatini oshirishga imkon beradi;

Ta’lim jarayonida nafaqat ona tili darslarida, balki har bir darslarda maxsus tanlangan nutq materialisiz ovoz kuchaytiruvchi uskunalardan doimiy foydalanish bilan o'qituvchi va tarbiyachining nutqiga maqsadli taqlid qilish asosida talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish. Bu o'quvchilarning o'qituvchi nutqining namunasini eshitish va vizual idrok etish, ular idrok etgan narsalarni takrorlash, o'zlarining talaffuzlarini berilgan nutq namunasi bilan bog'lash qobiliyatini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Eshitishning dastlabki holatiga va bolaning individual xususiyatlariga qarab, bolalar so'zlarning ritmik-bo'g'in tuzilishini o'rganishlari, so'z urg'usini idrok etishlari, bir qator tovushlarning, birinchi navbatda, unlilar va ba'zi undoshlarning talaffuzini o'rganishlari mumkin. Ta'lim jarayonida, intensiv rivojlanish va qoldiq eshitishdan foydalanish, o‘quvchilar o'qituvchining nutq namunasini tinglashni o'rganadilar: "To'g'ri tinglang

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

va takrorlang". Bunday sharoitda o'qituvchi nutqining tabiati katta ahamiyatga ega bo'ladi, chunki u taqlid qilinadigan namunadir. Nutq tabiiy, hissiy jihatdan ifodali bo'lishi kerak. Nutqning barcha materiallari orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda, so'z birikmalarini semantik sintagmalarga to'g'ri taqsimlangan holda, nutqning ovoz balandligida talaffuz qilinishi kerak. Bo'g'inma-bo'g'in, teng urg'u yoki urg'u oxirgi bo'g'inga o'tkazilishi bilan o'qituvchining nutqi kar va eshitish qobiliyatiga ega bo'lmaganlarning talaffuziga salbiy ta'sir qiladi Talaffuzni o'rgatish jarayonida nafas olish, ovoz va tovushlarni bosqichma-bosqich joylashtirishning quyidagi usullari qo'llaniladi.

Kar bolalar maktabida ona tilidan yozuv, nutq o‘stirish, o‘qish kabi predmetlar joy olgan. Ushbu darslardan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarni savodga o‘rgatish, o‘qish, yozish malakalarini rivojlantirish, o‘quvchilarda bog‘langan og‘zaki hamda yozma nutqni kamol toptirish, ularning nutqini o‘stirish barobarida ish qog‘ozlarini yozishga o‘rgatish kabi masalalardan iborat. 1-sinf o‘quvchilariga nutq o`stirish darslari orqali buyumlarni nomlab, ularning rangi, shakli, hajmi, mazasi, vazni, hidi va nimadan tayyorlanganligiga ko`ra ta’riflashga o`rgatilsa, o`qish va yozuv darslarida harflarni o`rganib, ular ishtirokidagi bo`g`in, so`z, sodda gaplarni o`qishga va yozishga o`rgatiladi. Savod o`rgatishning 4-bisqichidan so`ng o`quvchilar ma`lum ko`nikmalarga ega bo`lishlari nazarda tutiladi. Masalan, tovushlarni talaffuz va idrok jihatidan bir-biridan ajratib kesma harflar kassasidan og`zaki tahlil etishi, so`z hamda sodda gaplarni tuzish, ularni bo`g`inlab, ongli o`qiy olish, rasm va matn yuzasidan berilgan savollarga javob qaytarish, ertak, she’r va hikoyalarni diqqat bilan tinglash kabilar. Savodga o`rgatishning 4-bosqichidan so`ng bolalar doska va kitobdan tahlil etilgan so`z va gaplarni ko`chirib, diktovka asosida yoza oladigan bo`lishlari kerak. Eshitishida nuqsoni bo`lgan bolalar o`qish darslarida ongli, to`g`ri o`qishga o`rganadilar. Shuningdek, matnni tahlil etishga, asar qahramonlarini ta`riflab, ularga tavsiya tuzish, she’riy asarlarni yod olishga o`rganadilar. Yozuv, ona tili darslarida esa gap va uning turlarini, gapning bosh va ikkinchi darajali bo`laklarini, sodda va qo`shma gaplarni og`zaki va yozma to`g`ri ishlata olishga o`rganadilar. Yuqori sinf o`quvchilari bog`langan og`zaki va yozma nutqida qo`shma gaplarni to`g`ri qo`llash malakalarini egallashlari lozim.

Xulosa

Karlar maktabida ommaviy maktablarda bo`lgani kabi nutqni rivojlantirishga til o`rganishning asosiy vazifasi sifatida qaraladi. Aynan shuning uchun ham nutq mashg`ulotlari faqatgina ona tili faniga emas, balki barcha fanlar tarkibiga kiritiladi. Shunday qilib, ta’lim jarayonida maktab o'quvchilarining og'zaki nutqi rivojlanayotgan eshitish analizatori va nutq kinesteziyasining birgalikda birgalikdularning eshitish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Yaratilgan shart-sharoitlar ma'lum darajada kar va zaif eshituvchilarning og'zaki nutqini shakllantirishni normal eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan bolalar nutqini o'zlashtirish jarayoniga yaqinlashtirish imkonini beradi. Kar va zaif eshitadigan bolalar maktablarida eshitish idrokining jadal rivojlanishi ma’lum yo‘nalishlarda amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Основы дефектологии. – СПб.: Лань, 2003.
2. Рау Ф.Ф. Обучение глухонемых произношению. – М.: Учпедгиз, 1960.
3.Mamarajabova Z.N. Ona tili oʻqitish maxsus metodikasi//Oʻquv qoʻllanma./Toshkent.:2015.
4.Николайва Т.В. Комплексное психолого-педагогическое обследование ребёнка третего года жизни с нарушенним слухом //Дефектология. - 2004.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

DINIY-MA'RIFIY MANBALARDA FUTUVVAT TALQINI

Mahmudov Jasurbek Xusinovich filologiya fanlari nomzodi, dotsent. O'zbekiston Milliy universiteti. O`zbekiston, **E-pochta:** jasurbekm@mail.ru

Abstrakt: *Maqolada futuvvat tushunchasi zamiridadagi fazilatlarning ma'no ko'lami xususida turli shaxslar hayoti va faoliyatiga asoslanib xulosa chiqarilgan. Ushbu maslakning zamiridagi bag'rikenglik, ma'naviy yuksak qadriyatlarning tajassum topganligi manbalar asosida tushuntirib berilgan. Muallif o'z nazariy qarashlarini asoslash uchun Ibrohim (a.s.) hayotidagi muhim voqealarni, ayni paytda, futuvvat yo'lida sobit bo'lgan Pahlavon Mahmud faoliyatiga oid muhim jihatlarni manbalarga tayanib tahlil qilgan. Futuvvatning, aslida, tasavvufiy axloq qoidalari va odob rusumlaridan oziqlanganligi, ya'ni islom dini va tasavvuf ta'limoti uning poydevorini mustahkam ushlab turgan asosiy omillardan ekanligi ko'rsatilib, islom va tasavvuf axloq-odobi bilan mustahkamlangan ushbu maslakning hayotdagi muhim tarbiya maktabi hisoblanishi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *futuvvat, javonmard, anbiyolar, avliyolar, odob-axloq, mehmondo'stlik, islom, tasavvuf, nazariya, amaliyot.*

Kirish

Tasavvufda, asosan, ruhiy tarbiya masalasi, ruhiyatni qanday yuksaltirish nazariyalari o'z in'ikosini topadi. Futuvvat esa inson odob-axloqining amaliyotda ko'rsatish uslubi va o'ziga xos yo'nalishidir. Agar tasavvufni poydevorga o'xshatsak, futuvvat uning ustiga qurilgan mustahkam devordir; zero, poydevor bo'lmasa devor omonat. Shu jihatdan tasavvuf va futuvvat o'zaro bo'g'liq tushunchalar hisoblanadi. Ko'pgina olimlar tasavvufni xoslar uchun, futuvvatni omma uchun ishlab chiqilgan falsafiy ilm, nazariya deb tushuntiradilar. Biroq har ikki ilm ham inson holati ilmi, ya'ni ilmi hol bo'lib, ularni ataylab ishlab chiqishning imkoni yo'q; ular insoniyat fitratida mavjud bo'lgan ilmlar sirasiga kiradigan ladunniy ilmlar tarkibidadir.

Futuvvat talqini

Futuvvat, aslida, insoniyatga berilgan axloqiy fazilatlardan bo'lib, dastlab anbiyolarga, keyin esa avliyolarga ato etilgan xislatlar majmuidir. Masalan, Payg'ambar s.a.v. haqlarida nozil bo'lgan oyatda o'qiymiz: وَإِنَّكَ لَعَلى خُلُقٍ عَظِيمٍ –"Albatta, Siz buyuk xulq uzradirsiz!" [Qur'oni karim 68, 4].

Barcha anbiyo va avliyolar bani basharni tarbiyalovchi, ularni to'g'ri yo'lga boshlovchi rahnamolardir. Shu ma'noda futuvvat bashariyat tarixida o'zida eng yaxchi xislat va fazilatlarni jamlovchi tasavvuf tarmog'i sifatida paydo bo'lgan oqim hisoblanadi. Qur'oni karimda Olloh taolo shunday marhamat qiladi:

تِلْكَ الرُّسُلُ فَضَّلْنَا بَعْضَهُمْ عَلَى بَعْضٍ مِّنْهُم مَّن كَلَّمَ اللهُ وَرَفَعَ بَعْضَهُمْ دَرَجَاتٍ وَآتَيْنَا عِيسَى ابْنَ مَرْيَمَ الْبَيِّنَاتِ وَأَيَّدْنَاهُ بِرُوحِ الْقُدُسِ

"O'sha payg'ambarlarning ayrimlaridan ayrimlarini afzal etdik. Ular ichida Alloh (bevosita) gaplashganlari va darajasini (Alloh) ko'targanlari bor. Iso ibn Maryamga mo'jizalar berdik va uni Ruh ul-quds (Jabroil) bilan quvvatladik…" [Qur'oni karim 2, 253] oyati karimasiga ko'ra ba'zi payg'ambarlar so'z va amalda biri boshqasidan afzalroq bo'lishgan. Ana shu fazilatlar anbiyolardan so'ng avliyolarga o'tgan. Buning misolini futuvvat – javonmardlik tariqatining yirik namoyandasi, Pahlavon Mahmud Puryorvaliy siymosida ko'ramiz. Jumladan, "Majolis ul-ushshoq" tazkirasida u soflik uyining suyanchig'i, tayanchi, qudrat va basiratda dastyor, Pahlavon Mahmud Puryor Xorazmda kurash tushish bilan shug'ullanar edi…" [Majolis ul-ushshoq], – deb

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

zikr etilgan va ayni shu o‘rinda uchta payg‘ambarga xos xislat sohibi bo‘lgani Qur’oni karimdagi “ulul-aydi val-absor” oyati bilan dalillanadi. “Sod” surasining 45-oyatidan olingan mazkur tavsif esa uchta payg‘ambar fazilati edi:

وَاذْكُرْ عِبَادَنَا إِبْرَاهِيمَ وَإِسْحَاقَ وَيَعْقُوبَ أُوْلِي الْأَيْدِي وَالْأَبْصَارِ

“(Ey, Muhammad,) quvvat va farosat egalari bo‘lgan bandalarimiz – Ibrohim, Is’hoq va Ya’qublarni eslang!”.

Ushbu oyatda ularni qanday xislat bilan ustun qo‘yilgani marhamat qilinadi:

إِنَّا أَخْلَصْنَاهُم بِخَالِصَةٍ ذِكْرَى الدَّارِ

Biz ularni (bir) xislat – (oxirat) diyori eslatmasi bilan xos qildik [Qur’oni karim 38, 45].

Husayn Voiz Koshifiyning “Tafsiri Husayniy” nomi bilan shuhrat tutgan va o‘g‘li Faxriddin Ali Safiyga atab yozilgan “Mavohibi Aliyya” tafsirida mazkur oyatning tafsiri shunday keltiriladi: “Bandalarimiz Ibrohim, uning og‘li Is’hoq va nabirasi Ya’qub a.s.larni eslang. Ular kuchli qo‘l va basirat sohiblari edilar (ko‘zdan murod – sharif amallar va foydali ilmlar, yana qo‘ldan murod – toatdagi quvvat, ko‘zdan murod – dindagi basiratdir).

Abul-fatiyyon – “Fatiylar otasi” unvoniga ega bo‘lgan Ibrohim, Is’hoq va Ya’qub alayhissalomlarning zikri kelgan oyatni Pahlavon Mahmud zikri asnosida keltirilishi uning shunday ulug‘ maqomiga ega bo‘lganidan dalolatdir.

Pahlavon Mahmud Puryorvaliy javonmardlik tariqatining peshvosi sifatida faoliyatining bosh mezonini xalqqa ko‘mak berish, o‘zini emas ko‘proq o‘zgalarni o‘ylash oqibatida javonmardlik maslagining yirik peshvosi sifatida tanilgan edi. Alisher Navoiy aynan shuni yaxshi anglagan holda “yoshurun suluk va riyozatga ega ermish” deya ishora qilib o‘tgan [Navoiy (a) 2001, 340-342].

Anbiyolar tarixida hazrati Odam atodan to Muhammad (s.a.v.)gacha bo‘lgan payg‘ambarlarning barchasi javonmard bo‘lishgan. Buni ularning qilgan amallarida ko‘ramiz, zero javonmardlik amaliy ishlari bilan o‘rnak bo‘luvchi maslakdir. Ollohning do‘sti deb vasf qilingan Xalil ur-Rahmon – Hazrati Ibrohim bu maslakda “Abul-fatiyyon”, ya’ni “Fatiylar otasi” nomiga, Habib ur-Rahmon bo‘lgan Hazrat Muhammad s.a.v. esa “Sayyid ul-fatiyyon” – “Fatiylar sayyidi” (Fatiylar boshlig‘i) degan nomlarga musharraf bo‘lganlar.

Ibrohim (a.s.) haqida Rabg‘uziy yozadi: “Ibrohim va Abrohom. Bu qamug‘ lug‘atlar durust turur, ya’ni Abun rahimun-bag‘irsoq ota temak bo‘lur” [Рабғузий 1990, 60.] Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo”da shunday yozadi: “Va Ibrohim alayhissalomning umri ixtilofida yuz to‘qson besh yil debdurlar. Va Shom navohiysida Jabrun qaryasida Tengri taolo rahmatig‘a bordi va ani Sora yonida dafn qildilar. Laqabi Xalilulloh va Xalil ul-Rahmondur. Va kunyati Abuz-zifyon va Abul-anbiyo va Abul-Muhammaddur. San’ati dehqonliq va Ibrohim Abu rohimdur, ya’ni rahmliq ota. Anbiyog‘a millat atosidur” [Navoiy (b) 2000,].

Parchadagi Abuz-zifyon – “mehmonlar otasi” demakdir. Alisher Navoiy Ibrohim (a.s.)ning favqulodda saxovati va javonmardligi, mehmonnavozligining sabablaridan birini quyidagi voqea bilan dalillagan: “...Ibrohim alayhissalom shodmon bo‘lub, Tangri taolo hazratida shukr qoidasin bajo kelturub va Makkada Ka’ba uyin bino qildi va ul uy tamomg‘a yetkondin so‘ngra, manqul-durkim, shukr qilib, uchasin Ka’ba devorig‘a qo‘yub, tafoxur qildikim, bu uyin tugotdim deb. Xitob keldikim, bir ochnimu to‘yg‘oribsen yo bir yalong‘ochni butkoribsenkim, mubohat qiladursen?!” [Navoiy (b) 2000,]. Parchadan ma’lum bo‘ladiki, Ibrohim a.s. o‘g‘li bilan Ka’bani qurgach, faxrlanganida, Yaratgan tomonidan, nega faxrlanasan, biror ochni to‘yg‘azdingmi yoki biror yalang‘ochni kiyintirdingmi, degan xitob keladi. Shunda Ibrohim a.s. dunyodagi eng muhim

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

fazilatlar ochni to‘yg‘azish va birovning ustini but qilish ekanligini anglaydi. Pahlavon Mahmud ruboiylaridan birida yozadi:

Botir kuchini ko‘rsatadi har kishiga,
Yuz qal’a ushalgay tob bermay kuchiga.
Yuz yil tunu kun namozu ro‘za qilsang,
Yetmaydi bir ochni to‘yg‘azishlik ishiga. бemu

Shayx Sa’diyning “Bo‘ston” asari ikkinchi bobidagi hikoyatda Ibrohim a.s.ning majusiy mehmonni kutib olishi shunday tasvirlangan: *Eshitishimcha, bir haftacha biror yo‘lovchi Xalil mehmonxonasiga tashrif buyurmadi. Odatiga ko‘ra, birov kelib qolarmikan, deb yo‘lga qarardi. Ko‘chaga chiqib vodiy tomonga qarab, ko‘rdiki, biyobon ichra xuddi bir terakdek soch-soqolini oq oralagan bir qariya tanho yurardi. Mehmondorlik yuzidan marhabo unga dedi: karamli zotlar kabi huzuriga chaqirdi: ey ko‘zlarimiz qorachig‘i bizning nonu-tuzimizga sheriklik qilib, bir odamgarchilik qilgin. Xo‘p dedi u va o‘rnidan turib alayhissalom mehmonlari halqasiga qo‘shildi. Xalil mehmonxonasining boshqa mehmonlari ezilgan qariyani izzat-ikrom bilan to‘rga o‘tkazishdi. Unga ehtirom ko‘rsatdi, barchasi o‘tirib ovqatlana boshlashdi. O‘tirganlar barchasi “Bismilloh” deb boshlashdi, lekin hech kimning qulog‘iga qariyaning og‘zidan bunday boshlash eshitilmadi. Shunda ular qariyaga qarab, senda Yaratganga nisbatan sidqu safolikni ko‘rmayapman, deyishdi. Axir tanovuldan avval Xudovandi razzoqni eslash shartlarning sharti emasmi? Ozarparast qariyalardan eshitmagan amalimni men qo‘llamayman, dedi u. Payg‘ambar bildiki, bu chol gabr, ya’ni otashparast ekan. (Unga nisbatan darhol begona ko‘z bilan qaradi va xuddi poklar orasida iflos odam o‘tirgani kabi, nafratlandi. Shunda Jalil zotning xabarchi farishtasi keldi va haybat bilan dedi: Ey Xalil, axir senga yuz yillab rizqu jonni hech qanday minnatsiz bergandi, senga biror nafrat qilmagandi? Agar u otash oldida sajdaga borgan bo‘lsa, bas nega saxiylik qo‘lini undan tortasan?). бemu*

Ibrohim Xalilulloh (a.s.)ning javonmardligi to‘g‘risida Shayx Najmiddin Muhammad Zarkub Tabriziyning (vafoti h.q. 712/mil.1313-yil) futuvvatnomasida shunday keltiriladi: “Ibrohim alayhissalom butun vujudi bilan Haq taologa tavajjuh qilib,

“ إِنِّي وَجَّهْتُ وَجْهِيَ لِلَّذِي فَطَرَ السَّمَاوَاتِ وَالأَرْضَ حَنِيفاً وَمَا أَنَاْ مِنَ الْمُشْرِكِينَ

Men to‘g‘ri yo‘lni tanlagan holimda yuzimni osmonlar va Yerni ixtiro etgan Zotga qaratdim. Men mushriklardan emasman", - dedi. [Qur’oni karim 6, 79] Boshqa hech kimga yuzini burmadi va hech kimdan ham qo‘rqmadi. Qachonki uni manjaniqda olovga otishganida Jabroil a.s. havoda uchib borayotgan holida kelib so‘radi: “Ilayka hajatahu? (Senga yordam kerak emasmi? Ibrohim a.s javob bedi: “Hojatim bor, lekin senga emas, mening holimdan xabardor Zot mening hojatimni ham biladi, shuning o‘zi men uchun kifoyadir. Lojaram, olov uning uchun rayhonga aylandi va sog‘-salomat tushdi. Olloh taolo marhamat qiladi:

قُلْنَا يَا نَارُ كُونِي بَرْداً وَسَلَاماً عَلَى إِبْرَاهِيمَ

Biz aytdik: “Ey, olov, Ibrohim uchun salqin va omonlik bo‘l!” [Qur’oni karim 21, 69]

Abdurazzoq Koshoniyning “Tuhfat ul-ixvon” asarida shunday keltiriladi: Valiylik nuqtasining avval va uni boshlab bergan, vahdat ma’nosini keng yoydi, futuvvat va valiylikning har ikkalasi unda namoyon bo‘lgan, muqaddas nafasli Ibrohim a.s.edi. Tajrid yo‘liga birinchi qadam qo‘ygan inson edi, dunyo va uning lazzatlaridan o‘zini chetga oldi hamda dunyoning shahvat va taxminlariga, ikkilanishlaridan uzoqqa qochdi, otasiyu onasidan, qavmu qarindoshlaridan ajralib kun kechirdi, ahli oilasidan, aziz insonlaridan, odatdagi tabiiy lazzatlardan va vatanidan hijratda bo‘ldi hamda Haq muhabbatida turli balolar va mashaqqatlarni o‘z gardaniga oldi, haqiqat uchun kurashdi va bu yo‘lda barcha g‘urbatlarga sabr qildi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Sanamlarni sindirishda va raqiblari bilan munozarada qo‘rqmadi, dushmanlar ham uning javonmardligidan ogoh bo‘lishdi, ayni shu sifatlarga ega Ibrohim a.s. edi. Darhaqiqat, Haq taolo undan shunday xabar beradi:

قَالُوا سَمِعْنَا فَتًى يَذْكُرُهُمْ يُقَالُ لَهُ إِبْرَاهِيمُ

Ular (ayrimlari) aytishdi: "Ularni gapirib (ayblab) yuradigan Ibrohim degan bir yigitni eshitgandik" [Qur’oni karim 21, 60].

Ham zohiriy, ham botiniy fazilat sohibi futuvvat manbai bo‘lgan Ibrohim a.s. ziyofati qoidasi, muruvvat asosi, taomni bitta yemaslikka, o‘z farzandining qurbonligiga rozi bo‘lish esa fidokorligining naqadar yuksakligini ko‘rsatdi, shu orqali qurbonlik sunnat bo‘lib qoldi, o‘z vaqtini zikru samo’ bilan o‘tkazishni xush ko‘rar edi, barcha mollaridan Alloh zikrini takrorlashni afzal ko‘rgan, Haq zikrini doimo takrorlashda deb bilgan. Xabarlarda keltiriladiki, Jabroil a.s. Hazrati Haq subhonahu va taolodan: “Yo, Rab, Ibrohim a.s.ni ko‘plab mollariyu dunyoviy ne’matlari bilan shunday ulkan darajalarga yetishishining hikmati nimada? – deb so‘raydi. G‘oyibdan: “Uning ko‘ngli moli bilan emas, balki bizlar bilandir. Agar xohlasang sinab ko‘r!” degan xitob keldi. Jabroil a.s. Ibrohim a.s. turgan joy orqasiga bir kishi qiyofasida keladi va chiroyli ovoz bilan: **“Subbuhun, quddusun Robbil malaikati var-ruh”** deb tasbeh ayta boshlaydi. Buni eshitgan Ibrohim (a.s.)ning vaqti xush bo‘lib, uning oldiga boradi va kalimalarni yodlab olishi uchun yana qaytarishini so‘raydi. Jabroil (a.s.): “Buning evaziga molingning uchdan birini menga bag‘ishla”, - deb aytadi. Ibrohim (a.s.): “Bag‘ishladim”, – deydi. Jabroil a.s. tasbehni qayta o‘qiydi. Ibrohim (a.s.) : “Yana uchdan birini ham olginda, yana bir marotaba o‘qigin” deb yana so‘raydi. Jabroil tasbehni yana takrorlaydi. Ibrohim (a.s.): “Hammasi seniki. Yana bir marotaba qaytar" [Rasoili javonmardon. 10-11.], – deb aytadi.

Yusuf surasida keltirilgan va arabiy va forsiy futuvvatnomalarda ko‘plab bahsu mulohazalarga sabab bo‘lgan Hazrat Yusufi siddiq (a.s.)ning o‘z iffatini saqlashida, akalari gunohini kechirishida uning javonmardligi namoyon bo‘ladi. Hazrati Yusufi siddiq ham Misr azizining xotini va boshqa xotinlardan boshiga tushgan gunohu ma’siyatlardan qochish, ma’sumu poklikda sobitqadam bo‘lishni o‘ylab qattiq balolarga duchor bo‘ldi hamda zindonni isyonu gunohdan afzal ko‘rdi. Akalari uni halok qilish, yo‘qotish va badnom qilishga qancha harakat qilmasinlar, Yusuf ularga ularning barcha jafolariga avfu marhamat bilan javob qaytardi va ularga:

قَالَ لاَ تَثْرِيبَ عَلَيْكُمُ الْيَوْمَ يَغْفِرُ اللهُ لَكُمْ وَهُوَ أَرْحَمُ الرَّاحِمِينَ

U dedi: “Bu kun sizlarga ayblov yo‘q. Alloh sizlarni mag‘firat qilgay. U rahm qiluvchilarning rahmlirog‘idir” [Qur’oni karim 12, 92], deya xitob qildi. Darhaqiqat, u ham anbiyolar orasida haqiqiy javonmardlardan biri edi.

Boshqa mashhur anbiyolarning javonmardligiga oid rivoyatlar ham quyidagi sarlavhalar bilan berilgan mavzularga bog‘liq holda keltiriladi: “Hazrati Odamning tavbasi va pushaymonligi”, “Hazrati Nuhning raqiblariga va kofirlarga qarshi sabr va bardosh bilan turib berishi”, “Hazrati Dovudning zirh (javshan) to‘qishi va Sulaymon a.s.ning savat to‘qishi va har ikkalasining garchi nabiylik va podshohlik martabasida bo‘lsa-da, mazkur kasb orqasidan tirikchilik o‘tkazishi”, “Hazrati Yuv’sha ibn Nunning Hazrat Muso va hazrati Horunga yordam berishi va hamkorlik qilishi hamda uning qo‘rqmasligi va javonmarligi”, “Hazrati Musoning Shu’ayb payg‘ambarga bergan ahdida turishi” va boshqalar. Bulardan tashqari, bizgacha yetib kelgan boshqa payg‘ambarlarning hayotida kechgan ba’zi voqealar ularning javonmardliklaridan namunadir. “Kahf” surasida keltirilganidek, Hazrati Yuvsha bin Nunning xolisi dil bilan xizmat ko‘rsatishi va ilmsevarligi ushbu mavzu doirasidagi muhim ma’lumotlardandir.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Payg‘ambarlardan keyin futuvvat peshvolari jumlasiga Qur’onda ham zikri keltirilgan – Kahf g‘origa yashiringan do‘stlar hisoblanadi. Ular Rum ahlining solih va mo‘min aholisidan bo‘lib, Daqyonus podsholigi davrida yashagan edilar. Ular masihiylik diniga e’tiqod qilgan va ergashgan insonlar edilar. O‘z e’tiqodu iymonini himoya qilish, saqlash uchun tog‘ga qochib borib, g‘orda, tog‘ yo‘lagida panoh topib, mazkur joyda vafot etishadi, lekin kofir podshohga va mustabid vaqtga bo‘yin egishmaydi. Ularning hayot yo‘llari, xususan, futuvvat maslagi jihatidan – ibrat va basirat ko‘zi bilan qaraganda saxovat va javonmarlikning namunasidir. Shu bois ularning nomi ko‘plab futuvvatnomalarda, Qur’on tafsirlarida keltiriladi. Xususan, Kahf surasida ular fatiylar yoxud javonmardlar nomi bilan eslab o‘tiladi. Futuvvat va javonmardlikka bag‘ishlangan ba’zi manbalarda ular haqida ma’lumotlar juda keng berilgan. Chunonchi Abul-futuh Roziyning tafsirida hamda hijriy-qamariy 520/1126 yili yozilgan Abulfazl Rashididdin Maybudiyning “Kashf ul-asror va’dat ul-abror” asarida as’hobi Kahfning iymonlarining naqadar kuchli bo‘lgani bayon qilingan. Jumladan, uning uchinchi bo‘limida quyidagilar keltiriladi: “Butun olamlar egasining as’hobi Kahfga bo‘lgan buyuk sharafoti, yuksak karomati va benihoya hurmatu ehtirom qo‘ygani shunda ko‘rinadiki, ularni javonmardlar deb atadi va dedi: “Innahum fatiyya” [Qur’oni karim 18, 9-22]. Shuningdek, Hazrati Yuvsho bin Nuhga qilgan lutfi haqida shunday deyiladi: “Va iz qola Muso lifatahu” [Qur’oni karim 18, 60]. Barcha javonmardlarning sarvari Yusufi siddiq (a.s.) bo‘lgan edi, u akalariga ko‘rsatgan marhamati, ya’ni unga bergan turli azobu uqubatlariga qaramasdan, xatolaridan ko‘z yumdi va “Bu kun sizlarga ayblov yo‘q” deya xitob qildi.

Koshoniyning "Tuhfat ul-ixvon" asarini boshqa bir o‘rnida shunday deiladi: “Nubuvvat nuqtasining boshi – Odam (a.s.)dir, uning qutbi – Ibrohim (a.s.) oxiri – Muhammad s.a.v.dir. Har birining laqabi Safiyulloh, Xalilulloh va Habibulloh ayni shunga dalolatdir. Muhammad s.a.v. barcha anbiyolarni Ibrohimga tobe’ bo‘lishga chaqirishi uning bu yo‘lda qutb ekanligiga guvohdir. Olloh taolo marhamat qiladi:

وَمَنْ أَحْسَنُ دِيناً مِّمَّنْ أَسْلَمَ وَجْهَهُ لله وَهُوَ مُحْسِنٌ واتَّبَعَ مِلَّةَ إِبْرَاهِيمَ حَنِيفاً وَاتَّخَذَ اللهُ إِبْرَاهِيمَ خَلِيلاً

“Ezgu ish qiluvchi holida yuzi (o‘zi)ni Allohga bo‘yin sundirgan va to‘g‘ri yo‘l (sanalmish) Ibrohim diniga ergashgan kishidan boshqa kimning dini chiroylidir?! Alloh esa, Ibrohimni do‘st tutgandir” [Qur’oni karim 4, 125].

“Futuvvatnomai Shayx Abu Hafs Umar Suhravardiy” asarida: Futuvvat Odamdan Shishga, Shishdan Ibrohimga, Ibrohimdan Ismoilga (alahim us-salom) xuddi shunday naslma-nasl to Muhammad mustafo s.a.v.ning nubuvvat davrlariga yetib keldi", – degan fikrklarni o‘qiymiz .

Ba’zi so‘fiylar futuvvat maslagini ko‘kka ko‘tarib, ushbu maktabning odobu rasm-rusumlarini o‘zilarga ixtiyor qilganlar. Xuddi shuningdek, ba’zi futuvvat ahli irfon (tasavvuf nazariyasi)ga intilib, unga hurmat bildirganlar. Bu holat futuvvat va tasavvuf o‘rtasidagi aloqalarning yanada yaqinlashishiga sababchi bo‘ldi. Tasavvuf axloqi va tarbiyasi futuvvat tariqati rivojiga anchagina ta’siri ko‘rsatgan. Ushbu masalalarga oid fikrlarni bir qancha arabiy va forsiy manbalarda uchratish mumkin. Jumladan, Mustamliy Buxoriyning “Sharhi ta’arruf”, Hujviriyning “Kashf ul-mahjub”, Shayx Abu Tolib Makkiyning “Qut al-qulub” asarlari shular jumlasidandir. Shuningdek, futuvvat haqidagi qadimiy mustaqil manbalardan hisoblangan Abdurahmon Sulamiyning (vafoti 412/1022-y.) “Kitob al-futuvvat”, Qushayriyning (vafoti 465/1073) “Risolai Qushayriya” nomi bilan mashhur risolalari, Shayx Farididdin Attorning “Tazkiratul avliyo” asari, Shahobiddin Umar Suhravardiyning “Kitob al-futuvva” asari, Muhyiddin Ibn al-Arabiyning “Futuhoti makkiya” asari, Muhammad Avfiy Buxoriyning (vafoti

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

635/1238-y) “Javome’ ul-hikoyot va lavome’ur-rivoyot” asari, Ibn al-Me’mor al-Hanbaliyning “Kitob al-futuvva” asari, Nosiriyning she’riy futuvvatnomasi, Sayyid Ali Hamadoniyning “Risolai futuvvatiyya” asari, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoniy”, doktor Komil Mustafo Shaybiyning yangi “As-salatu baynat-tashi’a vat-tasavvuf” va shu kabi boshqa so‘fiylarga bag‘ishlangan tazkirasida va boshqa o‘rinlarda so‘fiy shayxlar futvvati haqida ma’lumotlar keltiriladi. Demak, so‘fiy va oriflar fikr tarzlari futuvvatning asosiy usullari bilan ancha o‘xshash; ularning hayotini saxovat asosiga qurishi, nafsni yengishga bo‘lgan jiddu jahdi mazkur maslakka amal qilganliklaridan edi. Hij.-qam. 240 yili (855) vafot etgan Abu Homid Ahmad bin Xuzravayh Balxiy, hij.-qam. 264 (878) yili yoki 267 (881) yili vafot etgan Abu Hafs Amr bin Salama Haddod Nishopuriy javonmard va fatiylarning dastlabki sarvarlaridan bo‘lganlar.

Shayx Muhyiddin ibn Arabiy fikricha, birinchi bo‘lib futuvvat maslagiga malomatiy so‘fiylar e’tiqod qilishgan. “Innal-fatiyyon talamizat ul-malamatiyya” (Fatiylar malomatiylarning shogirdlaridir). Ba’zi yozuvchilar ham bu qarashni yoqlashgan, ba’zilari rad qilishgan. (Abu Homid Ahmad zikrida shunga ishora qilib o‘tdik). Nishopurda paydo bo‘lgan malomatiylik so‘fiylari “va laa yaxofuna lavvamatun laim” [Qur’oni karim 5, 54] (malomatchining malomatidan qo‘rqmaydigan bo‘lurlar) oyatiga ko‘ra, malomatga sabr va o‘zlarini bag‘ishlashgan hamda mollarini hadya qilish, nafs bilan kurashishda boshqalardan ilg‘or bo‘lishgan.

Abu Abdurahmon as-Sulamiy marhamat qiladilar: Ushbu toifaga kiruvchilarning biridan so‘rashdi: “Javonmard nomiga loyiq kimsa kim?”. U javob berdi: “Bu shunday kishiki, Odamning uzr so‘rashini, Nuhning ko‘ngilchanligini, Ibrohimning vafosini, Ismoilning sadoqatini, Musoning axloqini, Ayyubning sabrini, Dovudning yig‘isini, Muhammad s.a.v.ning saxovatini, Abu Bakrning kuyinishini, Umarning g‘ururini, Usmonning hayosini, Alining ilmini – barcha-barchasiga ega bo‘lsa, o‘z nafsiga raqobatda bo‘lsa, uni azoblasa, o‘zida bor narsalarni hech narsa emas deb bilsa, gohida ko‘nglidan menda ham biroz fazilat bor, holatim anchagina ko‘zga tashlanadigan holda kabi fikrlarini kechirmasa. Har qanday holatda nafsining ayblarini va o‘z kirdikorlarining hamda birodarlarining fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirsa... ayni shu kishidir”.

Ali bin Abu Bakr Ahvoziy ismli malomatiy shunday deydi: “Asl javonmard shuki, o‘zida birorta ham fazilat ko‘rmaydi, ya’ni fazilatini ko‘z-ko‘z qilmaydi (o‘zini haqir sanaydi – tarj.)” [Afifiy. Malomatiylar, so‘fiylar va javonmardlar. 21, 24, 73-sah.].

Malomatiylar va fatiylarning aloqalari to‘g‘risida Hamdun Qassor Nishopuriyning (vafoti 271 hijr.) Nuh Ayyor haqidagi hikoyatlari juda ta’sirlidir. Hamdun Qassor shunday marhamat qiladi: “Bir kuni Nishopur arig‘i yonidan o‘tib ketayotgan edik. Nuh ismli bir ayyor bor edi, Nishopurning barcha ayyorlari uning qo‘li ostida edilar, uni yo‘lda ko‘rdim va so‘radim: Ey Nuh, javonmardlik nimadir?. U dedi: Mening javonmarligimni so‘rayapsanmi? Har ikkalasi haqida aytaver, dedim. U dedi: Mening javonmardligim shundaki, bu qaboni yechib, muraqqa’ kiyaman. so‘fiy bo‘lish uchun muomalani o‘z joyiga qo‘yaman, xalq uyatidan va ma’siyatdan parhez qilaman. Sening javonmardliging shuki, toki sen xalqqa va xalq senga gapirmasligi uchun muraqqa’ni chetga tashlaysan. Bas, mening javonmardligim faqat zohiran shariatni himoyalashdir, sen haqiqatni saqlaysan, o‘z sirlari va ushbu kuchli aslga ega bo‘lgan [Kashful-mahjub. 228.].

Malomatiylari kuchli taqvo egalari bo‘lishgan. Professor Hartonning fikriga ko‘ra fatiylar kengfe’l bo‘lganlar ular “futuvvat ahli taqvo va sharafni bir-biriga jamlashgan” [Kashful-mahjub, 228-s].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Fatiylarning turli amallari, harakatlari va faoliyatlarida hech narsa yashirin bo‘lmagan, balki ular barcha amallarini boshqalarni tashviq va targ‘ib qilish uchun ochiq-oydin bajarishgan. Sullamiy o‘z risolasida malomatiylikning qirq besh usul va odobini bayon qilganki, ularning ba’zi birlari javonmardlarning odobu ravishlari muxolif (qarama-qarshidir). Lekin orasida o‘zaro mushtarak bo‘lgan usullar ham bor, albatta (masalan, mukofotga ko‘z tikmasdan, umid qilmasdan boshqalar huquqini ado qilmoqlik, boshqalardan himoyalanish holatida yumshoqlik bilan muomala qilmoq, boshqalar aybini va dushmanlarni nafs havosi bilan yopmoq kabi). Ammo so‘fiylar o‘z nafsini muttaham deb bilish, to‘rtta zikrni (lisoniy, qalbiy, sirriy va ruhiy) va sirriy ta’limni va malomat qo‘zg‘ovchi harakatlar, shuningdek, boshqalarning malomatiga sabab bo‘lish uchun g‘aflatini namoyon qilish, yaxshi duolarining qabul bo‘lishi uchun xavotirga tushish va shu kabi amallarni zaruriy deb hisoblamaganlar.

Misrlik olim doktor Abula’lo Afifiy Misriy futuvvat ahlining malomatiylarga tashqi va ichki ta’siri ko‘proq ekanligini rad etsa, professor Harton hamda “Nafoyis ul-funun va aroyis ul-uyn” asari muallifi bu fikrlarni yoqlaydi.

Vikepideya saytida ular haqida shunday yoziladi: “Malomatiylik asoschilari: Abu Hafs Haddod Nishopuriy (267-70 h.q.), Hamdun Qassor (271 h.q.) Abu Usmon Hiraviy (298 h.q.) bo‘lishgan. Bularning orasida Hamdun Qassor boshqalarga nisbatan malomatiya tariqatiga birinchi bo‘lib kirgan va bu toifaning raisi, shayxi hisoblangan.

Futuvvat va tasavvufning bog‘liqligi to‘g‘risida ba’zi olimlarning asarlarida boshqa nuqtai nazarlari ham e’tiborni tortadi. XIV asrning ulamolaridan bo‘lgan alloma Muhammad Omiliy shunday marhamat qiladi: “To futuvvat o‘z maromiga yetmas ekan, valiylikning boshlanishi hosil bo‘lmaydi... futuvvat tasavvufdan bir bo‘lakdir. Javonmardlar xushdil va shodmon bo‘ladi, yaratilmishlarning mushfiq va nasihatgo‘yi din va dunyo islohi uchun, diniy va dunyoviy muhim ishlarga betakalluf turishadi, o‘zlari kasbga mashg‘ul bo‘lsalar-da, barcha do‘stlariga yordamda va o‘rinbosarlikda bo‘lishadi” [Nafoyis ul-uyun, 2-jild, 112-114].

Xulosa

Futuvvat va tasavvuf bir-biri bilan mustahkam bog‘langan. Mutasavvuf olimlar tasavvufni xoslar uchun va javonmardlikni omma – xalq uchun deb bilganlar va har ikkisining birgalikda rivojlanganligini ta’kidlaganlar. Albatta, yuqorida aytib o‘tganimizdek, mazkur bog‘liqlikni mutlaqo malomatiya firqasi orqali mavjud, deb tushunmaslik lozim. To‘g‘ri, so‘fiylar va malomatiylarning ulug‘lari javonmardlar haqida so‘z yuritganda, ularning nazarlarida ko‘proq javonmardlik xislatiga ega bo‘lgan malomatiylar bo‘lgan. Bunga ko‘ra, faqatgina javonmard bo‘lgan malomatiylar yoki malomatiylikni qabul qilgan javonmardlar javonmardlikning zikr etib o‘tilgan sifatlari va tavsiflarga ega bo‘lgan emaslar. Binobarin, malomatiylarning hayoti va faoliyatlarida kelgan javonmardlik va futuvvat fazilatlari ularning “mutlaq javonmardlik tashkilotiga va maslagiga” aloqador bo‘lishgan haqiqiy javonmard timsolini ko‘rsatmaydi. Shuning bilan birga malomat, tasavvuf va futuvvat bir-biriga bog‘liq bo‘lgan maslaklardir.

Mazkur mulohazalardan shu narsa aniqki, futuvvat tariqati aslida, tasavvufiy axloq qoidalari, odobu rusumlaridan oziq olgan maslak hisoblanadi. Islom va tasavvuf nazariyasi futuvvat amaliyotining poydevorini mustahkam ushlab turgan asosdir. Poydevori islom va tasavvuf axloq-odobi bilan mustahkamlangan javonmardlik yoxud futuvvat maslagi hayot uchun muhim amaliy yo‘nalish va tarbiya maktabi hisoblangan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulhusayn Zarrinkub. Justijo‘ dar tasavvufi Eron. Tehron: Muassasai intishoroti amiri kabir. 1385/2006.
2. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. – T.: Fan. 2001.
3. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. – T.: Fan.2000.
4. Doktor Abul A’lo Afifiy. Malomatiylar, so‘fiylar va javonmardlar. 21, 24, 73-sah. Kobul, h.sh. 1344/1966.
5. Dr. Ibrahim Arslano‘g‘li. Yazari belli olmayan bir futuvvatname. Ankara. 1997.
6. Rabg‘uziy Nosiruddin Burhonuddin. “Qisasi Rabg‘uziy” (Mas’ul muharrir N.A.Asilova. So‘zboshi E.Fozilovniki). K.I. – T.:Yozuvchi, 1990. – B 60.
7. A.M.Shoytov. “Javanmardi” v persidskom dastane. – M.:Nauka. 1972. 48-61-str
8. Eronzamin madaniyati. Jurnal №10, 1341 h.sh./1963 yil; Futuvvatnomai manzum Nosiri Sivosiy. 240-243 sahifalar; Hayot al-qulub, 1-jild, 299-304 sahifalar.
9. Qur’oni karim ma’nolarining izohli tarjimasi. Shayx Abdulaziz Mansur. –T.: Islom universiteti. 2011.
10. Hujviriy. Kashful-mahjub.

СЎЗЛАРНИНГ ЯГОНА ТУЗИЛМА ТАРКИБИДА БИРИКИШ ҚОНУНИЯТЛАРИ

Бобоева Мадина Ҳайдаровна
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети докторанти

Аннотация. *Мақолада инглиз тили грамматикасига хос бўлган предлогли сўз бирикмаларини кўпжиҳатли ҳодиса сифатида талқин қилиш асносида уларнинг структур-семантик, полифункционал, деривацион хусусиятлари ҳосил бўлишининг концептуал асоси, уларнинг матн таркибида бажарадиган вазифалари ҳамда ушбу турдаги сўз бирикмаларини ўзбек тилига таржима қилишда учрайдиган қийинчиликларни ўрганиш мақсади кўзланган. Инглиз тили предлогли сўз бирикмаларига полифункционал бирлик сифатида турли вазифалар ва ифода хусусиятлари хос, деган хулоса илгари сурилади.*

Калит сўзлар: *тилшунослик, синтаксис, сўз бирикмаси, таълимот, назария, хусусият, морфология, лисоний бирлик, эквивалент.*

ЗАКОНЫ СОЧЕТАНИЯ СЛОВ В ЕДИНОЙ СТРУКТУРЕ

Бобоева Мадина Хайдаровна
Докторант Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека

Аннотация. *В статье приводятся концептуальные основы для формирования структурно-семантических, полифункциональных, деривационных особенностей толкования предложной лексики, характерных для грамматики английского языка как многосложного явления, задачи, которые они выполняют в структуре текста, а также цель изучения трудностей,*

возникающих при переводе этого типа словарного запаса на узбекский язык. Делается вывод о том, что различные задачи и особенности словосочетания характерны для предложной лексики английского языка как полифункциональной единицы.

***Ключевые слова**: лингвистика, синтаксис, словосочетание, доктрина, теория, признак, морфология, языковое единство, эквивалент..*

LAWS OF COMBINATION OF WORDS IN A SINGLE STRUCTURE

Boboyeva Madina Khaydarovna
PhD student of National University of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

***Abstract.** The article provides for the conceptual basis for the formation of structural-semantic, polyphunctional, derivational features of the interpretation of prepositional phrase characteristic of English grammar as a multi-cohesive phenomenon, the tasks they perform in the structure of the text, as well as the purpose of studying the difficulties encountered in translating this type of phrases into Uzbek. The conclusion is made that various tasks and features of expression are characteristic of English prepositional phrases as a polyphunctional unit.*

***Keywords:** linguistics, syntax, phrase, doctrine, theory, feature, morphology, linguistic unit, equivalent.*

Кириш

Бугунги кун дунё тилшунослигида тил соҳибларининг онгида оламни концептуаллаштириш ва лисоний воқелантиришнинг ўзига хос когнитив механизмлари тадқиқоти доирасида маълум тематик майдонга тегишли лексик бирликларни структур-семантик, коммуникатив-прагматик, қиёсий-типологик ва лингвомаданий кўринишларда таҳлил этиш каби устувор йўналишларда изланишлар олиб борилмоқда. Замонавий тилшунослик учун воқеликда кечаётган ҳодисаларни лисоний номлаш, уларни коммуникатив воқелантиришнинг асосий воситаларидан бири бўлган предлогли сўз бирикмаларининг полифункционал моҳиятини уларнинг вазифалари, мазмун ифодалаш ва ахборот етказиш борасидаги имкониятлари билан боғлиқ ҳолда ўрганиш, инглиз тили предлогли сўз бирикмаларини ўзбек тилига таржима қилишда учрайдиган қийинчиликларни таҳлил қилиш, сўз бирикмаларининг матн таркибида бажарадиган вазифаларини ёритиш, инглиз ва ўзбек тилидаги сўз бирикмалари орасидаги умумий ва фарқли хусусиятларни қиёсий жиҳатдан аниқлаш муҳим ўрин тутади.

Адабиётлар таҳлили

Ғарб тилшуносларидан Ҳ.Суит, Е.Круисинга, О.Есперсен, Й.Рис, О.Беҳагел каби олимларни асосан яхлит маънони ифодалаш учун бирикаётган луғат бирликларининг эркин бирикма ёки идиома ҳосил қилиши масаласи ҳамда ушбу бирикмаларнинг структур тузилиши қизиқтирган бўлса, Ф.Ф.Фортунатов, А.А.Шахматов, А.М.Пешковский, В.В.Виноградов каби рус тилшуносларининг эътибори сўз бирикмаси компонентлари ўртасида юзага келадиган синтактик муносабатларни аниқлашга қаратилди. С.Э.Шодиев, Н.А.Саъдуллаева, Ш.Т.Махмараимоваларнинг ишларида сўз бирикмалари структур-синтетик ва семантик турларга ажратилиб тадқиқ қилинди.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Тадқиқот методологияси

Кейинги йилларда турли мамлакатларнинг тилшунослари сўз бирикмаларининг таснифий белгиларини аниқлаш, уларни гуруҳларга ажратиш ва тиллараро қиёслаш муаммоларини тадқиқ этишган, жумладан, Е.В.Юрьева инглиз тилидаги отли СБларининг турли услубларда қўлланилишини, И.П.Шишкина отли СБларининг матн структурасидаги вазифаларини ўрганган бўлса, Л.Н.Мурзин дериватология соҳасида жиддий изланишлар олиб борганлар.

Таҳлиллар ва натижалар

Сўз бирикмаси тизимини мукаммал ўрганиш ҳаракатлари ўтган асрнинг ўрталарида янада жадаллашиб, ушбу тизим бирлигини сўз ҳосил қилувчи морфосинтактик, синтагматик, семантик омилларни тавсифлаш ва сўз бирикмаларини бошқа лисоний бирликлардан фарқлаш ҳамда таснифлаш борасида қатор изланишлар олиб борилди. Изланишлар натижасида эришилган хулосалар сўз бирикмаси тизими ҳақидаги таълимотнинг назарий тус олишига туртки берди. Айниқса, В.В.Виноградовнинг сўз бирикмаси назарияси тараққиётига қўшган ҳиссаси алоҳида. Олим томонидан сўзларнинг ягона тузилма таркибида бирикиш қонуниятлари борасида билдирилган фикрлар кўп йиллардан буён турли тиллар кесимида олиб борилаётган изланишларда етакчи ғоя сифатида эътироф этиб келинмоқда, жумладан, ўзбек тили сўз бирикмалари тизими тадқиқи ҳам ушбу таълимот таъсири даражасидан четга чиқмаган [9; 8].

Маълумки, В.В.Виноградов таълимотида “*сўз бирикмаси*” тушунчаси икки таркибли структура чегарасида талқин қилинади ва бу структура икки мустақил сўзнинг эргашувчанлик, тобелик муносабати орқали бирикишидан ташкил топиб, интонация кўрсаткичлар қаторига ажралмайди ҳамда яхлит, лекин таркибли тушунчаларни ифодалаш учун хизмат қилади [4]. Ўзаро грамматик ва мазмуний жиҳатдан боғланиб объектив борлиқдаги нарса ва ҳодисаларнинг номини билдирувчи синтактик бирлик сўз бирикмаси саналади. Сўз бирикмаси доимо асосан икки қисмдан: ҳоким ва тобе қисмдан иборат бўлади. Кенгаювчи бўлак ҳоким, кенгайтирувчи бўлак эса тобе саналади. Тобе қисм ҳоким қисм талаб қилган грамматик шаклда келади [6].

Синтаксис юнонча *Syntaxis* сўзидан олинган бўлиб, ясаш, тартиб каби маъноларга эга ҳамда нутқдаги сўздан кўра каттароқ бўлган бирликлар ҳақидаги грамматик таълимот ҳисобланади. Синтаксис деганда яна грамматиканинг нутқ ҳосил бўлиш жараёнларини ўрганадиган алоҳида бўлими ҳам тушунилади, бу бўлим гап ичидаги сўзларнинг ўзаро бирикуви ва кетма-кетлик тартиби, шунингдек, тилнинг автоном бирлиги ҳисобланмиш гап ва матн қисмини ташкил этадиган жумлаларнинг умумий хусусиятларини ўрганади. “Синтаксис” атамаси биринчи марта стоиклар (милоддан аввалги III аср) томонидан қўлланилган ва бу тушунча гапларнинг мантиқий мазмуни бўйича кузатувлар билан боғлиқ эди. Бироқ, синтаксиснинг категорияларига қизиқиш юнон мутафаккирларида бундан ҳам илгарироқ мавжуд бўлган ва улар нутқни мантиқий таҳлил қилиш билан боғлиқ эканлигини ушбу тушунча орқали кўрсатишга ҳаракат қилганлар. Қадимги файласуфларнинг (Протагор, Афлотун, Арасту ва бошқалар, кейинчалик - стоиклар) диққат марказида "*логос*" - нутқ, жумла, гап, тўлиқ матн билан бўлинмас ҳолда боғлиқ бўлган тушунча сифатида ўрин олган эди [2].

XX аср тилшунослигида синтаксис предметига нисбатан учта нуқтаи назарни ажратиб кўрсатиш мумкин. Баъзи тадқиқотчилар синтаксисни сўзларнинг ўзаро бирикиши

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

қоидалари ёки қонуниятларини ўрнатишни асосий вазифаси деб ҳисоблайдиган сўз бирикмалари ҳақидаги таълимотдир деган ғояни олға сурадилар. Гапни эса, сўз бирикмаларининг бир тури, мантиқий ёки психологик тафаккур билан боғлиқ бўлган махсус бирлик дея талқин қиладилар. Тадқиқотчиларнинг яна бир гуруҳи синтаксис доирасини гап синтаксиси билан чеклайдилар ва сўз бирикмаларини четлаб ўтиб, сўздан тўғридан-тўғри гапга ўтишади. Масалан, синтаксисни гап ва унинг қисмлари ҳақидаги фан деб таъкидлаган Б.Дельбрюк худди шу таълимотнинг асосчиларидан ҳисобланади. Синтаксисга берилган сўнгги таъриф энг кенг тарқалган бўлиб, у синтаксисни сўз бирикмаси назариясини ҳам, гап ҳақидаги таълимотни ҳам ўз ичига олган тилшуносликнинг бир бўлими сифатида талқин қилишдир [1].

Сўз бирикмаларига қизиқиш ва уни олдинги ўринга чиқариб қўйиш муайян тилларнинг типологик хусусиятларини яхшироқ тушуниш ва акс эттириш имконини беради. Бироқ, бу ёндашув гапни сўз бирикмасидан ажратиб турадиган бир қатор ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олмайди. Ҳарҳолда, сўз бирикмаси назарияси синтактик соҳа билангина чегараланиб қолмаслиги керак, бугунги кунда ушбу назария учун ҳам тилшунослик, ҳам психолингвистикага хос бўлган янги ғоялар, янги усулларга мурожаат қилиш зарурати мавжуд. Бу фикрга келишга сўз бирикмасининг табиати, унинг лисоний бирлик сифатидаги хусусиятлари, сўз бирикмасининг ясалиши, қўлланишига оид турли омилларнинг ўзаро таъсири ҳақидаги кўп йиллар давомида олиб борилган баҳс-мунозаралар сабаб бўлди. Инсон омилига етарлича эътибор қаратилмаган анъанавий грамматика доирасида деярли тўла шаклланишга улгуриб бўлган сўз бирикмаси назариясида ҳам “тилни эмас, балки ўша тилда сўзлашувчини ўрганиш”дан иборат бўлган замонавий фанда бурилиш ясаган нуқтаи назар ушбу фикрга туртки бўлди [5].

Гап тузилмаси таркибида қўлланиладиган сўз бирикмасининг бевосита мулоқот жараёнида қандай ҳаракатланишини тушунтириш учун уни “коммуникатив мақсад ва лисоний белгилар тизими воситасида шаклланган” нутқ фаолияти нуқтаи назаридан кўриб чиқиш зарур [3].

Сўз бирикмасини тавсифлаш, унинг шакли, вазифаси ва ҳудудий чегарасини аниқлаш борасидаги барча баҳслар ва мунозаралар худди шу таъриф доирасида олиб борилди. Таърифларнинг айримларига нисбатан баъзан қарама-қарши фикрлар ҳам билдирилди. Айрим олимлар сўз бирикмаси қисмлари ўртасида тобелик муносабати мавжудлигини инкор этишса, бошқалари сўз бирикмаларига номинатив функция хос эмаслигини исботлашга уринишди. Сўз бирикмасининг тил тизимидаги ўрнини аниқлаш билан қизиққанлар лексик ва синтактик сатҳлар орасида алоҳида бир оралиқ сатҳни қидиришиб, сўз бирикмасини шу сатҳга жойлашга ҳаракат қилдилар [7]. Сўз бирикмалари назариясига оид бундай масалаларнинг узоқ пайтдан буён муҳокама қилиниб келинаётганлигининг сабабларидан бири – ушбу ҳодисани унинг атрофидагилардан ажратиб, автоном кўринишдаги структура сифатида ўрганиб келинаётганлиги билан характерланади.

Хулосалар

Сўз бирикмаларини ўрганишда асосий йўналишларни ҳисобга олиш муҳимдир. Тилшуносликда, энг аввало, сўз бирикмаларини махсус тил бирлиги сифатида ажратиш, унинг, бир томондан, сўздан, иккинчи томондан, гапдан ажратиб турадиган дифференциал

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

хусусиятларини кўрсатиш, шунингдек, унинг тил бирликлари тизимида тутган лисоний мақомини аниқлаштириш муаммолари биринчи йўналиш ҳисобланади.

Иккинчи йўналиш – сўз бирикмаларининг тузилишини ўрганиш, сўз бирикмаларининг асосий моделларини тавсифлаш. Ҳар хил турдаги ибораларнинг тузилиш хусусиятлари, сўз бирикмасининг ядроси ва унга тобе аъзолар ўртасидаги муносабатларни ўрганишдан иборат.

Сўз бирикмаларини ўрганишнинг учинчи жиҳати бу семантик жиҳат бўлиб, ушбу йўналиш қатор тиллардаги турли типдаги сўз бирикмаларига нисбатан ҳали етарлича ривожланмаган.

Ниҳоят, сўз бирикмаларини ўрганишнинг тўртинчи жиҳати қатор функционал услубларда битилган матнларда турли типдаги сўз бирикмаларининг ролини ўрганишдир. Ушбу йўналишлар бўйича олиб борилган тадқиқотлар натижалари сўз бирикмаларини кейинги ўрганиш учун ҳам, матн тузилишини ўрганиш учун ҳам катта қизиқиш уйғотади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Delbrück B. Сравнительный синстаксис индоевропейских языков / Vergleichende Syntax der indogermanischen Sprachen. 3 Bände. Trübner, Straßburg (1893), 1900.
2. Аристотель. Поэтика. М.: Изд-во "Соцэкгиз", 1927. - 183 с.
3. Васильева Н. В., Виноградов В. А., Шахнарович А. М. Краткий словарь лингвистических терминов. М., 1995.
4. Виноградов В.В. Вопросы изучения словосочетаний // Исследования по русской грамматике. М.: Наука, 1975. - С. 231-254.
5. Леонтьев А. А. Язык, речь, речевая деятельность. 3-е изд. М., 2005.
6. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –232 б.
7. Павлов В.М. Понятие лексемы и проблема отношений синтаксиса и словообразования. – Ленинград: Наука, 1985. – 300с.
8. Турниёзов Н. Ўзбек дериватологиясининг бугунги аҳволи ва истиқбол тараққиёти ҳақида//Тил тараққиётининг деривацион қонуниятлари. – Самарқанд, 2009. – 3-6 б.
9. Турсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 400 б.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

THE PROBLEM OF LINGUISTIC AND CULTURAL STUDY OF PHALERONYMIC UNITS IN THE ENGLISH LANGUAGE

Jo'rayeva Nilufar Sobirjon kizi
Master's student of Termiz State Pedagogical Institute.
Kadyrova Muqaddas Togayevna.
Dean of the Department of Foreign Language and Literature of Termiz State Pedagogical Institute
E-mail: shakhodat@mail.ru

Abstract: *Phaleronymic units are an inseparable part of every language, which are found in large numbers in most languages. Since the meaning of these phrases cannot be understood from the superficial meanings of the individual words that make them up, there are some problems in the processes of understanding and translating them.*

Key words: *Phaleronymic units, language, cultural stud, English language*

INGLIZ TILIDAGI FALERONIM BIRLIKLARNI LINGVOMADANIY JIHATDAN TADQIQI MASALASI

Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi
Qodirova Muqaddas Tog'ayevna.
Termiz davlat pedagogika instituti xorijiy til va adabiyot kafedrasi dekani.
E-mail: shakhodat@mail.ru

Annotatsiya: *Faleronimik birliklar har bir tilning ajralmas qismi bo'lib, ko'pchilik tillarda ko'p uchraydi. Bu iboralarning ma'nosini ularni tashkil etuvchi alohida so'zlarning yuzaki ma'nolaridan anglab bo'lmagani uchun ularni tushunish va tarjima qilish jarayonlarida ayrim muammolar yuzaga keladi.*

Kalit so'zlar: *Faleronimik birliklar, til, madaniy o'rganish, ingliz tili*

РОБЛЕМА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ ФАЛЕРОНИМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Жораева Нилуфар Собиржон кызы
Магистрант Термезского государственного педагогического института.
Кадырова Мукаддас Тогаевна.
Декан факультета иностранных языков и литературы Термезского государственного педагогического института
Электронная почта: shakhodat@mail.ru

Аннотация: *Неотъемлемой частью каждого языка являются фалеронимические единицы, которые в большом количестве встречаются в большинстве языков. Поскольку смысл этих словосочетаний не может быть понят из поверхностных значений отдельных слов, из которых они состоят, возникают некоторые проблемы в процессах их понимания и перевода.*

Ключевые слова: *фалеронимические единицы, язык, культурология, английский язык.*

The process of translating and fixed expressions from one language to another is an excellent job, which obliges the translator to have a good knowledge of both languages and cultures, as well as to have the ability to identify and cope with existing problems in the process of finding the necessary equivalent for inter language idiomatic pairs. People of different language groups use completely different expressions to convey a similar meaning, thus, although an expression may be absolutely understandable and easy for the interlocutors of a certain language to understand, the same set of words and expressions may seem absolutely vague and incomprehensible and even in some cases delusional for the interlocutors of another language.[7] This is because each language has some culture-specific elements that are completely different from the corresponding elements in another language. In addition, there are some differences in factors such as religion, geographical location, different ideology, mentality and social classes of languages and societies that strengthen the process of understanding and translating phaleronymic units from one language to another. Therefore, there are two main problems in this case: 1) How to understand the meaning of FE and fixed expressions of a certain language; and 2) How to recreate the same sets of FE and fixed expressions of one language in another language so that they can convey the same ideas of the original language.

This study aims to explore the difficulties encountered in processes of interpretation and translation of phaleronymic units from one language to another. An attempt was made to illustrate the difficulties and strategies regarding this phenomenon so that a pseudo-service list of existing difficulties could be announced to readers and translators of such units.[8] At the same time, some pseudo-descriptive categories of strategies and solutions that help to cope with problems were mentioned in Mona Baker's classification of difficulties and strategies for translating idiomatic expressions "Equivalence at the Word Level".

Considering these two classifications and subcategories of each group, the study tries to show some recommendations for both readers and translators of the FE in the process of translating such concepts.

There are many conclusions regarding the translation of phaleronymic units made by such scientists as Newmark, Fernando and Gottlieb.[2]

Baker states that "the first difficulty a translator faces is the ability to recognize that he or she is dealing with an idiomatic expression." She believes that some idiomatic expressions are more easily recognized than others, mentioning two situations: 1) when phaleronymic units "violate the conditions of truth", and 2) when idioms include expressions that seem grammatically "incorrectly formed". Finally, he comes to the conclusion that "the more difficult an expression is to understand and the less meaning it has, the more likely it is that the translator recognizes it as a phraseological unit."

“He wrestles with whether to chase Hallows or Horcruxes, whether to save his own skin or pursue the ‘greater good ”.

«Он борется с сомнениями, стоит ли ему гнаться за Дарами Смерти и крестражами, или следует спасти свою шкуру или продолжать «благое дело».

Translation is a demanding art. Idioms, more than any other features of the language, require that the translator be not only accurate, but also very sensitive to the rhetorical nuances of the language. Thus, it can be said that some languages use a large number of FE in both official and unofficial contexts, but this may not be typical for all languages. The first proof for this category is seen in the case of the English idiom as artful/crafty as a wagon-load/barrel of monkeys

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

(lit. inventive as a cart / barrel with monkeys) – very inventive, for which there is no equivalent in Russian. It is also impractical to use an idiomatic language for such a case, so the translator is obliged to rephrase the general meaning of the idiom and use it in a non-idiomatic form.[5,10]

“Brooding on his brother-in-law in bed that night, he saw that the root of the trouble lay in the fact that the latter was as artful as a barrel load of monkeys, and that where he, Sir Buckstone, had make his mistake was in trying to cope unaided with that snaky brain”.

«В тот вечер, разглядывая своего брата в постели, он заметил, что корень проблемы заключается в том, что тот очень хитёр, и что сэр Бакстон допустил огромную ошибку пытаясь справиться с этим коварным разумом».

All in all, It is worth noting that some idioms can bring a "loss" in some specific features of their connotative meanings, being paraphrased.

References

1. Аверинцев, С. С. Философский энциклопедический словарь [Текст] / С. С. Аверинцев. – М.: Советская энциклопедия, 1989. – 814 с.
2. Амосова, Н. Н. Основы английской фразеологии [Текст]: 3-е изд. / Н. Н. Амосова. — М.: Эдиториал УРСС, 2013. — 216 с.
3. Арнольд, И. В. Семантическая структура слова в современном английском языке и методика её исследования (на материале имени существительного) [Текст] / И. В. Арнольд. – Л.: Просвещение, 1990. –192с.
4. Арутюнова, Н. Д. Время: модели и метафоры. Логический анализ языка. Язык и время [Текст] / Н. Д. Арутюнова – М.: Индрик, 1997. – 51-61 с.
5. Ахманова, О. С. Словарь лингвистических терминов [Текст] / О. С. Ахманова – М.: Наука, 1996. – 250 с.
6. Балли, Ш. Французская стилистика [Текст]: 2-е изд. / Ш. Балли; пер. с фр. К. А. Долинина. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – 392 с.
7. Балли, Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка [Текст] / Ш. Балли. – Москва: Едиториал УРСС, 2001. – 416 с.
8. Болинджер, Д. Аспекты языка [Текст]: 2-е изд. / Д. Болинджер – М.: Наука, 1997. – 682 с.
9. Виноградов, В. В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке [Текст] / В. В. Виноградов // Избр. труды. Лексикология и лексикография. – М., 1977. – 140–161 с.
10. Володарская, Э. Ф. Заимствование как отражение русско-английских контактов [Текст] / Э. Ф. Володарская // Вопросы языкознания. – 2002. – №4. – 96-118 с.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ФУРҚАТ ҒАЗАЛЛАРИДА ТАКРОРЛАР ЛИНГВОПОЭТИКАСИ

Қўлдашева Дилнавоз Хатамовна,
Фарғона давлат университети таянч докторанти

Аннотация: *Мазкур мақолада Зокиржон Холмуҳаммад ўғли Фурқат ижодининг бадиий-лисоний, лексик-семантик хусусиятларлари ҳақида сўз юритилади. Шоирнинг ғазалларда бадиий такрорларни қўллаш маҳорати ўрганилиб, лисоний бирликлар такрори орқали юзага келадиган лингвопоэтик хусусиятлар ёритиб берилади.*

Калит сўзлар: *бадиий матн, бадиий такрор, ғазаллар лингвопоэтикаси, анафора, эпифора, сифат такрори, халқа.*

ЛИНГВОПОЭТИКА ПОВТОРА В ГАЗАЛЯХ ФУРКАТА

КулдашеваДильнавозХатамовна,
Докторант Ферганского государственного университета

Аннотация: *В данной статье говорится о художественно-языковых, лексико-семантических особенностях Фурката сына ЗакиржонаХалмухаммада. Изучено умение поэта использовать художественные повторы в газелях, а также выделены лингвопоэтические особенности, возникающие при повторении языковых единиц.*

Ключевые слова: *художественный текст, художественный повтор, лингвопоэтика газелей, анафора, эпифора, повтор действия.*

LINGUOPOETICS OF REPETITION IN FURQAT'S GHAZALS

Koldasheva Dilnavoz Khatamovna,
Doctoral student of Fergana State University

Annotation: *This article talks about the artistic-linguistic, lexical-semantic features of Furqat, son of Zakirjon Khalmuhammad. The poet's ability to use artistic repetitions in ghazals is studied, and the linguopoetic features arising from the repetition of linguistic units are highlighted.*

Key words: *artistic text, artistic repetition, linguopoetics of ghazals, anaphora, epiphora, action repetition.*

Бадиий матнда тасвирланаётган воқеа-ҳодисага ўқувчининг эътиборини тортиш мақсадида товуш ва сўзларни, шунингдек, гапларни ҳам такрор қўлланади ва бу терминологияда “такрир” номи билан аталиб, муҳим бадиий услубий восита ҳисобланали. Такрорлар орқали поэтик нуқтдан кўзланган маъно янада бўрттирилиб кўрсатилади. “Такрорлаш воситасида сўз маъносини, унинг моҳиятини таъкидлаб кўрсатиш ушбу санъатнинг асосий хусусияти саналади” [17]. Илмий манбаларда такрорнинг анафорик такрорлар, эпифорик такрорлар, аралаш (доиравий) такрорлар каби типлари тилга олинади. Бадиий асарда, барча стилистик воситаларда бўлгани каби, такрорнинг зиммасига ҳам нутқий воситаларга хос эмоционал бўёқ, алоҳида оҳанг, жозиба бериш вазифаси юкланади. Шунин учун ҳам ижод жараёнида уларга мурожаат қилиш қаламкашдан махсус

[17]Хожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Тошкент: Шарқ, 1999. –Б.100

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

тайёргарликни талаб қилади ва ана шундай меҳнат меваси бўлган такрорларгина бадиий нутқ учун чинакам стилистик усул сифатида хизмат қилади[18]. У поэтик нутқда, асосан, аллитерация, ассонанс, анафора, эпифоралар кўринишида намоён бўлади. Шунингдек, "...консонанс, плеоназм, тавтология, радиф, рефрен, нақарот, симплока, полиптотон, халқа (доира), асиндетон, полисинтедон ва бошқалар бадиий такрорларнинг кўринишларидир"[19]. Улар бадиий нутқ таъсирчанлигини ошириш, поэтик матн мазмунини бўрттириб кўрсатиш, ўқувчига кучли ҳиссий таъсир кўрсатиш каби ғоявий-бадиий, услубий вазифаларни бажаради. Умуман, бадиий такрорларнинг кўриниш ва турлари хилма-хил бўлиб, уларни қатъий тизимли ва эркин такрорлар сифатида тадқиқ қилиш мумкин.

Фурқат ижодида, хусусан, ғазалларида, такрорнинг барча кўринишига ўзига хос намуналар учрайди. Шоир такрор санъатини маҳорат билан кўрсата олганлиги унинг шеърияти, хусусан, ғазалиётининг бадиий-лисоний қийматини оширишга, ўзига хослиги, таъсирчанлигини таъминлашга хизмат қилганини кўриш мумкин.

Анафора мисралар бошида бир сўз ёки бирикмани ўзгаришсиз, айнан такрорлайди[20], нутқни ўзига хос тарзда шакллантириб, унинг композицион тузилишига ижобий таъсир этади. Нутқнинг энг асосий –кескин нуқтасини белгилайди[21]. Энг муҳими, анафораларда поэтик нутқнинг ташқи белгисидаги ўзига хослик яққол кўзга ташланса-да, унинг маъно кучайтиришга хизмат қилиши бирламчи хусусият саналади. "Анафора янгилик ўрамидан иборат бўлган ҳолда, фикрни тараққий эттириб бориш асносида "энг янги"нинг келиб чиқишига хизмат қилади. Ёки у "энг янги"га алоқадор диққат қаратилган энг асосий нуқта бўлгани учун ҳам такрорланганлиги кузатилади[22] Умуман олганда, анафораларда таъкид ва поэтик мақсадга диққатни қаратиш устувор бўлиб, такрорнинг мазкур кўриниши бадиий нутқнинг янада ифодалигини оширувчи стилистик фигурадир.

Эпифора поэтик нутқнинг бирор элементи мисралар охирида такрорланиб келиши орқали юзага чиқади. У бадиий нутқни янада оҳангли, таъсирчан баён этиш мақсадида ишлатилади. "Бу кўпинча шеърий асарларда учраб, ўзаро қофиядош, оҳангдош сўзларнинг ёки бир хилдаги товуш ва қўшимчаларнинг такрори асосида вужудга келади[23]. Ҳозирги ўзбек адабиёти тилида такрор санъати учун олинган баъзи сўзларда иборавий маънолар уйғунлашган бўлиб, айрим ўринларда улар туюқни эслатади. Такрор учун олинган сўзлар ундов, модал сўзлар таркибидан иборат бўлиши мумкин[24]. Мумтоз шеъриятнинг барча жанрларида, хусусан, ғазалларда мисра охирида такрорланиб келувчи лексик ва синтактик бирликлар, яъни радиф ҳам бадиий такрорнинг бадиий кўринишларидан бири ҳисобланади.

[18]Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. Фил.фанл.д-ри. ...дисс.автореф. –Тошкент, 1993. –Б.38
[19]Бобоев Т. Шеър илми таълими. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –Б.280
[20]Тўланова Н. Ҳозирги ўзбек шеъриятида бадиий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили. Фил.ф.н. ... дисс.автореф. –Тошкент, 2008. –Б.19
[21]Томашевский Б. Стилистика. –Ленинград: ЛГУ, 1983. –С.279
[22]Рихсиева Г. Шеъриятдаги гапларнинг актуал бўлинишида анафораларнинг ўрни. Фил.ф.н. ...дисс.автореф. –Тошкент, 1999. –Б.23
[23]Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –Б.70.
[24]Тўланова Н. Ҳозирги ўзбек шеъриятида бадиий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили. Фил.ф.н. ... дисс.автореф. –Тошкент, 2008. –Б.20

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Фурқат ғазалларида радиф асосидаги такрорларнинг от, сифат, феъл, равиш, равишдош шакллари кўп учрайди ва шоир бадиий мақсадини янада бўрттириб кўрсатишга хизмат қилади. Масалан:

Радиф вазифасидаги **ҳолат равиши** такрори:

Эй, висолингга етушмак кору бориб, ***соғиниб,***

Қолмади бир заррае сабру қарорим, ***соғиниб.*** (–Б.18)

Шоир соғинч ҳисси ошиқнинг бутун борлиғини ўраб олган ширин оғриқ эканлигини, не бўлса ҳам соғиниш ортидан бўлаётгани, аҳволи танглигининг сабаби ҳам шу туйғу эканлигини қатъий таъкидлаш учун *соғиниб* сўзини такрорлайди.

Радиф вазифасидаги **предмет** такрори:

Чаманда гунчадин бўйнингга тоқмишсан жарас, ***булбул,***

Магарким ўзга гулшан раҳлатин қилдинг ҳавас, ***булбул.***(-Б.111).

Мазкур ғазалда *булбул* лексемаси от сўз туркумига мансуб, лекин байтда ундалма вазифасида келиб, шоирнинг барча хитоби унга қаратилгани учун ҳам қайта-қайта мурожаат қилинмоқда.

Радиф вазифасидаги **ҳаракат** такрори:

То сўзга лаб уюрдинг, жоно, шакар ***тўкилди,***

Ҳам айладинг табассум, мавжи гуҳар ***тўкилди***(-Б. 182).

Шоир ғазалларида энг кўп учрайдиган радифий такрорлар айнан феъл шаклидадир. Юқоридаги мисолдан ташқари шоирнинг ***топмишам, айрилиб қолдим, айладинг, айлади, топди, бўлурму, келармукин, айлансун, душти*** радифли ғазаллари ҳам феъл такрори асосида маъно бўрттирилишига эришилмоқда.

Ўзбек шеърияти, хусусан, мумтоз адабиётимизда кенг қўлланилаётган бадиий такрорлардан бири **халқа (доира)** бўлиб, “бу усулнинг ўзига хослиги шундаки, бунда шеърнинг бошида келган мисра, байт, ҳаётто, банд шу асарнинг охирида айнан такрорланади. Халқа, биринчидан, шеър ҳоясини таъкидлаб кўрсатса, иккинчидан, шеърнинг бошқа бандларини ўз доирасига қамраб олади –шеърнинг композицион бир бутунлигини вуфудга келтиради”[25] Мумтоз шеъриятимиздада халқанинг гўзал намуналари Алишер Навоий (“Қоши ёзинму дейин, кўз қаросинму дейин”), Заҳириддин Муҳаммад Бобур (“Ким кўрубдур эй кўнгил аҳли жаҳондин яхшилик”) каби шоирлар ижодида учрайди. Бу ҳодиса мумтоз шеъриятда радд ул-матла санъати деб юритилади.

Фурқатнинг

Кошки бир ерда бўлсак эрди жонон иккимиз,

Кўзи шум ағёрлардин анда пинҳон иккимиз. (-Б.63)

байти билан бошланувчи ғазали мазкур ҳодисага мисол бўлиб, ғазалнинг биринчи мисраси унинг охирги мисраси бўлиб ҳам такрорланади. Шоир ушбу ғазалда халқани қўллаш орқали поэтик нутқдан кўзланган бош мақсадни – ёр билан турфа *ағёрлардан пинҳон* бўлиб, *қайгуни яксон* қилиб, оламга *тўфон солиб, ...* нима қилиб бўлса-да, бир ерда, ёнма-ён бўлиш муддаосини таъкидлаб, такрорлайди ва ғазалнинг сўнгги байти –мақтаъда ҳам ҳамманинг диққатини шу маънога тортади:

[25]Бобоев Т. Шеър илми таълими. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –Б.282

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Камтаринг Фурқат бу янглиғ муддаога етмади,

Кошки бир ерда бўлсак эрди жонон иккимиз.

Юқоридаги таъкидланганидек, сўз ва сўзлар бирикмаси, гаплар такрорланиб, бадиий маъно кучайтирилади. Шунингдек, шеъриятда сўз туркумлари, масалан, от, олмош, сон ва сифат кабиларнинг қайтарилиб қўлланилишидан такрор юзага келади. Фурқат ғазалларида сифатлар уюшиб, бадиий такрорни ҳосил қилган мисралар фаол қўлланилган. Масалан,

Сарвқад, сийминбадан, гулпираҳан, мастоналар,

Кўрмаям меҳри руҳинг, саргаштаю афсоналар. (–Б. 60).

Мисрада шоир маъшуқанинг ўзига хос сифатларини санаб, сарвдек тик қоматли, кумуш баданли, гулдан кўйлак кийган дилбарнинг меҳридан бебаҳра эканлигидан нолийди. Унинг сифатларини санаш орқали ўзининг шунчалар ожизлигини ифода этади.

Қуйидаги мисолларда ҳам шундай сифатларнинг уюшиб, такрорни юзага келтириши бадиий маънонинг кучайтириш, таъсирчанлигини оширишга хизмат қилган:

Жаҳон боғини ахтарсам сенингдек гул узор ўлмас,

Суманбар, сарв қомат, ғунча оғизлиқ *нигор ўлмас*. (–Б. 77)

Жавру ситаминг токай эрур жонима келмай,

Эй, ***золиму бераҳму жафокор****, кесанг-чи* (-Б.186).

Шунингдек, шоир ғазалларида сифат маъносига асосланган **изофий бирикмалар** такрори ҳам фаол қўлланилганлигини кўриш мумкин:

Фахри олам, афзали одам, Расули коинот,

Шаръидин бўлди жаҳон зулматлари яксар, баёз (–Б. 80).

Фурқатнинг диний мавзудаги, пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.) васфига бағишланган мазкур ғазалида у зотнинг шариф сифатлари – олам ифтихори, одамларнинг энг яхшиси, Аллоҳдан юборилган элчи эканликлари саналиб, бадиий такрорнинг ўзига хос кўриниши ҳосил бўлган.

Ижодкорнинг “Чаман саҳнида дерлар сарв бирла ёсуман нозик” мисраси билан бошланувчи ғазалида “нозик” лексемаси нафақат радиф кўринишида, балки мисралар орасида ҳам такрорий қўлланиб, ўзи ташиётган маънонинг бўрттирилиб, алоҳида таъкид билан ифодаланишига эришилади:

Камолингдин ҳаловат топмоғи жонларни ондинким,

*Даҳон –****нозик****, забон –****нозик****, ки лаб –****нозик****, сухан –****нозик.***(–Б. 87).

“Нозик” сўзи Ўзбек тилининг изоҳли луғатида “юксак маҳорат ва санъат билан жуда бежирим қилиб ишланган; нафис, латиф”[26] маъносини англатиши қайд этилган. Шоир ғазалида ушбу сўзнинг “юпқа, ҳарир, хипча, мулойим, майин, ёқимли” сингари маъно қирралари ҳам акс этганини кўриш мумкин. Мазкур байтда эса бадиий такрор орқали маъшуқанинг оғзи-ю, тили-ю, лаби ва сўзига қадар нозиклик касб этгани маҳорат билан очиб берилади.

Қуйидаги байтда ҳам шоирнинг кўзланган маънони ўқувчига янада бўрттириб ифода этишда бадиий такрордан фойдаланиш маҳоратини кўришимиз мумкин:

*Лаб–****гул****, ораз–****гул****, бадан–****гул****, жабҳа–****гул****, бир нахлдин,*

Эй, вужудинг гулшанида бор бу миқдор ***гул.*** (–Б. 110).

[26]Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ітом. –Москва, 1981. –Б.506

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

“Гул” радифли ғазалнинг ҳар бир байти ва мисралар орасида такрорланиб келаётган лексеманинг семантик вазифасига эътибор қаратадиган бўлсак, шоирнинг мақсади ойдинлашади: *даҳр гулзорида* қанчадан-қанча гулларни – инсоният олами гўзалларни кўрган ошиқ ўз маъшуқаси каби жисму жонию руҳига гулдай латиф ва нозик гўзалликларни жам қилган одам йўқ эканлигини ифода этади.

Нахли қадди нилуфарпўша, кўнгул, ўлдинг асир,
***На** эдуб сарв орзу, **на** ёди савсан айладинг.* (–Б. 100).

Мазкур байтда *“на”* сўзи анафорик такрор вазифасини ўтамоқда.

Қуйидаги байт эса кўрсатиш олмоши такрорига мисол бўлади:

***Ана** қадду, **ана** ҳусну, **ана** хулқ,*
Киши кўрган эмас мундоғ латофат (–Б.21)

Бунда шоир *“ана”* сўзини такрорланувчи сўз сифатида танлаб, ёрнинг ўзига латофати унинг ҳам қадди, ҳам хусни ва ҳам хулқида эканлигини *кўрсатади*, бу орқали ғазал тилининг таъсирли бўлишига эришади.

Ғазалларда ўзакдош сўзларни ишлатиш орқали ҳам такрор кўринишини ҳосил қилиш мумкин: *ваҳш, ваҳшат, ваҳший* каби

***Ваҳшат**им элдин буким, **ваҳш**идин ўлгаймен малул,*
***Ваҳший**лардек гар мақомим кўхсор айлай десам.*(-Б. 121)

Шоирнинг фикрича, илмсизлик, маданиятсизлик жуда даҳшатли ҳолдир, элнинг бу аҳволда бўлиши уни қаттиқ қўрқувга солади ва ўзининг илм-у ижод йўлида эришган мақомини худди ўша нодон кишилар кабилар хор-у ер қилишни истамаслигини баён этади.

Шунингдек, Фурқат ижодида шаклан такрор бўлган лексик бирликлар ҳам фаол қўлланилади ва поэтик матн мазмуни бадиий таъкид орқали янада бўрттирилади:

Касб айлаб нуқта холингдин шаби ялдо савод,
*Бўлди шоми **тийра-тийра** зулмати тар қаро.* (–Б. 10)
Айлади ҳар уқдаси юз дилни банд,
*Кокулингдир **ҳалқа-халқа, тоб-тоб.*** (–Б.19)

каби мисраларда шоирнинг бу борадаги маҳорати яққол кўринади.

Хулоса қилиб айтганда, бадиий такрор Фурқат ғазалиётининг ўзига хос бадиий-услубий қирраларини кўрсатиш баробарида шоир ғазаллари матнининг таъсирчанлиги, образлилиги, ифодавийлиги, шунингдек, бадиий таъкид ва маъно кўламдорлигини оширишга хизмат қилган, ижодкор тилининг лексик бойлиги, сўз қўллаш маҳоратини ифода этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бобоев Т. Шеър илми таълими. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
2. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. Фил.фанл.д-ри. ...дисс.автореф. –Тошкент, 1993.
3. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
4. Хожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Тошкент: Шарқ, 1999.
5. Рихсиева Г. Шеъриятдаги гапларнинг актуал бўлинишида анафораларнинг ўрни. Фил.ф.н. ...дисс.автореф. –Тошкент, 1999.
6. Тўланова Н. Ҳозирги ўзбек шеъриятида бадиий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили. Фил.ф.н. ... дисс.автореф. –Тошкент, 2008.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

7. Томашевский Б. Стилистика. –Ленинград: ЛГУ, 1983.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ітом. –Москва, 1981.

UDK: 811.512.133'28

O'ZBEK TILIDAGI LEKSIK BO'SHLIQLARNI KOMPOZITSIYA USULIDA TO'LDIRISH MASALALARI

Hasanov Abdumannon Majidovich,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
e-mail: abdumannon293167@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek adabiy tilidagi leksik bo'shliqlarni to'ldirishda tilning kompozitsion so'z yasalish imkoniyatlari haqida bahs yuritiladi. Bugungi kunda so'zlashuvda faol qo'llanilayotgan kompozitsion yasalmalarning tildagi tegishli tushunchalarni nomlash borasidagi imkoniyatlari tahlilga tortilgan bu maqolada tilning tadrijiy taraqqiyotida uning ichki imkoniyatlariga asoslanish lozimligi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *leksika, leksik bo'shliq, tushuncha, tushunchani nomlash, nomsiz tushuncha, nominatsiya, derivatsiya, kompozitsion so'z yasalishi, leksik taraqqiyot, til taraqqiyoti.*

ПРОБЛЕМЫ ЗАПОЛНЕНИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ ПРОБЕЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ МЕТОДОМ КОМПОЗИЦИИ

Хасанов Абдуманнон Маджидович,
Преподаватель Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы, кандидат филологических наук (PhD).
e-mail: abdumannon293167@mail.ru

Абстракт. *В данной статье рассматриваются возможности языка по созданию составных слов для заполнения лексических пробелов в узбекском литературном языке. В данной статье, в которой анализируются возможности активно используемых сегодня в речи композиционных структур для наименования соответствующих понятий в языке, подчеркивается, что постепенное развитие языка должно основываться на его внутренних возможностях.*

Ключевые слова: *лексика, лексический пробел, концепт, называние концепта, безымянный концепт, номинация, словообразование, сложное словообразование, лексическое развитие, языковое развитие.*

PROBLEMS OF FILLING THE LEXICAL GAPS IN THE UZBEK LANGUAGE BY THE METHOD OF COMPOSITION

Khasanov Abdumannon Majidovich,
Teacher Tashkent State University of the Uzbek language and literature, candidate of philological sciences (PhD).
e-mail: abdumannon293167@mail.ru

Abstract. *This article discusses the potential of the language to create composite words to fill the lexical gaps in the Uzbek literary language. In this article, which analyzes the capabilities of the*

compositional constructions actively used in speech today to name the relevant concepts in the language, it is emphasized that the gradual development of the language should be based on its internal capabilities.

Key words: *vocabulary, lexical gap, concept, concept naming, nameless concept, nomination, word formation, complex word formation, lexical development, language development.*

Kirish

Til leksikasidagi bo‘shliqlarni to‘ldirishda kompozitsion so‘z yasalishining ham munosib o‘rni bor. Mazkur usul affiksatsiya usulidan keyingi eng faol so‘z hosil qilish yo‘li sifatida til leksikonini takomillashuvida katta lingvistik ahamiyatga ega. Uning keng qo‘llanishli va faol usul sifatida joriylanishida o‘ziga xos qulayliklari va imkoniyatlari mavjud: kompozitsion usulda yasalgan yangi so‘zlar til egalariga osongina tushuniladi. Shuningdek, mazkur usulda yasalgan so‘zlar so‘z birikmalari kabi tegishli tushunchalarni yetarli darajada aniq va mos nomlashda keng afzalliklarga ega [1]. Biz ushbu maqolada so‘nggi yillarda o‘zbek tilida kompozitsion usulda yasalgan yangi so‘zlar va ularni adabiy til leksikasidagi tegishli leksik bo‘shliqlarni to‘ldirish imkoniyatlari haqida munozara yuritamiz.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbek adabiy tilining leksik tarkibini boyitish va leksik normalarini belgilash jarayonlariga ongli aralashuv XX asrning dastlabki yillaridanoq boshlangan. Albatta, til leksikasi taraqqiyotining har qanday bosqichida joriy davrga mos va xos til normasini, ehtiyojlarini o‘rganish, shu asosda leksik bo‘shliqlarni to‘ldirishga munosib (muqobil) so‘zlar bilan to‘ldirish ijtimioy hayotning dolzarb ehtiyojlari natijasida shakllanadi [2].

Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilining leksik me'yorlarini belgilash va uning leksik boyishida xalq shevalariga asoslanish lozimligiga XX asrning ikkinchi choragida (masalan, 1929-yilda bo‘lgan O‘zbekistonda til islohoti va imlo konferensiyasida) e’tibor qaratila boshlandi.

1929-yil may oyida o‘tkazilgan Til islohoti va imlo konferensiyasida imloni takomillashtirish bilan birga adabiy til leksik normalarini belgilash yuzasidan ham bir qator chora-tadbirlar ko‘rishga, o‘zbek tilining ichki imkoniyatlarini o‘rganish, shu asosda adabiy tilni va uning leksik normalarini belgilashga ham e’tibor berildi [3].

Yetuk ziyolilar va jadidlar tomonidan amalga oshirilgan sa'y-harakatlar natijasida hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili, asosan, o‘zbek xalq shevalaridan oziqlantirildi [4], umumxalq tilining aksar umumiy xususiyatlari adabiy tilning asosiy me'yorlari sifatida belgilandi. Bu borada qilingan ishlarning natijasi sifatida 1981 yilda nashr etilgan O‘zbek tilining izohli lug‘ati (keyingi o‘rinlarda – O‘TIL) ni alohida qayd etish joiz: mazkur lug‘at o‘zbek adabiy tilining leksik normalarini belgilash va tavsiflashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, “normativ lug‘at tuzish va unda adabiy til normalarini to‘g‘ri belgilash uchun tilning butun leksik boyligi hamma manbalardan, shu jumladan, dialektlar va so‘zlashuv tilidan foydalanib tanlanishi va puxta o‘rganilishi kerak” [5].

O‘TILning yangi nusxasi (2006)ni oldingisiga taqqoslab uning keyingi nashri tarkibidagi yasama so‘zlar ulushi ortganligini kuzatish mumkin. Biroq tilning uzluksiz rivojlanishida paydo bo‘layotgan o‘zgarishlar natijasida kun sayin ortib borayotgan yangi yasalmalarni tahlil qilib, lug‘atda berilgan so‘z miqdorining bugungi kundagi holati ancha ko‘payganligini tan olishga to‘g‘ri keladi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O‘zbek adabiy tilini rivojlantirish, xususan, til sofligini saqlash uchun leksik sath takomiliyatini ta'minlamoq, uning zarur birliklar bilan to‘kislashuviga imkoniyat yaratmoq kerak. Professor N.Mahmudov ta’kidlaganidek, “o‘zbek tilining o‘z xolis yasalish imkonlaridan foydalanib ish ko‘rilsa, tilimizning tabiiy takomilini ta'minlamoq mumkin bo‘ladi” [4]. Shu ehtiyoj taqozosi bilan biz bugungi kunda so‘zlashuvda qo‘llanilayotgan, biroq hali normativ lug‘atlarga kiritilmagan ayrim so‘zlarning lingvistik imkoniyatlarini tahlil qilishga harakat qildik. Bizningcha, bu so‘zlarning lisoniy ahamiyati ularning adabiy til birligi darajasida tan olinishiga va lug‘atlarga kiritilishiga imkoniyat beradi.

Taniqli tilshunoslar H.Ne’matov va R.Rasulovning qayd etishicha, yangi yasalmalar nutqiy birliklar sifatida joriy nutq vaziyatida yashaydi va til birligi hisoblanmaydi. Qachonki ular nutqda tez-tez qo‘llana boshlasa va muayyan barqarorlikka erishsa til birligiga aylanishi mumkin [6]. Lekin tan olish kerakki, ushbu birliklarni til birligi darajasiga chiqish imkoniyati boshqa nutqiy hosila (birlik)larga qaraganda ancha yuqori. Chunki til leksikasida paydo bo‘ladigan so‘zlarning har biri muayyan lisoniy ehtiyoj natijasida shakllanadi.

O‘zbek tilshunosligida kompozitsion so‘z yasalishi yangi so‘z hosil qilishning muhim unsuri sifatida Sh.Mirzaqulovning “O‘zbek tilida so‘z yasalishi ma’nosi va paradigmasi” nomli dissertatsiyasi orqali atroflicha o‘rganilgan. Olimning ta'kidlashicha har bir “yangi so‘z turmushning talabi bilan tug‘iladi” [7]. Shu bois ham bu so‘z til leksikasidan joy olishda muayyan imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Bugungi kunda kompozitsion usulda yasalgan so‘zlarning til leksikasidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish imkoniyatini so‘zlashuv nutqidagi holatlarni kuzatish orqali baholash dolzarblashib bormoqda. Mazkur maqolada ayni shu jihatlarga ham e’tibor qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

So‘zlashuv jarayonlarida so‘nggi vaqtlarda faol qo‘llanilayotgan kompozitsion yasalmalarni yig‘ish va ularni “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga kiritilgan-kiritilmaganligini tekshirish orqali ko‘pgina muhim so‘zlarni aniqlash mumkin. Bu so‘zlarning tildagi muhim tushunchani ifodalashi, boshqa so‘zlar bilan paradigmatik munosabatlar hosil qilishi va ommalashuv, barqarorlashuv imkoniyatlarini haqida o‘rinli fikrlar bildirish leksik sathdagi bo‘shliqlarning to‘ldirilishiga xizmat qiladi.

Tahlillar va natijalar

So‘nggi yillarda insoniyat tafakkurining tez sur’atlar bilan rivojlanishi natijasida ko‘pgina yangi tushunchalar paydo bo‘layotganligi barchaga ma'lum. Bu yangiliklarni tez ommalashuvi va inson hayotiga kirib borishi tilda ham o‘z tajallisini ko‘rsatmoqda [8]. Shunday yangi tushunchalardan biri kitob yoki umuman katta matnni audio shaklidagi (o‘qib turib, ovozlashtirilgan, audio shaklida yozib olingan) ko‘rinishi - *audiokitobdir*. Bu kitobni o‘qish emas, faqat eshitib tushunish mumkin. Yarim asr muqaddam radioinsenirovka mavjud bo‘lgan. Biroq uni yozib olish, saqlash ancha murakkab bo‘lgan. Bugungi kunda esa zarur audiokitoblarni internet manbalaridan ham istalgancha topish mumkin. Bizningcha bu ommalashgan axborot vositasi faqat ko‘zi ojiz kishilar uchun emas. Har qanday kishi ko‘zi toliqqanda yoki dam olish vaqtida bu ovozli yozuvlarni eshitishi mumkin. Demakki, bu tushuncha ham muayyan ijtimoiy-madaniy ahamiyatliligi bois lug‘atlarga kiritilishi va izohlanishi kerak. Bizningcha, unga yondosh tarzda qo‘llaniluvchi *audioyozuv* so‘zi ham muayyan dolzarblikka ega.

Pandemiya davrida jamiyatda bo‘lgan ko‘pgina moslashuv va o‘zgarish jarayonlari til leksikasiga ham jiddiy ta'sirini o‘tkazdi. Xususan, ta’lim sohasida videodars, teledars kabi dars

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

(saboq) turlaridan foydalanish shu shakldagi dars nomlarining ommalashuviga ham sabab bo‘ldi. Karantin talablari ancha yumshagan bugungi davrda ham ushbu dars turlaridan foydalanilayotganligi uning nomi bo‘lgan so‘zlarning ham hanuz qo‘llanayotganini ko‘rsatadi. Bu so‘zlar o‘zi ifodalayotgan tushunchaning nomi sifatida lug‘atlarga kirishga haqli.

Video so‘zi bilan qo‘shilib yangi so‘z hosil qiluvchi kuzatuv so‘zining giponimi sifatida *videokuzatuv* so‘zi ham bugungi davrga xos yangi so‘zlardan biri. Bu so‘z videoapparat vositasi bilan “muayyan hududda eshik yoki darvoza oldida bo‘layotgan holatlarni tasvirga olish vositasi va jarayoni”ni ifodalovchi ruscha *videonablyudenie* so‘zining kalkasidir. Bevosita kuzatuvchining ishtirokisiz amalga oshuvchi jarayonni ifodalovchi mazkur tushunchaning kuzatuv jarayonidan ancha farqli ekanligini yuqoridagi izohdan ham sezish mumkin. Yangi tushunchaning yangi nomi sifatida ommalashayotgan bu so‘z ham lug‘atlarda o‘z o‘rnini topishi kerak.

Xizmat itlarining muhim vazifasi muayyan hid asosida jinoyatchining izini, yo‘lini (yoki o‘zini) topishga yordam berishdir. Bunday itlarning xususiyatini ifodalashda *iztopar* so‘zi qo‘llaniladi [9]. Bizningcha bu so‘z ham tegishli sohada faol qo‘llaniluvchi atama sifatida me’yoriy lug‘atlarga kiritilishi joiz.

Kompozitsion usulda hosil bo‘ladigan so‘zlarning ayrimlari iboralar qisqarishi (ixchamlashuvi) va yaxlitlanishi natijasida shakllanadi. *Ichakuzdi, ichimdantop, hamishabahor* kabi so‘zlar bunga misol bo‘la oladi. Xususan, *hamishabahor* so‘zi “kayfiyati hamisha ko‘tarinki, bahordagidek” ma’nosida qo‘llaniluvchi frazeologik birlikning yaxlitlanishidan yuzaga kelgan. Ichakuzdi so‘zi ham ko‘p kulmoq ma'nosida qo‘llaniluvchi *ichagi uzilmoq* iborasidan shakllanganligini sezish qiyin emas. Ushbu so‘zlar tegishli leksik bo‘shliqni to‘ldiruvchi birlik sifatida lug‘atlarga kiritilishi kerak.

“Favqulodda kutilmagan, noreal (aslida, dilidagi, niyatidagi) narsalarni xayol qiluvchi” ma’nosida qo‘llaniluvchi ko‘*knorixayol* so‘zi ham tildagi tegishli leksik bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiluvchi so‘zlardan biri. Obrazli tarzda yasalgan bu so‘zni ko‘pgina badiiy asarlarda, shuningdek, so‘zlashuvda ham uchratish mumkin. Bu jihatlar uning til birligi sifatida lug‘atlarda aks etishini taqozo etadi.

Ish jarayonida kiyiladigan kiyimlar o‘zining chidamliligi, tanani turli ta’sirlardan himoyalashi va uzoq muddat xizmat qilishi bilan kishining qadrdoniga aylanadi. Bunday kiyimni ko‘pgina mehnatkashlar orasida *moltopar* deb sifatlash uchraydi [10]. Bizningcha, kiyimning sifatini tavsiflovchi mazkur so‘z ham tegishli tushunchaning mos nomi sifatida lug‘atda o‘z o‘rnini topishi kerak.

Ilmiy va publitsistik nutqda faol qo‘llanayotgan *munozaratalab* so‘zi ham kompozitsion usulda yasalgan yangi so‘zlardan biri. Bizningcha, ilmiy jamoatchilik orasida shakllangan va ommalashgan bu so‘z ziyoli qatlamning so‘z ijodkorligi namunasi sifatida o‘ziga tegishli tushunchaning benazir ifodachisi hisoblanadi: u “munozara talab qiluvchi, asosi mujmal” semalariga ega. Bu so‘zning OAVda ham ommalashayotganligi uning tegishli tushunchaning betakror ifodalovchisi ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois bu so‘zni ham lug‘atlarga kiritish lozim.

Sho‘rdanak, pista, yeryong‘oq kabi quruq mevalar rastasida sotiladigan va sevib iste’mol qilinadigan shunday quruq meva borki, uning nomi adabiy til leksikasida mavjud emas. Bu yegulik no‘xatni maxsus ishlov asosida pishirib tayyorlanadi. O‘ziga xos ta’mga ega bu yegulik qovurmochdan yumshoqligi, tez bo‘laklanuvchanligi (maydalanuvchanligi) bilan ancha farqlanadi. Shuningdek, rangi ham sariq, oltinrang. Mazkur yegulik ko‘pgina hududlarda

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

no‘*xatsho*‘rak deb nomlanadi. Bizningcha, bu nom mazkur yegulikning munosib nomi bo‘la oladi va u ham lug‘atlarga kiritilishi kerak.

Bugungi iqtisodiyotda tabiiy resurslarni imkon qadar tejab ishlatish asosiy tamoyillardan biriga aylanmoqda. Zero, inson anglab yetdiki, tabiiy boyliklarning ham miqdori cheklangan. Shu bois ishlab chiqarish jarayonlarida tabiiy resurslarni isrof qilmasdan sarflanishini ta’minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayni shu xususiyatni ifodalovchi *resurstejamkor* so‘zi ham mazkur vaziyat taqozosidan paydo bo‘lgan so‘zlardan biri [11]. Bizningcha, bu yasalma so‘z ham o‘z ahamiyatliligi bois lug‘atlarga kirishga haqli.

So‘z birikmasining hokim qismi fe’l bo‘lgan, shuningdek, bu fe’lning sifatdosh shaklida ko‘p bora qo‘llanilishida shakllanuvchi kompozitsion yasalmalar ham nutqda ancha ko‘p uchraydi. Xuddi shu qolip hosilalaridan biri bo‘lgan *sayyohsevar* so‘zi ham so‘nggi paytlarda keng qo‘llanilayotgan so‘zlardan biri. Issiqsevar, namliksevar kabi so‘zlarga qaraganda ko‘proq qo‘llaniluvchi bu so‘z, bizningcha, me'yoriy lug‘atlarga kiritilishi kerak. Zero mazkur so‘z osori-atiqalarga ega bo‘lgan yurtimizning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalashda ham muayyan ahamiyatga ega.

Jamiyat tomonidan shakllantirilgan odob-axloq va yurish-turish qoidalari ijtimoiy hayotning barqarorligi, madaniyligi, uzviyligi uchun juda zarur hisoblanadi. Aslida, qonun va boshqa tartibga solish mexanizmlari ham ushbu zaruratning anglanishidan shakllangan. Biroq bu tartiblarni buzishga yoki ularni chetlab o‘tishga urinishlar ham borki, bularning aksariyati tilda alohida nomlangan: jinoyatchilik, huquqbuzarlik va b. Ushbu gradionimik qatorning keyingi elementi sifatida so‘nggi yillarda *tartibbuzarlik* so‘zi ancha faol qo‘llanilmoqda. Bizningcha, bu so‘z ham lug‘atlarga kiritilishi joiz.

Rus tili orqali kirib kelgan *ekspres* so‘zining muqobili sifatida so‘nggi yillarda *tezyurar* so‘zi ancha faol qo‘llanilmoqda. Bu so‘z ekspres atamasidan farqli tarzda, odatda, poezdga nisbatan qo‘llanilmoqda. Bizningcha, sof o‘zbekcha bo‘lgan bu so‘z ham lug‘atlardan joy olishi kerak.

Inson xususiyatlarini ifodalovchi yasalma so‘zlardan biri tomoshatalab so‘zi ham so‘zlashuv uslubiga xos faol qo‘llaniluvchi so‘zlardan biri. Bu so‘z odatda, “bir (yoki bir necha) kishining janjalini, qiyin ahvolini yoki qiyin holatini tomosha qilishni xohlovchi” ma'nosida qo‘llanadi. Ayni tushunchaning tilda nomlanmaganligi uni to‘ldirishda *tomoshatalab* so‘ziga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

Jonli mavjudotni har biri tabiatning bir bo‘lagi sifatida alohida qadr va izzatga munosib. O‘zbek xalqida har bir jonzotning o‘ldirilishiga og‘ir gunoh sifatida qaraladi. Hatto, atayin so‘yiladigan uy hayvonlarining qonini bosmaslikka, uni toza joyga ko‘mishga jiddiy ahamiyat beriladi. So‘yilgan jonliqning qoni to‘kilishi uchun maxsus chuqurcha kavlanishi aksar hududlar uchun tanish holat. Bu chuqurchani so‘zlashuvda *qonyaloq* tarzida atashadi. A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida dor ostida qatl etiluvchining qoni to‘kiladigan joy ham qonjaloq tarzida ifodalangani mazkur so‘zning avvaldan ma'lumligini tasdiqlaydi. Bu holatlar umuman, tirik mavjudotning yashashida muhim bo‘lgan qonni o‘zgacha izzat qilinishi milliy qadriyat ekanligi haqida yetarlicha tasavvur beradi. Vahshiy, qattol kishilarga nisbatan aynan qonxo‘r so‘zining qo‘llanilishi ham qonni tiriklik ramzi sifatida qo‘llanilishini ta’kidlaydi [12]. Bizningcha, *qonyaloq* so‘zi izohli lug‘atga kirishga munosib so‘zlardan biri. Uni “so‘yiladigan jonliqning qoni to‘kilishi, to‘planishi, ko‘mib tashlanishi uchun kavlangan chuqurlik” tarzida izohlash mumkin.

Bugungi kunda iqtisodiyotda elektron pul aylanishi ancha ommalashishga ulgurdi. Buning natijasida har bir shaxsning bankda o‘z *hisobraqami* paydo bo‘lmoqda. Raqamli iqtisodiyotning

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

o‘ziga xos talablari asosida paydo bo‘lgan va bugungi kunda aksariyat kishilar uchun tushunarli bo‘lgan *hisobraqam* so‘zini ham lug‘atlarga kiritish zarur.

Ikki so‘zning juftlashuvidan ular ma’nosining xiralashuvi va yangi tushunchaning atash xususiyatidan shakllanuvchi juft so‘zlar ham tildagi leksik bo‘shliqlarni to‘ldirishda muayyan ahamiyatga ega. Shunday so‘zlardan biri *oldi-qochdi* so‘zidir. “O‘g‘rilik, talonchilik, olg‘irlik, jinoyatchilikka oid va shularga qiziqtiruvchi” ma’nosida qo‘llanilayotgan bu so‘z *oldi qochdi filmlar, oldi-qochdi voqealar* kabi birikmalarda faol qo‘llanilmoqda. Bizningcha, bu so‘z o‘zi ifodalayotgan tushunchani atashda yetarlicha imkoniyatga ega.

So‘zlashuvda faol qo‘llanayotgan juft so‘zlardan biri *topa-tuta* so‘zidir. U biron qarz yoki berilishi kerak bo‘lgan narsa (pul)ni noiloj bo‘lsa-da tezroq va to‘liq berilishini ifodalashda qo‘llanadi. Yana ham aniqroq aytganda bu so‘z ravish turkumiga xos bo‘lib *...gacha topa-tuta beramiz, albatta pulni topa-tuta Sizga yetkazamiz* tarzidagi gaplarda qo‘llanadi. Bu so‘zning topmoq va tutmoq so‘zlari asoslaridan yasalganligi va ravishdosh shaklida ekanligini sezish qiyin emas. Bugungi kunda yaxlitlanishni boshdan kechirayotgan bu so‘zni ham izohli lug‘atga kiritish joiz.

Juft so‘z tarzida istifoda etiladigan ayrim soha terminlari ham lug‘atlarga kiritilishi lozim. Yo‘l harakati xavfsizligi sohasida qo‘llaniluvchi *chiroq-mayoqcha*, odam va uning salomatligi darsligida uchraydigan *tayanch-harakatlanish* kabi atamalar ham til egalarining aksariyati tushunadigan va tushunishi zarur bo‘lgan so‘zlardandir. Ularning yanada tushunarli bo‘lishi va ommalashuvi uchun ham lug‘atlarga kiritish lozim, nazarimizda.

Biror voqeylikni o‘z holicha, istakka qarab yaxshi jihatlarini oshirmasdan va yomon xususiyatlarini yashirmasdan ma’lum qilish tarzini ifodalashda qo‘llaniluvchi *yashirmay-oshirmay* so‘zi ham ko‘pchilik tomonidan so‘zlashuvda faol qo‘llanayotgan so‘zlardan biri [13]. Bizningcha bu so‘z ham o‘zi ifodalayotgan holatning munosib nomlovchisi sifatida lug‘atlardan joy olishi kerak.

So‘nggi paytlarda ommalashib boshlagan *og‘izbirchilik* so‘zi “bir-birining gapini ma’qullaydigan, bir-biriga qarshi chiqmaydigan, bahamjihatlikda ish qiladigan” ma'nolarida qo‘llanmoqda [6]. Ushbu so‘z *hamfikr, maslakdosh* kabi so‘zlardan farqli bo‘lib, tegishli tushunchani o‘xshash tushunchalardan ajratib nomlashda yetarlicha imkoniyatga ega. Bu uning alohida so‘z sifatida lug‘atlarga kiritilishiga imkon beradi.

“Birovga nafi tegmaydigan, hatto o‘z oilasiga ham xasis bo‘lgan” ma’nosida qo‘llaniluvchi *nonyemas* [14] so‘zi ham aksar hududlarda uchraydi. Bizningcha, bu so‘zni ham lug‘atlarga kiritish foydadan holi emas.

Beshta kichik toshni otib o‘ynashga asoslanuvchi *beshtosh* o‘yini O‘zbekistonning aksariyat hududlari uchun yaxshi tanish [15]. Bu milliy o‘yin bolalar qo‘l harakatlari chaqqon bo‘lishida va ko‘z moslashuvchanligini oshirishda juda foydali. Bu o‘yin nomi bo‘lgan va ko‘pchilikka ma'lum beshtosh so‘zini ham lug‘atlarga kiritish lozim.

Kurashda o‘zi yerga yiqilib, ustidan raqibini oyog‘i bilan itqitib otish usuli *yotibotar* deb nomlanadi [16]. Milliy kurashning bu usulini nomlovchi mazkur so‘z ham lug‘atlarimizda aks etsa, yaxshi bo‘lardi. Zero, milliy sport o‘yini bo‘lgan kurashning xos atamalari, avvalo, o‘z tilimizda keng ommalashishi zarur.

Mevalar orasida uzunchoq shaklli va shiradorligi bilan ajralib turuvchi *kelinbarmoq* nomli uzum navi borki, uni shaharda istiqomat qiluvchi aholi ham yaxshi biladi. Shu sabab hammaga tanish bo‘lgan bu so‘zni lug‘atlarga kiritish joiz.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ko‘pgina shevalarda uchraydigan *qashqatayoq* so‘zi “gap, so‘kish va kaltak ta'sir qilmaydigan (odam)” ma’nosiga ega [17]. Ko‘p kaltak yeyish va so‘kish eshitish kishida ayni xususiyat shakllanishiga sabab bo‘ladi. So‘zning tuzilishi ham shunga ishora qilayotganligini sezish mumkin. Bizningcha, bunday noyob so‘zlarni ham lug‘atlarga kiritish joiz.

Ob-havoning shunday injiqliklari borki, kezi kelganda bir necha ko‘rinishlari bilan omuxtalashib, katta noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Xususan, qor aralash shamol yurayotgan kishiga qanday ta’sir qilishini tasavvur qilib ko‘ring. Ayni shu xildagi yog‘ingarchilikni ifodalovchi *shirabo‘ron* so‘zi ham ayrim hududlar uchun yaxshi tanish. Asli ikki so‘zning birikishidan yasalgan bu so‘z ham o‘zi ifodalaydigan tushunchaning munosib nomi sifatida lug‘atlarga kiritilishi kerak.

Qishloq hududlarida ikki yoshli eshakni *toyxar* deb atash uchraydi. Ikkinchi qismi fors-tojik elementi bo‘lgan bu so‘z minishga yaroqli bo‘lgan xo‘tikni nomlashga xizmat qiladi [18]. Qishloq joylarda muhim ulov hisoblanuvchi uy hayvoni nomi bo‘lgan bu so‘z ham lug‘atlarga kiritilishi lozim.

Inson tomonidan anglangan yangi tushunchani nomlashda shu tushunchaga o‘xshash tushunchalar tahlil qilinadi. Yangi tushunchaning unga o‘xshash va avvaldan ma'lum tushunchalarga qiyosan idrok etish uni nomlashda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, neft tushunchasining nomlanishida uning moy (yog‘)ga o‘xshashligi dastlabki davrda (XX asr boshida) *yermoy*, *qora yog‘* [4] tarzida nomlanishiga sabab bo‘lgan (keyinchalik, neft so‘zi xos termin sifatida bu so‘zlarning o‘rnini egallagan). Tilda yangi tushunchani oldindan ma'lum bo‘lgan tushunchalarga solishtirilib baholash va shu asosda nomlash ancha samarali: bu yangi so‘zni qo‘llayotgan va eshitayotgan kishiga ham to‘g‘ri tushunish va tushuntirish imkoniyatini beradi [19]. Aslida mana shu narsa kompozitsion so‘z yasalishining faol so‘z yasash usuli sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolishida asosiy omil sanaladi.

Xulosa

Tan olish kerakki, til leksikasini ichki imkoniyatlar bilan boyitishda dialektal so‘zlarni adabiylashtirishdan ko‘ra affiksatsiya hamda kompozitsiya usullari yordamida yangi so‘zlar hosil qilish ancha ustuvorlashib qolgan [2]. Mazkur holat dialektlarning til leksikasini boyitishdagi imkoniyatlarini yetarlicha o‘rgangan olimlar tomonidan ham tan olinadi. Aslida ham til leksikasini boyitishda ichki imkoniyat sifatida affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan so‘z yasash aksariyat tillarda ustuvor manba hisoblanadi. Buning asosiy sababi til leksikonidagi tushunarli va ommabop morflar asosida shakllantiriladigan yangi so‘zlar tez tushunishli va ommalashuvchan xususiyatlarga ega bo‘ladi [20]. Ayniqsa kompozitsion usulda yasalgan yangi so‘zlar tilda nomlanayotgan tushunchaning mos va aniq nomini yaratishda boshqa usullardan ancha ustuvor hisoblanadi. Yuqoridagi tahlillardan ham sezish mumkinki, kompozitsion usulning mazkur xususiyati tildagi leksik bo‘shliqlarni nomlashda alohida imtiyozga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Bir so‘z bilan aytganda kompozitsion usulda yasalgan so‘zlar til egalariga osongina tushuniladi va bu ularning xotirada yaxshi saqlanishiga, shuning barobarida, keyingi nutq jarayonlarida ham bemalol qo‘llanilishiga, pirovardida keng ommalashib adabiy til birligi darajasiga ko‘tarilishida katta imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Ayni imkoniyatlarni reallashtiruvchi kompozitsion usul o‘zbek tilida faol derivatsion vosita sifatida muayyan lingvistik ahamiyatga ega.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Аланга” журнали, 1929 йил, №5. – Б. 6
2. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т., 2004. – Б. 37.
3. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Т.: “Mumtoz so‘z”, 2017. – Б. 138.
4. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Т., Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2012. 77-бет.
5. Менглиев Б. “Давлат тили ҳақида”ги Қонун ва адабий нутқ меъёрлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2016 йил №5, 7-бет.
6. Решетов В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Ўқитувчи, 1978, – Б. 167.
7. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти III томлик. 3-том (сўз ясалиши ва лексика). – Т., 1991. –150-бет.
8. Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил қомуси, Т.: Академнашр, 2012, – Б. 384.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, т. 1. – Т.: "O'zbekiston nashriyoti", 2020, – Б. 386.
10. Ҳожиев А. Ўзбек миллий адабий тилининг шаклланиши ва эски ўзбек адабий тилига муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987. – №2. – Б. 5.

ФРАНЦУЗ ТИЛИ ТИББИЙ ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА СТАТИСТИК-КОМБИНАТОР МЕТОДЛАРНИНГ ИШЛАТИШИ

Шахноза Абраева,
ТТА Ўзбек ва хорижий тиллар кафедраси ўқитувчиси
Эмаил: abrayevashaxnoza1990@gmail.com

Аннотация: *Мақолада асосан статистик-комбинатор методларининг ишлатилиши лексик бирликларни таҳлил қилишда морфема даражасида қўлланилиши ҳақида сўз юритилган ва умуман олганда, лотин тили морфемаларининг яширин имкониятларини юнон тили морфемалари билан қиёслаганда маҳсулдорлик коэффициентини аниқлашга ҳамда классик тилларнинг морфемаларини морфологик белгилари бўйича таснифлашга ҳаракат қилинган.*

Калит сўзлар: *статистик-комбинатор методлар, тиббиёт соҳаси, терминография, элемент, лотин-юнон*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СТАТИСТИЧЕСКИХ КОМБИНАТОРНЫХ МЕТОДОВ ВО ФРАНЦУЗСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Шахноза Абраева,
Преподаватель кафедры Ўзбекского и иностранных языков ТТА
Эмаил: abrayevashaxnoza1990@gmail.com

Аннотация: *В статье в основном говорится об использовании статистически-комбинаторных методов при анализе лексических единиц на уровне морфем, и в целом сделана попытка определить коэффициент продуктивности при сравнении латентного потенциала латинских морфем с греческими морфемами. и классифицировать морфемы классических языков по их морфологическим признакам.*

Ключевые слова: *статистические комбинаторные методы, область медицины, терминология, элемент, латинско-греческий язык.*

USE OF STATISTICAL-COMBINATOR METHODS IN FRENCH MEDICAL TERMINOLOGY

Shakhnoza ABRAEVA,
Teacher of the Department of Uzbek and Foreign Languages of TTA
Email: abrayevashaxnoza1990@gmail.com

Abstract: *The article mainly talks about the use of statistical-combinator methods in the analysis of lexical units at the morpheme level, and in general, an attempt was made to determine the coefficient of productivity when comparing the latent potential of Latin morphemes with Greek morphemes and to classify the morphemes of classical languages according to their morphological features.*

Key words: *statistical combinatorial methods, medical field, terminology, element, Latin-Greek*

Кириш

Жаҳонда тиббиёт фанининг жадал тараққий топиши турли тилларда мулоқотга киришувчи тиббиёт мутахассислари ўртасида кенг миқиёсда маълумот алмашиниш эҳтиёжини юзага келтиради. Тил ва жамиятнинг ўзаро боғлиқлиги, бу феноменларнинг мунтазам равишда ўзгаришларга учраши, қолаверса, тиббиёт соҳасига янги тушунча, терминлар ва лексик бирликларнинг узлуксиз бир тилдан иккинчи бир тилга ўзлаштириб олиниши натижасида амалиётда кенг қўлланилиши тилшунослик соҳасида алоҳида назарий ва амалий аҳамиятга эга. Шу боисдан ҳам умумий тиббиёт соҳасига оид терминларнинг қўлланилиш имкониятлари, уларнинг таркибий тузилиши ҳамда семантик хусусиятларини янги методологик тамойиллар ва замонавий мезонлар асосида ёритиб бериш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Бугунги кунда дунёда тиббиёт соҳасининг тармоқлари аҳолига хизмат кўрсатишнинг ажралмас ва зарурий воситаси сифатида тобора кенг ва мустаҳкам ўрин эгалламоқда ҳамда тиббиёт соҳасига оид терминология ва терминографияни такомиллаштириш, тиббиёт соҳасига кириб келаётган янги тушунчаларнинг яратилишини назоратга олиш, шакллантириш ва функционал хусусиятларини тадқиқ қилиш алоҳида аҳамиятга моликдир.

Тадқиқот методологияси

Тилшуносликда статистик методлар борган сари кўпроқ тан олинмоқда, чунки тилнинг у ёки бу фактларини таҳлил қилишнинг кўплаб масалалари таҳлилнинг анъанавий усулларида яширинлигича қолмоқда. Бевосита синонимлар масаласи ҳақида фикр юритмасдан, биз классик тилларнинг морфемаларини француз тилида қўлланилишининг баъзи бир қонуниятларини очиб беришимиз, яъни, нутқдаги дифференциал характеристикаларини ва оппозицияни аниқлашимиз керак.

Тилшунос Р.М Фрумкина тўғри таъкидлаганидек: “Статистик методлар лингвистикада шундай кузатиш ва илмий тажрибаларни ташкил қилиш учун қўлланиладики, бунда тадқиқотчи, олдиндан маълум маълумотнинг тўлиқ бўлмаган шароитларида тадқиқ қилинаётган объектлар ва уларнинг ўзаро муносабатлари ҳақида маълум аниқлик ва ишончлилик билан хулосалар чиқариш имкониятини қўлга киритади” (Фрумкина Р. М., 88, 182-бет).

Нутқ тизимидаги миқдорий характеристикаларни ва фарқларни тадқиқ қилиш тил тизимидаги сифатий фарқларни топиш ҳамда кўриб чиқилаётган элементларнинг

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

белгиларини ва хусусиятларини ҳар хил лексик даражаларда ва кичик соҳа тилларида аниқлаш имконини беради. Шунинг учун тадқиқотимиз методикасида миқдорий-сифатий оппозиция ишлатилган бўлиб, у таҳлил қилинаётган лексиканинг сифатий омилларини ҳамда ўзига хос хусусиятларини тадқиқ қилишга кўмаклашадиган структур-эҳтимоллик таҳлил асосида ётади.

Юнон ва лотин формантларининг (аффиксларининг) фарқ қилувчи белгиларини аниқлаш ушбу элементларнинг тил тизимидаги тақсимланишини квантитатив таҳлил қилишда амалга оширилади. Бундай таҳлил тадқиқ қилинаётган морфемаларнинг турли аспектларда: танлаш, кичик соҳа тили ва умуман тил тизимида қўлланилиш соҳасини аниқ тавсифлашга ёрдам беради.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили

Умуман тилшуносликда тиббиёт терминологиясига бағишланган бир қатор тадқиқотлар, жумладан Инглиз, француз, рус ва ўзбек тилшунослигида тиббиёт терминологияси масалалари бўйича қатор тадқиқотлар олиб борилган.

Латинизмлар ва эллинизмларнинг француз тили лексик тизимига кириб келиш тарихи кўплаб муаллифлар (Лобашевская Т.А.,56; Попандопуло Ю.И.,71; Шапиро Г.Д., Каден В.Г.,91; Mitterand H.,117, Quemada B.,119) томонидан илмий-назарий ва амалий жиҳатдан ёритиб берилган.

Тилнинг ҳар бир бирлиги миқдорий характеристикасининг тўплами эҳтимоллик билан боғлиқ. Эҳтимоллик рўёбга чиқадиган натижанинг миқдорий томони деб таърифланади, чунки статистик жараёндаги тасодифий ҳодисаларнинг эҳтимоллигини ҳисоблаб чиқиш илгаридан белгиланган қандайдир шароитларда такрорланувчи вазиятларни кузатиш билан боғлиқ.

Эҳтимолликнинг миқдорий аҳамияти, яъни ҳодисанинг “имконият даражаси”, ушбу ҳодисаларни кузатишларнинг умумий сонига нисбати билан ифодаланади: у маълум барқарорликка ва арзимас оғишларга ҳамда иккиланишларга эга. Бу ўринда таниқли тилшунос А.Е.Супруннинг қуйидаги фикрларини келтириб ўтиш ўринли деб ҳисоблаймиз, яъни: “Тил элементларини танлашдаги айнан эҳтимоллик омили тилга мулоқот жараёнида юзага келадиган янги эҳтиёжларга мослашиш имкониятини беради” (Супрун А. Е., 84, 169-бет).

Битта лексик материалда частотали ва тақсимловчи характеристикаларнинг ўзаро боғланиши тил бирликларининг нутқ оқимидаги миқдорий тақсимланиши асосида сифатий белгиларини олдиндан аниқлашга кўмаклашди. Улар фақат туб морфемалар билангина эмас, балки аффиксал морфемалар билан ҳам муваффақиятли бирга қўшиб ишлатилишлари ҳам мумкин (масалан, **bradycardique, endocardique, épicardigue, péricardigue, sténocardique, tachycardigue, transmyocardique, extracardiaque, juxtacardiaque, mésocardiaque, rétrocardiaque, sténocardiaque, supracardiaque, tonicardiaque, intracardiaque).**

Шундай қилиб, биз тадқиқотнинг битта объектидаги - француз тилининг умумқўлланиладиган ва тиббиёт лексикасидаги лотинча ва юнонча синонимик морфемаларни ҳисоблашнинг ҳар хил тизимини қўлладик.

Муҳими шундаки, бундай таҳлилда частотали ва тақсимлаш аспектларида натижаларни қиёслаш, яъни уларнинг мумкин бўлган айнан ўхшашлигини ҳамда, айнан ўхшамасликнинг сабабини аниқлаш имконияти мавжуд бўлади. Лексик бирликларнинг

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

нутқ оқимидаги частоталигини ва тақсимланишининг қиёсий-чоғиштирма таҳлили Ю.В.Ванников, Л.В.Малов (26), Е.А. Калинина (43) ва П.И. Осипов (65) ларнинг ишларида ушбу масала бўйича қилинган баъзибир хулосаларни қандайдир даражада аниқлашга ёрдам берди.

Таҳлил ва натижалар

Тил тизими ва нутқ тизими ўртасида мустаҳкам алоқалар мавжуд. Тилнинг қонуниятлари нутқда эҳтимолликнинг у ёки бу даражаси билан амалга ошади. Нутқ ҳодисалари ва фактлари эҳтимоллик кўрсаткичларининг статистик таҳлили тилда структур характеристикаларни аниқлашга кўмаклашади. Бу ҳақида М.Д.Степанова тўғри қайд қилиб, эҳтимоллик-миқдорий методика "симптоматик статистика билан тўлдирилиши керак, унга мувофиқ тил ҳодисаларининг нафақат миқдорий, балки сифатий томони ҳам ҳисобга олинади", деб ёзади. (Степанова М.Д.,82, 10-бет).

Частоталик ва тақсимланиш сўз шаклларини ҳисобга олишнинг ҳар хил методлари билан ажралиб туради. Жамланган тез-тез такрорланиш бир матндан иккинчисига ўзгариб туради, муаллифнинг стилистик ўзига хослигига ҳамда тадқиқ қилинаётган матннинг тематикасига боғлиқ бўлади, айни пайтда морфемаларни тақсимлашда матнларнинг, яъни тадқиқ қилинаётган бирлик учрайдиган тўпламларнинг сони қайд қилинади. Бундай ҳолларда миқдорни ажратиб кўрсатиш ва кейин уларни нисбатан кириш билан солиштириш ҳамда нисбий миқдор ва лексик бирликнинг ўзига хослиги кўрсаткичи ҳисобланган коррелятив вазифани аниқлаш имконияти бор.

Хулоса ва таклифлар

Бирор бир жараённи самарали йўлга қўйишни хоҳлаган ҳар қандай инсон ўз фаолиятини таҳлил қилади, олиб борган ишлари хусусида мулоҳаза юритади, ушбу жараёндаги ўз ҳиссаси ёки имкониятларини таҳлил қилади. Демак, структур принципга асосан биз классик тилларнинг синонимик морфемаларини бир-биридан ажратмасдан, балки тизимда, тилда ва нутқда реал мавжуд бўлган бошқа ҳодисалар ва элементлар билан ўзаро боғланишда тадқиқ қиламиз.

Лингвистикада тил элементлари ва ҳодисаларининг сифатий характеристикаларини ва қонуниятларини аниқлаш учун мўлжалланган кўп самарали методлар мавжуд. Лотинча ва юнонча синонимик элементларни ўрганишда структур-эҳтимоллик таҳлилининг қўлланилиши шу билан боғлиқки, квантитатив характеристикаларни солиштириш тадқиқ қилинаётган ҳодисаларнинг нутқда ишлашининг статистик қонуниятларини аниқлаш ва мавжуд оппозицияни, ўхшашлигини ва фарқларини топиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. АМИРОВА Т. Г. Заимствование и его роль в развитии и обогащении синонимии (на материале разносистемных языков): Автореф. канд, филол. наук. - Баку, 1975. - 32 с.
2. АХМАНОВА О. С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Советская Энциклопедия, 1969. - 607 с.
3. ГОЛОВИН Б.Н. Язык и статистика. - М.: Просвещение, 1971. - 190 с.
4. ФРУМКИНА Р. М. Роль статистических методов в современных лингвистических исследованиях. - В кн.: Математическая лингвистика. М., 1973, с.156-183.
5. MITTERAND H. Les mots français. - Paris: Presses Universitaires de France, 1968. - 128 p.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ISAJON SULTON ROMANLARIDA BADIIY TAFAKKURNING TADRIJIY TARAQQIYOTI

Babayeva Sevara Baxtiyor qizi
GulDU Filologiya fakulteti - O'zbek adabiyoti
yo'nalishi tayanch doktoranti,
Electron pochta: abrorbabaev01@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek nasrining yetakchi vakillaridan biri Isajon Sultonning "Boqiy darbadar", "Ozod", "Genetik", "Bilga Xoqon", "Alisher Navoiy" romanlari o'zaro tahlil etilgan bo'lib, romanlarning bir-biriga bog'liq jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, tadqiqot ishida muallifning badiiy tafakkuri, uslubi, badiiy tili, roman janri va poetikasi, romaniy tafakkur kabi masalalar ham atroflicha tadqiq etilgan. Romanlarda yaratilgan obrazlar va syujet liniyalaridagi o'zaro bog'liqliklar asosida muallif badiiy tafakkuridagi tadrijiylik va individuallik xususiyatlari adib romanlari misolida va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *roman, romaniy tafakkur, badiiy tafakkur, obraz, syujet, kompozitsiya, sintez, detal, tarixiy tafakkur, poetika.*

THE EVOLUTIONARY DEVELOPMENT OF ARTISTIC THINKING IN THE NOVELS OF ISACON SULTAN

Babayeva Sevara Bahtiyor kizi
GulSU Faculty of Philology. Uzbek literature
direction base doctoral student,
Electron mail: abrorbabaev01@gmail.com

Annotation: *In this article, one of the leading representatives of modern Uzbek prose Isajon Sultan's novels "Eternal Wanderer", "Free", "Genetic", "Bilga Khakon", "Alisher Navoi" were analyzed among themselves and the related aspects of the novels were studied. The research work also comprehensively investigated the author's artistic thinking, style, artistic language, genre and poetics of the novel, Roman thought. On the basis of the interdependence in the lines of images and plot created in the novels, the evolutionary and individuality characteristics of the author's artistic thinking were analyzed on the example of literary novels and on the basis of scientific literature.*

Keywords: *novel, Roman thought, artistic thought, image, plot, composition, synthesis, detail, historical thought, poetics.*

ПОСТЕПЕННОЕ РАЗВИТИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ МЫСЛИ В РОМАНАХ ИСАЖОНА СУЛТАНА

Бабаева Севара Бахтиер кызы
Филологический факультет ГулГУ. Узбекская литература
направление базовый докторант,
Электронная почта: abrorbabaev01@gmail.com

Аннотация: *В данной статье проведен взаимный анализ романов одного из ведущих представителей современной узбекской прозы Исажона Султана "Бессмертный дарбадар", "Озод", "генетик", "Бильга Хакан", "Алишер Навои", изучены взаимосвязанные аспекты романов. В*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

исследовательской работе также подробно исследованы такие вопросы, как художественное мышление, стиль, художественный язык автора, жанр и поэтика романа, романное мышление. На основе взаимосвязей образов и сюжетных линий, созданных в романах, анализируются особенности преемственности и индивидуальности в художественном мышлении автора на примере романов писателя и на основе научной литературы.

Ключевые слова: *Роман, романное мышление, художественное мышление, образ, сюжет, композиция, синтез, деталь, историческое мышление, поэтика.*

Kirish

Ijodkor badiiy asar yaratishdan oldin, albatta, uning kompozitsiyasi haqida fikr yuritadi. Fabula, ya'ni voqealarning tabiiy ketma-ketligiga asar konsepsiyasidan kelib chiqqan holda o'zgartirish kiritadi va yangi badiiy struktura yaratadi. Hayot materiali (dispozitsiya)ni badiiy asar (kompozitsiya)ga aylantiradi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun turli kompozitsion unsurlar(komponentlar)ning o'rni haqida ham to'xtalib o'tish joiz. Bugungi kunda zamonaviy o'zbek adabiyotida o'ziga xos uslub va tilga ega bo'lgan yozuvchilardan biri Isajon Sulton sanaladi. Adibning inson ruhiyatining tub ildizlari haqida hikoya qiluvchi romanlari nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyoti vakillari tomonidan ham iliq kutib olinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ushbu tadqiqot ishini asoslashda Isajon Sultonning "Boqiy darbadar", "Ozod", "Genetik", "Bilga Xoqon", "Alisher Navoiy" romanlari, Dilmurod Quronovning "Adabiyot nazariyasi asoslari", Islomjon Yoqubovning "Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi" monografiyasi va boshqa adabiyotlardan unumli foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda, asosan, matn tahlili va qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi. Ushbu maqola zamonaviy nasrimiz namunalarini fundamental tadqiq etib o'rganganligi bilan ahamiyatlidir.

Maqola zamonaviy o'zbek adabiyotining proza(nasr) sohasi tadqiqiga bag'ishlangan referatlar, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari va yozuvchi ijodiyoti bilan bog'liq ma'lumotlar uchun asos vazifasini o'tashi mumkin.

Tahlil va natijalar

Isajon Sulton romanlariga xos bo'lgan muhim xususiyat borki, buni ta'kidlamasdan iloj yo'q. Muallif har bir romanida keyingi yaratilajak asarining muqaddimasini yozib qo'ygandek, ishora bergandek bo'ladi. Masalan, "Boqiy darbadar" romanida yaratilgan genetik obrazi va shu obraz orqali muallif tomonidan yoritilgan insoniyatning ildiziga va mohiyatiga ishora qiluvchi muammolar go'yoki "Genetik" romanida yana bir karra qayta jonlangandek bo'ladi. Ikkala asardagi genetik obrazlari o'rtasida ma'lum bir farqlar, ijodkorning estetik ideali jihatidan tafovutlar mavjud bo'lasa-da, lekin ularni umumlashtiruvchi jihatlar ham yo'q emas. Professor Ziyo insoniyatga yengillik yaratilishi, ilm-fanda muhim kashfiyot bo'lishi uchun turli-tuman noqisliklarga ega bo'lgan minglab sun'iy jonzotlarni yaratib, mudhish gunohlarga botgan bo'lsa, "Genetik" romani bosh qahramoni esa o'zining mukammal kashfiyotining ildizlarini milliy o'zligidan, bolalik xotiralari va ong osti qatlamida saqlanib qolgan turfa axborotlardan topadi. Ular o'rtasidagi umumiy jihat shundan iboratki, ikkisi ham inson genini tadqiq etish orqali butun bashariyatga foydasi tegadigan ilmiy yangilikni yaratishni maqsad qiladi, yuksak aql-idrok va chuqur ilmiy tafakkur orqali o'zlarining bor qobiliyat va iqtidorlarini namoyon etadilar. Ammo

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

afsuski, “Boqiy darbadar” romanidagi professor Ziyo hattoki jismoniy va aqliy mukammal jonzotni yaratgandan keyin ham o’z xotirjamligiga, orzusining ro’yobiga erisha olmasdan, aksincha qay darajada buyuk gunoh sodir etganligi, Yaratganning irodasiga qarshi borib, borliqning nizomini buzishga intilganligi sababli huzur-halovat va abadiy ruhiy xotirjamlikdan mosuvo bo’lganligini anglaydi. “Genetik” romanidagi Omon esa inson genining tub mohiyati, ajdodlar qonida saqlanib kelayotgan millionlab axborotlar va bularning kelajak avlod hayotiga ta’sir qilishini aniqlashi orqali butun olamning olqishiga va ma’naviy saodatga, ruhiy kamolotga va o’zligini anglashga erishadi.

“Ozod” romanida berilgan Alisher Navoiyning “Munojot”i, asar syujetining “Lison ut-tayr” asarini yodga solishi, mazmunning mumtoz so’z sehri haqida ekanligi muallif badiiy tafakkurida bir qancha muddat o’tgandan so’ng so’z mulkining sultoni Hazrat Alisher Navoiy haqida roman yozishiga turtki bo’lgan deyish mumkin. Xususan, “Ozod” romanining “Ko’zga ko’rinmas muallifning so’zboshisi” deya nomlangan muqaddima qismida muallif olam va odam haqida quyidagicha falsafiy fikrlarni keltirib o’tadi:

“ – hamma insonlar ko’zgudir va turli-tumandir, – dedi u. – masalan, ilm va so’z ahli botiq oynadir. Ularning aytganlari – kichikdan kattaga, kamdan ko’pga olib boruvchi yo’llarning ishoratlaridir. Modomiki, jonsiz oynaga voqea-hodisalarni akslantirish xususiyati ato etilgan ekan, jonli ko’zgu egasi ularni istagan maqomiga solib akslantira oladi. Dunyoda qushlar turli-tuman, ularning hayot kechirishi va tabiati ham turfa, xalq hudhud, qumri, popishak kabilarga navosoz, donishmand, yengiltak kabi ma’nolarni yuklagan, bular – qisman aks. Ulardan boshqa qushlar ham bor, el ularni tole qushi, humo qush yoki jon qushi deb ataydi. Bular – to’liq, ya’ni hamma qushlarning xususiyatini jamlab, qo’shimcha mo’jizaviy ma’nolar yuklangan aksdir”[5].

Ushbu parcha orqali muallif “Lison ut-tayr” dostonidagi majoziy qushlar, ularning yo’lboshchisi va rahnamosi qatiga singdirilgan majoziy va falsafiy mazmun-mohiyatga ishora qilgandek bo’ladi. Ya’ni, dostonda keltirilgan, o’z manzillari tomon otlangan o’ttizta qush aslida turli-tuman xarakter va tafakkurga ega bo’lgan insonlarning ramzlari, ularning orasidagi ilmiy va badiiy tafakkurga ega bo’lgan insonlar boshqalaridan yuqoriroq pog’onada turadi, shuning uchun ham ular qolganlarga nisbatan botiq oynaga qiyoslanilgan. Ayni shu yerda, “Qur’oni karim”da keltirilgan “Bilgan va bilmagan teng bo’lurmi” oyatini ham yodga olish mumkin. Bilimli insonlar hamisha atorfidagilarni o’z ortidan ergashtira oladi, faqat ulargina haqiqiy manzil qayerda ekanligini bilishadi. “Jonli ko’zgu” kabi barchani turfa rakurslarda akslantira oladi, boshqalar faqat zohirni ko’rsa, ular botinni ham ilg’ay oladi va mohiyatni anglaydilar. “Isajon Sulton romanda lola, Simurg’(yoki Humo) qushlari haqidagi qadim ertak, rivoyat, dostondan(Navoiy) mohiyatga, hayot haqiqatiga yetib boradi. Jumladan romanda o’ttizdan ortiq qushlarni o’z nomi, fe’l-a’moli bilan tasvirlagan adib, ularni Humo qushiga keltirib ulaydi va shu tariqa mohiyatga yaqinlashib boradi…”[1]. Ko’rinadiki, Humo qushi asarlarda ma’rifatga erishgan donishmand timsol sifatida ko’zga tashlanadi. Qolgan qushlar esa qanchalar go’zal va xushovoz bo’lishmasin, olamning mohiyatini anglashga ojiz ekanligi va buning uchun ularga, albatta, bir yo’lboshchi zarur ekanligi tasvirlanadi. “Mantiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr” asarlari kabi “Vahdati vujud” (vujud yagonaligi) va “Tajalliy” (asl moyaning olamdagi zuhuroti) kabi g’oyalarni ham “Ozod” romani zamirida ilg’ash mumkin. Ozodning tog’ lolasini olish uchun yo’lga chiqishi aslida bir timsol bo’lib, bundan anglashiladigan maqsad esa uning ma’naviy va ruhiy kamolotga erishuvidir. Shu o’rinda asardagi tasavvufiy ruhning turli ishoralar orqali berilganligiga guvoh bo’lishimiz mumkin.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Asar so'ngida Ozod anglab yetgan haqiqatlar Navoiy hazratlarining "Munojot"i tarzida yangrashi ham ushbu romandagi Alisher Navoiy siymosining estetik ideal sifatida olinganligidan dalolat beradi:

"Ilohi, akram ul-akramin – Sen va gunohkor – men. Ilohi, agarchi jurmi isyondin o'zga ishim yo'q, ammo Sendin o'zga ham kishim yo'q…"

"Ozod" romani yozilganidan keyin o'n yilga yaqin vaqt o'tib, muallifning tasavvufiy ruhdagi "Alisher Navoiy" romani dunyoga keldi. Ushbu romanning yozilishi kurtaklari va ildizlarini bevosita "Ozod" romanida ko'rishimiz mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, Isajon Sulton ijodida har bir qahramon yoki tasvir, hattoki kichik bir detal ham muallif badiiy tafakkurining yuksak mahsuli sifatida yangidan yangi asarlar dunyoga kelishi uchun turtki vazifasini o'tay oladi.

Diniy ilmlarning chuqur bilimdoni bo'lgan Alisher Navoiyning har bir asari Allohga hamd aytish bilan boshlanadi. Shuningdek, uning ijodini Qur'on, hadis va tasavvuf g'oyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuningdek, "Alisher Navoiy" romanida ham "Ozod" romanida ifoda etilgan kabi so'z haqida, uning qadr-u qiymati haqida so'z boradi: "Insonga ato etilgan yorug' dunyoning son-sanoqsiz ne'matlari aro so'z – o'zga olamning, mangulik diyorining vakilidir, shuncha jon egalari orasidan ugina mangulikka uchgaydir. Tog'lar-u ummonlar, sahro-yu ko'llar, mulklar-u saltanatlar – barining kuli ko'kka sovurilib ketar ekan, faqat ugina qiymat topgaydir…"[6] e'tibor berib qarasak, muallif ko'plab asarlarida so'zning mohiyati, qiymatiga urg'u berib, aytuvchi va eshituvchini(o'quvchini) o'sha ma'nolar olamiga olib kirishga urinadi. Butun borliqning va abadiyatning ham mazmuni shu birgina so'zda mujassam ekanligi, aytilgan va aytilmagan(fikr etilgan, niyat qilingan, mayl etilgan) so'zlarning barchasi inson xatti-harakatlaridan ham ko'proq ahamiyatga ega ekanligi ham uqtirilgandek bo'ladi. "Ozod" romanida esa so'z aslida hech narsa emasligi, uning asl qiymati bag'ridagi ma'nolari bilan o'lchanishi haqida aytiladi.

"Genetik" romanida bosh qahramon inson genidagi qadim ajdodlarning ildizlari, ular haqidagi barcha axborotlarning saqlanib qolishini aniqlaganidan so'ng, u xayolan millatning barcha ulug'lari bilan suhbat quradi. Ular orasida Bilga Xoqon, Kul Tigin, To'nyuquq, El Bug'u kabi eng olis bobolar yodi ham bor edi. Isajon Sulton asar badiiyati va tarixiy tafakkurning uyg'unligini paydo qilish maqsadida asar kompozitsiyasida "Bilga Xoqon", "Bilga To'nyuquq", "Achur bitigi" kabi qadimgi manbalarga asoslanadi. Shu bilan birga, ushbu manbalarni to'g'ridan to'g'ri bermasdan, poetik uslubda ifoda etishga urinadi:

"Mening ismim – Er Bug'u. Alp Er Shadning o'g'liman.

Tepamda ko'k osmon… qo'ng'ir yer bag'rida ming yillardan beri yotaman.

Suvchumchuq kelib toshni cho'qiydi. U qaysi tosh ostida suv borligini biladi. Tumshuq urishidan suvchumchuqligini payqayman.

G'alati bir tutqunlik ichida yotaman-u, xotiramda turli manzaralar borligidan hayratlanaman…"[7] Teshiktosh g'oridan topilgan sakkiz yashar bolaning suyaklari haqida maktab darslarida eshitgan va tafakkurida o'zgacha tasavvurlar bilan saqlanib qolgan xotiralar bo'lajak genetik xayolida uni o'ziga juda yaqin, juda o'xshash, ham ko'rinishi, ham tutumlari, ham nutqiy holati jihatidan go'yo bir do'st, og'a yoki inisidek tasavvur uyg'otadi. Shuningdek, Bilga Xoqon, To'nyuquqlarning olis moziydan taralib turgan ovozlarini eshitar ekan, uning qalbida o'zgacha bir g'urur va sog'inch hissi paydo bo'lgandek bo'ladi. Adib ham ushbu tarixiy shaxslar haqida yozar ekan, uning badiiy tafakkurida milliy tariximizning o'lmas lavhalari betakror tarzda akslanadi va bu akslar keyinchalik yangi bir tarixiy romanning yaratilishiga zamin hozirlab beradi. "Bilga Xoqon" romanida yozuvchi o'zbek millatining qadim o'tmishi, ajdodlarning qiyofasi va

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

xarakteristikasi, ularning ruhiyati va hayot tarzi, yashash sharoiti haqida batafsil ifoda etishga urinadi. Bilga Xoqon, Kul Tigin, To'nyuquq kabi tarxiy qahramonlar bilan birga Ishbara Yamtar, Bulut kabi to'qima obrazlar ham asar badiiyatini oshirishda, tarixiy sharoit va bosh obrazlarning o'ziga xos xususiyatlarini yanada yaqqolroq ochish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, qadim ajdodlarimizning e'tiqodiy qarashlari, xususan, Ko'k tangriga bo'lgan ishonchi "Genetik" romanida ham, "Bilga Xoqon" romanida ham o'z aksini topgan:

"…Qishlarda o't yoqib, tizza bo'yi qo'r qilinardi. Hamma uning tegrasiga o'tirib olardi. Ov mo'l bo'lsa, barini terilarga o'rab, muzli g'orga olib borib qo'yishardi. Qishda et ozaysa, muzlagan go'shtdan opkegani borardik. Ba'zilarini Ko'k Tangriga qoldirardik.

– Ko'k Tangri kim?

– Bilmaysanmi, Dunyoni Ko'k Tangri yasagan-ku! – Tepada ko'k osmon, pastda qo'ng'ir yer yaratilganda, ikkisining o'rtasida odam bolalari paydo bo'lishgan… otalarimiz jonliqlarni unga tashlab kelishardi. Tangri ularni olib ketardi…"[7] Qadimdan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan Ko'k Tangri e'tiqodi uzoq yillar mobaynida saqlanib qolgan. Yerni va osmonni, inson va uning uchun zarur bo'lgan barcha ne'matlarni Ko'k Tangri in'om etganligi, Ko'k Tangri osmonda ekanligi, hattoki har bir hukmdorning ham Ko'k Tangri tomonidan tayinlanishi va olinishi haqidagi qarashlar ham mavjud bo'lgan.

"Bilga Xoqon" romanida esa Ko'k Tangri to'g'risidagi odamlar tasavvuri haqida kengroq yoritiladi:

" Ko'k Tangri yerni kishi o'g'li uchun tuzagan ekan. Kishi o'g'li Tangrisini unutmabdi. Kun yodida tutibdi, tun yodida tutibdi. "Tangrim, senga topinay" debdi. Unga atab bir molini so'yishni istabdi, biroq bu yalangda so'ysam tuzuk emas, debdi. Ko'k Tangri yuksakdir, muni yuksakka oborib so'yay. Molini Tangritoqqa olib chiqibdi, qonini oqizib, Ko'k Tangriga atabdi.

Qarab tursa, ko'kda chaqmoq chaqibdi. Bir uchi yerga kelib urilib, so'yilgan molni kuydirib ketibdi.

Kishi o'g'li sevinibdi. "Bu ishim Tangrimga yoqdi", debdi. Dediki, meni Tangrim suyar ekan…"[9]

Parchadan anglashiladiki, Turk xoqonligi davrida odamlar har bir tabiat hodisalari, xususan, chaqmoq, momaqaldiroq, shamol, bo'ron va hatto qor-u yomg'irlarni ham Ko'k Tangrining irodasiga bog'lashgan. Har bir ishni boshlashdan oldin uning nomini tilga olishgan, shuningdek, har bir erishilgan natija uchun ham aynan unga hamd-u sano va rahmatlar aytilgan. "Genetik" va "Bilga Xoqon" romanlarida ushbu qarashlar yaqqol aks etgan.

Demak, Isajon Sulton romanlarini bir-biri bilan bog'liq, biri ikkinchisidan "o'sib chiqqan", paydo bo'lgan asarlar deyish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, badiiy tafakkurning tadrijiy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan jarayon.

Istiqlol davri o'zbek nasrida, xususan, romanlarda Sharq mumtoz adabiyoti va G'arb adabiyotining uyg'unligiga ham guvoh bo'lish mumkin. Bu hodisa deyarli barcha zamonaviy ijodkorlar ijodida uchraydi. Isajon Sulton ham o'z romanlarida milliy va mumtoz falsafani bosh konsepsiya sifatida aks ettiradi. Shu bilan birga, jahon adabiyotining yetakchi vakillaridan Gabriel Garsia Markes, Xorxe Luis Borxes, Chingiz Aytmatov kabi yozuvchilar ijodi bilan o'zaro ta'sir ham seziladi. Adib Gabriel Garsia Markesning afsonaviy timsollarni aks ettirish("Yolg'izlikning yuz yili"), Borxesning xalq qalbidan chuqur o'rin egallagan tarixiy shaxslarni asar markaziga qo'yish("Marvlik hakim", "Pedro Salvadores" va b.), Chingiz Aytmatovning umuminsoniy muammolarni falsafiy-psixologik ruhda tasvirlash("Kassandra tamg'asi") xususiyatlarini ham

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

o'zida aks ettira olgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Adibning o'zi ham "Hazrati majoz" asarida bu to'grisida shunday fikrlarni keltirib o'tadi:

"Bugunning nasrida uchta quvvatli tamoyil yaqqol ko'zga tashlanib turibdi va, aytish mumkinki, har uchala tamoyilning ham o'z iste'dodlari, o'z ustalari bor. Birinchisi, milliy ruhni, xalq ruhini milliy usullarda yanada rang-baranglashtirib taqdim etish, ikkinchisi – xalq shuurida uzoq yillar yashab kelayotgan o'lmas timsollarni olam ahliga namoyon qilish va uchunchisi – butun dunyo adabiy tafakkurida ro'y berayotgan, ammo bizning adabiyotimiz uchun yangi hisoblangan shakllarni olib kirib, o'z ruhimiz bilan to'ldirishdan iborat. Menimcha, har uchala tamoyilning ham o'z o'rni, o'z o'quvchisi bor"[10].

Adib tomonidan qayd etilgan uchala xususiyat ham aynan ijodkorning o'z ijodida uchraydigan jihatlar deyish mumkin. Yozuvchining "Ozod", "Alisher Navoiy", "Genetik" romanlarida milliy tafakkurning va ruhning tasviri bo'rtib ko'rinib turgan bo'lsa, "Bilga Xoqon", "Ma'suma", "Alisher Navoiy" kabi asarlarda xalq qalbidan chuqur o'rin egallagan, millat faxriga aylangan buyuk siymolarning badiiy asar markazidagi tasviriga duch kelamiz. "Boqiy darbadar" romanida esa muallifning butun jahon adabiyoti durdonalari ta'siri va o'ziga xos jihatlarini o'zlashtirganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Badiiy tafakkur olamni badiiy ko'z bilan ko'rib, obrazli fikrlash, borliq va barcha yaratiqlarga individual tarzda yondashib, baholash, tahlil etish, badiiy sintez qilish jarayonidir. Shuningdek, badiiy tafakkur ijtimoiy hayot bilan ham bevosita bog'liq bo'lib, ijodkor o'zi yashayotgan davr, makon va zamon bilan birga, uyg'unlikda ijod qiladi, asarlarida davrning, xalqning ruhi yetakchilik qiladi. Isajon Sulton romanlarida badiiy tafakkurning yangi qirralari, o'ziga xos jihatlarni turli ifoda yo'nalishlarida ko'rish mumkin. Adib romanlarining har birida keyingi yaratiladigan romani bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni ko'rish mumkin, bu esa o'z navbatida, muallif romanlarini bir-biriga zanjir sifatida bog'lab tadqiq etish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomjon Yoqubov. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. Monografiya. – T.: Nurafshon business. 2021-yil, 53-bet.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: Navoiy universiteti. 2018 yil.
3. Yo'ldoshev Q, M.Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –T. –2016 y. 201-202-betlar.
4. Isajon Sulton. Boqiy darbadar. – T., O'zbekiston. 2011. 36-37 b.
5. Isajon Sulton. Ozod. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – T.: 2012-yil.7-bet.
6. Isajon Sulton. Alisher Navoiy. T.: Adabiyot. – 2021. 265-bet.
7. Isajon Sulton. Genetik. Yangi asr avlodi. – T.: 2018-yil. 97-bet.
8. Isajon Sulton nasri badiiyati. T.:Turon zamin ziyo, 2017 yil. – 373 b.
9. Isajon Sulton. Bilga xoqon. Sharq yulduzi. 2019 yil.
10. Isajon Sulton. Hazrati majoz. http://www.gglit.uz/blog

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

METONIMIYALI INGLIZ VA O‘ZBEK MAQOLLARINING SEMANTIK TAHLILI

Boboqulova Nilufar Xayrullo qizi,
Termiz Davlat Pedagogika instituti
Xorijiy tillar nazariyasi va metodikasi
kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: qodirova@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida metonimiyali maqollarning qo ‘llanilishi hamda o‘rganilayotgan maqollarning ma’nosi va semantik xususiyatlari faktik materiallar asosida tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *maqol, ekvivalent, metonimiya, chog ‘ishtirish, sematik tahlil, o‘xshashliklar.*

SEMANTIC ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEKI PROVERBS WITH METONYMY

Bobokulova Nilufar Khayrullo kizi
Termiz State Pedagogical Institute
Theory and methodology of foreign languages
An English teacher of the department
E-mail: qodirova@mail.ru

Annotation: *The article describes the meaning and semantic features of metonymic proverbs in English and Uzbek languages and the studied proverbs are analyzed based on factual materials.*

Key words: *proverb, equivalent, metonymy, comparison, sematic analysis, similarity.*

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦ С МЕТОНИМИЕЙ

Бобокулова Нилуфар Хайрулло кызы
Термезский государственный педагогический институт
Теория и методика иностранных языков
преподаватель кафедры
E-mail: qodirova@mail.ru

Аннотация: *В статье описываются значение и семантические особенности метонимических пословиц в английском и узбекском языках и анализируются изучаемые пословицы на основе фактических материалов.*

Ключевые слова: *пословица, эквивалент, метонимия, сравнение, сематический анализ, сходство.*

Metonimiya

bu bu bir narsaning o'rniga u bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan so'zlar bilan almashinadigan nutq shakli, ya’ni metonimiyada biror bir narsa yoki hodisa nomi o ‘zgargan holda ko‘chiriladi, lekin bu holat nomlangan bo‘lib emas balki aloqadorligi yoki o‘xshashligi sababli bir biriga bog‘liq

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

bo‘ladi. Metonimiya o‘zining ma’nosidan angalgan holda ya’ni, grekchadan olingan bo‘lib “qayta nomlash”, yoki “boshqa nom berish” degan ma’nolarni anglatadi. Masalan, Ra’no Anvarga xat yozib yuboradi va gapning qolganini Fuzuliydan o‘qirsiz, deydi (A.Qodiriy “Mehrobdan chayon”). Bunda muallifning nomi uning asari o‘rniga ko ‘chgan uni nomi bilan qo ‘llanadi. Yana bir misolda metonimiyani kuzatishimiz mumkin: “Oyoqyalanglar”, bunda organism bilan bog’liq bo‘lgan “oyoq” so‘zi hamda “yalang” esa “ochiq” so‘zlari orqali metonimiya vujudga kelayapti, bu o‘z
o‘rnida “nochorlik”, “kambag’allik” ma’nolarini beradi. Bitta so‘z orqali odamlarni tasvirlash ya’ni ta ‘sirchanlik kuchayishi orqali metonimiya hosil bo‘ladi.

Shu bilan birga paremiologlar tomonidan ham maqollarda qayta nomlash xususiyatlari o‘rganilayotgan bir paytda metonimyali maqollarni o‘rganish lozim deb topdik. Quyida ingliz va o‘zbek metonimyali maqollarning sematik tahliliga
to‘xtalib o‘tdik.

Ingliz tili maqollarida metonimyani misollarini ko‘rib chiqamiz:

The way to a man's heart is through his stomach.

To‘g’ridan to‘g’ri tarjima qilinganda “*Erkaning yuragiga oshqozon orqali yo‘l”* ma’nosini beradi, lekin maqoldan tushunishimiz kerakki, ko‘p ayollar turmush
o‘rtog’iga mazali taomlar tayyorlash orqali uning sevgisini qozonadilar. Ayollar turmush o‘rtog’ining qornini to'ydirsalar uning sevgisni qozonadi. Bunga ekvivalent sifati esa, *“Ayol qulog’i bilan, erkak oshqozni bilan sevadi”* metonimyali maqol sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Marry in haste, and repent at leisure.

Bunda shoshilib uylanish yaxshi oqibatlarga olib kelmaslligi, hamda keyin afsus chekishimiz uchun ko‘p vaqt borligini tasvirlab beruvchi metonimiyali maqol.

The best things in life are free.

Hayotimizdagi eng yaxshi narsalar bepul. Bu maqolda sevgi, do‘stlik va sihat-salomatlik kabi haqiqatan ham qimmatli narsalar uchun pul to'lashimiz shart emasligi aks ettirilgan.

A good book is a great friend.

Yaxshi kitob ajoyib do‘st ma’nosini beradi, demak bunda obyekt jonlantirilgan holda metonimiyali maqol hosil bo ‘lgani misol bo ‘la oladi. Yaxshi kitob insonning yaxshi do‘sti bo‘lishiga ya’ni kitob orqali ko‘pgina yaxshi fazilatlarni
o‘rganish muhim ekanligini ta’kidlasak to‘g’ri tassavur hosil bo‘ladi. Bunga ekvivalent qilib, o‘zbek maqollaridan uchtasi to‘g’ri kelishi mumkin:

Kitob bilim bulog’i — o‘quvchining o‘rtog’i
Kitobdan yaxshi do‘st yo‘q
Kitob-beminnat do‘st

Metonimiyalar ko'pincha adabiyotda va kundalik suhbatda qo'llaniladi. Metonimiya bu boshqa so'zlar ichida yotgan ma ‘no yoki iboradir. Ba'zan metonimiya so'zning taniqli xususiyati bo'lgani uchun tanlanadi. Masalan, *the pen is mightier than the sword,* bunda “qalam” – “pen” hamda “qilich” – “sword” so ‘zlari umumiy boshqa ma ‘noda kelib, qalam – so‘z, qilich esa tajavuzkorlik va kuch ma’nolarida qo‘llanib, bir so‘z insonga qanchalik og’ir botishini izohlaydi. Bunga ekvialent qilib, *qalamning uchi- qilichning kuchi* maqolini misol qilsak mubolag’a bo‘lmaydi.

Better late than never.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Hech qachondan ko‘ra kech yaxshi ma’nosida qo‘llanigan metonimyali maqol. Nimaiki ishni haraktga keltirmoqchi bo‘lsak, qilmaganimizdan ko‘ra qilganimiz yaxshi ma’nosida qo‘llanilmoqda va bunga o‘zbek maqoli ekvivalent bo‘lib: *Hechdan ko‘ra, kech yaxshi* to‘g’ri keladi.

Think first, than action.

To‘g’ridan to‘g’ri tarjima qilinganda, harakat qilishdan oldin o‘ylashingiz maqulligini aks ettiradi. Demak, biror nima aytmoqchi bo‘lsangiz chuqurroq bir
to ‘xtamga kelib, keyin gapirishingiz lozim ekanligi ushbu maqolda aytilgan. *Avval o‘yla, keyin so‘yla* maqolasi yaqqol ekvivalent misol tariqasida.

Oil and water don't mix.

Bu ingilizlar maqoli bo‘lib, suv bila yog’ aralshmaydi degan ma’noni beradi, ya’ni ikki xil xarakterli odamlar bir joyda ishlolmasligi bu maqolda aks ettirilgan. Haqiqatdan ham metonimyali ingliz maqolasiga e’tibor bersak, suv bilan yog’ni qanchalik harakat qilmaylik u aralashmaydi. Inglizlar bu maqol orqali odamlarning xarakterlarini ifodalaganlar.

Blood is thicker than water

Ingliz maqolida qon suvdan qalinroq (so‘zma-so‘z "Qon qalinroq, suvga nisbatan ‘) tarkibiy qon (blood) moddaning zichligi belgisi asosida suv (water) bilan taqqoslanadi. Maqol allegorik tarzda izohlaydi oilaviy rishtalarni, qarindoshlik rishtalari ko'pincha juda kuchli va ba’zan yordam muhtoj bo‘lgan oila a ‘zosiga umumiy ko ‘maklashish ma’nosida *qon* komponenti bu yerda majoziy lug'atda "nikoh emas, balki tug'ilish bo'yicha oila rishtalari uyg’unligi" degan ma'noni anglatadi va bu maqolni qisman majoziy bo‘ladi.

Full coin, full case.

Bunda “coin”-pul ma’nosida kelib, “case”- esa muammo ma’nosi ifodalaydi, hamda to‘g’ridan to‘g’ri tarjima qilinganda, to‘liq tanga-to‘liq quti degan ma’noni beradi. Aslida esa, puling qanchalik ko‘p bo‘lsa muammlar shunchalik ko‘payadi, muammo ehtiyoj ham ma’nosi beradi bu maqolda.

Early bird gets worm.

Bu maqolni to‘g’ridan to‘g’ri tarjima qilinganda ma’nosini yo‘qotish hosil bo‘ladi, ya’ni Tongi qush, qurt oladi xató ma’nosi beradi. *Early bird* – erta tongdan turgan *shaxs*ga nisbatan aytilayapti, *gets worm* esa unga ***baraka*** ko‘proq bo‘ladi degan ma’noni anglatadi. Bu maqolni o‘zbek maqoliga o‘xshash ekvivalentlarini misol qilib quyida aks ettirilgan:

Erta turgan ish bitirar,
Kech turgan ko‘p turtinar.

Erta turgan horimas

Out of sight, out of mind.

Bu maqolni tarjima qilishda, xatollika yo‘l qo‘yilmasligi kerak, chunki to‘g’ridan to‘g’ri tarjima qilinga “Ko‘zdan va aqldan” degan xato ma’noni beradi. Lekin chiroyli tarjima qilsak va inglizlarni madaniyatiga asoslanib tarjima qilsak, *“Hayoli parishon”* degan ma ‘no kelib chiqadi.

Cold hands, warm heart

Qo‘llar sovuq, yurak illiq ma’nosiga ega bo‘lib, ya’ni *tashqi ko ‘rinishiga qarab baho bermang* deb tarjima qilinadi. Bu yashirin hissiyotli yoki g’amxo'rlik qiladigan har qanday odam haqida aytilishi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

mumkin. Bu tashqi ko'rinishda sentimental ko’rinmaydigan, lekin yashirincha yaxshilik qiladigan odamni tasvirlaydigan metonimyali maqol.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, har bir metonimyali maqollarni tarjima qilayotganda o‘sha xalqning urf-odatlarini, turmush tarzini, madaniyatini o‘rganib chiqib, ekvivalent yoki chiroyli tarjima berish lozimligi tarjimonga bog‘liq hisoblanadi, aks holda, o‘sha xalqning milliyligiga putur yetkazib qo‘yishi mumkin. Metonimiya xodisasi maqolni obyektga nisbatdan kuchli ma’noni beruvchi va emotsiyalarni kuchaytirish voqelikni aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sol odub Yu. P. Turli tillarda maqol va matallarni farqlash muammosi turlari // Filologiya fanlari. 1994. No 3. S. 5 5 -7 1.
2. Jakobson R. Hallem. Fundamentals of Language. The Hague, 1956.
3. Taylor A. The Proverb and an Index to the Proverb. Copenhagen, 1962.
4. O‘zbek tilining izohli lug’ati. Ikki jildlik. 1-jild. A-R. Moskva: Rus tili. 1981. 386-b.
5. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar mahzani-Toshkent: O O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.-480b.
6. http://dayusanz.blogspot.com/2016/05/metonymy-and-proverbs.html

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

SOMATIK LEKSIKA VA UNING XUSUSIYATLARI

Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna Buxoro davlat universiteti, Ingliz tilshunosligi kafedrasi dotsenti
gmail: gadoyevamavlyuda59gmail.com.
Yodgorova Laylo Baxtiyorovna Buxoro Davlat universiteti magistranti
email:yodgorovalaylo528@gmail.com

Annotatsiya : *Ushbu maqola somatik leksikaning va uning xususiyatlari o`rganishga bag`ishlangan. Ilmiy maqolada somatik leksikaning inson yoki hayvon tana a`zolarini ifodalashi va ularning insonni olamni anglashidagi o`rni, ularning o`zida xos xususiyatlari haqida so`z yuritilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *Leksika, somatik leksika, somatizm, somatik lug`at, polisemiya.*

SOMATIC LEXICON AND ITS FEATURES

Gadoeva Mavlyuda Ibragimovna docent of the English linguistics department of the Bukhara State University
gmail: gadoyevamavlyuda59gmail.com.
Yodgorova Laylo Baxtiyorovna Master student of Bukhara state university
email:yodgorovalaylo528@gmail.com

Annotation: *This article is devoted to studying somatic lexicon and its features. The scientific article presents that somatic lexicon expresses the body parts of the human or animal and its role in recognizing the world and the specific features of the somatic lexicon are stated.*

Key words: *Lexicon, somatic lexicon, somatism, somatic vocabulary, polysemia*

СОМАТИЧЕСКАЯ ЛЕКСИКА И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ

Бухарский государственный университет, доцент кафедры английского языкознания
gmail: gadoyevamavlyuda59gmail.com.
Ядгорова Лайло Бахтиеровна Магистрант Бухарского государственного университета
email:yodgorovalaylo528@gmail.com

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению соматической лексики и ее особенностей. В научной статье представлено, что соматическая лексика выражает части тела человека или животного и ее роль в познании мира, а также изложены специфические особенности соматической лексики.*

Ключевые слова: *лексика, соматическая лексика, соматизм, соматическая лексика, полисемия*

Kirish

Ma'lumki, leksika so`zi yunoncha so`zdan olingan bo`lib, "so`zga oid", "lug`aviy" degan ma`noni anglatadi. Leksika bu tilni tashkil etuvchi barcha so`z va iboralar yig`indisi bo`lib, u tilning lug`at tarkibini tashkil etadi. Til leksikasi mutassil o`zgarish xususiyatiga egadir. Buni

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ba`zi so`zlarning o`z ma`nosini yo`qotib, butunlay ishlatilmay qo`yilishi yoki yangi ma`no hosil qilishi, shuningdek, tilda mavjud bo`lmagan so`zlarning tilga kirib kelishi kabilarda kuzatish mumkin. Til leksikasi jamiyat rivojlanish taraqqiyoti bilan bog`langan holda boyib boradi. Jumladan, fan va texnikada erishilgan yutuqlar ham tilning leksik qatlamida yangi so`zlar vujudga kelishiga olib keladi,

Adabiyotlar tahlili

Endi somatik leksikaga asosiy e`tiborni qaratadigan bo`lsak, somatik leksika deyilganda tilda mavjud bo`lgan inson yoki hayvon tana a`zolarini ifodalovchi so`zlar tushuniladi. Somatik leksika barcha tillarda mavjud bo`lib, tillarning universal leksik qatlamiga kiradi. Somatizm atamasi yunoncha “soma” so`zidan olingan bo`lib, tana degan ma`noni anglatadi. Somatizmlar inson yoki hayvon tana a`zolarni ifodalovchi so`zlar hisoblanadi. Tilshunoslikda somatik leksika va somatizm atamalarini kirib kelishi, eston tili tadqiqotchisi F.O.Vakk nomi bilan bog`liqdir. Uning fikricha: “Somatizmlar frazeologiyaning eng qadimgi qatlamlaridan biriga tegishli va har qanday so`z boyligining eng ko`p ishlatiladigan qismini tashkil etadi”. U somatizmlarni quyidagi turlarga bo`ladi: 1) insonni tasvirlaydigan; 2) inson va hayvonni tasvirlaydigan; 3) hayvonni tasvirlaydigan.

Tahlillar va natijalar

Vakkning ta`kidlashicha: somatizmlar nafaqat ta`na a`zolarini, balki tanadagi suyuqliklar nomini, tana a`zolari sirasiga kirmasa ham, ular bilan uzviy bog`liq bo`lgan asab, suyak, muskul kabilarni, shuningdek imo-ishoralar natijasida hosil bo`lgan so`z birikmalarini qamrab oladi.

Inson o`zini, o`zini qurshab turgan olamni anglashni o`z ta`na a`zolari orqali anglaydi, shuningdek olamdagi boshqa obyekt va predmetlarni o`zining tana a`zolari orqali his qiladi, ular bilan solishtiradi. T.N. Chaykoning fikriga ko`ra: somatizmlarning doimiy inson ko`z ostida bo`lishi ularni boshqa narsalarni taqqoslash uchun xizmat qiluvchi etalonga aylantirib qo`ygan. Somatizmlar metafora orqali ma`no hosil qilishda faol qo’llaniladi va uning asosida inson va hayvonlarning o`zini tutishi kuzatish yotadi. Insonni olamni anglashida, undagi narsa va predmetlarni ongida aks ettirishida o`zining ta`na a`zolarini, ular bajaradigan vazifalarni taqqoslash manbai sifatida ko`radi.

V. Gakk esa shunday deydi: “Inson –egosentrikdir, u o`zida olam markazini ko`radi va olamni o`z qiyofasida aks ettiradi.

Somatizmlar ya`ni tana a`zolarini ichki va tashqi ta`na a`zolariga bo`lish bilan bir qatorda lingvist olimlar ularni bir necha guruhlarga bo`lgan holda tadqiq etganlar.

Somatik lug`atlar nominatsiya obyektinining xususiyatiga qarab, Mugu Yu.R.o`z ilmiy ishida Kochevatkin M.A. tomonidan quyidagi guruhlarga ajratilganini aytib o`tadi:

1. Somonimik lug‘at. Somatik lug'atning eng katta qismi bo`lib, ular inson tana qismlari va joylarini belgilashga xizmat qiladi.

2. Osteonimik lug'at. Osteonik lug'at inson tanasidagi suyaklarini belgilash uchun ishlatiladi.

3. Splanxonimik lug'at. Splanxononimik lug'at inson tanasining ichki organlari. nomlash uchun ishlatiladi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

4. Angionomik lug'at. Inson tanasining qon aylanish tizimlarini nomlash uchun angioonimik lug'at qo'llaniladi.

5. Sensorik lug‘at. Sensorik lug'at insonning sezgi a'zolarini belgilashga xizmat qiladi.

6. Odamning organizmi kasalliklari va ko'rinishlarini bildiruvchi lug'at.

Somatik lug`at (yunoncha “soma” – “tana” har qanday tildagi universal leksik guruhlardan biri mahalliy hamda xorijiy tilshunoslarning qiyosiy , tarixiy, lingvokulturologik asarlaridagi eng ko`p tarqalgan tadqiqot obyekti bo`lib, odatda u har qanday tilning leksik-tematik tizimi so`z boyligini birinchi bo`lib ajratadi. Somatizmlar – bu odam yoki hayvon tanasi qismlarining asl ma`nosiga ega bo`lgan otlardir. Somatizmlar ya`ni tana a`zolarin bildiruvchi sozlarga misol keltiradigan bo`lsak: bosh, ko`z, quloq, soch, og`iz, burun, til yoki head, eye, ear, hair, mouth, tongue kabi so`zlar ot so`z turkumiga mansubligini anglaymiz. Ularning o`ziga xos xususiyatlaridan biri ularning shu so`z turkumi sirasiga kiritilishidir.

Somatik leksikaning yana bir muhim xususiyati unda polisemiya hodisasining ko`p kuzatilishi hisoblanadi. O`zbek tilida *“bosh”* va ingliz tildagi *“head”* so`zlarini solishtirganimizda, ularning ko`p ma`nolarga egaligi e`tiborni tortmay qo`ymaydi. Bunda bu so`zlar ikkala tilda ham inson yoki hayvon tanasini yuqori qismidan tashqari yana aql, ong, rahbar yoki boshliq, biror narsaning yuqori qismi kabi yana boshqa ma`nolarda qo`llanilishi mumkin. Albatta, bu ularning o`zaro o`xshashligidir.

Xulosalar

Somatik leksika bu inson yoki hayvon tana a`zolari ifodalovchi so`zlardir. Somatik leksikalarga olimlar ta`na azolariga bog`liq bo`lgan so`zlarni, inson tanasidagi suyuqlik, ya`ni qon, muskul, suyak va shu kabilarni ham kiritadilar.

Inson o`zini o`rab turgan olamni ongida aks ettirish uchun, undagi narsa predmetlarni o`zini tana a`zolari bilan sezadi va ular bilan taqqoslab o`rganadi.

Somatik leksik qatlamining o`ziga xos xususiyati ushbu so`zlar ot so`z turkumiga mansubligidir.

Somatik leksikaga shuningdek polisemiya hodisa xos bo`lib, ular boshqa ma`nolarni ham ifodalab keladi.

Adabiyotlar

1.Вакк. Ф.О. Соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф.дисс…канд.филол. наук. – Таллин, 1984, –С.62-64.

2.Чайко Т.Н. Названия частей тела как источник метафоры в апеллятивной и ономастической лексике // Вопросы ономастики, №8-9. – Свердловск, 1974.

3.Гак.В.Г. Языковые преобразования. – М.: Школа Языки русской культуры 1995.

4.Мугу Р.Ю. Полисемантизм соматической лексики (на материале русского немецкого языков): Дисс.… канд. филол. наук. – Майкоп, 2003. –С. 81-82 с.

5.Gadoeva M.I. Features of connotative meaning of somatisms as part of phraseological units // International Journal on Integrated Education.Volume 3, Issue III, March, 2020. – P.73-78. (Impact Factor: SJIF 2020 – 5,712)

6.Gadoeva M.I. Lexico-semantic fields of “eye” in English and Uzbek languages // Academicia. An International multidisciplinary Research Journal. ISSN (online): 2249-7137. Vol. 11, Issue 10, October. https://saarj.com DOI NUMBER 10.5958/2249-7137.2021.02176.5. -India, 2021. – P.872-879. (Impact Factor: SJIF 2021 - 7.492).

7.Gadoeva M.I. Semantics of somatism in blessings of English and Uzbek cultures // Web of Scientist: International Scientific Research Journal Open Access, Peer reviewed Journal. ISSN: 2776-0979. Volume 2, Issue 11, November, 2021. – P. 269-276. (Impact Factor: SJIF 2021 – 5,599).
8.Gadoeva M.I. Expression of the somatizms "mouth", "ear", "nose", "tongue" in the system of different languages // Novateur Publications JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN No: 2581 – 4230. Volume 7, Issue 11, Nov. -2021. –P.125-130. (JIF -7.223).
9.Gadoeva M.I. Lexico-semantic Classification of Somatisms in Phraseological Funds of English and Uzbek Languages // Eurasian Research Bulletin. Open Access, peer research journal. – Belgium, 2022. –V.4. –P.140-145. www.geniusjournals.org. (JIF – 7.995).
10.Gadoeva M.I. Significant features of somatic vocabulary // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. – Namangan, 2021. -№12. –B. 411-416. (10.00.00; №26)
11.Gadoeva M.I. Expression of somatizms in curses // Euroasian journal of research, development and innovation. Genius journals publishing group. Belgium, 2021. – P.30-33.
12.Gadoeva M.I. The Expression of Somatizms in English and Uzbek Proverbs // European Conference on Natural Research. http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/issue/view/Stockholm. –Sweden, 2021. – P. 36-41.
13.Gadoeva M.I. Polysemy of Somatizms in English and Uzbek Languages // International Conference on Multidisciplinary Research and Innovative Technology's. November 11th, https://academiascience.org/. –India. 2021, – P. 87-90.
14.Gadoeva M.I. Background analysis of somatic phraseological units in Uzbek // Proceeding of International Conference on Research Innovation In Multidisciplinary Sciences, Hosted From New York. www.econferenceglobe.com. –USA. 2021. –P. 297-300.
15.Gadoeva M.I. Interpretation of "head-bosh", "foot-oyoq" and "heart-yurak (qalb)" in English and Uzbek languages // Models and methods for increasing the efficiency of innovative research: a collection scientific works of the International scientific conference (11 November) ISSUE 5. – Copenhagen. 2021. – P.61-65.
16.Firuza N. English Phraseological Units With Somatic Components //Central Asian Journal Of Literature, Philosophy And Culture. – 2020. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.
17.R.R.Kasimova. Comparative Study of the Ceremonies Connected with the Cult Momo and Ethnographisms // IMPACT: International Journal of Research in Humanities, Arts and Literature // – Ohio, US. Volume-3, Issue-7, Jul 2015. – P. 29 - 34 (№17 Open Academic Journals Index. JCC Impact Factor (2015): 1.7843).
18.R.R.Kasimova. Uzbek National Cuisine Ethnographisms in English Translations // Iranian Journal of Social Sciences and Humanities Research // University College of Takestan // UJSSHR, 2016.Volume 4, Issue 2. – P. 20-25 (№5 The Global Impact Factor: 0,765).
19.R.R.Kasimova. Description of Ceremonial Ethnographisms in English Translation of "Alpomish" // International Journal of Central Asian Studies. – Korea. Volume 20, 2016. – P. 55-74 (10.00.00 №3).
20.R.R.Kasimova, A.R. Ziyadullayev, A.A.Ziyadullayeva. Comparison of ceremonies and legends associated with the belief in reverence for water // International Scientific Journal Theoretical and Applied Science, MA.USA. – Published: 17.06.2019. – P.120-124.
21.R.R.Kasimova, M.F.Akhmedova. Syntactic Stylistic Devices // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. – Бухоро, 2020. №3. – Б.79-83.

22.R.R.Kasimova, M.F.Akhmedova. Stylistic issues in the novel "If Tomorrow Comes" by Sidney Sheldon // International Scientific Journal. Theoretical and applied science, MA.USA. – Published: 17.05.2020. – P.68-70.
23.R.R.Kasimova. The Nature of the Culture Bound Words and Problems of Translation. - International Scientific Journal. Theoretical and applied science, MA.USA. – Published: 31.03.2021. – P. 401-405.
24.R.R.Kasimova. The Peculiarities of Comparative Historical Method and its Types // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, MA.USA. – Published: 15.04.2022. – P. 336-345.
25.R.R.Kasimova. The Distinctive Writing Style of Arthur Conan Doyle // International Journal on Integrated Education. Volume 5, Issue 4, Apr 2022. - P. 197-201.
26.R.R.Kasimova. Comparative study of a Writer's and Translator's Psychology in the English translation of "Kecha va Kunduz" // VI. Uluslararasi Türklerin Dünyasi Sosyal Bilimler Sempozyum. Moldova, 13-15 may, 2022.

INGLIZ TILIDAGI ANTROPONIMLARNING RIVOJLANISHINING TARIXIY TARAQQIYOT DAVRI VA LEKSIK QATLAMI

Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna (Buxoro davlat universiteti dotsenti)
Buxoro davlat universiteti, Ingliz tilshunosligi kafedrasi dotsenti
gmail: gadoyevamavlyuda59gmail.com.
Mustafoyeva Maqsad Askarovna (Buxoro davlat universiteti magistranti)
e-mail: mustafaevamaksad@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilidagi shaxs ismlari va familiyalarining tarixiy rivojlanish yo`li va leksik qatlami taraqqiyot davri muhokama qilinadi. Antroponimlarning kelib chiqishida ularning shakllanishiga bevosita ta`sir ko`rsatgan turli tarixiy jarayonlar muhim ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, maqolada ingliz tilidagi shaxs ismlar va familiyalarning shakllanish bosqichlarining tarixiy davrlarga alohida e`tibor beriladi va ularning leksik qatlami haqida so`z yuritiladi. Qadimgi, o`rta va zamonaviy ingliz davridagi antroponimlarning rivojlanish davri yoriltiladi.*

Kalit so`zlar: *Antroponim, antroponimiya, onomastika, shaxs ismlari, familiya, leksik qatlam.*

THE DEVELOPMENT OF THE HISTORICAL PERIODS AND LEXICAL LAYERS OF THE ENGLISH ANTHROPONYMS

Gadoeva Mavlyuda Ibragimovna docent of the English linguistics department of the Bukhara State University
gmail: gadoyevamavlyuda59gmail.com.
Mustafoeva Maksad Askarovna Master student of the department of the English linguistics of Bukhara State University
e-mail: mustafaevamaksad@gmail.com

Annotation. *This article discusses the historical development of personal names and surnames in the English language and the period of development of their lexical layers. Various historical processes influenced in the formation of the English anthroponyms. In addition, the article pays special attention to*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

the historical periods of the formation stages and their evaluation periods of personal names and surnames in the English language. The development of anthroponyms in ancient, middle and modern English periods are highlighted.

Key words: *Anthroponym, anthroponymy, onomastics, personal names, surnames, lexical layer.*

ИСТОРИЧЕСКИЙ ПЕРИОДЫ И РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКИЕ СЛОИ АНТРОПОНИМОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Гадоева Мавлюда Ибрагимовна
Бухарский государственный университет, доцент кафедры английского языкознания
gmail: gadoyevamavlyuda59gmail.com.
Мустафоева Максад Аскаровна Магистрант кафедры английского языкознания
Бухарского государственного университета
Электронная почта: mustafaevamaksad@gmail.com

Аннотация. *В данной статье рассматривается историческое развитие личных имен и фамилий в английском языке и периоды развития лексического слои. В происхождении антропонимов важное значение имеют различные исторические процессы, непосредственно повлиявшие на их формирование. Кроме того, в статье особое внимание уделяется историческим периодам этапов формирования личных имен и фамилий в английском языке и говорится об их лексические слои. Выделен периоды развития антропонимов в древнеанглийском, среднеанглийском и новоанглийском периоде.*

Ключевые слова: *антропоним, антропонимия, ономастика, личные имена, фамилия, лексический слой.*

Kirish

Kishi uchun eng yoqimli tuyg`ulardan biri bu o`zining ismi bilan atab chaqirilishdir. Ismlar hayotimizning ajralmas bir bo`lagidir. Ismlarning asosiy vazifasi bu kishini boshqa shaxslardan ajratib, farqlashga xizmat qilishdir. Shuning uchun ham dunyoning barcha xalqlari hayotida ism qo`yish muhim urf-odatlardan biri deb hisoblanadi. Chunki ismlarda o`sha xalqning urf-odatlari, milliy an`analari, rasm-rusumlari bilan bog`liq mazmun aks etadi. Kishi ismlari bilan tilshunoslikning antroponimiya tarmog`i shug`ullanadi. Antroponimiya (yunoncha antropas — shaxs va onima — ism) — onomastikaning antroponimlarni (kishi nomlari), paydo bo‘lish va rivojlanish qonuniyatlarini, tuzilishi va geografik tarqalishini o‘rganuvchi bo‘limidir. Onomastika bo`yicha ko`plab ilmiy ishlar muallifi A. V. Superanskaya o`zining «Общая теория имени собственного» asarida “Antroponimlar kishi nomlarini anglatishidan tashqari, u insonlar psixologiyasi, madaniyat tarixi va urf-odatlar bilan bog`liqdir” , deb ta`kidladi.

Antroponimlar jamiyatda va hayotimizda katta ahamiyat kasb etadi. Qadimda yashagan kishilarning ijtimoiy hayotini o`rgangan bir qator tarixchi, etnograflarning qayd qilishicha, biror urug` yoki qabilaning umumiy nomi bo`lgan, o`sha urug`yoki qabilaga mansub shaxsning nomi u mansub bo`lgan urug` yoki qabila nomiga mos bo`lgan, ya`ni o`sha etnik guruhga mansub shaxs urug`nomi bilan atalgan. Urug` yoki qabila nomlari esa etnik guruh muqaddas, ilohiy deb sig`inuvchi biror hayvon, qush nomidan iborat bo`lgan. Asta-sekin bu an`ana o`zgarib, urug` va qabila a`zosi bo`lgan har bir shaxs alohida ism yoki laqab bilan ataladigan bo`lgan. Mana shunday qilib kishi ismlari (shaxsning dastlabki, ilk atoqli otlari) paydo bo`lgan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Tildagi atoqli otlarning xususiyatlarini qadimgi davrlardanoq tadqiq etish boshlangan va hozirgi kunda ham turli soha olimlarining e`tiborini o`ziga jalb etmoqda. Jahon onomastikasi o‘z taraqqiyoti davomida quyidagi uch bosqichlarni o`z ichiga oladi:

a) Noilmiy davr yoki onomastik materialni oddiy qayd qilish davri. Masalan, Platon, Aristotel, Demokritlarning atoqli otlar haqidagi fikrlari va o`z asarlarida joy nomlari, kishi ismlarining tahlili.

b) Onomastikaning fan sifatida shakllanish davri. Bu fanning ildizlari Yevropa va rus tilshunosligida paydo bo‘lgan. Bu davrdaT.Gobbs, J.Mill, J.Jozef, J.Lokk,, G.Leybinits, A.X.Vostokov, A.I.Sobolevskiy, A.A.Shaxmatov, M.Fasmer, S.K.Kuznetsov, P.L.Maggakova, V. A. Nikonov, Y. A. Karpenko A.K. Matveyev N.V.Podolskayalarning asarlarida onomastik materialni to‘plash va tahlil qilish haqidagi dastlabki ma’lumotlar keltirilgan.

c) Sof onomastik yoki ilmiy davr. XX asrning 20- yillaridan hozirgi kungacha bo‘lgan muddatni o‘z ichiga oladi.

Onomastik birliklar tarixiy nuqtai nazardan o‘rganilganda quyidagi ikki yo‘nalishga amal qilinadi:

a) onomastik materialning tarixiy holatidan hozirgi davrgacha bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlash usuli (perspektiv tahlil usuli);

b) onomastik materialning hozirgi holatidan uning tarixiy holatigacha bo‘lgan tarixiy rivojlanish jarayonini aniqlash (retrospektiv tahlil usuli).

Har ikki taxlil yo‘nalishidan ham asosiy maqsad onomastik birliklarning rivojlanish, o‘zgarish jarayonlarini aniqlashdan iboratdir. Onomast-toponimistlar to‘plangan materialni tarixiy metod bilan o‘rganganda lisoniy (etnik) stratigrafiya (lotincha stratum -“qatlam” va yunoncha grafiya - “yozaman” so‘zlaridan)ni aniqlashga intiladilar. Bunday tahlillardan maqsad onomastik birliklarning eng qadimgi o‘z va o‘zlashgan qatlamlarini aniqlash, uning tarkibidagi o‘zgarishlar silsilasini aniqlashdir. Jumladan, antroponimlarning etimologiyasi, uning manosini izohlash, shunga doir turli xil qarashlarni keltirib, ularga munosabat bidsirish ana shunday izlanishlar samarasi sanaladi.

Tahlillar va natijalar

Har bir ism o`z kelib chiqish tarixiga va o`z davriga ega. Ular o`sha xalq madaniyati va an`analarini o`zida jam etadi. Xalq madaniyatida turli xil atoqli otlarning ko`payishida ibtidoiy davrdagi bosqinchilik urushlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki urushlar bilan birga g`olib bo`lgan xalq madaniyati, tili, dini, tarixi, rasm-rusum va an`analari ham kirib keladi. Ingliz tilidagi antroponimlar rivojlanishining tarixiy taraqqiyot davriga nazar solsak, u bir necha davrlarga bo`linadi. Ularning har biri o`ziga xos xususiyatlarga egadir.

1. Qadimgi ingliz davri antroponimlari. Kishilarga ism qo`yish g`arbiy german qabilalari tomonidan boshlab berilgan, ammo ularda ismlar hozirgi kundagidek tayyor holatda bo`lmagan, aksincha, o`zlariga ma`lum bo`lgan so`zlardan yasalgan. Ular ko`pincha ikki qismdan iborat bo`lgan. Ushbu mavzuga asoslangan nomlarning eng yaxshi to`plami “Bede`s Historia” bo`lib, unda 200 ga yaqin nom mavjud. Muallif ba`zi nomlarni misol qilib keltirgan, ular orasida zodagonlikni (Beorht-/-beorht – “nurli`; Brego- - “shahzoda”; Cyne- - “qirollik”), milliy g`ururni anglatuvchi qabila nomlari (Peoht- “Pict”, Wealh-/-wealh – “Kelt”); din (Ealh- - “mabud”), kuch va jasorat (Beald-/-beald – “jasur”; Weald-/-weald – “kuch”, jangchilar va qurollar bilan bog`liq

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

bo`lgan (Beorn- – “jangchi”, Dryht- - “qo`shin”, Ecg- - “qilich”, Sige- - “g`alaba”) antroponimlarni keltirish mumkin.

Zamonaviy ma`noda o`sha davrlarda familiyalar mavjud emas edi. Shunga qaramay, odamlar o`z ismlarini shakllantirishda o`zaro oilaviy yoki boshqa munosabatlarni ko`rsatishni xohlashdi. Masalan, qirollik nasl-nasabining saqlanib qolishida ismlarning muhim ahamiyatini ko`rishimiz mumkin(Jumladan, G`arbiy Sakson qirollari ketma-ketligi: Cerdic, Cynric, Ceawlin, Cuða, Ceadda, Cenbeorht, Ceadwalla).

Bundan tashqari, rimliklar va keltlar, skandinaviyaliklar ta`siri ham ismlarda kuchli bo`lgan. IV va V asrlarda german ko`chmanchilari Britaniyaga kelishdi va u erda ular romanlashtirilgan keltlar tilidan so`zlarni olishdi. Keltlar shaxsiy ismlarining ba`zi o`xshash shakllaridan foydalanishdi (Cæd-/Ced- >Cedd, Ceadda; West-Saxon Cumbra > Welsh Cymbro).

870-yillarda Vikinglar kelishi bilan Angliyaga Skandinaviya (Shimoliy-German) nomlari kiritildi. Boshqa tomondan, ba`zi tez-tez uchraydigan Skandinaviya tilidagi so`zlar qo`llanilishidan ma`no butunlay farq qildi (masalan, Freya - eski Skandinaviya ma`budasini ifodalaydi; Orm-/-ormr – “ajdaho”; Svein-/-sveinn – “yigit”). Skandinaviyaliklar Forni va Gamall (ikkalasi ham “eski” degan ma`noni anglatadi), Gaukr (“kakku”) va boshqalar kabi xarakterli taxalluslar sifatida paydo bo`lgan ismlarni yaxshi ko`rishardi.

Qadimgi ingliz davridagi odamlar (o`zlariga va bir-birlariga murojaat qilish uchun) Dudda, Godgifu yoki Vulfstan kabi yagona o`ziga xos ismni ya`ni “idionim” ishlatishgan. Bu hozirgi ingliz tilidagi “to`liq ism” bilan bog`liq emas, u ikkita komponentni o`z ichiga oladi.

2. O`rta asrlarda ingliz antroponimlari. XI asrdagi hukmron nomlash uslublari g‘arbiy franklardan kelib chiqqan. Bu nomlar qisman mahalliy qadimgi ingliz davridagi ismlarga o`xshardi. Ba`zi “norman” nomlari (Skandinaviya ismlari, X boshlarida Viking mustamlakachilari tomonidan berilgan) G`arbiy Franklar nomidan unchalik oson ajratilmagan. Bundan tashqari, Angliyadagi bu nomlarning ba`zilari ularning Anglo-Skandinaviya ekvivalentlaridan deyarli farq qilmagan. Bir qator nomlar Irlandiyadan Vikinglar orqali kelib chiqqan, chunki vikinglar "Norman" nomlarini yaratishda Irlandiyadagi ism shakllaridan foydalanganlar. Bu ismlarga quyidagilarni keltirish mumkin: Muriel, Neil, Brayan. Ushbu davrda nom olish xristian an`analaridan kelib chiqqan. Bu nomlarning kelib chiqishi turlicha bo`lib, ko`pincha yunon yoki ibroniy tillardagi so`zlarni o`z ichiga olgan.

3. Zamonaviy ingliz davri antroponimlari. Inglizcha ismlarining zamonaviy korpusi o`rta asrlarga borib taqaladi. Chunki hozirgi kundagi ismlarning ko`pchiligi 1485-1776-yillar oralig`ida mashhur bo`lgan. Masalan, XVII asrda Ibrohim, Aaron, Easter yoki Rut kabi ismlar yahudiy bo`lmagan puritan pastorlar orasida ham mashhur bo`lgan. Lotin va yunoncha nomlar ham tez-tez ishlatilgan, chunki ular uyg`onish davrida qayta tiklangan va keyin qo`llanilgan. Bunga misollar: Laviniya, Alethea, Yuliya, Sezar, Pol kabilar mashhurlikka erishgan.

Yunon, lotin va italiyan tillaridan olingan ismlar esa hozirgi davr ismlari uchun asos bo`lib xizmat qildi. Bunda “–a” suffiksi orqali dubletlar hosil qilindi: Anne/Anna, Helen/Helena.

Adabiyot bu davrga kelib ayollarga xos yangi ismlar paydo bo`lishining ajoyib manbai aylandi. Masalan, Shekspirning Juliettasi, Sviftning Vanessasi; Lavleysning Lukastasi.

Familiyalar o`rta asrlarda shakllangan. Barcha familiyalar ismlardan kelib chiqqan. Ularni to`rtta asosiy guruhga bo`lish mumkin:

1. Haqiqiy nomlardan olingan - Reid/Read > “qizil (-sochli)”;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2. Joylardan (mahalliy familiyalar) olingan - Marsh, Green, Street va boshqalar; Crawley, Sutton, Darbyshire, Ireland kabi haqiqiy joy nomlari;

3. Oilaviy munosabatlardan olingan (munosabatlarni anglatuvchi) familiyalar- Anderson, Wilkinson;

4. Kasbiy atamalardan olingan (kasbni bildiruvchi familiyalar) - Smith, Baker.

Bugungi kunda Angliyada eng ko`p uchraydigan familiyalar: Adamson (Adam ismidan olingan), Braun (qadimgi inglizcha brun dan olingan - jigarrang, qoramtir), Bush (o`rta ingliz tilidan busk – bush- buta), Carter (o`rta asrlar ingliz tilidan cartere - tashuvchidan), Donovan (irlandcha familiyaning qisqartmasi O`Donovan - tom ma`noda Brownlar avlodi), Ericson (Erik shaxsiy ismidan), Evans (Evan ismidan), Ford (qadimgi inglizchadan ford – kechuv joyi), Gilbert (Gilbert ismidan), Holiday (qadimgi inglizchadan Haligdaeg - muqaddas kun, bayram), Jenkin (Jon ismidan), Kendal (Kent daryosining kelt nomidan; qadimgi inglizchadan dael - vodiy), Levin (Leofwine - aziz do`stim), Maison (o`rta asr ingliz tilidan masoundan - tosh kesuvchi), Neal (Neal ismidan), Oakman (ingliz ismidan Acmann - āc - eman; mann - odam), Paterson (Patrik shaxsiy ismidan; qadimgi inglizchadan sunu — o‘g‘li), Rayder (qadimgi inglizchadan rīdere — chavandoz, ritsar), Samuels (Samuel ismidan), Turner (o`rta asr ingliz tilidan turnare - kulol), Walter (Walter shaxsiy ismidan).

Inglizcha antroponimlar leksik qatlami turli tillardagi so`zlardan kelib chiqqan va ularni quyidagi guruhlarga bo`lish mumkin:

1. Qadimgi ingliz tilidan: Ansley (ansetl - yolg`iz; leah - yer bo`lagi), Barden (bere - arpa; denu - vodiy), Barlow (baerlic - arpa; hlaw - tepalik), Chilton (cild - zodagon yigit; tūn - mulk), Ford (ford - ford), Horst (hyrst - to`qay), Sandal (qum - qum; salomatlik - tanho joy);

2. Qadimgi Skandinav tilidan: Bainbridge (Qadimgi Skandinavcha beinn – to`g`ri; qadimgi inglizcha brycg – ko`prik), Bartorp (Qadimgi skandinavcha Borkr; qadimgi inglizcha thorp – ferma, qishloq), Derby (dir – hayvon, hayvon; byr – qishloq) , Formby (forn - eski, qadimgi; byr - qishloq) , Scholer (skali - kulba, ombor; erg - yaylov; yaylov);

3. O`rta asrlar ingliz tilidan: Badger (bagge - sumka), Forester (o`rmonchi), Garner (gerner - don ombori, don ombori), Marble (marmar), Mustard (xantal), Neave (neve - jiyan), Nyubiggin (nēwe - yangi; bigginge - bino, uy), Paradise (paradīs - jannat), Pardon (afv - kechirim, kechirim), Twin (egizak), Turner (turnare - kulol), Usher (uscher - yukchi, darvozabon); -

4. Qadimgi nemischa: Angod (ano - ajdod, nasl; got - xudo), Baring (bero - ayiq), xalq (fulco - odamlar), Geary (gēr - nayza), Ilbert (hiltja - jang, urush; behart – yorqin, porloq), Rossell (hrōd - shon-sharaf);

5. Irlandcha: Cannan (O`Canain - tom ma`noda bo`ri bolasining avlodi), Carbery (O`Cairbre - urush aravasidagi jangchining avlodi), Darcy (O`Dorchaidhe - qora tanlilarning tom ma`nodagi avlodi), Gatenby (irl. ism Gaithan; qadimgi inglizcha by- qishloq), MacConmara (MacConmara - majoziy ma`no - "dengiz bo`risi" ning o`g`li), Noonan (O`Nuanain - sevikli avlod), O`Clery (O`Cleirigh o`qimishli odamning avlodi) , O`Byrne (O`Broin - tom ma`noda qarg`aning avlodi), Scannel (O`Scannail - tom ma`noda bahs,muozarachilar avlodi);

6. Qadimgi fransuzcha: Avenel (Avo - ajdod), Ferrer (feror - temirchi), Fetter (faitour - bajaruvchi, usta), Follenfant (fol - ahmoq; enfant - bola), Fort (fort - kuchli), Fortescu (fortescu - kuchli qalqon), Manclark (mal - yomon; clark - ruhoniy, ruhoniy), Pallister (palis - chorvachilik), Peever (peyvre - qalampir yoki peyvrier - qalampir sotuvchisi), Prin (prin - birinchi; nafis), Tainter (teintor - bo`yoq ), Tallis (taillis - o`rmon, o`simlik);

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

7. Qadimgi shvedcha (eski shvedcha): Raby (eski shvedcha ra - chegara belgisi; Eski Skandinavcha byr - qishloq);

8. Dan tilidan: Flegg (flaegg - iris yoki iris gullari o`sgan botqoq);

9. Seltik tilidan (Seltik): Campton (cam - egri; qadimgi inglizcha tūn - mulk);

10. Uelscha: Kardew (caer - qal`a; du - qora), Gough (coch - qizil, qizil), Howel (shaxsiy ismi Hywel), Trevor (tref - uy, mulk; mawr - katta, buyuk), Tudor (shaxsiy ismi Teodor);

11. Gal tilidan: Beith (beith - qayin), Cerrik (carraig - tosh, dengiz qirg`og`idagi qoya), Catlow (gal tilidan cat - jang; qadimgi inglizcha hlāēw - tepalik, tepalik), Forbes (forba - dala, uchastka), MacAllen (mac - o`g`li; va kishi ismi Allen).

Xulosalar

Shunday qilib, atroponimlarning asosiy vazifasi hisoblangan insonlarni o`zaro farqlash xususiyatidan tashqari lisoniy-ijtimoiy vazifasiga ko`ra ular muayyan maqsadni ham ifodalaydi. Bu ism esa u mansub bo`lgan xalqning lingvomadaniy xususiyatlari bilan bir qatorda milliy an`analari, rasm-rusumlari, dunyoqarashi, dini, tili va madaniyatini o`zida mujassam etadi. Ingliz ismlari va familiyalarining tarixiy rivojlanish yo`lini ko`rib chiqsak, ularning kelib chiqish tarixi o`tgan tarixiy jarayonlarning yorqin aksi bo`lgan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ularning leksik qatlamidagi turfa xillik esa har bir davrdagi antroponimlarda o`z aksini topgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E.A. O`zbek tili antroponimikasi. Toshkent: “Fan” 2013,8 b.
2. Clark C., Jackson P. Words, Names and History: Selected Writings of Cecily Clark. Boydell & Brewer Ltd,1995.
3. Reaney P., Wilson R. Dictionary of English Surnames. London: Oxford University Press, 2006. 594 p.
4. Reaney P., Wilson R. Dictionary of English Surnames. London: Oxford University Press, 2006. 594 p.
5. Yo`ldoshev B. O`zbek tili onomastika masalalari. Samarqand: SamDu nashri, 2011
6. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. Изд. 3-е, испр. Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. 368 с.
7.Gadoeva M.I. Features of connotative meaning of somatisms as part of phraseological units // International Journal on Integrated Education.Volume 3, Issue III, March, 2020. – P.73-78. (Impact Factor: SJIF 2020 – 5,712)
8.Gadoeva M.I. Lexico-semantic fields of “eye” in English and Uzbek languages // Academicia. An International multidisciplinary Research Journal. ISSN (online): 2249-7137. Vol. 11, Issue 10, October. https://saarj.com DOI NUMBER 10.5958/2249-7137.2021.02176.5. -India, 2021. – P.872-879. (Impact Factor: SJIF 2021 - 7.492)
9.Gadoeva M.I. Semantics of somatism in blessings of English and Uzbek cultures // Web of Scientist: International Scientific Research Journal Open Access, Peer reviewed Journal. ISSN: 2776-0979. Volume 2, Issue 11, November, 2021. – P. 269-276. (Impact Factor: SJIF 2021 – 5,599).
10.Gadoeva M.I. Expression of the somatizms "mouth", "ear", "nose", "tongue" in the system of different languages // Novateur Publications JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN No: 2581 – 4230. Volume 7, Issue 11, Nov. -2021. –P.125-130. (JIF -7.223).

11.Gadoeva M.I. Lexico-semantic Classification of Somatisms in Phraseological Funds of English and Uzbek Languages // Eurasian Research Bulletin. Open Access, peer research journal. –Belgium, 2022. –V.4. –P.140-145. www.geniusjournals.org. (JIF – 7.995).
12.Gadoeva M.I. Significant features of somatic vocabulary // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. – Namangan, 2021. -№12. –B. 411-416. (10.00.00; №26)
13.Gadoeva M.I. Expression of somatizms in curses // Euroasian journal of research, development and innovation. Genius journals publishing group. Belgium, 2021. – P.30-33.
14.Gadoeva M.I. The Expression of Somatizms in English and Uzbek Proverbs // European Conference on Natural Research. http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/issue/view/Stockholm. –Sweden, 2021. – P. 36-41.
15.Gadoeva M.I. Polysemy of Somatizms in English and Uzbek Languages // International Conference on Multidisciplinary Research and Innovative Technology's. November 11th, https://academiascience.org/. –India. 2021, – P. 87-90.
16.Gadoeva M.I. Background analysis of somatic phraseological units in Uzbek // Proceeding of International Conference on Research Innovation In Multidisciplinary Sciences, Hosted From New York. www.econferenceglobe.com. –USA. 2021. –P. 297-300.
17.Gadoeva M.I. Interpretation of "head-bosh", "foot-oyoq" and "heart-yurak (qalb)" in English and Uzbek languages // Models and methods for increasing the efficiency of innovative research: a collection scientific works of the International scientific conference (11 November) ISSUE 5. – Copenhagen. 2021. – P.61-65.
18.Firuza N. English Phraseological Units With Somatic Components //Central Asian Journal Of Literature, Philosophy And Culture. – 2020. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.
19.R.R.Kasimova. Comparative Study of the Ceremonies Connected with the Cult Momo and Ethnographisms // IMPACT: International Journal of Research in Humanities, Arts and Literature // – Ohio, US. Volume-3, Issue-7, Jul 2015. – P. 29 - 34 (№17 Open Academic Journals Index. JCC Impact Factor (2015): 1.7843).
20.R.R.Kasimova. Uzbek National Cuisine Ethnographisms in English Translations // Iranian Journal of Social Sciences and Humanities Research // University College of Takestan // UJSSHR, 2016.Volume 4, Issue 2. – P. 20-25 (№5 The Global Impact Factor: 0,765).
21.R.R.Kasimova. Description of Ceremonial Ethnographisms in English Translation of "Alpomish" // International Journal of Central Asian Studies. – Korea. Volume 20, 2016. – P. 55-74 (10.00.00 №3).
22.R.R.Kasimova, A.R. Ziyadullayev, A.A.Ziyadullayeva. Comparison of ceremonies and legends associated with the belief in reverence for water // International Scientific Journal Theoretical and Applied Science, MA.USA. – Published: 17.06.2019. – P.120-124.
23.R.R.Kasimova, M.F.Akhmedova. Syntactic Stylistic Devices // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. – Бухоро, 2020. №3. – Б.79-83.
24.R.R.Kasimova, M.F.Akhmedova. Stylistic issues in the novel "If Tomorrow Comes" by Sidney Sheldon // International Scientific Journal Theoretical and applied science, MA.USA. – Published: 17.05.2020. – P.68-70.
25.R.R.Kasimova. The Nature of the Culture Bound Words and Problems of Translation. - International Scientific Journal Theoretical and applied science, MA.USA. – Published: 31.03.2021. – P. 401-405.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

26.R.R.Kasimova. The Peculiarities of Comparative Historical Method and its Types // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, MA.USA. – Published: 15.04.2022. – P. 336-345.
27.R.R.Kasimova. The Distinctive Writing Style of Arthur Conan Doyle // International Journal on Integrated Education. Volume 5, Issue 4, Apr 2022. - P. 197-201.
28.R.R.Kasimova. Comparative study of a Writer's and Translator's Psychology in the English translation of "Kecha va Kunduz" // VI. Uluslararasi Türklerin Dünyasi Sosyal Bilimler Sempozyum. Moldova, 13-15 may, 2022.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

CHARACTERISTICS OF THE METAPHORS OF TIME IN SHAKESPEARE'S SONNETS

Dadaboyev Olimjon Ortiqovich
Olimova Moxida Rustamjon qizi
Namangan State University
Namangan State University A student of Master's degree

Annotation: *This article discusses characteristics of the metaphors of time in Shakespeare's sonnets. William Shakespeare and his sonnets have a worldwide reputation, using a multitude of metaphors, and has been studied by tons of researchers. His sonnets are mainly embodied in structural metaphor and ontological metaphor.*

Keywords: *metaphors, sonnets, worldwide reputation.*

ХАРАКТЕРИСТИКА МЕТАФОРОВ ВРЕМЕНИ В СОНЕТАХ ШЕКСПИРА

Дадабоев Олимжон Ортикович
Олимова Мохида Рустамжон кизи
Наманганского государственного университета
Магистр английской филологии в Наманганском государственном университете

Аннотация: *В данной статье рассматриваются особенности метафор времени в сонетах Шекспира. Уильям Шекспир и его сонеты имеют мировую известность, используя множество метафор, и были изучены множеством исследователей. Его сонеты в основном воплощены в структурной метафоре и онтологической метафоре.*

Ключевые слова: *метафоры, сонеты, мировая известность.*

SHEKSPIR SONNETLARIDAGI ZAMON METAFORALARINING XUSUSIYATLARI

Dadaboyev Olimjon Ortiqovich
Olimova Moxida Rustamjon qizi
Namangan Davlat Universiteti
Namangan Davlat Universiteti Ingliz filologiyasi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Shekspir sonetlaridagi zamon metaforalarining xususiyatlari muhokama qilinadi. Uilyam Shekspir va uning sonetlari ko'plab metaforalardan foydalangan holda dunyo miqyosida obro'ga ega va ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Uning sonetlari asosan struktur metafora va ontologik metaforada mujassamlashgan.*

Kalit so'zlar: *metaforalar, sonetlar, jahon miqyosidagi obro'.*

William Shakespeare uses lots of metaphors in his poetry, contributing a lot to world literature. Metaphor has a really long history, dating back to Aristotle, which has dominated the metaphor studies over 2000 years. According to Aristotle, metaphor is treated only as a rhetorical device, but also a cognitive way of looking at the world. Nowadays, more and more researchers have devoted themselves in metaphor studies and research, resulting in a brand-new look of metaphors. Metaphor of time theory has played a significant part in the evolution and development of cognitive linguistics. Metaphor of time theory indicates that metaphor is a cross

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

domain mapping from concrete source domain to abstract target domain, holding the view that metaphor is not only a figure of speech, but a also a way of thinking. Moreover, William Shakespeare is the most prestigious poet in the period of Renaissance, for his 154 pieces of sonnets. He does well in utilizing metaphors in his poems, which has been researched by scholars for a long time. All in all, this study mainly explores metaphors in his sonnets on the ground of the conceptual metaphor. Metaphor of time theory has been and will always be vital in the field of cognitive linguistics. In cognitive linguistics, metaphor is an important cognitive method of human beings, not just a language problem. As Lakoff and Johnson put it, "our ordinary conceptual system is metaphorical in nature, from which we can conclude that metaphor is ubiquitous. "A metaphor is a 'poem in miniature'. Language is to poets what music is to musicians. Metaphor comes into being when poets appeared. Metaphor constitutes the essence of poetry" (Shu Dingfang, 2000: 12). Conceptual metaphor has been deeply rooted in every aspect of human language, and language is metaphorical in nature. The significance of this thesis can be divided into theoretical and practical aspects. Theoretically, a great number of scholars have done a lot of researches on Shakespeare's sonnets from variant perspectives, however, fewer scholars have studied them from the perspective of conceptual metaphor. Practically, Shakespeare's sonnets are full of metaphors. This thesis is to study metaphors in his sonnets from the perspective of cognitive linguistic and to help readers build a unique and personified understanding of Shakespeare's sonnets. The combination of metaphor and poetry is a effective means of poetic detachment. The imagery power in poetry is hard to describe, and always need to use other concepts to recognize its characteristics and nature". The distribution of these metaphors is just right, as if they were born for Shakespeare's poetry. The conceptual metaphor used in Shakespeare's sonnets vividly and genuinely reflects his inner world" (Liu Yuanyuan, 2002: 227)."One of the reasons why Shakespeare became Shakespeare was the complexity of his thoughts, reflected in his work is the diversity of poetic metaphors" [11; p-87-88]. The structure of this thesis are as follows: From the beginning, it helps to make the readers better understand the conceptual metaphors in Shakespeare's sonnets. What's more, in Shakespeare's sonnets, plenty of metaphors are hidden behind the lines. Metaphor of time theory is used in this thesis in order to give an exhaustive study of the metaphors in Shakespeare's sonnets. It helps the audience to better appreciate the essence of the sonnets and, thus the thoughts of the sonnets will be researched deeper. Next, conceptual metaphors are interconnected with our lives, for the reason that "conceptual metaphors are part of modern metaphors, which are based on human daily life". To conclude, the results of the thesis will help 2 other researchers to comprehend the essence of metaphors from the perspective language and linguistics, while in the meantime, the author hopes that it can also be applied onto other fields.

In Shakespeare sonnets, Objective time retains this dual nature of time and presented as divisible and countable. This notion which permeates the sonnets captures the Aristotelian perception of time. For Aristotle time is divisible and countable because it is an incessant succession like motion. This way, time is known by the change it affects and the absence of change means the nonexistence of time. Aristotle states: Just as motion is a perpetual succession, so also is time. But every simultaneous time is self-identical; for the 'now' as a subject is an identity, but it accepts different attributes. The 'now' measures time, in so far as time involves the 'before and after' (Physics, IV, 11, p. 23). Shakespeare's sonnets express a pessimistic vision of the procession of time which correlates our life with mutability and change [4;p-27-29.].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

When I do count the clock that tells the time,
And see the brave day sunk in hideous night;
When I behold the violet past prime,
And sable curls all silvered o'er with white
When lofty trees I see barren of leaves.

In these lines, Shakespeare gives examples from nature that show the procession of change objective time inflicts on the life cycle of a number of plants and natural phenomena. In the third quatrain, Shakespeare addresses both objective and subjective time. The poet asserts that human life suffers the mutations of time like other beings [3.p. 11-13]. Individuals will eventually be reaped by time's scythe. The young friend is invited to a mental time journey to imagine what will happen to him. Mental time travel is a manifestation of subjective time that is heavily used in the sonnets of Shakespeare (Al-Abdullah, 2020). The sonnets of Shakespeare also reflect some of St. Augustine's views on the passage of time, which divide time into the three components of past, present, and future [5.p. 11-13]. According to St. Augustine, time is a stream in which future moments turn to present and then to past. This mundane time is different from the eternal time which remains permanently present. Shakespeare further explains that "The terminology of a source domain that is used in the metaphorical process is one kind of evidence for the existence of conceptual metaphor" [4.p. 28]. In light of the foregoing discussion, Shakespeare's creativity converges with premises. In this metaphor, the poet structures the target domain of time in terms of the source domain of an invincible force [8.p. 49].

The western study of Shakespeare's sonnets has undergone a long history. In 1609, Shakespeare's sonnets first appeared in the form of a poem collection of poem in Thorpe's version of Shakespeare's Sonnets [12.p. 19-21]. Bloom says that the study of Shakespeare's sonnets in the late 19th century and early 20th century mainly concentrates on the sorting out of poetry and the two aspects of the characters in the poem, and other problems caused by these two aspects such as creative time etc. Epson was the first one to study Shakespeare's sonnets by poetic theory, which has a profound influence on later comers. After Epson, Shakespeare's sonnets have been greatly expanded both in breadth and in depth. There is a prediction that the future research of Shakespeare's sonnets will be diversified further and further. Under the review of the theoretical framework, Shakespeare's sonnets will continue to take on a new look [7.p. 28].

Shakespeare's sonnets, different kinds of source domains are mapped on the target domain of LIFE. Compared with other concepts, Shakespeare uses less metaphor on LIFE concept. The source domains of metaphors on LIFE include business, journey, nature, feast, and music.

References

1.Aristotle. On Poetic [M]. 2nd ed. Trans. George A. Kennedy. New York: Oxford University Press, 2007.

2.George Lakoff & Mark Johnson. Metaphors We Live By [M]. Chicago: The University of Chicago Press, 2003.

3.George Lakoff. The Contemporary Theory of Metaphor [M]. Cambridge: Cambridge University Press, 1993.

4.Freeman, M. (2007). Cognitive linguistic approach to literarystudies: State of art in cognitive poetics. In G. Dirk & C. Hubert (Eds.), The Oxford handbook of cognitive linguistics(pp. 1175–1202). Oxford and New York: Oxford University Press. 9

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

5.Gibbs, R. (1944). The poetics of mind: Figurative thought, language, and understanding. New York: Cambridge University Press.

6.Goodman, N. (1979). Metaphor as moonlighting. Critical Inquiry, 6(1), 125–130. https://doi.org/10.1086/448032

7.Hogan, P., & Pandit, L. (Eds.). (2006). Cognitive Shakespeare: Criticism and theory in the age of neuroscience.

8.Jackson, T. (2005). Explanation, interpretation, and close reading: The progress of cognitive poetics. Poetics

9.Today, 26(3), 519–533. https://doi.org/10.1215/03335372-26-3-519

10.Johnson, M. (1981). Introduction: Metaphor in the philosophical tradition. In M. Johnson (Ed.), Philosophical perspectives on metaphor(pp. 3–47). Minneapolis: University of Minnesota Press.

11.Kirby, J. (1997). Aristotle on Metaphor. The American Journal of Philology, 118(4), 517–554.

12.Lakoff, G., & Turner, M. (1989). More than cool reason. Chicago: The University of Chicago Press.

13.Louwerse, M., & Van Peer, W. (2009). How cognitive iscognitive poetics? The interaction between symbolic and embodied cognition. In B. Geert & V. Jeroen (Eds.), Cognitive poetics: Goals, gains and gaps(pp. 423–456). Berlin: Mouton de Gruyter.

FEATURES OF ADJECTIVAL COMBINATIONS IN THE STUDY OF THE CONCEPTUAL INTEGRITY OF THE TERMINOLOGICAL SYSTEM ASSOCIATED WITH TOURISM

Dildora Xolboyeva,
Teacher of the department of uzbek and foreign languages of the
Tashkent Medical Academy
E-mail: dildora.kholboeva1985@gmail.com

Abstract: *This article analyzes the adjectival terms related to tourism. The terminological slot includes both the word-formation slot of this term and the phrases made up of it. The number of terms forming adjective and depends on the importance of the terms forming adjectival combinations for the tourism industry.*

Key words: *terminological adjectives, tourism industry, adjectival combination, conceptual system.*

ОСОБЕННОСТИ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ СОЧЕТАНИИ ПРИ ИССЛЕ- ДОВАНИИ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ ЦЕЛОСТНОСТИ ТЕРМИНО-ЛОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ, СВЯЗАННОЙ С ТУРИЗМОМ

Дилдора Холбоева,
ТМА Преподаватель кафедры узбекского и иностранных языков
E-mail: dildora.kholboeva1985@gmail.com

Аннотация: *В этой статье анализируются прилагательные термины, относящиеся к туризму. Терминологический ряд включает в себя как словообразовательный ряд этого термина, так и составленные из него словосочетания. Количество терминов, образующих комбинации неодинаково и зависит от важности термина, образующих прилагательных терминов туризма.*

***Ключевые слова**: терминологическое гнездо, индустрия туризма, адъективное сочетание, концептуальная система.*

ТУРИЗМГА ОИД ТЕРМИНЛАРНИНГ ЯХЛИТЛИГИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДА УЯЛИ ТИЗИМНИНГ ТУЗИЛИШИ ХУСУСИЯТЛАРИ

Дилдора Холбоева,
ТТА Ўзбек ва хорижий тиллар кафедраси ўқитувчиси
Э-маил: dildora.kholboeva1985@gmail.com

***Аннотация:** Ушбу маколада туризмга оид уя хосил килувчи терминлар таҳлил қилинган. Терминологик уя ушбу термин сўз ясаш уясини ҳамда ундан ясалган сўз бирикмаларини ҳам ўз ичига олади. Уяни ҳосил қилувчи терминлар сони бир хил эмас, ва уяни ҳосил қилувчи терминнинг туризм соҳаси учун аҳамиятига боғлиқ*

Калит сўзлар:терминологик уя, туризм соҳаси, адъектив бирикма, тушунчали тизим.

Кириш

Терминологик уяларнинг ташкил этилишида ушбу термин тизими билан боғланган тушунчали категорияларнинг ўзаро таъсири аниқ намоён бўлади, терминологик уяларга бўлиниш эса тегишли билим тизимининг тушунчали тизими билан боғлиқ.

Тадқиқот методологияси Терминологик уя ушбу терминнинг сўз ясаш уясини ҳам, ундан ясалган сўз бирикмаларини ҳам ўз ичига олади. Таҳлил қилинган термин тизимининг доирасида 39 та (терминларнинг умумий сонидан 3,9%) инглиз тилидаги уя ҳосил қилувчи доминант терминлар аниқланган, уларнинг атрофида 426 та терминлар (бутун терминологик массивнинг 43% қисми) жамланади. Уяни ҳосил қилувчи терминлар сони бир хил эмас, ва уяни ҳосил қилувчи терминнинг туризм соҳаси учун аҳамиятига боғлиқ ҳолда, 4 тадан 79 тагача ўзгариб туради (1-жадвал).

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили Терминологияни тадқиқ этиш ҳақида гапирганда, лингвистлар анча вақтдан бери уни аввалдан мантиқий-тушунчали таҳлил қилиш зарурлигини таъкидлаган эди: С.Д. Шелов энг аниқ ва назарий жиҳатдан тушунарли фикр билдирган, у ТТМ ларни «ушбу соҳа учун махсус бўлган, ҳамда ушбу терминнинг ўзини, уларни идентификациялаш учун ушбу термин зарур бўлган тушунчаларни, ҳамда улар ва ушбу термин билан ифодаланган тушунча орасидаги муносабатларни тушунчали идентификациялаш учун зарур бўлган тушунчаларнинг жамулжамлиги» каби талқин этган. П.А.Гринев мантиқий-тушунчали таҳлил терминларни таърифлаш бўйича ишларда тушунчаларни тизимлаштиришнинг мазмунини ташкил этади деган фикрни айтади.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1-жадвал

Инглиз тилидаги туризм соҳасининг уя ҳосил қилувчи терминлари

Майдон / микромайдон	**Уя ҳосил қилувчи термин**	**Терминологик уянинг қуввати**
1	**2**	**3**
статистика ва экономика туризма	season	9
туризмни ташкил этиш	rate	9
	capacity	6
	traveller	6
	visitor	4
	tourism	79
	tour	51
	trip	10
	booking	10
	visa	7
	holiday	6
	travel	4
	time	4
1	2	3
меҳмондўстлик индустрияси	hotel	25
	room	21
	guest	7
	bed	7
	service	7
	resort	6
	house	4
	suite	4
овқатланиш индустрияси (гастрономик туризм)	menu	11
	bar	9
	catering	7
	plan	6
	breakfast	6
	restaurant	5
	buffet	5
	pub	4
дам олиш фаолияти	ski	11
	park	9
	leisure	6
Ташишлар	flight	16
	ticket	12
	baggage	8

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

	car	8
	class	6
	train	6
	passenger	5

Рус тилидаги туризм соҳасининг уя ҳосил қилувчи терминлари

Туризм соҳасининг терминологиясида 31 та (терминларнинг умумий сонидан 4,4%) уя ҳосил қилувчи доминант терминлар аниқланган, уларнинг атрофида 333 та термин (бутун терминологик массивнинг 47,6% қисми) жамланади. Уяни ҳосил қилувчи терминлар сони бир хил эмас, ва уяни ҳосил қилувчи терминнинг туризм соҳаси учун аҳамиятига боғлиқ ҳолда, 4 тадан 75 тагача ўзгариб туради (2-жадвал).

2-жадвал

Майдон / микромайдон	**Уяни ясовчи термин**	**Терминологик уянинг қуввати**
1	**2**	3
туризм статистикаси ва иқтисодиёти	сезон-мавсум	11
	Тариф	6
туризмни ташкил этиш	Туризм	75
	Тур	49
	Маршрут	12
	Круиз	10
	бронирование-захирага киритиш	10
	Виза	7
	Бюро	4
	Квота	4
меҳмондўстлик индустрияси	Отель	17
	номер-ўрин, жой	13
	Меҳмонхона	8
	размещение-жойлаштириш	7
	лагерь-оромгоҳ	6
	Курорт	5
	обслуживание-хизмат кўрсатиш	4
овқатланиш индустрияси	Меню	7
	Ресторан	6
	план-режа	6
	Зал	4
	завтрак-нонушта	4
дам олиш фаолияти	Рекреация	8
	Парк	7
	досуг-дам олиш	4
Ташишлар	Рейс	10
	Чартер	7

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

билет-чипта	7
класс-синф	6
багаж-юк	5
Вагон	4

Таҳлил ва натижалар

Келтирилган жадваллардан кўринишича, иккала тилда терминологик уяларни ҳосил қилишда қуйидаги терминлар энг катта маҳсулдорлини намоён қилган: **tourism–туризм, tour– тур, hotel – отель, room – номер.** Кўпроқ даражада кўргазмали бўлиши учун, инглиз тилида ва рус тилида терминологик сўз бирикмаларини ҳосил қилиш учун энг маҳсулдор бўлган бир нечта уяларни кўрсатамиз. Инглиз тилида улардан бири **tourism** термини ҳисобланади, у 79 та терминологик сўз бирикмаларини ҳосил қилади: active tourism, adventure tourism, agricultural tourism, agrotourism, alternative tourism, appropriate tourism, associative tourism, beach tourism, business tourism, circuit tourism, city tourism, common interest tourism, community tourism, congress tourism, cultural tourism, cyclotourism, dark tourism, demand for tourism, domestic tourism, ecological tourism, educational tourism, ethnic tourism, event tourism, factory tourism, farm stay tourism, geological tourism, hard tourism, health tourism, heritage tourism, horse riding tour, inbound tourism, incentive tourism, indigenous tourism, industrial tourism, internal tourism, international tourism, jungle tourism, learning tourism, mainstream tourism, marine tourism, mass tourism, motoring tourism, national tourism, nature tourism, nonbusiness tourism, nostalgic tourism, outbound tourism, reality tourism, recreational tourism, religious tourism, responsible tourism, rural tourism, school tourism, senior tourism, sex tourism, sightseeing tourism, ski tourism, social tourism, soft tourism, space tourism, sports tourism, study tourism, survival tourism, sustainable tourism, thanatourism, tourism generating areas, tourism intensity, tourism market, tourism marketing, tourism region, tourism resources, tourism infrastructure, tourism industry, tourism-related industries, urban tourism, vacation farm tourism, water tourism, yacht tourism, youth tourism. Tourism доминантаси бўлган терминологик уялар кўпроқ адъектив ҳисобланади

Рус тилидаги «туризм» уяси таркибида 75 та терминологик сўз бирикмаси бўлиб, улар ҳам асосан адъектив бирикмаларни ўз ичига олади: мягкий туризм-юмшоқ туризм, автобусный тур-автобус тури, автотуризм, агротуризм-қишлоқ хўжалиги туризми, активный туризм-фаол сайёҳлик, альтернативный туризм-муқобил сайёҳлик, бизнес-туризм, велосипедный туризм-велосипедли сайёҳлик, виски-туризм, внутренний туризм-ички сайёҳлик, водный туризм-сув сайёҳлиги, военный туризм-ҳарбий сайёҳлик, въездной туризм-кириш сайёҳлиги, выездной туризм-чиқиш сайёҳлиги, гастрономический туризм-гастрономик сайёҳлик, геологический туризм-геологик сайёҳлик, городской туризм-шаҳар сайёҳлиги, групповой туризм-гуруҳли сайёҳлик, деловой туризм-иш бўйича сайёҳлик, деревенский туризм-қишлоқ туризми, детско-юношеский туризм-болалар-ўсмирлар сайёҳлиги, доходность туризма-сайёҳликнинг даомадлилиги, жесткий туризм-қаттиққўл сайёҳлик, зрелый туризм-етук сайёҳлик, инсентив-туризм, инфраструктура туризма-сайёҳлик инфратузилмаси, караванный туризм-карвон сайёҳлиги, коллективный туризм-жамоавий сайёҳлик, конгрессный туризм-конгресс туризми, конный туризм-отлиқ туризми, космический туризм-космик туризм, культурно-познавательный туризм-маданий-билиш сайёҳлиги, лечебно-оздоровительный туризм-даволаш-соғломлаштириш

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

сайёҳлиги, лыотный туризм-имтиёзли туризм, массовый туризм-оммавий сайёҳлик, международный туризм-халқаро сайёҳлик, мемориальный туризм-мемориал сайёҳлик, молодежный туризм-ёшлар учун сайёҳлик, морской туризм-денгиз сайёҳлиги, мрачный туризм-қўрқинчли сайёҳлик, научный туризм-илмий сайёҳлик, национальный туризм-миллий туризм, некоммерческий туризм-нотижорат сайёҳлик, низкобюджетный туризм-кам бюджетли сайёҳлик, ностальгический туризм-ностальгияли туризм, ответственный туризм-масъул сайёҳлик, охотничье-рыболовный туризм-ов-балиқчилик сайёҳлиги, пляжный туризм-пляж сайёғлиги, поощрительный туризм-рағбатлантирувчи сайёҳлик, поступления от туризма-сайёҳликдан тушум, приключенческий туризм-саргузашт сайёҳлиги, природный туризм-табиат қўйнида сайёҳлик, промышленный туризм-саноат сайёҳлиги, реалити-туризм, рекреационный туризм-рекреацион (дам олиш) сайёҳлиги, религиозный туризм-диний сайёҳлик, самодеятельный туризм-ҳаваскорлик сайёҳлиги, секс-туризм-жинсий сайёҳлик, сельский туризм-қишлоқ туризми, смежные с туризмом отрасли-туризмга ёндош соҳалар, событийный туризм-воқеали туризм, социальный туризм-ижтимоий сайёҳлик, спелеотуризм-ғор ичидаги сайёҳлик, спортивный туризм-спорт сайёҳлиги, студенческий туризм-талабалик сайёҳлиги, туризм на местах катастрофы-ҳалокатлар жойларига сайёҳлик, туризм «третьего возраста»- «учинчи ёш даражасидаги» туризм, устойчивый туризм-барқарор сайёҳлик, школьный туризм-мактаб сайёҳлиги, экологический туризм-экологик сайёҳлиги, экскурсионный туризм-экскурсион сайёҳлик, экстремальный туризм-экстремал сайёҳлик, этнический туризм-этник сайёҳлик, этнокультурный туризм-этник-маданий сайёҳлик, яхтенный туризм-яхтадаги сайёҳлик**.** Мисоллардан кўриншича, рус тилидаги терминологик сўз бирикмалари кўпинча манба тилнинг терминлари таркиби тузилишини такрорлайди. Шу билан бирга, материалимиз шуни кўрсатадики, ўзлашган термин она тилида бирикиб келмаган бошқа сўзлар билан ҳам бирикиб келиши мумкин.

Хулоса ва таклифлар

Шундай қилиб, ўтказилган таҳлил натижасида, инглиз тилида ва рус тилида туризмга оид терминологиянинг тушунчали тизими, умуман олганда, иккала тилда ўхшаш бўлган тармоқнинг тегишли тизимини акс эттиради. Айни пайтда, микромайдонларнинг ўзига хос тарзда тўлдирилиши аниқланиб, у термин тизимининг шаклланиши, ва уларнинг эҳтимолий эволюцияси учун ҳар хил йўллар мавжудлигидан далолат бериши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Alieva M.T. Razvitiya industrii turizma // Mezhdunarodnye Plekhanovskie chteniya, April 19 REA. im.G.V. Plexanova. - M., 2006.
2. Ушаков Д.С. Технология выездного туризма. Учебное пособие. – М.: Финансы истатистика, 2009. – С. 240.
3. Aliyeva M.T., Mirzayev M. va boshqalar. Turizm huquqi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Talqin, 2003. – B. 245.
4. Алиева М.Т. Развития индустрии туризма // Международные Плехановские чтения, 19 апреля РЭА. им. Г.В. Плеханова. – М., 2006.
5. Алиева М.Т. Тенденции развития туризма в Узбекистане // Пятнадцатые международные Плехановские чтения, 27 апреля РЭА. им. Г.В. Плеханова. – М., 2002.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

6. Grinev- Grinevich S.V. Terminovedenie. Uchebnoe posobie. - M .: Akademiya, 2008. - P.102-104.
7.Jamolkhonov H. Modern Uzbek literary language text book.Tashkent, 2014.96-p.
8. Tursunov U, Mukhtorov A, Rahmatullaev Sh. The current edition of the text book for students of philological faculties of modern Uzbek literary language is the third edition. Tashkent, 1992. 400 p.
9. www.uzbekturizm.uz.
10. hppt://en.wikipedia.org.

ABDULLA QAHHOR "MING BIR JON" HIKOYASIDAGI O´XSHATISHLARNING NEMISCHA TARJIMASI XUSUSIDA

Sadiqov Zohid, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
NamDU Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi mudiri,
e-mail: sadikov.zohid.mail.ru
Rajabbayeva Mohinur Salimbayevna,
UrDU Lingvistika (nemis tili) magistratanti

***Annotatsiya**: Maqolada zabardast o´zbek yozuvchisi, hikoyanavis adib Abdulla Qahhor „Ming bir jon" hikoyasidagi o´xshatishlarni bevosita nemis tiliga tarjima qilish xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Bunda o´zbekona o´xshatishlar tarjimasida asliyat muallifi uslubi va asarda aks engan milliy xosliklarni tarjima qilish tamoyillari aniqlanadi*

***Kalit so´zlar**: Hikoya, asliyat, tarjima, usul, tamoyil, adekvatlik va muqobil variant, izohlash va so´zma-so´z o´girish*

О ПЕРЕВОДЕ СРАВНЕНИЙ В РАССКАЗЕ ТЫСЯЧА ОДНОЙ ДУШИ» АБДУЛЛА КАХХОРА НА НЕМЕЦКИЙ ЯЗЫК

***Аннотация**: В статье рассматривается особенности непосредственного перевода сравнений в рассказе «Минг бир жон» (Тысяча и одна душа) великого узбекского писателя, новеллиста Абдулла Каххора на немецкий язык. При этом определятся воссоздания стиля оригинала в переводе на немецкий язык, а также принципы перевода их национальных особенностей*

***Ключевые слова:** Рассказ, оригинал, перевод, метод, принцип, адекватность и альтернативный вариант, описание и дословный перевод*

ABOUT THE TRANSLATION OF COMPARISONS IN THE STORY A THOUSAND ONE SOULS BY ABDULLAH KAHHOR INTO GERMAN

***Summary**: The article examines the peculiarities of the direct translation of comparisons in the story "Ming bir zhon" (A Thousand and One Souls) of the great Uzbek writer, short story writer Abdullah Kakhhor into German. At the same time, recreations of the original style in translation into German will be determined, as well as the principles for translating their national characteristics*

***Keywords**: Story, original, translation, method, principle, adequacy and alternative, description and literal translation*

Abdulla Qahhor hikoyalari insonning irodasi qanchalik mustahkam bo′lsa, u jamiyatga, odamlarga shunchalik ko′p foyda keltira olishi g′oyasi bilan sug′orilgan. Oramizdagi shunday oddiy insonlar ruhiyatidagi ana shu muhim jihatni tasvirlar ekan, muallif inson uchun eng buyuk tuyg′u – muhabbat tuyg′usi tasviridan ustalitk bilan foydalanadi. Eng muhimi, chinakam sanъat asari yaratib, kitobxonni bunga ishontiradi ham. Uning „Anor“ deb ataluvchi hikoyalar to′plami [1] ga kirgan “Ming bir jon” deb ataluvchi hikoyasi ana shunday asarlar sirasiga kiradi.

Hikoyada Mastura ismli ayolning og′ir kasalni qanday qilib engib o′tgani u yotgan kasalxonadagi boshqa bir hamqishlog′i Mirrahimov degan boshqa bir bemor tilidan hikoya qilinadi.

Dastlab muallif asar qahramoni Masturaning bemorligiga tabiat hodisasini qiyoslaydi va bu haqda shunday lavha keltiradi:

“Matning ohirgi kunlari. Ko′k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko′yga solayapti. Oftob har safar bulut ostiga kirib chiqqanida, bahor kelgandan bexabar hanuz g′aflatda yotgan o′t-o′lanni, qurt-qumursqani uyg′otgani avvalgidan ham yorug′roq, *avvalgidan ham issiqroq shula sochayotganday tuyuladi*.” [1.113]

Tabiat tasviridan kitobxonga asar qahramoni ham mudroq qishdan chiqib, asta-sekinlik bilan bahor, uyg′onish fasli kelayotganldigi yaъni kasal ham tuzalish tomon qadam qo′yayotganligiga ishorani ham his qilamiz. Endi buning nemischa tarjimasiga eътibor beraylik:

“Es war Ende Maerz. Die Wolken, die am hellen Himmel zogen nahmen sich vor, mit der Sonne zu spielen. Immer, wenn ihr Licht die Wolken durchbrach, erweckte sie die ganze Pflanzenwelt und die Lebewesen, die noch ahnungslos waren, dass der Frühling angebrochen war und *strahlte scheinbar noch wärmer als zuvor*.” [2.119].

Asliyatdagi *bulutlarning oftobni bir zumda yuz ko′yga solayotgani* tarjimada *mit der Sonne zu spielen (quyosh bilan o′ynashayotgan)* qabilida o′girilgan. Bu ham o′ziga xos yondoshuv. Chnuki kitobxonda o′sha asliyatdagi holat haqida chindan ham o′shayday tasavvur paydo qilina olingan. Keyinroq berilgan *avvalgidan ham issiqroq shula sochayotganday tuyuladi* jumlasidagi holdat esa so′zma-so′z *strahlte scheinbar noch waermer als zuvor* (avvalgidan issiqroq nur taratmoqda) tarzida o′girilgan bo′lsa ham, adekvatlik kasb etgan deyish mumkin.

Hikoya personajlaridan Mirrahimovning qiyofasi to′g′risida muallif asarda quyidagi tasvirni beradi:

“Kasalxonaga yaqinginada tushgan Mirrrahimov, jikkakkina kishi, o′ziga juda ham katta ko′k *xalat*ga burkanib, *engchadan boshini chiqarib turgan sichqondek*, derazadan ko′chaga qarab o′tgan edi, birdant tutoqib ketdi: shunday havo bo′lsa-yu, oyoq-qo′li butun odam ko′chaga chiqolmay, derazadan mo′ralab o′tirsa!..”

Yuqoridagi lavhada Abdulla Qahhor o′z personajiga nisbatan *engchadan boshini chiqarib turgan sichqondek* o′xshatishini qo′llaydi. Endi buning nemischa tarjimasiga eътibor qarataylik:

“Der kurze Zeit zuvor in mein Zimmer im Krankenhaus eingelieferte Mirrahimov war ein winziger Mensch, der einen *riesigen Mantel* trug. Als er durch das Fenster hinausspähte, sah er in diesem Mantel *wie eine kleine Maus aus, die durch den Ärmel das Köpfchen herausstreckte*. Bei dem Anblick der Umgebung geriet Mirrahimov in Aufregung. Da so einem wunderschönen, so herrlichen Wetter sollte er mit gesunden Händen und Beinen im Krankenhaus eingesperrt sitzen und die Welt draußen lediglich durch das Fenster bewundern?” [2.119]

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Asliyatdagi *engchadan boshini chiqarib turgan sichqondek* ni tarjimada *wie eine kleine Maus aus, die durch den Ärmel das Köpfchen herausstreckte (engdan boshini chiqarib turagn sichqonchadek)* tarzida tarjima qilingan. Bu to′g′ri, ammo, bu erda asliyatdagi kasalxonada kiyiladigan xalat tarjimada mavhumlashtirilib, uni *riesigen Mantel (katta palьto)* deb o′girilgan. Vaholanki nemis tilida bunday holatlarda faol qo′llaniladigan *der Patientenkittel* (bemorlar xalati) degan tushuncha borligiga ahamiyat qaratmagan.

Mirrahimov jussasi kichkina bo′lgani bilan tovushi juda yo′g′on va buning ustiga sekin gapirolmaydigan odam, deb tasvirlaydi muallif. Kasalxona hamshirasi undan xabar olarkan, tezroq tuzalishga turtki bo′lishi uchun kasalga sabr qilishni Mastura Alievadan o′rganish lozimligini aytadi. Voqealar ana shundan boshlab rivojlana boradi.

Kasalxonada o′n yildan beri yotgan ayol va uni bir necha yildan beri yonidan jilmay qarab turgan turmush o′rtog′ini ko′rib kelish uchun yon palatadagi bir necha qariya va boshqa erkaklar og′ir kasal Masturani ko′rgani chiqishadi. Bu holatni muallifi quyidagicha tasvirlaydi:

“Hamshira Mastura bilan uning eriga xabar bergani ketdi. Hayal o′tmay, qorni chiqqan Hoji aka oldinga, uzun koridordan o′ninchi palataga tomon yo′l oldik. Palata eshigi oldida bizni hindiga o′xshagan qop-qora, katta-katta ko′zlari yonib turgan bir yigit, aftidan, Masturaning eri kamoli ehtirom bilan kutib oldi va har qaysimizga alohida minnatdorchilik bildirib, ichkariga yo′lladi...” [1.114]

Nemischa tarjimasi:

“Die Krankenschwester verließ das Zimmer, um Mastura und ihren Mann von dem bevorstehenden Besuch zu unterrichten.

Nach einer kurzer Weile begaben wir uns alle Richtung des zehnten Krankenzimmers den langen Gang entlang, vorne schritt, seinen großen Bauch hervorstreckend, *der Onkel Hadschi*. Am Eingang des Krankenzimmers kam uns sehr höflich und achtungsvoll ein junger dunkelhäutiger Mann mit großen, funkelnden Augen *wie ein Inder* entgegen.” [2.120]

Tarjima asliyatga yaqin o′girilgan. Ammo Abdulla Qahhor uslubiga xos bo′lgan lo′ndalik, qisqalik bir qadar kengaytirilib yuborgandek ko′rinadi. Xususan, agar muallif “Hamshira Mastura bilan uning eriga xabar bergani ketdi” desa, tarjimon “Die Krankenschwester verliess das Zimmer, um Mastura und ihren Mann von dem bevorstehenden Besuch zu unterrichten”, yaъni *Xamshira Mastura va uning erini bo′lajak tashrif haqida ogohlantirib qo′yish uchun xonadan chiqdi*, - tarzida batafsillashtirib yuborilganiga guvoh bo′lamiz. SHuningdek, asliyatdagi Hoji aka tarjimada *der Onkel Hodschi – hoji tog′a*ga aylanib qolib, uning yoshi bir qadar ulg′aytirilgan. Ammo o′xshatish aynan *wie ein Inder – hindga o′xshagan* tarzida so′zma-so′z tarjima qilingan.

Hikoyaning keyingi o′rinlarida voqealar yanada rivojlanib boradi. Masturaning kasal holatidan hayajonga tushgan erkaklar o′zlarini yo′qotib qo′yadigan darajada o′zgarib, tushkun kafyfiyat bilan xonalariga qaytishadi. Mana shu hayajonli holatni muallif o′ziga xos tomondan tasvirlar ekan, bu o′rinda ham bir qator o′xshatishlarga o′rin beradi:

“Palatamizga qaytdik.Hoji aka karavotida yonboshlab, qand choy ichib, o′zini elpib yotar edi. Bo′lib o′tgan holatlik ish to′g′risida u ham indamadi, biz ham indamadik. Hoji akaga bir nima deyish u yoqda tursin, Mirrahimov ikkovimiz ham kechgacha bir-birimizga so′z qotmadik; aftidan, borlig′imiz Mastura bilan band, *quyunday charx urayotgan taassurotlar*, fikrlar, tuyg′ularni ifoda qilgani so′z topolmas edik” [1.117]

Nemischa tarjimasi:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

“Wir kehrten in unserem Zimmer zurück. Onkel Hadschi lag in seinem Bett auf der Seite und trank süßen Tee in kleinen Schlucken und fächelte sich Luft zu. Niemand erwähnten das unangenehme Ereignis, weder er noch wir. Überhaupt, wir selbst, Mirrahimov und ich, redeten bis zum Abend kein einziges Wort, den *wir versanken beide augenscheinlich tief in Gedanken über Mastura* und fanden keine Worte, unsere Eindrücke und Gefühle zu äußern.” [1.124]

Kasal Mastura fikri bilan bir-biriga so´z ham aytolmagan palatadoshlarning holatini muallif “Borlig´imiz Mastura bilan band, *quyunday charx urayotgan taassurotlar*” tarzida o´zgi xos o´xshatishni keltirilgan. Buni nemism tiliga – “*wir versanken beide augenscheinlich tief in Gedanken ueber Mastura*” (biz Mastura haqidagi o´y hayollarga cho´kib ketdik) kabi muqobil variant bilan tarjima qilinganligini ko´rishimiz mumkin. Asliyatdagi o´xshatish aynan shunday o´xshatish bilan berlmagan bo´lsada, tarjimonning asliyatdagi haylda charx urayotgan taassurotni “hayolga cho´mmoq” bilan ifodalanagani ham noto´g´ri emas, albatta.

Keyingi o´xshatish hikoya sarlavhasi bilan bog´liq nuqtaga kelinganligini ko´rsatadi. Bunda muamllif jumladan quyidagi tasvirni beradi:

“- Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta! – dedi. – Hozir *tugab qolgan shamday lipillab yonayotgan joni* basharti so´ngan taqdirda ham, qolgan mingtasini yoqib keyin so´nadi. Mana shu ishonch Masturani o´limga yo´latmaydi.” [1.117]

Lavhada muallif Masturaning joni ming bitta ekanligi va uning mohiyatida aynan qayday quvvat yashiringanligini juda chiroyli va ishonchli tasvirlab bergan. Endi buning nemischa tarjimasiga eътibor byueraylik:

“Dierse Frau hast nicht nur eine Seele, sondern tausend und einem, glauben Sie mir! Sagte er. *Die Seele glimmt nur noch wie eine Kerze*, und wie er erlöschet, entzündet sie sofort die nächste und so weiter, die restlichen tausend, das ist die Hoffnung, die ihren Tod nicht zulässt!” [2.124]

Asliyatdagi *tugab qolgan shamday lipillab yonayotgan joni* tarjimada *Die Seele glimmt nur noch wie eine Kerze (shamday lipillab yonayotgan joni)* tarzida o´girilgan bo´lib, faqat shamga nisbatan *tugab qolgan* deyilgan sifatdoshi tushurib qoldirilgan xolos. Qolgani aynan berilgan.

Nihoyat, Masturaning tuzalib ketishi ham ajabtovur bo´ladi. Mirrahimov kasalxonadan chiqib, uzoq safraga ham borib keldi. Operaцiyaning natijasini eslagisi ham kelmay turganida, Akramjonning yonida bir boshqa yoshgina chiroyli juvonni ko´rib, - ha, Mastura o´tib ketibdi—a, degan xulosaga ham kelib qolgandi. Ammo ular bilan so´rashib qo´yish uchun borganida, Mastura Mirrahimovga – meni tanimadingizda, - deganidan keyingina uning tirikligiga ishondi. Bu chinakam mo´ъjiza edi. Akramjon va Masturaning bir-birlarini qanchalik yaxshi ko´rishlarini tasvirlab, hikoya so´ngida mullif quyitdagi jumlalarni keltiradi va ularda yana betakror o´xshatishlar ishlatadi:

“Uzoq suhbatlashdik. Er-xotin otlarni etaklab, bizni talay ergacha kuzatib qo´yishdi: so´ng xayrlashib so´l tomonga ot qo´yib ketishdi. *Men sahroda lochinday uchib ketayotgan Mastura bilan Akramjonga uzoq qarab qoldim...*” [1.119].

Nemischa tarjimasi:

“Wir unterhielten uns lange. Das Ehepaar begleitete mich, ihre Pferde am Zuegel fuehrend, eine Zeitlang. Dann verabschiedeten sie sich von mir, machten sich auf den Weg und ritten davon. *Ich sah den beiden nach, sie schienen mir wie die Adler in der Steppe zu fliegen…*” [2.127]

Asliyatdagi 3ta gap tarjimada 4ta gapga yoyib yuborilgan. Abdulla Qahhorga xos siqiq satrlarda sodda gaplar bilan keng mazmunni bera bilish uslubidan tarjimada yana bir oz chiqilganligini ko´rish mumkin. Bundan tashqari, Oxirgi gapda esa, tarjimon Mastura va

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Akramjon o′rni *den beiden (har ikkalasi) olmoshini* qo′llaganligi qahhorona uslubni saqlashga bir qadar yordam bergan. O′xshatish esa nemis tilida ham xuddi shunday o′xshatish *wie die Adler (burgutday)* tarzida ifodalangan. Bir so′z bilan aytganda Abdulla Qahorning "Ming bir jon" hikoyasi nemis tilida asliyatga muqobil ko′rinishda qayta yaratishga muvaffaqt bo′lingan, degan xulosaga kelish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qahhor. Anor. Qissa va hikoyalar. – Toshkent: G′afur G′ulom nomidagi adabiyot va san′at nashriyoti, 2012. 200 b.
2. Abdulla Kahhor. Der Granatapfel. – Tashkent: Akademnashr, 2013.158 S.

ИЗУЧЕНИЕ ИМЕН ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЛИГВИСТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ

Ахмаджанова Феруза Тожиддиновна, магистрант НамГУ по специальности« Теория и методика образования и воспитания» (начальное образование).

Аннотация. *Представлена общая характеристика процесса работы по изучению имён прилагательных на уроках родного языка начальных классов. Отмечается, что изучение имён прилагательных в начальных классах должно быть организовано с учетом грамматических особенностей этой части речи, а именно с учетом своеобразия выражения категорий рода, числа и падежа. Усвоение склонения прилагательных должно способствовать формированию навыков правописания падежных окончаний. Существенную помощь при этом может оказать использование приёма моделирования построенного по четырёхблоковой системе.*

Ключевые слова: *части речи, существительное, прилагательное, взаимосвязанное изучение,особенности категории рода, число прилагательных, падеж и склонение, моделирование, модель, учебное моделирование, блоки моделя, содержание блоков.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida sifatlarni o'rganish ustida ishlash jarayonining umumiy tavsifi berilgan. Ta'kidlanganidek, boshlang'ich sinfda sifatlarni o'rganish nutqning ushbu qismining grammatik xususiyatlarini ya'ni jins, son va hol kategoriyalarini ifodalashning o'ziga xosligini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. Sifatlarning tuslanishini o'zlashtirish holatlari uchun imlo ko'nikmalarini shakllantirishga hissa qo'shishi kerak. Bu holatda muhim yordam to'rt blokli tizimda qurilgan modellashtirish texnikasidan foydalanish orqali ta'minlanishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *So'z turkumlari, ot, sifat, o'zaro bog'langan o'rganish, rod kategoriyalari, sifatlarning birlik va ko'pligi, kelishiklar va tushlanish, modellashtirish, model, ta'limiy modellashtirish, model bloklari, bloklar mundarijasi*

Annotation. *The general characteristics of the work process for teaching the adjective word group in the mother tongue classes in primary grades are presented. It is determined that the study of the adjective word group should be organized taking into account the grammatical significance of the same word group in the primary grades. Studying the declension of adjectives in the present case should help to form the skills of using conjugations correctly.*

Key words: *word groups, noun, adjective, interdependence, educational module, model blocks, content of blocks*

Изучение частей речи в начальной школе занимает существенное место среди других разделов языкознания: и по продолжительности работы (дети с первого класса знакомятся со словами, которые отвечают на вопросы "кто?" или "что?"; "какой?"; "какие?" и др.), и по значению познания грамматических категорий слова. Поэтому учителю необходимо знать лингвистическую природу изучаемого явления, то есть основательно изучить морфологию - раздела грамматики, изучающего слово в системе форм словоизменения" [3, 34]; "собрание правил об изменении слов, то есть учение о грамматической природе слова и его формах" [2] Следовательно, предметом морфологии является учение о частях речи и их грамматических категориях (рода, числа, падежа, времени, вида, наклонения и др.).

Одной из сложных для усвоения младшими школьниками на уроках родного языка является тема "Имя прилагательное". Сложность усвоения обусловлена грамматическими особенностями этой части речи. Не все дети ясно осознают семантику этой части речи, зависимый характер ее грамматических категорий. В связи с этим кратко охарактеризуем иих.

Имя прилагательное - это часть речи, объединяющая слова со значением признака предмета. Поэтому в речи прилагательное употребляется в сочетании с существительным, выполняя в предложении либо роль определения, либо именной части составного именного сказуемого. Как и существительное, прилагательное имеет категории рода, числа и падежа, но эти категории у него зависимые, то есть их формы зависят от соответствующих форм имени существительного, с которым согласуется прилагательное.

В школьной практике семантика этой части речи определяется через термин "признак предмета" и в качестве дополнительного признака предлагаются вопросы: "какой?", "какая?", "какое?", "какие?".

В зависимости от способа выражения признака непосредственноили через отношение одних предметов к другим предметам, все прилагательные делятся на лексико-грамматические разряды: качественные, относительные и притяжательные.

Качественные прилагательные обозначают качественный признак как таковой, без указания на его отношение к другим предметам. Это их основное семантическое отличие от других разрядов прилагательного: красивые слова, благородное сердце, четкая мысль. Поэтому только качесственные прилагательные могут иметь наряду с производной и непроизводную основу.

Относительные прилагательные обозначают признак через отношение к другим предметам или действиям, от названий которых образуется данное прилагательное; например, глиняный - из глины, платяной (шкаф) - для платья, сверлильный (станок) - для сверления, то есть относительные прилагательные всегда мотивируются словами других частей речи.

Притяжательные прилагательные обозначают принадлежность другому лицу или животному, от названия которого образовано данное прилагательное: медвежья лапа - лапа медведя, сестрин дневник - дневник сестры, барсучий нос - нос барсука. Притяжательные прилагательные, как и относительные, всегда бывают производными.

У имен прилагательных, в отличие от существительных, категория рода различает словоформы, а не лексемы. Род прилагательных является категорией синтаксической, он предопределен родом соответствующего существительного, указывает на связь между

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

существительным и прилагательным. Род прилагательного приобретает номинативную ценность тогда, когда прилагательное соединяется с существительным общего рода типа неряха, грязнуля, соня. В этом случае мужской род имени прилагательного указывает на мужской пол обозначенного существительным лица, женский род прилагательного указывает соответственно на женский пол. Будучи обусловленной категорией рода существительных, категория рода имен прилагательных принимает также три значения: мужской, женский, средний

Категория числа у имен прилагательных также считается морфологической. Она обязательна и регулярна у всех прилагательных, кроме типа беж. Эта категория в основном синтаксическая, благодар я ей, как и благодаря категории рода, осуществляется связь между соответствующим существительным и прилагательным. Однако при неизменяемых существительных мужского, женского и среднего рода форма числа прилагательного указывает на единичность или неединичность предмета, обозначенного существительными: старая леди и старые леди, молодой кенгуру и молодые кенгуру, новое пальто и новые пальто. При существительных парного рода - изменяемых и неизменяемых - прилагательные такой способностью не обладают по причине омонимии форм прилагательных парного рода единственного числа: новые бигуди, брюки, ворота оставляют вопрос о числе бигуди, брюк и ворот неясным.

Категория одушевленности-неодушевленности проявляется у прилагательных, кроме типа беж, в форме винительного падежа единственного числа мужского рода или в форме винительного падежа множественного числа и парного рода. Выбор формы прилагательного обусловлен значением категории одушевленности или неодушевленности соответствующего существительного. Неодушевленные существительные требуют формы прилагательного, равной именительному: вижу новый дом, красивые заборы, железные крыши, красивые окна. Одушевленные существительные требуют формы прилагательного, равной родительному: вижу старого сторожа, красивых плотников, молодых доярок и ужасных насекомых. Очевидно, что категория одушевленности-неодушевленности у прилагательных выступает как синтаксическая, то есть лишенная собственной номинативной ценности, а обусловленная связью с соответствующими существительными. В ограниченной сфере своего применения категория эта выступает у прилагательных как обязательная и как регулярная. Ограниченность сферы применения существенно отличает эту морфологическую категорию прилагательных от категории рода, числа и падежа.

Падеж у всех прилагательных, кроме типа беж, тоже является категорией обязательной. Он, так же как род, число и одушевленность, не имеет, как правило, собственной номинативной ценности, а лишь указывает на связь с соответствующим существительным, то есть выражает синтаксический элемент значения. Однако, соединяясь с неизменяемыми существительными, прилагательные могут формально выражать принадлежность к тому или другому падежу: студент НамГУ и студент университета. В последнем случае родительный падеж выражен флексией прилагательного -а, в случае студент НамГУ родительный падеж не имеет формального выражения. В словосочетании студент всемирно известного НамГУ флексия прилагательного -ого, указывает на форму родительного падежа, который, кроме этого прилагательного, формально более никак не выражен.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Склонение прилагательных представляет собою, в отличие от существительных, изменение не только по числам и падежам, но и по родам в единственном числе. В русском языке различаются два типа склонения прилагательных: продуктивный и непродуктивный. По продуктивному типу склоняются полные качественные и относительные прилагательные. Второй тип непродуктивный. По нему склоняются притяжательные прилагательные с суффиксами -ов(-ев), -ин(-ын) и др.

В зависимости от конечного согласного основы в склонении основного (продуктивного) типа прилагательных выделяется три разновидности: твердая, мягкая и смешанная. Различия в склонении этих прилагательных незначительны.

Качественные имена прилагательные показывают также различную степень проявления признака. В связи с этим разлмчают три степени сравнения прилагательных: положительную, сравнительную и превосходную. Эта возможность образования степеней сравнения связана с тем, что признак, обозначаемый качественным прилагательным, может проявляться в большей или меньшей степени.

Прилагательное в положительной степени просто называет этот признак без указания на степень его проявления, не сравнивая данный предмет с другими по степени этого качества. Форма положительной степени совпадает с полной формой прилагательных.

Сравнительная степень обозначает признак, который проявляется в данном предмете в большей или меньшей степени, чем в другом предмете: Ночи стали теплее. Сравнительная степень образуется от положительной двумя способами: синтетически и аналитически. Синтетическая, или простая, форма образуется от основы положительной степени сравнения с помощью суффиксов -ее(-ей) и -е(-ше): умнее, чище. Такие формы сравнительной степени не изменяются ни по родам, ни по падежам, ни по числам, за исключением прилагательных с суффиксом -ш и окончанием -ий: меньший. Аналитическая, или сложная, форма образуется с помощью формообразующих частиц более или менее и положительной формы прилагательных: более дружеский, менее деловой.

Превосходная степень обозначает признак, содержащийся в данном предмете в наибольшей мере по сравнению со всеми остальными однородными предметами: Сибиряки считаются самыми здоровыми людьми. Превосходная степень, как и сравнительная, может быть синтетической и аналитической. Синтетическая форма превосходной степени образуется с помощью суффиксов -ейш или -айш: сильный - сильнейший, глубокий - глубочайший. Аналитические формы превосходной степени образуются путем сочетания формообразующей частицы самый с формами положительной степени, а также в сочетании с формами сравнительной степени на -ший: самый красивый, самый лучший.

Прилагательные употребляются только в сочетании с существительными, выполняя в предложении роль определения, либо именной части составного именного сказуемого. Согласование имени прилагательного и имени существительного выражается через изменение окончания имени прилагательного.

В современной педагогике и психологии, а также лингводидактике все большее признание получает мнение о том, что в основе успешности обучения лежат универсальные

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

учебные действия, имеющие приоритетное значение над узкопредметными знаниями и умениями[3,68].

Универсальный характер УУД проявляется в том, что они метапредметны: реализуют целостность общекультурного, личностного и познавательного развития и саморазвития личности; обеспечивают преемственность всех ступеней образовательного процесса; лежат в основе организации и регуляции любой деятельности учащегося независимо от ее специально-предметного содержания. Универсальные учебные действия обеспечивают этапы усвоения учебного содержания и формирования психологических способностей учащихся.

Для овладения научным понятием и способом действий в сфере этого понятия ученику необходимо научиться исследовать условия задачи, отыскивать связи между свойствами исследуемого объекта, находить возможности его преобразования. Он должен уметь, столкнувшись с новой задачей, перестроить известные или найти новые способы действия.

Для решения учебной задачи ученик выполняет специальное действие, благодаря которому решаются практически все учебные задачи: он моделирует.

Моделирование – важнейшая операция в структуре учебной деятельности и одновременно недостаточно изученный вопрос, вызывающий много споров в процессе построения учебного процесса.

Учебная модель - это особая форма наглядности. Моделирование понимается как метод исследования, познания объективной действительности, позволяющий целостно представить отдельную систему, концепцию, различные мировоззренческие категории, научные понятия, закономерности, процессы и т.д. Использование моделей не является только прерогативой точных наук. На уроках гуманитарного цикла, в частности русского языка и литературы, моделирование может быть применено для решения разнообразных задач. Как на уроках русского языка, так и уроках литературы есть множество теоретических понятий, тем, требующих структурирования материала, выстраивания причинно-следственных связей, где образная модель облегчит путь познания и позволит целостно представить явление или систему образов. Не следует путать модель и схему. Модель – система, обобщённое представление о процессе, явлении в природе, обществе, произведении. Модель можно преобразовать.

Учебное моделирование – компонент содержательного анализа объекта.. Содержание и форма моделирования зависят от того, что именно моделируется, что является предметом моделирования на конкретном рассматриваемом этапе обучения. Оно предназначено для обучения: помогает ученику учиться, а учителю учить. Оно выступает как компонент содержательного анализа объекта, позволяет преодолеть элементы механического усвоения

Для более эффективного усвоения школьниками грамматического материала вся система упражнений разбивается на блоки, а блоки, в свою очередь, на серии с более узкой ориентацией на усвоение грамматических категорий имени существительного и имени прилагательного.

Первый блок системы - тренировочные упражнения по выделению детьми словосочетаний типа "прилагательное + существительное" из предложения и связного

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

текста. Так как это только начало работы, то лучше подбирать тексты со словосочетаниями в именительном падеже.

Второй блок системы - тренировочные упражнения по определению рода существительного и прилагательного в словосочетании, то есть определение рода компонентов словосочетания типа "прилагательное + существительное", стоящего в косвенном падеже. Этот блок делится на три серии: 1) нахождение словосочетания указанного типа с главным словом - существительным мужского рода; 2) нахождение такого же типа словосочетания, но уже с существительным среднего рода; 3) нахождения словосочетания с главным словом - существительным женского рода.

Третий блок - определение категории числа у компонентов словосочетания типа "прилагательное + существительное". Учащиеся на уроке одновременно знакомятся с изменениями по числам существительного и прилагательного, то есть наглядно убеждаются в том, что число прилагательного так же, как и его род, зависит от существительного, к которому оно относится. Изменяется число существительного, изменяется и число прилагательного.

Четвертый блок - тренировочные упражнения по определению падежа компонентов словосочетания типа "прилагательное + существительное". Сначала дети выделяют из предложения словосочетания указанного типа, затем находят слова, от которых эти словосочетания зависят и, наконец, задают падежные вопросы и определяют падеж.

Взаимосвязанное изучение существительных и прилагательных в начальных классах дает учителю следующие преимущества: с самого начала изучение этих частей речи дети убеждаются в полной зависимости грамматических форм; учителю предоставляется возможность избежать дублирования учебного материала.

Литература

1.Кирлица Н.Ф. Взаимосвязанное изучение имен существительных и прилагательных в начальной школе. // Начальная школа.- 1995.- №2.
2.Львов М.Р., Рамзаева Т.Г., Светловская Н.Н. Методика обучения русскому языку в начальных классах: Учеб. пособие для студентов пединститутов.- 2-е изд.- М., 1987.
3.Львов М.Р. Словарь-справочник по методике преподавания русского языка.- М., 1999.
4.Мельчук И.А. Русский язык в модели "Смысл-Текст" - М. - Вена: Школа "Языки русской культуры"; Венский славистический альманах, 1995.
5. Улухужаев Н.З. Практикум по методике преподавания родного языка.- Наманган, 2019

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ИЛМИЙ УСЛУБ ВА ИЛМИЙ МАТН ТУРЛАРИ

Тожибоев Музаффар Тўрамирзаевич
Мустақил тадқиқотчи
Наманган давлат университети
e-mail: abdugaffor16@gmail.com

Аннотация. *Мақола ахборот, унинг турлари, илмий услуб ва унинг турлари бўлган соф илмий услуб, илмий-техникавий услуб, илмий-оммабоп услуб ва уларнинг ўзига хос хусусиятларига бағишланган. Уларга турли тилшунос олимлар томонидан берилган таърифлар келтирилган. Илмий-оммабоп матн ҳақида алоҳида тўхталиб ўтилган. Матнлардан намуналар келтирилган.*

Калит сўзлар: *ахборот, илмий услуб, илмий-оммабоп услуб, илмий публицистик услуб, матн, термин, баён*

НАУЧНЫЙ СТИЛЬ И ВИДЫ НАУЧНОГО ТЕКСТА

АННОТАЦИЯ

Таджибаев Музаффар Турамирзаевич
Научный соискатель
Наманганский государственный университет
электронная почта: abdugaffor16@gmail.com

Аннотация *В статье рассматривается информация, ее виды, научный метод и его виды: чисто научный метод, научно-технический метод и научно-популярный метод, их специфические характеристики. Приводятся определения, данные им различными лингвистами. Особое внимание уделяется научно-популярному тексту. Автор привел примеры текстов.*

Ключевые слова*: информация, научный метод, научно-популярный метод, научно-публицистический метод, текст, термин, высказывание.*

SCIENTIFIC STYLE AND TYPES OF SCIENTIFIC TEXT

ANNOTATION

Tadjibaev Muzaffar Turamirzaevich
Freelance researcher
Namangan State University
e-mail: abdugaffor16@gmail.com

Кириш

The article deals with information, its types, scientific method and its types: pure scientific method, scientific-technical method and scientific-popular method, their specific characteristics. Definitions given to them by various linguists have been cited. Special attention is paid to the scientific-popular text. The author providedexamples for the texts.

Key words*: information, scientific method, scientific-popular method, scientific journalistic method, text, term, statement*

Соат сайин ривожланиб янгиланиб бораётган ахборот технологиялари қурилмалари ахборотнинг ҳар қандай шаклини жамиятнинг барча табақаларига қулай ва оммабоп қилиб қўйди. Саноқли йиллар олдин фақатгина тор доира мутахассисларигагина маълум бўлган илмий атамалар ҳозирги кунда кенг доираларда истифода этилмоқда. Смартфонлар, планшетлар, рақамли телевидение, интернет ва бошқа оммавий ахборот воситалари орқали узатилаётган илмий контентлар тилда илмий публицистик, илмий оммабоп каби илмий услубнинг янги тармоқлари пайдо бўлишига олиб келди.

Адабиётлар таҳлили

Илмий матн ва унинг турларига тилшунос олимлар томонидан турлича изоҳлар берилган. Рус тилшунослари Н.С.Валгина, М.П.Сенкевич, М.Н.Кожина, Д.Е.Розенталь, Л.К.Граудина, ўзбек тилшунослари А.Шомақсудов, И.Расуловлар илмий матнни ўрганишга қаратилган тадқиқотларини олиб боришган. Масалан А. Шомақсудов 1983 йилда нашр этилган "Ўзбек тили стилистикаси" китобида илмий услуб ва илмий матн турлари ҳақида ўз фикрларни келтириб ўтган.

С. Султонсаидова ва Ў. Шариповалар ҳам 2009 йилда нашр этилган "Ўзбек тили стилистикаси" китобида илмий услуб ва унинг турлари ҳақида маълумот бериб ўтишган.

Тадқиқот методологияси

Мақолада ахборот ва унинг турлари, услуб, илмий услуб ва унга мансуб бўлган илмий оммабоп матнлар ҳақида сўз юритилган. Уларнин асосий таркибий омиллари, ўзига хосликлари ва турлари тавсифланади. Илмий матн турларининг ўзига хос жиҳатлари таҳлил қилинди ва тилшунос олимларнинг бу борадаги берган фикрлари қиёсланди. Илмий матн турлари ўрганилди.

Таҳлиллар ва натижалар

Ҳар қандай матн, аввалambор, бирламчи вазифасига кўра ахборот ташувчи ҳисобланади. Ахборот атамасига Ўзбек миллий энциклопедиясида қуйидагича таъриф берилган. "Ахборот - бу оламдаги бутун борлиқ, ундаги рўй берадиган ходисалар ва жараёнлар қақидаги хабар ва маълумотлардир." [15]

The American Heritage dictionary of the English language луғатида ахборотга "Ўқиш, тажриба ёки кўрсатмалардан ва муайян ҳодиса ёки вазиятдан олинган билим" – деб изоҳ берилади. [12]

Атоқли рус тилшуноси Н. С. Валгина ахборотни қуйидаги турларга ажратади:

1. Билимнинг эмпирик даражасига мос келадиган фактик ахборот
2. Билимнинг назарий даражасига мос келадиган концептуал ва фаразий ахборот
3. Ахборотни ўзлаштиришни усулларини тавсифини ўз ичига оладиган услубий ахборот
4. Ҳиссий, ахлоқий ва эстетик категорияларга алоқадор ахборот.
5. Муайян ҳаракатларга йўналишни ўз ичига олган инструктив ахборот [2]

Санаб ўтилган ахборот турлари ҳар хил турдаги матнларда алоҳида ёки барчаси биргаликда бўлиши мумкин. Масалан, илмий матнлар кўпинча фактик, назарий ва фаразий маълумотларни ўз ичига олади. Ахборотнинг фактик ва эстетик турлари адабий матнларга хосдир. Услубий маълумотлар ўқув-услубий матнлардир.

Тилшунослар учун илмий тадқиқотлар мавзуси бўлган илмий услуб, биринчи навбатда илмий, илмий-техник ва оммабоп фан соҳасида ишлатиладиган ўзига хос нутқ техникаси тўплами бўлиб, мазмун ва мақсадда турли ғоялар, фаразлар ва ютуқларни ифодалаш ва шакллантириш учун ишлатилади. [14]

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ўзбек тилшуноси Анвар Шомақсудов 1983 йилда нашр этилган Ўзбек тили стилистикаси китобида илмий услуб ҳақида қуйидаги фикрларни келтириб ўтади.

“Илмий услуб (ёки илмий баён услуби)да табиат ва ижтимоий ҳаётдаги ҳодисалар аниқ таърифланади, тушунтирилади. Бу услуб ўзининг алоҳида махсус вазифага эга эканлиги билан ажралиб туради. Илмий услуб илмий терминология билан боғлиқ. Одатда терминлар илмий услубнинг сўз бойлигини ташкил қилади. Лекин илмий асарлар тили фақат терминлардангина ташкил топмай, унда нейтрал лексика ва кўп маънолилик хусусиятига эга бўлган умумхалқ сўзлари ҳам кенг қўлланади.” [9]

Илмий матн - бу ҳис қилиш ва баҳолаш учун тегишли малакага эга бўлган кишилар доираси учун яратилган тадқиқот фаолияти ёки фаолият натижаси. Буни иложи борича информацион қилиш учун муаллиф ёзма нутқнинг махсус воситалари ва материалларни тақдим этиш усулларини қўллаши керак. Кўпинча, илмий матн – нашр этилган ёки чоп этишга мўлжалланган иш. Илмий матнлар баъзан оғзаки тақдимот учун махсус тайёрланган материалларни, масалан, конференция ёки академик маъруза ҳисоботларини ҳам ўз ичига олади.

Илмий услубнинг характеристик хусусиятлари – оҳанг, объектив ёндошув ва ахборотнинг бетартиблиги, матннинг тузилиши, терминологиянинг мавжудлиги ва олимлар ўртасида материалларнинг мантиқий ва етарлича тақдим этилиши учун қабул қилинган махсус тил воситаларидир.

Илмий услубдаги асарларнинг ёзма шаклининг тарқалиши уларнинг мазмуни ва дизайнининг ҳақиқийлиги, вазияти, аниқлиги билан белгиланади.

Илмий матнларни турлари бўйича тақсимлаш, биринчи навбатда, кўп фанларда тасвирланган объектлардаги фарқлар, олимлар тадқиқот фаолиятларининг мазмуни, потенциал аудитория истиқболлари билан изоҳланади. Илмий матнларни илмий-техник, илмий-гуманитар, илмий –табиий турларга ажратадиган асосий хусусиятлар мавжуд.Уларни яна ҳар бир фанга тегишли бўлган алгебра, ботаника, сиёсатшунослик каби субкатегорияларга бўлиш мумкин.

М. П. Сенкевич ёзма матннинг илмийлик даражасига кўра илмий услуб турларини тузди ва уларни қуйидаги типларга ажратади:

1. ҳақиқий илмий услуб(академик) тор доирадаги мутахассислар учун мўлжалланган ва муаллифлик монографиялари, мақола ва илмий маъруза контсепциясини ўз ичига олган жиддий асарлар учун хосдир.

2. Илмий натижаларни тақдим этиш ёки умумлаштириш мақсадидаёзилган иккиламчи ахборот материаллари(тезислар, изоҳлар).Улар илмий-информацион ёки илмий-хулосавий услубда яратилади.

3. Айрим реклама ва илмий соҳаларда муайян маҳсулотларнинг ўзига хос афзалликларини акс эттирувчи саноат рекламаси – унда технология, электроника, кимё, фармакология ва бошқа илғор илм соҳаларидаги янги ютуқлар акс этган бўлади.

4. Илмий маълумотномалар шаклидаги матнлар (маълумотномалар, тўпламлар, луғатлар, каталоглар ва бошқ.) Ўқувчиларга жуда аниқ, қисқартирилган, асосий маълумотларни тақдим этади.

5. Таълимда қўлланиладиган илмий адабиётлар, бунда фан базалари бўйича яратилган ва иллюстратив элементлар ва материаллар (турли таълим муассасалари учун ўқув адабиётлари) беради ва матнга дидактик компонентлар қўшилган бўлади.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

6. Илмий-оммабоп адабиётлар таниқли кишиларнинг таржимаи ҳолини, турли ҳодисаларнинг келиб чиқиши тарихини, воқеалар, кашфиёт ва ихтироларнинг келиб чиқишини тақдим этади ва иллюстрация, мисоллар, тушунтиришлар орқали кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган дир. [13]

Анъанавий амалий стилистикада илмий услубнинг мавжудлиги умумэътироф этилган.Аммо унинг субкатегорияларининг сони ва ўзига хос жиҳатлари бир биридан жуда фарқ қилади. Масалан, илмий услуб доирасида М.Н.Кожина учта асосий кичик услубни ажратиб кўрсатади: ҳақиқий-илмий, илмий-ўқув ва илмий-оммабоп. [6] *Д.* Е. Розенталь эса уларни илмий-оммабоп, илмий иш услуби, илмий публицистик, илмий-техникавий, илмий ўқув каби тагуслубларгабўлади. [8]

Л. К. Граудина муҳаррирлигида олий ўқув юртлари учун нашр этилган “Рус тили нутқ маданияти” дарслигида илмий услубнинг ҳақиқий илмий, ўқувилмий ўқув, илмий-информатив, илмий-оммабоп, илмий-маълумотнома каби турларини беради. [4] Кўп жиҳатдан, бу тагуслубларни ажратиш мезонларининг ноаниқлиги билан боғлиқ. Илмий-оммабоп матннинг стилистик мақоми ҳозиргача тилшуносликда илмий мунозаралар мавзуси бўлиб қолаётгани бежиз эмас. Баъзи олимлар бу матнларни илмий-оммабоп услублар деб ҳисоблашса, бошқалари нутқнинг бу турини мустақил амалий услуб деб ҳисоблашади. Шу билан бирга, илмий оммабоп тагуслубни ажратиб кўрсатишнинг асосий сабаби анъанавий равишда илмий матннинг профессионал бўлмаган шахсга йўналтирилганлигидадир. [3]

С. Султонсаидова илмий услубни илмий-техникавий, илмий-оммабоп, илмий-ўқув, илмий-публицистик ва илмий-ҳужжат тагуслубларига бўлади. [10]

Илмий-оммабоп матн – фан асослари, фан, маданият ва амалиётдаги назарий ва экспериментал тадқиқотлар бўйича материалларни ўз ичига олган, билимларни кенг афкор оммага тарқатиш ва мустақил ўқиб ўрганишгамўлжалланган нутқнинг шаклидир.

Илмий-оммабоп матнларнинг мақсади илмий фактлар ва маълумотларни, яъни, илмий билимларни кенг ўқувчилар доираси учун очиқ шаклда, нафақат маълумотни тушунарли тақдим этишни, балки ушбу тақдимотга қандайдир ҳиссиёт ва тасвирни беришни ҳам назарда тутади. Услубнингэмоционаллиги ва образлилиги матнни жонлантиришга, ўқувчини қизиқтиришга, унинг эътиборини муайян фактлар ва хулосаларга қаратишга ёрдам берадиган, шунингдек, муаллифга ўз фикрини ифода этишга имкон берадиган турли хил стилистик воситалар орқали ўқувчиларнинг қизиқиши, диққат-эътибори ва ишончини қозонади ва шу муносабатда тушуниш мумкинки, илмий-оммабоп матн илмий услуб ва бадиий услуб ўртасида маълум бир бўшлиқни эгаллайди, чунки когнитив мазмун, аниқлик, равшанлик ва илмий фактларни тавсифлашнинг ва уни тақдим этишнинг илмий услуби билан умумий бўлиб, бадиий адабиётдаги ҳиссийликни, тасвирни, субъектив баҳолашни, баённи бирлаштиради. Бошқача қилиб айтадиган бўлсак, объектив мазмун субъектив усуллар ва ифода воситаларида берилиши мумкин.

Илмий-оммабоп матннинг асосий функцияларидан бири коммуникативликдир, шунинг учун муаллиф матнни ўқувчилар учун тушунарли ва қизиқарли тарзда яратади. [5]

Қуйидаги жадвалда илмий матн матн турларига эътиборимизни қаратамиз.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1-жадвал

Илмий матн турлари жадвали

Илмий-математик	Илмий-техник	Илмий-оммабоп
1-қисмдаги R радиусли шар ҳажмига мос келувчи сув учинчи қисмда ўлчами kR га тенг бўлган кубнинг $\frac{1}{6}$ қисмини ифодалайди. R ва kR ўлчамлар сувли ҳисоблагичда аниқ кўринганлиги сабабли, k ўзгармасни топишимизга имкон туғилади. [7]	Юқорида қайд этилган альтернатив усуллар орасида метан (табиий газ)ни оралиқ маҳсулот метилхлорид орқали этиленга айлантириш энг истиқболли усул ҳисобланмоқда. Метилхлоридни каталитик пиролиз қилиб **C2-C4** алкенлар олишда ҳозирги вақтда юқори кремнийли цеолитлар юқори каталитик фаолликка эга [6-7]. [11]	Тинберген она ғозлар нафақат тухумларни, балки уяси яқинилаги биллиард шарчаси ёки шиша лампаси каби бошқа ҳар қандай думалоқ объектларни ҳам ўз уясига олиб кетишига гувоҳ бўлди. Юмалоқ объект қанчали катта бўлса, ғоз уни уясига олиб кетиш учун шунчалик кўпроқ уринади. [1]

Илмий услубнинг тагуслублари бўлган илмий техник, илмий математик ва илмий-оммабоп матнларда ўзига хос фарқлар бор. Бу тафовутлар баён қилиш услуби ва фойдаланилган лексик бирликларда кўринади. Бинобарин, бу услублар илмий услубнинг кўринишлари бўлгани учун, уларда илмий услубга хос умумий хусусиятлар мавжуд.

Хулосалар

Мақолада ахборот ва унинг турлари, услуб, илмий услуб ва унга мансуб бўлган илмий-оммабоп матнлар ҳақида қисқача маълумот берилди. Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, ўтган асрнинг йигирманчи йилларидан бошланган фан ва техниканинг жадал ривожланиши жамиятда ахборотнинг қиймати, миқдори, ўрни ва кўлами кескин ошишига сабаб бўлди. Бу ўз навбатида эришилган илмий билимларни жамият аъзолариша етказиш заруратини туғдирди. Шу тариқа илмий услубнинг янги тармоғи – илмий оммабоп услубнинг пайдо бўлишига замин яратилди. Мақолада фойдаланилган манбалардан кўриниб турибдики ўзбек тилшунослигида илмий-оммабоп услуб тадқиқи алоҳида янги тадқиқотларга мавзудир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ж. Клир Атом одатлар. AsaxiyBooks Т. 117 б.

2. Валгина, Н.С. Теория текста / Н.С. Валгина. // М.: Логос, 2003. – 191 б.

3. Воронцова Т.А. Научно-популярный дискурс в современных российских СМИ (проблемы жанра и стиля). 2014. № 6(335). 38-42 б.

4. Граудина Л.К. Культура русской речи. М., 2001. – 195 б.

5. Гришечкина Г.Ю. Некоторые особенности синтаксиса в научно-популярном тексте. 2009. №3. 103-109 б.

6. Кожина М. Н. Стилистика русского языка. М., 2008. 84 б.

7. НамДУилмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2020 йил 12-сон 10 б.

8. Розенталь Д.Э. Справочник по русскому языку, Практическая стилистика. М., 2001. 381 б.

9. Ўзбек тили стилистикаси А. Шомақсудов ва бошқ. Ўқитувчи, Т. 1983. 24-б

10. Ўзбек тили стилистикаси С. Султонсаидова ва бошқ., Т. 2009. 20-б

11. “Фан ва технологиялар тараққиёти” Илмий–техникавий журнал №3/2021 41 б.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

12. The American Heritage dictionary of the English language. Third edition.
13. https://b1.cooksy.ru/articles/yazykovyh-osobennostyah-nauchnogo-stilya-rechi-na-leksicheskom/
14. https://uz.delachieve.com/ilmiy-uslub-xususiyatlari-ilmiy-uslub-lingvistik-xususiyatlari/
15. https://uz.wikipedia.org/wiki/Axborot

ЎРХУН-ЭНАСОЙ БИТИКЛАРИДАГИ ҲАРБИЙ ҚУРОЛ-ЯРОҒ НОМЛАРИНИ АНГЛАТУВЧИ ТЕРМИНЛАР

Дустмуродов Маъруфжон Мансур ўғли
Мустақил изланувчи, ЎзДСМИ
E-mail: maruf_dust@mail.ru

Аннотация. *Қадимги туркийларда ҳарбий терминлар тизими қандай шаклланганлигини, уларнинг келиб чиқиши, у ёки бу лавозим қандай вазифани бажарганлигини, умуман соҳа терминларининг семантик-функционал ва этимологик жиҳатларини аниқлаш қадимги туркларнинг давлатчилик анъаналарини, қолаверса, ҳозирги туркий тилларнинг ҳарбий терминологияси эволюциясини янада ойдинлаштиради. Бунда Ўрхун-Энасой битиктошлари муҳим манба бўлиб хизмат қилади. Ушбу тошбитиклар дастлабки ёзма ҳужжатлар сифатида туркийларнинг сиёсий ва ҳарбий ҳаётидаги илк намуналардир.*

Ушбу мақолада битиктошлардаги қурол-яроғ, асбоб-анжомларни англатувчи айрим терминлар семантик-функционал ва этимологик жиҳатдан тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: *терминология, ҳарбий терминлар, Ўрхун-Энасой битиктошлари, Турк хоқонлиги.*

Дустмуродов Маруфжона Мансура огли
Независимый исследователь, УзГИИК

Аннотация. Выяснение того, как формировалась система воинских терминов у древних тюрков, их происхождение, какую функцию выполняла та или иная должность, а также семантико-функциональная и этимологическая стороны терминов поля в целом, позволит дополнительно уточнить традиции государственности. древних тюрков, а также эволюция военной терминологии современных тюркских языков. Важным источником служат эпитафии Орхун-Енисей. Эти каменные надписи являются первыми образцами политической и военной жизни тюрков, а также первыми письменными документами. В данной статье с семантико-функциональной и этимологической точки зрения исследуются некоторые термины, относящиеся к оружию и орудиям труда в надписях.

Ключевые слова: терминология, военные термины, Орхунско-Енисейские надписи, Тюркские каганства.

Dustmurodov Marufjon Mansur ogli
Independent researcher, UzSIAC

Annotation. *Determining how the system of military terms was formed in the ancient Turks, their origin, what function this or that post performed, and the semantic-functional and etymological aspects of*

the terms of the field in general, will further clarify the traditions of the statehood of the ancient Turks, as well as the evolution of the military terminology of modern Turkic languages. Orhun-Enasoy epitaphs serve as an important source. These stone inscriptions are the first examples of the political and military life of the Turks as the first written documents. In this article, some terms referring to weapons and tools on inscriptions are studied from a semantic-functional and etymological point of view.

Key words: *terminology, military terms, Orhun-Enasoy inscriptions, Turkic khaganate.*

Сиёсий ва ҳарбий терминлар ҳудудий жиҳатдан кенг минтақада ҳукм сурган давлатлар учун катта аҳамиятга эга. Тарихий ривожланишлар жаҳон давлатларида маъмурий-ҳарбий истилоҳлар ҳукмрон табақа ва фуқаролар ўртасидаги туб боғлиқликни кўрсатади. Қадимги туркий тилда ҳарбий қурол-аслаҳа *tolum* истилоҳи билан аталган. Ушбу сўздан ясалган *tolumluγ* “қуролли, қурол-аслаҳага эга” ҳамда *tolumlan*= терминлари ҳам қўлланган [ДТС, 573-574]. Битикларда *yaraq* “қурол-аслаҳа” истилоҳидан *–lıγ* суффикси билан ясалган *yaraqlıγ* “ҳарбий қурол-аслаҳага эга” термини ҳам мавжуд. *“Yaraqïnta yalmasïnta yüz artuq oqun urtï”* [КТ, 33]. *yaraq* терминидан ҳосил қилинган *yaraqlıγ* деривати “қуролли, зирҳли” маъносини англатган:*“yaraγlïq qantan kälip yanya ältdi”* [КТ, 23]. Келтирилган биринчи жумлада ишлатилган *yalma* лексемасини айрим туркологлар “қалқон”, “зирҳ-совут” маъносини англатишини таъкидлаганлар. Э.Айдин ва ДТСда ушбу сўз “ёпинчиқ, чопон” шаклида изоҳланган. Маҳмуд Кошғарий ДЛТда ушбу сўзга “пахтали тўн” дея таъриф берган [ДЛТ. III, 41-20]. Ҳ.Дадабоевнинг фикрича, қадимда зирҳ тагидан, албатта, пахтали камзул кийилган ва совутнинг яланглигидан ҳимоялаган. *Yaraq* истилоҳи ҳозирги ўзбек тилида битиклардаги маъносида ва бироз шаклан ўзгаришли ҳолда сақланган. Ҳозирги ўзбек тилида *яроғ* сўзи “ҳужум ёки ҳимоя қилиш учун ишлатиладиган асбоб” [ЎТИЛ, V], шунингдек, “ҳар қандай соҳада керак бўладиган жиҳоз-асбоб” маъноларида ишлатилади. Эътиборли жойи шундаки, эски ўзбек ва Ҳозирги ўзбек тилида ҳам “бирор иш-фаолиятда ёки ҳолатда нафи тегиш” маъносидаги *ярамоқ* феъли ҳам борки, юқоридаги “*yaraq – yaraγ – yaroγ*” сўзлари айнан *yara*= асосидан ясалган. Мавзуий гуруҳни ташкил этувчи терминларни вазифа нуқтаи назаридан қуйидагича икки турга ажратиш мумкин:

а) ҳужум қурол-яроғи номларини англатувчи терминлар. Бу семантик гуруҳга битиклардаги *oq* (ўқ); *süŋüg* (найза); *qïlïč* (қилич) каби терминларни киритиш мумкин. Қадим туркларнинг асосий жанг қуролларидан бирини англатган *oq* термини Кул Тегин битигида тилга олинади: *“Yaraqïnta yalmasïnta yüz artuq oqin urtï”* (КТ, 33). Жумладаги *oqun* сўзи “*oq* – ўқ, *-in* – восита келишиги” шаклида қўлланган. Термин ДЛТда айни битиклардаги маънода (ўқ – стрела) изоҳланган [ДЛТ, I. 73-6]. Ушбу сўз “Қутадғу билиг”да ҳам тилга олинади: *“Bu dünja iči oq jïlan* – Бу дунё ичи – ўқ илон” [QBN, 389$_5$; QBN, 5308]. Лексема ҲЎТда мавжуд бўлиб, айнан битиклардаги ва бошқа кўчма маъноларда қўлланилади.

Шунингдек, Кул Тегин битигида *“äkin ara idi oqsïz kök türük anča olurur ärmis”* жумласидаги *oqsïz* сўзини айрим туркологлар, жумладан, Ҳ.Ширин “қабилавий ташкилоти бўлмаган” маъносида олади ва сўзнинг ўзаги ҳисобланган *oq – ўқ*ни юқоридаги қурол-яроғ маъносидан метафоралашиб, “асос, пойдевор, суянчиқ”, “ташкилот” маъноларда қўлланилганини қайд этади [16, 258]. Ғ.Абдураҳмонов ушбу *oqsïz* сўзини ҳўжайинсиз (ҳеч кимга тобе бўлмай), деб табдил қилган [8, 103]. Бизнингча, жумладаги *oqsïz* сўзини бу ўринда (тўрт томондан қуршаб, душманларни тўлиқ қўлга киритганлиги сабабли) “душмандан

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

доимий ҳимояланиш учун ҳеч қандай ўқ – қурол-яроғга эҳтиёжсиз” маъносида тушуниш тўғрироқ бўлади.

Битиклардаги *süŋüg* термини қадим туркларнинг асосий жанг қуролларидан бири бўлган *найза*ни англатади. Ушбу сўздан ясалган *süŋüglüg* истилоҳи эса найза билан қуролланган аскар ёки қўшинни англатган: *“süŋüg batïmï qaqrγ sökürän ...”* [КТ, 35]; *süŋüglüg qantan kälipän sürä ältdi”* [КТ, 23].. *süŋüglüg* истилоҳи *süŋüg* “найза” асосига *–lüg* асосдан англашилган нарсага эгаликни билдирувчи сифат ясовчи қўшимчанинг қўшилувидан ясалган ва “найзали; мусаллаҳ” деган маънони англатган. *süŋüg* истилоҳи *süŋ=* феълидан ясалганлиги эҳтимолдан ҳоли эмас. *süŋüg* битикларда бир неча ўринда тилга олинади: *““usïn süŋügün ačdïmïz* – уйқусини найза билан очдик” [Тўн, 28]; “*tişläri uzayu süŋü učï täg boltuqda* – тишлари ўсиб найза тиғи каби бўлганда” [АЙ, 34/11]; “*başaqlïg süŋü* – пайконли найза” [*ДЛТ*, 218]; “*yagusa süŋün täggü birsä boyun* – яқинлашгунча найза билан ҳужум этсинки, мағлуб бўлсин” [ҚБ, 2376]. “Жанг қилмоқ, лашкар тортмоқ, ўлдирмоқ” ва “жанг, уруш” маъноларида битикларда фаол қўлланган *süŋüš* истилоҳи ҳам *süŋ* феълидан ясалган. Ушбу истилоҳ феъл-исм омоним [синкретизм] ҳисобланади. *Л*ексема ҳозир ҳам бир қанча туркий тил ва лаҳжаларда турли шаклларда ишлатилади: гагауз, озарбайжончада – *сүнгү*, туркман, қозоқ, нўғайчада – *сүнги*, қорачой-болқар-қўмиқчада – *сүнгнгү*, татарчада – *сөнге*, бошқирдчада – *ҳөңө*, ёқутчада *үнгӣ* [16, 235].

Хитой йилномаларида турк[тукюе]ларнинг қурол-яроғлари ўқ-ёй, тўқмоқ, зирҳли совут, узун суворий найза ва қиличлардан иборат экани кўрсатиб ўтилади [14, 21]. Жумладан, “Тан шу” йилномасида “*Жангчи асбоби сифатида шохсимон шаклли овоз чиқарадиган ўқ-ёй, қалқон, найза ва қиличлар мавжуд*” мазмундаги маълумот хоқонлик қўшинларининг ҳарбий жиҳатдан қандай тайёргарликка эга эканидан далолат беради [17, 97]. Таҳлил қилинаётган термин термин XI-XIV аср эски туркий тил манбаларида *süŋü* шаклида учрайди ва “найза” маъносини англатади [*ДЛТ*, III, 379-12].

б] ҳимоя қурол-яроғлари номини англатувчи терминлар. Ушбу мавзуий гуруҳга *asuq* [ҳарбий бош кийим: дубулға]; *kädim* [зирҳ, ҳарбий кийим – совут, баргустувон, жабдуқ] терминларини киритиш мумкин. Битикларда қўлланган ҳарбий истилоҳларнинг бир қанчасини қурол-аслаҳа номлари ташкил этади. “Темирдан ясалган ҳарбий бош кийим”, яъни “дубулға” маъноси *asuq* истилоҳи билан англашилган. Истилоҳ Тўнюуқуқ битигида учрайди: *“anta bärüki asuq başlïg Soγdak bodun qop kälti”* – ўшанда ажраладиган чоки (бор) дубулға бошлиқ (бошига кийган) Суғдоқ халқи ҳаммаси келди” [Тўн, 46]. Жумладаги *asuq* ва унга ёндош сўзларнинг ўқилиши бироз баҳслидир. Э.Айдин ва бошқалар (Аалто: *asuq:* ўзгаларда *suq* ва *soq*) [8, 85] бу жумлани *“anta bärüki asuq başlïg Soγdak bodun qop kälti* – у ердан бу ерга Ашок[27] бошлиқ (бошчилигида) Суғдоқ халқи кўп келди” [2, 13] тарзида ўқийди. *asuq*ни Ғ.Абдураҳмонов ва А.Рустамовга кўра, баъзи тадқиқотчилар бу сўздан кейин “бошлиқ” ва “Суғдақ халқи” сўз ва бирикмалари бор учун *(а)суқ*ни киши номи деб тушунганлар. *Л*екин “фалончи бошлиқ...” ибораси ҳозирги тилларга хос [8, 85]. Бу фикрни нисбатан асосли, деб ўйлаймиз, чунки *asuq* сўзи XI аср ҳужжатларида ҳам *ašuq* шаклида тилга олинади. Жумладан, *ДЛ*Тда *ašuq* истилоҳи “темир қалпоқ, дубулға” маъносини ифодалаши таъкидланган [*ДЛТ*, I, 97-27].

[27] Яъни Ашокка бу ерда муайян қабила номи сифатида қарайди.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

kädim Кули Чўр битигида отнинг зирҳли ёпинчиғига нисбатан ишлатилган: *"özlüki boz at ärti kädim"* [КЧ, 4]. Шунингдек, Мўюн Чўр битигида учрайдиган *"biş yüz kädimlig yadaγ"* [МЧ, 33] жумласида *kädimliγ* термини аскарларнинг совут билан мудофаланганига ишора қилади. Манбаларда "зирҳ, ҳарбий кийим – совут, баргустувон, жабдуқ" маъноларида қўлланган *kädim* термини қадимги туркча *käd=* – "киймоқ" асосидан феълдан от ясовчи *–im* қўшимчаси билан ясалган. Лексема тараққий этиб *käd= > käδ= > käγ= > kiy=* суратида ўзгарган. Ҳозир ҳалач туркчасида ушбу лексема *кəд=* шаклида талаффуз қилинади ва ёзилади. Ҳозирги ўзбек тилида эса *кий=* шаклидадир. *kädim* "Қутуадғу билиг"да ҳам тилга олиниб, "оддий маиший кийим" маъносида ишлатилган. Бундан лексеманинг ушбу даврдан маъно кенгайишига учраганини кўриш мумкин. Қолаверса, асарда лексема таркибидаги *d* фонемасининг *δ* шаклида қўлланилганм кузатилади. *"Eginkä kedim-mä boγuzqa jemi keräk"* [QBH, 104[29]]; *"Jegü ičkü bar tep meniŋ bar keδim"* [QBH, 273[9]]. Шунингдек, асар матнидан *kedti // keδti* – кийди, *kedgüsi* – кийими, *kedgülük* – кийимлик, *kedür // keδür*– кийдир, *keδüt* – кийим, халат каби сўзлар ҳам жой олган. Кул Тегин битигида *kädim*га *–liγ* қўшимчасини қўшишдан ҳосил бўлган *kädimliγ* "совутли, зирҳли" деривати иштирок этган.

Битиктошлар матнини илмий асосда ўрганиб, асар муаллифларининг нутқий маҳорати, ўша давр тил кўриниши, сўзларнинг тарихий тадрижи каби масалаларни муҳим жиҳат сифатида кўрсатиш мумкин. Булардан келиб чиқиб, ёдгорликлар тили ва тошбитиглар ўрнатилган даврларда туркий халқларда ҳарбий ишни қандай даражада бўлганлиги ҳақида нисбатан тўла хулосаларга келиш мумкин. Ҳар бир соҳадаги муайян тушунча ўша фаннинг илмий терминологиясида ўз ифодасини топади. Шу нуқтаи назардан қадимги туркларнинг ҳарбий ишдаги маҳорати, тамаддунини Турк хоқонлиги ҳарбий тизимидаги мавжуд терминларда кўриш мумкин;

Фойдаланилган адабиётлар

Балоғат – бир-бирини тўлдирувчи учта илм: *илми маоний, илми баён* ва *илми бадиъдан* таркиб топган. Илми маонийда сўзларнинг ишлатилиш усуллари ва баъзи сўзларнинг ўрни ва салмоғи ҳақида баҳс юритилади. Илми баён эса, керакли мақсадни ифодалаш ва етказишда, шунингдек, таъсирини оширишда сўзларнинг ҳақиқий ва кўчма маъноларидан фойдаланиш усулларини; илми бадиъ эса, илми маоний ва баёнлардан фойдаланган ҳолда гапириладиган ёки хатга тушириладиган мақсадларни баён қилиш услублари ҳақида баҳс қилади [4]. Араб адиблари тилни билиш даражасини иккита деб биладилар: 1. *Фасоҳат* الفصاحة – грамматик қоидаларни ва сўзларни маъноларини бузмай тўғри сўзлаш ва ёзишдир. Бу даражага етганларни *фасиҳ* فصيح деб атайдилар. 2. *Балоғат* البلاغة – тўғри ва ўз ўрнида гапириш ва ёзишдир. Бу даражага етганлар *балиғ* بليغ (етук, камолга етган) деб аталадилар [13:11]. Олимлар таъкидлашларича, "Балоғат илмини таҳсил қилиш орқали Қуръони карим ва ҳадиси шарифлар маъноларини тўғри тушуниш ва нозикликларини теран англаш осон кечади ҳамда Қуръони каримнинг фасоҳат ва балоғат эътиборидан иъжози (мўъжизакорлиги) кашф бўлади. Мумтоз адибларимиз умуман сўзнинг иъжоз //эъдоз мақомини, бунинг балоғат билан ҳосил бўлишини алоҳида уқтириб келганлар. Масалан, Алишер Навоий ёзади:

Чун хайли башарға нутқ комин берди,
Ул нутқ ила назм иҳтиромин берди.
Назм ичра *балоғат* интизомин берди,
Таркибида *эъжоз мақомин* берди [6:4],

Фасоҳат – гўзал ва равон нутқ. Ҳар бир сўзни ўз ўрнида ишлата билиш, оғзаки нутқда эса оҳанг ва ишоралардан тўғри фойдалана билиш ҳам фасоҳат саналади. Мумтоз адиблар, хусусан, Алишер Навоий фасоҳат тушунчасига яна ҳам кенгроқ маъно юклайди. Ҳазрат Навоий наздида шоир шеърларининг таъсирли, фасоҳатли бўлиши унинг ақидасига боғлиқ. Шунинг учун илк девони "Бадойеъ ул-бидоя" "Дебоча"сини "Фасоҳат девонининг ғазалсаройлари табъ махзанидин шўридаҳол ошиқлар хирмани жонига ўт солғудек бир оташин лаъл назм силкига торта олмағайлар, агар сўз дебочасин ул Сониъ жавоҳири ҳамди била мурассаъ қилмағай" [7:6]– деб бошлагани бежиз эмас.

Микроматнинг кейинги щринларида ҳам бир неча маърифий истилоҳларга дуч келамиз: "Андоққим, бири *муршиди роҳи ҳақиқат, маркази доирайи тариқат, ҳожийи ҳарамайни-ш-шарафайн, маржаъу-л-хафақайн, фуқаҳо хайли*ға фойиқ Хожа Муҳаммад Содиқ *эшони қози калон* ва бири фатонатасари шариатпарвар Шамсуддин *қозийи аскар* ва бири мутаъллломакон ва диёнатнишон *қози* Эшвайс *эшон* ва бири фаросатойини *фақоҳатталқин* Хожа Низомуддин *муфтийким*, бу мазкур бўлған жамоанинг ҳар бири *ҳидоят* осмонининг ахтари жаҳонтоби ва *шариат* уммонининг гавҳари сероби эрдилар. (287а-б)

Парчадаги *муршиди роҳи ҳақиқат* бирикмаси форсий изофий занжир шаклидаги тузилишига кўра мураккаб фалсафи-маърифий истилоҳ саналади ва ҳақиқат (Ҳақни англаш) йўлида тўғри издан олиб борувчи маъносини англатади. Зеро, унинг ўзаги *Муршид* истилоҳига жуда кўплаб таърифлар берилган. "Тасаввуф атамалари луғати"да уларнинг бир қисми умумлаштирилган [5: 731-732].

]. *Мурид* тариқат одобига кўра маълум бир шайхга боғланиб, ақлу иродасини Ҳақнинг мутлақ иродасига бўйсундирган ва сулук мартабасини эгаллаган киши [10:295]. *Мурид* тушунчасига оид айрим изоҳлар, масалан, Зуннун Мисрий фикри Алишер Навоийнинг "Насойиму-л-муҳаббат" асарида келтирилган: "Шайх Форис дебдурким, Шайх Ҳусайн

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Мансурдин сўрдумки, *мурид* кимдур? *Ул* дедиким, *мурид* улдурким, аввалдин нишони қасди Аллоҳу таолони қилғай ва анга етмагунча ҳеч нима била ором тутмағай ва ҳеч кишиға машғул бўлмағай" [8:108-109].

Огаҳийда *муршиди роҳи ҳақиқат* бирикмаси салаф ижодкорлар, хусусан, Фузулий девони муқаддима ғазали матласидаги "*Солики роҳи ҳақиқат* ишқа айлар иқтидо" [11:27] мисрасини эслатади.

Мазкур воқеа баёни мутолаасида давом этамиз: "Чун ул ҳазрат ишорати мужиб мажлиси равзатазйин садрида уламойи ҳақиқатбин ва умаройи жалодатойин ҳар бири бир тарафда саф тузуб, тамкини тамом била маснаднишин ва оромгузин бўлуб, диққатшунос олимлар ва масиҳоанфос фозиллар жустужўйи тамом била мазкур бўлған тўрт китобнинг дарсгўйлигига машғул бўлуб, дақиқ иборатлар пардасидин муҳим маънилар шоҳидларин қавий фикрлар муованати била зуҳур манзарасида жилвагар ва рангин нукталар гулшанидин бадеъ мазмунлар гулларин фасоҳат насими эҳтирози била атргустар қилиб, мажлис аҳли кўнгулларига ҳаловат ва жонлариға роҳат еткурдилар". (287б)

Парча мазмунидан давр маърифий муҳитини тасаввур қилишга ва маърифий-фалсафий атамаларни шу билан боғлиқ равишда талқин қилишга ҳаракат қиламиз: хон ишораси билан олимлар бир тараф, амирлар (ҳарбийлар) бир тарафда саф тортиб ўтирди. Демак, бу икки тоифа мамлакат мадори, асоси саналган. Олим ва фозиллар айтиб ўтилган тўрт китоб бўйича даргўйлик қиладилар. Эътибор қаратишимиз керак бўлганлар маърифий истилоҳлар:

Дақиқ иборатлар – нозик иборалар, чуқур маънога эга истилоҳлар.

Маъни шоҳидлари – маъно гўзаллари, яъни киши диққатини тортадиган маънолар

Қавий фикрлар – кучли фикрлар.

Нукта – нозик сўз.

Бадеъ мазмун – янги мазмун

Мажлис аҳли – маърифий суҳбат иштирокчилари.

Кейинги парчада ҳам шу тариқа маърифий истилоҳлар кўп ишлатилган: "Ва баъзи *салимзеҳн* ва *мустақимтабъ навтолибларким*, садаф янглиғ маъоний дурарининг толиби ва табиатлари маъшуқлари орази мисллик *мазомин* зеварининг роғиби эрди, ҳар қайси ўз қадриятиға кўра *мумайязлар* ҳузурида *дарс айтурға* мутасадди бўлған *фузалойи* дироятинтимоға ҳар тарафдин наргисдек нигоронлиғ била савсан янглиғ тил очиб, бетаваққуф *мунозара* ва *муколама* русумин ошкор қилиб, ҳаё-ҳў ва *гуфтугў* замзамасин падидор этдилар ва муддао *исботида* бир неча *жавобу савол* ва *баҳсу жидол радду бадал* қилиб, *мусоҳаба* алолоси била фазлу камол бозорин қизиттилар". (287б)

Салимзеҳн – зеҳни соғлом, қунтли (талаба).

Мустақимтабъ – табиати соф, ростгўй.

Навтолиб – мадрасага янги кирган талаба.

Мазомин – мазмунлар.

Мумайязлар – дарс олиб боришга масъул қилиб белгиланган кишилар.

Дарс айтмоқ – дарс бермоқ.

Фузало – фозиллар.

Мунозара – бирор масалани кўриб чиқиш.

Муколама – бирор мавзу юзасидан гаплашиш.

Гуфтугў – форсча, "муколама"нинг маънодоши.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Жавобу савол – савол ва жавоб. Матнда *баҳсу жидол*га оҳангдошлик учун *жавобу савол* шаклида келган.

Баҳсу жидол – бирор масала юзасидан кескин мунозалар. Бирор масала орасида жидол қилиш *мужодала* деб аталган.

Радду бадал – бирор бир фикрни рад этиш ҳамда айтилган фикр ўрнига бошқасини билдириш. *Бадал* сарф, наҳв, кемасозлик соҳалари термини ҳам бўлиб, уларнинг барчасида истилоҳий маъно – "алмашлаш", "ўрнига қўйиш" орқали ҳосил қилинган.

Мусоҳаба – суҳбатлашиш. Суҳбат илм-маърифат ҳосил қилишнинг самарали воситаларидан саналган. Н.Комилов "пир ва муридлик муомаласида қуйидаги уч нарсага диққат қилинганини кўрамиз; биринчиси – *суҳбат таълими*, иккинчиси – хирқа кийгизиш, учинчиси – зикр талқини" –деб ёзади [9:26]. Демак, мусоҳаба маърифий-фалсафий термин сифатида руҳий камолот босқичларидан бирининг номидир.

Кўринадики, Огаҳий тарихий асарларида маърифий-фалсафий истилоҳларнинг қўлланишида воқеалар баёни, яъни вазиятнинг ўрни ва аҳамияти ниҳоятда катта. Муаррих маърифий-фалсафий атамалар билан боғлиқ равишда таносуб, ийҳом, тавзеъ каби санъатларнинг гўзал намуналари ҳам яратиб, ўз ижодий салоҳиятини яна бир намойиш қилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. http://fitrat.uz/saduddin-taftazonijning-ilmij-merosi/
2. http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/3307-sa-duddin-at-taftazonijning-ilmij-merosi
3. https://islom.uz/maqola/3715
4. https://islom.uz/qomus/1685
5. Metinlerle Tasavvuf Terimleri Sözlüğü . Birinci Baskı. – İstanbul, Agustos, 2006. – S. 731-732.
6. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Учинчи жилд. – Тошкент, 1989. –Б. 4
7. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 6.
8. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн еттинчи том. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 108-109.
9. Комилов Н. Тасаввуф.– Тошкент: Movarounnahr – O'zbekiston, 2009. – Б. 26.
10. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – М.: Наука, 1989. – С. 295.
11. Фузулий. Асарлар. Икки жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Б. 27.
12. Шиҳобуддин Маржоний. Нозура ал-ҳақ фий фарзияти ал-ишаи ва ин лам яғиб аш-шафақ. – Истанбул: Дор ал-ҳикма. 2012. – Б. 17.
13. حفني باصف. قواعد اللغة العربية "البلاغة"- مصر: مكتبة الايمان – المنصورة.2009. – ص.11
14. ریاض الدوله ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти 5364 / II.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ЎЗБЕК ТИЛИДА “ОР-НОМУС” МИЛЛИЙ СТЕРЕОТИПИНИНГ ЛЕКСИК ИФОДАЛАНИШИ

Ҳожиев Юсуф Норқулович
Гулистон давлат университети докторанти, PhD

Аннотация: *Ушбу мақолада ўзбек миллий характери акс этган “ор-номус” стереотипини ифодаловчи лексик бирликлар таҳлил қилинган. Уларнинг этимологияси аниқланган. Синонимик муносабати таҳлил қилиниб, маъно фарқлари аниқланган. Ушбу лексик бирликларнинг гендер хусусиятга эгалиги ҳам очиқланган. Ўзбек тилидаги мазкур стереотип акс этган мақоллар ҳам таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *миллий характер, стереотип, концепт, этимология, лексик бирликлар, мақоллар, гендер хусусият.*

ЛЕКСИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СТЕРЕОТИПА «ЧЕСТЬ» В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Хожиев Юсуф Норкулович
Докторант Гулистанского государственного университета, PhD

Аннотация: *В данной статье анализируются лексические единицы, репрезентирующие стереотип «честь», отражающие узбекский национальный характер. Устанавливается их этимология. Были проанализированы синонимические отношения и выявлены различия в значении. Также раскрываются гендерные особенности данных лексических единиц. Также проанализированы узбекские пословицы, отражающие этот стереотип.*

Ключевые слова: *национальный характер, стереотип, концепт, этимология, лексические единицы, пословицы, гендерная характеристика.*

LEXICAL EXPRESSION OF THE NATIONAL STEREOTYPE "HONOR" IN THE UZBEK LANGUAGE

Khozhiev Yusuf Norkulovich
Doctoral student of Gulistan State University, PhD

Annotation: *This article analyzes lexical units representing the stereotype "honor", reflecting the Uzbek national character. Their etymology is established. Synonymic relations were analyzed and differences in meaning were revealed. The gender features of these lexical units are also revealed. Uzbek proverbs reflecting this stereotype are also analyzed.*

Key words: *national character, stereotype, concept, etymology, lexical units, proverbs, gender characteristic.*

Кириш

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Маълумки, ҳар бир халқда асрлар давомида шаклланиб келган миллий характерларни акс эттирувчи миллий стереотиплар мавжуд. Шулардан бири “ор-номус” стереотипидир.

Ор-номус ифодаси маънони кучайтириш мақсадида маънодош бирликларнинг жуфтлашишидан ҳосил қилинган. Бу бирликлар нутқда **“Номус” концептини воқелантиради.**

“Номус” концептининг моҳияти қуйидаги фреймлардан синтезланади:

1) **номус –** кишининг ўз обрўсини сақлаш туйғуси;
2) **номус** – уят ҳисси;
3) **номус** – қизнинг бокиралик ҳолати.

Маълумки, *номус* сўзи биринчи маъносида *ор* сўзи билан синонимик муносабатга киришади: **Ор 1** Ўзига номуносиб ёки эп кўрилмаган ишдан, нарсадан хижолат тортиш, уялиш туйғуси; уят, номус. **2** Обрў, фахр.

Адабиётлар таҳлили

Сўзларнинг этимологик хусусиятлари хусусида Ш.Раҳматуллаев қуйидагича ёзади:

номус – арабча: “қонун; виждон, диёнат; обрў-эътибор; иффат, бокиралик” (*юн.* nomos — қонун);

ор – арабча: уят, шармандалик, номус; уялиш;

орият *– арабча:* бировдан вақтинча олинган нарса; қарзга берилган буюм;

диёнат – арабча: дин, эътиқод; диний таълимот, ишониш;

виждон – арабча: эҳтирос, ҳис-туйғу; инсоф, диёнат.

Демак, араб тилида *виждон* сўзи *инсоф, диёнат* сўзлари билан, *ор* сўзи *уят* сўзи билан, *номус* сўзи *қонун; виждон, диёнат; обрў-эътибор; иффат, бокиралик* сўзлари билан этимологик жиҳатдан синонимик муносабатда бўлади[28]. Бунда фақат *диёнат* ва *орият* сўзлари этимологик жиҳатдан улардан тубдан фарқ қилиб туради.

Ш.Раҳматуллаев томонидан тартиб берилган этимологик луғатда *диёнат* сўзи берилган. Олим бу ҳақда шундай ёзади: “... Бу сўз *dana*[3] феълининг “илоҳий кучга сиғинди” маъносидан ясалган от бўлиб, “диний эътиқод” маъносини англатади. ЎТИЛда бу сўз маъносининг (I, 233) “виждон, виждонлилик, инсоф” тарзида изоҳлангани тўғри эмас, бундай изоҳлар ЎТИЛга ТжРСдан кўчиб ўтган (ТжРС, 129). Ўзбек тилида *диёнат* сўзидан *диёнатли, диёнатсиз* сифатлари ясалган”[29]. Бунинг сабаби, бизнингча, ушбу луғатлар яратилган даврдаги мафкуравий муҳит ва шароит билан боғлиқ бўлса керак. Зеро, бу сўз 2 томли “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да худди шундай изоҳланган[30], 5 жилдли луғатга ҳам шундай ўтган ва иллюстратив мисоллар билан бойитилган.

Ш.Раҳматуллаевнинг фикрларига қўшимча равишда айтиш мумкинки, “Узбекско-русский словарь”да бу сўз икки маъноли лексема сифатида изоҳланган ва биринчи маъноси *“честность, добросовестность, совесть, честь”* бўлса, иккинчи маъноси “*религиозность, набожность, благочестие*” деб берилган[31]. Назаримизда, ушбу изоҳ ҳар

[28]Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II. Араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар. – Тошкент: Университет, 2003.
[29]Раҳматуллаев Ш. Кўрсатилган луғат. – Б. 107-108.
[30]Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 1-том. – Тошкент: Издателства «Русская язык», –1981. – Б.223
[31]Узбекско-русский словарь. - Тошкент: ЎзСЭ Бош редакцияси, 1988. – Б.120.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ҳолда ижтимоий лисоний онгдаги ҳолатни тўғри акс эттирган. Зеро, ўзбек лисоний жамияти дунёвий давлат бўлганлиги сабабли кенг қўлланишдаги *диёнат* сўзининг биринчи маъноси асосий эканлиги шубҳали эмас. Шунга кўра, *диёнат* сўзи биринчи маъносида *виждон*, иккинчи маъносида *эътиқод* сўзлари билан маънодошлик муносабатида бўлади. Изоҳни эса "эътиқодий виждон" (1) ва "диний эътиқод" (1) деб бериш мақсадга мувофиқ бўлади. *Диёнат* сўзига "виждон, виждонлилик, инсоф" изоҳ бўла олмайди. Бунинг сабаблари:

биринчидан, изоҳда сўзнинг синонимига ишора қилиш унинг моҳиятини очиб бера олмайди. Зеро, моҳиятдаги бир хиллик биттасининг ортиқчалигини кўрсатади. Моҳиятлар эса бир хил бўлиши мумкин эмас;

иккинчидан, кўриб ўтилганидек, изоҳда *диёнат* ва *виждон* сўзларини тенглаштиришда субъективлик устуворлик қилган.

Тадқиқот методологияси

Мақоладада тавсифлаш, қиёслаш, дифференциал-семантик, компонент таҳлил усулларидан фойдаланилган.

Таҳлиллар ва натижалар

"Ўзбек тилининг изоҳли луғати"да берилганидек, биринчи фреймдаги моҳият *орият, диёнат, виждон* сўзлари билан тўла мувофиқ келмайди. Бунга лексикографик далиллар асосида амин бўлиш мумкин. Қиёслаймиз:

Орият 1 Ор-номус; иззати нафс **2** Уят, шарм, ор[32].

Виждон Кишининг ўз хатти-ҳаракати, қилмиши, юриш-туриши учун одамлар, жамоатчилик олдидаги масъулият ҳисси, инсонийликнинг асосий белгиларидан бири; диёнат, инсоф[33].

Диёнат 1 Виждон, виждонлилик, инсоф. **2** Диний қонун-қоидаларга қаттиқ риоя этиш; диндорлик, тақводорлик.

Сўзларнинг ўхшаш ва фарқли томонларини аниқ ва тўла тасаввур қилиш учун уларни жадвалда кузатамиз:

Сўз	***Маънолар изоҳи***	***Ишора қилинган синоними***
Виждон	Кишининг ўз хатти-ҳаракати, қилмиши, юриш-туриши учун одамлар, жамоатчилик олдидаги масъулият ҳисси	*диёнат, инсоф*
Диёнат	Виждон, виждонлилик, инсоф	*виждон, виждонлилик, инсоф*
	Диний қонун-қоидаларга қаттиқ риоя этиш	*диндорлик, тақводорлик*
Орият	Ор-номус; иззати нафс	*ор-номус, иззати нафс*
	Уят, шарм, ор	*уят, шарм, ор*
Номус	Кишининг ўз обрўсини улуғлаш ва ардоқлаш ҳис-туйғуси	*орият, диёнат, виждон*

[32]Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 1-жилд. Б.542.
[33]Кўрсатилган луғат. – Б.177

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

	Хижолат тортиш ҳис-туйғуси	*уят-андиша, шарм, ҳаё, ор*
	Қизнинг поклиги	*бокиралик, иффат, қизлик*

Берилган сўзларни луғатдаги изоҳи асосида қуйидагича таснифлаш мумкин:

– тўла изоҳланган сўзлар: *виждон, номус*;
– қисман изоҳланган сўзлар: *диёнат* (2);
– изоҳланмай, синонимларига тенглаштирилган сўзлар: *орият, диёнат* (1);
– синонимларига қисман тенглаштирилган сўзлар: *диёнат*;
– изоҳдан сўнг синонимларига ишора қилинган сўзлар: *виждон* (диёнат, инсоф), *диёнат* (виждон, виждонлилик, инсоф), *орият* (ор-номус, иззати нафс, уят, шарм, ор), *номус* (орият, диёнат, виждон; уят-андиша, шарм, ҳаё, ор; бокиралик, иффат, қизлик).

Кузатишлардан маълум бўладики, ушбу тизимга кирган сўзларнинг маъно моҳияти талқинида синонимларига ишора қилиш устуворлик қилади. Бу эса тавтологик изоҳ бўлиб, сўзларнинг асл моҳияти очилмай қолишига олиб келган. Назаримизда, ушбу сўзларни яхлит система таркибида қараб, тизимий муносабатларини очиш, этимологик мазмун-моҳияти ва қўлланиш хусусиятларини ўрганиш асосида тегишли лексикографик хулосаларга келиш зарур. Бу “шахс маънавий сифатлари” умумий семали мазкур лексемаларнинг концептуал хусусиятларини дискурсив ўрганиш, таҳлил қилиш учун замин бўлиб хизмат қилади.

“Ўзбек тилининг синонимлари изоҳли луғати”да юқоридаги сўзларнинг изоҳини кузатганимизда қуйидаги ҳолатга дуч келдик:

Номус сўзи берилмагани ҳолда номусли сўзи ҳаёли, ориятли, андишали, иболи (149) сўзлари билан, уят сўзи номус, шарм, ҳаё, ор, орият, андиша, ибо, иснод сўзлари билан (206), виждон сўзи номус (77) сўзи билан синонимик қаторда берилган. Эътиборли жиҳати шундаки, луғатда синонимик қатордаги барча сўзларга битта умумий изоҳ берилган ва уларнинг ўзаро фарқларига қисман ва кўп ҳолларда юзаки тўхталинган. Масалан:

“УЯТ, НОМУС, ШАРМ, ҲАЁ, ОР, ОРИЯТ, АНДИША, ИБО, ИСНОД Изза ҳисси, ҳижолатлик, уялиш ҳисси. Уят кенгроқ тушунчага эга. Шарм, ор, ҳаё сўзлари якка ҳолда ҳам қўлланади. Шарм, ҳаё сўзлари кўпинча жуфт сўз ҳолида (шарм-ҳаё) қўлланади. Ор сўзи ҳам кўпинча номус сўзи билан жуфт сўз ҳолида (ор-номус) қўлланади. Шунингдек, ор сўзи кўпинча қилмоқ, келмоқ сўзлари билан бирга қўлланади. Ибо кам қўлланади. Андиша бу маънодада кам қўлланади”[34]*. Бизнингча, иснод сўзига ушбу қатордан ўрин берилиши тўғри эмас. Зеро, “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да унга шундай изоҳ келтирилади:*

Иснод *[а.* – таянч, тиргак; далил; манба; нисбат бериш, тааллуқли қилиш] Уятга ёки таънага қолдирадиган, номига доғ туширадиган иш; шундай ишдан бўладиган (келадиган) уятли ҳолат. *Ҳа, бу иснодниг бир чеккаси ўқитувчиларга ҳам тегади, бутун мактабга тегади! (*Ҳ.Назир, Сўнмас чақмоқлар). *Мастонбибининг келини бу йил ҳам планини бажаролмабди, деган иснодни кўтароласанми? (*С.Аҳмад, Қадрдон далалар).

Иснод келтирмоқ *ёки* **иснодга қолдирмоқ.**

[34]Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: - Б. 205.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Уят, номус, таънага қолдирмоқ, номига доғ туширмоқ[35].

Кўринадики, иснод уят эмас, балки уятни келтириб чиқарадиган, уятга сабаб бўладиган иш. Яна айтиш мумкинки, номусга тегадиган, шарм қилиш лозим бўлган, ҳаё йўл қўймайдиган, киши ор қиладиган, орият йўл бермайдиган, андиша, ибо тўсиқ бўладиган иш, амал иснод сўзи билан ифодаланади. Қисқаси, номус (шарм, ҳаё, ор, орият, андиша, ибо) йўқ ҳолат иснодли ҳолатни келтириб чиқаради. Бу далиллар эса ушбу синонимик қаторга уни киритиш маъқул эмаслигини кўрсатади.

Эътибор қилинса, бу сўзлар орасидаги фарқ қўлланишнинг зоҳирий томонлари (жуфт ёки якка, кам ёки кўп) билан чекланган. Маънодаги фарқларга аҳамият берилмаган.

Ш.Раҳматуллаев ҳам сўзлар этимологияси ҳақида фикр юритганда, улар орасидаги ўзбек тилидаги фарқларга эътиборни кўп қаратмайди. Бизнинг назаримизда, маънодошлик луғатларида синонимик қатордаги сўзларнинг коннотатив сема асосидаги фарқланишига даражаланиш тамойили асосида ёндашиш ва сўзларнинг ушбу қатордаги ўрнидан келиб чиққан ҳолда нисбийлик тамойили асосида изоҳлар берилса, мақсадга мувофиқ бўлар, ҳар бир сўзнинг моҳияти тўлақонли очилар эди.

Демак, виждон, номус (ор-номус), ор, орият, диёнат сўзлари ўзаро уядош бўлиб, улар сирасида номус, ор-номус, ор, орият сўзлари ўзаро синонимик муносабатдадир. Виждон, орият (номус, ор-номус, ор) ва диёнат сўзларини ўзаро синоним дейиш ҳам, изоҳларда ишора қилиш усулидан фойдаланиш ҳам мақсадга мувофиқ эмас. Виждон лексемаси кўп қўлланувчанлиги ва бошқа тилларда ўзининг эркин муқобилига эгалиги, диёнат сўзи бошқалар учун исломий эътиқодли халқлардаги реалия эканлиги билан характерланади, орият эса "ички мен" семалари билан ўзаро фарқланади. Ўзбек тилида номус бирлиги орият, ор-номус, ор сўзларидан гендер белгига эгалиги билан ажралиб туради.

Ўзбек халқининг ор-номуслилиги йиллар давомида шаклланган миллий характердир. Буни ўзбек халқ мақоллари мисолида ҳам далиллаш мумкин. Бойлик кетса кетсин, Ор-номус кетмасин; Жонингни фидо қилсанг қил, Номусингни фидо қилма; Итнинг ори келса, суякка ҳам қарамас; Йигитни ор ўлдирар, Туяни — сарбон; Йигитнинг моли бўлгунча, ори бўлсин; Йигитнинг сазаси сингунча, Шайтоннинг бўйни узилсин каби мақоллар шулар жумласидандир.

Хулосалар

Ўзбек тилида ор-номус билан боғлиқ лексик бирликларнинг миқдори кўп бўлиб, кичик маъно фарқликлари билан синонимик ва даражаланиш қаторларини ҳосил қилади. Ўзбек халқида ор-номус масаласи билан боғлиқ мақол ва маталларнинг кўплиги бу халқимизга оид миллий характер эканлигидан далолат беради. Биз бугунги глобаллашув даврида ор-номус каби миллий характеримиз акс этган стереотипларни тадқиқ қилиш, келажак авлодга етказиш долзарб масалалардандир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II. Араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар. – Тошкент: Университет, 2003.

[35]Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, – 2008. – Б.336.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2. Узбекско-русский словарь. - Тошкент: ЎзСЭ Бош редакцияси, 1988. – Б.120Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, – 2008. – Б.336.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 1-том. – Тошкент: Издателства «Русская язык», –1981. – Б.223
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 1-жилд. Б.542.
5. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: - Б. 205.

РОМАННЫЙ МИР И МИР В РОМАННОМ МЫШЛЕНИИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА

Холбоева Малика Адыловна (malikajasik@gmail.com) старший ***преподаватель кафедры*** русской литературы и методики ее преподавания Джизакского государственного педагогического университета

Аннотация: *В статьи рассмотрен романный мир и мир в романном мышлениичингиза Айтматова на примере романа — «И дольше века длится день». Изучена специфика айтматовской романной формы.*

Ключевые слова: *Роман, романное мышление, романный мир, автор, герой, повествование, реализм, народно-поэтическое творчество, художественное время и пространство.*

ROMAN OLAMI VA CHINGIZ AITMATOVNING ROMAN TAFAKKURIDAGI OLAM

Xolboeva Malika Odilovna (malikajasik@gmail.com) Jizzax davlat pedagogika universiteti “Rus adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi katta uqituvchi

Annotatsiya: *Maqolada roman olami va Chingiz Aitmatovning “Bir kunga tatigulik kun” romanistik tafakkuridagi olam misolida ko‘rib chiqiladi. Aytmatovning roman shaklining o‘ziga xosligi o‘rganildi.*

Kalit So‘zlar: *Roman, romanistik tafakkur, romanistik olam, muallif, qahramon, hikoyat, realizm, xalq she’riyati, badiiy zamon va makon.*

ROMANCE WORLD AND WORLD IN THE ROMANCE IN THE VIEW OF CHINGIZ AYTMATOV

Kholboeva Malika Adylovna (*malikajasik@gmail.com*) Senior *teacher* of the Department of Russian Literature and Methods of its Teaching, Jizzakh State Pedagogical University

Annotation: *In the article on the example of the novel — «The day longer than a century», the novel world and the world in the romantic thinking of Chingiz Aitmatov are considered. The specifics of Aytmatov‘s novel form are studied.*

Key words: *Novel, novel thinking, novel world, author, hero, narration, realism, folk poetry, artistic time and space.*

Введение

Чингиз Айтматов - один из величайших писателей XX века. Перу этого гениального прозаика в равной степени подвластны реалистическая ифантастическая проза, притча и антиутопия, мемуарная, публицистическая и историческая литература. Более того,

фантазия Айтматова создает самые необычныеи причудливые сочетания этих жанров - произведения реалистической глубины иизысканности. Чингиз Торекулович Айтматов вошел в историю русской литературы «Повестями гор и степей», которые дышали молодостью, свежестью, любовью к родному краю, к людям, живущим в горах Тянь-Шаня, окружающих великое озеро Иссик-Куль. Чингиз Айтматов сразу же заявил о себе как о писателе, поднимающемсложные проблемы бытия, изображающем непростые, драматические ситуации, вкоторых оказываются люди, как сказано, сильные, чистые и честные, носталкивающиеся с не менее сильными противниками. Эти противники – блюстителистарых нравов и обычаев (законов адата), хищники, властолюбивые деспоты,свинцовые бюрократы.

Творчество писателя окрашивается в новые тона, когда он пишет о радостях, горестях, светлых и мрачных цветах нашей планеты в ее географической целостности и социальной расколотости. Творчество ЧингизаАйтматова во многом уникально; острота нравственной, философской, социальнойпроблематики сочетаются у него с поэтикой, наследующей традиции Востока иЗапада, русского психологизма и латиноамериканской «мифологической школы», атакже многовековой опыт киргизского и казахского устного народно-поэтического творчества. Высокая трагедийность и вдохновенный лиризм образуют неповторимуюэмоциональную атмосферу его книг.

Литературный обзор. Возрастающая масштабность мышления Айтматова – философского и футурологического - расширяет художественное времяи пространство его произведений. Все сильнее ощущается в них связь каждойотдельной личности с жизнью всеобщей, а судеб человечества - с мирозданием. Все это уводит писателя отставших тесны. Изменяется и характер фольклоризма в творчестве Айтматова. Включение элементов устного народно-поэтического творчества всегда придавало произведениям писателя особый национальный колорит,особую «живописность» и эмоциональную выразительность. Но ни «Плач белой верблюдицы» в «Прощай, Гюльсары!», ни тени героев знаменитого киргизского эпоса «Манас» за плечами «ранних журавлей» - мальчишек военных лет изодноименной повести - еще не играли в художественной системе ранней прозы Айтматова решающую роль. Все проникающая магия айтматовского мифа уже предчувствовалась в диалоге Матери-земли и Матери Человеческой – Толгонай («Материнское поле»). Эта магия нарастала и укрупнялась в «Беломпароходе» («После сказки», 1970), в истории рода легендарной Матери-оленихи. Особоезначение мифа приоткрылось в повести «Пегий пес,бегущий краем моря» (1977), где «слились, как море и небо у чертыгоризонта, специфика нивхских легенд и реалийповседневности, а в роковом Великом Тумане растаяли, растворились временные границы действия. Только Природа и Люди, Человек и Океан, толькобыстротечностьи одновременно бесконечность жизни, где может быть один-единственный закон – нравственный» [3; с.17]. Киргизский литературовед К. Асаналиев отметил: «Что касается Айтматова, то он, оттолкнувшись не только от устного народного творчества, но и, преждевсего, отвысоких достижений своих предшественников, ускорил свой путь к вершинамсовременной прозы благодаря всестороннему освоению великого опыта самой мощной литературы мира» [2; с.153].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Новый этап творчества Айтматова открывается романом «Идольше века длится день» («Буранный полустанок», 1980) [1]. В 1990 опубликованодополнение - «Повесть к роману» - «Белое облако Чингисхана» [5], где судьба одногоиз самых трагических героев - учителя Абуталипа - развивается в соотнесенности сдревней легендой. В 1986 году появляется «Плаха» - «роман-крик» об опасностивосхождения на плаху всего человечества. В первом романе Айтматов, от начала и до конца посвященном жгучим современным проблемам (ими живут люди маленького полустанка Боранлы-Буранный, как и вся большая страна), возникает темалегендарного прошлого, образ страшной казни с помощью обруча из верблюжьейкожи - шири (кирг.). Самый первый вариант названияроману дал именно этот образ -«Обруч». Шири палачи надевали на голову пленника, кожа засыхала, и человек отневыносимой боли терял способностьмыслить, хранить память. Он становилсяманкуртом - «чучелом прежнего человека». Он даже мог убить свою мать... Возникнув в мифологическую эпоху, древняя легенда откликнется в романе темой современного манкуртизма, поразившего многих героев, начиная от рядовых обывателей и кончая главами государств. Чтобы показать, как именно это происходит, Айтматов рассказывает не только историю разрушенной святыни -древнего кладбища Ана-Беит, он обращается и к будущему - к теме контакта свнеземной цивилизацией.

Методологии исследования. Кроме современного и легендарного, в романе появляетсятретий сюжет - научно-фантастический - наиболее спорный, не принятый многимичитателями и критиками, о чемсвидетельствуют обширные материалы из периодикитех лет. Чингиз Айтматов говорил о своем романе: «… я не просто представительопределенной национальной литературы, я обязан сказать нечто больше» [1,493]. Специфика айтматовской романной формы - в соединении на первый взгляднесоединимого. С одной стороны, современный сюжет произведения раскрывается влучших традициях жизнеподобного реализма в его национальном выражении (почти единогласной была оценка образа Едигея как одной из самых больших удач романа).Что же касается будущего, то здесь Айтматов приводил в действие инойхудожественный механизм - жанр притчи, когда полностью может исключаться «обстановочность», действующие лица не наделяются разработанными характерами и т.д.

Автор как бы предлагает читателю свои условия игры – возможность собственного моделирования деталей в «предлагаемых обстоятельствах». Главноездесь для Айтматова - мораль притчи, ее категорический нравственный императив.Вот уже больше полвека читаем произведения Чингиза Айтматова, и чтение каждогопроизведения удивляет читателя, удивляет и своей масштабностью великий писатель,как крупный мастер художественного слова, поднявший в своих произведениях глобальные проблемы современности, тревогу за судьбу всех народов планеты. Напороге третьего тысячелетия человечество вновь и вновь ищет ответы на вечныевопросы о смысле жизни, об обществе и человеке, их ответственности засегодняшний день. Именно за сегодняшний, так как завтрашнего может и не быть. Существование и разрушающее действие ядерного оружия, освоение космоса ввоенных целях, оставляющая желать лучшую экологию - все напоминает ипредупреждает о возможной катастрофе всей цивилизации. Никто никого не победит,никто не уцелеет в одиночку. На что способно общество, если в нем вместокульта религии утвердится культ насилия, наживы любой ценой? Бесстрастные, безразличные, родства не помнящие манкурты - неужели такие люди смогут

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

обеспечить прогресс и нужны обществу? Что удержит людей и заставит стыдитьсябезнравственных поступков? Мой удобный мир, мои интересы и интересы общества -как гармонично объединить их? Эти вопросы беспощадно ставит жизнь, и каждыйответственен за сохранение добра и нравственности, в этой жизни каждый проходитиспытание, как делают это и герои романа Чингиза Айтматова «И дольше века длится
день». Обращение к жанру романа объясняется стремлением писателя к болееуглубленному и масштабному изображению быстро меняющейся противоречивой действительности.

По мнению писателя, роман – «это сложная, симфоническаясистема». В этом убеждаешься, перечитывая роман «И дольше века длится день», запечатлевший современный мир во всем его многообразии и многоголосии. Пронзительно и требовательно взглянул нам в глаза Едигей Жангельдин – главный герой романа «И дольше века длится день». Каждый раз произведения Айтматовазастают врасплох, повергают в сомнения и растерянность читателя и критика яркойпублицистичностью, острой социальностью и высоким уровнем художественности,подкрепленным философской глубиной и наполненностью. В этом суть феномена Айтматова-писателя. Все его произведения, казалось бы сотканные из сиюминутных,наиактуальнейших моментов нашей жизни, несут глубинные пласты, заключающие всебе осмысление сложнейшихсоциальных, психологических, общечеловеческихпроблем. Феноменальный Айтматов сумеет соединить три главные нити истории
человечества – прошлое, настоящее и будущее. Уроки прошлого, испытания настоящего, тревоги за будущего не оставляют писателя в покое. Устами своего герояон предупреждает нас: Люди, очнитесь! Алчность, Деспотизм, Бесчеловечие губитнас, нашу планету.

Роман Чингиза Айтматова «И дольше века длится день» предлагает читателю универсальную концепцию бытия и человека. Писательмыслитель пытается охватить всю безмерность жизни и вселенной: от лисицы,вышедшей к железнодорожному полотну, до иных галактик, вступивших в контакт сземлянами. Но в центре всего стоит человек, личность, душа, в которой совершаютсвою извечную борьбу добро и зло. В центре внимания писателя - проблема «человеки общество». Герои Айтматова – духовно сильные, человечные, активные люди
современной эпохи. Айтматов выступил как писатель-новатор, мастер психологического портрета. Строка из стихотворения Пастернака, ставшая названиемромана, подчеркивает масштаб авторского замысла: прошлое, настоящее и будущеесливаются в вечном. Стержень сюжета - описание похорон старого железнодорожника на далеком разъезде в степи. И вокруг этого рядового событиявырастает многоплановая картина жизни и трех семейств на полустанке, и страны вцелом. Роман сочетает в себе жанровые особенности реалистического повествования, философского размышления, мифа, научно-фантастической утопии. Чингиз Айтматов видит главное оправдание длящегося миллионы лет развития человечества, его многовековой истории, запечатленной в мифах и сказаниях, гарантию его светлого будущего.

Результаты и анализы. Жизнь - человеческое бытие - свобода - мир – будущее человечества - вот ступени, складывающиеся в единую и единственную лестницу, покоторой настоящий создатель и хозяин жизни Человек Человечества поднимается «все вперед! И - выше!». Он, главный герой Чингиза Айтматова, лично ответствен завсе, что, было, есть и

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

будет, что может случиться с людьми, Землей, Вселенной. Он - человек дела и человек напряженной мысли - пристально рассматривает свое прошлое, чтобы не допустить просчета на трудном пути, пролагаемом всему человечеству. Он озабоченно всматривается в будущее. Таков масштаб, которымруководствуется писатель и в подходе к современному миру, и в изображении своегогероя, осмысляя их во всей их многозначности. Написанное действительно кровьюсердца, роман «И дольше века длится день» породил самые различные, во многом несовпадающие мнения. Дискуссия вокруг него продолжается. Некоторые считают, что временная неопределенность образа «манкурта» может порождать кривотолки. Другие говорят о том, что символ, именуемый в романе «Паритетом» и несущий насебе всю космическую линию в произведении, слагается из противоречащих другдругу начал и потому не может быть принят безоговорочно, как и само решениесвязанной с ним главной проблемы. К тому же, добавляют третьи, и легенда о «манкуртах» и космическая фреска, созданная чисто публицистическими средствами, не очень органично спаяны с основной - строго реалистической – частью повествования [1].

Писателю удалось убедительно показать богатейший духовный мир простого человека, имеющего свое мнение о самых сложных проблемахчеловеческого бытия. Глазами его главного героя на нас смотрит сама наша эпоха сее победами и поражениями, ее горечами и радостями, сложными проблемами исветлыми надеждами. Художественное время и пространство в романе «И дольшевека длится день...» – это со времен племени Наймананы и XX век, и событиякоторые происходили в этом времени, к которым причастны люди. Своеобразнаяархитектоника романа – синтез реализма и модернизма, трансформация мифаифантастики в литературном стиле Ч.Айтматова: композиционная четкость,

логичность и аргументированность в изложении, строгость в подборе лексики,своеобразная философия автора, новые для литературы образы и приемы. Новизнасоциального, нравственного содержания не исчерпывает достоинств романной прозы Айтматова. Онтологическая проблематика, глубокий психологизм, прекрасный язык этой прозы обозначили качественно новый этап литературного процесса литературы - ее современный период, со всем сложным комплексом поисков на содержательном и художественном уровнях. В комментарии к роману «И дольше века длится день…» Ч. Айтматов таксформулировал задачу литературы своего времени: «Долг литературы – мыслитьглобально, не выпуская из поля зрения центрального своего интереса, которыйпонимаю как исследование отдельной человеческой индивидуальности» [1,493].

В романе он проявил себя в качестве гражданина Земного шара. Он поднимает глобальные вопросы. У Айтматова усложняются принципы повествования. Рассказ отавтора порой совмещается посредством несобственно-прямой речи с исповедью героя, нередко переходящей во внутренний монолог. Внутренний монолог герояпереходит в авторские мысли. Усиливается роль фольклорных элементов. Вслед залирическими песнями, которые использовались в ранних повестях, автор все шире исвободнее вкрапливает в ткань произведений народные легенды. В романе «И дольше века длится день» художественные средства подчиняются реализму. Здесь используются мифы, легенды. Эти фольклорные элементы всегда несут многозначный смысл, воспринимаются как символы, как аллегории, психологическиепараллели. Эти средства придают произведениям многоплановость и углубленность,содержанию - многозначность, а изображению стереоскопичность.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Творчествописателя в целом начинает восприниматься как эпическое сказание о мире и человекев одну из самых величественных эпох - сказание, создаваемое одним из самыхактивных и страстных ее деятелей [3,27].

Заключение. Таким образом, в прозе Чингиза Айтматова на протяжении всеготворчества сформировалась единая система духовно-нравственных представлений,имеющих концептуальный смысл. Духовная парадигма айтматовской концепции в сочетании с новаторским взаимодействием с фольклорно-мифологической традициейоказались весьма актуальными и востребованными для других национальныхлитератур. Это привело к полифоничности художественной романной прозы, уплотненности историко-философского содержания, художественному осмыслениюисторического прошлого в планетарном масштабе. В творчестве писателя отчетливомаркируются историчность мышления, социальная зоркость, философская иэмоциональная наполненность, глубокий психологизм. Духовно-философская атмосфера, созданная Ч. Айтматовым, вывела на новыйуровень романное художественное мышление нашего времени, для писателей егоопыт оказался важнейшим подспорьем в их творческих поисках и эстетическихориентирах, как в свое время великий Лев Толстой был для него Учителем на всюжизнь.

Использованные литературы

1. Айтматов Ч. Собр. Соч. В трех тт. Т.2. Повести. Роман. И дольше века длитсядень. – М., 1983.

2. Айтматов Ч. Статьи, выступления, диалоги, интервью. – М., 1988.

3. Акматалиев А. Чингиз Айтматов и взаимосвязи литератур. – Бишкек, 1991.

4. Лосев А.Ф. Диалектика мифа // Из ранних произведений. – М., 1990.

5.Айтматов Ч. Чингисхоннинг оқ булути: Романга қисса. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1999.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O'ZBEK TILIDA EVFEMIK GRADUONIMIYA

Turdimurodov Sirojiddin Eshqobilovich
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek tilida graduonimiya hodisasi va uning taraqqiyoti, shuningdek, leksik-semantik munosabatlar doirasida evfemik graduonimiya to'g'risidagi ayrim fikr-mulohazalar bildirilgan.*

Kali so'zlar*: empirik bosqich, dialektik bosqich, leksik-semantik munosabat, graduonimiya, graduonimik munosabat, evfemik graduonmiya.*

EUPHEMISTIC GRADUONYMY IN UZBEK LANGUAGE

Turdimurodov Sirojiddin Eshkobilovich
Senior lecturer of Termiz State University

Annotation: *The article presents some views on the phenomenon of graduonymy in the Uzbek language and its development, as well as euphemistic graduonymy in the context of lexical-semantic relations.*

Keywords*: empirical stage, dialectical stage, lexical-semantic relation, graduonymy, graduonymic relation, euphemistic graduonymy.*

ЭВФЕМИСТИЧЕСКАЯ ГРАДУОНИМИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Турдимуродов Сирожиддин Эшкобилович
Старший преподаватель Термезского государственного университета

Аннотация: *В статье представлен феномен градуонимии в узбекском языке и его развитие, а также некоторые мнения об эвфемистической градуонимии в рамках лексико-семантических отношений.*

Ключевые слова: *эмпирический этап, диалектический этап, лексико-семантическая связь, градуонимия, градуонимическая связь, эвфемистическая градуонмия.*

XX asr barcha ilm-fan sohalari kabi tilshunoslikning ham yangidan-yangi turli sohalarining paydo bo'lishi va taraqqiy etishiga guvoh bo'ldi. Bunga eng avvalo tilshunoslikda empirik davrdan dialektik davrga o'tish sabab bo'lgan bo'lsa, keying asosiy sabab bu – tilga tizim sifatida qarash bo'lib, unga ko'ra til birliklari alohida bir-biridan ajratlgan holda emas, balki ular o'zaro bog'lanishga ega lisoniy birliklar sifatida o'rganila boshlandi. Mazkur holat o'z navbatida tilshunoslik tadqiqotlari oqimini yangi asos va yo'llarga – metodologiyaga ko'chirilishiga sabab bo'ldi.

Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, til ma'lum qoidalarga bo'ysunuvchi, aniq xususiyatlarga ega, muloqot vositasi vazifasini o'taydigan tushuncha sifatida o'rganila boshlangan. Lekin vaqt o'tishi bilan har qanday til doimiy o'zgaruvchan jarayonlarga uchraydigan ko'p qirrali tushuncha ekanligini anglash mumkin. Bunga sabab uning ontologik va gnoseologik xususiyatlaridir, ya'ni inson borliqdagi narsa va hodisalarning o'z ongidagi in'ikosi natijasida o'z fikrini mavjud bilimi va dunyoqarashi orqali tilida ifodlagan holda boshqalarga yetkazishga harakat qiladi. Shunday ekan, graduonimiya (darajalanish) paradigmasi aynan til birliklari orasidagi o'zaro

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

munosabatlarni ko'rsatuvchi tushuncha sifatida yuzaga kelgan deyish mumkin. Tilshunoslikda lisoniy birliklarning o'zaro leksik-semantik munosabatlari sinonimiya, antonimiya, omonimiya, polisemiya, giponimiya, kabi paradigmalarda til birliklari ularning denotativ va konnotativ semalariga tayangan holda turlarga ajratiladi. Zamonaviy lingvistikada mazkur paradigmalar qatoriga graduonimiya (darajalanish) paradigmasining kirib kelishi darajalanish hodisasining borliqda turli-tuman ko'rinishda mavjud ekanligi haqidagi ilmiy qarashlarning o'zbek tilshunos olimlari tomonidan ilgari surilishi, isbot qilinishi bilan bevosita bog'liqdir. Graduonimiya (darajalanish) ilmiy atamasi asosida lisoniy birliklarning tildagi muayyan bir belgisi oshib-kamayib borishiga ko'ra zidlanishi tushuniladi. O'zbek tilshunosligida "graduonimiya", "graduonimik munosabat" va "darajalanish" atamalari sinonimlar tarzida qo'llanilmoqda[Djumaboeva, 2014:147]. Bu hodisalar tilning turli sathlarida namoyon bo'lishi Sh.Rahmatullayev, H.Ne'matov, R.Rasulov, O.Bozorov, S.G'iyosov M.Narziyeva, Sh.Orifjonova, M.Fayzullayev va boshqa bir qator olimlarning tadqiqot ob'ekti bo'lib, ularning ishlarida darajalanish turli aspektlarda o'rganilgan.

Graduonimiya atamasining vujudga kelishi bevosita N.S.Trubetskoy [Trubetskoy, 1960:372] va R. Yakobson [Yakobson, 1962:173-186] ning fonologiya sohasidagi ishlarida keltirilgan fonemalarning gradual oppozitsiyalari tushunchasi bilan bog'liq. Mazkur tilshunoslarning ishlarida fonemalardagi muayyan belgining kam yoki ko'plik darajasi asosida ularning o'zaro zidlanishlari fonemalarning gradual oppozitsiyalari sifatida ko'rsatib o'tilgan. Keyinroq S.T.G'iyosov o'z ishida "leksik gradual oppozitsiyalar" (darajalanishning lug'aviy qatorlari) tushunchasini qo'lladi va bu tushunchani misollar bilan yoritib berdi (**umumiy ijobiy baho**: *tuzuk – durust – yaxshi – ajoyib; tashqi ijobiy baho: chiroyli – ko'rkam – suluv – go'zal – zebo*) [G'iyosov, 1986:28-32]. O'zbek tilshunosligida uzoq vaqt mobaynida so'zlararo ma'noviy munosabatlar ma'nodoshlik (sinonimiya) va zid ma'nolilik (antonimiya)ni o'rganish bilan cheklanib kelinmoqda edi. O'zbek tili imkoniyatlarining kengayishi, uning taraqqiy etishi barobarida keyingi vaqtlarda bu xil munosabatlar doirasi giponimik (tur-jins) munosabatlarni ajratish bilan kengaytirildi va graduonimik (ma'noviy darajalanish), partonimik (butun-bo'lak), funksionimik (vazifadoshlik), ierarxonimik (pog'onaviylik, katta-kichiklik) kabi ma'noviy munosabat turlari ham lisoniy lug'aviy tizimda mavjudligi taxmin etildi. Graduonimiya atamasi ilk bor o'zbek tilshunosligida 1989 yili so'zlararo ma'noviy munosabatlarning bir ko'rinishi sifatida "graduonomiya" [Begmatov, 1989:35-40] holatida qo'llanilgan; bunda graduonimiyaga lug'aviy darajalanish sifatida qaralib, ushbu hodisada leksik ma'nolari muayyan belgi-xususiyatning turli darajalari bilan bog'langan leksik semantik guruh (LSG)larga ajratildi. Lisoniy birliklar muayyan bir belgisining o'sib yoki kamayib borishiga ko'ra o'zaro zidlanishini aks ettiruvchi "graduonimiya" atamasi o'zbek tilshunosligida lisoniy ma'noviy munosabatni aks ettiruvchi sinonimiya, omonimiya, antonimiya kabilarning umumiy tarkibiy qismi bo'lgan -onimiya qismini lotincha gradus ("daraja", "bosqich") so'zi bilan biriktirish asosida sun'iy ravishda yasaldi [Begmatov, 1989:35-40]. Tilda darajalanish tushunchasi avvaldan borliqdagi narsa va tushunchalarning muayyan belgilari bir-biriga nisbatan darajalanish xususiyatiga egaligi qadimdan ma'lum. Misollarni Alisher Navoiyning "Muhokamatul-lug'atayn" [Navoiy, 2014:144] asarida ham uchratish mumkin: yig'lamoq *inchkirmak – ingramak – singramak – yig'lamsinmak – siqtamak – o'kurmak – hoy-hoy yig'lamak*. Ushbu darajalanish qatorida yig'lash holati belgisi *inchkirmak* (iztirob chekib juda past ovoz chiqarib, ich-ichidan yig'lamoq) fe'lidan *hoy-hoy yig'lamak* (baland ovoz bilan oshkora yig'lamak) fe'ligacha kuchayib borishini ko'rish mumkin. Alisher Navoiyning yana

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

boshqa asarlaridan ham ma'noviy darajalanishga ega so'zlarning bir g'azal yoki bir ruboiy, hattoki bir bayt yoki misrada qo'llanilgan holatlarini ko'p uchratish mumkin. Mazkur holatlar shoirning darajalanuvchi leksemalardan mohirona foydalangan holda badiiy san'at yarata olganligini ko'rsatadi.

Jahon tilshunosligida olimlar tomonidan shu paytgacha graduonimiya paradigmasiga o'xshash turli lingvistik hodisalar va tushunchalar o'rganilgan va ularning mazkur darajalanish hodisasi bilan farqli jihatlari ham mavjudligi bois ushbu masala turli bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. J.Jumaboeva ham gradatsiya tushunchasini graduonimiyadan farqlagan holda stilistik gradatsiya atamasining bitta matn ichida ishlatiladigan ibora, metafora, metonimik ko'chma ma'nolarning kuchayib, pasayib borishini ifodalashini, graduonimiya esa, umuman, so'zlarning denotativ darajalanish asosidagi joylashuvini o'zida aks ettiruvchi lisoniy hodisa ekanligini ko'rsatib o'tadi. O'zbek tilshunosligida sifatlardagi darajalanish va uning o'ziga xos xususiyatlari borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan Z.M.Ma'rufov, A.Madrahimov, A.Xamitova, F.Ishoqov, M.Qo'ldoshev va Z.Mamarajabovaning ishlarida hamda o'zbek tilidagi ayrim darslik va qo'llanmalarda darajalanish hodisasi sifatida asosan sifat so'z turkumi ko'proq talqin etiladi. Xususan, Sh.Shaxobiddinova o'zbek tili morfologiyasining dialektik talqiniga bag'ishlangan ishida daraja kategoriyasini yanada chuqurroq tahlil qildi va **daraja** hamda **qiyos** kategoriyalarini farqlash xususidagi qarashlarini asoslab berdi [Shahobiddinova, 1994:108]. O'zbek tilidagi daraja kategoriyasini funktsional-semantik maydon sifatida o'rgangan tilshunos L.Elmurodova daraja tushunchasining grammatik kategoriya doirasiga sig'masligini va uning sathlararo namoyon bo'lishini alohida ta'kidlaydi [Elmuradova, 2011:26]. Mazkur ilmiy ishda darajalanish hodisasi maydon sifatida o'rganilganligiga qaramay, undagi darajalanish hodisasi faqatgina sifat so'z turkumiga xos grammatik kategoriyaligicha qolaveradi, chunki undagi belgi darajasini ifodalovchi vositalar grammmatik yo'l bilan yasalgan holda sifatlarga birikib keladi. Graduonimiya esa aynan lisoniy birliklar belgilarining grammatik yo'l bilan emas, balki leksik va semantik xususiyatlari orqali o'zaro farqlanishini ifodalovchi leksik-semantik maydondir. O'zbek tilida leksik antonimlarni tadqiq qilgan R.Shukurov antonimik juftliklar orasida oraliq tushunchalar yoki mantiqiy markazlarning mavjudligini (*o'tgan – hozirgi – kelasi*) ko'rsatib o'tgan holda, mantiqiy markazdan teng uzoqlikda yotgan nuqtalar va ularni ifodalovchi so'zlar bir-biri bilan antonim bo'la olishi [Shukurov, 1977:30] ni aytib o'tadi. O'zbek tilidagi asliy sifatlarda belgi darajasi semasining me'yoriydan eng ko'pgacha bo'lishi (*chiroyli – ko'rkam – go'zal – zebo*) haqidagi qarash tilshunoslar R.Jabborova va S.G'iyosovning tadqiqotlarida berildi. Binobarin, S.G'iyosov nomzodlik dissertatsiyasida sifatlarni semantik jihatdan farqlovchi mezon sifatida belgining darajalanish mezonini [Giyasov, 1983:22] ko'rsatib o'tadi.

Kuzutishlarimizda evfemik ma'noli leksemalar paradigmasida ham graduonimik xususiyatining namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. Bunda ma'lum bir qo'pol va noo'rin birliklar o'rnida qo'llaniluvchi evfemik ma'nodosh leksemalar qatori mavjudki, ular orasida ham ma'lum darajada graduonimlikni anglash qiyin emas. Masalan, **uylantirmoq** leksemasi o'rnida qo'llaniluvchi *beshikkerti qilinmoq, bag'ishlanmoq/atalmoq, non sindirmoq, boshini bog'lamoq, fotiha bo'lmoq*..... kabi o'nlab evfemalarda harakat davomiyligini *beshikkerti qilinmoq* (ilk harakat)dan ... *fotiha bo'lmoq* (so'ngi jarayon) leksemalari orasida harakatning ma'lum ma'noda oddiy harakatdan, yuqori darajadagi (harakatning jiddiy tus olishi nuqtayi nazardan) harakatga qarab leksema ma'nolarida ma'no kuchayib borishini kuzatish mumkin. Ushbu evfemizmlarning sinonimik qatorida denotativ tushunchaga nisbatan mavjud vaziyatning oddiy harakatdan yuqori

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2000 йил 29-30 март кунлари Испаниянинг Саламанка шаҳрида бўлиб ўтган олий таълим муассасалари ректорларнинг съездида академик ҳамжамиятнинг академик эркинлик тамойилларига содиқлиги яна бир марта таъкидланди, бу ОТМлари: ўз стратегияларини ўзлари белгилаш; ўқув ва тадқиқот ишларида энг муҳимларини танлаш; таълим дастурларини шакллантириш; ўқитувчиларни танлаш мезонларини ўрнатиш; ресурсларни тақсимлаш ҳуқуқига эга эканини англатади. Бу ҳуқуқни амалга ошириш учун университетларга қуйидагилар керак:

- маъмурий эркинлик;
- ўқув ишларида эркинлик ва уни ўз-ўзича тартибга солиш;
- етарли даражада молиялаштириштиришдаги эркинлик.

Шундай қилиб, халқаро стандартларда академик автономия дейилганда “масъулиятли эркинлик” тушунилади. Олий таълим муассасалари ўз стратегияларини мустақил шакллантириш, таълим бериш ва илмий тадқиқотлар олиб боришда устувор йўналишларни танлаш, ўз ресурсларини сарфлаш, ўз дастурларини ихтисослаштириш, профессорлар-ўқитувчилар ва таълим олувчиларни қабул қилиш мезонларини ўрнатиш ҳуқуқига эга бўлишлари керак.

2007 йил 13-апрелида қабул қилинган «Европа университетлари 2010 йилдан кейин: мақсадлар бирлигидаги хилма-хиллик» номли Лиссабон декларациясига кўра академик автономия - университетнинг ташкилий, молиявий, кадрлар танлаш, шунингдек ўқув

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

режалар яратиш, ўқитиш ва илмий тадқиқотларнинг назарий истиқболи ва методларини танлашга доир академик эркинликни ўз ичга олади. Грециянинг Эгей университети ректори С.Катсикас академик автономиянинг институционал ўлчовининг ўхшаш тавсифини беради, у молиявий автономияни — бюджетдан эркин фойдаланишни жамиятни университетларнинг самарали фаолиятидан манфаатдорлигини; бошқарув автономияни — уларнинг фаолиятига алоқадор асосий қарорларни мустақил қабул қилишни; академик автономиянинг ўз кадрларни танлашда академик тартибларнинг устунлиги ва ташқи агентларнинг тадқиқотларга ва ўқитишга аралашувини чеклашни қўшади[6].

Академик автономияни ОТМлар бошқаруви самарадорлигини таъминловчи муҳим омил сифатида тадқиқ қилиш ҳам назарий, ҳам амалий аҳамиятга эга. Академик автономияни тадқиқ қилиш олийгоҳларнинг пайдо бўлиши ва ривожланишининг тарихий илдизларига мурожаат қилишни тақазо қилади. Илк олийгоҳлар билимларни бериш билан банд бўлган профессионалларнинг уюшмалари сифатида пайдо бўлган. Улар шу хилдаги уюшмаларга берилувчи имтиёзларга эга бўлдилар. Бошқа имтиёзлар қаторида ҳуқуқий ўзига хослик имтиёзи ҳам бор эди: профессионал корпорация ўз-ўзини бошқарувчи ташкилот бўлиб, ўз аъзоларини суд қилиш ҳуқуқига эга эди.

Турли даврларда олий таълим муассасаларининг академик автономияси жиддий хавф-хатарларга — диний ва дунёвий маъмурларнинг босимидан тортиб, тоталитар тузумнинг ғоявий аралашуви ва олийгоҳ тизимини тижоратлаштириш кабиларга дуч келган. Натижада, академик автономия илмий уюшманинг ўзига хос мавқени белгиловчи реалликдан метафорага айланиб, академик соҳага яқин интеллектуаллар ўхшашлигининг ажралмас қисмига айланди. Айрим давлатлардаги ҳуқуқий асосларга кўра олий таълим муассасаларининг автономиясини “кадрларни танлаш ва жой-жойига қўйиш, ўқув, илмий, молиявий-хўжалик ва қонунга ҳамда олий таълим муассасасининг Низомига мувофиқ келувчи бошқа фаолиятларда мустақиллик” сифатида таърифлаш ҳоллари ҳам учрайди. Шунингдек, уларда индивидуал академик эркинликка ҳам изоҳ берилган: «Профессор-ўқитувчиларга, илмий ходимлар ва олий ўқув юрти талабаларига ўқув фанини ўз ихтиёрига кўра шакллантиришга, илмий тадқиқотлар учун мавзу танлаш ва уларни ўз ёндашуви бўйича эркни олиб боришга, шунингдек, талабаларга ўз қизиқиши ва эҳтиёжига қараб билим олиши учун академик эркинлик тақдим қилинади»[7]. Демак, академик автономияга кўра, олийгоҳ ўз-ўзини ташкиллаш тамойилларига таянади.

Олий таълим муассасасига нисбатан ишлатилаётган эркинлик ва автономия тамойилларига ҳуқуқ ва мажбуриятлар мажмуаси, жамият олдида тўлиқ жавобгарлик ва ҳисобдорлик(ҳисоб беришга бурчлилик) назарда тутилади. Олий ўқув юртларига автономия уларнинг ички ишларига берилиши керак, бироқ бундай автономия ҳукумат, парламент, таълим олувчилар ва умуман жамият олдидаги мажбурият ва уларга ҳисобдорликка асосланиши ҳам керак.

Албатта, институционал автономия элементларининг бундай таснифи жуда шартлидир, чунки аслида улар кўпинча ўзаро боғланган, ўзаро мувофиқлаштирилган бўлади. Шундай қилиб, экспертларнинг фикрича, олий ўқув юртларининг кадрлар автономиясининг асосий кўрсаткичларидан бири уларнинг ходимларининг иш ҳақини белгилашдаги мустақиллиги бўлиб, бундай имтиёз эса бевосита университетларнинг молиявий фаолиятини амалга оширишдаги мустақиллигига боғлиқ. Шундай қилиб,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

кадрлар автономиясининг айрим жиҳатлари олийгоҳларнинг молиявий автономия элементлари билан чамбарчас боғлиқдир.

ОТМ фаолиятининг икки соҳаси: академик ва молиявий бўйича бутун дунёдаги олий ўқув юртлари автономияси кўрсаткичларини таҳлил қилиш ҳам мақсадга мувофиқлик саналади. Шу билан бирга халқаро ва маҳаллий олий таълим муассасалари автономиясини таъминлашнинг ҳуқуқий механизмларини аниқлаш учун Европа, Шарқий ва Жанубий-Шарқий Осиё, АҚШ, Канада ва Австралиядаги қатор мамлакатларда олий таълим соҳасидаги қонунчилик асослари ўрганилди. Турли мамлакатларнинг қонунчилик асосларини таҳлил қилиш ушбу масалада муваффақият қозонган алоҳида олий таълим тизимлари тажрибаси ҳам ўрганилди.

Хулосалар

Олий таълим тизимида автономияни кенгайтириш осон иш эмас ва хорижий мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, жараён бир неча ўн йил давом этиши мумкин ва унинг натижаси бевосита давлатнинг автономияга ўтиш режасини ишлаб чиқишга қандай ёндашганига боғлиқ. Марказ ушбу масала муҳокамасига кенг жамоатчиликни жалб этишни мақсад қилган.

Олий таълим бўйича Карнеги комиссияси институционал автономия бўйича ўзининг таснифини ишлаб чиқган. Ушбу тасниф қуйидаги учта асосий элементдан иборат:

1) интеллектуал автономия – академик сўз эркинлигини ҳимоя қилиш, ўқитувчилар ва талабалар томонидан тадқиқот лойиҳаларини эркин танлаш ва амалга ошириш;

2) академик автономия – таълим жараёни соҳасида ўқитувчилар учун қарор қабул қилиш ваколатларини юбориш;

3) маъмурий автономия – молиявий ва ходимларга оид менежментни амалга оширишдаги эркинлик.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Амалга оширилаётган ушбу иш доирасида институционал автономия университетларнинг эркин, яъни ҳеч қандай ташқи назоратсиз, фаолиятнинг учта асосий соҳасида қарор қабул қилиш қобилияти билан белгиланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Шпаковская Л. Политика высшего образования в Европе России. -Пб.: Норма, 2007. – С.25-36
2. Декларация «Университеты Европы после 2010 года: многообразие приединстве целей». Четвёртый съезд Ассоциации европейских университетов в Лиссабоне, 13 апреля 2007г.
3. Великая хартия европейских университетов // Центр образовательного законодательства. – http://www.lexed.ru/mpravo/ razdel7/part2/?part2_01.html
4. Болонский процесс в документах //http.rumi.ru
5. Рекомендация о статусе преподавательских кадров учреждений высшего образования // Центр образовательного законодательства. – http://www.lexed.ru/ mpravo/razdel2/?doc18.html
6. Katsikas S.K.The university in the third millennium: Which reforms are needed? Organisation for Economic Co-operation and Development. URL:http://www.oecd.org/dataoecd/26/12/37051299.pdf
7. Федеральный закон от 22 августа 1996 г. № 125-ф3 «о высшем и послевузовском профессиональном образовании» URL: http:// www.legis.ru/misc/doc/653/
8. Qurbonov, Jasurbek Akmaljonovich. "Social-pedagogical content of intellectually cultural pointh." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 1.5 (2019): 437-442.
9. Egamberdiyeva, Turg'unoy Axmadjonovna, and Jasurbek Akmaljonovich Qurbonov. "Diagnostics of formation and development of intellectual culture among students." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 2.4 (2020): 512-519.
10. Akmaljonovich, Kurbonov Jasurbek. "The Content and Essence of the Concept of "Intellectual Culture"." *European Journal of Humanities and Educational Advancements* 2.5 (2021): 15-18

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Abdukarimov Nurmaxan Amirxanovich – A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti dotsent v.b

Annotatsiya. *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini sifatli va samarali tashkil qilinishi uchun pedagogik asos bo‘lishga xizmat qilishga yo`naltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy madaniyat, sport, dars, ta’lim, fan, barkamol, tarbiya, ilm ma’rifat, maktab.*

PEDAGOGICAL BASES OF IMPROVEMENT OF PHYSICAL CULTURE LESSONS OF YOUNGER SCHOOL CHILDREN

Abdukarimov Nurmakhan Amirkhanovich – Faculty of Physical Culture of the Jizzakh State Pedagogical University named after A.Kadyri Associate Professor

Annotation. *This article is intended to serve as a pedagogical basis for high-quality and effective organization of physical education classes in primary classes in the education system of the Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *physical culture, sports, lesson, education, science, literacy, education, enlightenment, school.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УРОКОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Абдукаримов Нурмахан Амирханович – Факультет физической культуры Джизакского государственного педагогического университета имени А.Кадыри доцент

Аннотация. *Данная статья призвана служить педагогической основой для качественной и эффективной организации занятий физической культурой в начальных классах в системе образования Республики Узбекистан.*

Ключевые слова: *физическая культура, спорт, урок, образование, наука, грамотность, воспитание, наука просвещение, школа.*

Kirish

Dunyo amaliyotida maktab yoshidan boshlab o‘quvchilar organizmining shakli va funksiyalarini takomillashtirish, harakatlantiruvchi bilimlar, mahorat va ko‘nikmalarni shakllantirish va jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlar alohida o‘rin egallaydi. Mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va metodik ta’minotini kuchaytirish, o‘quvchilarning sport bilan muntazam shug‘ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida olib borilayotgan islohotlar jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari jozibadorligini oshirib, ta’lim oluvchilarning unga bo‘lgan qiziqishi va e’tiborini yanada kuchaytirishga zamin yaratmoqda. O‘zbekistonda yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash chora-tadbirlarida “yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishi, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishi uchun

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

shart-sharoitlar yaratish, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” kabi vazifalar belgilangan.[1]

Adabiyotlar tahlili

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 7 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonlari, 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.[2]

Ma’lumki, boshlang‘ich sinflarda darsda ishtirok etayotgan o‘quvchilarning hammasi bir xil qobiliyat yoki jismoniy rivojlanishga ega emasligini shu o‘rinda yana bir bor yodga olib o‘tamiz.

Maktablarimizda o‘tilayotgan jismoniy tarbiya darslarini kuzatadigan bo‘lsak, aksariyato‘qituvchi – murabbiylarimiz butun sinf o‘quvchilariga birxil tempda dars o‘tayotgani hechkimga sir emas. Vaholanki, sinfda 30 ta o‘quvchi ta’limoladigan bo‘lsa, ular 30 xil organizm. Ularning hammasi ham o‘tilayotgan mashg‘ulotni bir xilda o‘zlashtiraolmaydi.

Shu ma’noda o‘qitishning har bir shakli o‘qituvchining o‘qitish jarayonidagi etakchilik qilish ahamiyati tamoyilini amalga oshiradi. o‘qituvchining etakchilik ahamiyatini tahlil qilish niketma-ket, uning o‘qitish jarayonidagi harakatlarini quyidagi bo‘limlar bo‘yicha ko‘rib chiqish orqali bajarish mumkin:

- o‘qitish maqsadini aniqlash;
- o‘qitishning xususiy vazifalari tizimini aniqlash;
- o‘quvchilar tayyorgarligining boshlangich darajasini aniqlash,

ya’ni ularning qobiliyatlariga, o‘zlashtira olish imkoniyatlariga qarab guruhlarga ajratish;

- o‘qitish mezonlarini aniqlash;
- o‘zlashtirishni baholash uslublarini aniqlash;
- zarur jihozlarni tayyorlash (ko‘rgazmali qurollar)
- o‘qitish qo‘llanmasi va inventarlarni tayyorlash;
- o‘qitishni butunligicha va elementlari bo‘yicha baholash;
- o‘qitishga zarur bo‘lgan hollarda tuzatishlar kiritish.

Tadqiqot metodologiyasi

Yuqorida ochib berilgan o‘qitishning hamma tamoyillari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, o‘qitish jarayonida birga qo‘llanishi mumkin. o‘quv jarayonida ularning birortasi buzilsa, boshqasini amalga oshirish qiyinlashadi. Jismoniy tarbiya darslarini takomillashtirishda o‘qituvchi hamma tamoyillarni yaxlit holda qo‘llagan taqdirdagina o‘qitishda yuqori natijalariga erishish mumkin.

O‘qituvchi tomonidan jismoniy tarbiya darslarida qo‘llaniladigan so‘zdan foydalanish uslublari butun o‘quv jarayonini faollashtiradi, harakatlanishlar to‘g‘risida yanada to‘liq hamda aniq tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya darslarini takomillashtirish ko‘rgazmali uslublari o‘rganilayotgan harakatlarning ko‘z bilan ko‘rish va eshitish orqali qabul qilinishini ta’minlaydi.[6]

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ko‘rgazmali metodlarni o‘rgatish alohida yoki guruhli tarzda o‘tkazilishi mumkin. Butun bir sinfga guruhli bir vaqtning o‘zida ko‘rgazmali o‘rgatish va alohida ya’ni o‘zlashtira olish qobiliyati sust o‘quvchilarga individual ko‘rgazmali o‘rgatish.

O‘qituvchi-murabbiy mashg‘ulotni o‘tkazish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan, pedagogikaning didaktikasi va uning tamoyillaridan foydalana olishi va doimo ularni amalga oshirishga erishishi lozim. o‘qituvchi mashg‘ulot oldidan o‘quvchilarga har bir o‘yinning mazmuni, vazifasi va qoidalarini tushuntirib berishi shart. Bu esa o‘quvchilarda o‘yinga ongli munoasabatda bo‘lishni, uni to‘g‘ri o‘rganib olishni, o‘z xatolari va yutuqlarini to‘g‘ri tushunish hamda harakatlarni o‘rtoqlarinikiga qiyoslab tahlil qilish imkonini beradi.

Darsda eng samarali jismoniy yuklamalarni boshqarish usullari uchun quyidagicha tavsiya beramiz.

Mashqlarni takrorlash meyyori- tabiiyki mashqlarning sonini kupaytirish yuklamaning ortishiga olib keladi, ammo o‘quvchilar tayyorgarlik darajasi hozircha baland bo‘lmaganligi uchun shu usuldan foydalaniladi. Mashqlanish darajasi ortib borgan sari bu usul samarasiz qoladi, chunki ko‘p vaqt sarflash talab etiladi, o‘qituvchi har bir daqiqani tejaydi.

Mashqlarni bajarish amplitudasi- biz bilamiz harakatlarni doimo to‘liq amplitudada bajarish qiyin. Shuning uchun o‘qituvchi–murabbiylar uni kamaytirishga urinadilar.

Jismoniy rivojlanish turmush sharoitining, xususan, tarbiyaning ta’sirida kishi organizmi biologik formalari va funktsiyalarining vujudga kelish, o‘zgarish jarayonidir. Jismoniy rivojlanish tabiatning ob’ektiv qonunlariga: funktsiya va struktura o‘zgarishlarining bir-birini taqozo etish qonuniga, organizmda asta-sekin miqdor va sifat o‘zgarishlari va boshqa qonunlarga bo‘ysunadi. Inson jismoniy rivojining ana shu va boshqa ob’ektiv tabiat qonunlari o‘zining namoyon bo‘lishi hamisha ijtimoy sharoitga bog‘liqdir. Ularning namoyon bo‘lishidagi harakat doirasi va formasi kishilar moddiy hayotining konkret tarixiy shart-sharoitlari, ijtimoiy taraqqiyotning ob’ektiv qonunlari bilan belgilanadi.

Kishi muayyan faoliyatga tayyorlanish uchun o‘zining qobiliyatini rivojlantirish maqsadida jismoniy mashqlarni ongli ravishda qo‘llagan taqdirdagina biz chinakam jismoniy tarbiya to‘g‘risida gapirishimiz mumkin.

Jamiyat moddiy hayot sharoitlari, jumladan, ov jismoniy tarbiya vujudga kelishining ob’ektiv sababi bo‘lgan.

Insonning ijtimoiy ongi rivoj topganligini jismoniy tarbiyaning vujudga kelishidagi sub’ektiv omil deb hisoblash kerak. Odam hayvondan shu bilan farq qiladiki, uning hayot faoliyati onglidir, uning xarakterida ma’no, maqsad bor. Inson o‘z tajribasini birovga berishning ijtimoiy usulidan foydalanadi, bu tajriba to‘plashning ijtimoiy jarayonini tezlashtiradi. Yangi avlod o‘zidan avvalgi avloddan o‘rgangan bo‘lib, ularning o‘rtasida bilimlarini, mahorat va malakalarini o‘rgatishdan iborat aloqa va doimiylik o‘rnatiladi.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya insoniy jamiyat qaror topishi bilan vujudga keldi. Harakat tajribasini avloddan avlodga berish va inson jismoniy rivojining maqsadga qaratilgan ta’siri jamiyatning kun kechirish va o‘z rivojining so‘zsiz omili sifatida jamiyatning eng dastlabki davrida xarakterlidir. Jismoniy tarbiya insonning tabiatini o‘zlashtirishga qaratilgan hayoti va faoliyatining kechishidagi adabiy tabiiy shart-sharoit sifatida muhim vosita bo‘ladi. Jismoniy tarbiyasiz avlodlarning almashishi davomida progressiv tajriba to‘planishini tasavvur hal qilib bo‘lmasdi.

Tahlil va natijalar

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Jismoniy tarbiyaning **ijtimoiy vazifasi** –insonning sihat-salomatligini yaxshilashga, uning jismoniy kamol topishiga, har taraflama rivojlanishiga qaratilgan va u mehnatga va Vatan himoyasiga tayyorgarlik vositasi sifatida xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya tarbiyaning boshqa vositalari (axloqiy, estetik, aqlliy, mehnat)bilan ob'ektiv ravishda bog'liqdir. Tarbiyaning boshqa barcha turlaridagi singari jismoniy tarbiya jarayonida ham bir qancha mushtarak pedagogik vazifalar hal etiladi.

Tarbiyaning har xil turlarini qarama**-**qarshi qo'yib, ularni bir-birlaridan ajratib bo'lmaydi. Shu bilan birga jismoniy tarbiyani tarbiyaning mustaqil turi sifatida o'ziga xos xususiyatini nazar-pisand qilmaslik mumkin emas. Jismoniy tarbiyaning boshqa turlari inkor qilingan taqdirda, tarbiyaning boshqa turlari bilan uning mushtarak belgilari haqidagina gapirib, ko'pincha jismoniy tarbiyani alohida ajratishning g'ayri qonuniyligi to'g'risida fikr paydo bo'ladi, jismoniy tarbiya o'zi eskirib qolgan termin, unda go'yo inson haqidagi dualistik kontseptsiya aksi bor hisoblaydilar.

Jismoniy tarbiyada jismoniy kamolot bilan pedagogik faoliyat o'zaro aloqada bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, jismoniy kamolot ob'ektiv tabiiy qonunlarga muvofiq bo'ladi, muayyan ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun ana shu kamolotni yaxshilashga qaratilgan pedagogik faoliyat ham bunga ta'sir o'tkazadi. Jismoniy taraqqiyotning ob'ektiv qonunlarini egallash bilan birga demokratik jamiyat ehtiyojlariga muvofiq ravishda jismoniy tarbiya yordamida inson jismoniy taraqqyotini boshqarishni o'rgatish zarur.

Jismoniy tarbiyada yaxlit pedagogik jarayon sifatida hamisha ham tarbiyaviy, ham ta'limiy elementlar bo'ladi. Bu elementlar qo'yilgan vazifaga qarab har biri alohida holda turlicha bo'ladi.

Jismoniy tarbiyada jismoniy taraqqiyot qonunlari ham, aslini olganda jismoniy tarbiyaning ijtimoiy qonunlari ham aks etadi. Jismoniy tarbiyaning ijtimoiy qonunlaridan foydalanish xarakteri va usuli aslida jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tuzumidan kelib chiqadi. Bu jismoniy tarbiyaga ijtimoiy xarakter beradi.

Jismoniy tarbiya- bu umumiy madaniyatning bir qismi, xalq jismoniy barkamolligi maxsus vositalarini maxsus vositalarini yaratish hamda foydalanish ishini jamiyat erishgan muaffaqiyatlarning yig'indisidir. Sihat-salomatlik darajasi, jismoniy qobiliyatlarning har taraflama rivojlanishi, sport mahorati va kishilarning kundalik hayotiga jismoniy tarbiya vositalarining singib ketishi va ana shu erishilgan muvaffaqiyatlarga jismoniy tarbiya va vazifalarni hal etish bilan bevosta bog'liq bo'lgan jamiyat hayotida paydo bo'lib, rivojlanadigan narsalarning hammasini ham kiritish kerak. Shu jihatdan qaraganda, jismoniy tarbiyani amalga oshirishga hamda unga rahbarlik qilishga da'vat etilgan jismoniy tarbiya tizimi, maxsus ilmiy tashkilotlar (sport inshootlari, ashyolari va boshqalar) muhim ko'rsatkich bo'ladi.[5]

Jismoniy tarbiyaning mazmunida o'tkinchi bo'lmagan, umum-bashariy ahamiyatiga ega elementlar bor (jismoniy tarbiya vositalari, ayrim ilmiy va texnikaviy muvaffaqiyatlar va hokazolar). Ular ijtimoiy jismoniy tarbiya tomonidan qabul qilinadi, tanqidiy qayta ishlab chiqiladi va rivojlantiriladi. Ijtimoiy jismoniy tarbiya o'ziga yo'llar bilan rivojlana boradi, lekin shu bilan birga boshqa xalqlardan jamiki yaxshi narsalarni qabul qilib oladi, o'z navbatida esa, ularning jismoniy tarbiyasini boyitadi.

Xulosa

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Shunday qilib, jismoniy tarbiya shunday ijtimoiy hodisani, u jismoniy tarbiya sohasida ijtimoiy tarixiy praktika jarayonida to‘plangan muvaffaqiyatlarning hammasini o‘z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya erishgan muvaffaqiyatlar jamiyat hayotida aktiv rol’ o‘ynaydi. Bu muvaffaqiyatlar kishilarni jismoniy va ma’naviy tarbiyalash vositalari sifatida foydalaniladi.

Jismoniy tarbiya nazariyasining yuqorida bayon etilgan asosiy tushunchalari o‘zaro chambarchas bog‘langandir, chunki ushbu tushunchalarda aks ettirilayotgan hodisalar o‘rtasida ob’ektiv ichki aloqa bor. Binobarin, bu tushunchalarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish, metafizikchasiga bir-biridan ajratib tashlash mumkin emas. Ayni paytda ularni aniq farqlash kerak, chunki ularning har biri har xil hodisalarni aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 августдаги ПҚ –3907-сон «Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори. // https: lex.uz/docs/3864155.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ – 4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. // https: lex.uz/docs/3107036.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 3 август куни мамлакатимиз ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашув ўтказди. // https: uza.uz/uz/posts/adabiyet-va-sanat-madaniyatni-rivozhlantirish-khal-imiz-mana-03-08-2017.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni (Yangi taxriri). -T.: 2015-yil 4-sentabr.
5. Axmedov F.Q., Atamurodov Sh.O‘. Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent -2019-yil.
6. F.Q.Axmedov. Harakatli o‘yinlarni tashkil qilish va o‘rgatish yo‘llari. Toshkent 2009-yil.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI IZCHILLIK ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayev Shaxboz Solijon o‘g‘li-Farg‘ona davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya: *Maqolada informatika va axborot texnologiyalari fanini izchillik asosida o’qitish metodikasini takomillashtirish haqida so‘z boradi. Maqoladan olingan xulosalarni bo‘lg‘usi informatika o‘qituvchilarini o‘qitishda foydalanish mumkin. Maqola mavzusini ochib berish maqsadida xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqot ishlanmalaridan foydalanilgan.*

Kalit so‘zlar: *informatika, axborot texnologiyalari, o‘qitish, metodika, pedagogika.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ИНФОРМАТИКЕ И ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ

Абдуллаев Шахбаз Солижонович-преподаватель кафедры «Информационных технологи» Ферганского государственного университета.

Аннотация: *В статье речь пойдет о совершенствовании методики преподавания информатики и информационных технологий на основе согласованности. Выводы из статьи могут быть использованы при обучении будущих учителей информатики. В целях раскрытия темы статьи использованы научно-исследовательские разработки зарубежных ученых.*

Ключевые слова: *информатика, информационные технологии, преподавание, методика, педагогика.*

IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING COMPUTER SCIENCE AND INFORMATION TECHNOLOGY ON THE BASIS OF CONSISTENCY

Abdullaev Shakhboz Solijonovich-teacher of the Department of Information Technology of Fergana State University.

Annotation: *The article will talk about improving the methodology of teaching computer science and Information Technology on the basis of consistency. The conclusions drawn from the article can be used to train future Informatics teachers. In order to reveal the topic of the article, scientific research developments of foreign scientists were used.*

Keywords: *informatics, information technology, teaching, methodology, pedagogy.*

Kirish

XXI asr tehnika asridir. Dunyodagi tehnika va fan borasidagi o‘zgarishlar kun sayin emas soat sayin o‘zgarib bormoqda. Aniq fanlar, IT va axborot tehnologiyaalri borasidagi yutuqlar kundan kunga rivojlanib bormoqda. Informatika va ahborot tehnologiyalari fani kirib bormagan biror bir ta’lim muassasasi va bosqichi qolmagan. Ta’limning deyarli barcha bosqichlarida informatika fani yoki shu doiradagi bilimlarning o‘qitilishi dolzarb muammolardan biriga aylangan. Ta’limda olib borilayotgan islohotlar qonunchilikdagi o‘zgarishlar bilan ham mustahkamlanib borilmoqda. Xurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham IT va uning ta’limi bo‘yicha alohida e’tibor bilan qarab, respublikamizda ushbu fanlarning o‘qitilishini sifatini ta’minlash maqsadida turlicha islohotlar va yengilliklar berib borilmoqda. Jumladan, 06.10.2020 yildagi PQ-4851-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni it-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son “O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va boshqa bir qator hujjatlarda ahborot texnologiyalari ularni o‘qitishning dolzarb masalalari bo‘yicha aloxida to‘xtalib o‘tilgan[4].

Biz qurayotgan jamiyatni zamon talablariga mos ravishda qurish uchun ta'lim tizimini isloh qilish muammosi milliy vazifadir. Ko'rib chiqilayotgan muammoning ahamiyati axborot jamiyatiga o'tish va ta'limni xalqarolashtirish sharoitida yangi O‘zbekiston fuqarosini shakllantirishdir. Ta'limni xalqarolashtirish XX asrning so'nggi o'n yilligida va XXI asr boshlarida dunyoda ta'lim rivojlanishining eng xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lib, unga siyosiy va iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashishi, global telekommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi va boshqa omillar yordam beradi. Jamiyatning axborot jamiyatiga o'tishi munosabati bilan ta'limni axborotlashtirish masalasi ham mamlakat, ham xorijiy davlatlar uchun dolzarb bo'lib qoldi.Iqtisodiyot va kundalik faoliyatni boshqarish tizimlarida axborot texnologiyalaridan (IT) foydalanish axborot oqimlari hajmining sezilarli darajada oshishiga va ularning murakkab

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

iqtisodiy va texnik tizimlarning ishlashidagi roliga olib keldi. Bunday tizimlarning ishlash sharoitlarining keskinligi mutaxassislarning axborot tayyorlash darajasiga va ularning ko'nikma va qobiliyatlarining mustahkamligiga alohida talablar qo'yadi. Tadqiqotimizdan asosiy ko‘zlangan maqsad, informatika va axborot texnologiyalari fanini izchillik asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish va bu boradagi tadqiqot ishlariga nazar solishdir. Xo‘sh, izchillik o‘zi nima? Ta’limda izchillikni ta’minlash deganda nima tushuniladi? Izchillik so‘zi muntazam va uzviy bog‘liq degan ma’nolarni bildirib, tadqiqotimizda informatika fanini o‘qitishning muntazamligini yohud uzviy bog‘liqligini ta’minlashdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ushbu mavzuga oid bo‘lgan adabiyotlarga Rossiya va Yevropa olimlarining ilmiy-tadqiqot faoliyatidan namunalarni keltirish mumkin.

Ushbu mavzuga doir rus olimlaridan S. A. Beshenkov, A. V. Goryachev, S. G. Grigoryev, V. V. Grinshkun, A. P. Ershov, A. A. Kuznetsov, M. P. Lapchik, V. S. Lednev, I. V. Levchenko, N. V. Makarova, I. G. Semakin informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishning uslubiy tizimini shakllantirish va rivojlantirish muammolarini o'rganib chiqdilar. Boshlang'ich maktabda informatika fanini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanishda ushbu fanni o'rganish zarurati S. A. Beshenkov, T. P. Bokuchava, yu.M.Gorvits, A. V. Goryacheva, A. A. Kuznetsova, I. V. Levchenko, N. V. Makarova, yu.A.Pervin, A. L. Semenova va boshqalar[1,2,3]. Olimlarning tadqiqotlarida informatika fanini propedevtik darajada o'qitishning uslubiy va texnologik jihatlari ochib berilgan, fanni o'rganishning o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga ta'siri, shuningdek, boshlang'ich maktab o'quvchilari tomonidan informatika fanining asosiy tushunchalarini samarali o'zlashtirish imkoniyati isbotlangan. Boshlang'ich sinflarda ushbu fanni o'qitish uchun o'quvuslubiy to'plamlar yaratildi (A. V. Goryachev, O. T. Volkova ,I. G. Gorina, A. L. Semenov, T. A. Rudchenko, O. V. Shcheglova, N. V. Matveeva, E. N. Chelak, N. K. Konopatova, S. N. tur, T. P. Bokuchava, E. P. Benenson, A. G. o'rgimchak), o'quvchilarning mantiqiy fikrlash,muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga, universal ta'limni shakllantirishga qaratilgan harakatlar, asosiy nazariy tushunchalar, kompyuterda ishlash qobiliyatlari. Shunga qaramay, pedagogik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish, boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan suhbatlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich maktab o'quvchilari asosan informatika fanidan fragmentli bilimlarga ega, bu birinchi navbatda boshlang'ich maktab o'quvchilarining ushbu fanga bo'lgan qiziqishining past darajasi bilan bog'liq[1].Tadqiqotlarida N. G. Morozova, L. I. Bojovich, G. I. Shukina interaktiv metodlardan o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish samaradorligi o'quvchilarning bilim qiziqishini shakllantirish darajasiga bog'liqligini isbotladi. O'quvchilarning bilim qiziqishini shakllantirishda boshlang'ich maktabga alohida o'rin beriladi. L. S. Vygotskiy, V. V. Davydov, L. V. Zankovning so'zlariga ko'ra, bu bola rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lgan boshlang'ich maktab yoshi, chunki bu davrda o'quv faoliyati, xususan, uning kognitiv motivatsiyasi va faoliyati shakllanmoqda, bu esa o'quvchining keyingi ta'limiga ta'sir qiladi[2].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot o’bekti sifatida ushbu mavzu doirasida ta’limning barcha bosqichlarini olish mumkin. Chunki xozirgi kunda boshlang‘ich ta’limdan boshlab ushbu fanning birlamchi elementlari o‘qitib kelinmoqda. Ushbu jarayoning o‘ziyoq ta’limda ushbu fanning o‘qitilishi jarayonini uzviyligi ta’minlanganligini anglatadi. Ushbu jarayonni metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirish ko‘p holda ta’lim tizimidagi islohotlar bilan bog‘liq. Yana bir misol sifatida, ta’limda faqatgina informatika va ahborot tehnologiyalari fanini fanning o‘zi orqali emas balki, har

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

bir fanda informatika faninini izchillikni ta'minlash ko'proq samaradorlikka olib keladi.. Shuningdek, xar bir fanni o'qitilishida nafaqat, u aniq fanlar, balki ijtimoiy-gumanitar fanlarda ham informatik va ahborot tehnologiyalari fani va unga doir bilimlarni uzviylikda o'qitilishini ta'minlanmoqda.

Misol uchun, fanni boshqa fanlar bog'lab o'tilishini birgina ijtimoiy-gumanitar fanlardan tarix fanini informatika bilan ham bog'lab o'tish mumkin va bu orqali o'quvchida informatik ko'nikmalarni shakllantirish va fanning o'quvchi hayotidagi uzviyligini ta'minlashga erishish mumkin. Misol uchun, tarix fanida istalgan mavzu bo'yicha o'quvchiga uyga vazifani electron chizma yoki maket ko'rinishida berish mumkin. Yoki ona tili va adabiyot fanlaridan biror topshiriqni berib uni jadvalga tushirish yoki matn muharriri yordamida matn terish kabi uyga vazifalarni berish mumkin.

Tahlil va natijalar

Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, informatika va ahborot tehnologiyalari fanini uzviyligini ta'minlashda faqat shu fan o'qituvchisi emas balki xar bir fan o'qituvchisi ma'suldir. Bunda asosiy urg'u oliy ta'limda pedagogic kadrlarni tayyorlashning ilmiy-findamental asoslariga qaratish lozim. Xar bir fan pedagogi ushbu fan ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Xozirgi kunda ham xalq ta'limida pedagoglarni bu boradagi ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va doimiy mukamallashtirib borish maqsadida fan borasida tizimli sinov attestatsiyadan o'tishlari belgilangan.

Xulosa

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo'lsak, informatika va ahborot texnologiyalari fani XXI asrda nafaqat ilmiy faoliyatda muhim fan sifatida balki kundalik hayotimizdagi xar bir jarayondagi ajralmas bir element sifatida shakllanagandir. Ushbu fanning izchiliggini kafolati sifatida xozirgi kundagi axborot texnologiyalari asri ekanligini kundalik muhitimiz uning elementlari bilan boy ekanligini va xar qadamimiz texnikalar bilan bog'liqligini misol sifatida aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абельский А. Проблемное обучение на уроках информатики // Информатика и образование. 1991. № 2. С.32-38.
2. Абельский А. Проблемное обучение на уроках информатики // Информатика и образование. 1991. № 2. С.32-38.
3. Шутикова М.И. Изучение социальных аспектов информатики в школе и вузе: Монография. Омск: Изд-во Омского экономического ин-та, 2007. 150 с.
4. www.lex.uz

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ADVANTAGES AND METHODS OF USING VIDEO IN ESL/EFL CLASSES

Nasiba Abulkasimova,
Lecturer at Foreign language and literature (English) department,
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
e-mail: abulkasimova2016@mail.ru

Abstract: *This article examines the importance and effectiveness of video or streaming site videos in teaching English as a foreign language. The videos could be effective tool for learning modern English as students can watch and listen to native speakers. In this article the benefits and problems of video usage in classes are researched. In the conclusion part the author tries to give recommendations of using videos in ESL/EFL classes.*

Keywords: *language teaching, video, language lessons, real-world video, online video, students.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается важность и эффективность видео или потокового видео с сайтов при обучении английскому языку как иностранному. Видео могут стать эффективным инструментом для изучения современного английского языка, так как студенты могут смотреть и слушать носителей языка. В статье исследуются преимущества и проблемы использования видео на занятиях. В заключении автор пытается дать рекомендации по использованию видео на занятиях ESL/EFL.*

Ключевые слова: *обучение языку, видео, языковые уроки, реальное видео, онлайн-видео, студенты.*

Annotatsiya:*Ushbu maqolada ingliz tilini chet tili sifatida o‘rgatishda veb-saytlardan video ahamiyati va samaradorligi muhokama qilinadi. Videolar zamonaviy ingliz tilini o‘rganishda samarali vosita bo‘lishi mumkin, chunki talabalar ona tilida so‘zlashuvchilarni tomosha qilishlari va tinglashlari mumkin. Maqolada darsda videodan foydalanishning afzalliklari va qiyinchiliklari o‘rganiladi. Xulosa qismda, muallif ESL/EFL darslarida videodan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berishga harakat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *til o‘rgatish, video, til darslari, real video, onlayn video, talabalar.*

Introduction

In the modern world of language teaching, many teachers heavily rely on using real-world videos as a teaching resource. A real-world video is a video which was not made or intended to be used specifically for language lessons—for example, news reports, documentaries, scenes from TV shows, trailers, music videos, instructional videos, interviews, performances, etc. Using a real-world video can lead to student growth and progress, and increase students' confidence in using their language skills in real life.

The influence of digital videos on our everyday culture is undeniable. Online video sharing sites such as YouTube, Vimeo, and Metacafe boast monthly audience numbers in the millions. With digital videos continuing to gain popularity, it seems only natural that this familiar and widespread platform should extend into the education system.

Exposure to unfamiliar accents, tones, pronunciation, & terminology

Back then we being students, went to libraries and stood in a line to get the books in demand, the books were always the same, we could accept information only from books by reading, no listening or watching… Students today are using educational videos as a tool for learning

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

everything: from basic skills - like changing a tire - to the latest dance craze. Remarkably, millennials make up 92% of the digital video viewing audience. Abstract topics that once seemed difficult to teach and learn are now more accessible and understandable thanks to the availability of effective educational video platforms for online learning.

Studies have shown that the use of short video clips allows for more efficient processing and memory recall. The visual and auditory nature of videos appeals to a wide audience and allows each user to process information in a way that's natural to them. In a nutshell, videos are good teachers.

In additional, video gives learners a truly authentic learning experience. It can take the learner away from the teacher's voice for a period of time and allows the learners to hear multiple speakers using the language in natural contexts. Why does this help with their learning? Well, it's quite common for students to understand their teacher probably better than many other English speakers for two reasons – the first reason being that students are often used to the teacher's voice. And the second is that teachers often grade their language down a bit when speaking with their students, and tend to speak a bit more clearly, simply, and slowly, in order for students to understand them. Language teachers are often aware that they speak differently to their friends at home compared with their students in their classes.

Therefore, when students watch a video with someone else using the target language, they get a break from the teacher's voice and must train their ear to different voices, accents, tones, pronunciation, and terminology. Consequently, it becomes an incredibly beneficial experience for learners to train their listening comprehension skills.

The use of videos in teaching and learning serves to not only benefit students, but also teachers, their affiliated institutions, and the entire school system. A 2015 study conducted by software company Kaltura concluded that 93% of teachers believe that the use of educational videos improves the learning experience. They also serve to break down barriers, such as student and campus location, which were once insurmountable.

As a result, educational institutions are faced with the task of meeting the rising demand for quality learning videos, online course offerings, and campus accessibility. Indeed, many are choosing to create their own educational video learning materials. While this idea may seem daunting, it can be a positive and enjoyable experience if you contract a full-service video production company that can tailor your videos to your institution's individual needs.

Let's see benefits:

Benefits to students:

- **Videos create a more engaging sensory experience than using print materials alone.** Learners actually get to see and hear the concept being taught, and they can process it in the same way they process their everyday interactions.
- **They provide a go-to resource that can be watched from anywhere** with an internet connection. Videos are accessible on a multitude of devices including laptops, tablets, and smartphones. This allows for viewing at the student's convenience and from wherever they are.
- **Videos increase knowledge retention,** since they can be stopped and replayed as many times as needed. They can also be reviewed long after the initial lesson was taught.
- **They greatly assist in the learning of all subjects**, but particularly those topics that are complex and/or highly visual, such as step-by-step procedures, problem-solving, or science and math formulas.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

- **They increase proficiency in digital literacy and communication,** which are important 21st-century skills.

Benefits to teachers:

- **Videos increase student engagement,** which in turn helps boost achievement. If students are interested in the material, they will process and remember it better.
- **They offer the flexibility** to pause, rewind, or skip throughout the video to have class discussions or review particular areas.
- **They enable teachers to create a flipped classroom** or "blended" learning environment. However, videos are also beneficial to teachers who teach in traditional classroom settings.
- **Digital videos facilitate remote learning opportunities** so that teachers can reach students from all over the world.
- **Many videos now contain analytics features** that enable teachers to track student engagement and attendance while viewing. Companies like NextThought even provide platforms that can track how long a video was viewed for and what percentage of the video was watched. This allows the facilitator to gauge the effectiveness of the video.
- **They provide opportunities for student feedback and assistance** through video. This is helpful for students who are unable to attend classes, or who need tutoring or review sessions.
- **Videos seek to change the roles of teachers from lecturers to facilitators.** It's important to note that videos are meant to enhance course materials and lectures - not replace them.

Benefits to institutions:

- **Great potential to improve marketing and communications.** Digital videos help to broaden your audience by reaching a greater number of people. These can be posted on your institution's website or linked in an email or digital advertisement, or posted on social media.
- **More flexible faculty and staff training.** It's often difficult for schools to assemble all of their faculty and staff at the same time, resulting in fragmented information acquisition. Using digital videos as a delivery method for training ensures that your faculty and staff have equal access to the information. Offering this option not only improves their retention and recall, but also serves as an archive to review it any time.
- **Ability to record campus events for live or on-demand viewing.** When parents, students, and alumni feel closer to what's going on at your school, they'll feel more invested, thus increasing the likelihood of positive recommendations and engagement with students new and old.
- **Ability to increase online course offerings.** Online university programs are extremely popular, due to diverse student populations. Broadening your institution's online program can serve to greatly enhance your appeal with potential online students.
- **Digital videos can be integrated into your institution's learning management system (LMS).** Enabling video clips to be easily uploaded to your LMS provides an additional resource for students and teachers.
- **Increasing campus accessibility through videos conveys an attitude of positive public relations** to parents, potential students, and alumni. This can attract potential students and is a powerful recruiting tool.
- **The use of videos in education shows a high return on investment (ROI)** in those institutions that employ a tool to measure it. This includes higher grades reported when video review modules are offered and viewed before exams.

Using Educational Videos in the Classroom: Theory, Research, and Practice

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Cognitive science is an area that focuses on how humans process information. The science behind educational videos is that, since they are observed through both the visual/pictorial and auditory/verbal processing channels, learners are able to make more relevant associations that help with memory and recall.

In order to maximize reception and processing, the following four methods are best practices to employ when designing and creating effective learning videos:

- **Signaling:** This is done through the use of on-screen text or graphics. It directs the learner's attention and highlights the specific information that needs to be processed.
- **Segmenting:** Information is divided into appropriately sized chunks, to give the learner more control when trying to process it. This is achieved through the effective management of video length and the use of break points or pauses throughout.
- **Weeding:** The removal of any unnecessary information in a video that may hinder the learner's ability to process and recall the information. Weeding maximizes learners' memory capacities for both the auditory and visual channels.
- **Matching Modality:** This refers to presenting information in a way that targets both the auditory and visual channels simultaneously. An example of this would be providing a narration while showing an on-screen animation. This serves to increase processing in the working memory and prevents cognitive overload.

The following recommendations are helpful when creating an effective and beneficial educational video:

- Limit videos to about five minutes or less, unless you are trying to relay a great deal of information.
- Maintain a conversational and enthusiastic tone to keep learners engaged.
- Properly balance auditory and visual elements throughout.
- Break videos into short segments by topic or theme.
- Include interactive and responsive features, such as a short quiz, to promote reflection and ownership.

When using video clips in the classroom, shorter clips (around five to 10 minutes) help students learn the information without being overloaded or losing their focus. Longer videos are also effective — however, their total length should typically be limited to no more than 30 minutes. Showing video clips in short segments and keeping the total length contained to a concise running time helps to keep viewers engaged.

Using captions and subtitles with videos has also been proven to be effective in helping students access and process information. This is especially important when considering diverse student populations, including non-native English speakers and those with special needs.

Creating Quality Educational Videos

Results of the recent Kaltura survey showed that 82% of the educators polled felt that using videos to teach boosts student achievement levels. However, many educators often feel burdened with the overwhelming task of finding current, legal, and engaging videos to share with their students.

The same survey also revealed educators' desire to increase their own digital literacy skills and receive training in the creation of learning videos for their students.

Many educational institutions today are choosing to create their own videos, not only for classroom and coursework purposes, but also for student, staff, and alumni communication. More

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

and more schools are turning to full-service video production companies to facilitate this. This approach offers schools the greatest flexibility to tailor videos to their specific needs, while ensuring that they are engaging and relevant.

Activates two channels for learning

Language learners benefit immensely from watching videos because they must simultaneously activate two sensory channels – listening and viewing. Simply put, when you watch a video, you hear the sound and see the motion picture at the same time. This helps learners 'fill in the gaps' – if there are unknown words, terminology, or expressions to students while watching a video, they have the visual element, as well as contextual dialogue or speech, to help them supplement those missing gaps and help them contextualize the new language.

Vocabulary is learned much more effectively when matched with visuals/video rather than definitions/explanations. Language learners tend to remember the imagery, visuals, sounds, objects, faces, and voices in the context of the video, and therefore build a stronger mental association to the vocabulary words that were used in the video.

Topical and cultural value

We're bombarded with videos all day online and on social media – it has become such a normalized medium for communication, information, entertainment, advertising, and art. There are videos used in a variety of contexts in just about any industry, and no matter what the learners' interests are, there are most likely videos somewhere on the web that are relevant to and suit their interests.

The types of video mentioned above can also be valuable in terms of cultural education. When learners are exposed to real-world videos, it can help them learn about the culture and get to know the people, customs, beliefs, sports, foods, lifestyles, and values of those who speak the target language. This is useful because the more someone is educated in culture, the more they develop open-mindedness and, in turn, the likelihood of developing intercultural empathy – an important trait in today's globalized world.

Take for example, a class watching a video about the sport of Irish hurling. Since hurling is quite specific to Ireland only, the students are learning something new about Irish culture. And lastly, back to the point about exposure mentioned earlier-if they're watching a video about Irish hurling, they're likely listening to someone talk about hurling with an Irish accent.

Trains understanding and encourages speaking skills

All in all, In English, the nature of homographs and homophones is different. This is due to differences in the guiding principles of spelling. If in the Russian language the leading is the morphological principle of spelling (the principle of uniform spelling of morphemes), then in the English language the overwhelming majority of spellings are subject to the historical and traditional principle. It follows from this that both languages are to some extent distanced from the phonetic principle, which requires, as you know, the coincidence of sound and spelling. In other words, the sound and spelling of words and morphemes in Russian and English do not coincide approximately to the same extent, but the nature of these discrepancies is different. Thus, if homographs and homophones in Russian arise under the influence of living phonetic processes, then in English they are the result of historical processes. This is directly reflected in the teaching strategy of Russian and English homographs and homophones. If in teaching Russian homographs and homophones the emphasis should be on the study of the synchronic aspect of phonetics, then in teaching English - on the study of the diachronic aspect of phonetics. Taking into account the complexity of this approach, it turns out to be most expedient to refer to the dictionary and simply memorize the existing differences.

References

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1) Dzhusupov, M. (2017), Bulletin of RUDN University // Series: Educational issues: languages and specialty. - T., - 14, - No. 3.
2) Jalolov, J.J. (2017), Interference in the methodology of teaching a non-native language // Uzbekistonda xorijiy tillar // ilmiy-methodik electronic journal, No. 5–
3) Mamedova, M.A. (2020), Homonymy as one of the difficulties of the English language // Pedagogical skills, - No. 5, ISSN 2181-6883.
4) Mamedova, M.A. (2020), The role of computer technologies in teaching English to students of secondary schools // Scientific Bulletin of Namangan State University. - No. 10. ISSN 2181-0427
5) Mamedova, M.A. (2020), Methodical features of teaching homonyms of English language using computer technology // International Journal of psychosocial Rehabilitation, ISSN: 1475- 7192.
6) Yusupov, U.K. (2007), Theoretical foundations of comparative linguistics, - Tashkent, - Uzbekistan.

INGLIZ TILI CHET TILI SIFATIDA O‘TILADIGAN O‘ZBEK MAKTABLARIDA O‘QISH ORQALI LUG’ATNI O‘RGATISHNING MUAMMOLARI

Chorshanbiyeva Lobar Abdumo‘min qizi
Termiz davlat pedagogika instituti,
Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili, magistranti
Kodirova Mukaddas Tog ‘ayevna, Ter DPI, fil.fan.b.fal.dok. (PhD)
E-mail: lobar@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqola o ‘zbek maktablarida ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishda duch kelinadigan muammolar, jumladan lug’atni o‘rgatish nazariyasiga bag’ishlangan. Maqolada lug’at o‘rgatish o‘qish orqali amalga oshirish va lug’atni*

o‘rgatish strategiyalari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Lug’atni o‘rgatish strategiyalarini ishlab chiqishda besh bosqichni amalga oshirish va lug’atni ikki turga tasniflab olish tavsiya etilgan.

Kalit so ‘zlar: *ingliz tili, ingliz tili chet tili sifatida, lug’at, o ‘qish, kontekstsiz lug’at, kontekstli lug’at, retseptiv lug’at, ekspressiv lug’at.*

PROBLEMS OF TEACHING VOCABULARY THROUGH READING IN EFL (English as a foreign language) UZBEK SCHOOLS

Chorshanbiyeva Lobar Abdumo‘min kizi
Termez State Pedagogical Institute,
Foreign Language and Literature: English Language, Master ‘s Degree
Kodirova Mukaddas Togayevna, Ter DPI, Ph.D. (PhD)
E-mail: lobar@mail.ru

Annotation: *This article is devoted to the problems encountered in teaching English as a foreign language in Uzbek schools, including the concept of vocabulary teaching. The article provides detailed information on the implementation of vocabulary teaching through reading and vocabulary teaching strategies. In the development of vocabulary teaching strategies, it is recommended to implement five steps and classify vocabulary into two types.*

Key words: *English, English as a foreign language, vocabulary, reading, context-free vocabulary, contextual vocabulary, receptive vocabulary, expressive vocabulary.*

ПРОБЛЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ЛЕКСИКИ ЧЕРЕЗ ЧТЕНИЕ ТАК КАК АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК ПРИНИМАЕТСЯ ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК В НАЦИОНАЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Чоршанбиева Лобар Абдумомин кызи
Термезский государственный педагогический институт,
Иностранный язык и литература: английский язык, степень магистра
Кодирова Мукаддас Тогаевна, Тер ДПИ, к.т.н. (Кандидат наук)
Электронная почта: lobar@mail.ru

Аннотация. *Данная статья посвящена проблемам, возникающим при обучении английскому языку как иностранному в национальных школах, а также теории обучения лексике. В статье представлена подробная информация о реализации обучения лексике через стратегии чтения и обучения лексике. При разработке стратегии обучения лексике рекомендуется реализовать пять шагов и разделить лексику на два типа.*

Ключевые слова: *английский язык, английский язык как иностранный, лексика, чтение, контекстно-свободная лексика, контекстуальная лексика, рецептивная лексика, экспрессивная лексика*

Ma'lumki, ingliz tili yigirma birinchi asrning global tiliga aylanmoqda. Bu til bir nechta qit'alarda, ko'plab mamlakatlarda va dunyoning turli burchaklarida muloqot tili sifatida qo'llanilmoqda. Shuningdek, ingliz tili xalqaro til sifatida hayotning ko'plab jabhalariga, masalan, savdo, ta'lim, xalqaro munosabatlar va boshqalarga chuqur kirib borgan. Shuning uchun ingliz tilini o'rganishga va o'rgatishga butun dunyoda, jumladan O'zbekistonda ham katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, O'zbekistonliklar uchun ingliz tilini imkon qadar erta o'rganish ularga global raqobatga qarshi turishga yordam beruvchi vositalardan biri deb, qaralmoqda.

G.Maxkamova va U. Kusanova O'zbekistonda chet tillarni o'rgatish va o'rganish metodologiyasining rivojlanish tarixini Respublika mustaqillikka erishgandan keying davrni ikkiga ajratdilar: 1) 1991-2012 va 2) 2013-2020 yillarga [7]. Birinchi davr chet tillarini o'rgatish va o'rganishning turli yondashuvlari va usullarini birlashtirishga urinishlar asosida uzluksiz chet tillarini o'rgatish va o'rganishning ko 'p bosqichli modelini yaratish bilan tavsiflanadi. Masalan, bu davr
o'quv dasturlarida grammatik tarjima usuli, kommunikativ tilni o'rgatish hamda kognitiv-kommunikativ va madaniyatlararo yondashuvlarning kombinatsiyasini kuzatishimiz mumkin. Ikkinchi davr boshlang'ich ta 'limni (1-4-sinflarni) chet tillarini o'rgatish va o'rganish tizimiga kiritish [2] va keyinchalik o'rta maktab ta'limini 10-11-sinflar bilan kengaytirish hisobiga yangiliklarga boy [1]

1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshi O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitishda yangi davr boshlandi. Bu davrga kelib, barcha manfaatdor tomonlar, jumladan o 'qituvchilar, talabalar, maktablar, kollejlar va universitetlar chet tillarini
o'rgatish va o 'rganish usullarini isloh qilish zaruriyatini his qila boshladilar. Shunga qaramay, bu islohotlar qanday amalga oshirilishi, qanday o'zgarishlar kiritilishi, o'zgarishlarning tashabbuskori kim bo'lishi va ta'lim sohasidagi islohotlarga odamlarning munosabati qanday bo'lishi noaniq edi [5]. O'zbekistonda ingliz tilining ahamiyatini chuqur tahlil qilgan D.Hasanova (2007) barcha ta'lim muassasalari chet tili darslarini o'tashlari shart, deb tushintirdi [4]. Shu bilan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

birgalikda, uzluksiz ta'lim tizimida til ta'limi pedagogikasi va metodikasining dolzarb yo'nalishi bo'lgan chet tillarini o'zlashtirishning sifat ko'rstakichlarini xalqaro darajada tan olinishiga oid talablarni ishlab chiqish va uni real hayot ehtiyojiga moslashtirish va til ko'nikmalarini takomillashtirish va fundamental mezonlarni yaratish o'zbek olimlarining ham oldidagi dolzarb muammo edi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, O'zbekistonda ko'pchilik kundalik ravishda ingliz tilida gapirishga minimal darajada duch kelishadi, shuning uchun barcha ta'lim muassasalarida ingliz tili chet tili sifatida o'qitiladi va o'rganish ingliz tilidan haqiqiy kommunikativ funktsiyalar uchun darhol foydalanish imkoniyatisiz sodir bo'ladi. Bundan tashqari, bu davrda EFL (English as a foreign language – Ingliz tili xorij til sifatida) o'qituvchilari O'zbekistonda eskirgan ma'ruza va yodlash metodologiyalaridan foydalanishdan voz kechish vaqtiga kelganligini ko'rsatardi. Chunki, o'rganuvchilar ko 'pincha ingliz tilini o 'rganish uchun ichki yoki integral motivatsiyaga ega bo'lmas edi, natijada bilim darajasi past bo'lardi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun ko'plab yangi til o'qitish uslublari tadqiq va taklif etilmoqda. Shulardan biri – xorij tilini samarali o'rganishda lug 'at boyligini oshirish masalasi.

Ingliz tilini o'rganishda lug'at muhim jihatlardan biridir. Bu muloqot jarayonida og'zaki va yozma shaklda fikrlarni, emotsiyani, tuyg'ularni va g'oyalarni yetkazish hamda tushunishda muhim rol o'ynaydi. Lug'at gapirish, yozish, tinglash va o'qish qobiliyatini shakllantirish uchun muhim asosdir. Yaxshi lug'atni o'zlashtirish insonning tildagi mahoratiga ta'sir qiladi [9]. Bundan tashqari, lug'at bilimlari tilning ajralmas qismidir; kommunikativ kompetentsiya uchun markaziy hisoblanadi. Kam lug'at bilish o'rganuvchilarga jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi, bu esa ingliz tilini o'rganishga to'sqinlik qiladi [3]. Lug'atni o 'zlashtirmasdan, o'quvchilar o'zlarining g 'oyalari, his-tuyg 'ulari, fikrlari va istaklarini bildira olmaydilar, chunki so'zlarning ma'nosini tushunish uchun lug'at muhim ahamiyatga ega. Iryani Kesuma Vijaya ta'kidlaganidek, biror kishining so'z boyligi ko'p bo'lsa, ingliz tilini o'rganishi osonroq bo'ladi [9]. N.Shmitt (2000) izohlaganidek, lug'at chet tilni
o'rgatish va o'rganishda muhim rol o'ynaydi, chunki leksik bilim samarali kommunikativ uchun asosdir [8]. Demak, so'z boyligi yetarli bo'lishi ingliz tilini
o 'zlashtirish talablaridan biridir. Shu bois, ingliz tili metodikasida lug'at o 'rgatish va o'rganishning yangi metodologiyasini ishlab chiqish va amalga tadbiq etish hamisha dolzarb masaladir.

Hozirgi kunda ingliz tilini o'qitishda ko'plab usullar yoki strategiyalar taqdim etilgan, ayniqsa lug'atni rasm yordamida o'rgatish, qo'shiq yordamida va shunga
o'xshash. Bundan tashqari, lug'at til ko'nikmalari, ya'ni tinglash, gapirish, o'qish va yozish kabilarning asosidir. Ko'rinib turibdiki, ingliz tilini o'rganishda lug'at boyligini oshirishga til o'qitish metodikasida turli omillari ta'siri mavjud. Ulardan biri o'qish (reading) aspektidir. O'qish tilni o'rganish uchun ko'rsatma berilgan kontekstda so'z boyligini o 'zlashtirishning asosiy manbai bo'lmasligi mumkin [6; P. 568], lekin undan ingliz tili chet tili sifatida o'tiladigan sinfda foydali faoliyat
o'laroq foydalanish mumkin.

O'qish orqali lug'atni o'rgatish va o'rganishni quyidagi sabablarga ko 'ra ushbu tadqiqotning asosiy yo'nalishi sifatida tanlangan: **birinchidan**, lug'at yangi tilni
o'rganishda muhim tarkibiy qism bo'lib, so'z boyligini boyitish til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. **Ikkinchidan**, o'qish orqali so'z boyligini o'rganish, ayniqsa ingliz tilini o'rganish

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

o‘rganuvchilar uchun foydali strategiya bo‘lib xizmat qiladi, chunki ular o‘rganish davomida ko‘plab inglizcha matnlarga vaularda qo‘llanilgan matnni izohlayotgan leksik qatlamga (neologizmlar, o‘zlashma so‘zlar, eskirgan so‘zlar va b.) duch kelishadi. Ularni matn moboynida o‘zlashtirish, diskurs tahlil qilish o‘rganuvchilarning so‘z boyligini rivojlantirish uchun muhim manba
bo‘lib qoladi.

Shu sababli, ingliz tili chet tili sifatida o ‘tiladigan o ‘zbek maktablarida o‘qish orqali lug’atni o‘rgatish va o‘rganishdagi muammolarni quyidagi yechim orqali ochib beradi: 1) u o‘qituvchilar tomonidan yangi so‘zlarni tushuntirishda qo‘llaniladigan
o‘qitish usullari va talabalarning qo‘llanilgan usullarga nisbatan qarashlarini
o‘rganadi; 2) u talabalar tomonidan joylashtirilgan lug’atni o‘rganish strategiyalarini ko‘rib chiqadi hamda talabalar tomonidan eng foydali deb hisoblangan va ular o‘zlarini eng qobiliyatli deb bilib, tez-tez foydalanadigan lug’atni o‘rganish strategiyalarini o‘rganib chiqadi.

So‘z boyligini tadqiq qilish sohasidagi tadqiqotchilar tomonidan bir qator o‘qitish usullari va usullari ko ‘rib chiqildi. Masalan, kontekstsiz va kontekstli lug’atni o ‘rgatish (mas., Qian, 1996; File & Adams, 2010), lug’atni o‘rgatishda L1 (ona til) va L2 (ikkinchi til)dan foydalanish (mas., Latsanyphone & Bouangeune, 2009; Webb, 2007) va o‘qish orqali so‘z boyligini o‘rgatish (mas., Paribakht & Wesche, 1997; Sonbul & Schmitt, 2010). Ushbu eksperimental tadqiqotlar lug’atni
o‘rgatishda muayyan yondashuvlar yoki usullardan foydalanish samaradorligini
o‘rganib chiqdi. Xuddi shunday, o‘quvchilar tomonidan qo‘llanilishi mumkin
bo ‘lgan lug’atni o‘rganish strategiyalari asosan o‘rganildi. Ba’zi tadqiqotlar ushbu strategiyalarni umumiy tarzda o‘rgangan bo‘lsa (mas., Shmitt, 1997), boshqalari kontekstdan ma’noni taxmin qilish va lug’atlardan foydalanish kabi alohida strategiyalarga e’tibor qaratgan (mas., Nassaji, 2006; Chen va Truscott, 2010).

Lug’atni o‘qish orqali o‘rganishda quyidagi bosqichlarni tavsiya etish mumkin: **1) yangi so‘zlarni toppish; 2) so‘z shakllarini olish; 3) so‘z ma’nosini olish; 4) Xotirada so‘z shakli va ma’nosini mustahkamlash; 5) so‘zdan foydalanish.**

Lug’atni o‘qish orqali o‘rganishda **retseptiv lug’at** va **ekspressiv lug’at** (mahsulotli lug’at) turlariga ajratiladi. Retseptiv lug ‘at – o‘quvchi tinglagan yoki
o‘qiganida ma’lum bo‘lgan so‘z, ya’ni o‘quvchi faqat boshqalardan fikr oladi. Ekspressiv lug’at o‘quvchi gapirganda va yozganda ishlatiladigan so‘z, demak, bu lug’at o‘quvchi o‘z fikrlarini boshqalarga bildirganda ishlatilishi mumkin. Umuman olganda, retseptiv lug’at ekspressiv lug’atga qaraganda ancha katta, deb aytish mumkin, chunki o‘quvchi ko‘p so‘zlarni gapirganda emas, balki tinglaganida yoki
o‘qiganida taniy oladi.

Ingliz tili chet tili sifatida o‘tiladigan o‘zbek maktablari darslari asosida olib borilgan tahlil va tavsiyalar quyidagilardan iborat:

1) so‘z boyligini o‘rganish turli omillar ta’sirida bo‘lgan ijtimoiy amaliyotdir samarali ta’lim muhitini yaratishga hissa qo‘shadi. Yaxshi lug’at o‘rganish muhitini yaratish uchun o‘qitish usullari, lug’atni o‘rganish strategiyalari, darslik, ishtirokchilarning e’tiqodlari va munosabatlari, o ‘quvchilarning qiziqishlari, madaniy qadriyatlari va o‘quvchilarning malaka darajasi kabi omillarning sinfdagi rolini hisobga olish kerak;

2) lug’atni o‘rganish strategiyalari o‘quvchilarga aniq o‘qitilishi kerak.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O‘quvchilarga strategiyalardan qanday foydalanishni o‘rganishga va ulardan foydalanishni mashq qilish uchun vaqt kerak, ayniqsa o‘qish orqali lug‘atni o‘rganishga eng mos keladigan strategiyalarga nisbatan, masalan, taxmin qilish va lug‘atlardan foydalanish kabi strategiyalarga. Kalit so‘z usuli kabi murakkab lug‘atni o‘rganish strategiyalarni ham o‘quvchilar ishonchli ishlatishdan oldin tanishtirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 25.01.2018 йилдаги ПФ-5313-сон. https://lex.uz/docs/3523206
2. O ‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «CHet tillarni o ‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to ‘g ‘risida»gi PQ-1875-son Qarori. – Xalq so ‘zi. – № 240 (5660). – Toshkent, 2012.
3. Alqahtani, M. (2015). The Importance of Vocabulary in Language Learning and How to Be Taught. International Journal of Teaching and Education, 3(3), 21-34
4. Hasanova, D (2007) Teaching and learning English in Uzbekistan. Cambridge Journals, English Today, 23, 3-9. doi:10.1017/S0266078407001022.
5. Jalolov J. Chet til o ‘qitish metodikasi. – Toshkent: O ‘ qituvchi, 2012. – 430 b.
6. Laufer, B. (2003). Vocabulary acquisition in a second language: Do learners really acquire most vocabulary by reading? The Canadian Modern Language Review, 59, 565–585
7. Makhkamova G., Kusanova U. Teachers ‘ attitude to communicative language teaching in Uzbekistan // European Journal of Molecular & Clinical Medicine. Volume 7, Issue 2, 2020. – 392-403 p.
8. Schmitt, N. (2000). Vocabulary in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Wijaya I. K., dkk. (2019). The Effectiveness of Mobile Learning Based Android in Learning English Vocabularies: STKIP YPUP Makassar (iJIM). 13(12)

XALQARO BAHOLASH DASTURI PIRLSNING MAZMUN MOHIYATI, TALABLARI VA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Mavlonbek Arabovich Doniyarov
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Anotatsiya: Maqolada *xalqaro baholash dasturi pirlsning mazmun mohiyati, talablari va o’qish savodxonligini rivojlantirishdagi o’rni haqida fikrlar bildirilgan. Xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo’lgan davlatlarda boshlang’ich sinf o’quvchilarining matnni o’qish va qabul qilish bo’yicha tayyorgarligi hamda o’quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo’luvchi ta’lim tizimidagi o’ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Xalqaro baholash, PIRLS, o’qish savodxonligi, ta’lim sifati.*

ПРОГРАММА МЕЖДУНАРОДНОЙ ОЦЕНКИ ЖЕМЧУЖИНЫ СОДЕРЖАНИЕ, ТРЕБОВАНИЯ И РОЛЬ В РАЗВИТИИ ГРАМОТНОСТИ ЧТЕНИЯ

Мавлонбек Арабович Донияров
Преподаватель Джизакского государственного педагогического университета

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Аннотация: *В статье высказываются мнения о содержании, требованиях и роли международной оценочной программы PIRLS в развитии читательской грамотности. Целью международного исследования является изучение навыков чтения и понимания учащихся начальных классов в странах с различными системами образования и различиями в системе образования, которые приводят к разным достижениям учащихся, состоит из выявления и оценки специфических характеристик.*

Ключевые слова: *Международное оценивание, PIRLS, читательская грамотность, качество образования.*

PEARL INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM CONTENT, REQUIREMENTS AND ROLE IN THE DEVELOPMENT OF READING LITERACY

Mavlonbek Arabovich Doniyarov
Lecturer at Jizzakh State Pedagogical University

Annotation: *The article expresses opinions on the content, requirements and role of the PIRLS international assessment program in the development of reading literacy. The purpose of the international study is to study the reading and comprehension skills of primary school students in countries with different education systems and differences in the education system that lead to different student achievements, consists of identifying and evaluating specific characteristics.*

Key words: *International assessment, PIRLS, reading literacy, quality of education.*

Kirish

Ayni davrga kelib globallashuv jarayoni jamiyatning barcha sohalarida avj olmoqda va o’z navbatida, fan va texnikaning rivojlanishiga, iqtisodiyotning yuqori darajada o’sishiga hamda ta’lim sohasidagi integrasiya jarayoning yanada chuqurlashishiga olib kelmoqda.

Ta’limning sifati, uning kompetentligi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili sifatida raqobatga chidamli malakali mutaxassislarni tayyorlash globallashuv davrining muhim xususiyatlariga aylandi. Shuningdek, globallashuv jarayoni kelajak egalari sifatida yosh avlodni tayyorlashda dunyo mamlakatlarining maqsadlarini umumiylashishiga olib keldi. Dunyo davlatlari ta’limning jamiyat taraqqiyoti va inson rivojlanishidagi muhim o’rnini e’tiborga olib, ta’lim sifatiga e’tibor qaratdi. Ayni davrda ta’lim sohasida sifat tushunchasi global fenomen sifatida ko’rilmoqda.

Yosh avlodning intelektual faolligini shakllantirish nafaqat muayyan bir mamlakat balki xalqaro hamjamiyat uchun ham muhim masalaga aylandi. Shuning uchun ta’lim sifati, ta’lim sifatini baholash kabi masalalar bilan ko’pgina xalqaro tashkilotlar davlatlarida ta’lim sohasida baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS kabi xalqaro baholash dars turlari amaliyotga tatbiq etilgan.

Zamonaviy globallashuv va o’sib borayotgan xalqaro raqobat sharoitida har tamonlama rivojlanish konsepsiyasi yosh avlodning bilim darajasiga bog’liq bo’lib qolmoqda. Shu maqsadda O’zbekiston Respublikasida yosh avlodni XXI asr bilim va ko’nikmalarini egallashlari uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadida ta’lim sohasida tizimli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta’limi tizimida

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 997-sonli qarori asosida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro taqdiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etilgan. [1]

Bunday markazning tashkil etilishi o’quvchilarning ta’limdagi yutuqlarni baholash va nazorat qilish imkonini beradi. Bundan ko’rinadiki, mamlakatimizda ta’lim sifatini baholashning yangicha tizimi shakllanmoqda. Hozirda zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari rivojlantirilmoqda. Jumladan, Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o’rtasida Xalqaro o’quvchilar bilimini baholash dasturlari PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) va (Programme for International Student Assessment (PISA) da ishtirok etish to’g’risida kelishuv imzolangan. Sinovlarda o’quvchilarimizning muvaffaqiyatli qatnashishlari yo’lida “Xalqaro tadqiqotlarda boshlang’ich sinf o’quvchilarining o’qish savodxonligini baholash”, “Xalqaro tadqiqotlarda o’quvchilarning matematik savodxonligini baholash”, “Xalqaro tadqiqotlarda o’quvchilarning tabiiy fanlar bo’yicha savodxonligini baholash” nomli qo’llanmalar nashrdan chiqarildi. Metodik qo’llanmalarni ishlab chiqishdan maqsad o’qituvchilar va o’quvchilarning xalqaro tadqiqotlar haqida tasavvurlarini boyitish, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik darajasini oshirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ko’zda tutilgan.

Asosiy qism

2021 yilda o’quvchilarimiz PIRLS asosiy tadqiqotlarida, 2022 yilda PISA asosiy tadqiqotlarida muvaffaqiyatli qatnashishdi. O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida bunday xalqaro baholash tendensiyalariga amal qilish yosh avlodni intelektual faolligini oshirish, ularning ta’limdagi kompetentligini va kreativligini rivojlanishiga hissa qo’shadi. Yuqorida keltirilgan xalqaro baholash dasturlari tahsil oluvchilarning shu kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bugungi kunda bu baholash dasturlarini ta’lim jaraoyoniga integratsiya etsih zarur hisoblanadi. Quyida bu baholash dasturlari haqida bilib olamiz. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study-Xalqaro o’qish savodxonligini o’rganishdagi taraqqiyot) bu 4-sinf o’quvchilarning matnni o’qish va tushunish darajalarini baholab beruvchi xalqaro qiyosiy baholash mezonidir. PIRLS- (inglizcha – Progress in International Reading Literacy Study – matnni o’qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo’lgan davlatlarda boshlang’ich maktab o’quvchilarining matnni o’qish va qabul qilish bo’yicha tayyorgarligi hamda o’quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo’luvchi ta’lim tizimidagi o’ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta, bunday tadqiqot xalq ta’limi xodimlari, olimlar, metodistlar, o’qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir. PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta’lim institutlari assosiatsiyasi (IEA) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assosasiyasi (IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas’uliyat Chestnut Hill (Maccachucetc, AQSH) Boston kollejiga yuklatilgan. Tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma’lumotlar markazida amalga oshiriladi. Ilk bora tadqiqot 2001-yilda o’tkazilgan. Tadqiqot har 5 yilda bir marotaba o’tkaziladi. PIRLS tadqiqotda ishtirok etuvchi turli mamlakatlarda boshlang’ich sinfga maktab o’quvchilarini qabul qilish yoshi turlicha. Ko’plab mamlakatlarda maktabga olti yoshdan qabul qilishadi va to’rtinchi sinfni 10.5 yoshda tugatishadi. Biroq, Angliya, Yangi Zelandiya, Trinidad Tobagoda - maktabga 5 yoshdan qabul qilishadi va

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ahamiyatli jihati PIRLS xalqaro tadqiqotida ushbu mamlakatlarning 5-sinf o'quvchilari xalqaro tadqiqotda ishtirok etishadi. Shvesiya, Daniya va ko'plab Sharqiy davlatlarda - maktabga 7 yoshdan qabul boshlanadi va ushbu mamlakatlarning o'quvchilari qolgan tengdoshlariga nisbatan eng katta (10,7-10,9) yoshni tashkil etadi. Bu dastur asosida olib borilyotgan ushbu jarayonlar bevosita fanlar bilan va fanlararo bog'liqlik tarzda olib borilishi lozim bo'ladi. Quyida integratsiya va baholash dasturlari asosida olib boriladigan qisqacha fikrlrga e'tibor qaratamiz. Integrastiyaning asosini fanlararo aloqadorlik tashkil etadi va o'zining rivojini Integrastiya g'oyasida topadi. Integrativ mazmunga ega bo'lgan predmetlarni o'rganish bo'lajak mutaxassislar bilimi, ish uslublari, shaxsiy fazilatlari yaxlit, bir butunligini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi.

Yu.M.Kolyagin fikriga ko'ra, ta'lim tizimida integrastiya ikki xil ma'noda qo'llanilishi mumkin:

1. O'quvchilarda atrofimizdagi olam haqida bir butun, yaxlit tasavvurni shakllantirish (bunda integrastiyaga ta'lim maqsadi sifatida qaraladi).

2. Predmetlardan beriladigan bilimlarni yaqinlashtirishning umumiy platformasini topish (bu yerda integrastiya-ta'lim vositasi hisoblanadi).

Birinchi ma'no bo'yicha integrastiya O'quvchi bilim dargohiga dastlabki qadamini qo'yishidanoq, dunyoni yaxlit, bir butun, uning barcha elementlari o'zaro bog'langan tizim sifatida tasavvur qilib olsin.

Ikkinchi ma'noda integrastiya O'quv fanlaridan beriladigan bilimlarning o'zaro to'qnash (uchrash) gan yeri (nuqtasi) da yangi tasavvurlarni anglay olsin. Dastlab, fanlardagi fikr (g'oya) lar to'qnashgan nuqtada avvaldan bo'lgan tabaqalashgan bilimlardagi kamchiliklarni to'ldirishga, ular o'rtasida bo'lgan bog'lanishlarni tarkib toptirishga da'vat etsin. Huddi manashu tarzda olib boriladigan integratsiyalash jarayonni PISA, PIRLS dasturlari talablari asosida olib borilishi kerak bo'ladi. Bu jarayon fanlarni o'qitish jarayonini baholash dasturlari asosida olib borish ya'ni fanlarni baholash dasturlari bilan integratsiyalash hisoblanadi. [2]

Tadqiqot metodologiyasi

Yosh avlod bilimini baholashda xalqaro baholash dasturlarini amaliyotga qo'llash bilan birga milliy baholash tizimini yanada takomillashtirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xalqaro dasturlarda ishtirok etish yosh avlodning intelektual salohiyatini qay darajada rivojlanayotganini aniqlash, shu orqali natija va samaradorlikning yangi yo'nalishlarini belgilab olishga imkoniyat yaratsa milliy baholash tizimining yanada takomillashtirish xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash bilan birga ularning kreativligini va kompitentligini va o'z navbatida ta'lim sifatini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Zero, ayni davr ta'limi va global taraqqiyot bilimlar universalligini ham talab etmoqda. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlari sifat darajasini umume'tirof qilingan xalqaro talablar va standartlarga muvofiq tubdan yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishimiz kerak.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'limga to'liq qamrab olinishi, 11 yillik o'rta ta'limning joriy qilinishi munosabati bilan yuzaga kelgan malakali pedagog kadrlarga ehtiyoj masalasi oliy ta'limning pedagogika yo'nalishlarida sirtqi (maxsus sirtqi), kechki (smenali), ikkinchi Oliy ta'lim hamda xorijiy davlatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish bilan o'z yechimini topmoqda. [3]

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Xalqaro baholash dartutlari (PIRLS, TIMSS, TALIS va boshqalar) boshlang'ich sinf, nafaqat yuqori sinf o'quchilari uchun ham qo'llanila boshlandi. Bu xalqaro dasturlar o'quvchi o'ylantirishga, balki fikrlay olish doirasini kengaytirishda, uni har tamonlama tarbiyalashda muhim turtki vazifasini bajaradi. Bu baholash dasturlarining asosiy maqsadi shundan iboratki, umumta'lim maktablarining o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini xolisona baholash, o'quvchilar olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirsh va ta'lim muassasalarida sifatli ta'lim berish uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish lozim. Xalqaro baholash dasturlari asosan 3xil fan doirasida olib boriladi. Bular quyidagilar:

1. O'qish savodxonligi - insonning yozma matnlarni tushunish va qo'llay olish, ular haqida fikrlash va o'z bilimi hamda imkoniyatlarni kengaytirish, ijtimoiy hayotda ishtirok etish, maqsadlariga erishish uchun o'qish bilan shug'ullanish qobiliyatidir.

2. Matematik savodxonlik - bu insonning u yashayotgan dunyoda matematikaning o'rnini aniqlash va tushunish, asoslangan matematik xulosalar yuritish hamda fikrlaydigan, qiziquvchan va ijodkor fuqaroga mansub hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarni qondirish maqsadida matematikadan foydalanish qobiliyatidir.

3. Tabiiy-ilmiy savodxonlik - bu shaxsning tabiiy fanlarga bog'liq masalalar bo'yicha faol fuqarolik pozisiyasiga ega bo'lishi va tabiiy g'oyalarga qiziqishga tayyorgarlik qobiliyatidir. Tabiiy-ilmiy savodli inson tabiiy fanlar va texnalogiyalarga oid muammolar muhokamasida ishtirok etishga intiladi va buning uchun quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi talab etiladi, hodisalarni ilmiy tushuntiradi, baholaydi va ilmiy tadqiqotlarni rejalashtiradi, ma'lumot va dalillarni ilmiy jihatdan sharxlaydi. [4]

Xulosa

O'quv dasturlarida o'quvchilarning muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirishning uchta o'zaro bog'liq komponentlari qo'llab-quvvatlanadi: tushunchalar, ko'nikmalar, jarayonlar. Ushbu tizim o'quv dasturlarini o'qitish, o'rganish va baholash yo'nalishlarini ta'minlab beradi.

O'qish savodxonligini rivojlantirishga yordam beradigan mashqlar:

UCH, BURGUT, UCHA QOL!

(Afrika xalqlari ertagi)

Kunlarning birida cho'pon yo'qolgan buzo g'ini topib kelish uchun yo'lga otlanibdi. Chunki bir kun oldin kuchli bo'ron turib, poda buzoqsiz qaytgan edi.U vodiyga borib, buzoqni daryo bo'yidan, qamishzorlar ichidan, tog'-u toshlar orasidan qidirib, baland qoyali tog' yonbag'riga chiqibdi. U buzog'ini: «Balki, bo'rondan qochib qutu lish uchun toshlar orqasiga yashiringandir», – deb xarsangtosh orqasiga qarabdi. Shunda uning bir g'ayritabiiy narsaga ko'zi tushib, hayratdan to'xtab qolibdi. Endi tuxumdan chiqqan bir yoki ikki kunlik burgut bolasini kechagi kuchli bo'ron inidan uloqtirib yuborgan edi.

Cho'pon ehtiyotkorlikda ikkala qo'li bilan palaponni ko'tarib olibdi. U burgut bolasini uyiga olib borib, unga g'amxo'rlik qilishga qaror qilibdi.

Cho'pon uyga yaqinlashib qolganida, bolalari uning qarshisiga yugurib chiqishdi.«Buzoqning o'zi qaytib keldi!» – deb qiyqirishdi ular.

Cho'pon bu xabardan mamnun bo'ldi. U burgut bolasini oilasiga ko'rsatib, so'ngra uni tovuqxonadagi tovuqlar va jo'jalar orasiga joylashtirdi.

«Burgut – qushlar hukmdori, – dedi u, – biz esa unga tovuqlardek bo'lishni o'rgatamiz».Shunday qilib, burgut tovuqlar orasida yashab, ularning yashash tarziga

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

moslashibdi. U katta bo‘lgani sari tashqi ko‘rinishidan boshqa jo‘jalardan butunlay farq qila boshlabdi.Bir kuni cho‘ponning do‘sti mehmonga kelib, jo‘jalarning orasidagi qushni ko‘rib qolibdi.«Hoy, axir bu tovuq emas, burgut-ku!» – dedi do‘sti.

Cho‘pon unga jilmayib: «Yo‘q, bu tovuq. Qara, u tovuq kabi yuradi, tovuq kabi oziqlanadi, tovuq kabi o‘ylaydi. Albatta, bu tovuq», – dedi.Lekin do‘sti bunga ishonmadi. «Men senga uning burgut ekanligini isbotlayman», – dedi u.Cho‘ponning bolalari do‘stiga qushni ushlashga yordam berishibdi. Do‘sti qushning yaxshigina og‘ir bo‘lishiga qaramay, boshi uzra tepaga ko‘tarib: «Sen tovuq emas, burgutsan. Sen yerga emas, osmonga tegishlisan! Uch, burgut, uchaqol!» – debdi.Shunda qush qanotlarini keng yozib atrofga qaradi, donlab yurgan tovuq larni ko‘rib, ularning qatoriga qo‘shilish uchun pastga sakrab tush «Men senga uni tovuq deb aytgan edim-ku», – deya cho‘pon xaxolab kuldi.

Ertasi kuni hali tong yorishmasdan dehqonning itlari vovullay boshladi. Tashqaridan qandaydir ovoz eshitildi. Cho‘pon eshikni ochib qarasa, yana o‘sha do‘sti kelgan ekan.

– Menga yana bir imkon ber, – yalindi u.

– Hozir soat necha ekanligini bilasanmi? Hali tong ham yorishgani yo‘q.

– Men bilan yur, qushni ham o‘zing bilan ol.

Cho‘pon istar-istamas tovuqlar orasida qattiq uxlab yotgan qushni oldi. Ikkovlon yo‘lga tushib, birpasda qorong‘ilikka sho‘ng‘ib ketdi.

– Qayerga ketyapmiz? – dedi uyqusirab cho‘pon.

– Tog‘ga, qushni topgan joyingga.

– Nega bunday bemahalda?

– Bizning burgutimiz o‘ziga tegishli bo‘lgan osmonda turib, tog‘lar ortidan quyoshning chiqishini kuzatishi kerak.

Ular vodiyga yetib, daryoni kesib o‘tdi. «Tezroq», – dedi do‘sti, – kun yorishguniga qadar ulgurishimiz kerak».

Ular tog‘ga chiqqanlarida, quyosh nurlari endi ufqdan ko‘rinayotgan edi. Bu nurdan osmondagi pag‘a bulutlar avval pushti, so‘ngra oltindek tovlana boshladi. Ba’zan ular tog‘lar orasidagi xavfli tor yo‘llarni kesib o‘tar, goh chuqurlikka, goh yana tepalikka chiqardi. Nihoyat, do‘sti:

«Yetib keldik», – dedi. U qoyadan pastga qarab, o‘zidan minglab kilo metr naridagi poyonsiz yerni ko‘rdi. Ular cho‘qqiga juda yaqin kelib qolgan edi.

Do‘sti qoyaning kunchiqar tomoniga qushni qo‘yib, u bilan gaplasha boshladi. Buni ko‘rgan cho‘pon xaxolab kuldi, biroq do‘sti gapirishda davom etdi. Unga quyosh, quyoshning qanday qilib yerga hayot bag‘ishlashi, osmonda qanday hukmronlik qilishi, har bir yangi kunni yoritib turishi haqida gapirib: «Quyoshga nazar sol, burgut! U ko‘ta rilsa, u bilan sen ham birga ko‘taril. Sen yerga emas, osmonga tegishlisan!» – dedi. Shu payt quyoshning ilk nurlari tog‘ uzra porlab, dunyo nurga chulg‘ana boshladi.Quyosh viqor bilan ko‘tarildi. Salobatli qush qanotlarini keng yoyib, quyoshni qarshi oldi. Qushning qanotlari quyosh taftini his qildi. Buni ko‘rib cho‘pon jim bo‘lib qoldi. Do‘sti esa burgutga: «Sen yerga emas, osmonga tegishlisan! Uch, burgut, uchaqol!» – deb, cho‘ponning yaqiniga bordi. Atrofga sukunat cho‘kdi.

Kutilmaganda burgut boshini ko‘tarib, qanotlarini keng yoydi, qoyani ushlab turgan panjalari esa oldinga intildi. So‘ngra hech bir qaltis harakatsiz, havo oqimini har qanday inson yoki qushdan ko‘ra kuchliroq his qilgan holda, ko‘tarilayotgan quyoshning yorqinligida ko‘zdan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

g‘oyib bo‘lguncha balandroq va yanada balandroq ko‘tarilib, hech qachon tovuqlar orasiga qaytmaslik uchun parvoz qildi.

Matn yuzasidan savollar

UCH, BURGUT, UCHA QOL!

1. Hikoyaning boshida cho‘pon nimani qidirish uchun yo‘lga otlangan edi?

A. Buzoqni.
B. Podani.
C. Toshli qoyani.
D. Burgut bolasini.

2. Cho‘pon burgut bolasini qayerdan topib oldi?

A. Qush uyasidan.
B. Daryo bo‘yidan.
C. Xarsangtosh orqasidan.
D. Qamishlar orasidan.

3. Cho‘ponning burgut bolasiga ehtiyotkor bo‘lganligini qaysi holatda ko‘rish mumkin?

A. U burgut bolasini ikkala qo‘li bilan ko‘tarib olgan edi.
B. U burgut bolasini uyiga olib kelgan edi.
C. U burgut bolasini uyasiga qaytarib qo‘ygan edi.
D. U daryo bo‘yidan burgut bolasini qidirgan edi.

4. Cho‘pon burgut bolasini uyiga olib kelib nima qildi?

A. Uni uchishga o‘rgatdi.
B. Uni ozod qildi.
C. Uni tovuqlar bilan birga boqib, tovuqlardek bo‘lishni o‘rgatdi.
D. Unga yangi uya qurib berdi.

5. Do‘sti birinchi marta mehmonga kelganda, burgut bolasi o‘zini tovuqlardek tutdi. Bu holatni ko‘rsatadigan ikkita misol keltiring.

1._____
_____
2._____
_____

6. Dehqonning do‘sti burgutni birinchi marta ko‘rganida, uni uchirishga qanday harakat qildi?

A. U burgutni boshi uzra ko‘tardi.
B. U burgutni yerga qo‘ydi.
C. U burgutni osmonga irg‘itdi.
D. U burgutni tog‘ga olib bordi.

7. Cho‘ponning do‘sti burgutga: «Sen yerga emas, osmonga tegishlisan!» – deganida nimani nazarda tutganini tushuntirib bering.

_____
_____

8. Do‘sti birinchi marta mehmonga kelganida, cho‘pon nima sababdan kuldi?

A. Burgut uchish uchun juda og‘irlik qilganiga.
B. Burgutni ushlash qiyin bo‘lgani uchun.
C. Burgut jo‘jalardan farq qilgani uchun.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

D. Uning haq ekanligini burgut isbotlagani uchun.

9. Nima uchun do‘sti burgutni uchishga majbur qilib, baland tog‘ga olib bordi? Ikkita sababni keltiring.

1._____
_____

2._____
_____

10. Osmonning qanchalik chiroyli ekanligi haqida aytilgan so‘zlar ni toping va ko‘chirib yozing.

_____
_____

11. Nima uchun ko‘tarilayotgan quyosh ertakda muhim belgi sifatida ifodalangan?

A. Quyosh – burgutning uchish instinktini uyg‘otuvchi.
B. Quyosh – osmonning hukmdori.
C. Quyosh – qushning qanotlarini isituvchi.
D. Tog‘ cho‘qqilarini yorituvchi.

12. Cho‘ponning do‘sti qilgan ishidan uning qanday inson ekanligini bildingiz. Do‘stining bitta fazilatini yozing. Bu fazilatni isbotlovchi bajargan ishlaridan birini keltiring.

_____
_____

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son qarori.

2. Колягин Ю.М. Об интеграции обучения и воспитания в начальной школе. // Начальная школа. - 1998. -Л 3. - С. 18.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strstegiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

4. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

FACTORS OF EFFECTIVENESS OF DISTANCE LEARNING

Berdimurodova Oynakhol Bazar kizi
Termez State Pedagogical Institute
Faculty of Foreign Languages and Literature
Teacher at the Department of Interfaculty Language Processing
E-mail: berdimurodova_o@mail.ru

Abstract: *eLearning is a method of delivering education via electronic means. Timely it is online learning as education or learning happens via world wide web. Effectiveness in eLearning with reference to the learner is whether he/she could meet the learning goals while learning online.*

Key words: *eLearning, education, learning and teaching*

ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Бердымуродова Ойнахол Базар кызы
Термезский государственный педагогический институт
Факультет иностранных языков и литературы
Преподаватель кафедры «Межфакультетская обработка языков»
Электронная почта: berdimurodova_o@mail.ru

Аннотация: *электронное обучение — это метод предоставления образования с помощью электронных средств. Своевременное онлайн-обучение, поскольку образование или обучение происходит через всемирную паутину. Эффективность электронного обучения по отношению к учащемуся заключается в том, сможет ли он/она достичь целей обучения во время онлайн-обучения.*

Ключевые слова: *электронное обучение, образование, обучение и преподавание*

MASOFIY TA’LIM SAMARALILIGI OMILLARI

Berdimurodova Oynaxol Bozor qizi
Termiz davlat Pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti fakulteti
“Fakultetlararo xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: *berdimurodova_o@mail.ru*

Annotatsiya: *Elektron ta’lim - bu elektron vositalar orqali ta’lim berish usuli. Ta’lim yoki trening sifatida o‘z vaqtida onlayn o‘rganish butun dunyo bo‘ylab Internet orqali amalga oshiriladi. O‘quvchiga nisbatan elektron ta’limning samaradorligi uning onlayn ta’lim jarayonida o’quv maqsadlariga erisha oladimi yoki yo‘qmi.*

Kalit so’zlar: *elektron ta’lim, ta’lim, o‘rganish va o‘qitish*

The improvement in Information and Communication Technology (ICT) infrastructure has led to an explosion in web usage across the world. Since then eLearning has been taken place for decades around the world and has reinforced the importance of learning and helped to bring convergence between learning, working, communication and entertainment. It widens the access

to education through eLearning concept which has redefined the way of dispensing education across the world. But in the context of world, there have been success stories as well as some failures to acquire objectives of eLearning.

The literature states as a meaning for effectiveness in eLearning as meeting the goals of the stakeholders in eLearning [1],[2].The main reasons to fail, unsuccessful or less effective eLearning is because any organization fail to identify and treat the factors affecting effectiveness. There has been tremendous amount of research in identifying methods to improve the ability to meet the goals. In other words researches involved in identifying to improve effectiveness in eLearning.

Recent researches found the theories behind the effective learning and teaching [4]. It is important to identify the affections it brings to the eLearning as well. Hence, purpose of this study is to identify the meaning of effectiveness in eLearning with regard to users' perspective and the factors affecting the effectiveness of eLearning. It is found in many explorative studies that the potentials in MOOCs (Massive Open Online Courses) are increasing due to the facts it addresses the Social and collaborative-ness in an eLearning platform. According to the review of working paper published in Harvard and MIT , Ho et al states it is the beginning of an exciting effort to understand how people learn and how to educate well and effectively at scale [7].

While identifying the importance of effectiveness in eLearning methods and frameworks, most importantly our research gathered the evidence of latest evolution of eLearning in MOOC being effective as it addresses the main issues which the eLearning concepts so far has not covered. Our research is unique as it identified a new dimension, Network of opportunities affect the effectiveness in eLearning and apart from that this research also revealed the ranks for the 10 dimensions found in research. In the literature review section of the paper will explain the past concepts and frameworks of effectiveness. Methodology section explains the design of the research in finding the learners' perspective of effectiveness and how the grounded theory allowed discovering a new dimension of Network of Opportunity. As an outcome of this paper, the factors affecting to effectiveness in eLearning will be presented by rank where any interest party could easily identify and apply to address in improving the effectiveness in eLearning to their organization. Especially as a developing nation, "effective" eLearning could bring inclusive development beyond the Millennium Development. In conclusion this study quote the highlights of major factors which impact effectiveness which will influence the policy objectives in education in order to achieve the targets in vision 20.

B. eLearning effectiveness

E-Learning effectiveness' is complex and depend on stakeholders view, it has many dimensions. Some argue that the effectiveness of eLearning should be judged by the same criteria and standards as face-to-face education. Others hold that conventional quality concepts are not appropriate because eLearning is structurally different [6], [7]. Yet others argue that while certain general principles of quality should apply to both conventional and eLearning, there are certain features unique to eLearning that should also be addressed, such as synchronous/asynchronous interactions, open access to vast resources and distributed learning [8]. And eLearning typically relies to a greater extent than conventional education on learners' motivation and commitment to interactivity and collaboration, which make it more difficult to scale and assure the quality of eLearning.

Scrutinizing through the dimensions of past literature, it was evident that the criteria was primarily influenced by eLearning institutions and faculty and administrators, which means it has

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

shown fewer interests given to the users of the systems who learn from it in their day to day activities. However, the dimensions found in the literature lacked empirical evidence of learners' perspectives of eLearning quality. However Cashion and Palmieri conducted a study of Australian learners' views of vocational education and training provided online, and found that learners rated the factors illustrated Table 1. For these learners, quality factors cited in earlier sections of this paper were rated as less important; specifically, institutional planning, infrastructure, administration and management, and faculty support.

Another study of online learners was conducted in the European context. After interviewing European learners with extensive experience of eLearning, Ehlers empirically identified seven key factors of eLearning as stated in Table 1. He found that European learners regarded course process-related dimensions such as presence, didactics and collaboration as more important than institutional considerations such as vision, planning and finance in assessing the effectiveness of eLearning. These findings show that there can be important differences between learners and providers regarding the concept of effectiveness and that there is need for further investigation into the learners' views of eLearning effectiveness in various contexts to inform and improve QA frameworks in eLearning in different domains.

C. Use of Grounded Theory

This research used Grounded theory in order to identify the latest dimensions in students' perspective of eLearning. It is mainly due the fact that this theory investigates the actualities in the real world and analyses the data with no preconceived ideas or hypothesis. In other words, grounded theory suggests that theory emerges inductively from the data. Though it can be used in different types of research, grounded theory is often adopted to formulate hypotheses or theories based on existing phenomena, or to discover the participants' main concern and how they continually try to resolve it [6].

All in all, the most recent transformation of eLearning is the MOOC, which provided eLearning to many participants unlike earlier the participants were selective. As a consequence of mass access to the education via online, their perspective of effective eLearning may have affected. The traditional research designs which usually rely on a literature review leading to the formation of hypothesizes where the actual finding may subject to statistics. Then test the hypothesis through experimentation in the real world. However in order to identify the phenomenal changes and how the user depend on the changes in MOOC learning in web 2.0 new era, it is appropriate to use the research method Grounded theory which is a powerful research method for collecting and analyzing data and to formulate a theory inductively from the analysis.

References

1.Felder Andrew and B Soloman, "Next Generation Learning:Pathway to possibilities," EDUCAUSE, 2013.

2. A. D Ho et al.,". (2014). HarvardX and MITx: The first year of open online courses ," HarvardX and MITx Working Paper , no. 1, 2014.

3. O Martin C Gráinne, Contemporary perspectives in E-learning Research: themes, methods and impact on practice. Oxon, UK: Routledge, 2007.

4. Alfredo Soeiro Rita Falcão, "Measuring impact of e-Learning on Quality and learning outcomes," Universidade do Porto, Portugal, PhD Thesis 2010.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

5. Samantha Samarasinghe and Alexei Tretiakov, "A multi-dimensional measure of e-learning systems success," in ascilite , Auckland , 2009, pp. 908-910.
6. E-Learning Advisory Group, Highways and pathways: Exploring New Zealand's e-learning oppotunities. New Zealand: E-Learning Advisory Group, 2002.
7. A Stella and A Gnanam, "Quality assurance in distance education: The challenges to be addressed," Journal of Higher Education, vol. 47, no. 2, pp. 143–160, 2004.
8. I S Jung, "Quality assurance survey of mega universities," in Perspectives on distance education: Lifelong learning and distance higher education. Vancouver, Paris: Commonwealth of Learning and UNESCO, 2005, pp. 79–98.
9. R A Phipps and J P Merisotis, Quality on the line: Benchmarks for success in internet-based education. Washington DC, USA: National Education Assosiation, 2000.

FOSTERING THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING AND READING SKILLS USING A WEB2.0 TOOL

Uzakova Kansuliu Yerejepbaevna
a head teacher of nukus mining institute
near the navoiy state mining and technological university

***Annotation**: In this article is devoted to using csr approach in teaching reading and learning contexts also using digital tools in teaching reading and their effectiveness in learning.*

***Keywords:** Web 2.0, Web 2.0 tools, Blogs, Wikis, pedagogical strategies, critical thinking, and critical thinking skills and dispositions, Collaborative Strategic Reading*

ФОРМИРОВАНИЕ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНСТРУМЕНТА WEB2.0

Узакова Кансулиу Ереджепбаевна
Научный преподаватель нукусского горного института
Рядом с навоийским государственным горно-технологическим университетом

***Аннотация:** Эта статья посвящена использованию подхода ксо в обучении чтению и контекстам обучения, а также использованию цифровых инструментов в обучении чтению и их эффективности в обучении.*

***Ключевые слова:** Web 2.0, инструменты Web 2.0, блоги, вики, педагогические стратегии, критическое мышление, а также навыки и наклонности критического мышления.*

Access

With the unrelenting trend toward globalization, which manifests itself in greater international trade, travel, Internet use, and mass entertainment, the need to be able to understand English continues to increase every skill. As noted by Graddol (2006), English will soon be seen in many countries as a basic communicative skill rather than as a foreign language. As part of the process of learning to communicate in English, reading becomes a skill of significant importance as learners must be able to identify the purpose of the wide variety of written material they often come across through books, the media and the web.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Yet, as is well-known, not all readers are able to comprehend texts effectively and interact with them from critical perspective.

Literature analysis

Comprehension may also be constrained by other factors such as lack of opportunities to engage in extensive and intensive reading. That is, limited time on task, enthusiasm and enjoyment of reading strategies used to achieve deep comprehension, add diversity of literacy practices developed in and out of school. The literature has also drawn attention to the fact that learners might be unware of what their strengths and weaknesses in reading are, or might not know how to monitor their reading process.

On adopting CSR, schools can design long term interdisciplinary CSR can also help teachers shift from a teacher –centered to student centered classroom, as this approach requires encouraging students to became aware and take control of their reading process. If CSR is used across the curriculum throughout the school year, perhaps it is more likely that students develop better comprehension skills and positive attitudes towards learning. Better comprehension skills might also result in better test scores across all subject areas.

Research methodology

The development reading comprehension in the English classroom and has fostered the use of the reading comprehension strategies self-directed. However, during the implementation there were some limitations that are related to among other things, pre add post testing and the time allocated to the intervention.

Taking may be positively affected by the application of Web 2.0 tools within the educational context. Recently, many studies indicate that student's critical thinking abilities can be fostered through the application of Web 2.0 tools. For example, Richardson (2006, quoted in Duffy & Bruns, 2006) believes that blogs, wikis, and other Web 2.0 tools have great potentiality in terms of its use in an educational context. Discuss the potential benefits of blogs and wikis as they are gaining a growing space in the educational domain.

Blogs as a space of access to specialized information is based on research and the inventory of blogs related to topics or issues that have possible curriculum or extracurricular frameworks.

Blogs as a space to provide information by the teacher. The teacher provides information for the students; he frequently updates the blog, he is concerned to follow the approach of content in the classroom with the aid of materials available, short texts, personal comments and links to important websites.

Blogs as digital portfolio - are often used in educational settings, particularly at the level of higher education. The digital portfolio is built and explored to meet several objectives as the possibility of organize and support learning and also the possibility of constituting itself as an evaluation tool.

It was within the above framework in which the pedagogical strategies based on blogs were applied in the context of this study. [Ennis,1987]

Results

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

In teaching, there are some at useful online reading resources. Look at some digital tools and ways they can be exploited in online reading lessons to help learners develop their reading skills.

1. Cue Prompter online teleprompter – This tool allows you to display a reading text which automatically scrolls down the screen at a speed that you select. It can be fast or slow. Teachers can adapt texts to ensure they are appropriate for their students.
2. Online dictionary – This dictionary provides learners with information about the meaning of words, word form, pronunciation, collocations, etc. Learners can try to guess the meaning of unknown words they feel are important in context and then check if they are correct.
3. Scribble – This tool allows you to annotate over website texts with a highlighter or sticky note and save it in a library for future access. Learners practice skimming a text for the general idea.
4. Rewording – A tool which reduces the level of complex language in a text. Teachers can point out features or pose questions to learners and share the article with them. Learners can learn to be active readers, taking notes as they read. In these tools learners use not only in the class but also out of the class use them. It is effective to improve their reading skills and critical thinking.

Conclusions

Interestingly, by participating in a collaborative reading classroom students not only learned how to improve their reading performance and how to deal with reading and group work problems, they are also developed an interest towards reading and taking control of the learning process carefully implementing the CSR stages, learners' ability to comprehend texts and effectively work in groups can be significantly enhanced, and this in turn might result in higher levels of motivation and engagement. As illustrated below, teaching students how to collaborate and play a specific role within their group appeared to have helped them develop positive expectations and higher levels of commitment towards their learning:

"I am scared because I may do it wrong, but I know that if I learn the new method, I can improve. I already want to know how to do it to start putting it into practice. "I liked that in my team everyone cooperated actively and performed their roles effectively"

Knowing they were responsible for specific tasks within the groups, students' confidence also seemed to have increased. Taking on a role and the charge of something motivated some students to read more and helped them construct a more positive image as language readers. A change in attitudes towards reading was promoted once recognition within groups was achieved: "I felt important because I had to find the clunks and everybody was paying attention to me."

To sum up, it can be stated that the use of collaborative Strategic reading did foster reading comprehension in English teaching and learning.

Learners who are able to identify their needs, formulate goals, identify resources implement strategies and assess their outcomes are more likely to succeed learning. Improving reading skills of the learners is main role digital tools. These tools are effective not only for teaching but also for learners develop critical and reading skills.

References

1. Ennis, RH. 1985. A Logical Basis for Measuaring Critical Thinking Skills.
2. Eduacational Leadership, 44:48-43. EBSCO Publishing.
3. Ennis, RH. 1987. A Taxonomy of Critical Thinking Dispositions and Abilities.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

4. Graddol,D (2006)English next Why global English may mean the end of “English as a foreign language” London: The British Council
5. In Joan Boykoff Baron and Robert J. Sternberg (eds.),
6. Teaching Thinking Skills: Theory and Practice. New York: W. H. Freeman and Company. Estudos e Investigações.

UDK: 372.878

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA FANLARARO ALOQANI BOG‘LASHDA QO‘LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Karimov Saxob Baxromovich
O‘qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
karimovsaxob1@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada musiqa darslarida fanlararo aloqani bog‘lashda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarning turlari, shuningdek musiqa darslarida amalga oshiriladigan turli xil metodlar va ularning dars samaradorligini oshirishdagi roli haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *musiqa darslari, metodlar, texnologiyalar, pedagogika, psixologiya, etika–estetika, hikoya, suhbat, tushuntirish, ko‘rgazmali o‘qitish metodi, amaliy o‘qitish metodi, o‘yin metodi, taqqoslash metodi.*

Abstract*. This article talks about the types of pedagogical technologies used to connect interdisciplinary communication in music lessons, as well as various methods implemented in music lessons and their role in improving the effectiveness of lessons.*

Keywords: *music lessons, methods, technologies, pedagogy, psychology, ethics–aesthetics, story, conversation, explanation, demonstration teaching method, practical teaching method, game method, comparison method.*

Аннотация*. В данной статье говорится о видах педагогических технологий, используемых для соединения межпредметной коммуникации на уроках музыки, а также о различных методах, реализуемых на уроках музыки и их роли в повышении эффективности занятий.*

Ключевые слова: *уроки музыки, методика, технологии, педагогика, психология, этико–эстетика, рассказ, беседа, объяснение, показательный метод обучения, практический метод обучения, игровой метод, метод сравнения.*

Kirish

Mustaqil davlatlar rivojlanishi bilan jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlar, dunyoqarashlar almashinuvi va ta’lim tizimini isloh qilish davrida mustaqil ish yurita oladigan yangi tipdagi o‘qituvchini tarbiyalash zaruratini tug‘dirmoqda.

O‘qituvchi kadrlar, jumladan musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni ta’limning texnokratik va gumanistik tendensiyalari eskirib qolgan aqidaparastlik va demokrativlashtirish, ta’limning erkinligi va variativligi, o‘qituvchilar tayyorlashning yangi tizimi va uning induvidial ijodiy xarakteri, pedagogik mehnat bozorining yuzaga kelishi va ko‘plab o‘qituvchilarning raqobatbardosh emasligi, o‘qituvchi kasbining yoshlar orasida yetarlicha e’tibor topmayotgani,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

o‘qituvchilarning ijtimoiy himoyalanishi o‘rtasidagi qator ziddiyatlar hisobiga murakkablashib borishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda oliy musiqiy pedagogik ta’lim tizimi ma’naviy ishlab chiqarish sohasi tarzida o‘qituvchi shaxsini kasbga tayyorlashning yaxlit ilmiy nazariyasi asosida yaratilgan taqdirdagina yangi bosqichga ko‘tarilishi mumkin. Mazkur nazariya o‘qituvchilar tayyorlashning didaktik asoslarini har tomonlama ishlab chiqishga asoslanadi.

Metodologiya

Shaxsning rivojiga: aqliy, goyaviy, emotsional va motivatsion ta’sir etuvchi ta’limning nazariy asoschilari; A.N. Monte, L.Elkonin, V.V. Davidov, L.V. Zankov, N.A. Manchinskiy, P.Ya. Golperinlar tomonidan ishlab chiqilgan.

O‘quv reja nazariyasi, umumiy va professional ta’lim mazmuni, bilimlar, ko‘nikma va malakalarni optimal doirasini tanlash mezonlarini ishlab chiqish, tarbiya didaktikasi kabi muammolar; I.L.Zverov, M.P.Kashin, N.N.Skatkin, I.Ya.Lernir, V.G.Razumovskiy, A.A.Zuyyev, V.V.Kroyevskiy, S.Ya.Batishev, A.M.Pitskolo va boshqalar ishlarida yoritilgan.

Asosiy qism

Bugungi yangi O‘zbekiston taraqqiyotining bosqichida Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan “musiqa madaniyati” fani o‘zining tarkibiy tuzulishi, xususiyatlari, ifodaviyligi, tabiatiga ko‘ra bir qator fanlar (ijtimoiy gumanitar, tabiiy, musiqiy) va san’at turlari (raqs, tasviriy san’at) bilan o‘zaro bog‘liqlik va o‘qitish predmetiga ko‘ra umumiy qonuniyatlariga aloqadorlikni o‘zida mujassam etadi. Bu esa o‘z navbatida musiqa darslarini tashkil etish, uning yuqori darajada sifatli va muvaffaqiyatli kechishini ta’minlashga erishish uchun fanlararo aloqadorlik imkoniyatlaridan, musiqiy fanlarni o‘zaro bog‘langanlik komponentlaridan oqilona va o‘z o‘rnida foydalanish ehtiyojini vujudga keltiradi.

Musiqa darslarini musiqiy fanlar: (vokal ijrochiligi, cholg‘u ijrochiligi, xor dirijyorligi, musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, musiqa asarlar tahlili), ijtimoiy–gumanitar (pedagogika, psixologiya, tarix, falsafa, mantiq, etika–estetika) hamda tabiiy fanlar (matematika, fizika, biologiya) ning o‘zaro bog‘liqlik imkoniyatlaridan kelib chiqib tashkil etish o‘ziga xos pedagogik yondashuv, o‘qitish usul va shakllariga tayanib ish tutishni taqozo etadi. Bu jarayonda musiqa darsining har bir faoliyat turi o‘ziga xos alohida dars, alohida mavzu, shu bilan birga bir soatlik darsning bosh mavzusini yoritishga qaratilganligi va uning yakuniy samarasi o‘quvchilarni boshqa fanlarga oid bilm, tushunchalarni yanada puxta, mustahkam, amaliy faoliyat bilan bog‘lab o‘zlashtirishga, boshqa fanlarni o‘rganishga nisbatan munosabatlarida ijobiy o‘zgarishlar yuz berishiga va eng muhimi, musiqiy–nazariy estetik dunyoqarashi, tafakkurining o‘sishiga olib keladi.

Musiqa darsi san’at darsi, tarbiya darsi ekan, tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda qo‘llanadigan har bir uslub, ish shakl va vositalari qatorida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish ham aniq pedagogik maqsadlarga qaratilgan bo‘lishi va albatta, ijobiy samaradorlikka ega bo‘lmog‘i muhimdir. O‘z navbatida bularning barchasi o‘quvchi yoshlarning umumkasbiy madaniyati, badiiy–estetik, axloqiy va ma’naviy jihatdan barkamol shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qilishi lozim.

Natijalar va muhokama

Musiqa o‘qitish metodikasi va pedagogikasi ta’lim va tarbiyaviy jarayonda qo‘llaniladigan eng ilg‘or, ta’sirchan, amaliyotda sinalgan va samarali natijalar bergan metod va vositalardan foydalanishni ta’lim mazmuni va sifat darajasini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Ta’lim

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tizimiga yangi–yangi pedagogik, innovatsion o‘qitish texnologiyalarining kirib kelishi, fan texnika sohasidagi shiddatli o‘zgarishlar ta’lim sohasida ham o‘ziga xos yangilanishlarni taqozo etmoqda. Ta’limning barcha bo‘g‘inlarida bo‘lgani kabi maktab ta’limida ham musiqa darslarini tashkil etish va o‘qitishda har bir sinfda darsning aynan bir xil bo‘lmagan usul va metodlaridan ustalik bilan foydalanish, darslarning noan’anaviylik va ta’sirchanligiga birlamchi e’tibor qaratish davr talabidir. Shunday ekan, umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi “Musiqa madaniyati” fanini o‘qitishda ham ilg‘or pedagogik texnologiyalar, noan’anaviy o‘qitish metodlari bilan birga pedagogika nazariyaning umumiy, xususiy, og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy, o‘yin, taqqoslash, musiqiy uquvi bo‘sh bo‘lgan bolalar bilan ishlash, baholash va rag‘batlantirish metodlaridan o‘z o‘rnida foydalanish kerak bo‘ladi. Respublikamizda musiqa pedagogikasi yo‘nalishida izlanishlar olib borgan yetuk olimlarning ilmiy tadqiqotlarida zamonaviy musiqa o‘qituvchisining professional tayyorgarlik darajasiga qo‘yilayotgan talablar, xususan, metodlardan muvaffaqiyatli foydalanish jarayonida ijobiy yechim topishi mumkinligi ilmiy asoslab berilgan.

“Musiqa madaniyati” darslarida fanning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur anglagan holda, uning amaliy va ijobiy ijrochilik bilan bog‘liq vazifalarini, yil, chorak mavzulari doirasida darsliklarga kiritilgan musiqa nazariyasi, tarixi, vokal xor ijrochiligiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quvchilarda shakllantirish va mustahkamlashda, shuningdek, o‘quvchilarning musiqiy–nazariy bilimlarini o‘zlashtirishlari jarayonida boshqa fanlarga oid bilimlarga murojat qilish, izlanishga undovchi metod xususiy metoddir. Aynan ta’kidlab o‘tilgan metodlar orqali musiqa darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etishning turli shakl, usul va vositalarini qo‘llash mumkin.

Bir soatlik dars jarayonida ta’lim berishning bir necha xil usullarini qo‘llash oqibatida o‘quvchi hech bo‘lmaganida biror bir faoliyatga va uslubga o‘zining munosabatini bildiradi, qiziqishini namoyon qiladi yoki ayrim tushunmagan holatlarga oydinlik kiritish yuzasidan savollar bilan murojat qilish mumkin.

Natijada o‘quvchida darsga yoki o‘rganilayotgan mavzuga bo‘lgan munosabat, o‘rganish va bilish faoliyatiga xohish–istak kuchayadi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, agar o‘quvchida musiqa san’atining biror bir turiga qiziqish paydo bo‘lsa, u darslarga ham o‘zicha tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi, musiqa darslari bo‘lishini kutadi, o‘zini namoyon qilish, bilganlarini amalda ko‘rsatish bilan ko‘pchilik oldida g‘ururlanish istagi bilan bog‘liq kechinmalar paydo bo‘ladi.

Dars davomida qo‘llaniladigan metodlar mavzuni o‘quvchilarga yetkazish maqsadiga yo‘naltirilgan va turli manbalarda olingan dalillarga asoslangan bo‘lishi darslarni fanlararo aloqadorlikda tashkil etishda ko‘proq ta’sirchanlik kasb etadi. Mana shunday metodlar jumlasiga kiruvchi bir qator metodlar haqida batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz:

1. Hikoya qilish metodi. Bu metod musiqa o‘qituvchisining musiqa asari haqidagi jonli, emotsional, yorqin hayotiy voqealar va aniq tarixiy dalillar, adabiy–badiiy lavhalar asosiga qurilgan bayoni bo‘lib, uni qo‘llashdan maqsad o‘quvchilarni musiqa asari, janri, uning ijro uslubi bilan an’anaviylik jihatlari, badiiy–g‘oyaviy mazmuni, qanday holatda, kimlar tomonidan qanday tartibda ijro etilishi, mohir ijrochilari va mualliflari haqida chuqur va to‘laqonli ma’lumotlar bilan tanishtirishni ko‘zda tutadi. Hikoya metodi yordamida o‘qituvchi o‘zbek musiqa madaniyatining rivojlanishi va tarixiy ildizlari haqida boy tarixiy materiallariga tayangan holda muhim ma’lumotlarni berishi mumkin. Bu o‘rinda O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrlaridan to shu kungacha bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari, eng qadimgi madaniy yodgorliklar –“Avesto”, Yunon–

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Baqtrya davlati, Zardushtiylar davri, Qadimgi Xorazm davlatlari davridagi, Kushonlar, qadimgi Fargʻona, Qangʻ davlatlari vaqtida madaniyat, san'at, qoʻshiqchilik janrlari haqidagi tarixiy materiallarga tayangan holda ma'lumotlar berish oʻz oʻrnida musiqa darsini tarix fani bilan aloqadorlikda tashkil etish imkonini beradi.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Oʻrta Osiyo xalqlarining eng muhim va qimmatli yozma yodgorligi boʻlmish "Avesto" matnlari ma'rosimiy ijro doirasida va unga quloq tutgan jamoa uchun badiiy idrok nuqtai nazardan ham oʻziga xos qoʻshiqlar boʻlganligi ta'kidlanadi.

Eramizning VI–VII asrlaridagi mashhur Turk xoqonligi davridagi Borbad Marvaziy ijodi va uning butun Sharq musiqa madaniyatiga qoʻshgan ulkan hissasi haqidagi tarixiy hikoyalar, Borbadning 300 dan ortiq kuylar yaratgani, hatto, arab san'atkorlari ataylab kelib, Borbadning musiqa asarlaridan oʻrganib ketganliklari haqidagi, yaratgan ayrim qoʻshiqlari hozirgi kunlargacha yetib kelganligi va ayniqsa, xalqimizning mumtoz va maqom san'ati shakllanishida benazr ahamiyat kasb etganligi haqidagi hikoyalar oʻquvchilarda katta qiziqish uygʻotishi tabiiy.

Oʻzbek xalq musiqa me'rosi, jumladan, mumtoz va maqom san'atiga oid mavzudagi darslarni oʻtish jarayonida Oʻrta Osiyo uygʻonish davri musiqa madaniyati, Somoniylar davlati, Qoraxoniylar, Gʻaznaviylar, Xorazmshoxlar davridagi fan, madaniyat, musiqa san'ati va musiqa ilmining rivoji haqidagi ma'lumotlar bilan yoʻgʻrilgan hikoyalarning tarixiy faktlar bilan berilishi oʻquvchilarda yaxshi ta'ssurot uygʻotadi.

Oʻquvchilar Oʻrta Osiyo zaminida yetishib chiqqan va jahon fani, madaniyati, shu jumladan, musiqa ilmi rivojiga ulkan hissa qoʻshgan va xizmatlari bilan butun dunyoda e'tirof etilgan buyuk ajdodlarimiz, alloma olimlar haqida bilishlari shart. Shunday ekan, buyuk faylasuf, qomusiy olim, oʻz navbatida musiqa ilmi rivojiga hissa qoʻshgan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdulqodir Marogʻiy, Mahmud az–Zamaxshariy, Darvish Ali Changiy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy kabi mutafakkirlarning musiqa nazariyasi, cholgʻu sozlari, musiqiy tovushlar tuzilishi, xususiyatlari haqidagi asarlari toʻgʻrisidagi ma'lumotlarni tibbiyot, matematika, geografiya, adabiyot va boshqa fanlar sohasidagi kashfiyotlarga bogʻlab tushuntirish yoki shu fanlar boʻyicha mavjud qoʻshimcha materiallarga, ma'lumotlarga tayangan holda hikoya qilinishi mumkin.

Tarix fanidan ma'lumki, Oʻrta Osiyo xalqlari taraqqiyotida XIV–XV asrlar ikkinchi uygʻonish davri sanaladi. Buyuk Amir Temur va uning vorislari davrida ilm–fan yuqori darajada gullab–yashnagan. Bu davrda Xoʻja Abduqodir Marogʻiy, Darvish Ahmad, Sulton Muhammad Udiy, Mavlono Boqi Jarroh kabi honanda va sozandalar, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulugʻbek, al–Husayniy kabilarnig musiqa ilmi haqidagi asarlari va musiqa rivojiga qoʻshgan hissalari toʻgʻrisidagi hikoyalar oʻquvchilarni befarq qoldirmaydi, darsning mazmundorligini boyitadi, samarali kechishiga ijobiy ta'sir etadi.

Xonliklar davridagi musiqa madaniyatimiz rivoji, bu davrlarda yashab ijod etgan Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiylar, Komil Xorazmiylar ijodiga alohida toʻxtalish mukin. Ularning asarlarida maqomlarning kelib chiqishi, musiqa sozlari, musiqaning nazariy tuzilishi qonuniyatlari, janrlar xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan. Bu davrda musiqa qoʻshiqchilik san'atida xalq bayramlarining mavqei (Sumalak sayli, darveshona, lola sayli, bulbul qoʻshigʻi, qovun sayli, hirmon toʻyi, paxta bayrami, birinchi qor) haqidagi hikoyalar ham oʻquvchilarni xalq musiqa ijodiyoti boʻyicha dunyoqarashini kengayishiga olib keladi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Hikoyalar ayrim ijodkorlar hayoti va faoliyati haqida, o‘zbek milliy musiqa madaniyati alohida o‘rin tutuvchi asarlar (ular zamonaviy asarlar yoki kompozitorlar ijodi haqida), dostonlar, maqom san’ati, folklor ijodiyoti haqida bo‘lishi mumkin.

2. Suhbat metodi. Ushbu metod ham didaktikaning eng ta’sirchan uslublaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi dialog shaklidagi faoliyatdan iborat bo‘ladi. Musiqa asarining mavzusiga ko‘ra darslikda berilgan o‘quv materiali bilan birga uning boshqa fanlar bilan aloqador (maslan, tabiat, hayvonot olami, adabiyot, tarix, ekologiya, ona tili va hokazo) ma’lumotlarni misol keltirish o‘quvchilarga savollar bilan murojat qilish, asarlarga tavsif berish, g‘oyaviy badiiy mazmunini, nazariy jihatdan tuzilishi, janr xususiyatlarini tahlil qilish, ko‘rgazmali vositalardan foydalanib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga qulay sharoit yaratiladi. O‘quvchilar bu jarayonda faol qatnashadilar, o‘z fikr mulohazalarini bildirishga harakat qilishadi. Masalan, o‘quvchi o‘zbek musiqasining mahalliy uslublari bo‘yicha boshqa tengdoshlari bilan suhbat o‘tkazar ekan Buxoro–Samarqand, Farg‘ona–Toshkent, Surxondaryo–Qashqadaryo yoki Xorazm uslublarining bir qator fanlarga oid o‘rganilishi xususiyatlarini e’tiborga olishi kerak. Avvalo, ushbu hududlarda yashovchi xalq, elatlarning etnografiyasi, tili (shevasi), tarixi, kiyinish madaniyati, musiqa cholg‘ulari, o‘ziga xos raqs uslublari haqidagi ma’lumotlarga tayanish zarur. Bu kabi mavzulardagi darslarni tashkil etishda musiiqa tarixi, folklorshunoslik (dostonchilik, baxshichilik, xalq musiqasining ommaviy janrlari), adabiyotshunoslik, ona tili, geografiyaga oid materiallardan foydalanish yaxshi natija beradi.

3. Tushuntirish metodi. Ushbu metod asosan nazariy ma’lumotlarni berishda qo‘llanadi. Musiqa savodi bo‘yicha bilimlarni yetkazishda fizika (tovush va tovushning fizik xossalari, ovoz kuchi, tembri, tovush amplitudasi va hokazo) matematik o‘lchovlar, notalar cho‘zimlarining turkumlanishiga bog‘lab tushuntirish ma’lumotlarini o‘quvchilar tomonidan oson o‘zlashtirishga yordam beradi. Musiqa alohida fan sifatida e’tirof etilishidan oldin matematika ilmining tarkibiy qismi sifatida o‘rganilganligi tarixdan ma’lum. Tarixning guvohlik berishicha buyuk allomalar Muso al–Xorzmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad al–Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, arab olimi Al–Kindiylarning matematika, falsafa, falakkiyotga oid asarlarida musiqaning nazariy tamoyillarini yoritish bo‘yicha maxsus bo‘limlar ajratilgan. Masalaga mantiqan yondashganda ham musiqaning nazariy asosi bo‘lgan tovushlar cho‘zimi, ritmik tuzilishi, ton tuzilishi, o‘lchamlari, hissalarini ijro etishdagi vaqt hajmi, barchasi aniq matematik hisoblashlar orqali bajariladi. Albatta, musiqa darslarida nazariy qoidalarni tushuntirishda mana shunday fizik va matematik qonuniyatlardan hamda shu fanlarga daxldor asboblardan (kamerton, metrnom) foydalanish o‘quvchilarda yaxshi ta’ssurot qoldirishi shubhasiz.

4. Ko‘rgazmali o‘qitish metodlari. Ma’lumki, musiqa harakatlanuvchi kuy va garmoniyalashgan tovushlar tizimidan iboratdir. Uni faqat eshitish a’zolari orqali tinglab idrok etish mumkin. Ko‘rgazmali metodi nota yozuvlarini chiroyli yozishda (chiroyli yozuv, husnixat qoidalariga ko‘ra) rasm, chizmachilik fanlariga oid bilmlarga tayangan holda ish tutishni ta’kidlaydi.

Dirijyorlik sxemalari, raqs harakatlarini chizma tasvirlarini doskada, plakatda namoyish etish, o‘quvchilar tomonidan daftarlarga tushirish, asar obrazlari asosida ularning rasmlarini chizish kabi faoliyatlarda o‘quvchilarni rasm, chizmachilik fanlari bo‘yicha bilim va malakalari qo‘l keladi. Bu o‘rinda o‘qituvchining pedagogik mahorati, notiqlik, rejissiorlik qobilyati muhim rol o‘ynaydi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

5. Amaliy o‘qitish metodlari o‘qituvchi tomonidan, asosan, o‘quvchilarning amaliy ijrochilik bilan bog‘liq malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida qo‘llaniladi. Bunda o‘qituvchining “shaxsiy namunasi”, ya’ni, har bir amaliy harakatni o‘zi ko‘rsatib berishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Vokal–xor malakalari (tovush hosil qilish, tovushni yo‘llash, niqobdor kuylash, nafas olish, nafasni sozlash, so‘z, ansambllik, diksiya, intonatsiya) ustida ishlash, musiqaga xos qadam tashlash va harakatlar bajarish (o‘yin, raqs, gimnastika elementlari), bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish kabi faoliyatlar amaliy metodlar vositasida amalga oshiriladi. Bu faoliyatda o‘quvchilarning individual psixologik, fiziologik xususiyatlarini e’tiborga olish zarur.

6. O‘yin metodi – asosan boshlang‘ich sinflarda ko‘proq qo‘llaniladi va yaxshi natija beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quv repertuariga kiritilgan musiqa asarlari bolalarni yosh, psixologik xarakterga ko‘ra sho‘x, raqsbop, o‘yin raqs harakatlari bilan ijro etiladigan namunalardan iborat bo‘lib, ularni ijro etishda o‘yin, raqs va uning elementlariga keng o‘rin beriladi.

Bunda o‘qituvchining raqs san’ati, uning eng oddiy harakat elementlaridan xabardor bo‘lishiga muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarni (asosan qizlarni) raqs to‘garaklariga qatnashtirish va u yerda o‘rganganlaridan dars jarayonida foydalantirish, ayrim darslarini o‘tishda raqs to‘garagi rahbari, baletmeystr xizmatidan faydalanish, birgalikda tayyorgarlik ko‘rish va ularning tajribalaridan foydalanish mumkin.

Bizga ma’lumki, o‘zbek xalq musiqa folklor, xususan, bolalar folklori qo‘shiqlari biror o‘yinni bajarish yoki o‘yin xarakteridagi mashqlar, harakatlar orqali ijro etiladi va bu musiqa o‘qituvchisidan shunday asarlar bilan ishlashda folklorshunoslikka oid manbalarga murojaat qilib, ish tutishni talab qiladi.

7. Taqqoslash metodi. Bu metodni qo‘llash orqali o‘quvchilarni mavzu yuzasidan berilayotgan bilim, tushunchalar mohiyatini aniq idrok etishlariga erishish ko‘zda tutiladi. Dars jarayonida musiqiy janrlarni bir–biriga o‘xshash va farqli xususiyatlarini aniqlash, mahalliy uslublardagi o‘ziga xoslik, an’anavylik, ijrochilik yo‘llarining farqli jihatlarini ko‘rsatib berish, shuningdek, qo‘shiq bilan mashq, raqs musiqasini eshitib, tinglab aniqlash, taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Bunda o‘qituvchining adabiyot (mumtoz ashulalarning mumtoz she’riyat bilan bog‘liqligi), folklorshunoslik, ona tili, tarixiy dalillarga (tarixiy mavzudagi qo‘shiqlar) musiqa asarlari tahlili faniga oid bilimlariga tayanib ish tutishni maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Taqqoslash davomida boshqa fanlarga oid dalillar o‘quvchilarning bilim va tushunish doirasi, musiqiy tafakkurning rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, oddiygina musiqali ritmik harakatlar bajarish yoki marsh musiqasi sadolariga mos qadam tashlash jarayonida marsh musiqasini boshqa janrlardan nimasi bilan farq qilishi haqidagi tushunchalarga e’tibor qaratish, marsh musiqalari harbiy zaruriyat asosida vujudga kelganligi, u asosan Yevropada shakllanib, bizning musiqa madaniyatimizga XIX asr oxirlarida “duxovoy orkestor” ijrochiligi bilan kirib kelganligi haqida ma’lumot berish marsh musiqasi haqidagi tushunchalarni o‘quvchilar xotirasida mustahkam o‘rnashib qolishiga olib keladi.

Xulosa

Umuman olganda, har bir fan ma’lum darajada boshqa fanlar bilan o‘ziga xos tarzda va ko‘rinishda bog‘langan bo‘ladiki, bu bog‘lanish musiqaning nazariy va amaliy ijrochilik bilan bog‘liq o‘qitish jarayonida ko‘proq va yorqinroq namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, fanlar aloqadorligi, bir–biriga bog‘liqligidan oqilona va o‘rinli namoyon bo‘ladi. Fanlar aloqadorligi va

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

bir–biriga uzviy bog‘liqligidan oqilona va o‘rinli foydalanish musiqa san’atining bir qancha yo‘nalishlarida yetarli darajada boxabar, nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishni talab qiladi. Musiqa darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etish, ilg‘or innovatsion texnologiyalar, ish tajribalaridan unumli foydalanish, yangi va samarali ish usul va shakllarini ijod etish, qo‘llab–quvvatlash davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamarasulzoda Z. “O‘zbek musiqa namunalarini to‘plash va yozib olish tarixi”. Jizzax, 2022–yil.
2. Karimov I. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent. Ma’anaviyat, 2008. 140–143–bet.
3. Qudratov I., Abdukarimova E. “Musiqa ta’limida fanlararo aloqadorlik”. Samarqand, 2015. 29–bet.
4. G.M. Sharipova, D.F. Asamova, Z.L. Xodjayeva. “Musiqa o‘qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari”. Toshkent, 2014.

TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARNI O‘RNI VA AHAMIYATI

Komilova Nodira Abdurahmon qizi
Islom Karimov nomidagi ToshDTU Olmaliq filiali
“Umumkasbiy va iqtisodiy fanlar” kafedrasi katta o’qituvchisi
E-mail: k.nodira2393@gmail.com

Annotatsiya: *Bugungi kunda oliygohlarda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini zamonaviy o‘quv didaktik vositalari, xususan, elektron darsliklar, elektron o‘quv qo‘llanma, elektron masalalar to‘plami, elektron trenajyorlar, elektron praktikumlar, elektron ma’lumotnomalar, elektron ensiklopediyalar, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari, elektron o‘quv metodik-majmua (EO‘MM), virtual laboratoriyalar va boshqalarsiz tasavvur etish qiyin. Shu bois, hozirgi zamon sharoitida zamonaviy o‘quv didaktik vositalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.*

Kalit so’zlar: *elektron darsliklar, elektron o‘quv qo‘llanma, virtual laboratoriyalar, didaktik vositalar, yordamchi vositalar.*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Комилова Надира Абдурахмон кизи
Алмалыкский филиал ТашДТУ имени Ислама Каримова
Старший преподаватель кафедры «Общие профессиональные и экономические науки»
E-mail: k.nodira2393@gmail.com

Аннотация: *На сегодняшний день процессу подготовки студентов к профессиональной деятельности в вузах способствуют современные учебно-дидактические средства, в частности, электронные учебники, электронные учебные пособия, электронные задачники, электронные тренажеры, электронные практикумы, электронные справочники, электронные энциклопедии, трудно представить без автоматизированных систем управления, электронного учебно-*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

методического комплекса (ЭУММ), виртуальных лабораторий и др. Поэтому современные дидактические средства приобретают все большее значение в современных условиях.

Ключевые слова: *электронные учебники, электронное учебное пособие, виртуальные лаборатории, дидактические средства, вспомогательные средства.*

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF MODERN DIDACTIC TOOLS IN PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES

Komilova Nadira Abdurahmon kizi
Almalyk branch of Tashkent State Technical University
named after Islam Karimov
Senior Lecturer of the Department
"General Professional and Economic Sciences"
E-mail: k.nodira2393@gmail.com

Annotation: *today it is difficult to imagine the process of preparing students for professional activities in universities without modern educational didactic tools, in particular, electronic textbooks, electronic manuals, electronic collections of issues, electronic simulators, electronic practicums, electronic reference books, electronic encyclopedias, automated control systems, electronic educational methodological-complex (EOMM), virtual laboratories, etc. Therefore, in the conditions of modern times, modern educational didactic tools are becoming increasingly important.*

Keywords: *electronic textbooks, electronic teaching aids, virtual laboratories, didactic tools, auxiliary tools*

Kirish

Bugungi kunda sifatli zamonaviy o‘quv didaktik vositalarni yaratish va taqdim etish muhim hisoblanadi. Bunday tayyorgarlik dasturiy ta’minotga invariantlik mavjud bo‘lishini va zamonaviy o‘quv didaktik vositalarni yaratish metodologiyasining ko‘pchilik ishlab chiquvchilar tomonidan tan olinishini talab etadi. Uning rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi sabablardan biri, yuqorida qayd etilganidek, an’anaviy ta’limda zamonaviy o‘quv didaktik vositalarni qo‘llashning ko‘lami etarli emasligidir. Bunga sabab o‘qituvchilar zamonaviy o‘quv didaktik vositalar imkoniyatlarini nafaqat yaxshi bilishi, balki ulardan foydalanish metodikasini puxta o‘zlashtirishlari lozim. O‘qituvchilar zamonaviy o‘quv didaktik vositalarni yaratish texnologiyasi asosida talabalarning mustaqil ishiga katta e’tibor qaratiladigan yangi pedagogik metodlarni ishlab chiqishi va ulardan foydalanishi zarur. Ushbu shartlarning bajarilishi, mustaqil ta’limga mo‘ljallangan va an’anaviy ta’lim kamchiliklarini to‘ldirishga qaratilgan zamonaviy o‘quv didaktik vositalarining ko‘proq tarqalishiga olib keladi.(1)

Adabiyotlar

Zamonaviy o‘quv didaktik vositalarga katta ehtiyoj tug‘ilishi va ularni kasbiy tayyorlashda izchil qo‘llash haqidagi xulosa shoshma-shosharlik bilan chiqarilgandek tuyulishi mumkin, chunki mavjud zamonaviy o‘quv didaktik vositalar ta’lim muassasalarida hozircha etarli darajada qo‘llanilmayapti. Aslida bu ziddiyatli holatdir. Zamonaviy o‘quv didaktik vositalar keng miqyosda qo‘llanilmasligi faqat birinchi nofaol (passiv) bosqich uchun xosdir. Keyingi bosqichlarda zamonaviy o‘quv didaktik vositalar ta’lim tizimining ajralmas bo‘g‘iniga aylanadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Muammolarni sifatli zamonaviy o‘quv didaktik vositalarini ishlab chiqish va ulardan faol foydalanish orqali hal etish mumkin. Bu ishga o‘qituvchining jalb etilishi, birinchi navbatda, zamonaviy o‘quv didaktik vositalarni yaratish va qo‘llashning tayanch metodologik masalalarini bilishni, berilgan texnologiya asosida o‘quv jarayonini tashkil etish metodikasini egallashni, yangi zamonaviy o‘quv didaktik vositalarga ehtiyojni aniqlashga qobiliyatlilikni, zamonaviy o‘quv didaktik vositalarni ishlab chiqishda muallif va metodist sifatida ishtirok etishga tayyorlikni nazarda tutadi. O‘qituvchining bu boradagi faolligi nafaqat zamonaviy o‘quv didaktik vositalarning o‘quv jarayoniga integratsiyasini jadallashtiradi, balki unda amalga oshiriladigan didaktik echimlar darajasini kengaytirish hisobiga ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.(2)

Zamonaviy o‘quv didaktik vositalarni ishlab chiqish va o‘quv jarayonida qo‘llash uchun ularning didaktik imkoniyatlari va tavsiflarini yaxshi bilish lozim. SHu bois zamonaviy o‘quv didaktik vositalarning turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarin qisqacha tavsiflab o‘tamiz.

Amaliyotda zamonaviy o‘quv didaktik vositalarning har xil turlari o‘quv jarayonida majmuaviy tarzda qo‘llaniladi. Bu esa, o‘z navbatida, ularni o‘zaro birgalikdagi qo‘llash imkoniyatlarini bilishni talab etadi.

Zamonaviy o‘quv didaktik vositalar maxsus pedagogik vazifalarni hal qilishga mo‘ljallanadi, ya’ni ularning asosiy vazifasi o‘quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat. O‘qitishda qo‘llaniladigan, ammo boshqa vazifalarni hal etishga qaratilgan va pedagogik funksiyalarni amalga oshirmaydigan vositalar zamonaviy o‘quv didaktik vositalari qatoriga kirmaydi. Ushbu izoh muhim hisoblanadi, chunki o‘quv jarayonida foydalaniladigan barcha dasturiy tizimlar zamonaviy o‘quv didaktik vositalar tasnifiga birlashtiriladi, degan noto‘g‘ri tushuncha keng tarqalgan. Zamonaviy o‘quv didaktik vositalarning bunday talqinidan kelib chiqib, matn va grafik muharriri, dasturlashtirish tizimlari, avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari, ekspert tizimlari, boshqacha aytganda, ta’limiy vazifalarni hal qilish vositalari zamonaviy o‘quv didaktik vosita hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Zamonaviy o‘quv didaktik vositalarni qo‘llash texnologiyasi o‘qitishning yangi shakllari rivojlanishiga imkon bergani uchun an’anaviy o‘quv mashg‘ulotlari, tadbirlari va qo‘llanmalarga invariant, ya’ni pedagogik vazifalarni hal qilishga mo‘ljallangan vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu mavjud o‘quv shakllaridan umuman voz kechishni anglatmaydi, bundan tashqari, ularning ko‘pchiligi odatiy, etarlicha barqaror va zamonaviy o‘quv didaktik vositalar texnologiyasiga oson qo‘shiladi. Eng asosiysi, zamonaviy o‘quv didaktik vositalarni ishlab chiqishda ularning an’anaviy o‘quv-metodik qo‘llanmalar doirasi bilan chegaralamasligini e’tiborga olish va ularning yangi imkoniyatlardan foydalanish lozim.

Tahlil va natijalar

Zamonaviy o‘quv didaktik vositalar yordamida hal qilinadigan asosiy pedagogik vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

1) dasturiy ta’minot bilan dastlabki tanishuv, uning tayanch tushuncha va konsepsiyalarini o‘zlashtirish;

2) har xil darajadagi tayanch tayyorgarlik;

3) muayyan dasturiy ta’minotda amaliy vazifalarni hal qilish ko‘nikma va malakalarini egallash;

4) nostandart muammoli vaziyatlarda tahlil qilish va mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini egallash;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

5) aniq faoliyat turlariga qobiliyatni rivojlantirish;

6) o‘rganilayotgan ob’ektlar, jarayonlar va faoliyat muhiti modellari bilan o‘quv-tadqiqotchilik eksperimentlarini o‘tkazish;

7) bilim, ko‘nikma va malakalarni qayta tiklash (kam uchraydigan holatlar, vazifa va texnologik operatsiyalar uchun);

8) bilim va ko‘nikmalar darajasini nazorat qilish va baholash.

Qayd etilgan vazifalarning integral xarakteriga ega bo‘lishiga qaramay, ularning echimi bir-biriga ta’sir etadi. SHuning uchun zamonaviy o‘quv didaktik vositalar turlari, odatda, alohida vazifalarga tegishli emas, balki korrelyasiyalanuvchi vazifalarga guruhlari bilan moslashtiriladi.

Hal qilinadigan pedagogik vazifalarga bog‘liq ravishda zamonaviy o‘quv didaktik vositalar to‘rt sinfga bo‘linadi: nazariy va texnologik tayyorgarlik vositalari; amaliy tayyorgarlik vositalari; yordamchi vositalar; majmuaviy vositalar.

Shu bilan birga, tasniflash sxemasida ko‘rsatilmagan boshqa majmuaviy vositalar ham uchraydi. Ular yo turli ko‘rinishdagi zamonaviy o‘quv didaktik vositalarni birlashtiradi, yo ularga xos funksiyalarni amalga oshiradi. Bunday vositalar qatoriga trenajyor-o‘rgatuvchi tizimlar va boshqa vositalarni kiritish mumkin. Integrallashgan zamonaviy o‘quv didaktik vosita katta hajmdagi o‘quv materialini o‘z ichiga oladi yoki bir necha turdagi zamonaviy o‘quv didaktik vositalarini o‘zida birlashtiradi.

Turli ko‘rinishdagi zamonaviy o‘quv didaktik vositalarini birlashtirish natijasi majmuaviy vosita hisoblanadi. Bir xil turdagi zamonaviy o‘quv didaktik vositalarining birlashishi esa integral vositani hosil qiladi. Dasturiy majmua tushunchasi vositalar to‘plamini mexanik birlashtirishni anglatmaydi. Majmua yaxlit tizim sifatida o‘quv jarayonini markazlashgan holda boshqarishni ta’minlashi va uning tarkibidagi zamonaviy o‘quv didaktik vositalardan tizim bo‘g‘inlari sifatida sinxron foydalanishni ta’minlashi kerak.

Bugungi kunda asosiy pedagogik muammolardan biri – bu talabalarni amaliy masalalarni echish uchun zamonaviy o‘quv didaktik vositalarini ijodiy qo‘llashga tayyorlashdir. Bunday tayyorgarlikni shakllantirishning asosiy vositasi amaliy masalalarni tanlash bo‘lib, u shu bilan izohlanadiki, tanlangan amaliy masala talabaga o‘zlashtirilgan bilimlarning turli xil komponentlarini yaxlit manzaraga birlashtirish va ularni amaliy-tatbiqiy tavsifda aks ettirish imkonini berib, nazariy bilim va zamonaviy o‘quv didaktik vositalardan mustaqil foydalanish o‘rtasidagi oraliq bo‘g‘in sifatida ishtirok etadi. Bundan tashqari, amaliy masala aniq vaziyatda zamonaviy o‘quv didaktik vositalardan foydalanishni e’tiborga olib, kasbiy faoliyatni o‘zlashtirishga imkon beradi, shuning uchun ham talabalar tomonidan amaliy masalalar va topshiriqlar tizimini bajarishni kasbiy faoliyatda zamonaviy o‘quv didaktik vositalarni qo‘llashga tayyorlikni shakllantirishning didaktik vositalaridan biri sifatida qarash mumkin.

Biz o‘z tadqiqotimizda amaliy masalalarni tasniflashga I.YA. Lerner, V.A. Slastenin va boshqalarning ishlarida keltirilgan maqsadlar taksonomiyasiga asoslanuvchi yondashuvdan foydalandik. Qo‘yilgan maqsad ierarxiyasiga erishish uchun har bir elementning o‘rni va tarkibi qat’iy aniqlangan va zamonaviy o‘quv didaktik vositalardan foydalanish e’tiborga olingan holda kasbiy faoliyat tuzilmasini aks ettiradigan subordirar masalalar tizimi zarur.

Texnika yo‘nalishini bitirgan muhandisning ish amaliyotini o‘rganish asosida, biz oliygohda o‘qish jarayonida zamonaviy o‘quv didaktik vositalardan foydalanib egallangan bilim va ko‘nikmalar tizimidan kasbiy masalalarni echishda foydalanishmaydi, degan xulosaga keldik. AKT sohasida etarli tayyorgarlikga ega bo‘lgan pedagogning faoliyati esa reproduktiv xarakterga

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ega. Buning sababini tahlil etish esa, ta'lim muassasasi o'qituvchisining ta'limiy faoliyatda zamonaviy o'quv didaktik vositalardan foydalanish bo'yicha to'plangan tajribalari tez-tez talab etilmaydi, chunki ko'pgina bitiruvchilarda uni doimiy o'rganish va amaliyotda qo'llash motivatsiyasi shakllanmagan, degan xulosaga olib keldi.

Biz tashkil etgan o'quv-tarbiya jarayonida talabalarning o'quv faoliyatida zamonaviy o'quv didaktik vositalardan foydalanishga oid bilim va ko'nikmalarni egallashda pozitiv ichki motivatsiya uyg'otishga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, bilishga motivatsiyani ijodkorlikning o'ziga xos motivatsiyasi sifatida qaraladi. Shuning uchun ham, uni shakllantirish bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchisining o'quv-bilish, ilmiy-tadqiqotchilik kasbiy-pedagogik faoliyatida ijodiy faolligini rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Shunday qilib, muhim va asosiy masalalardan biri – bu talabalar faoliyatining barcha yo'nalishlariga ta'sir etadigan bilish motivlarini aniqlash va rivojlantirish hisoblanadi.(3)

Talabalarning bilish motivlarini pedagogik tashxislash uchun biz zamonaviy o'quv didaktik vositalaridan foydalandik. Bunday yondashuv talabada ko'p uchraydigan bilish faoliyati haqidagi to'la axborotni taqdim etadi, bilish ehtiyojiga u yoki bu ta'sir usullarini va motivlarni asosli tanlashga keng imkoniyat beradi.

Kasbni yuqorida darajada egallashga motivatsiya esa o'z ichiga zamonaviy o'quv didaktik vositalar sohasidagi zamonaviy yutuqlardan foydalanishga tayyorgarlik, mustahkam kasbiy bilim va amaliy ko'nikmani egallash, bilishga qiziqish, zamonaviy o'quv didaktik vositalardan foydalanib kasbiy faoliyatga tayyorlanishga intilish kabi ichki omillarni qamrab oladi.(4)

Bizning tadqiqotimiz natijalari talaba qanchalik qobiliyatli va iqtidorli bo'lmasin, u hohish va motivlashgan o'qitishsiz muvaffaqiyatga erisha olmasligini ko'rsatdi. Shunday qilib, talabalarning faolligi, shuningdek, o'quv materiallarini o'zlashtirishi uning motivatsiyasiga ko'p jihatdan bog'liq ekan.

Biz o'z tadqiqotimiz jarayonida bilim va ko'nikmalar tizimini motivlashgan holda egallashning quyidagi qoidalarga tayandik:

- ✓ kasbni egallashga, shu jumladan, zamonaviy o'quv didaktik vositalardan foydalanishga tayyorgarlikni yuqori darajada o'zlashtirish;
- ✓ fan va texnikaning zamonaviy yutuqlaridan foydalanish, o'quv faoliyati jarayonida zamonaviy o'quv didaktik vositalarni qo'llashga oid bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash;
- ✓ talabalarni kasbiy faoliyatida zamonaviy o'quv didaktik vositalarni qo'llashga yuqori darajada tayyorlash, ularning shaxsiy raqobotbardoshligini oshirish.

Xulosa

Shunday qilib, motiv texnika yo'nalishi talabalarining faoliyatga undovchi omil hisoblanadi. Qiziqish bu o'quv faniga emotsional munosabati bilan uzviy bog'liq bo'lib, talabaning bilim sohasiga yo'naltirganligini bildiradi. Kasbiy motiv va qiziqishlar talabalarda o'zining kasbiy faoliyatiga mos bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydi.(5)

Tadqiqot jarayonida biz motivatsiyani tashxislash kasbiy bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyotli shakllantirishning asosi hisoblanadi, degan xulosaga keldik. Tashxislash o'z ichiga quyidagi o'lchovlarni qamrab oladi: o'qish maqsadini shaklantirishdagi o'zgarish, talabalarda turli xil o'quv faoliyatiga munosabatlarning shakllanganligi, o'qishning mazmun-ma'nosini kuchaytirish, kasbiy qiziqish, motiv va ehtiyojni shakllantirish. Bizning nuqtai nazarimizcha, talabaning motivatsiya darajasini tashxislashga yo'naltirilgan turli kompyuterli testlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ismoilova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Dis. ... p.f.n.-T.: 2000. - 133 b.

Ishanov P.Z. Дидактические основы учебно-методического комплекса подготовки специалистов сельскохозяйственного профиля:: dis. ... kand. ped. nauk.-T.: 2003.-129 s.

Ishmatov K. Организационно-педагогические условия совершенст-вования методического обеспечения профессиональной подготовки учащихся:: Avtoref. dis. …kan. ped. nauk.-T.:1999.-11b. (3.2. 44)

Yo'ldoshev J. G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. – Toshkent.: O'qituvchi, 2000.-207 b.

Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: O'qituvchi, 2004. - 102 b.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KASB TANLASHGA O'RGATISHDA INTEGRASION YONDASHUVNING VAZIFALARI

Kuttibekova Guljan Tulepbaevna – A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Fazliddinova Nafosat Shamsiddin qizi – A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistiri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkoniyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni aqli, qiziqishi har xil kasblar bo'yicha bilimli, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborotga ega bo'lishi kerak. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga o'rgatishning ilmiy-pedogogik asoslari ishlab chiqilgan.*

Tayanch so'zlar*: layoqat, korxonalar, firma, fan, madaniyat, san'at, kasb.*

THE TASKS OF AN INTEGRATIVE APPROACH IN TEACHING YOUNGER STUDENTS TO CHOOSE A PROFESSION

Kuttybekova Guljan Tulepbaevna – A.Associate Professor of the Jizzakh State Pedagogical University named after Kadiriy

Fazliddinova Nafosat Shamsiddin kyzy – A.Jizzakh State Pedagogical University named after Kadiri Master of the 2 th level

Abstract: *In this article, in order to choose a profession, the student should have the ability to evaluate his own opportunities, that is, he should be knowledgeable about various professions, his mind and interest, and he should have information about the possibilities and future of these professions. The scientific-pedagogical foundations of vocational training of students have been developed in general secondary education schools.*

Keywords: *legal capacity, enterprises, firm, science, culture, art, profession*

ЗАДАЧИ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ВЫБОРУ ПРОФЕССИИ

ISSN: 2181-0427

Куттибекова Гульжан Тулепбаевна – доцент Джизакского государственного педагогического университета имени А.Кадири
Фазлиддинова Нафосат Шамсиддин кызы – Джизакский государственный педагогический университет имени А.Кадири магистр 2-го уровня

Аннотация: *В данной статье для выбора профессии студент должен иметь возможность оценивать собственные возможности, то есть он должен быть осведомлён о различных профессиях, своём уме и интересе, а также иметь информацию о возможностях и перспективах этой профессии. Разработаны научно-педагогические основы профессиональной подготовки учащихся в общеобразовательных школах.*

Ключевые слова: *дееспособность, предприятия, фирма, наука, культура, искусство, профессия.*

Kirish

Yurtimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan mustaqil fikrlovchi, barkamol, mustahkam intellektual salohiyatga ega yoshlarni tarbiyalash ta'lim muassasalarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning zamonaviy bosqichi o'quvchi shaxsi shakllanishida erkinlikni ta'minlashning yangi qirralar ochib berilayotganligi bilan tavsiflanadi. Buni har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega‖ ekanligi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining IX bob 37-moddasida alohida qayd etilganligida ham ko'rish mumkin.[1]

Adabiyotlar tahlili

Bugungi kunda butun dunyoda ro'y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borishi uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoniga ko'ra **O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi** tasdiqlandi, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosida o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan tashqari mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

rivojlantirish hisobiga davlat ta'lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish masalasi bugungi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi.[1]

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy jarayonda innovatsion ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda boshlang'ich ta'limning o'rni, global ilmiy jarayonda filologik ta'limni rivojlantirish hamda tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda integratsion ta'lim yo'nalishlar bo'yicha talaygina ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Xulosa qilib aytganda, ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda integratsion ta'limni rivojlantirish borasidagi ishlarni amalga oshirishda barcha fanlarning o'rni muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hamda mahoratli pedagoglarni har tomonlama barkamol inson sifatida ko'rish, ularga o'z qiziqishlarini inobatga olgan holda qo'shimcha bilimlar berish hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda jamiyat ravnaqi uchun xizmat qilishlariga shart-sharoitlar yaratib berish maqsad qilib olingan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'yin ta'lim texnologiyasi asosida refleksiv ko'nikmalarini shakllantirish, o'yin – ta'limiy faoliyat sifatida, bola shaxsini rivojlantirishda didaktik o'yinlar mavzulari doirasida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Shu munosabat bilan maktab pedagogika jamoalarning roli faqat o'quvchilarni o'qitishda va tarbiyalashdagina emas, balki maktab o'quvchilar ma'lumotining zarur qismi hisoblangan kasb-hunar egallash ishlarni to'g'ri tashkil qilish uchun ularda ta'limning ilk bosqichlardayoq kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirib borish juda muhimdir.

Kasb tanlash uchun o`quvchi o'z imkoniyatlarni baholay olish kunikmasiga, ya'ni aqli, qiziqish har xil kasblar buyicha bilimli, bu kasblarning imkoniyatlar, kelajagi haqida axborotiga ega bulishi kerak.

Shaxsda kasbni o`rgatishni maxsus ilmiy amaliy faoliyat orqali amalga oshirladi, o`quvchilarning inson sifatida shakllanish bosqichlarda shaxs va jamiyat yagona bir tizim sifatida qaraladi, o'tish davrda bozor iqtisodiyotimunosabatlar talablar inobatga olinadi.[5]

O`quvchilarni kasbga o`rgatishni yosh bosqichlari boshlangich sinf o`quvchilardan quyidagi mazmunga ega bo'ladi:

Boshlangich sinf o`quvchilarini kasbga o`rgatishdan asosiy maqsad ularni mehnat, kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib borish va kasb faoliyatiga qiziqishini shakllantirishdan iborat.

Bunga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirsh zarur:

O`z-o`zini baholay bilish malakalarga o'rgatish;

Intelektual va hissiy-irodaviy xislatlarni rivojlantirish; Realistik jihatdan o`z-o`zini baholashni rivojlantirish.

Bu yoshdagi bolalarda ahamiyatga ega bo`lgan o`quv, ya'ni kasbgao`rgatishda quyidagi kognitiv yo'nalish ko'rsatkichlarini shakllantirish kerak:

Mehnat vositalari va predmetlarini ish o'rnida joylashtirish;

O`quv yozuv qurollarini qo'llanilishi va ulardan foydalanish qoidalarini;

Ishning borishini argumentlash, asoslash va mehnat operatsiyalarini bajarlish ketma-ketligini tushunish;

O`zining shaxsiy buyumlariga, o`quv qurollariga va maktab jihozlarigae'tiborda;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Nafaqat yaxshi e'tibor bilan qarash va zarur bo`lgan o`quvda ta'mirlash ishlarini (yelimlash, tartibga keltirish) bajarishga intilishida;

Har qanday ishni bajarishda intiluvchanligi, tabiat, atrof muhitga va uning boyliklarini saqlash va boshqalarda.

Kasbga o`rgatishning omilkorona-qimmatli yo'nalishi bu yoshdagi o`quvchilarda o'z mehnati natijalaridan estetik jihatdan ruhlanishida namoyon bo'ladi. Mehnatga estetik e'tiborning yo'nalishida motivlari turlicha bo'lishi mumkin. U harakat qilishda, faollikda, o'rtoqlar bilan aloqasida ishonch bildirganligidan qoniqishida seziladi.

Tahlil va natijalar

O`quvchilarni kasbga o`rgatish mazmuni, ulardagi qiziqish, layoqat, shaxs sifatida jamiyatda tutgan o'rni to`g`risidagi tushunchalar va kasb tanlash ko`nikmasini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Bolg'usi kasbiy faoliyatlar bu yoshdagi o`quvchilar uchun hayotdagi o'z o'rnini belgilash va tayyorlashda turtki, o`z shakllanish imkoniyatlarini ochishi va kasb tanlashi uchun zarur bo'ladi.

Bu yoshdagi o`quvchilarda ijtimoiy-psixologik layoqatlar, o'zi ulg'ayotganligida, yangi bir pozitsiyada o'ziga e'tiborda, atrofga va olamga munosabatida shakllanishi kerak.

O`quvchilarni ta'lim-tarbiya jarayonida o`quvchilarni qiziqishlar, izlanishlar, layoqati bo'yicha kasb tanlashga va hayotda o'z o'rnini topishiga yo'naltiriladi.

Bu ishlar real mehnat bozorini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

O`quvchilarni kasbga o`rgatish ishlari mazmuni shaxsning ma'naviy xislatlar va jamiyat oldidagi burchi javobgarlik xislatlarini shakllantirish bilan ajralib turadi.

Bu esa ulardan mustaqillik, tashabbus bilan chiqish, mustaqil qaror qabul qilish xatti-harakatlar natijasini bilishi va faoliyatini nimaga olib kelishini sezishi bilan belgilanadi.

Bu bosqichda shaxsning o'ziga bahosi, tanqiddiy qarashi, o`zini-o'zi tahlil qilishi, o`z-o`zini boshqarishi, tarbiyalashi, o`zining qiziqishini atrofdagilarniki bilan qo'shib olib borishi prinsipal muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarni to'g'ri va erkin kasb tanlashga o'rgatish bugungi kunning bu jarayon kasb tanlash va kasbiy faoliyat tarmoqlarini bilishi natijasidir.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1-shakl



O`quvchilarni oldingi bosqichlarda olgan bilimlari va tajrbalari asosida quydagi yo'nalishlar bo'yicha kasbiy faoliyatda amalga oshiriladi.
O`quv va maxsus fanlarni chuqur o'rganish asosida;
Diqqatini tanlagan faoliyatida kasbiy muhim sifatlarni shakllantirilishida;
Kasbiy rejalar ustidan nazorat va ularni asoslanish darajasini ochib berishda;
Kasbiy faoliyatga o`zini tayyorlash yo'llari, o'ziga tashxis qo'yish,natijalarini baholashda;
Ijtimoiy kasbiy ko'nikish, kasbni tanlash sabablar, kasbiy yo'nalishasoslari shakllanishida.[6]
Hozirgi kunda yoshlarni kasb va kasbga o`rgatishdan maqsad o`sib kelayotgan barkamol avlodni kasblar bo'yicha ongli ravishda tanlashga tayyorlash.
Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga yo`llash yoshlarning kasbni erkin va mustahkam tanlashlari uchun mustaqil zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu shaxsning ma'naviy, aqliy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyasi, ya'ni birga ta'lim muassasalardagi o`quv-tarbiya jarayoni uzviylikda amalga oshiriladi.

Kasb va kasbga o`rgatishning nazariy shart – sharoitlari deganda, kasb va kasbga o`rgatish faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan turli xil qarashlar majmuasi, g`oyalar va tasavvurlar yig`indisidir. Bu yoshlarning shaxsiy qiziqishlari, layoqati va qobiliyatlarga mos keladigan, jamiyat uchun zarur kasblarga yo`llashdir.
Mehnat va kasb-hunar ta'limida o`quvchilarni kasb va kasbga o`rgatishning quyidagi usullarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.
- O`quvchilarni kasblar bilan tanishtirsh.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

- Kasblar, mehnat yutuqlar talqin etilgan asarlarni o`qishni tavsiyaetish:
- Har bir kasb haqida maxsus darslar o`tish:
- Ishlab chiqarish korxonalari, firma, fan, maorif, madaniyat san'at muassasalarga sayohatlar tashkil etish.
- Mehnat ilg`orlari bilan, ular erishgan yutuqlar haqida suhbatlar o`tkazish:
- Mehnat ta'limi yo`nalishi bo`yicha – multimedialar ko`rsatish:
- O`quvchilarni turli xil to`garaklarga jalb etish:
- Yangi kasb va mutaxassisliklar, fan texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish texnologiyalar bilan muntazam tanishtirib berish.

Xulosa

Kasbga o`rgatish o`quvchilarga politexnik ma'lumot berish masalalari bilan; Kasb tanlash esa muayyan bilim darajasi bilan chambarchas bog`liqdir. Ma'lumki, politexnik ta'lim xalq xo`jaligini rivojlantirishning ijtimoiy iqtisodiy va ilmiy texnikaviy asoslarni tahlil qilish, ishlab chiqarsh tarmoqlarning istiqbolli yo`nalishlarini aniqlashni, bu yo`nalishlarni belgilovchi yangi va ilg`or texnologiyalarning ilmiy asoslarni o`rganishni nazarda tutadi. Yoshlarga amaliy faoliyatlarni va kasbiy xislatlarni singdirish, o`z ustida mustaqil ishlash hamda o`zini, politexnikaviy va kasbiy mahoratini oshirib borishga tayyorlashdan iborat.

Kasbga o`rgatish zamon bilan hamnafas olib borlishi zarur. Shu sababdan o`quvchilarni kasb – hunarga to`g`ri o`rgatish bilimlarni chuqurroq berish, nazariya bilan amaliyot uzviyligini ta'minlash ularni ilm hunarga ishtiyoqmandligini, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF –5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.// https: lex.uz/ru/docs/4312785.

2. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodieva D.P "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma. 2007-yil TDPU.

3. Sanaqulov X.R, Xodieva D.P, Sanaqulova A.R. "Texnologiya" 2-sinf uchun darslik . –T:. Sharq, 2019.

4. Sanaqulov X.R, Xodieva D.P, Sanaqulova A.R. "Texnologiya" 3-sinf uchun darslik . –T:. Sharq, 2019-yil

5. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishning nazariyasi va amaliyoti. G.Kuttibekova, D.Kulboeva T-:O'zbekiston 2020y

6. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi. G.Kuttibekova Toshkent "Innovatsiya-Ziyo" 2022-yil.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

USING THE "EXPLANATION" METHOD IN ORGANIZING LESSONS

Makhammatova Nodirabegim Azamatjon qizi
Tashkent institute of Finance, teacher of "Foreign Languages" department

In this article is discussed about how to use methods and techniques to organize the lesson effectively and interestingly. The development of foreign language skills based on effective methods, methods and practice is an important issue in the field of education. The main task of the pedagogue-teacher is to constantly work on himself and to enrich and improve the existing teaching experiences in order to be able to focus the student's attention on science to achieve the intended result.

Key words; *method, explanation, teaching process, foreign language, material, development*

MASHG'ULOTNI TASHKIL ETISHDA "TUSHUNTIRISH" METODIDAN FOYDALANISH

Mahammatova Nodirabegim Azamatjon qizi
Toshkent moliya instituti, "Xorijiy tillar" kafedrasi o'qituvchisi

Ushbu maqolada dars mashgulotini samarali va qiziqarli tashkil etish uchun qanday metod va uslublardan foydalanish haqida so'z boradi. Ta'lim sohasida horijiy til ko`nikmalarini samarali metodlar, usullar va amaliyot asosida rivojlantirish muhim masala hisoblanadi. Maqolada, o`qitish jarayonida talaba diqqatini fanga qarata olish, ko`zlangan natijaga erishish uchun, doimiy ravishda pedagog-o`qituvchi o`z ustida ishlashi lozimligi va mavjud dars o`tish tajribalarini boyitib, takomillashtirishni asosiy vazifa ekanligi ko`rsatib o`tilgan.

***Kalit so`zlar;*** *metod, tushuntirish, o`qitish jarayoni, horijiy til, material, rivojlantirish*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА «ОБЪЯСНЕНИЕ» В ОРГАНИЗАЦИИ УРОКИ

Махамматова Нодирабегим Азаматжон қизи
Ташкентский финансовый институт, преподаватель кафедры «Иностранных языков»

В данной статье рассматривается о том, как с помощью методов и приемов организовать урок эффективно и интересно. Развитие навыков иностранного языка на основе эффективных методов, способов и практики является важной проблемой в сфере образования. В статье показано, что основная задача педагога-педагога состоит в том, чтобы постоянно работать над собой и обогащать и совершенствовать имеющийся педагогический опыт, чтобы суметь сосредоточить внимание учащегося на науке, добиться намеченного результата.

Ключевые слова; *метод, объяснение, учебный процесс, иностранный язык, материал, развитие*

Introduction

The students in the audience will be bored of the lesson if the teacher is not able to use his methodical methods to make it interesting. Various methodological processes can be used to deliver any information. Some of the information is easy to understand, while others are hard to remember. To be able to get out of this situation, to achieve the intended result and to combine different teaching methods is a process that every professional pedagogue-teacher should be aware

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

of. This is based on his qualifications and experience. The quality of the teaching process takes a special place in revealing the essence of the "explanation" method.

The main goal of the article is to study and improve the method of "explanation" in harmony with other existing methods, especially to develop it step by step in the process of teaching foreign language education, and more teachers should study according to the learning needs of students. We want to show that they should change their approach. We wanted to show the advantages and disadvantages of several fundamental teaching methods to get to know them better.

Literature analysis

in this process, communication refers to the exchange of information between teachers and students; students are expected to actively participate in the entire process [7;]. It is common practice to use explanation in the audience, but different roles and forms are used. Often, explanation is seen as a way to describe relevant phenomena, help students develop logical thinking, and teach them to think inductively in order to generalize. Relationships are made clearer, demonstrated, and justified as a result of this. [9;172]. Even though the term "explanation" is frequently not explicitly discussed in the literature, it is mentioned in numerous papers on communication and reasoning. "Good explanation is good teaching" [3;1-2]. The idea that being able to explain things is very important in education is reflected in this quote.[5] The most important part of teaching, according to Behr [1;189-199], is the ability to explain things to others. As a result, the teacher must employ effective teaching strategies to ensure that students comprehend the subject at hand in order to accomplish the intended objective. The "explanation" method is most suitable for all teaching methods, including discussions, seminars, practical exercises, and tutorials, in the teaching process.[5;] The primary goal of "explanation" in education is to increase students' conscious interest in the lesson, help them understand the work's purpose, and show them how to complete it. It involves teachers' ability to effectively convey information to students through explanations. From the perspective of educational technology, explanation in education is a process of finding the truth through clear deductive arguments. Explanation can be viewed as an effort to help others comprehend a problem in education [2;].

Research methodology

"Explanation" is defined as providing insight by describing a relevant circumstance or circumstances in all of the above definitions. The term "explanation" is frequently interpreted as a strategy for describing relevant phenomena, cultivating students' logical reasoning, and instructing them to think inductively in order to generalize their perspectives. Relationships are made clearer, demonstrated, and justified as a result of this.[9;172] "Explanation" encompasses more than mere description. As a result, emphasizing the reason for something happening is an essential component of "explanation". In other words, "explanation" can be considered as an attempt to determine the cause of something. Fairhurst [4; 205-214] describes contextual explanation (event to be explained), explainer (giver of explanation) and explainer (receiver of explanation) in terms of requiring explanation. "The role of explanation is to make certain concepts, processes or rules clear and understandable. [9;107-116]. The purpose of "explanation" is to make certain ideas, procedures, or regulations easy to comprehend.[9;107-116] When instructing students in an educational setting, "explanation" is essential to gaining students' comprehension of the material teaches students to think logically and uses inductive reasoning to guide generalization. There are two distinct types of teaching associated with "explanation" [6; 3-4]: disciplinarian and educational. According to Leinhardt [6;3-4], the method of "explanation" in

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

education aims to explain concepts, situations, events, ideas and problems to students in order to understand, learn and use information flexibly. Within the discipline of each individual procedure rule, disciplinary clarifications are carried out. Teaching methods include the principles and approaches teachers use to instruct students. At the beginning of the academic year, the training process is usually defined and approved, and the methods used to learn it are based on the worldview of the student studying in the auditorium (the language used to explain is either simple or complex). The group's diversity of viewpoints makes it difficult to convey the subject in a consistent manner during this process. A particular teaching strategy must be tailored to the learner's characteristics and the type of education required for it to be appropriate and effective. Teaching strategies should take into account not only the subject matter but also how students learn. It is common knowledge that logical thinking plays a key role in human development. Creativity is aided by this reflection and original thought.

Analysis and results

There are a lot of teaching methods, depending on their application, it is assumed that the teacher is in the main place, i.e. in the center, or on the contrary, the students are in the central place. In the first process, approach, teachers are the main representatives of this model. Students, on the other hand, are considered "empty vessels" whose main task is to passively acquire information (through lectures and direct instruction). The main task of teachers is to impart knowledge and information to their students. In this model, teaching and assessment are considered as two separate entities. Student learning is measured through objectively scored tests and grades. In a student-centered approach, students play an equally active role in the learning process rather than the teacher. The main task of the teacher is to teach and help students to learn and fully understand the material. Student learning is measured through formal and informal forms of assessment, including group projects, student portfolios, and class participation.

Teaching and assessment are interdependent, and the student's learning is constantly monitored by the teacher during class sessions. The most basic method of teaching is explanation. "Explanation" is defined as a tool used by the interlocutor to understand or "explain" the object of communication, discussion or debate.

In classes, the method of explaining the educational material is widely used. Experiments show that the object of the subject studied by the pedagogue is to convey the concepts, laws and rules that characterize the content of events and events. The pedagogue proves how valid the laws and regulations of a certain subject are by giving facts, examples and arguments, working examples. The intended goal cannot be achieved without ensuring the active participation of students in this process. It is especially important to ensure that students participate with their opinions in summarizing the material being presented and drawing conclusions. "explanation" refers to monologic teaching methods in which information is conveyed by the teacher to the students. (for example, in combination with a story, description or lecture). Skalkova [9;] says that in practice individual forms of explanation are often percolated. In this context, explanation is seen as the task of the teacher to passively accept what is presented to the students.

Conclusion

the teacher should keep in mind that the programmed texts are not a program for developing the mind, but a program for studying the educational material. Therefore, it is necessary to take into account its shortcomings when using this method. Because teachers have styles that reflect their

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

personalities and curriculum (from math and science to English), they focus on their learning goals and are all things to all students.

In the development of comprehensive teaching methods and styles of teachers, if they put more emphasis on quality education of students, they should also identify their personal qualities, strengths and goals. Simply choosing a method for training does not gain any purpose or meaning. Because, if the student learns science based on his desire, internal and external motivation, the scope of his interest, these used methods will serve to give their results.

Used literatures

1.Behr, A.L. Exploring the lecture model; An empirical study. Studies in Higher Education 13(2) 1988; 189-199pp

2.Brown, G.A & Atkins. M Effective teaching in higher education NY; Methuen, 1988:

3.Calfee.R. Those who can explain teach… (An unpublished manuscript) Stanford CA; Stanford University, 1986: 1-2 pp;

4. Fairhurst. M.A. Satisfactory explanation in the primary school. Journal of Philosophy of Education 15(2), (1981) 205-214pp;

5. Hativa.N. The tension between thinking and beliefs of professors and students regarding instruction. Paper presented at the annual meeting of the American Educational Research Association, New Orleans 2000;

6.Leinhardt.G. Towards understanding instructional explanations(CLIP-90-03) Pittsburg; Center for the Study of Learning 1990: 3-4 pp;

7. Mareš.J & Křivohlavý.J, Komunikace ve skole (Communication in the school) Brno; Masarykova univerzita (in Czech) 1995;

8 Metcalf.K.K & Cruickshank.D.R. Can teachers be trained to make clear presentations? Journal of Educational Research 85(2), 1991, 107-116;

9. Skalkova.J. Obesna didaktika (General Didactics) Prague ISV Publ. (in Czech) 1999, 172p;

MILIY HARAKATLI O'YINLARNI SPORT ELEMENTLARINI O'ZLASHTIRISHDA QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

Mirzayev Saidmaxmud, NamDU dotsenti
Ismoilov Turobjon, NamDU dotsenti
Mahmudjonov Asilbek, NamDU magistri

Annotatsiya: *umumta'lim maktabidagi o'quvchilarini o'zlashtirishi zarur bo'lgan sport turlariga xos bo'lgan elementlarni o'rganishlari uchun zamin yarata oladigan miliy harakatli o'yinlarni qo'llash haqida ma'lumotlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *sport turlariga xos bo'lgan elementlar, milliy harakatli o'yinlarni qo'llash, o'yinlar kompleksi.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИГРОВ В РАЗВИТИИ СПОРТИВНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ

Мирзаев Саидмахмуд, доцент НамГУ
Исмоилов Туробжон, доцент НамГУ
Mahmudjonov Asilbek, магистр НамГУ

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Аннотация: *актуальна информация об использовании национальных подвижных игр, которые могут создать основу для изучения элементов, характерных для видов спорта, которые необходимо освоить учащимся общеобразовательных школ.*

Ключевые слова: *спортивно-специфические элементы, использование национальных подвижных игр, игровой комплекс.*

EFFECTIVENESS OF APPLICATION OF NATIONAL MOVEMENT GAMES IN THE DEVELOPMENT OF SPORTS ELEMENTS

Mirzayev Saidmaxmud, associate professor of NamSU
Ismoilov Turobjon, associate professor of NamSU
Mahmudjonov Asilbek, master of NamSU

Annotation: *relevant information is provided on the use of national action games that can provide a platform for secondary school students to learn the elements specific to the sports they need to master.*

Key words: *elements specific to the sport, the use of national action games, a game complex.*

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandan so’ng juda ko’plab rivojlanish jarayaonlarini amalga oshirdi, jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasida ham ko’plab rivojlanishlar amalga oshirildi va bir qator qaror, farmonlar ijro etildi. Bunga misol qilib Yurtboshimiz tomonidan 2020-yil 24-yanvardagi 5924-sonli farmonlari “O’zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish to’g’risida” [36] gi farmonlarini ko’rsatish mumkin. Bu esa yosh avlodni so’g’lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy madaniyat oldiga katta masuliyatli vazifalar qo’yadi. Yosh avlodni jismonan baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishiga qaratilgan, jismoniy madaniyatini milliylashtirishda xalqimizning unitilib borayotgan milliy o’yinlarini to’plash, hayotga va maktab o’quvchilariga tadbiq etish, rivojlantirish yo’llari va usullarini qayta ko’rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Milliy harakatli o’yinlar o’quvchilarni soglom, barkamol va har tamonlama komil inson bo’lib voyaga etichlarida katta ahamiyatga egadir[2;3].

Ma’lumki, umumta’lim maktablari boshlangich sinf o’quvchilarining jismoniy tarbiya dastur bo’limlariidagi o’quv soatlarining asosiy hajmini harakatli o’yinlar tashkil etib, 1-sinf o’quvchilari uchun dastur bo’limlarining harakatli o’yinlarga berilgan soatlar hajmi 38 soatni, 2-3-sinf o’quvchilari uchun dastur bo’limlarining harakatli o’yinlarga berilgan soatlar hajmi 36 soatni, 4-sinflar uchun dastur bo’limlarining harakatli o’yinlarga berilgan soatlar hajmi 12 soatni tashkil etadi. Yuqori sinflarda esa boshlang’ich sinflarda xarakatli o’yinlarga nisbatan ozroq soat dastur bo’limlarida berilgan. Bundan ko’rinib turibdiki, o’quvchilarining bilan olib boriladigan asosiy jarayonlar harakatli o’yinlarga qaratilgan bo’lib, hayotiy zarur bo’lgan harakat ko’nikma, malakalarini va unga bog’liq bo’lgan bilimlarni egallashga, sport elementlarini o’zlashtirishga qaratilgan.

[36] O’zbekiston Respublikasi prezidentining “Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora tadbirlari tog’risida” 2020-yil 24-yanvardagi 5924- sonli farmoni. Mabuot.uz

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Umumta'lim maktablaridagi bolalarga o'tkaziladigan milliy harakatli o'yinlarni takomillashtirish, o'quvchilar yoshiga mos hamda sport elementlarini o'zlashtirishga xos bo'lgan o'yinlarni tanlash, harakatli o'yinlarga milliylikni singdirish, ya'ni milliy harakatli o'yinlardan maktab kun tartibida keng foydalanish, dars mashg'ulotlariga yuqori darajada kiritish, tashkil etishning yangi usullarini ishlab chiqish zaruriyati tug'iladi.

Asosiy qism

Umumta'lim maktab o'quvchilari uchun ko'proq harakatli o'yinlar dastur bo'limlarining asosiy tarkibiy qismlarini egallaydi. Biz bunga o'zgartirishlar kiritishga urindik, ya'ni harakatli o'yinlar o'rniga xalqimizning og'zdan-og'zga o'tib kelgan, lekin xozirda unutilib borilayotgan, milliyligimizni aks ettiradigan xalq milliy o'yinlarimizni maktab dars mashg'ulotlariga kiritishga urindik.

Bu yoshdagi bolalar uchun harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya darsining asosi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun maktab dasturida harakatli o'yinlarga boshqa sport turlariga nisbatan ko'proq o'rin ajratiladi. Buning sababi shundaki, dasturga kiritilgan turli xil jismoniy mashqlarni bolalar xilma-xil o'yinlar vositasida osongina idrok qiladilar va o'zlashtiradilar. Masalan, yugurib kelib uzunlikka sakrashni o'rgatish uchun alohida mashg'ulot o'tkazilganda o'qituvchi tomonidan qo'yilgan vazifa amalga oshirilmay qolishi mumkin. Chunki mashqni tushuntirish, ko'rsatma berish, bajarish va uning qanday bajarilganligini aniqlash, xatolarni tuzatish bolalar uchun juda zerikarli bo'ladi. Agar bu vazifani hal qilish uchun "Bo'ri zovur ichida" o'yinidan foydalanilsa, maqsadga osongina erishiladi. III-IV sinflar uchun harakatli o'yinlarni asosan darsning asosiy va yakunlovchi qismida o'tkazish tavsiya etiladi, chunki dastur meteriali darsning kirish qismida saf mashqlarini o'tkazishni talab qiladi. O'yinlarda yugurish, sakrash va uloqtirish yoki irg'itish mashqlariga alohida e'tibor berish lozim. Bu yoshdagi bolalar bilan oddiy va o'rtacha murakkab o'yinlarni o'tkazish bilan birga, agar jamoa yetarli darajada tayyorlangan bo'lsa, ancha murakkabroq, ya'ni jamoalarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarni ham o'tkazish mumkin. Jamoa o'yinlari yetarli darajada chaqqonlik, hozirjavoblik, farosatlilikni va jismoniy tayyorgarlikni talab etadi va ayni vaqtda bu xususiyatlarni takomillashtiradi.

Izlanishlar natijasida umumta'lim maktabi o'quvchilari uchun sport elementlarini o'zlashtirishga zamin yarata oladigan o'yinlar kompleksini ishlab chiqdik va ushbu jadval asosida tadbiq qilishga harakat qildik.

1-jadval

SPORT ELEMENTLARINI O'ZLASHTIRISHDA TAVSIYA ETILGAN MILIY HARAKATLI O'YINLAR

Sport turi	Bajariladigan vazifa	Millliy harakatli o'yinlar
Yengil atletika	Uzunlikka sakrash Startdan chiqish	„Bo'ri zovurda" „Kun vat un"
Valeybol	Hujum texnikasi	„Ovchilar" „Aylanadagi to'p''
Basketbol	To'pni savatga tashash	„Ovchilar va o'rdaklar" „To'pni savatga tushir''
Gandbol	Himoya taktikasi	„Qa'la himoyasi''

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tadqiqot qismi

Unutib borilayotgan milliy harakatli o'yinlarimiz yosh avlodning milliy qadryatlarini rivojlantiribgina qolmay, balki birmuncha murakkab bo'lgan, o'quvchilar uchun zerikarli hisoblangan vazifalarni oson, samarali va qiziqish bilan o'zlashtirishiga zamin yaratib beradi. O'quvchilarning harakat zaxirasini oshirib, hayotiy zarur bo'lgan harakat ko'nikmalari va malakalarini egallashga ko'maklashadi. Biz quyida Namangan viloyati Chust tumani XTB ga qarashli 9-umumta'lim maktabidagi 6-„A" sinf o'quvchilarini tajriba hamda shu maktabning 6-„B" sinf o'quvchilarini nazorat guruhi sifatida tanlab oldik. Milliy harakatli o'yinlar asosida tashkil etilgan dars mashg'ulotlaridagi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik holatini kuzatish davomida natijalarni quyidagi jadvalda qayd etdik.

2-jadval

№	Testlar	Jinsi	n	Tajriba x ± m	Nazorat x ± m	t	P
1	Yuqori startdan 30m.ga yugurish	O' Q	15 11	6,9 ± 0,05 7,3 ± 0,06	7,8 ± 0,06 7,5 ± 0,11	0,52 0,41	>0.05 >0.05
2	3x10m.ga mokisimon yugurish	O' Q	15 11	8,9 ± 0,12 9,3 ± 0,19	9,8 ± 0,08 10,2 ± 0,11	0,52 0,41	>0.05 >0.05
3	Arg'amchida sakrash (30 soniya)	O' Q	15 11	22,5 ± 0,52 27,4 ± 0,71	18,7 ± 0,45 24,9 ± 0,85	0,79 3,45	>0.05 <0.05
4	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	O' Q	15 11	126,3 ± 0,86 122,8 ± 1,16	124,5 ± 0,73 119,6 ± 1,11	0,87 0,48	>0.05 >0.05
5	150gr koptokni uloqtirish	O' Q	15 11	19,8 ± 0,52 17,0 ± 0,58	17,6 ± 0,31 15,8 ± 0,52	0,95 1,45	>0.05 >0.05

Xulosa

Shunday qilib, pedagogik sharoitlarning yaratilishi, jismoniy mashqlar majmuasining to'g'ri tashkil qilinishi milliy harakatli o'yinlarga asoslangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini yuqori sifatli o'tkazishga imkoniyat yaratadi hamda mashg'ulotlarni qiziqarli bo'lishiga yordam beradi. Jismoniy tarbiya ish rejalarining usuliy nuqtai nazardan to'g'ri tuzilishiga yordam beradi. Yuqorida qayd etilganlar asosida to'plangan ma'lumotlar pedagogik kuzatishlar va nazorat me'yor ko'rsatkichlarining tahlili bo'yicha ma'lum bo'ldiki, bolalarning jismoniy tayyorgarligi tajriba-

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

sinov maktabida yuqori darajada, shu bilan birga ularning salomatligi nisbatan yuqori va bolalarning kasalga chalinishi kamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомилаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони (2020.24 январь).

2.Исмоилов Т.У. Бошланғич синфларда жисмоний тарбия-соғломлаштириш тадбирларининг педагогик хусусиятлари. Дис. ... пед.фан.ном. -Тошкент: 2010. -157 б.

3.Усмонхужаев Т.С.. 1001 ўйин - Т.: Ибн Сино.1990.

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИНИНГ КРЕАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ ФАОЛИЯТНИНГ ЎРНИ

Пўлатов Фозилжон Усибжонович,
Мактабгача таьлим ташкилотлари директор ва мутахассисларини қайта тайерлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти мустақил тадқиқотчиси

Аннотация: *Мақола мактабгача таълим ташкилотлари тарбияланувчиларида креатив компетенцияларини шакллантириш масалаларига бағишланган. Шунингдек, болаларда креатив компетенцияларни шакллантиришда тасвирий фаолиятни ўрни ва аҳамияти муаллиф тамонидан асослаб берилган.*

Калит сўзлар. *Креатив, компетенция, расм, аппликция, пластилин, лой, фаолият, илгор тажрибалар, ижодкорлик, замонавий технологиялар, инновация, интеллектуал, сифат.*

Аннотация*: Статья посвящена вопросам формирования творческих компетенций у воспитанников дошкольных образовательных организаций. Также автор обосновывает значение изобразительной деятельности в формировании творческих компетенций у детей.*

Ключевые слова*. Креатив, компетентность, картина, аппликция, глина, передовой опыт, креативность, современные технологии, инновации, интеллект, качество.*

Annotation*: The article is devoted to the issues of formation of creative competences in pupils of preschool educational organizations. The author also substantiates the importance of artistic activity in the formation of creative competencies in children.*

Key words. *Creative, competence, picture, applique, plasticine, clay, activity, advanced experiences, creativity, modern technologies, inovation, intellectual, quality.*

Мамлакатимизда мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш, илғор хорижий тажрибаларни ҳисобга олган ҳолда сифатли таълим ва тарбия шакллари ҳамда усулларини амалиётга жорий этишга қаратилган мактабгача таълимнинг инновацион тизимини ташкил этиш бўйича кенг қамровли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикасининг “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясининг қабул қилиниши мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш, моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, мактабгача таълим

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ташкилотлари тармоғини кенгайтириш, малакали педагог кадрлар билан таъминлаш, болаларни мактаб таълимига тайёрлаш даражасини тубдан яхшилаш, таълим-тарбия жараёнига замонавий таълим дастурлари ва технологияларини татбиқ этиш, мактабгача ёшдаги болаларни ҳар томонлама интеллектуал, ахлоқий, эстетик ва жисмоний ривожланиши учун шарт-шароитларни тубдан яхшилаш, мактабгача таълим тизимига инновацияларни, шунингдек, энг илғор педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини татбиқ этиш устувор вазифа сифатида белгиланган.

Мактабгача таълим ташкилотлари тарбияланувчиларида креатив компетенцияарини шакллантириш, мактабгача таълимга компетенциявий ёндашув жараёнида амалга оширилишини инобатга олган ҳолда “компетенция” ва “компетентлик”, “ижод”, “креативлик”, ва “креатив компетентлик” тушунчаларининг илмий талқини билан танишиб чиқамиз.

А.Н.Болотов, В.С.Лебедев, Н.Д.Никандров, М.В.Рыжаков ва бошқалар “компетенция” ва “компетентлик” терминларни синонимлар сифатида ишлатадилар, шу жумладан бир қатор муаллифлар “компетенция” ва “компетентлик” тушунчаларини иқтидорга эга ва долзарб (И.А.Зимняя, И.А.Субетто), хусусий ва умумий (Н.А.Алмазова, В.И.Звонников, М.Б.Чалышкова, И.А.Субетто, Ю.К.Чернова)[1], шахсий сифат талабларидан ташқари берилган (К.Вельде, Д.С.Ермаков, А.В.Хуторский, О.Н.Ярыгин) муносабатлар сифатида табақалаштирадилар. О.В.Чиркова ўзининг тадқиқотларида “компетентлик” ва “компетенция” тушунчаларининг 15 дан ортиқ турлича таърифларини келтириб ўтади [2]. Уларни ўрганиб чиқиб биз шундай хулосага келдикки, давлат таълим стандартида акс этган “компетенция” ва “компетентлик” тушунчаларининг талқин этилишида К.Вельде, Д.С.Ермакова, И.А.Зимняя, А.В.Хуторский ва бошқаларнинг изоҳлари бир бирига мос келади.

Ўсиб ва ривожланиб келаётган шахсни ижодга жалб қилиш – ҳамма даврларда жамият олдида турган энг муҳим вазифалардан бири бўлган ва ҳозир ҳам шундай. Уни ҳал қилиш борасида олимлар ва амалиётчилар, педагог ва психологлар, ота-оналар тинимсиз ишлайди. Болалар ижодкорлигини ривожлантиришнинг асосий шартларидан бири фаолиятнинг ўйинли, ўқув, бадиий-нутқий, театрлаштирилган, тасвирий фаолият каби турларига эътиборнинг устувор даражада бўлишидир. Тасвирий фаолият эстетик тарбиянинг асосий таркибий қисмларидан бири сифатида баркамол авлодни тарбиялашда етакчи ўрин тутадиган йўналишлардан бири саналади. Унинг бола тарбиясидаги роли, биринчидан, борлиқни бадиий идрок этишга, яъни атроф-оламни, табиатни севишга ундаги ранглар гўзаллигини сезишга ўргатишдан иборат. Иккинчидан эса, боланинг ижоткорлигини, креатив компетенсияларини ривожлантиришдаги ўзига хосликлари билан белгиланади.

Шундай қилиб, ижод инсон фаоллигининг сермаҳсул шакли ҳисобланади. Атроф, олам ва шахснинг конструктив ўзгаришлари унинг натижасидир. Бунда ижоднинг ўзи инсоннинг ҳар хил фаолият турлари, жумладан касбий фаолиятининг ҳам моҳиятини ташкил этади.

Бизнинг қарашимизча, ижод тарбияланувчи фаолиятида муҳим бўлиб, у ўзига хос хусусиятга эга, чунки шахсининг ривожланиши унинг маҳсулоти ҳисобланади.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

“Креативлик”, “креатив” сўзлари бизга XX асрнинг 80-90 йилларида инглиз тилидан (“creativity”, “creative” ижод қилиш қобилияти, ижодий) кириб келган ва дастлаб бизнесда, кейинчалик жамият ҳаётий фаолиятининг бошқа соҳаларида қўлланилган.

“Креативлик” терминининг дастлабки қўлланиши 1922 йилда фикрлашда шахснинг бир хил қолиплардан кечиш қобилияти [3] деб А.Симпсонтомонидан қўшимча равишда билдирилган. Хорижда буйўналишдаги тадқиқотларга С.Каплан, Дж.Рензулли, Р.Стернберга, Д.Сиск, А.Танненбаума, Дж.Фельдхьюзена, К.Хеллер ва бошқаларнинг ишларини киритиш мумкин.

Америкалик психолог Элис Пол Торенс 1974 йилда креативликка “Креативлик – индивиднинг ностандарт, ижодий фикрлаш қобилияти, индивиднинг муаммоларга ва уларни ҳал этиш йўлларини излашга жонкуярлиги ва ўзгаришларга бой бўлган фикрлаши, янги ғояларни илгари сурувчи қобилияти, мавжуд билимлар билан ҳамоҳанг эмаслигига таъсирчанлиги”, деб энг аниқ таърифни берган[4]. Бу таърифни психологик луғатда берилган ушбу ижод таърифи билан таққослаш мумкин: “Шахснинг ижодий иқтидорлари – унинг интеллектуал ўзгарувчанлиги, фараз ва интуициясининг ижодий ривожланганлиги, стереотипларни енгиб ўтиш қобилияти, янгиликни излашга мотивациянинг юқорилиги, ўзини ўзи шакллантиришга шахсий талабчанлиги билан белгиланади” [5].

Тадқиқотимиз ўқув жараёни давомида тарбияланувчиларнинг ижодий қобилиятларини шакллантиришни ўрганишга бағишланганлиги сабабли, биз ўқув-тарбия фаолияти тушунчасини асослаймиз, яъни бу “ўқув-тарбия ишлари орқали тарбиячи томонидан қўйилган махсус масалаларни ечиш асосида ўқувчи ўзини ўзи ривожлантириши ҳамда усулларни эгаллаши бўйича фаолиятидир” деб таърифлаймиз [6].

Ҳар қандай фаолиятда, шунингдек креативликда ҳам педагогнинг қобилияти унинг шу фаолиятни амалга ошириш учун шахсий иқтидорларини ҳисобга олиши муҳим.

Шундан келиб чиқиб, болаларнинг креатив компетентлигини ноанъанавий расм чизишга ўргатиш, апликацияда тасвирлар хосил қилиш, пластилин ёки лойдан турли шакилларни ясашнинг мукаммал йўлларини топиш ва уларни турли усуллардан фойдаланиб ҳал этиш орқали шакллантириш мумкин бўлади.

Тадқиқотчи Патти Деппатунинг фикрича, бир шахснинг, айниқса, тарбияланувчиларнинг креативлиги бошқа (тарбияланувчи)ларни ижодий жараённи ташкил этишга руҳлантиради.

“Креативлик – дейди муаллиф, юқумлилик хусусиятига эгадир; креатив бўлиш учун киши кўпроқ креатив инсонлар билан мулоқот қилиши ва ҳамиша изланишда бўлиши лозим. Ҳар қандай кўникмани шакллантириш мумкин бўлганидай, креатив фикрлаш қобилияти ёки кўникмасини ҳам ривожлантириш мумкин. Бу тарбяланувчиларга ҳам тааллуқли бўлиб, креативлик устида ишлаш тарбияланувчиларга ноодатий тарзда фикрлашга ёрдам беради. Бироқ, тарбяланувчиларга руҳлантириш ва креатив бўлишга ундаш тарбиячининг қай даражада малакали эканлигига боғлиқ. Креативлик бўйича олиб борилган тадқиқотлар ва креативлик назариячиларининг ишлари тарбияланувчиларда креативлик кўникмасини шакллантиришда қўлланма сифатида хизмат қилади. Бу таълим ташкилотидаги муҳит, тарбяланувчиларга фикрлаш тарзининг шаклланиши, педагог-тарбиячининг ёндашув ва стратегиялари элементларини ўз ичига олади. Дарҳақиқат аудиториядаги ижодий муҳит, интерфаол таълим методлари ва технологялари, ижодий

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ҳамкорлик ва ижодий жараён тарбяланувчиларнинг креативлик қобилиятларини ривожланишида алоҳида ўрин тутади.

Креативлик шахсни яхлит ҳолда ёки унинг муайян хусусиятларини тавсифлайди. Шунингдек, креативлик иқтидорнинг муҳим омили сифатида акс этади. Қолаверса, креативлик зеҳни ўткирликни белгилаб беради.

П.Торренс фикрича, креативлик: муаммога ёки илмий фаразларни илгари суриш; фаразни текшириш ва ўзгартириш; қарор натижаларини шакллантириш асосида муаммони аниқлаш; муаммо ечимини топишда билим ва амалий ҳаракатларнинг ўзаро қарама-қаршилигига нисбатан таъсирчанликни ифодалайди.

Бошқа ҳар қандай сифат (фазилат) каби креативлик ҳам бирданига шаклланмайди. Креативлик муайян босқичларда изчил шакллантириб ва ривожлантирилиб борилади. Хўш, шахс фаолиятида креативлик хусусиятлари қачондан намоён бўлади?

Одатда креативлик болаларнинг фаолиятида тез-тез кўзга ташлансада, бироқ, бу ҳолат болаларнинг келгусида ижодий ютуқларни қўлга киритишларини кафолатламайди. Фақатгина улар томонидан у ёки бу ижодий кўникма, малакаларни ўзлаштиришлари зарур деган эҳтимолни ифодалайди.

Болаларда креативликни ривожлантиришда қуйидаги шартларга эътибор қаратиш зарур:

1) улар томонидан кўп саволлар берилишини рағбатлантириш ва бу одатни қўллаб-қувватлаш;
2) болаларнинг мустақиллигини рағбатлантириш ва уларда жавобгарликни кучайтириш;
3) болалар томонидан мустақил фаолиятни ташкил этилиши учун имконият яратиш;
4) болаларнинг қизиқишларига эътибор қаратиш.

Қуйидаги омиллар шахсда креативликни ривожлантиришга тўсқинлик қилади:

1) ўзини таваккалдан олиб қочиш;
2) фикрлаш ва хатти-ҳаракатларда қўполликка йўл қўйиш;
3) шахс фантазияси ва тасаввурининг юқори баҳоланмаслиги;
4) бошқаларга тобе бўлиш;
5) ҳар қандай ҳолатда ҳам фақат ютуқни ўйлаш.

Креативлик: шахснинг анъанавий фикрлашдан фарқли равишда маълум хатти-ҳаракат, фаолият ёки жараённи самарадорлиги таъминлашга хизмат қилувчи янги ғояларни яратиш, шунингдек, мавжуд муаммоларни ижобий ҳал қилишга бўлган тайёргарлигини тавсифловчи қобилияти саналади.

Шахснинг креативлик потенциали унинг умумий хусусияти сифатида акс этади. У ижодий фаолиятнинг дастлабки шарти ва натижаси саналади. Мазкур сифат шахснинг ўз-ўзини намоён қилиш лаёқатига эгаликни ва тайёрликни ифодалайди. Қолаверса, креатив потенциал негизида ҳар бир шахснинг шахсий қобилиятлари, табиий ва ижтимоий қуввати яхлит ҳолда намоён бўлади.

Креатив потенциал билиш жараёнига йўналтирилган ижодкорлик билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, анъанавий тафаккур юритишдан фарқли равишда тафаккурнинг тезкорлиги ва эгилувчанлигида, янги ғояларни яратиш, қобилияти, шунингдек, шахс характерига хос

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

жиҳатлар – бир қолипда фикрламасликда, ўзига хосликда, ташаббускорликда, ноаниқликка тоқат қилишда, заковатли бўлишда акс этади.

Тарбияланувчилар ўз-ўзидан ижодкор бўлиб қолмайди. Уларнинг ижодкорлик қобилиятлари маълум вақт ичида изчил ўқиб-ўрганиш, ўз устиларида ишлаш орқали шакллантирилади ва у аста-секин такомиллашиб, ривожланиб боради. Ҳар қандай шахсда бўлгани каби тасвирий фаолият болаларнинг креативлик қобилиятига эга бўлишлари учун таълимнинг худди шу даврида пойдевор қўйилади ва касбий фаолиятни ташкил этишда изчил ривожлантириб борилади. Бунда болаларнинг ўзини ўзи ижодий фаолиятга йўналтиришлари ва бу фаолиятни самарали ташкил эта олишлари муҳим аҳамиятга эга. Шахс ижодий фаолиятни ташкил этишда муаммоли масалаларни ечиш, муаммоли вазиятларни таҳлил қилиш, шунингдек, ижод маҳсулотларини яратишга алоҳида эътибор қаратиши зарур.

Демак, мактабгача таълим ташкилотларининг креатив тафаккурга эга бўлиши улар томонидан ўзлаштирилган назарий билимларнинг амалиётга самарали татбиқ этишга хизмат қиладиган кўникмаларни ўзларида муваффақиятли шакллантира олишлари учун зарур пойдеворни яратади. Болаларнинг креатив тафаккурга эга бўлишлари улар томонидан таълим олиш жараёнида турли ташаббусларни илгари суриш, креатив қобилиятга эгалигини изчил намойиб этиб бориш, креатив жиҳатдан ўта фаол ва изланувчан эканликларини намойиш қилиш имконини беради. Шу сабабли мактабгача таълими ташкилотларида болаларда креативлигини шакллантиришга жиддий эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ саналади.

Ижодий ривожланиш – шахснинг барча индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ташкил қилинган жараён бўлиб, унинг мақсади болани мустақил расм чизиш, аппликация ва лойдан турли хил тасвирларни ясаш ечимларини излаш, кузатиш, кашфиётларга йўналтиришдан иборат. Элементар тасвирларни чизиш ва ясашга ўргатиш методини таълимнинг бошланғич даврида қўллаш тарбияланувчининг, ҳатто бу ижодий уринишлар жуда камтарин бўлса ҳам, ижодий тафаккурини ривожлантиришга кўмаклашади. Болалар осон ва табиий тарзда ижодкорга айланади, улар қувонч билан расм чизиш, буюмлар ва бошқа нарсаларни ясаш имкониятидан фойдаланади. “Мен билмайман”, “Менга ўргатишмаган” каби комплекслар йўқолади. Енгил, авторитар бўлмаган мулоқот ролли ўзгаришлар учун имкон беради, мураккаб вазиятларда ҳазил, кулгуни кўзда тутади. Эркин, хайрихоҳ мулоқот муҳити унинг моҳияти – болаларнинг фаол ижодий фаолиятини амалга ошириш имконини беради. Бундай тасвирий фаолият натижалари болалар учун тобора табиий ижод сифатида элементар импоовизация кўринишларидан иборат бўлади.

Мактабгача таълим ташкилоти тарбияланувчисининг тасвирий фаоллиги нимага боғлиқ бўлади? Бизнинг фикримизча боланинг тасвирий фаоллиги унинг туғма индивидуал иқтидорига боғлиқ бўлгани билан у таълим-тарбия ва ўқиш-ўрганиш натижасида ривожланади.

Ўрганишлар боланинг тасвирий фаоллиги анча эрта – икки ёшга тўлган даврлариданоқ намоён бўла бошлашини кўрсатади. Илк ёшлардаги тасвирий фаолликнинг белгилари бўлиб қуйидагилар саналади:

– бола тасвирий воситаларга қизиқишни намоён қила бошлаши;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

– боланинг диққати ҳар хил қаламлар, бўёқларга ёки ушбу тасвирлаш воситалари орқали турли хил шакиллар ва тасвирларни чизишга уринишида намоён бўлиши;

– турли рангларга қизиқиш билдириши;

– тасвирий фаолликнинг намоён бўлиши: бола ҳаётида тасвирий фаолиятнинг афзал кўриладиган турлари (чизиш, бўяш, рангли қоғозлардан, пластилин ёки лойдан нарсалар ясаш ва ижод қилиш) мавжудлиги.

Бола ҳаётининг учинчи йилида унинг тасвирий фаоллиги ривожланади, расмларга қизиқиш ва ундан ниманидир олишга, бир асарини иккинчисидан ажратиб олишга интилиши кучаяди, унинг кўриб эслаб қолиш хотираси ривожланади. Чизмоқчи бўлган асари қанчалик ёркин рангларга бой, эмоционал ва кўп образли бўлса, у боланинг хотирасига шунчалик тез ва мустаҳкам жойлашади. Бу ёшдаги болаларни улар кўрган асарлари ўз таассуротларини ифодалаш сифатида ҳам ўзига тортади. Бу умумий ва махсус тасвирий қобилиятларни ривожлантириш даврдир. Тўрт ёшларга борганда бола турли хил санъат турлари ва жанрларини фарқлай олади. Бу ёшдаги мактабгача таълим ташкилоти тарбияланувчилари учун сюжетли, предметли ва персонажли расмларни чизиш ҳамда уларни турли техникалар ёрдамида бўяш, лой ва пластилиндан нарсалар ясаш қизиқарли бўла бошлайди. Бу билан уларнинг тасвирий фаоллиги фаол ривожланади.

Бола беш ёшида энди етарлича мураккаб предметлар чизади ва уларни безакли нақшлар билан ясатади (чойнак, гилам, рўмол, лаган), хотира ва тасаввурга кўра сюжет яратади, кесиш, йиртиш, тахлаш йўли билан шаклларнинг туриши, ўрни ва ҳаракатларини ифодалаган тарзда кичик сюжетлар яратишга тайёр бўлади.

Тарбияланувчилар олти-етти ёшига етганди тасвирий санъат турларини фарқлай олади, турли предметлардан композициялар яратади, мақсадга эришишда ўриндош сифатида турли предметлар қўллайди, оламни ўзгартиришда инсоннинг яратувчи ролини англайди.

Шундай қилиб боланинг билиш фаоллиги ўсади: уни чизган асарларидаги мазмун, ранглар гўзаллиги, ундаги образлар ва воситаларнинг аҳамияти қизиқтира бошлайди. Боланинг умумий ва махсус қобилиятлари мажмуавийлик билан ўз ривожланишида юқори даражага етади. Тасвирий фаолиятнинг хусусияти, унинг жараёни ва натижаси бўйича эндиликда мактабгача ёшдаги боланинг тасвирий иқтидори ҳақида гапириш мумкин бўлади. Мана шу кўрсаткичлар бўйича педагог ўз гуруҳидаги тасвирий фаолиятга қизиққан болаларни осонгина ажратиб олиши мумкин, чунки у табиий муҳитда болаларда тасвирлаш малакаларининг намоён бўлишини кузатиб туради.

Ниҳоят, назариянинг яна бир жиҳати – тасвирий фаолликнинг нафақат айрим қобилиятлари ажралиб туришини, балки уларнинг ўзаро жипс алоқадорлиги ҳам ўрнатиладиган маълум бир тузилма сифатида олиб қаралиши мавжуддир. Бир-бирини тўлдириб ёки ўрнини босиб, улардан бири асосийга, етакчига айланади, бошқалари эса ўзаро контактга киришиб, эндиликда янгича тусда намоён бўлади. Бироқ олимларнинг фикрига кўра, энг асосийси шундан иборатки, бунда тасвирий қобилият ўзини тасвирий фаолиятда нафақат намоён қилади, балки бу тасвирий фаолият жараёнининг ўзида яратилади ёки юзага келтирилади. Мазкур қонуниятнинг қизиқарлилиги ва шартлилиги ҳам айнан мана шундадир. Шунинг учун кўплаб педагоглар тасвирни тушуна олиш маҳорати, тасвирлай олиш ва ҳаракат қила олиш маҳорати, тасвириий воситалардан фойдалана олиш маҳорати, ижодкорлик билан шуғуллана олиш маҳоратини “Тасвирий

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

фаолият" атамасига киритадилар. Демак, бола тасвирий фаолият билан қанчалик кўп шуғулланса, унинг маҳорати шунчалик тез ривожланиб боради, бунинг устига ўзини ижодкорлик фаолиятида намоён қилишга эҳтиёжи ҳамда интилишлари кучли бўлади.

Мактабгача таълим ташкилотларида тасвирий фаолиятнинг ҳозирги замон концепцияларида умумий тенденцияни – мактабгача ёшда бўлган боланинг ижодий салоҳиятини очишга бўлган интилишни кўриш мумкин.

Болаларда креативликни шакллантиришда равонлик ва эркинликка эришмасалар, машғулотлар жараёнида уларнинг миясига биринчи келган ғоягагина таяниб қоладилар, ваҳоланки бундай ғоя бошқаларнинг ғоясида ажралиб турмайди ва боланинг кенг фикрлашидан далолат бермайди. Қолаверса, муаммонинг ечимини топишда қанча кўп ғоя топилса, тўғри жавоб ёки вариантни танлаш имконияти шунча катта бўлади. Масалан, тасвирий фаолият машғулотларида берилаётган савол қанча кўп деталларни ўз ичига олса, болалар ҳам мувофиқ равишда жавоб топишга ҳаракат қиладилар.

Креативлик тасвирий фаолият машғулотларида жамоа туйғусининг аҳамиятини ангалаган ҳолда, доимий равишда гуруҳларни ўзгартириб, болаларда жамоа бўлиб ишлаш, бошқалар қобилияти ва маҳоратини ҳурмат қилиш кўникмасини шакллантиради. Ваҳоланки, якка тартибда ишлаш маълум вазиятларда самара берса, креативлик дарсларида кичик гуруҳларда ишлаш мақсадга мувофиқдир, чунки креативлик кўникмаси ижтимоий феномендир.

Тасвирий фаолиятга нисбатан янги ёндашувлар болаларнинг ижодий қобилияти ривожланишида умуман ўзгача ва янада самарали педагогик технологиялардан фойдаланилишини талаб қилади.

Болада табиат унга ато этган барча энг яхши жиҳатларни ривожлантириш: турли табиий истеъдод асосида тасвирий фаолиятнинг муайян турига мойилликни инобатга олган махсус ижодий қобилиятни шакллантириш, умумий ривожланишга кўмаклашиш муҳимдир. Мактабгача таълим ташкилотларида тасвирий фаолият машғулотларининг асосий вазифаси нафақат болалар идрок этиши учун осон бўлган тасвирларни тасвирлашга ўргатиш билан чегараланиб қолмасдан, балки уларни ижод қилишга уларни креатив компетенсияларини шакллантиришни ҳам кўзда тутадиган машғулотлар ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Звонников В.И. Контроль качества обучения при аттестации: компетентно-стный подход / В.И.Звонников, М.Б.Челышкова. – М.: Университетская книга; Логос, 2009. – 272 с.

2. Чиркова О.В. Формирование математической компетентности будущих бакалавров-менеджеров производственной сферы в условиях проектного обучения математике: дис. … канд. пед. наук: 13.00.02 / Чиркова Ольга Владимировна. – Красноярск, 2016. – 212 с.

3. Курочкина А.Ю. Исследования креативности: постановка проблемы // Проблемы развития инновационно-креативной экономики [Электронный ресурс] / А.Ю. Курочкина // Сб. научных статей по итогам Международной научной конференции под общ. ред. проф. Горелова Н.А., проф. Мельникова О.Н. – М.: Издательство «Креативная экономика», 2009. – С. 630-639. – Режим доступа: http://www.creativeconomy.ru/articles/21277/

4. Torrance E.P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking. Scholastic Testing Service, Inc. University of Warwick, 2004, Course Specifications: Glossary of Terms relating to Course Specifications.

5. University of Warwick, 2004, Course Specifications: Glossary of Terms phttp://www2.warwick.ac.uk/services/aro/dar/quality/coursespecs/view/ glossary / Last revised: Tue 11 Sep 2012
6. Зимняя И.А. Педагогическая психология: учебник для вузов / И.А.Зимняя. – М.: Логос, 2000. – 384 с.
7. Шодмонова Ш. Мактабгача таълим педагогикаси. – Т.: Fan va texnologiya, 2008. - 160 б.
1. 8. A.Sulaymonov, G.Amirova. Tasvirdagi rang-baranglik. Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlash elementlarini shakllantirish.//Maktabgacha ta'lim jurnali. 2016, 9-son.
2.

O'QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATGA AKMEOLOGIK YONDASHUVI

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI 1-bosqich tayanch doktoranti
Muminova Gulnozaxon Sulton qizi
@mail: gulnoz_1809@mail.ru

Annotatsiya: *mazkur maqolada o'qituvchining innovatsion faoliyatini tashkil etish bosqichlari, akmeologik yondashuv asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish yo'llari va bunda o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatining ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsion, akseologik, akmeologik, refleksiv, kreativ yondashuv.*

АКМЕОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД УЧИТЕЛЯ К ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Докторант 1 ступени УзПФИТИ имени Т.Н.Кори Ниязи
Муминова Гулнозахон Султон қизи
@mail: gulnoz_1809@mail.ru

Аннотация*: В данной статье выделены этапы организации инновационной деятельности учителя, способы организации инновационной деятельности на основе акмеологического подхода, значение творчества учителя.*

Ключевые слова: *инновационный, аксиологический, акмеологический, рефлексивный, творческий подход*

ACMEOLOGICAL APPROACH OF THE TEACHER TO INNOVATIVE ACTIVITIES

Doctoral student of the 1st stage of UzPFITI named after T.N.Kori Niyazi
Muminova Gulnozaxon Sulton qizi
@mail: gulnoz_1809@mail.ru

Abstract *: This article highlights the stages of organizing innovative activities of a teacher, ways of organizing innovative activities based on the acmeological approach, and the importance of a teacher's creativity.*

Key words: *innovative, axiological, acmeological, reflective, creative approach*

Kirish

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Rivojlanayotgan davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Tarixdan shuni ko‘rishimiz mumkinki, inson o‘zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o‘ylab topishdan, zamonaviy innovatsion kompyuter, quyosh va boshqa yuqori texnologiyalarni kashf etishgacha bo‘lgan murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Shu bilan bir qatorda ta’lim sohasi tizimiga, balki jamiyatning barcha sohalarining rivojiga o‘zining aks ta’sirini ko‘rsatadi.

“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”[37].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Innovatsion faoiliyat to‘g‘risida”gi 24.07.2020 yildagi O‘RQ-630-sonli Qonuni asosida a’nanaviy ko‘rinish olgan Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar, innovatsion faoliyatning prinsiplari, innovatsion faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ko‘maklashish va bu borada Respublika ko‘rgazmasi tadqiqotlar natijalarini hayotga tadbiq etish, fan va sanoatning uzviy aloqalarini yo‘lga qo‘yish muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

innovatsiya — fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo‘llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanma[38]

innovatsion faoliyat — yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o‘tkazilishi va amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha faoliyat[39].

Adabiyotlar tahlili

Innovatsion faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ko‘maklashish albatta pedagogolarga ulkan ma’suliyatni yuklaydi.

Talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilishda o‘qituvchining pedagogik mahorati va tajribasi asosiy o‘rinda turadi. Sharq allomalarimizda Abu Nasr Forobiy o‘rgatuvchi o‘qituvchini har tomonlama mukammal bilimga va tajribaga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Forobiy ta’limotiga ko‘ra, ta’lim-tarbiya jarayoni tajribali va bilimli o‘qituvchilar tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turilishi va ma’lum maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim, chunki “har bir bola o‘zicha narsa va hodisalarni bila olmaydi hamda baxtga erisholmaydi. Unga buning uchun o‘qituvchi lozim” ligini uqtiradi[40].

Beruniy mamlakatning obodonligi ilm–fanning ravnaqi tufayli deb aytadi, yoshlarning baxt–saodati va kamoloti esa ularga bilim va ma’rifat beruvchi mudarrislarga bog‘liq deb ta’kidlaydi. Ilm va ma’rifat sari intiluvchi tolib va mudarrislarga deydiki: “Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko‘r qilib qo‘yadigan nafs va turli buzg‘unchi holatlardan, qotib qolgan turli eski urf–odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko‘zlikni quli bo‘lishdan ozod bo‘lmog‘i darkor” [41]

[37] Shavkat Mirziyoyev, 2017-yil, 22-dekabr, Oliy majlisga murojaatnomasidagi nutqidan

[38] “Innovatsion faoiliyat to‘g‘risida”gi 24.07.2020 yildagi O‘RQ-630-sonli Qonun

[39] “Innovatsion faoiliyat to‘g‘risida”gi 24.07.2020 yildagi O‘RQ-630-sonli Qonun

[40] Forobiy. Fozil odamlar shahari. – T.:, “A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashri”, 1993, 122-bet.

[41] Beruniy. Tanlangan asarlar. 1 jild, – Toshkent, “Fan”, 1968, 40-bet

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Pedagog o‘z kasbi doirasida yetuklik sari qadam qo‘yar ekan allomalarimizning pedagogik mahorat yuzasidan yetuklik sirlari xususida ta’lim olmasligini iloji yo‘qdir. O‘qituvchi pedagogik mahorat, tajriba va ijodkorlik qobiliyati asosida innovatsion faoliyatni tashkil eta oladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Oliy o‘quv yurtlarida innovasion faoliyatning sub’ekti bevosita o‘qituvchi hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo‘ladi va o‘qituvchining innovasion faoliyatiga nisbatan yondoshuvlari quyidagicha talqin qilinadi.

O‘qituvchining innovasion faoliyatiga nisbatan yondoshuvlari

Gumanistik aksiologiya - aksiologiyaga insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi. Innovasion faoliyatga aksilogik yondoshuv insonning o‘zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar majmuasini anglatadi.

Akmeologik yondashuv - akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o‘tkir, gullagan yetuk, eng yaxshi davr degan manolarni bildiradi.

Kreativ yondashuv - termini AQShda XX asrning 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, hislatlarini bildiradi.

Refleksiv yondashuv - (lotincha reflixio - ortga qaytish) subektning o‘z (ichki) psixik tuyg‘u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi.

Intellektual mehnatning yangi tadbirlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a’lo darajada yenga bilish, o‘sish va mustahkam o‘rin egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o‘zining sotsial ro‘li, funksiyasini bajarishida faol munosabatda bo‘lish va hokazo.

Innovasion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘zini-o‘zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish.

Tahlillar va natijalar

V.A.Slastenin o‘qituvchining innovasion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi[42]

Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o‘tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma’nolarni bildiradi.

B.G. Ananev, N.V.Kuzmina, A.A. Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan yo‘g‘rilgan inson hayotining eng ijodiy davrlari, yetuklik bosqichlari to‘g‘risida fikr yuritadilar.

Ular yetuk insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlari, professionalizmga yetishdagi balandliklardan o‘ta olish masalalari bilan shug‘ullanganlar.

[42] *В.П. Беспалко. Педагогика и прогрессивное технологик обучения М.,1995 85 ст*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

V.A. Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko‘rishiga olib keladigan sub’ektiv va ob’ektiv omillarini asoslab berdi. Ob’ektiv omillarga olingan ta’limning sifatini, sub’ektiv omillari esa insonning iste’dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi mas’uliyati, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi[43]

Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- iste’dod nishonalari;
- uzuvlilik;
- qobiliyat;
- iste’dod;
- oila tarbiyasi sharoiti;
- o‘quv yurti;
- o‘z xatti-harakati.

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- ijodiy individuallik;
- o‘zining o‘sish va takomillashish jarayoni;
- O‘z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

O‘qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- intellektual - ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliya ti;
- ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv,
- vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;

Innovasion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o‘qituvchining kasbiy mahorati cho‘qqilariga erishuvida uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

O‘qituvchi innovasion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir.

Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:

- fikrining ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olishi;
- o‘ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik.

Innovasion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me’yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo‘lish;

[43] *В.П. Беспалко. Педагогика и прогрессивное технологик обучения М.,1995 86 ст*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

✓ o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Xulosalar

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta’lim taraqqiyoti sharoitida o‘qituvchi innovasiya faoliyatiga bo‘lgan zaruriyat quyidagilar bilan o‘lchanadi:

1) ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta’lim tizimi, metodologiya va o‘quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o‘qituvchining innovasiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o‘zlashtirish va foydalanishdan iborat bo‘ladi;

2) ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o‘qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

3) pedagogik yangilikni o‘zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o‘qituvchining munosabati xarakteri o‘zgarishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Innovatsion faoiliyat to‘g‘risida”gi 24.07.2020 yildagi O‘RQ-630-sonli Qonun
2. Shavkat Mirziyoyev, 2017-yil, 22-dekabr, Oliy majlisga murojaatnomasidagi nutqidan
3. Forobiy. Fozil odamlar shahari. – T.:, “A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashri”, 1993, 122-bet.
4. Beruniy. Tanlangan asarlar. 1 jild, – Toshkent, “Fan”, 1968, 40-bet
5. *В.П. Беспалко. Педагогика и прогрессивное технологик обучения М.,1995*

BIOLOGIYA FANINI O`QITISHDA MASALA-MASHQLARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

Ahmedova Mastura Maxmudovna,
Qo`qon Davlat pedagogika instituti
E-mail:mastura2023@mail.ru

Annotatsiya. *Biologiya fanini o`qitishda masala-mashqlardan foydalanish orqali fanlararo aloqadorlikni ta’minlash, o‘quvchilarni biologik bilim, ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirishga asos bo`ladi. Biologik ta’limda masala-mashqlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda o`quv bilish faoliyatini rivojlantirishning didaktik omillari, shuningdek ularda fan yuzasidan mustaqil, tahliliy, mantiqan va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘ziga xos pedagogik imkoniyatlari yoritib o‘tilgan.*

Kalit so`zlar: *Masala va mashqlar, mantiqiy, ijodiy, deduktiv, induktiv, kreativ, motivatsion, integratsion yondashuv, mustaqil fikrlash.*

МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗАДАЧ-УПРАЖНЕНИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ахмедова Мастура Махмудовна,
Кокандский государственный педагогический институт
Электронная почта: mastura2023@mail.ru

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Аннотация. *В преподавании биологических наук является основой обеспечения междисциплинарности за счет использования задач и упражнений, а также формирования биологических знаний, навыков и умений учащихся. Выделены дидактические факторы развития учебной деятельности учащихся за счет использования задач-упражнений в биологическом образовании, а также уникальные педагогические возможности развития навыков самостоятельного, аналитического, логического и творческого мышления в области науки.*

Ключевые слова: *Проблема и упражнение, логический, творческий, дедуктивный, индуктивный, творческий, мотивационный, интегративный подход, независимое мышление.*

METHODOLOGICAL PRINCIPLES FOR USING TASKS-EXERCISES IN TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES

Akhmedova Mastura Mahmudovna,
Kokand State Pedagogical Institute
E-mail: mastura2023@mail.ru

Annotation. *In the teaching of biological sciences, it is the basis for ensuring interdisciplinarity through the use of tasks and exercises, as well as the formation of biological knowledge, skills and abilities of students. The didactic factors in the development of students' learning activities through the use of tasks-exercises in biological education, as well as unique pedagogical opportunities for developing the skills of independent, analytical, logical and creative thinking in the field of science are highlighted.*

Key words: *Problem and exercise, logical, creative, deductive, inductive, creative, motivational, integrative approach, independent thinking.*

Kirish

Respublikamizning uzluksiz ta'lim sohasida ko`zlagan asosiy maqsadi milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o`quvchilarga bilim va tarbiya berishning samarali shakllari va usullarini joriy etish, o`quv–tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvga asoslangan texnologiyalarni joriy etish, bo`lajak biologiya o`qituvchilarini salohiyatli kadr etib tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlashdan iborat. Jumladan, barcha fanlar kabi biologiya fanini o`qitilishida biologik bilim, ko`nikma va malakalarni tarkib topirishga asoslangan metodik tizimni joriy etish, o`quvchilarni mustaqil, tahliliy, mantiqiy va ijodiy fikr yuritish faoliyatiga yo`naltirish ustuvor vazifalardan sanaladi. Mazkur vazifalar fanlararo aloqadorlik vositasida o`quvchilarda masala-mashq yechish ko`nikmalarini rivojlantirib borishni ta'minlash, ularda tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, biologik bilimlarni kundalik va hayotiy faoliyatda qo'llay olish ko'nikmasini tarkib toptirish, ularning mantiqiy va kreativ fikrlash qobilyatlarini o'stirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar taxlili

Tadqiqot rivojida biologic ta'lim mazmunida masala-mashqlar yechishga doir ilmiy metodik adabiyotlar tahlil qilindi. Jumladan, pedagog olimlar, J.O.Tolipova, G.Ergasheva, A.T.G'ofurov, S.Fayzullayev, L.Qoraxonova, H.Mirzayeva, M.Umaraliyevalar biologiyani o'qitishda samarali texnologiyalardan foydalanishning pedagogik xususiyatlarini metodik jihatdan yoritib o'tishgan. Biologiyani o'qitishning umumiy masalalari, ilmiy-nazariy va

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tarbiyaviy mazmuni, metodlari, pedagogik texnologiyalari bilan bir qatorda mavzularni mustahkamlashda foydalaniladigan biologiyaga oid mashqlar J.Tolipova, T.G'ofurov. S.Fayzullayev asarlarida berib o'tilgan [2]. G.A.Shaxmurova, l.T.Azimov, U.E.Raxmatovlarning "Biologiyadan masalalar va mashqlar yechish" nomli o'quv qo'llanmasida biologiyaning turli yo'nalishlari (botanika, zoologiya, fiziologiya, sitologiya, molekulyar biologiya va boshqalar)dan masalalarning ishlash usullari bayon etilgan. Xususan, mualliflar biologiyani o'qitishda masala-mashqlardan foydalanish, biologiyadan masalalar yechish metodikasi, ta'lim samaradorligini oshirishda biologiyadan masala-mashqlarning o'rni haqida fikr yuritishgan [3]. B.Matchonov "Biologiyadan masala va mashqlar yechish" nomli Pedagogika oliy o`quv yurtlari Biologiya mutaxassisligi talabalari uchun mo'ljallangan o`quv qo`llanmasida biologiyani o`qitishda masala va mashqlardan foydalanish usullari, biologiyani o`qitishda foydalaniladigan masala va mashqlarning mantiqiy yo`nalishlari va turlari haqida mulohaza yuritgan [4]. AT.G'ofurov, S.S.Fayzullaev, U.E.Raxmatovlarning "Genetikadan masala va mashqlar" o'quv qo'llanmasida o'qituvchilar va pedagogika oliy o'quv yurtlarining biologiya yo'nalishi talabalarini biologiyadan har xil tipdagi masalalar va ularning ishlash metodikasi bilan tanishtirish, ikkinchidan o'qituvchilar uchun o'quvchilar bilan ishlash jarayonida foydalanishga qator masalalar taklif etilgan. Jumladan, hayvonlarda jinsiy hujayralarni yetilishiga doir masalalar, hayvonlardagi dominant va retsessiv belgilari[5]. Shu bilan bir qatorda L.M.Qaraxonovani ilmiy tadqiqoy ishlarida biologiya darsliklarida elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning mazmuni, metod, shakl va vositalari haqida so'z yuritgan. Tadqiqotchi biologiya faniga oid multimedia ilovalar, taqdimotlar, video va audio vositalar orqali o'quvchilarni biologiyaga bo'lgan qiziqishlarini orttirish bilan bir qatorda ularni mustaqil va ijodiy fikr yuritish qobilyatlarini shakllantirishga e'tibor qaratgan [6]. Pedagog olimlar tomonidan tadqiq etilgan ilmiy metodik izlanishlar biologiya ta'lim mazmunida masala va mashq yechish ko`nikmalarini tarkib toptirishning metodik tizimini takomillashtirishga doir tadqiqot ishimizni yoritishda metodik manba bo`lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo`nalishlarda ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish o`g`il-qizlarimizni kimyo va biologiya fanlari bo`yicha chuqur o`qitish, biologic ta'lim mazmunida yosh avlodda sog'lom turmush tarsi va ekologik madaniyatni rivoji, aholi turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlaydi [1]. Jumladan, biologik ta'limni metodik tizimini takomillashtirish, o'quvchilarni o'quv bilish faoliyatini samarali metodlar hamkorligida ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, kreativ-motivatsion yondashuvga oid masala va mashqlar majmuasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa biologiya o`qituvchisidan ilmiy salohiyat, innovatsion faollik, tashabbuskorlik va ijodkorlikni talab etadi. Biologiyani o`qitishda foydalaniladigan masala va mashqlar ilmiy tushunchalarni tizimli bo`lishi, tabiat-atrof muhit muhofazasiga ongli munosabatda bo`lishi, ishlab chiqarish va qishloq xo`jaligi, sog`liqni saqlash va umumbiologik bilimlarini qo`llashga o`rgatadi. Turli xil topshiriqlarni bajarish, savollarga izchil javob tayyorlab borish, dasturda berilgan umumbiologik tushunchalar, qonuniyatlar, nazariya va qarashlarni izchil o`rganib borish imkonini beradi.

Biologiyani o`qitishda foydalaniladigan masala va mashqlarni o`quvchilar tomonidan yechish jarayonida foydalanilgan o`quv usullariga ko`ra:

- Mantiqiy masala va mashqlar;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

- Ijodiy izlanishli masala va mashq yo`llaridan iborat.

Mantiqiy masala va mashqlarni yechishning o'ziga xos metodik asoslari o'quvchilarga quyidagicha:

o'quv materiali mazmunining yo'nalishini belgilab, o'quvchilarning bosh g'oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish ko'nikmalari, aqliy faoliyat usullarini egallash, abstrakt tafakkurni rivojlantirish, sabab-oqibat bog'lanishlarni anglashga o`rgatadi.

O'qitishning mantiqiy metodlari guruhiga induktiv, deduktiv, tahlil, bosh g'oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish metodlari kiradi.

Induktiv metodda – o'quvchilarning e'tibori avval xususiy faktlarni o'rganishga jalb qilinadi, so'ngra xususiydan umumiy xulosalar chiqarishga yo'naltiriladi.

Deduktiv metodda o'quvchilar avval umumiy qonunlarni o'rganadi, so'ngra umumiydan xususiy xulosa chiqarishga o'rgatiladi. Mantiqan fikrlashga doir beriladigan mashqlarni quyidagicha tashkillash maqsadga muvofiqdir.

1-masala. Nima sababdan qushlarda diafragma bo`lmaydi-yu, sut emizuvchilar uchun diafragma zarur?

Ushbu masalani yechish uchun o`quvchilar avval qushlarning, sut emizuvchilarning umumiy belgilari, so`ngra nafas olish jarayoni va unda diafragmaning vazifalarini aniqlashi lozim.

Induktiv mantiqiy yo`nalishga ega bo`lgan masala va mashqda avval xususiy belgilar, keyin umumiy belgilar tavsif etiladi.

2-masala. Faraz qiling Sizga qushning skeleti berilib, uning qaysi muhitda yashaganligi va qanday oziq turi bilan oziqlanganligini aniqlash so`raldi. Siz avvalo nimalarga e'tibor qaratish lozimligi va qanday aniqlashni tavsiya etgan bo`lardingiz?

Ushbu masalani yechish uchun o`quvchilar qushlarning ekologik guruhlari, ularning o`ziga xos xususiyatlari, yashash muhitiga bog`liq belgilari va oziqlanishiga ko`ra tumshuqlarining o`zgarishlarini aniqlashi lozim. Har ikkala holda ham o`quvchilar avval o`zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo`llash imkonini beradi.

Masala va mashqlar mavzu tugallangan fikrga asoslangan kreativ, produktiv va adaptiv topshiriqlar ishlab chiqish, integratsion yondashuvlar asosida izohlab o'tish, o'quvchilarda masala va mashqlar yechish ko'nikmalarini takomillashtirishning metodik mazmuni o'qitilish shakllarini, metod va vositalarini tanlay olish imkoniyatini beradi.

Ijodiy izlanishli masala va mashq yo`llari o'ziga xos metodik asoslari o'quvchilarga quyidagicha:

muammoli vaziyatlarni avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash orqali hal etishdan iborat bo`lib, yangi mavzuni o'zlashtiradi;

ta'lim jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar guruhining o'zaro hamkorlikda avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy qo'llash va izlanishi orqali hal etishga zamin bo`ladi.

Biologiyani o`qitishda foydalaniladigan ijodiy mashqlar ichida o`quvchi-larning avval o`zlashtirgan bilimlaridan foydalanish imkonini beradiganlari va o`z javoblarini dalillash zarur bo`lgan mashqlar ham uchraydi. Mazkur mashqlar o`quvchilarning qiziqishini orttirish bilan birga mustaqil fikr yuritish ko`nikmalarini rivojlantiradi. Jumladan, ushbu topshiriqda quyidagilar talab etiladi:

3-masala. *Nima sababdan ko`rshapalakni uchar kaltakesak yoki qush deb bo`lmaydi? Ko`rshapalakning hayot tarzi va uning o`ziga xos xususiyatlarini aniqlang.*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O`quvchilar ushbu savollarga javob topish jarayonida ko`rshapalaklar sut emizuvchilar sinfining qo`lqanotlilar turkumiga mansubligini dalillashi, avval o`zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo`llash imkonini beradi. Mashqlar ichida turli sistematik guruh vakillarini o`zaro taqqoslash, ular o`rtasidagi o`xshashlik va farqlarni aniqlashi mumkin.

Taxlillar va natijalar

Biologiya fanini o'qitishning umumiy masalalari, ilmiy-nazariy va tarbiyaviy mazmuni, metodlari, pedagogic texnologiyalari haqida O.Mavlonov, S.Najimova, M.Nishonboyevalar, biologiyani o`qitishda masala-mashqlardan foydalanish, masalalar yechish metodikasi, Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan masala-mashqlarning manqiy yo'nalishlari, turlari yuzasidan G.A.Shaxmurova, l.T.Azimov, U.E.Raxmatov, B.Matchonovlar, hayvonlarda jinsiy hujayralarni yetilishiga doir masalalar, hayvonlardagi dominant va retsessiv belgilari to'g'risida AT.G'ofurov, S.S.Fayzullaev, U.E.Raxmatovlar, 7-sinf zooologiya fanini o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning mazmuni, metod, shakl va vositalari haqida L.M.Qaraxonovava boshqalarning tadqiqot ishlarida muayyan darajada tadqiq qilingan. Tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, biologiyaga oid aksariyat beriladigan masala va mashqlar mantiqiy, ijodiy izlanishli, deduktiv va induktiv mazmunga ega bo'lib, masalalar orasida matematikaga integratsiya bo'lganlari ayniqsa bugungi kun ma'lumotlarida ko'p uchraydi. Biologiya fanini o'qitishda o'qituvchi mantiqiy, ijodiy izlanishli, deduktiv va induktiv mazmundagi, shu bilan bir qatorda matematikaga integratsiya bo'lgan masalarlarni yechishni tashkil etishiga qarab kreativ yondashuv asosida mazkur topshiriqlarni puxta tuzishi, o'quvchilarning biologik bilim va ko'nikmalarini e'tiborga olishi zarur.

Tadqiqot rivojida o'quvchilarni biologik tushunchalarni to'laqonli o'zlashtirish imkoniyati, tahliliy, bog'lanishli, mustaqil va mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarni tarkib toptirishga asoslanildi. Bu esa o'quvchilarni darslik ustida mustaqil va individual ishlashiga zamin bo'ldi. O'quvchilar masala va mashqlarda berilgan muammoli vaziyatlarni yechimini topishda ilmiy asoslangan faktlarni tanlay olishi, ularni masala shartiga muvofiq taqqoslab, xulosa chiqarishga asos bo`ldi.

Xulosalar

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, olib borilgan tadqiqot rivojida o'quvchilarda masala va mashqlar yechish ko'nikmalarini rivojlantirish fanga oid o'quv motivlarining shakllanishiga, ularning kreativ fikrlashga, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash imkoniyatini beruvchi samarali va qulay metodlar aniqlandi.

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarda masala va mashq yechish faoliyatini rivojlantirishda o'rganilgan materialni qaytara olishlari, biologik nazariyaning keyingi o'rganilishida qo'llay olish va masalalarni mustaqil yechish ko'nikmalari shakllantirildi. Mazkur jarayonda yangi bilimlarni eslab qolish uchun turli qabul qilish usullaridan foydalanish lozim: eshitish (o'qituvchi va o'quvchilarning nutqi), ko'rish: videofilmlar, mudtimedia vositalari, chizmalardan foydalanish, kitoblarni o'qish, daftarlarga yozish, ko'rgazmali qurollar, puxta eslab qolishga o'quvchilar nutqi ham yordam beradi va o'quvchining ijodkorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kimyo va biologiya yo`nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PQ-4805 sonli qarori.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2. J.O.Tolipova “Biologiyani o’qitishda pedagogik texnologiyalari” nomli o’quv qo’llanmasi.-T.: “Cho’lpon” nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi, 2011y.,- 67 b.
3.G.A.Shaxmurova, l.T.Azimov, U.E.Raxmatovlarning “Biologiyadan masalalar va mashqlar yechish” nomli o’quv qo’llanmasi.- T.: Sano-standart nashriyoti, 2017y., -260 b.
4. B.Matchonovning “Biologiyadan masala va mashqlar yechish” nomli o’quv qo’llanmasi.- T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007y., - 23 b
5.A.T.G’ofurov, S.S.Fayzullaev, U.E.Raxmatov. “Genetikadan masala va mashqlar”. O’quv qo’llanma – T.: Ta’lim texnologiya. 2007. – 245 b.
6.L.M.Qaraxonovaning “Zoologiyadan elektron ta’limiy resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish (7- sinf misolida)” nomli pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi – T.: OVO’MTV O’zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. 2020y.- 6 b.

INNOVATSION TA’LIM MUASSASASI – RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM SOHASINI TASHKIL ETISHNING ASOSIDIR

Azamov Sherzodjon Xusanboy o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Mustaqil tadqiqotchisi
Gmail: sherzodbekazamov95@gmail.com

Annotatsiya: *Innovasiya har qanday rivojlanayotgan ijtimoiy tizimga xosdir. Innovasion hodisa va jarayonlarni anglash, innovasion siyosatni bilish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish, inqiroz va turg‘unlikdan chiqishning eng muhim shartidir.*

Kalit so‘zlar: *Innovasiya, innovasion hodisa, innovasion siyosat, inqiroz, ijtimoiy tizim, zamonaviy innovasiyalar, motivatsiya.*

ИННОВАЦИОННОЕ УЧЕБНОЕ ЗАВЕДЕНИЕ-СОСТАВЛЯЮЩИЙ ОСНОВУ РАЗВИВАЮЩЕЙ СФЕРЫ ОБРОЗАВАНИЯ

Азамов Шерзоджон сынь Хусанбоя
Чирчикский государственный педагогический университет
Независимый исследователь
Gmail: sherzodbekazamov95@gmail.com

Аннотация: *Инновация свойственень к каждому развивающему социальному систему. Понимание инновационных явлений и процессов, знание политической инновации и управлять развитию социальную экономику эта условия выхода из кризаса и устойчивости.*

Ключевые слова: *Инновация, инновационные явления, политическая инновация, кризис, социальная система, современные инновации, мотивация.*

INNOVATION EDUCATIONAL INSTITUTION IS THE BASIS OF ORGANIZING A DEVELOPMENTAL EDUCATIONAL FIELD

Azamov Sherzodjon Husanboyson
Independent researcher of Chirchik State Pedagogical University
Gmail: sherzodbekazamov95@gmail.com

Annotation: *Innovation is characteristic of any developing social system. Understanding innovation phenomena and processes, knowledge of innovation policy is the most important condition for socio-economic development process, process and exit from stagnation.*

Key words: *Innovation, innovation phenomenon, innovation policy, modern, social system, modern innovations, motivation.*

Kirish

Respublikamizda so‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan innovatsion ta’lim muassalarini tashkil etish isloxotlari jahonning yuksak rivojlangan mamlakatlari qatoridan o‘rin egallashimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’limdagi innovatsiyalar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davrida o‘zgarib borayotgan talablarni muvofiqlashtirishga xizmat qilish bilan ahamiyatlidir. Biroq, bu tizimda innovasion jarayonlarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy motivlar bizning davrimizda sezilarli darajada o‘zgardi, bu esa maxsus ijtimoiy institut sifatida ta’limning asoslariga ta’sir ko‘rsatadigan innovasiyalarning rivojlanishiga olib keldi.

Hamma sohada bo‘lgani kabi, matematika fanini o‘qitishda ham tub o‘zgarishlar kiritish, uni amalga oshirish uchun yetuk mutaxassis pedagoglarni tayyorlash bo‘yicha yangi Davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejasi, namunaviy o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratilib, barcha joylarda tajriba - sinov ishlari olib borilmoqda.

Demak, bugungi kun o‘qituvchisi o‘z ustida tinimsiz mehnat qiladigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo‘llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda o‘qituvchining pedagogik mahoratini yanada oshirish muammosi davr talabidir. Bu esa yosh avlod bilan yanada faol ish olib borish, ularda hozirgi jamiyat talablariga muvofiq keladigan dunyoqarash va axloqiy tamoyillarni hosil qilishi bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Hozirgi vaqtda M.Yu.Yelimovaning “Innovasion salohiyat” tushunchasining ta’rifi to‘g‘risida”(1988), M.S.Burginning “Pedagogikadagi innovasiyalar va yangiliklar”(1989), V.I.Zagvyazinskiyning “Ta’lim va pedagogika fanidagi innovasion jarayonlar”(1990), R.M.Granovskoy va Yu.S.Krijanskayaning “Ijodkorlik va stereotiplarni yengish” (1993), M.V.Klarinning “Xorijiy pedagogik izlanishlarda ta’limning innovasion modellari”(1994), V.A.Slastenin va L.S.Podmovaning “Pedagogika: innovasion faoliyat” (1997) asarlarini qayd etish muhim. Ularda “innovasiya” tushunchasiga umumiy yondashuvlar belgilab berilgan, pedagogikadagi yangilik mezonlari va darajalarini asoslashga harakat qilingan. Innovasiya muammolari ilmiy tadqiqot obyektiga aylanadi. M.V.Klarin, N.V.Konoplin, S.N.Maslovlar va boshqalarning dissertasiya ishlari xorijiy pedagogikada o‘qitishning innovasion modellarini va Rossiyadagi zamonaviy ta’lim muassasalari tajribasiga asoslanib, ushbu jarayonlarni boshqarish shartlarini umumlashtirishga imkon beradi[2].

Tadqiqot metadologiyasi

Maqolada innovatsion maktablar tashkil etish va bu maktablardagi o‘qitish sifatini oshirish masalasi ko‘rilgan. Innovatsion ta’lim muassasasi rivojlantiruvchi ta’lim muassasasi ekanligi aytib o‘tilgan. Respublikamizda ko‘pgina innovatsion maktablar va prezident agentligi maktablari tashkil etilmoqda. Bu maktablarning soni va reytingi yildan-yilga oshib borishi ko‘zda tutilgan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tahlillar va natijalar

Ta'limdagi zamonaviy innovasiyalar qarama-qarshiliklarining mohiyatini tushunish uchun, eng avvalo, bizning davrimizda ta'lim institutlarini isloh qilishga turtki bo'lgan ijtimoiy motivlarning mohiyatini aniqlab olish kerak.

Motivlarning birinchisi - maktabning rivojlanish sur'atlari bilan jamiyat taraqqiyoti sur'atlari o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. 20-asrning oxiriga kelib, sanoat va axborot inqilobi natijasida bu tafovut keskin oshdi. Boshqacha aytganda, 20-asr texnikasi va g'oyalari bilan 21-asr boshida maktab bolalarini hayotga tayyorlab bo'lmaydi. U jamiyatda o'zining shakllantiruvchi rolini o'ynamaydi. Ba'zi holatda, u o'quvchilarni hayotga emas, balki imtihonlarga tayyorlaydi[1].

Ta'lim sohasidagi islohotlarning ikkinchi, uncha kuchli bo'lmagan ijtimoiy motivi nafaqat sur'atlarning nomutanosibligi, balki ijtimoiy taraqqiyotning mohiyatini tubdan o'zgartirishdir. Ijtimoiy va ilmiy-texnik inqiloblar bilan birga insoniyat jamiyati «tezkor» taraqqiyot davriga kirdi. Ijtimoiy tizimlar raqobati va axborot inqilobi iqtisodiy mexanizmning o'ta tez ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi.

Shunday qilib, "tezkor" rivojlanish jamiyati "yangi" odamlarga, ijtimoiy hayotning barcha sohalari rivojlanishining jadallashuviga javob berishga qodir bo'lgan "yangi" ta'lim tizimiga ehtiyojni keltirib chiqaradi. Ta'lim tizimidagi innovasion jarayonlar ana shu ijtimoiy talablarga ozmi-ko'pmi ongli javob beradi.

Innovasiyalar turli ko'rinishga ega. Quyidagilar innovasiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi:

1. Yangi g'oyalar;
2. Tizim yoki faoliyat yo'nalishlari;
3. O'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
4. Noan'anaviy yondashuvlar;
5. Odatiy bo'lmagan tashabbuslar;
6. Ilg'or ish uslublari.

"Innovasiya" (yangilik kiritish) tushunchasining o'zi birinchi marta 19-asrda madaniyatshunoslarning ilmiy izlanishlarida paydo bo'lgan va bir madaniyatning ayrim elementlarini boshqasiga kiritishni bildirgan. Pedagogik innovasion jarayonlar 50-yillarning oxiridan boshlab ta'lim tizimini isloh qilish an'analarining paydo bo'lishi bilan G'arb olimlari S.Frene va R.Galya, guruhda ishlash metodi R.Kuzin (Fransiya), shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, "Iste'dodlarni izlash" dasturi (AQSh), Valdorf maktablari, M. Montessorining "Bolalar uyi" va boshqalarning maxsus tadqiqot obyektiga aylandi [2].

Ta'limdagi innovasion jarayonlar aynan 60-80-yillarda keng rivojlangan. Maktab ta'limining yangi islohotlari, vositalari va mazmunini izlash bilan bog'liq ommaviy harakat maktab o'quvchilarining intellektual va axloqiy rivojlanishini boshqarish usullari haqidagi g'oyalarni kengaytirdi. Mualliflik o'quv dasturlarining paydo bo'lishi, ularda ijodkorlarning yuksak kasbiy madaniyati va ma'naviy intilishlari ifodalanganligi maktabda ta'lim mazmunini belgilab beruvchi an'anaviy tuzumni buzishning muhim asoratiga aylandi. Rassomlar va musiqachilar tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar: (B.M.Nemenskiy, D.D.Kabalevskiy), faylasuflar (V.S.Bibler, G.S.Batishev), yozuvchilar va matematiklar (Ye.N.Ilin, P.M.Erdniyev va boshqalar) o'quv dasturlari mazmunini butun zamonaviy madaniyat miqyosi bilan bog'liq holda qayta ko'rib chiqish kabi yangi g'oyalarning kirib borishi uchun kanal bo'lgan. Innovasiyalar nafaqat o'quv faoliyatini, balki bolalarning darsdan tashqari vaqtini ham qamrab oladi. Madaniy

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

va ishlab chiqarish loyihalari (tiklash, xayriya, ekologiya, tarixiy-ma'rifiy turizm, shaxslararo muloqot) bilan birlashtirilgan bolalar va kattalarning birgalikdagi hayotining turli tashkiliy shakllari aniqlangan. Yopiq bolalar muassasalari - mehribonlik uylari, imkoniyati cheklangan bolalar internatlarini insonparvarlashtirishga qaratilgan harakatlarning innovasion shakllari ishlay boshladi. Turli ko'rinishdagi hissiy va aqliy nuqsonlari bo'lgan bolalarni tarbiyalashga bo'lgan separatizm munosabatlari buzila boshladi, oddiy bolalar muhitiga aralashgan bunday bolalarning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun yangi tajribalar paydo bo'ldi [4].

I.P.Volkov, I.P.Ivanov, Ye.N.Ilin, V.A.Karakovskiy, S.N.Lisenkova, R.G.Xazankin, M.P.Shyetinin, Ye.A.Yamburg va boshqalarning noyob pedagogik tajribasi namunalari o'qituvchilar mulkiga aylanadi.

Shu bilan birga, innovasiyalar bo'yicha psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish ushbu tushunchalarning yagona ta'rifi yo'qligini ta'kidlash imkonini beradi. Pedagogika fani sohasida innovasion faoliyat nazariyasi hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. "Innovasiya" tushunchasini ko'rib chiqishda, bu boradagi bir qancha pedagogik tadqiqotlarga to'xtalamiz. Shunday qilib, A.I.Kochetov: innovasiya - pedagogik faoliyatni yangilash, uning ko'rsatilgan darajaga chiqishini ta'minlashning yaxlit, nazariy, texnologik va metodologik tushunchasi deb hisoblaydi [3]. V.Kvasha va boshqalar innovasiya haqida o'z tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Innovasiya - bu me'yordan tashqariga chiqadigan prinsipial jihatdan yangi faoliyat modellarini yaratish, kasbiy faoliyatni prinsipial jihatdan yangi sifat darajasiga olib chiqishdir. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda innovatsiya boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo'lib ta'lim tizimiga kirib keldi va innovatsiyani ta'lim jarayonida qanday o'z aksini topganligini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin. Pedagogik fanlar tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini pedagogika fanlari tarkibiga quyidagi:

a) Gendr pedagogikasi;
b) Evristik pedagogika;
v) Majburiy pedagogika;
g) Androgogik pedagogika

kabi fanlarning kirib kelishi bilan belgilandi. O'qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini ta'lim mazmunida, o'qitish metodlarida, dars shakli, o'qitish turlari, o'qitish vositalarida ko'rishimiz mumkin.

Irkutskda A.I.Dulovning Sibir mintaqasi doirasida ilg'or tajribalarni amalga oshirish va tarqatish imkonini beruvchi ilmiy laboratoriya yaratildi, laboratoriyaning o'zi yangilik bo'lib, o'qituvchilar, o'quvchilar o'rtasida axborot aloqalarini kuchaytirish, o'qituvchilar va o'quvchilar shaxsiyatini rivojlantirish uchun bazani kengaytirdi.

Shu bilan birga, ushbu yangiliklarning aksariyati mavjud ta'lim tizimining asosiy tuzilmasini chuqur o'zgartirish vazifalarini emas, balki uni takomillashtirish va modernizasiyalash muammolarini hal qiladi.

Xulosalar

Islohotlar amaliyoti innovasion jarayonlarni rivojlantirishga bo'lgan mavjud ehtiyoj va o'qituvchilarning ularni amalga oshirishga tayyorligi o'rtasidagi jiddiy qarama-qarshiligiga duch keldi. Birinchi navbatda, bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, "yangi", "yangilik, "yangilik kiritish", "innovasion jarayon", "innovasion faoliyat" tushunchalarini erkin yo'naltirish kerak [3].

Zamonaviy ta'lim muassasalarida barcha sohalarda bo'lgani kabi sifat masalasi birinchi o'ringa ko'tarilmoqda. Abituriyentlarni oliy ta'limga jalb etish maqsadidagi kurash muassasalar

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

o‘rtasida ta’lim sifatiga katta e’tibor talab qilmoqda. Professional ta’lim muassasalarida o‘qitishning zamonaviy usullarini qo‘llash, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi [1].

Shunday ekan o‘qituvchi har bir darsga o‘zgacha yondashib dars mashg‘ulotlarini olib borishi kerak. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlash va uni oshirish masalasi har bir davlatning ta’lim bo‘yicha olib borayotgan siyosatiga qanchalik muvofiqligi bilan bir-biridan farqlanadi. Jumladan, O‘zbekistonda ham ta’lim sifatini ta’minlashning mo‘tadilligiga erishish qaysidir ma’noda birinchi bosqichda ko‘zlangan maqsad bo‘lsa, keyingi bosqichlarda ta’lim sifati kafolatini ta’minlash asosiy vazifasi sifatida bo‘lishi lozim. Shundagina davlat, notijorat hamda xususiy oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida raqobat yuqori tafovut bilan farqlanmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Burgin M.S. Pedagogikadagi innovatsiyalar va yangilik // Sovet pedagogikasi. - 1989. 12-son.
2. G'afforov. Ya. X. Maktab islohati va o‘qitish metodlarini takomillashtirish. Science and education. Sgientific Journal. 2020, 482.
3. Каспржак А.Г. Новые и инновационные школы: проблемы сегодняшнего дня, перспективы развития // Инновационное движение в российском школьном образовании. - М.,2017.
4. М.Қуронов. Узлуксиз таълим жараёнида баркамол шахсни тарбиялаш тизими рисола. – Тошкент: 2005.

MASOFAVIY TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK MENEJERLARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Shomurodov Sherali Shuxratovich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Biznes va innovatsion menejment” kafedrasi katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. *Maqolada muallif tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida aniqlashtirilgan masofaviy ta’lim muhitida bo‘lajak menejerlarning axborot kompetentligining asosiy xususiyatlari hamda komponentlari, axborot kompetentligini samarali shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy tahlil etilib, pedagogik shart-sharoitlarga muallif ta’rifi berilgan, uni shakllantirish bo‘yicha aniq maqsadli 3 xil gipoteza oldinga surilgan. Axborotlashgan ta’lim muhitida ushbu kompentlikni shakllantirish, axborotlashgan jamiyat muhitida “Butun umr davomida o‘qish” tamoyili asosida rivojlantirish yo‘llari hamda vazifalari yoritilgan.*

Tayanch so‘zlar va iboralar: *kompetentlik, axborot, pedagogik shart-sharoit, xususiyat, komponent, gipoteza, axborotlashgan ta’lim, axborotlashgan jamiyat.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ В СРЕДЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Шомуродов Шерали Шухратович
ассистент кафедры «Бизнес и инновационный менеджмент», Каршинский инженерно –экономический институт

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Аннотация. *В статье научно анализируются основные характеристики и компоненты информационной компетентности будущих менеджеров в условиях дистанционного образования. Приведены педагогические условия эффективного формирования информационной компетентности, выявленные в результате проведенного автором исследования. Дается авторское определение педагогических условий, а для его формирования выдвигаются 3 гипотезы с конкретными целями. Освещены формирование данной компетентности в информационной образовательной среде, а ее развитие в условиях информационного общества, на основе принципа «Обучение на протяжении всей жизни»*

Ключевые слова и понятия: *компетентность, информация, педагогические условия, особенность, компонент, гипотеза, информированное образование, информированное общество.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE OF FUTURE MANAGERS IN THE ENVIRONMENT OF DISTANCE EDUCATION

Shomurodov Sherali Shuxratovich
assistant teacher of the Department of "Business and Innovative Management" in Karshi Engineering and Economics Institute

Abstract: *The article scientifically analyzes the main characteristics and components of the information competence of future managers in the conditions of distance education and the pedagogical conditions for the effective formation of information competence, identified as a result of the study conducted by the author, the author's definition of pedagogical conditions is given, and 3 hypotheses with specific goals are put forward for its formation. The formation of this competence in the information educational environment, and its development in the conditions of the information society, based on the principle of "Learning throughout life" are highlighted.*

Keywords and phrases: *competence, information, pedagogical conditions, feature, component, hypothesis, informed education, informed society*

Kirish

Hozirgi kundagi an'anaviy ta'lim dasturlarida bo'lajak menejerlarning boshqaruv sohasidagi kasbiy komponentligini shakllantirish belgilangan davlat ta'lim standartlari hamda malaka talablarida ko'rsatilgan standart nazariy bilimlar berish hamda amaliy ko'nikmalar hosil qilish asosida amalga oshirilmoqda. Lekin, bugungi kunda jamiyatning hamda ishlab chiqarishda texnologiya va texnik vositalarning tezkor rivojlanishi, ishlab chiqarishni raqamli texnologiyalarga o'tishi va yangi texnologiya sifatida nanotexnologiyaning kirib kelishi talab etiladigan bilimlar hajmining muttasil o'sib borishiga olib keladi, bu esa menejerlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Boshqaruv kadrlari hisoblanmish menejerlarning nafaqat oliy ta'limdagi o'qish jarayonida, balki ishlab chiqarishdagi kasbiy faoliyati davomida ham mustaqil ravishda kerakli axborotlarni olish, tahlil qilish, qayta ishlash, mavjud muammoning mohiyatini aniqlash va ularni hal qilishning eng samarali usullarini topish qobiliyatlarini rivojlantirish eng dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Oliy ta’limda nazariy bilimlarni tayyor shaklda olish ta’lim jarayonining maqsadi emas, balki bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning yordamchi vositalaridan biriga aylanishi kerak [1]. Zamonaviy sivilizatsiyalashgan jamiyat nafaqat standart muammolarni, balki yuzaga keladigan ishlab chiqarishning nostandart muammolarini va favqulodda vaziyatlarda ham tezkor, ijodiy hal qiladigan, tanqidiy fikrlaydigan, shuningdek o‘z-o‘zini rivojlantirish va baholash qobiliyatiga ega bo‘lgan mutaxassislarni talab etadi. Albatta, hozirgi raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan bir davrda bo‘lajak menejerning axborot kompetentligini ta’minlash va uni kasbiy faoliyat davomida bir umr o‘qish tamoyili asosida rivojlantirish masofaviy ta’lim asosidagina amalga oshirish mumkin [2,3] . Shu sababli masofaviy ta’lim asosida bo‘lajak mutaxassislarning axborot kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirish pedagogika sohasidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Muammoning qo‘yilishi

Kompetentlikga yo‘naltirilgan ta’lim o‘tgan asrning 70 yillarida AQSH va qator G‘arbiy Yevropa davlatlarida mehnat bozori talablarini ta’lim natijalariga mos kelmasligi sababli shakllangan [4].

Mamlakatimizda mutaxassislarning kasbiy va axborot kompetentligini shakllantirish mavzusi doirasida B.S.Abdullayeva, N.A.Muslimov, Sh. A. Urazmetova, Z.T.Raximovlarning ilmiy ishlarida yoritilgan. MDH davlatlarida mutaxassislar tayyorlashda kompetentlik yondoshuvi I.A. Zimnyaya, N. Xomskiy, A.A. Verbitskiy, A.B. Xutorskoy, V.I. Baydenkolarning ilmiy ishlarida, xorijiy olimlardan L.A. Vites, R. Uayt, Bermus, R. Xagerti, A.Meyxyu tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Ular kompetentlik yondoshuvini pedagogika va psixologiya sohasida majmuali, shaxsga yo‘naltirilgan, tizimli faoliyatli, aksiologik, madaniy va muammoli vaziyatli yondoshuvlarning “genetik ildizi” deb qarashgan [5]. Kasbiy kompetentlikning talqini turlicha bo‘lib, mazmun jihatidan bir biridan tubdan farq qiladi. Masalan, chet el tadqiqotchilari R. Xagerti, A. Meyxyularning tadqiqotlarida kasbiy kompetentlik har qanday mutaxassis kasbiy malakasining asosiy qismidir deyilgan [6].

Lekin, bo‘lajak menejerlarning masofaviy ta’lim muhitida axborot kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari nisbatan to‘liq o‘rganilmagan soha hisoblanadi. Axborot kompetentlikni shakllantirishning pedagogik shart sharoitlari bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlarda mutaxassislarning axborot kompetentligini shakllantirishda uning komponentlari, innovatsion ta’lim muhiti, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv o‘qitish metodlaridan foydalanish darajasi, elektron ta’lim resurslari hamda Internet tarmog‘i orqali mustaqil axborotlar olish jarayonlari atroflicha o‘rganilgan, lekin masofaviy ta’lim muhitida mutaxassislarning axborot kompetentligini shakllantirish muammolari to‘liq ilmiy o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot jarayonida ilmiy va o‘quv-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamalar

Axborot kompetentlikni shakllantirishning pedagogik shart sharoitlari negizida asosiy tushuncha sifatida “axborot” yotadi. Falsafiy ensiklopedik lug‘atlarda “axborot” tushunchasi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

(lotincha informatio so‘zidan olingan bo‘lib, tanishish, tushuntirish, taqdimot, tushuncha ma’nolarini anglatadi.

Axborot kompetentlikni shakllanishining shart-sharoitlarini baholashda bo‘lajak menejerlarning bilimlar bazasi muhim rol o‘ynaydi. Chunki axborotlarni mutaxassis sifatida qabul qilish tezligi, qayta ishlash, ijodiy va ilmiy yondoshish hamda o‘z kasbiy faoliyatida foydalanish uning bilimlar bazasiga uzviy bog‘liq bo‘ladi. Masofaviy ta’lim muhitida bo‘lajak mutaxassislarning bilimlar bazasini shakllanishi bevosita elektron ta’lim resurlari hamda ularning mazmun va sifatiga bog‘liqdir. Chunki, elektron ta’lim resursi – masofaviy ta’lim jarayonida foydalaniladigan axborotlar manbasidir [7,8] . Nazariy bilimlar olishda zamonaviy audio va video ma’ruzalar [9], laboratoriya ishlarida esa virtual laboratoriyalarning o‘rni muhimdir.

Tadqiqot natijalari asosida axborot kompetentlikning asosiy xususiyatlariga aniqlik kiritildi va uning komponentlari aniqlandi:

- Axborot kompetentlikning asosiy xususiyatlari:
- dualizm – mutaxassisning axborot kompetentligini obyektiv (tashqi baholash) va subyektiv (shaxs tomonidan o‘z-o‘zini baholash) baholash;
- nisbiylik - bilimlar va bilimlar bazasini tez ma’naviy eskirishini hisobga olgan holda, mavjud axborotlarni aniq bir shartli fazoviy vaqt birligida to‘g‘ri va yaroqli deb qabul qilish;
- tarkibiylik – har bir shaxsning o‘ziga xos bilimlar bazasiga ega bo‘lishi;
- selektivlik – qabul qilinuvchi barcha axborotlar bilim sifatida qaralmaydi yoki bilimlar bazasiga aylanmaydi;
- akkumlyativlik – bilimlar bazasi ma’lum vaqt davomida akkumlyatsiyalanadi (to‘planadi, jamlanadi) va mazmun jihatidan kengayib, chuqurlashib boradi;
- o‘z-o‘zini tashkil etish – bilimlar bazasining yangi tarkibini turli tizimlarda o‘z-o‘zidan yangilanib borishi, ya’ni mavjud bilimlar negizida ilmiy-ijodiy faoliyat natijasida yangi bilim (g‘oya, tushuncha va b.) larni paydo bo‘liishi;
- ko‘p funksionallik –bilimlar bazasini turli ko‘rinishda va o‘ziga xos xusuiyatda bo‘lishi.

Bo‘lajak menenjerlar axborot kompetentligining asosiy komponentlari sifatida qo‘yidagilar belgilandi:

- kognitiv - bilimlarni tizimlashtirishga, bilish hamda o‘z-o‘zini anglashga yo‘naltirilgan funksiya, axborotlarni saqlash va qayta ishlash qobiliyatini yuzaga keltirish;
- kommunikativ – menejerlik faoliyati bo‘yicha axborotlarni uzatish vositalari (qog‘oz yoki elektron)dan foydalana olish va qabul qila olish qobiliyatini shakllantirish;
- adaptiv - axborotlashgan jamiyat hayotiy faoliyat sharoitiga moslashish;
- meyoriy funksiya – axborotlashgan jamiyatdagi ma’naviy va huquqiy meyorlar hamda talablar tizimini bilish;
- baholash funksiyasi - turli axborotlar oqimidan zarur, kerakli va yangi axborotlarni olish, ularni baholash hamda kerakli va ikkinchi darajalilarga ajrata olish qobiliyati;
- interaktiv - shaxsning mustaqil, o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan faol va ijodiy faoliyatini shakllantirish.

Bo‘lajak menejerlarning axborot kompetentligi bevosita uning kasbiy funksiyalari va vazifalaridan kelib chiqib shakllantirilishi lozim. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida menejerlar asosan qo‘yidagi yo‘nalishlarda faoliyat yuritishlari talab etiladi:

- boshqarish faoliyati – rejalashtirish, marketing, tashkil etish, taqsimlash, muvofiqllashtirish va nazorat vazifalari.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

- strategik rejalashtirish va bashoratlash faoliyati – korxonaning kelajakda raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlash maqsadida kelajakni bashoratlashning eng yangi texnologiyalaridan foydalangan holda korxonaning uzoq muddatli kelajagini bashoratlash va rivojlantirishning uzoq muddatli strategik rejasini tuzish, kelajakda mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqish, mahsulot sifatini oshirish, korxonaning eksport qobiliyatini rivojlantirish va b;
- texnologik faoliyat –ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqishga yangi texnik tizimlarni tadbiq etish;
- moliyaviy faoliyat – sarmoya va investitsiyalarni izlash va ulardan oqilona foydalanish;
- xavfsizlik faoliyati – mol-mulkni muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar vaqtida korxonaning barqaror ishlashini ta’minlash;
- ekkaunting faoliyati –tahlil qilish, hisobga olish va statistikani yuritish.

Bo‘lajak menejerlarning axborot kompetentligini samarali shakllantirishning yana bir talabi pedagogik shart-sharoitlar tahlili hisoblanadi. Menejerlarda axborot kompetentlikni samarali shakllantirishning pedagogik shart sharoitlari deganda, bizning ta’rifimiz bo‘yicha “Axborotlashgan innovatsion ta’lim muhitida mutaxassislarning axborot kompetentligini shakllantirishga qaratilgan ta’lim jarayoni uni ishlab chiqarishdagi kasbiy faoliyati davrida rivojlantirishga qaratilgan o‘z-o‘zini rivojlantirish va baholash jarayonlari majmui tushuniladi” (muallif ta’rifi).

Ilmiy asoslangan pedagogik shart sharoitlar majmui axborot kompetentlikning barcha komponentlarini (kognitiv, motivatsiyali, refleksiv, kommunikativ va b.) bosqichma-bosqich shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur [10]. Bunday pedagogik sharoitlarni amalga oshirish murakkab, maqsadga yo‘naltirilgan, o‘zaro bog‘liq va ilmiy asoslangan pedagogik jarayondan iborat bo‘lib uni qo‘yidagi yo‘llar orqali amalga oshirish mumkin bo‘ladi:

- mutaxassislarning axborot kompetentligini nazariy-metodolik asoslashga tizimli va kompetentlik nuqtai nazaridan yondoshish;
- innovatsion ta’lim muhitida ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlanish stategiyasini hisobga olgan holda axborot kompetentlikni shakllantirishga konseptual yondashish;
- talabalarni axborotlar bilan ishlash jarayonidagi subyektiv shart-sharoitlarni (talabalarning Internet tizimi orqali mustaqil axborotlarni olishi, o‘z-o‘zini rivojlantirish va baholash qobiliyatlarini shakllantirish masalalari va b.) e’tiborga olish;
- talabalarning guruhda yoki kichik guruhlarda ishlay olish qobiliyati, loyihaviy va ilmiy-ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan faoliyatini tashkil etish, talabalarning faolligini oshirish interaktiv metodlaridan keng foydalanish;
- axborot kompetentlikni shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar va shart-sharoitlar diagnostikasi va monitoringini olib borish.

Yuqoridagi tahlillar asosida bo‘lajak mutaxassislarning, jumladan menejerlarning masofaviy ta’lim asosida axborot kompetentligini shakllantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashda qo‘yidagi gipotezalarni oldinga suramiz:

1. Bo‘lajak menejerlarning axborot kompetentligini axborotlashgan ta’lim muhitida shakllantirish va axborotlashgan jamiyat muhitida rivojlantirish kabi bosqichlarga ajratamiz.

2. Axborotlashgan ta’lim muhiti talabaning oliy ta’lim muassasidagi o‘qish jarayoni, ya’ni masofaviy o‘qish platformalari (MOODLE, HEMIS), elektron kutubxonalar, video va audio mashg‘ulotlar, telekommunikatsiya o‘quv loyihalari va boshqa Internet manbalar orqali qisman

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

yoki to‘liq o‘qituvchi nazoratida axborotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va foydalanish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Axborotlashgan jamiyat muhitida axborot kompetentlikni rivojlantirish jarayoni sifatida qaraladi va bu mutaxassisning kasbiy-hayotiy faoliyati davomida “Butun umr davomida o‘qish” tamoyili yoki “Beshikdan to qabrgacha ilm izla” sharq maqoli asosida amalga oshishi nazarda tutiladi. Bunda mutaxassis global Internet tizimidan mustaqil foydalanadi, o‘z-o‘zini rivojlantirish va baholash tizimi asosida faoliyat yuritadi.

Yuqorida shakllantirilgan gipotezalarda pedagogik shart sharoitlar 2 guruhga , ya’ni axborotlashgan ta’lim muhiti va axborotlashgan jamiyatga ajratilgan.

Axborotlashgan ta’lim muhiti – ta’lim sohasini uslubiy va amaliy jihatdan zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalari bilan ta’minlash va undan samarali foydalanish asosida ta’lim-tarbiya jarayonining pedagogik-psixologik maqsadlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan muhit [11].

Axborotlashgan jamiyat- bu global ijtimoiy jarayon va umumjamiyat ishlab chiqarish sohasida yetakchi faoliyat turi bo‘lib, zamonaviy mikroprotsessor va kompyuter texnikalari hamda axborot almashinuvida foydalaniladigan boshqa turli xil texnik vositalar yordamida axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va foydalanish jarayonlari majmuidir [12].

Axborotlashgan jamiyat sharoitida mutaxassisning axborot kompetentligini rivojlantirish quyidagi vazifalarga alohida e’tibor qaratishni talab etadi:

- mutaxassisning fikrlash va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish;
- kompyuter grafikasi, multimedia texnologiyalari asosida madaniy tarbiyani rivojlantirish;
- murakkab nostandart vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish yoki muammo yechimi bo‘yicha aniq takliflar berish malakasini shakllantirish (masalan, faoliyatni optimallashtirishga yo‘naltirilgan kompyuter o‘yinlaridan foydalanish orqali va b.);
- kompyuterli modellashtirish imkoniyatlaridan foydalangan holda ta’lim oluvchining tadqiqot-izlanish faoliyatini rivojlantirish;
- ta’lim oluvchining axborot madaniyatini, axborotlardan to‘g‘ri foydalanish va unga ishlov berish qobiliyatlarini shakllantirish.

Masofaviy ta’lim muhitida axborot kompentlikni shakllantirish bevosita elektron resurslar bilan ishlash orqali amalga oshiriladi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan faoliyat turlari talaba, professor-o‘qituvchi va raqamli texnologiyalar o‘rtasida axborotlashgan o‘zaro ta’sir bilan asoslanadi va u bo‘lajak mutaxassislarda axborot kompetentlikni shakllantirishning pedagogik shart sharoitlarini belgilaydi. Shuningdek, ta’limni va jamiyatni axborotlashtirish, axborotlashtirishda masofaviy ta’limdan keng foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar mutaxassislarning, jumladan bo‘lajak menejerlarning axborot kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

2. 1. Beknozarova Z. Muhandislik yo‘nalishi talabalarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish muommosi va joriy holati. //Jamiyat va innovatsiyalar -2021, №8. - 56-60 b.

3. Raximov O. D. i dr. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari //T.:“Fan va texnologiya nashriyoti. – 2013. -170b.

ISSN: 2181-0427

4. Raximov, O. D., et al. "Modern educational technologies." Tashkent," Science and Technology" Publishing House 2013).
5. Samoylova N.I. Pedagogicheskiye usloviya formirovaniya informatsionnoy kompetensii u budushix injenerov. Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata pedagogicheskix nauk. Kazanskiy gosudarstvenniy texnologicheskiy uniiyersitet. 2007. [Elektron manba]. URL:http://libweb.kpfu.ru/z3950/EPOS_ESIC/SamojlovaNI.pdf Murojaat etilgan sana: 11.04.2022.)
6. Карпеченко А.С. Формирование информационной компетентности современного менеджера. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего профессионального образования Калужский государственный университет им. К. Э. Циолковского. 2012. [Электрон манба].
URL:https://www.dissercat.com/content/formirovanie-informatsionnoi-kompetentnosti-sovremennogo-menedzhera. Murojaat etilgan sana: 06.04.2022.
7. Дэвис Э. Техногнозис. – Ультра. Культура, 2008 – С. 918.
8. Raximov O.D. Requirements and technology for creating e-learning resources //Современноэ образоване (Uzbekistan). 2016. Т. 202. – S. 45-50.
9. Raximov O.D. Elektron ta'lim resurslarini yaratish talablari va texnologiyasi //Современное образование (Uzbekistan). 2016. №. 2. – S. 45-50.
10. Rakhimov O.D.1, Ashurova L. Types of modern lectures in higher education, technology of their design and organization.//Проблемы современной науки и образования. 2020. №12(157), часть -1. С.41-46. DOI: 10.24411/2304-2338-2020-11203/
11. Якубжонова Д. Б. Формирования информационной компетентности студента вуза посредством интерактивных технологий. // Молодой ученый. — 2012. - № 9 (44). - С. 323-325. — URL: https://moluch.ru/archive/44/5308/
12. Raximov O.D. Elektron ta'lim resurslarini yaratish talablari va texnologiyasi //Современное образование (Узбекистан). 2016. №. 2. – С. 45-50.
13. Raximov O. D. Axborotlashgan jamiyat ta'lim tizimida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar. Monografiya. //Toshkent, "Fan va texnologiyalar. – 2014.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

UO'T:54.371

O'QUVCHILARNING FANLAR INTEGRATSIYASIDA INTELLEKTUAL QOBILIYATINI SHAKILLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Kurbanova Aypara Djoldasovna
Chirchiq davlat pedagigika universiteti "Kimyo" kafedrasi mudiri,
kimyo fanlari nomzodi, dotsent, kaypara@list.ru
Xasanova Nargiza Ismagilovna
Chirchiq davlat pedagigika universiteti "Kimyo" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. *XXI asr o'quvchlarini intelektual qobiliyati zamon talabiga mos ravishda kimyoviy shakllantirish oson ish emas, maqolada buni matematik yo'l bilan amalga oshrish yo'llari va usullari ko'rib chiqilgan va amalga oshirish usullar keltirib o'tilgan. Bunda nimalaga e'tibor berish kerak, qanday yondoshish kerakligi ochib berilgan. O'quvchilarda mavzu bo'yicha hisoblash masalalarini yechish ko'nikmalarini shakllantirish, ularni test shaklida bajarishga sarflanadigan vaqtni qisqartirish.*

Ka'lit so'zlar. *intellektual qobiliyat,shakllantirish, rivojlantirish, matematika, kimyo, eritma, kontsentratsiya, ko'rsatma kartalari, vazifalar, taqdimot.*

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ИНТЕГРАЦИИ НАУК

Курбанова Айпара Джолдасовна
заведующий кафедрой «Химия» Чирчикского государственного педагогического университета,кандидат химических наук, доцент, kaypara@list.ru
Хасанова Наргиза Исмагиловна
Преподаватель кафедры «Химия» Чирчикского государственного педагогического университета

Аннотация. *Химически формировать интеллектуальные способности учащихся 21 века в соответствии с потребностями времени – непростая задача, в статье рассматриваются пути и методы реализации этого математически и приводятся методы реализации. Объясняет, на что обратить внимание и как к этому подступиться. Сформировать у учащихся умения решения расчетных задач по теме, сократить время, затрачиваемое на их выполнение в тестовой форме.*

Ключевые слова. *интеллектуальные способности, формирование, развитие, математика, химия, раствор, концентрация, инструктивные карты, задачи, презентация.*

FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE INTELLECTUAL ABILITY OF STUDENTS IN THE INTEGRATION OF THE SCIENCES

Kurbanova Aypara Djoldasovna
Head of the "Chemistry" department of Chirchik State Pedagogical University,
candidate of chemical sciences, associate professor, kaypara@list.ru
Khasanova Nargiza Ismagilovna
Teacher of the "Chemistry" department of Chirchik State Pedagogical University

Abstract. *It is not an easy task to chemically form the intellectual abilities of 21st century students in accordance with the needs of the times. The article examines the ways and methods of implementing this*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

mathematically and gives the methods of implementation. It explains what to pay attention to and how to approach it. To form in students the ability to solve calculation problems on the topic, to reduce the time spent on their implementation in a test form.

Key words. *intellectual abilities, formation, development, mathematics, chemistry, solution, concentration, instruction cards, tasks, presentation.*

Kirish

Zamonaviy umumiy o‘rta ta’lim maktabi o'quvchilarining shaxsiyatini rivojlantirishga, shu jumladan intellektual rivojlanishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu sababli, o'qituvchilar faoliyatining muhim yo'nalishi o'quvchilarning barqaror kognitiv qiziqishlari, aqliy faoliyat ko'nikmalari va qobiliyatlari, aqliy fazilatlari, ijodiy tashabbuskorlik va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan har tomonlama intellektual rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishdir.

Rivojlanayotgan yangi O‘zbekistonning ta'lim standartlari zamonaviy boshlang'ich maktabining o'quv jarayonida integratsiya elementlaridan foydalanish haqida gapiradi. Integratsiyalashgan yondashuv atrofdagi dunyoni barcha xilma-xilligi bilan ko'rsatish imkoniyatini beradi. Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimlari izchillik fazilatlariga ega bo'ladi, ko'nikmalar umumlashtiriladi, murakkablashadi, kognitiv qiziqishlarning dunyoqarash yo'nalishi kuchayadi, bu kichik yoshdagi o'quvchilarning intellektual, ijodiy rivojlanishiga yordam beradi.

Bugungi kun o‘quvchisi, komp’yuter texnologiyalarini qanchalik mukammal bilmasin lekin fanlar integratsiyasida olib boriladigan mashg’ulotlarni o‘zlashtirishda muammolarga duch keladi[1]. Agarda o‘qituvchi mashg‘ulotni to‘g‘ri tashkil etsa munday muammoga duch kelinmaydi quyida eritmalar mavzusida masalalar yechish algoritmini ko‘rib chiqish ketirib o‘tilgan[2]. Bunda mashg‘ulotni tashkil etishdagi ketma-ketliklar quyidagilarda o‘z aksini topgan: kimyo va matematikadan masalalar yechish usullari bilan tanishish[3].

1. Eritmalar boyicha masalalar yechish bilim va ko‘nikmalarini yangilash[4].
2. Masala yechish ko‘nikmalarini amalda rivojlantirish[5].
3. Kimyoviy idishlar va moddalar bilan amalda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish[6].
4. Maktabda fanlarning o‘zaro bog’liqligi haqidagi umumlasahuvni shakllantirish[8].
5. O‘quvchilarda o‘qituvchini tinglash va e’tiborlilikni tarbiyalash[9].
6. O‘quvchilarni o‘z-o‘zini baholashga va nazorat qilishga o‘rgatish[10].

Materiallar

Bugun darsda kimyo va matematikadan olgan bilimlarimizdan foydalanib masalalar yechamiz. Sinf uch guruhga bo'lingan. Va bloklar bo'yicha vazifalar (oddiy, o'rtacha, murakkab). Integrirlangan dars. Kombinirlangan dars. Aralash dars (bitta darsni bir necha durdagi darslar yig’indisi bilan olib borish), amaliy ishlar darsi, nazoratni og’izaki shakli, yozma nazorat, so‘zlashuv, ko‘rsatma, amaliy, tushuntiruv-illyustrativ, reproduktiv metod, o‘rganilayotgan materialni muammoli ochib berish, qisman-qidiruv, o‘quv tushunuv faoliyatini samaradorligini uchun nazorat va o‘z-o‘zini nazorat metodlari. Kimyoviy preparatlar va idishlar, mul’tmediya proektor, tarqatma material.

O‘quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish. Matematika o‘qituvchisi: Ikki fan – matematika va kimyo fanlari masalalar yechish uchun birlashtirildi va birgalikda olib boriladi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Kimyo o‘qituvchisi: Assalomu – alaykum, bolalar! Biz siz bilan matematik metadlarni, kimyoviy masalalarni yechishdagi yordamini ko‘rib chiqamiz. Sonlarni daftaringizga yozing. Dars mavzusini shakllantirish, keling kichik bir eksperement o‘tkazamiz. Dolzarbligi. (2 ta kimyoviy stakanga suv quyamiz va ikkalasiga bir xil miqdorda mis sul’fat tuzidan qo‘shamiz) Nima hosil bo‘ladi? (Eritmalar). Eritma nimadan tashkil topgan? (erituvchi va erigan moddadan). Endi stakanlardan biriga yana ozroq mis sul’fat tuzidan qo‘shamiz. Eritma ranggi qanday bo‘ladi? (U nisbatan to‘yingan holatga o‘tadi). Bu eritmalar nima bilan farqlanadi? (moddaning massa ulushi bilan) [11,12,13].

Usullar

Darsning turli bosqichlarida vazifalarni oqilona qo'llash orqali kimyoni o'qitish usullarini diversifikatsiya qilishingiz mumkin: yangi materialni o'rganishda; darsda o'rganilgan materialni mustahkamlash jarayonida; sinfda va uyda mustaqil ishlashda; talabalar bilimini joriy tekshirish vaqtida; o'rganilgan mavzuni takrorlash va test o'tkazishda yoki nazorat ishlari; talabalarning mavzu bo'yicha bilimlarini umumlashtirishda. Darsning turli bosqichlarida vazifalarni oqilona qo'llash orqali kimyoni o'qitish usullarini diversifikatsiya qilishingiz mumkin: yangi materialni o'rganishda; darsda o'rganilgan materialni mustahkamlash jarayonida; sinfda va uyda mustaqil ishlashda; talabalar bilimini joriy tekshirish vaqtida; o'rganilgan mavzuni takrorlash va test o'tkazishda yoki nazorat ishlari; talabalarning mavzu bo'yicha bilimlarini umumlashtirishda. Matematika o‘qituvchisi: Matematika nuqtai nazaridan qaraganda – moddalarni turli foizlarda saqlanishi. Shunday qilib dars mavzusi “Eritmalar bo‘yicha masalalar yechish. Bizning darsimizni maqsadi qanday? (Eritmalar bo‘yicha masalalar yechish algoritmini ko‘rib chiqish, matematika va kimyoda masalalar yechish usullari bilan tanishish):

- aytinlarch biz dars maqsadiga yetisha olamizmi? (o‘quvchilar javoblari)
- men ham birgalikda qo‘yilgan maqsadga erishamiz deb o‘ylayman.

Kimyo o‘qituvchisi: Kayfiyat refleksiya. Slaydlarda cmayliklarni korayapsiz, sizning kayfiyatingiz qaysi smaylakga to‘g’ri kelishini aniqlang va shu smaylakni daftaringizga chizing. Ibora: “Faqatgina ikkita birgalikda ish olib boradigan itfoqdosh va ularning o‘zaro bir-biriga ko‘maklashishi natijasida buyuk narsalar ro‘yobga chiqadi” Antuan de Sent-Ekzyuperi. Har bir o‘quvchi stoli ustida kartochkalar turibdi.

Natijalar

Matematika o‘qituvchisi: Dars uchun foiz tushunchasini takrorlash talab etiladi.

- nima foiz deb yuritiladi? (1/100 qism sonlar.)
- o‘nlik bo‘laklar ko‘rinishida izohlang 17%, 40%, 6%
- oddiy bo‘laklar ko‘rinishida izohlang 25%, 30%, 7%
- o‘xshashlikni bajaring

40%	1/4
25%	0,04
80%	0,4
4%	4/5

Foizlar bilan ishlaganda asosiy harakat – sonlardan foiz(%) topish.

Qanday qilib sonlardan foiz % topiladi? (% ni bo‘laklar ko‘rinishida yozing, shu bo‘lakni songa ko‘paytiring.)

- 30 dan 10% ni toping (10%=0,1 30*0,1=3)

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

- hisoblang: 1) 70 dan 20% 2) 20 dan 6%
3) 7 dan %

Kimyo o‘qituvchisi

– erigan moddaning massa ulushi nima? (Erigan modda massasining, eritmaning umumiy massasiga nisbati bila ifodalanadi.)

– erigan moddaning massa ulushini va undan hosil bo‘ladigan hosilalarni ifodalovchi formulalarni eslang (w = m (er.m.)/m (eritma) ; m (er.m.)= m (eritma) ×w ; m (eritma) = m (er.m.) / w)

– eritma massasini qanday formula orqali hisoblash mumkin? (m(eritma) = m (er.m.) + m (erituvchi)).

2. Yangi materialni ochib berish. Masalani yechish. *¾ Yer yuzasi suv bilan qoplangan. O‘rta yashar insonning 70% ini suv tashkil etadi. Bir kecha kunduzda inson 3 litr suv ajratadi va shuncha litr suvni organizm qabul qilishi talab etiladi.*

Kimyo o‘qituvchisi o‘quvchilarga quyidagi masalani yechishni taklif etadi:

1- masala. 65 kg massali inson organizmida qancha massa suv bo‘ladi.

Yechimi.

Berilgan: ω% = m(er.modda/m(eritma)

ω%=70% m(er.modda)= m(eritma) •ω

m(inson) = 65 kg m(er.modda) = 65 •0,7 = 45,5kg

m(suv) = ? Javob: 45.5 kg yani 4.5 hajmli chelak

Matematika o‘qituvchisi.

– kelinglar ushbu masalani matematika nuqtai nazaridan qaraymiz. Qoidaga ko‘ra bu masalani yechimini topishda foizlarni qo‘llaymiz? (sondan foizni topish qoidasi.)

65 kg dan 70% ni topish.

1) 70% = 0,7

2) 65*0,7=45.5(kg)

Javob: 45,5 kg.

– ko‘rib turganingizdek, kimyoda uchraydigan masalalarni kimyoviy formulasini yozmasdan matematikada ham yechish mumkin. – ko‘zlar uchun mashq.

Matematika o‘qituvchisi. Eritmalar bo‘yicha masalalarga matematikadan maktab dasturida juda kam vaqt ajratilgan. Lekin bunday masalalar 9 – sinf imtihonlarida uchraydi.

2 - masala. 10% li va 30% li osh tuzi eritmalarini aralashtirilganda 20 g 16% li osh tuzi eritmasi hosil bo‘ldi. Har bir eritmadan qanchadan olingan?

Ushbu masalada nima haqida gapirilgan? (*eritmalar haqida*)

Eritmalar bilan nima sodir bo‘ladi? (*aralashadi)*

Yechimi: Jadval tuzamiz

Eritma	% li saqlanishi	Eritma massasi (g)	Modda massasi (g)
1 - eritma	10% = 0,1	x	0,1x
2 - eritma	30% = 0,3	20-x	0,3(20-x)
Hosil qilingan eritma	16% = 0,16	20	0,16*20

0,1x + 0,3(20-x) = 0,16*20

0,1x + 6 – 0,3x = 3,2

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

-0,2x = -2,8
x = 14
14 (g)- 10% eritma
20 – 14 = 6(g)-30% eritma.
Javob: 14 g (10% eritma) va 6 g (30% eritma)

Kimyo o‘qituvchisi - endi eksperimental 3 - masalani bajaramiz. 1- chi 14 g 10% li eritma tayyorlang. 2 – chi 6 g 30% li eritma tayyorlang.
Yechimi: a) Hisoblash qismi: m(modda) = m(eritma) • ω
$m_1(NaCl)=14 \bullet 0,1 = 1.4$ g
$m_2(NaCl)= 6 \bullet 0,3 = 1.8$ g
b) Eksperimental qism (Texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qiling). 1. Tarozini tenglashtiring. 2. Osh tuzini o‘lchang. 3. O‘lchov silindri bilan suvni o‘lchang. 4.Stakanda suv va tuzni aralashtiring.

Kimyo darslarida aralashtirish masalalari ko‘p uchrab turadi. Formulani eksperimental yo‘l bilan chiqarishga harakat qilamiz. Birinchi va ikkinchi eritmalardagi tuzning ulushini hisoblash uchun formulani eslaymiz va eritmalarni aralashtiramiz(bu qanday qanday matematik belgi**).**
$m_1(eritma) \bullet \omega_1 + m_2(eritma) \bullet \omega_2 =$ **(**$m_1(eritma) + m_2(eritma)) \bullet \omega_3$
Vazifa: Topamiz ω_3 .

4 – masalani yechamiz: 10% li va 20% li ishqor eritmalarini aralashtiramiz va 80 g 15% li ishqor eritmasini hosil qilamiz. Har bir eritmadan qanchadan olamiz?
Yechimi : $m_1*0,1+ m_2*0,2= 80*0,15$
$m_1*0,1+ m_2*0,2=12.4$ chiqaramiz $m_1= 80- m_2$
$(80- m_2)*0,1+ m_2*0,2=12.4$
$8-0.1\ m_2 + m_2\ 0,2=12.4$
m_2=44 r 20% li eritma
m_1= 80- 44=36 r 10% li eritma
Javob: 44 g 20% li eritma, 36 g 10% li eritma.

Matematika o‘qituvchisi. Tekshiruv ishini olib boramiz, unga 9 sinfning imtihonlariga mo‘ljallangan masalalar to‘plamidan masala olamiz.

Tekshiruv ishi. slayd va tarqatma material bilan kartochkalar.

15% li va 8% li kislotalar eritmalarini aralashtirish natijasida 70 g 10% li kislot eritmasi hosil qilindi. Har bir eritmadan qanchadan olish talab etiladi?

1e	15%=0,15	x	0,15x
2e	8%=0,08	70-x	0,08(70-x)
	10%=0,1	70	0,1*70

0,15x + 0,08(70-x)=0,1*70
0,15x+ 5,6-0,08x =7
0,07x=7-5,6
0,07x=1,4
x= 1,4:0,07

15% li va 60% li tuz eritmalari aralashtirilganda 90 g 40% li tuz eritmasi hosil qilindi. Har bir eritmadan qanchadan olish talab etiladi?

1er	15%=0,15	x	0,15x
2er	60%=0,6	90-x	0,6(90-x)
3er	40%=0,4	90	0,4*90

0,15x+0,6(90-x)=0,4*90
0,15x+54-0,6x=36
-0,45x=36-54
-0,45x =-18
x=18:0,45
x=40
40(r)-15% eritma.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

x=20 20(г)- 15% li eritma. 70- 20=50(g)-8% eritma Javob: 20 g., 50 g.	90-40=50(g)-60% eritma. Javob: 40 g., 50 g.

- yechim kartochkalarida o‘quvchilar yechimni slayddagi javob bilan taqqoslaydilar, o‘quvchilar o‘z-o‘zlarini baholashlari lozim:

- xato bo‘lmasa – «5»; - bitta xato – «4»; - 2-3 ta xato – «3».

Muhokama

Darsga yakun yasash. Refleksiya. Dars boshlanishida qo‘yilgan maqsadga qaytamiz. Ulardan qaysi biri bajarildi? (o‘quvchilar javob berishadi) – Yashanglar bolalar siz qo‘yilgan vazifani uddaladingiz. Biz siz bilan ish olib borganimizdan bag’oyat xursandmiz.

Kimyo o‘qituvchisi:

– hamma yechimi topilgan masalalarni ko‘rib chiqamiz. Ularni nima birlashtirib turibdi? (eritmalar uchun masalalar.)

– haqiqatdan, hamma masalalarda suvli eritmalar keltirilgan; hosoblashlar erigan moddaning massa ulushi bilan bog’liq; va e’tibor bergan bo‘lsangiz, masalalar maishiy xizmatning turli yo‘nalishlariga ta’luqli.

Matematika o‘qituvchisi:

– ushbu masalalarga matematika nuqtai nazaridan qarasak. Ularni nima birlashtirib turibdi? (foizlar uchun masalalar). Ushbu hamma masalalarni yechishda biz sondan foiz topish qoidasidan foydalanamiz.

Refleksiya. (Sinkveyin). «Bugungi darsda men takrorladim…». «Bugungi darsda men bilib oldim…». «Bugungi darsda men o‘rgandim…».

Yechim topishning nisbatan o‘zingizga mos usulini tanladingizmi?

Tanlagan usulingizdan kyeyinchalik masalalar yechishda foydalanasizmi?

Darsimiz yakuniga yetdi. Darsdan keyingi mening kayfiyatim. O‘z kayfiyatingizni daftaringiz maydoniga belgilang. Dars uchun raxmat!

Insonning, ayniqsa yosh bolalarning oziqlanishida sut va sut mahsulotlari muhim o‘rin tutadi. Quyidagi masalani yeching:

1 - masala. 100 g 20% li yangi yil kokteylini tayyorlash uchun qancha og’irlikdagi 10% li yog’li sut va 30% li yog’li plombir olish talab etiladi?

2- masala. Bodiringni tuzlash uchun 7% osh tuzining suvli eritmasi ishlatiladi (natriy xlorid NaCl). Aynan shuday eritma yetarli darajada kasallik olib keluvchi mikroorganizmlarni hayot faoliyatini to‘xtatadi va shu bilan birga nordon sutli achish jarayonini borishiga qarshilik ko‘rsatmaydi. Shunday eritmadan 1 kg tayyorlash uchun sarf bo‘ladigan tuzning va suvning massasini hisoblang?

Eritma	% tarkibi	Eritma massasi (g)	Modda massasi (g)
1 - eritma 2 - eritma			
Hosil qilingan eritma			

Xulosa

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Eksperimental ishlarning natijalari o'quvchilarning intellektual rivojlanishining vositasi sifatida biz tomonidan ishlab chiqilgan fanlararo integratsiyaning pedagogik texnologiyasi samarali ekanligini va kichik yoshdagi o'quvchilarning intellektual rivojlanishi uchun asos bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi.

Amalga oshirilgan tadqiqot to'liq va to'liq deb da'vo qilmaydi, shu munosabat bilan keyingi olib boriladigan izlanishlarda ko'rib chiqilayotgan mavzuning fanlararo integratsiyaning yangi shakllarini ishlab chiqish, o‘quvchilarning bilimlarini yaxlit idrok etish muammolari fanlararo integratsiyaga asoslangan umumiy o‘rta ta’lim maktabda o'quv jarayoniga kompleks yondashuv.bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, matematika va kimyo fanlarini integratsiyada o‘qitilishi o‘quvchilarni intelektual qobiliyatini shakllanishida va rivojlanishida muhim rol o‘naydi. Har bir fanni o‘rganish o‘ta muhimligi, ularni ajratib bo‘lmasligi bo‘yicha o‘quvchilarda tasavvur shakllanadi va rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atqiyayeva S. I., Komilov K.U. Developing intellectual capabilities of students in teaching chemistry. Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». 2021, Выпуск №10 (том 3), 684-692 стр.
2. Atqiyayeva, I. S., Komilov, Q. O., Fayziyev, X. Kimyoni o‘qitishda o‘quvchilarning intellectual imkoniyatlarini rivojlantirishda elektron taqdimotlarning qo‘llanilish// Academic research in educational sciences. 2021. №4-maxsus son, 47-52 b.
3. Аллаев Ж., Комилов К.У. Педагогические технологии как дидактический инструмент при подготовки специалиста в техническом ВУЗе. Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: Инновациялар ва истиқболлар мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари/ Ташкент, 2018. 364-366 бетлар.
4. Аллаев Ж. Использование личностно-ориентированного обеспечения на занятиях химии. Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: Инновациялар ва истиқболлар мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари/ Ташкент, 2018. 366-368 бетлар.
5. Аллаев Ж. Использование студентоцентрированного обучения на уроках химии / Материалы международной конф. Проблемы современного непрерывного образования: Материалы Международной научной конференции по инновациям и перспективам/ Ташкент, 2019, том 1, стр. 366.
6. Badalova S. I., Komilov Q. U. Case technology in chemistry lessons. Academic Research in Educational Sciences. 2020, Vol. 1 No. 1. . Page 262-265.
7. Badalova S. I., Komilov Q. U. Intellectual training of students of technical institute. Academic Research in Educational Sciences. 2020, Vol. 1 No. 1. Page 266-274.
8. Yodgarov B. Applying ICT for improvement general chemical education// Society and innovations.2021. №4. Page 258-263.
9. Курбанова Г. Дж. Интеграция химии и русского языка// Касб-хунар таълими. 2019. №2. 36-40 бетлар.
10. Komilov K.U. Case-study method for teaching general and inorganic chemistry// Academic Research in Educational Sciences.2021. №6. Pade 436-443.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

11. Komilov K.U., Kurbanova A.Dj. Umumiy va anorganik kimyoni o‘qitish jarayonida talabalarni intellektual qobiliyatini shakllantirish// Academic research in educational sciences. 2021. №4-maxsus son, 73-78 b.
12. Рустамова Х.Н., Эштурсунов Д.А. Роль информационных и коммуникационных технологий в обучении общей и неорганической химии // «Экономика и социум». 2021. №5(84).
13. Элмурадов Б., Комилов К.У. Математика для изучения химии в техническом ВУЗе. Материалы международной конференции/ Шымкент. 2019. №2. Стр.239-242.

UO‘T:553.3

ELEKTRON TA'LIMNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Kamanov Bekzod Maxramovich TATU Nurafshon filiali, bekzod.kamanov@bk.ru
Kodirov Olmos Gafurovich TDAU Samarqand filiali

Annotatsiya. *XXI asr o‘quvchlarini intelektual qobiliyati zamon talabiga mos ravishda kimyoviy shakllantirish oson ish emas, maqolada buni matematik yo‘l bilan amalga oshrish yo‘llari va usullari ko‘rib chiqilgan va amalga oshirish usullar keltirib o‘tilgan. Bunda nimalaga e’tibor berish kerak, qanday yondoshish kerakligi ochib berilgan. O‘quvchilarda mavzu bo’yicha hisoblash masalalarini yechish ko’nikmalarini shakllantirish, ularni test shaklida bajarishga sarflanadigan vaqtni qisqartirish.*

Ka’lit so‘zlar. *intellektual qobiliyat,shakllantirish, rivojlantirish, matematika, kimyo, eritma, kontsentratsiya, ko’rsatma kartalari, vazifalar, taqdimot.*

ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Каманов Бекзод Махрамович Нурафшанский филиал ТУИТ bekzod.kamanov@bk.ru
Кодиров Олмос Гафурович Самаркандский филиал ТГАУ

Аннотация. *Химически формировать интеллектуальные способности учащихся 21 века в соответствии с потребностями времени – непростая задача, в статье рассматриваются пути и методы реализации этого математически и приводятся методы реализации. Объясняет, на что обратить внимание и как к этому подступиться. Сформировать у учащихся умения решения расчетных задач по теме, сократить время, затрачиваемое на их выполнение в тестовой форме.*

Ключевые слова. *интеллектуальные способности, формирование, развитие, математика, химия, раствор, концентрация, инструктивные карты, задачи, презентация.*

ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF ELECTRONIC LEARNING

Kamanov Bekzod Makhramovich Nurafshan branch of TUIT bekzod.kamanov@bk.ru
Kodirov Olmos Gafurovich Samarkand branch of TSAU,

Abstract. *It is not an easy task to chemically form the intellectual abilities of 21st century students in accordance with the needs of the times. The article examines the ways and methods of implementing this mathematically and gives the methods of implementation. It explains what to pay attention to and how to approach it. To form in students the ability to solve calculation problems on the topic, to reduce the time spent on their implementation in a test form.*

Key words. *intellectual abilities, formation, development, mathematics, chemistry, solution, concentration, instruction cards, tasks, presentation.*

Kirish

Hozirgi jamiyatda pedagogikada texnologiyadan foydalanish muqarrar amaliyotga aylandi. Zamonaviy ta'lim tizimlari o'qitish uchun qo'shimcha elektron qurilmalardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Shubhasiz, texnologik vositalar o'qituvchilarga o'quvchilar o'rtasida tushunchalarni tushunishni tezlashtirishda yordam beradi. O'zbekistonda kattalar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, kamida 58% smartfon, 42% planshet va 32% elektron kitobxonlarga ega. Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, hatto kattalar ham elektron ta'lim yoki elektron ta'limni asoslovchi zamonaviy texnologiyalarga tezda moslashayapti. Pedagogikada planshetlar, ilovalar va interfaol doskalardan foydalanish o‘quvchilarni bilim olishga undashini ham ko‘plab tadqiqotlar ko‘rsatdi. Darhaqiqat, ko'pchilik o'qituvchilar texnologiya o'quvchilarning o'ziga bo'lgan hurmatini oshiradi deb hisoblaydilar va bu ularni maktabga borishga undaydi. Bundan tashqari, elektron ta'lim talabalarga o'z tezligida o'rganish imkoniyatini beradi. Shunga qaramay, ko'rsatmalarni etkazib berish uchun elektron qurilmalardan foydalanishda turli xil kamchiliklar paydo bo'ladi. Ushbu kamchiliklarga texnologiyaga bog'liqlikning kuchayishi, materiallarning nomuvofiqligi, qimmatligi, kontentning nomuvofiqligi va boshqalar qatorida o'qituvchi va talaba o'zaro munosabatlarining kamayishi kiradi. Ushbu tadqiqot hujjati elektron ta'limning sabablari va oqibatlarini o'rganadi. U texnologik ta'limning zararini bartaraf etish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishning axloqiy strategiyasini o'rganishga intiladi[1].

Muammoni aniqlash.

Texnologik resurslarning ta'limga ta'siri so'nggi o'n yillikda o'qituvchilar va o'quvchilar uchun doimiy ravishda yangi muammolarni keltirib chiqardi. Elektron ta'lim muhitida o'qitish jarayoni eski uslubdagi sinfdagi vaziyatdan farqli ravishda amalga oshiriladi. Ushbu o'zgarishlar tezda o'qituvchilar va talabalar uchun yangi tanishuvlarni keltirib chiqarmoqda. Elektron ta'limni qabul qilish bilan bog'liq muammolarni tushunish uchun elektron ta'lim nimani anglatishini aniqlash kerak. Archambault elektron ta'limni o'quvchiga ma'lumot uzatish uchun texnologik vositalardan foydalanadigan ta'lim jarayoni sifatida belgilaydi. Elektron ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'qituvchilar va o'quvchilar duch keladigan turli muammolarni hisobga olish kerak. Shunday qilib, pedagogikaning mohiyatini saqlab qolish uchun o'qituvchi va o'quvchi rolini an'anaviy muhitdan virtual makonga ehtiyotkorlik bilan o'tkazish kerak[2].

Elektron ta'limning afzalliklari

O'rganish - bu ish va shaxsiy hayot ta'sir qiladigan kundalik faoliyat. Bu akademik yoki martaba maqsadlariga erishish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Onlayn o'quv muhitining paydo bo'lishi o'rganish uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etdi. Natijada zamonaviy maktablarda elektron ta’lim yuqori darajada qo‘llanilmoqda. Deyarli har bir akademik sohada bilimlarni uzatishning soddaligi va qulay usuli tufayli ko'plab eskirgan universitetlar bepul onlayn kurslarni taklif qila boshladilar. Garchi ko'pchilik hali ham eski uslubdagi pedagogik usullar ta'lim berishning eng yaxshi usuli ekanligiga ishonishsa-da, eLearning bir necha jihatdan yaxshiroq alternativ ekanligini isbotladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, elektron ta'limning eng muhim afzalliklari kompyuterlar va smartfonlarning vaqtni, harakatlarni va xarajatlarni kamaytirish qobiliyatiga bog'liq.

Dastlab, elektron ta'lim moslashuvchanlikni keltirib chiqaradi. Onlayn muhitda o'rganishni uyda o'qitishga qaraganda qisqaroq muddatlarda bajarish mumkin; shuning uchun u kundalik

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

dasturlarga mos kelishi mumkin. Shuning uchun talabalar butun kunni sinf muhitiga bag'ishlashlari shart emas. Kontent talabalarga ixtisoslashgan mavzularga e'tibor qaratgan holda ma'lum vaqt oralig'ida o'rganish imkonini beruvchi modullarga bo'linadi[3].

Elektron ta'limning kamchiliklari

Elektron ta'limning yuqoridagi afzalliklariga qaramay, pedagogikaning ushbu usuli bilan birga keladigan zararlarni yo'q qilib bo'lmaydi, chunki ular o'quv jarayoniga turli xil ta'sir ko'rsatadi. Boshida nazoratsizlik bor. O'zini past baholaydigan va motivatsiyaga ega bo'lgan talabalar boshqalardan orqada qoladilar, chunki o'rganishning aniq vaqti yo'q. An'anaviy o'quv muhitida ko'rinib turganidek, muntazam darslarning yo'qligi vaqtni yaxshi bilmaydigan talabalar uchun qiyinchilik tug'diradi.

Bundan tashqari, ba'zi elektron ta'lim har bir o'quvchiga yoqmaydi. Misol uchun, kuchli faollar va pragmatistlar an'anaviy o'qitish usullarini afzal ko'radilar, ularda ular nuqtai nazarga birma-bir e'tiroz bildirishlari mumkin. Natijada, elektron ta'lim ushbu guruhlarga qiyinchilik tug'diradi, chunki ular boshqa o'qitish uslublaridan foydalangan holda kitoblarni yaxshi o'rganishadi. Ba'zi o'quvchilar kontentni onlayn o'qishda yaxshi bo'lishsa-da, boshqalari sinf muhitida to'g'ridan-to'g'ri ma'ruzalarni o'qishga qulay[4].

Muammoni hal qilish - elektron ta'limning zararini hal qilish uchun amal qilish kerak bo'lgan axloqiy strategiya.

Elektron ta’lim o‘quv-tarbiya jarayonining ajralmas qismiga aylanganini inkor etib bo‘lmaydi. Texnologiyaning kechayu kunduz o'sib borayotgan sur'ati doimiy ravishda elektron shaklda o'qitishning yangi usullarini yaratmoqda. Ijtimoiy ta'lim - bu ko'plab kognitiv olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan pedagogikada yuqori baholangan axloqiy strategiya. Shuning uchun elektron ta'lim muvaffaqiyatida ijtimoiy ta'limning mohiyatini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Ushbu amaliyotni rag'batlantirish elektron ta'limning kamchiliklarini bartaraf etish va uning fazilatlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot ishiga asoslanib, ijtimoiy ta'lim nazariyasini elektron ta'limga integratsiyalash elektron ta'lim bilan bog'liq zararlarni bartaraf etish uchun muammolarni hal qilishning axloqiy strategiyasi sifatida ishlatilishi mumkin. Ushbu strategiya norasmiy ta'limni rivojlantirishga asos bo'lib, unda talabalar turli xil akademik masalalar bo'yicha o'zaro bog'lanishlari, almashishlari, hamkorlik qilishlari va fikr almashishlari mumkin. Rosenthal va Zimmerman ijtimoiy ta'limni bevosita kuzatish, taqlid qilish va namoyish qilish orqali bir-biridan interaktiv bilim olishni nazarda tutadigan usul sifatida belgilaydi. Zamonaviy dunyo bilimlarning murakkablashuvi bilan ajralib turadi. Shunday qilib, odamlar doimiy ravishda o'zgarib turadigan ekologik vaziyatlarga to'g'ri munosabatda bo'lishga imkon beradigan elita o'rganish ko'nikmalariga muhtoj. Dunyo tobora ko'p qirrali va nuansli bo'lib borar ekan, akademik va martaba maqsadlariga erishish insonning ijodiy fikrlashi, tegishli reaktsiyasi, moslashuvi va samarali muloqoti bilan belgilanadi. Natijada, o'quvchilar pedagogikadagi yangi o'zgarishlar talablariga javob berishga tayyor bo'lishlari kerak. Ushbu maqsadga erishish uchun yuqori darajadagi fikrlashni qo'llash imkonini beradigan tarzda tashkil etilishi kerak.

Elektron ta'limning uzilishlari va oqibatlarining amaliy echimlari. Yangi raqamli bo'linishni hal qilish

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ushbu kontseptsiya ko'pincha raqamli qurilmalardan foydalangan holda ma'lumotlarga muvaffaqiyatli kirishi mumkin bo'lgan odamlar va ma'lumotga ega bo'lmaganlar o'rtasidagi bo'shliqqa ishora qilish uchun ishlatiladi. Elektron ta'lim faqat kompyuterlarga kirish va odamlarga texnologiyani maksimal darajada oshirish imkonini beruvchi bir qator masofaviy resurslardan foydalanish qobiliyatiga ulanishdan tashqarida. Shuning uchun talabalar nafaqat raqamli qurilmalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari, balki ulardan o'quv maqsadlarida samarali foydalanishni ham bilishlari kerak. Ta'limda o'qituvchilar qimmatli ta'lim natijalarini izlash uchun raqamli qurilmalarga kirish va texnologik resurslardan foydalanish o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga e'tibor qaratishlari kerak. Raqamli tafovut elektron ta'lim muhitida o'qituvchilar va talabalar uchun dolzarb muammodir. Ushbu muammoni hamkorlikka yordam beradigan o'quv muhitini yaratish orqali hal qilish mumkin. Talabalarga tushunchalarni tushunishni kuchaytiruvchi turli xil ta'lim texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatlarini oshirish maqsadida hamkorlik qilish, baham ko'rish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatini berish kerak. O'qituvchi onlayn manbalardan ma'lumot olish uchun o'quvchining imkoniyatlarini va/yoki texnologik resurslardan foydalanish samarasizligini hisobga olishi kerak. O'quvchilarni, shuningdek, onlayn ta'lim maqsadlariga asoslanib, tegishli ma'lumotni izlashga va uni akademik nutqda boshqalarning nuqtai nazari bilan bog'lashga undash kerak.

Tegishli kurs loyihalarini ishlab chiqish

Noto'g'ri ishlab chiqilgan kurs dizaynlari o'quvchilar va o'qituvchilar uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan o'rganish tajribasining etarli emasligiga olib kelishi mumkin. Onlayn darsni ishlab chiqish, loyihalash va amalga oshirish uchun sarflangan vaqt elektron ta'lim muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega. Archambault tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar o'quvchilarni onlayn ta'lim portallariga jalb qilishning to'g'ri usullarini integratsiyalashganiga ishonch hosil qilish uchun eLearning darslarini ishlab chiqishga ko'proq vaqt sarflashadi. Onlayn kurslar, shuningdek, talabalarga ish muhiti bilan tanishish imkonini beruvchi kichik kurslarni yaratish orqali jismoniy dunyo bilan o'zaro aloqa qilish imkoniyatlarini taklif qilishi kerak. Onlayn kurslarni ishlab chiqishda vaqt etishmasligi muammosini engish uchun o'qituvchilar eLearning professional jamiyatlari bilan o'quvchilarni o'ziga jalb qiladigan tegishli tarkibni almashish, rivojlantirish va yaratish uchun hamkorlik qilishlari kerak[5].

Xulosa

Elektron ta'lim, shubhasiz, o'qitishning innovatsion yondashuvidir. Darhaqiqat, u pedagogikaning har tomonlama qamrab oluvchi texnikasi sifatida qaraladi, u asosan texnologik vositalarni o'rganishga integratsiya qilish zarurati tufayli bugungi o'zgaruvchan ta'lim talablariga javob beradi. Onlayn ta'lim muhitlari hamkorlikni, almashishni va turli xil ilmiy resurslarni birlashtirishni talab qiladi, bu esa virtual vositalar orqali samarali ta'lim berishni kuchaytiradi. Shunga qaramay, o'quvchilarning sozlamalaridagi muvaffaqiyati kontentni yetkazib berishga to'sqinlik qiluvchi muammolarni hal qilishning turli yondashuvlariga bog'liq. Bunday qiyinchiliklar raqamli tafovut va boshqalar qatoriga mos kelmaydigan kontentni taqdim etishni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar ushbu muammolarni hal qilishda asosiy rol o'ynaydi, chunki ta'lim berish uchun texnologik resurslardan foydalanish o'quvchilarni bosib olishi mumkin. Shu sababli, elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va joriy etish tegishli ravishda ishlab chiqilgan kursning umumiy jihatlarini tekshirishni talab qilishi kerak.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Патент РУз №IAP 05322 от 14.12.2016. Усилитель напряжения с динамической нагрузкой / Каримов А.В., Ёдгорова Д.М., Абдулхаев О.А., Каманов Б.М.

Sharqning mashhur mutafakkiri Abu Nasr Farobiy “O‘qituvchi va rahbarning vazifasi – dono davlat rahbari vazifasiga o‘xshaydi, shu sababli o‘qituvchi eshitgan va ko‘rganlarining barchasini eslab kolishi, aql farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i lozim. Shu bilan birga o‘z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo‘lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi” deb ta‘kidlaydi.

Ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiy ham o‘qituvchi mehnatini xolisona baxolab “Agar shogird podsholikka erishsa ham unga (muallimga) qulliq qilsa arziydi”. “Xaq yo‘lida kim senga bir xarf o‘rgatmish ranj ila, aylamak bo‘lmas ado oning xaqqin yuz ganj ila” kabi satrlarni bitgan.

Allomalarimiz tomonidan ta‘lim jarayonida o‘qituvchi shaxsi, uning kasbiy xususiyatlari borasidagi fikrlar atroflicha bayon kilingan.

O‘qituvchilik kasbiga allomalarimiz tomonidan bildirilgan qimmatli fikrlarini o‘rganib va ularni tahlil qilib chiqilsa Sharqning mashhur mutafakkiri Abu Nasr Farobiy fikriga asosan, ta‘lim va tarbiya berish bir-biridan fark qiladi. Uning fikricha, ta‘lim so‘z bilan, bir narsani uqtirish, o‘rganish bilan amalga oshiriladi, yoshlar nazariy bilimlarni shu ta‘lim yordamida egallaydilar.

Tarbiya esa, amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladi, yoshlar ongiga tarbiya ma‘lum ish-xarakat, kasb-hunar, odob orqali singdiriladi. Ta‘lim va tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy xarakat-odat, malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga karab yuzaga keladi.

Ta‘lim berishda, Abu Nasr Farobiyning ta‘biricha, yoshlarni nazariy bilimlarga, falsafiy ilmlarga o‘rgatish, ular aqlini barcha fanlarning asoslari bilan boyitish nazarda tutiladi. Tarbiyalashda esa, yoshlarga ma‘naviy-axlokiy qoidalar, xulq-odob meyorlari, amaliy san’at, ya‘ni turli hunar o‘rgatiladi, ular ongiga faoliyat tartiblarini singdirish asosiy maqsad qilib qo‘yiladi. Ta‘lim ham, tarbiya ham yoshlarning xaqiqiy inson bo‘lib yetishuvi uchun nihoyatda zarurdir.

Insonlar turli ilm, hunar faoliyatiga moyilliklari va qobiliyatliliklari bilan tabiatan bir-biridan farq qiladi. Teng tabiiy xislatlarga ega bo‘lgan odamlar esa, o‘z tarbiyasi (malakalari) bilan farq qiladi.

Tarbiyasi jihatdan teng bo‘lganlar esa, bu tarbiya natijalarining turlicha bo‘lganligi bilan bir-birlaridan farq qiladilar.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tarbiya jarayoni, Abu Nasr Farobiyning fikricha, tajribali pedagog, o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi, boshqarib turilishi va ma‘lum maqsadlarga yo‘naltirilishi lozim, chunki “har bir odam ham baxtni va narsa-hodisalarni o‘zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o‘kituvchi lozim”.

Masalan, Farobiy bilimdon, ma‘rifatli, yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi:

“Har kimki ilm-xikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘-salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi ahloq va odobli bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo‘lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notik bo‘lsin; ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real, moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin”.

Abu Nasr Farobiy insonning ijtimoiy mohiyatini chuqur xis etgan holda, ta‘lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy muhit undagi fazilatlarni rivoj topishi bilan birga, yangi fazilatlarni ham vujudga keltirishi mumkinligini kayd etib o‘tganligini bilishimiz mumkin.

O‘qituvchilik kasbiga allomalarimizdan Alisher Navoiy hazratlari quyidagi baytini bejizga aytib o‘tmaganlar:

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado haqqin oning yuz ganj ila.

Haqiqatdan ham, kim senga dunyo-yu ohiratingda muhtoj bo‘ladigan masalada bir harfni senga ta‘lim bersa, u inson sening otangdekdir. Dono xalqimiz “Ustoz otangdek ulug‘” deb bejizga aytmagan. Bunday ustozlik martaba har kimga ham nasib etavermaydi. Zero, ilm Allohning mulki va ulug‘ ne’mati bo‘lib, uni o‘zi saralab olgan bandalariga in’om etadi.

Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning muborak bir hadislarida ilm talabidagi insonga uch turli kishilarning duolari: ustozi, ota-onasi va o‘zining kechalari bilan qilgan ibodat va duolarining natijasida ilm hosil bo‘ladi.

Britaniyadagi mashhur jurnalistlardan biri muallif va boshlovchi Endryu Marr “Dunyo tarixi” turkum ko‘rsatuvida bugungi o‘zbeklarning ajdodlarini alohida hurmat bilan tilga oladi.

Xususan, mazkur dasturlardan birida o‘z davrida butun Islom olami olimlariga yetakchilik qilgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy dahosiga atalgan lavha ham o‘rin olgan.

G‘arbda ismi Algoritm, deb buzib talaffuz qilinadigan olim yoki al-Xorazmiy bo‘lmasa, kompyuter yo qo‘l telefonlari kashf etilmas edi, shuningdek, har gal qo‘lingga mobil telefoningni olganingda, unutma! – deb xitob qiladi atoqli jurnalist.

Demak, har bir qo‘l telefoni ichida ajdodimiz Islom olamining yetuk namoyandasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nomi bilan bog‘lik ekanligi to‘g‘risida fikr bildirilganligidir.

Hozirgi zamon jadal rivojlanishi bilan ta‘lim va tarbiya jarayoni o‘z ahamiyatini yo‘qotmayotganligini rivojlangan davlatlardan Janubiy Koreya hamda kun chiqar mamlakat Yaponiyada o‘qituvchilik kasbi bilan shug‘ullanayotgan pedagoglar xalq, jamiyat, davlat rivojlanishida milliy urf-odatlar, an’analarga sodiqlik va milliy mentalitetga xos bo‘lgan ta‘lim-tarbiyani samarali amalga oshirishayotgani barchaga ayondir. Ushbu davlatlarda o‘qituvchilar qo‘magida o‘quvchilar har bir kunining ko‘p qismini intelektini rivojlanishi uchun sarflaydi, ya‘ni ta‘lim-tarbiya olish, uy vazifalarini tayyorlash hamda o‘zlari yoqtirgan to‘garaklarga borish bilan band bo‘ladilar. Ushbu davlatlarda ta‘lim-tarbiya beruvchi ustozlarga, ota-onaga hamda keksa va nuroniylarga yuksak hurmat ko‘rsatilishi oiladagi tarbiya o‘chog‘I, mustahkam avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tib kelayotganligida deb tushinish mumkin.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

XXI asrda fan va texnika rivojlanib borishi bilan yoshlarning dunyo qarashi ham tobora o‘zgarib bormoqda, lekin sir emaski jamiyatda insoniyat mavqei tabaqalanishni vujudga keltirmoqda va bunday holatlar farzandlarda egoizmni vujudga kelishiga asos bo‘lishi kuzatilmoqda.

Moddiy jihatdan to‘la ta‘minlangan bolalarda egoizm(xudbinlik) va egotsentrizm, ya‘ni har qanday voqea-xodisaning markazida turish, hammaning diqqat-e’tiborida bo‘lish istagi ustunlik qilish holatlari kuzatilishi mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki yoshlar ta‘lim-tarbiyasida nafaqat o‘qituvchining faol ishtiroki, balki farzand kelajagi uchun ota-onalarning mas’ulligini oshirilishi talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov “Ta‘limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta‘limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”dir deb ma‘naviyat va ma‘ifat dunyosi bilan qiziqadigan barcha insonlar foydalanishlari mumkin bo‘lgan “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarlarida bejiz bunday fikrlarga to‘xtalib o‘tmaganlar, ya‘ni komil insonni voyaga yetkazish ta‘lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim ekanligini bildirganlar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilsak zamonaviy o‘qituvchi shaxsi timsolini yaratishda albatda o‘z imidjiga ega bo‘lishi talab etiladi.

Imidj tushunchasi reyting, mashhurlik, obro‘, joziba, maftunkorlik, e’tibor, nufuz va boshqa tushunchalar bilan hamohang. Shu bois imidj nafaqat obraz, qiyofa, balki unga bildirilgan munosabat va u haqdagi fikrlar majmuidir.

Imidjning asosiy vazifasi - boshqa insonlarning tilaklariga javob berish. Ijobiy imidj konflikt vaziyatlarni keltirib chiqarmaydi, ish samaradorligi oshadi, muvaffaqiyatga erishish osonlashadi, sog‘lom muhit yaratiladi, hamkorlik, qo‘llab-quvvatlash vujudga keladi.

Shu jihatdan pedagog uchun kasbiy imidj yaratish juda muhim. Tarbiyachining tashqi ko‘rinishi estetik jihatdan ifodali bo‘lishi zarurdir.

Zamonaviy o‘qituvchi shaxsi quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi tabab etiladi:

– pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;

– milliy madaniyat va umuminsoniy kadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma‘naviy barkamol;

– vatanparvarlik burchini to‘g‘ri anglagan, e’tikodli fukoro;

– ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mukammal egallagan;

– O‘qituvchilik kasbini va bolalarni komil inson bo‘lishiga chin ko‘ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko‘maklashadigan;

– erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo‘lmog‘i darkor.

Yuqoridagi individual sifat va qobiliyatlarga ega bo‘lgan zamonaviy o‘qituvchi timsoli shakllangan mutaxassislar ta‘lim-tarbiya faoliyatini samarali tashkil etilishi natijasida ajdodlarimizning davomchilari, yuksak ma‘naviyatli komil inson shaxsini shakllanishiga o‘zlarining hissalarini qo‘shishlariga ishonch bildirishimizga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Askar Zunnunov “Pedagogika nazariyasi” T., “Aloqachi” – 2006 y
2. Islom Karimov “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” T.: “Ma‘naviyat”, 2008. –176 b.
3. Islom.uz portali tahririyati https://islom.uz/maqola/11802

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

4. Toshpo‘latov I.I., Akbarov S.Yu. “Ijtimoiylashuv jarayonida o‘smir xulqida uchraydigan ayrim salbiy alomatlar va uni bartaraf etish” Pereyaslav-Xmelnitskiy «Aktualnie vizovi sovremennoy nauki» ISCIENCE.IN.UA II Mejdunarodnaya nauchnaya konferensiya 26-27 iyunya 2016 g.
5. Toshpo’latov I., Usmonova M., PEDAGOGICAL PROCESS, PECULIARITIES OF PEDAGOGICAL PROCESS, PRINCIPLES OF ITS ORGANIZATION.// "Teoriya i praktika sovremennoy nauki" 2017. №5(23) – S. 1130-1133.
6. II Toshpulatov. PEDAGOGICAL PROCESS, PECULIARITIES OF PEDAGOGICAL PROCESS, PRINCIPLES OF ITS ORGANIZATION //Теория и практика современной науки. – 2017. 5 (23), 1130-1133.
7. TI Ikromjonovich. SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE EMBODIMENT OF THE PERSONALITY OF THE MODERN TEACHER Journal of Critical Reviews 6 (5), 2019.
8. TI Ikromjonovich. SCIENTIFIC AND PRACTICAL ASPECTS OF MANAGEMENT COMMUNICATION AND PUBLIC SPEAKING SKILLS AND SPEAKING METHODS IN MANAGEMENT ACTIVITIES Conference Zone, 233-236. 2021.
9. MB Bulturbayevich, TI Ikromjonovich, AA Ismoiljon o’g’li. MASTERY OF RHETORIC IN MANAGEMENT. Conference Zone, 287-291. 2021.
10. MB Bulturbayevich, TI Ikromjonovich. GENDER ISSUES IN GOVERNANCE //Conference Zone, 277-280. 2021.
11. MB Bulturbayevich, TI Ikromjonovich. HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF MANAGEMENT THEORY AND PRACTICE //Conference Zone, 309-312. 2021.
12. MB Bulturbayevich, TI Ikromjonovich, MA Xurshidjon og, ...LEADERSHIP AND LEADERSHIP IN MANAGEMENT PSYCHOLOGY. Conference Zone, 271-276. 2021.
13. MB Bulturbayevich, TI Ikromjonovich. REQUIREMENTS FOR MODERN MANAGEMENT PERSONNEL// Conference Zone, 260-264. 2021.
14. MB Bulturbayevich, TI Ikromjonovich. THE ROLE OF MANAGEMENT PSYCHOLOGY IN SOCIAL LIFE// Conference Zone, 265-267.2021.
15. MB Bulturbayevich, TI Ikromjonovich, HN Mahmudjon o’g’li. TYPES OF COMPETENCE Conference Zone, 281-286. 2021.
16. MB Bulturbayevich, TI Ikromjonovich, NM Zohidjon ogli, MS Hayrullo ogli. THE MAIN DIRECTIONS OF MODERN MANAGEMENT PSYCHOLOGY. Conference Zone, 292-294. 2021.
17. MB Bulturbayevich, TI Ikromjonovich, S Murodillo. CAREER STAGES Conference Zone, 1-5. 2022.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARDA EKOLOGIK BILIM VA MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY METODALOGIK ASOSLARI

Andijon Davlat Universiteti
Boshlang'ich ta'lim pedagogika kafedrasi o'qituvchisi:
Мамахonova Jumagul Niyozbekovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish, tabiat haqidagi bilimlarini mashg'ulotlarda shakllantirish, ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish, badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, bolalarda jonli va jonsiz tabiat haqida tushunchalarni rivojlantirish, axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning o'ziga xosligi, bolalarni tabiatga bo'lgan qiziqishlarini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va amaliy mashg'ulotlarni tog'ri tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *atrof-tabiat, ekologik ta'lim – tarbiya, jonli va jonsiz tabiat, tabiiy boyliklar,tabiiy resurslar, Er, suv, hayvon, o'simlik, tirik organizam, ekologik savodxonlik, ekologik ong*

THEORETICAL METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL KNOWLEDGE AND CULTURE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Andijan State University
Teacher of the Department pedagogy of primary education:
Mamakhonova Jumagul Niyozbekovna

Annotation: *this article describes the peculiarities of environmental education of children of primary school age, the formation of their knowledge about nature in training, the organization of educational and educational work, the formation of artistic creative abilities, the development of concepts about living and inanimate nature in children, the formation of moral and aesthetic qualities, the organization of educational and educational work, methodological recommendations are given on the development of children's interests and creative abilities in nature and the organization of practical activities.*

Keywords: *environment-nature, environmental education – education, living and inanimate nature, Natural Resources, Natural Resources, Land, Water, animal, plant, living organism, environmental literacy, environmental consciousness.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ И КУЛЬТУРЫ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Андижанский Государственный Университет
Преподаватель кафедры педагогики начального образования:
Мамахонова Джумагуль Ниязбековна

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы экологического воспитания детей младшего школьного возраста, формирования их знаний о природе на занятиях, организации учебно-воспитательной работы, формирования художественно-творческих способностей, развития у детей представлений о живой и неживой природе, формирования нравственно-эстетических качеств, специфики организации учебно-воспитательной работы по ознакомлению с природой, даны методические рекомендации по развитию у детей интереса и творческих способностей к природе и правильной организации практических занятий.*

Ключевые слова: *окружающая природа, экологическое воспитание, живая и неживая природа, природные ресурсы, природные ресурсы, земля, вода, животное, растение, живой организм, экологическая грамотность, экологическое сознание.*

Kirish

So'nggi yillarda dunyoda ekologik holat tobora murakkablashib bormoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik vaziyat, ekologik tarbiya, ekologik ong va tabiiy boyliklarni kelgusi avlodga tejamkorlik bilan foydalanib etkazish bugungi kunning dolzarb muammolaridir. Inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar naqadar keskinlashgani sari tabiatni saqlab qolishning birdan-bir yo'li boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik bilimlar asosida amalga oshirilishi mumkinligiga asos bo'ladi. Hozirgi davrda ekologik madaniyat barcha turdagi ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida nazarda tutilgan ekologiya o'quvining majburiyligiga oid talablar yetarli darajada bajarilmayapti; amaldagi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmunan ekologik bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar bilan zarur darajada boyitilmagan; ekologik ta'lim yo'nalishida ilg'or milliy va xorijiy tajribani o'rganish, ular asosida ta'lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning aniq parametrlari ishlab chiqilmagan; ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalda bo'lgan ta'lim dasturlari bugungi kundagi global ekologik muammolarni bartaraf etish, mavjud ekologik xavf-xatar darajasini kamaytirish, tabiiy muhitni qayta tiklashga qaratilgan umummilliy tadbirlar mohiyati bilan muvofiqlashtirilmagan; (muqaddimaning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-yil, 09/21/320/0482-son) Respublikamizda 1992-yil 8-dekabrda bo'lib o'tgan Oliy Kengashining o'n birinchi sesiyasida qabul qilingan Konstitutsiyaning 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" - deb belgilab qo'yilgan. Shundan kelib chiqib ekologik muammolarni oldini olish, tabiatni asrash, atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishni boshlang'ich yoshidan boshlash maqsadga muvofiq sanaladi. XXI asrga kelib insoniyatni tashvishga solayotgan muammolardan biri - atrof tabiiy holatini saqlash, uni yaxshilash va kelajak avlodlarimizga ham qoldirish masalasidir. Tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va atrof- muhitni muhofaza qilishda barcha ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilarning dolzarb vazifasi nafaqat o'quvchilarga ta'lim-tarbiya beribgina qolmay, balki ularga -bo'lajak ishchilar, qishloq xo'jaligi mehnatkashlari, kasb-kor va hunar egalari, mutaxassislarga ta'lim-tarbiya berish, balki ularning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirish, tabiat boyliklarini asrash va tabiatni muhofaza qilishga bo'lgan ma'naviy ehtiyojlarini rivojlantirish, shuningdek fan yutuqlarini, texnika va ilg'or tajribalarni tabiatni muhofaza etish faoliyatiga tadbiq etishlariga amaliy yordam ko'rsatishdi. Suv va havoning sofligi, yer va uning hosildorligi ko'p jihatdan pedagogning tabiatga nisbatan o'quvchilar qalbida qay darajada muhabbat uyg'ota olgani, ularni qanchalik tejamkorlik va oqilona xo'jalik yuritishga o'rgata olganiga bog'liqdir. O'quvchilarning ekologik madaniyatini oshirish ishlari dastlab noananaviy darslar o'tkazish, suhbatlar o'tkazish, matbuot materiallaridan ma'ruzalar o'qish va atrof muhit muhofazasiga old tadbirlar o'tkazish mumkin. O'qitishning amaliy mashg'ulotlarni tabiat qo'ynida, tozalash inshootlarida, zavod-fabrikalarda, ishlab chiqarish korxonalariga sayohatlar uyushtirib, o'quvchilarga tabiatni eng ko'p ifloslantirayotgan ishlab chiqarish jarayonlarini ko'rsatish muhim ahamiyatga egadir.

Ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi. Biroq, ekologik ta'limni amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili ekologik ta'limni tashkil etishda bu boradagi islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi jiddiy muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Barcha turdagi ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida nazarda tutilgan ekologiya o'quvining majburiyligiga oid talablar yetarli darajada bajarilmayapti; amaldagi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmunan ekologik bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar bilan zarur darajada boyitilmagan; ekologik ta'lim yo'nalishida ilg'or milliy va xorijiy tajribani o'rganish, ular asosida ta'lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning aniq parametrlari ishlab chiqilmagan; ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalda bo'lgan ta'lim dasturlari bugungi kundagi global ekologik muammolarni bartaraf etish, mavjud ekologik xavf-xatar darajasini kamaytirish, tabiiy muhitni qayta tiklashga qaratilgan umummilliy tadbirlar mohiyati bilan muvofiqlashtirilmagan; (muqaddimaning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda.

XXI asrga kelib insoniyatni tashvishga solayotgan muammolardan biri - atrof tabiiy holatini saqlash, uni yaxshilash va kelajak avlodlarimizga ham qoldirish masalasidir. Tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va atrof - muhitni muhofaza qilishda barcha ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilarning dolzarb vazifasi nafaqat o'quvchilarga ta'lim - tarbiya beribgina qolmay, balki ularga-bo'lajak ishchilar, qishloq xo'jaligi mehnatkashlari, kasb-kor va hunar egalari, mutaxassislarga ta'lim-tarbiya berish, balki ularning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirish, tabiat boyliklarini asrash va tabiatni muhofaza qilishga bo'lgan ma'naviy ehtiyojlarini rivojlantirish, shuningdek fan yutuqlarini, texnika va ilg'or tajribalarni tabiatni muhofaza etish faoliyatiga tadbiq etishlariga amaliy yordam ko'rsatishdir. Suv va havoning sofligi, yer va uning hosildorligi ko'p jihatdan pedagogning tabiatga nisbatan o'quvchilar qalbida qay darajada muhabbat uyg'ota olgani, ularni qanchalik tejamkorlik va oqilona xo'jalik yuritishga o'rgata olganiga bog'liqdir. O'quvchilarning ekologik madaniyatini oshirish ishlari dastlab noananaviy darslar o'tkazish, suhbatlar o'tkazish, matbuot materiallaridan ma'ruzalar o'qish va atrof muhit muhofazasiga old tadbirlar o'tkazish mumkin. O'qitishning amaliy mashg'ulotlarni tabiat qo'ynida, tozalash inshootlarida, zavod-fabrikalarda, ishlab chiqarish korxonalariga sayohatlar uyushtirib, o'quvchilarga tabiatni eng ko'p ifloslantirayotgan ishlab chiqarish jarayonlarini ko'rsatish muhim ahamiyatga egadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

A.S.Makarenko «Tarbiya to'g'risida ma'ruzalar» nomli kitobida shunday yozadi: «Siz bola bilan gaplashayotganigizda yoki unga biror narsani ko'rsatayotganingizda unga tarbiya berayapman deb o'ylamang. Bolalarni haqiqiy muallifligingiz ostida tarbiyalaysiz». Bolalarga ekologik tarbiya berishda ular ko'z oldida sodir bo'layotgan jonli, chiroyli misollarni keltirish lozim. Oilada aytilayotgan har bir so'z, har bir ohang, har bir qilinayotgan ishni bola to'g'ri qabul qiladi va shu muhit bola uchun ideal holat hisoblanadi. Bu borada xalqimiz o'rtasida «qush uyasida ko'rganini qiladi» degan ibora bejiz aytilmagan. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, inson aqlining rivojlanishi dastlabki 3-4-yilida 35 % ni, 4-8- yilida 30 % ni, 8-17-yilida esa 20 % ni va

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

undan keying yillarda 15 % ni tashkil qilar ekan. Shuni hisobga olib, ekologik tarbiyani asosan, bog'cha va maktablarda amalga oshirish samarali natijaga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-son qarori bilan Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Qabul qilingan O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish kontseptsiyasining bir nechta boblarida maktabgacha ta'lim tizimida, umumiy o'rta ta'lim tizimida, o'rta maxsus, professional ta'lim tizimida, oliy ta'lim tizimida, oily ta'limdan keying ta'lim tizimida, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bosqichlarida, maktabdan tashqari ta'lim tizimida ekologik ta'limni takomillashtirish lozimligi ta'kidlangan va bu kontseptsiyani amalga oshirilishidan kutilayotgan natijalar ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, yoshlar orasida ekologik bilim va madaniyatini targ'ib qilish, ekologiya sohasini ilg'or innovatsion texnologiyalarni jalb etgan holda yanada takomillashtirish, yoshlarning ona tabiatni sevish va uni ko'z qorachig'idek asrashga qaratilgan bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi. "Y.A.Komenskiy "Onalar maktabi"dagi 6-7 yoshli o'quvchilarda ekologik tushunchalarni rivojlantirish uchun quyidagi bilim va ko'nikmalarni olishni tavsiya etgan". Uning fikricha o'quvchilar: − tabiatdagi suv, suvning aylanishi, yer shari, ob-havo, tabiatdagi yog'ingarchiliklar yomg'ir, qor, yovvoyi va uy hayvonlari, mevali daraxtlar, parrandalar kabilarning nomini sanash; − kun va tun farqi hamda gallaktika haqidagi bilimlar, oy va quyosh ularni har kuni chiqishi va botishi haqidagi tasavvurlarni o'rganish;− o'zi yashayotgan joyning xususiyatiga muvofiq tog', dala, vodiy, qishloq daryo, shahar nima ekanligini bilishi kerak. Komenskiy tomonidan har bir kuzatilayotgan voqealikni tabiatga bog'lab tushuntirgan. U boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatini jalb etish kitoblarning nomini qiziqarli nomlab, mazmunini to'liq ifodalab bergan. Uning aytishicha, bu sohada mavjud narsalardan eng chiroylisi bog'ning turli manzaralaridan namuna olishdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Bolalarning ilmiy-amaliy dunyoqarashini shakllantirish maqsadida ular faqat ko'rsatilgan obyekt va voqelik bilangina emas, balki birgalikda jonli va jonsiz tabiatning sabab-oqibat aloqalari va munosabatlarini belgilaydi, tabiatdagi ma'lum qonuniyatlarni ochishga harakat qiladi. Tabiatfanini o'rgatish jarayonida o'qituvchi quyidagi vazifalarga e'tibor berishi lozim:

1) jonli va jonsiz tabiat va maktab atrofidagi, viloyatdagi, o'z yurtidagi kishilarning mehnati haqidagi tasavvur va tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish;

2) tabiatdagi va kishilar mehnatidagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish;

3) oddiy ilmiy dunyoqarashni shakllantirish maqsadida jonli va jonsiz tabiatdagi voqelikni bolalar bilan doimiy kuzatib borish;

4) aniq misollar asosida ashyolar va tabiat hodisalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ochib berish, tabiatning odamlar mehnatiga ta'sirini ko'rsatish;

5) tabiatni asrash amaliyoti haqidagi bilimni rivojlantirish yuzasidan o'tkazilayotgan tadbirlar bilan tanishtirish;

6) sanitariya-gigiyena haqidagi bilimlami shakllantirishda davom etish, shaxsiy va jamoa gigiyenasi ko'nikmalarini taraqqiy ettirish.

Tabiat va inson – bir butun. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi" o'quvchilarga ekologiya, insonning tabiatga ta'siri, «O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi», unga kiritilgan o'simliklar va hayvonlar haqida ma'lumotlar berish, tabiat va insonning o'zaro bog'liqligi haqida ularning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, ekologiya, O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tabiat va insonning o'zaro bog'liqligi haqida o'quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirish va kengaytirish. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi»ga kiritilgan o'simliklar va hayvonlar tasvirlangan rasmlar, darslik bilan ishlash.

Insonning tabiatga ta'siri. Inson tabiatdan oziq-ovqat mahsulotlari, uy-joy qurilish materiallari, suv, foydali qazilmalar va boshqalarni ko'p miqdorda olishi natijasida tabiatga ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Insonning tabiatga ta'siri, ayniqsa, keyingi asrlarda kuchaydi. Inson faoliyati natijasida shaharlar, qishloqlar, dalalar, bog'lar, suv omborlari, kanallar bunyod etildi.

Tahlil va natijalar

Shaxsiy va ijtimoiy gigiyena masalalariga, ayniqsa, bolalar o'z sog'liklarini saqlashi va mustahkamlashi uchun zarur bo'lgan tadbirlarga alohida e'tibor bermoq lozim. Ekologiya asoslari mavzusida ekologiya haqida umumiy taassurot beriladi. Jonli va jonsiz tabiat aloqasi, ekologik piramida, tabiatdagi organizmlarning o'zaro aloqasi,ularning o'z-o'zini himoya qilishi, ekologik halokat kabilarga alohida e'tibor berilishi zarur.Atrofimizdagi tabiat mavzusida, birinchidan uchinchi sinfgacha olingan bilimlar umumlashtiriladi. Joyni aniqlash mavzusi o'tilar ekan, o'quvchilar ekskursiya va amaliy mashg'ulotlar paytida gorizont chizig'i bilan tanishadilar. Agar maktab atrofida tekis, yaydoq joy bo'lmasa, o'qituvchi darsda jadvallardan yoki ko'rgazmali qurollardan foydalanishi mumkin. Joylarning rejasi, ularning shartli belgilari haqida tasavvurga ega bo'lgan o'quvchilar, xarita haqida oddiy bilimlarga ega bo'ladilar, uning shartli belgilarini o'qiydilar, undan, shuningdek, globusdan yurtimizning o'rnini topadilar, uning yuzasini, tabiatining rang-barangligini, janubdan shimolga tomon tabiat o'zgarib borishini tushunadilar. O'quvchilarning ekologik madanyatini oshirish ishlari dastlab noananaviy darslar o'tkazish, suhbatlar o'tkazish, matbuot materiallaridan ma'ruzalar o'qish va atrof-muhit muhofazasiga oid tadbirlar o'kazish muhim ahamyat kasb etadi. O'qitishning amaliy mashg'ulotlarni tabiat qo'ynida, tozalash inshootlarida bahs-munozara Seminar mashg'ulotlarini o'tkazish mumkin. Holbuki tabiat va uning mahsullari inson uchun ekan, ulardan oqilona foydalanish kerak. Yerga, suvga, hayvon va o'simliklarga bo'lgan munosabatimizni tiklashimiz orqaligina Ona tabiatimizni saqlab qolishimiz mumkin. Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar asosida o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiyani oshirish, Ekologik tarbiyani umumkasbiy fanlar yuzasidan o'rganish hamda umum kasbiy fanlar nuqtai nazaridan taxlil qilishda; Ekologik mazmundagi mavzular bilan tanishishda umumkasbiy fanlararo bog'lanishni bosqichlar aro amalga oshirishda; "Boshlang'ich ta'lim" mutaxassisligining umumkasbiy fanlar yordamida bekologik tarbiyani o'rganilishida; Umumkasbiy fan mavzularining oddiylikdan murakkablik tomon o'rganilishida kasbiy masalalar yoritilishida; Ekologik tarbiyaning pedagogik jihatdan nazarga olinishida; Bolalarda tabiatga nisbatan muxabbat va g'amxo'rlik tuyg'ulari oila va maktabda tarbiyalanadi. Bolalarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashni yoshlikdan boshlash zarurligini mashhur kishilar xam o'zasarlarida ta'kidlab o'tishgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini tarbiyalashda tabiatning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyatini boshqa asarlarida ham yoritib borgan. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar zamonlararo turli mazmun va mohiyat kasb etib kelgan. Agarda ibtidoiy kishilar o'zlarini tabiatning bir bo'lagi sifatida his etib yashagan bo'lsalar, insoniyat svilizatsiyasi esa tabiatni bo'sundirishga harakat qilgan. Zamondoshlarimiz esa, vaqt o'tishi bilan tabiat ustidan «g'alaba» bu insoniyat falokati ekanligini anglay boshladi. Hozirgi zamon kishisida bunday ijodiy ko'rinishdagi dunyo qarashlarni ong va madaniyatni shakllantirishda kitobning roli beqiyosdir. XXI asrga kelib insoniyatni tashvishga solayotgan muammolardan biri - atrof tabiiy holatini

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

saqlash, uni yaxshilash va kelajak avlodlarimizga ham qoldirish masalasidir. Tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va atrof - muhitni muhofaza qilishda barcha ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasi muhim ro'l o'ynaydi. O'qituvchilaming vazifasi nafaqat o'quvchilar-bo'lajak ishchilar, qishloq xo'jaligi mehnatkashlari, kasb-kor va hunar egalari, mutaxassislarga ta'lim-tarbiya berish, balki ularning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirish, tabiat boyliklarini asrash va tabiatni muhofaza qilishga bo'lgan ma'naviy ehtiyojlarini rivojlantirish, shuninhdek fan yutuqlarini, texnika va ilg'or tajribalarni tabiatni muhofaza etish faoliyatiga tadbiq etishlariga amaliy yordam ko'rsatishdir. Suv va havoning sofligi, yer va uning hosildorligi ko'p jihatdan pedagogikning tabiatga nisbatan o'quvchilar qalbida qay darajada muhabbat uyg'ota olgani, ularni qanchalik tejamkorlik va oqilona xo'jalik yuritishga o'rgata olganiga bog'liqdir. O'quvchilarning ekologik madaniyatini oshirish ishlari dastlab noananaviy darslar o'tkazish, suhbatlar o'tkazish, matbuot materiallaridan ma'ruzalar o'qish va atrof muhit muhofazasiga old tadbirlar o'tkazish mumkin. O'qitishning amaliy mashg'ulotlarni tabiat qo'ynida, tozalash inshootlarida, zavod-fabrikalarda, ishlab chiqarish korxonalariga sayohatlar uyushtirib, o'quvchilarga tabiatni eng ko'p ifloslantirayotgan ishlab chiqarish jarayonlarini ko'rsatish muhim ahamiyatga egadir. Mashg'ulotlardan so'ng quyidagi bahs-munozara, seminar mashg'ulotlarini o'tkazish mumkin: «Inson va tabiat», «Inson va suv», «Inson va hayvonot olami», «Inson va o'simliklar dunyosi», «Inson va atmosfera», «Inson va Yer», «Yerning hozirgi va kelgusidagi holati» va boshqalar. Tarbiyaviy faoliyat jarayonida O'zbekiston Respublikasining «Tabiat muhofazasi va tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish to'g'risida»gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining qonun talablarining bajarilishi to'g'risidagi qarorlariga tayanishi mumkin. O'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish, ekologiya sohasidagi mutaxassislarini tarbiyalash va qayta tayyorlash, tabiat muhofazasi haqidagi qonun va bilimlarni ilmiy texnikaviy yo'llar bilan targ'ib etish zarur chora tadbirlardandir.

Xulosa

demak farzandlarimizda ekologik madaniyatni shakllantirishni uzviyligini taminlash muhim ahamiyat kasb etadigan global masala ekanligini unutmasligimiz kerakligini his qilib dars o'tishimiz lozim. Bu jarayonni oiladan, bolalar bog'chasidan, maktab, kasb - hunar va oily o'quv yurtlarida davom ettirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ish sinf o'quvchilariga ekologik bilim va madaniyatni rivojlantirish yurtimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodga to'la - to'kis etkazish biz pedogoglarni muhim vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xtaev Anvar Sultonovich. O'quvchilar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent "O'qituvchi'', «Ziyo-Nashir». KSHK-2001.21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son)
2. **Vasiliy Aleksandrovich Suxomlinskiy.** "Yuragimni bolalarga beraman" nomli kitobi.
3. Tabiatshunoislik o'qitish metodikasi fanidan "Uslubiy ko'rsatma"2016-yil.
4. To'xtayev.T. Hamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. T.O'qituvchi, 1994-yil.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonun". 1997-yil.
6. Husanova. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi fanidan ma'ruza matnlar.
7. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.21.05.2021-y,09/21/320/0482-son.
8. To'xtaev Anvar Sultonovich. O'quvchilar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent "O'qituvchi, "Ziyo-Nashir". KSHK-2001.Yil.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

9. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi ". Milliy ma'ruza. "O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit holati.T.
10. A.S.Makarenko "Tarbiya to'g'risida ma'ruzalar" nomli kitobi.

ЎРТА МАХСУС ВА БОШЛАНҒИЧ ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ПЕДАГОГИК ДИАГНОСТИКА МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Қўқон давлат педагогика институти,
Педагогика кафедраси мудири(PhD). Доцент
Холматова Зироат Анваровна

Аннотация: *Мақолада бугунги кунда ўлчашнинг даражасига мос номинал шкалада модал миқдорни, яъни энг кўп учрайдиган ўлчовни кўрсатиш мумкинлиги, тартибли шкаласи икки томонда ҳам тенг миқдордаги ўлчов қоладиган медианани топишга ёрдам беришлиги, интервалли ва муносабатлар шкалалари орқали ўртача арифметик ўлчамни топишга ёрдам бериши таҳлил этилган.*

Калит сўзлар: *педагогик неология, инновацион праксиология, объективлик, ишонарлилик, аниқлик, интерпретация, қиёслаш, номинал шкала, тартибли шкала, интервалли шкала, муносабат шкаласи.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ В ПРОЦЕССЕ СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО И НАЧАЛЬНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Кокандский государственный педагогический институт,
Заведующий кафедрой педагогики(PhD). Доцент
Холматова Зироат Анваровна

Аннотация: *в статье анализируется, что сегодня можно указать модальную величину по номинальной шкале, соответствующей степени измерения, то есть наиболее распространенной мере, что порядковая шкала помогает найти медиану, на которой остается равное количество измерений с обеих сторон, что она помогает найти среднее арифметическое через интервал и соотношение*

Ключевые слова: *педагогическая неология, инновационная праксиология, объективность, убедительность, точность, интерпретация, сравнение, номинальная шкала, порядковая шкала, интервальная шкала, шкала отношений.*

IMPROVING THE MECHANISMS OF PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS IN THE PROCESS OF SECONDARY SPECIAL AND PRIMARY PROFESSIONAL EDUCATION

Kokand State Pedagogical Institute,
Head of the Department of pedagogy ,(PhD). Docent.
Kholmatova Ziroat Anvarovna

Annotation: *the article analyzes that today it is possible to indicate a modal quantity on a nominal scale corresponding to the degree of measurement, that is, the most common measure, that the ordinal scale*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

helps to find the median on which an equal number of measurements remains on both sides, that it helps to find the arithmetic mean through the interval and relationship

Keywords: *pedagogical Neology, innovative praxiology, objectivity, persuasiveness, accuracy, interpretation, comparison, nominal scale, Ordinal Scale, interval scale, relationship scale.*

Кириш:

Ўрта махсус ва бошланғич профессионал таълим жараёнини моҳиятан янгилаш келажак учун узоқ муддатли интеллектуал инвестицияларни киритиш демакдир.

XX1 асрда педагогикада новаторликка қизиқишни уйғотиш, янгилик яратишга интилувчан шахсни тарбиялаш учун таълимнинг ўзи янгиликларга бой бўлиши, унда ижодкорлик руҳи ва муҳити ҳукм суриши лозим.

Ана шундай долзарбликдан келиб чиққан холда, бугунги кунда педагогиканинг мустақил соҳаси – педагогик диагностика жадаллик билан ривожланиб бормоқда.

Ўрта махсус ва бошланғич профессионал таълимда педагогик диагностика қуйидаги мақсадларга қаратилади:

1) ойдинлаштирилган таълим максади ва вазифаларини ўрганиш, таҳлил қилиш, «идентив ўқув мақсадларини ўқув вазифаларига айлантириш»;

2) таълим ва тарбия мазмуни билан боғлиқ инновациялар таъсирини ўрганиш, таълим субъектларини дифференциалаштириш;

3) таълимнинг шакл, метод, восита ва технологияларининг ўқувчи шахсига йўналтирилганлигини баҳолаш, ноанъанавий дарс шакллари, интерфаол методлар, мультимедиа воситалари, таълимнинг самарали технологиялари, модулли таълим технологиялари, маданий-инсонпарварлик ёндашув технологияларини амалиётда қўлланилиши учун педагогик шарт-шароитларни баҳолаш;

4) таълим ўзлаштирилишини диагностика қилиш; таҳсил олувчиларнинг тарбияланганлик даражасини аниқлаш, ўқитувчи ва ўқувчиларнинг компетенцияларини диагностик методлар орқали ўрганиш, таҳлил қилиш, зарур бўлса, педагогик кемтикликларни бартараф этиш ва бошқалар.

Ўрта махсус ва бошланғич профессионал таълимда педагогик диагностика таълим субъектларининг шахс тараққиётидаги муносабатини қуйидаги ҳолатларда ифодалайди:

1) таҳсил олувчи ва ўқитувчиларнинг маълум бир кобилиятларини ривожлантириш динамикасини ўрганади;

2) педагог ва ўқувчиларнинг БКМ, фаолият усуллари, компетентлигини ривожлантиришга доир инновацияларни қўллаш лаёқатини аниқлайди;

Ўрта махсус ва бошланғич профессионал таълимда педагогик диагностика куйидаги маълумотларни йиғишга замин ҳозирлайди:

1) ўқув жараёнида қўлланиладиган педагогик диагностика. Масалан, таълимнинг ахборот технологиялари; эвристик ўқитиш, модулли ўқитиш, дастурлаштирилган ўқитиш таъсирини аниқлайди;

2) дарс ва ундан ташқари шароитларда қўлланиладиган педагогик диагностика. Масалан, электрон харита; мультимедиали иловалар ва бошқаларнинг таълимий ва тарбиявий аҳамиятини ўрганади.

3)таълимни бошқариш соҳасида қўлланиладиган диагностика. Масалан, таълимнинг давлат бошқарувидан давлат-жамоатчилик бошқарувига ўтилиши даражасини аниқлайди.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Педагогик диагностиканинг объекти — бу таълим-тарбия жараёнида юзага келган ўзгаришларни аниқлаш жараёни.

Педагогик диагностиканинг предмети — бу таълим-тарбия амалиётида педагогик шарт-шароитлар, восита ва қонуниятларни аниқлаш, баҳолаш, педагогик жараён иштирокчиларининг лаёқатлари, қобилиятлари, шахсий-характерологик хусусиятларини тадқиқ этишдан иборат.

Педагогик диагностиканинг методологияси педагогик жараёнларни қулайлаштириш, оптималлаштириш мақсадида мазкур жараён субъектлари, педагогик шарт-шароитлар, метод, воситаларни ташхислашга хос билим ва фаолият тизими ташкил этади.

Педагогик диагностикани таълим тизимида ташкил этишда унинг назарий блоклари қуйидагилардан иборат:

/. Педагогик неология (илмий-педагогик жараён, унинг ўзига хосликлари ва асосий натижалари хақидаги илмий ва тажрибавий маълумотлар тизимлаштириладиган педагогикадаги янгилик хақидаги таълимот).

2. Қиёсий педагогик аксиология (педагогика назарияси ва амалиётида юзага келадиган педагогик янгиликларни бахолаш ва ўзлаштирншнинг ўзига хосликларини очиб берувчи).

3. Инновацион праксиология (педагогик янгиликларни амалиётда қўллашни ўзлаштириш). Шундан келиб чиқиб, таълим жараёнида педагогик диагностикадан фойдаланиш механизмларини такомиллаштиришда:

1) объективлик; 2) ишонарлилик; 3) аниқлик; 4) интерпретация; 5) қиёслаш каби концептлар муҳим аҳамият касб этишини инобатга олиш зарурати вужудга келади.

Педагогик диагностика функционал имкониятларига кўра қуйидагича фарқланади:

1)шарт-шароит билан боғлиқ диагностика (таълимий муҳитни ўзгартиришни таъминловчи; ижтимоий-маданий шарт-шароит ва бошқалар)ни таълим жараёнига татбиқ этишни аниқлаш;

2)маҳсулот кўринишидаги инновациялар (педагогик воситалар, лойиҳалар, технологиялар)ни жорий қилиш даражасини ва уларнинг натижаларини ташхислаш.

3) бошқарувга доир янгиликларни киритиш даражасини ўрганиш ва уларни ташхислаш.

Таълим жараёнида педагогик диагностика таълимий фаолиятни таҳлил этиш ва ўзгаришларга эҳтиёжни аниқлаш; янгиликларни баҳолаш ва танлаб олиш;

бўлажак кўзда тутилган таълимий тизимни лойиҳалашни ўрганиш; янгиликларни қўллаш даражасини аниқлаш; натижаларни таҳлил этиш ва баҳолашга қаратилиши лозим. Шу билан бирга педагогик диагностика турли даражада - алоҳида ўқитувчи ёки ўқувчи фаолиятини ташхислайди. Бунда:

а) фаолиятли: мотивли мақсад, вазифалар, мазмун, шакл, методларни қўллаш натижасида қўлга киритиладиган самара ташхисланади;

б) субъективли: таълим муассасаси барча субъектлари - директор, унинг ўринбосарлари, ўқитувчилар, ўқувчилар ота-оналар, методистлар, консультантлар, экспертлар, таълимни бошқариш органлари ходимлари, аттестация комиссиясининг фаолияти ташхисланади;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

в) даражали; халқаро, республика, вилоят, туман, шахар, таълим муассасаси даражасидаги педагогик фаолият субъектларининг ўзаро ҳамкорлиги даражаси ташхисланади;

г) мазмунли; таълим-тарбия ишлари, ўқув-тарбия жараёнини ташкил этиш даражаси, таълим муассасасини бошқаришга доир янгиликларни ишлаб чиқиш ва ўзлаштириш ҳолати баҳоланади;

д) бошқарувга доир фаолиятнинг таълим муассасасидаги муаммоларини аниқлаш, уларнинг қамровлик даражаси квалиметрик ўлчанади.

Ўрта махсус ва бошланғич профессионал таълим диагностикаси таълим муассасасидаги муаммоларни муҳокама қилиш имкониятлари ва уларни ҳал қилиш ваколатига эга шахслар ва ташкилотларнинг иштирок этишини тақозо этувчи ташқи муҳит таъсирининг очиқ тавсифга эгалигини инобатга олади ҳамда педагогик жараён субъектлари фаолиятини интеграциялаш, дифференциаллашга имкон туғдиради.

Ўрта махсус ва бошланғич профессионал таълим диагностикаси:

- биринчидан, самарали натижага эришиш вақтини аниқлаш, иккинчидан, белгиланган муддатда уни қўлга киритиш имкониятлари, учинчидан, мақсадга эришишдаги субъектнинг йўналганлилиги, олинган натижани кутилаётган билан таққослаш имконини берувчи маълумот тўплашга имкон яратади.

Адабиётлар тахлили

“Педагогик диагностика - педагогик жамоани ҳаракатга келтирувчи кучдир», -деб таъкидлайди Л. Денякина. Педагогик диагностика амалиёт ва назариянинг муҳим кисми бўлиб, ижтимоий-маданий объект сифатларини қулайлаштиришга каратилган ижтимоий субъектларнинг харакат тизимини ўрганади. Бинобарин, ўқитувчи фаолиятининг марказий масаласи ўқув жараёнини самарали ташкил этищдир. Ушбу фаолиятнинг самарали бўлишини таъминлашда педагогик диагностика ўқитувчи фаолиятининг хусусиятларини ўрганиб, илғор тажрибаларга таянган холда, мазкур фаолиятнинг асосий белгиларини ажратишга ёрдам беради:

- педагогик диагностика методларидан фойдаланиш ва уни амалиётда татбиқ қила олиш;
- ижодий фаолият фалсафасини эгаллашга интилиш;
- эвристик тавсифга эга бўлган методларни эгаллаш;
- муаллифлик концепцияларини яратиш қобилияти;
- тажриба-синов ишларини режалаштириш ва амалга ошира олиш;
- илғор хориж тажрибаларидан хабардор бўлиш ва уларни таълим жараёнида қўллай олиш;
- фикр алмашиш ва зиддиятларнинг олдини олиш, янгиликларни излаб топиш ва уларни педагогик шароитга мослаштириш, натижаларини ташхислай олиш ва бошқалар.

М.Жуманиёзованинг фикрича, кадрларни бўлажак фаолиятга тайёрлашда инновацион жараёнлар динамикасини фақат фан ва техника эришган замонавий ютуқлардан фойдаланиш орқалигина эмас, балки янгиликларни излаш, яратиш, уларни амалиётга татбиқ этиш ва олинган натижаларни қайта текшириш жараёнларини қамраб олади . Демак, ўрта махсус ва бошланғич профессионал таълим педагогик диагностика билан уйғунликда олиб борилганда таълим-тарбия жараёнларида қуйилган камчиликларни аниқлаш, уларни бартараф этиш, ўқувчилар билимидаги бўшлиқларни вақтида ташхислаб, уларни тўлдириб боришга замин яратилади. Маълумки, ўлчашнинг мақсади доимо объектив ҳодиса ёки жараённинг белгилари ҳақида ахборот олишни кўзда тутади. Биз объектнинг ўзини эмас, унинг

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

хусусиятлари ва фарқли томонларини ўлчаймиз. Масалан, стулнинг ўзини эмас, унинг баландлиги, эни, бўйи, оғирлиги кабилар ўлчанади. Бинобарин, шкаланинг рақамли кўрсаткичлари ҳақиқатни аниқ акс эттирган тақдирдагина шкалалаш солиштириш жараёнини бевосита осонлаштиради.

Тадкикот методологияс

Миқдор ҳақида гапирилганда «эмпирик релятив» иборасининг маъносини таҳлил қилишга тўғри келади. Диктантда тўғри ёзилган сўзлар «эмпирик фактлар миқдорини» ташкил қилиши мумкин. Агар диктантда ўқувчи 35 сўзни, Анвар 27 та сўзни, Умид 24 та сўзни хатосиз ёзган бўлса, биз фақат Ҳасанда Анварникидан, Анварда Умидникидан тўғри сўзлар кўплигинигина эмас, балки Ҳасанда Умидникидан тўғри сўзлар кўплигини ҳам назарда тутамиз. Эмпирик фактлар бири-бири билан маълум муносабатда бўлади. Миқдорий ўлчов буни аниқ кўрсатиши керак. Лекин шеърни ифодали ўқиган, бадиий асар композициясини тўлиқ акс эттирган ёшларни, уларнинг ахлоқий нормаларга мос равишда шаклланаётганлигини ёки тарбияланганлик даражасини бундай ўлчаш қийин. Шу сабабли бугунги кунда ўлчашнинг даражасига мос қуйидаги шкалалар мавжуд:

- номинал шкала;
- тартибли шкала;
- интервалли шкала
- муносабат ёки пропорция шкаласи.

Номинал шкала - бу шкала бўйича ташҳис қўйилганда ўқувчиларнинг сифатловчи белгиларига қараб қўйилади. Бунда мусиқавий қизиқишларни, математик қобилиятларни, спортга қизиқишини, санъатга ишқибозлигини дифференциация қилиш мумкин. Масалан, ёшларнинг санъатга бўлган қизиқишларини аниқлаш учун, шахсни сифатловчи белгиларига қараб унга мос градацияланган иборалардан фойдаланиш мумкин[ ]. Демак, бундай хислатларни туркумлаш(А=В ёки А=В, В=В) қандайдир белгисига кўра, ўхшашлик ва фарқлилик томонлари, яъни белгининг сифат хусусиятлари муҳимлигини таъкидлаш жоиздир. Номинал шкалалаш-ўлчашнинг энг «паст» шкаласи. Бундай ўлчашда рақамлар нисбатан кам ишлатилиб, бирор категорияга мансубликни аниқлаш мумкин. Номинал шкалада модал ўлчов (миқдор), яъни энг кўп учрайдиган ўлчов бўлади. Агар аудиторияда 14 нафар ўқувчининг биттадан синглиси ёки укаси бўлса, 11 та ўқувчининг иккитадан синглиси ёки укаси бўлса, 5 та талабанинг учтадан, 4 та йигитнинг тўрттадан, 3 та ўсмирнинг бештадан ака- укалари бўлса, 4 та ўқувчи оилада ягона фарзанд бўлса, бунда 14 (яъни, биттадан синглиси ёки укаси борлар) модал миқдор ҳисобланади.

Тартиб (Ранг) шкаласи. Тажриба-тадқиқот ишларида ташхислаш методларини конструкциялашда тартибни аниқловчи шкалалардан фойдаланиш мумкин. Масалан, ёшларнинг гуруҳларда мулоқотга киришувчанлигини аниқлаш учун улар тўғрисида «хомаки» материал тўплаш зарур. Тўпланган ахборотдан уларнинг киришувчанлик даражасини аниқлашга замин яратилади. Қуйидаги формула асосида ёшларнинг у ёки бу сифатларини, тарбияланганлик даражаларини аниқлашга имконият туғилади:

PR=cumf-f/2/N.100

Бунда Р- шахсга олдиндан қўйиладиган баҳо (0дан 34 баллгача белгиланади);

f-бир хил тавсифий хусусиятга эга бўлган субъектларнинг сони;

cumf-кумулятив частота;

N- ташхис қилинувчи умумий иштирокчиларнинг сони.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Агар таҳсил олувчиларни инглиз тилидаги сўзларни билиши бўйича классификация қилсак, уларда тилни билиш даражаси турлича бўлади. Буни шундай мисолда кўриб чиқсак:

Ҳасан 28 та инглиз тилидаги тушунчани, Анвар 26 та сўзни, Умид 18 та сўзни, Нигора 12 та сўзни ва Акмал 9 та сўзни ёд айтиб берди, дейлик.

Буни чизмада тасвирласак, тартибни аниқловчи шкаланинг муҳим фарқли белгилари намоён бўлади:

Ўқувчиларга кетма-кетликда 1-5 гача ўринни белгилаш мумкин, лекин қатордаги ўринларни ажратувчи интервал турлича. Ўринлар ҳақида аниқ фикрлаш мумкин, бироқ улар ўртасидаги интерваллар ҳақида бундай дея олмаймиз.

26 та сўз биладиган 2- ўриндаги Анвар 4-ўриндаги Нигорадан 2 баровар кўп билади, деб ҳисоблаб бўлмайди, чунки 12 сўз 26 сўздан икки баровар кам эмас. Шунинг учун медианани аниқлашга тўғри келади. Бу ўлчовнинг икки томонида ҳам бир хилдаги сон қолади. Бизнинг мисолимизда медиана Умиднинг натижасига тўғри келади. Бу шкала кетма-кетлик ва тартибни аниқлайди.

Тахлил ва натижалар

Интерваллар шкаласи, тўғри интерваллар фақат интерваллар шкаласида бўлиши мумкин. Агар А буюм 25, Б буюм 50 даража ҳароратда бўлса, улар ўртасидаги миқдор 75 ва 100 даража ҳароратда, буюмлар ўртасидаги фарқ қатори, яъни ҳар бир фарқ 25 градусни ташкил қилади. Лекин биз 50 градус 25 градусдан икки баробар иссиқ деган хулосани чиқара олмаймиз. Интерваллар шкаласи турли миқдорларнинг пропорциялари ҳақида хулоса чиқаришга ёрдам бермасада, лекин ўртача арифметик миқдорни топишга ёрдам беради. Бу шкала номинал ва тартибли шкаладан анча устун бўлиб ҳисобланади.

Муносабатлар ёки пропорциялар шкаласи

Муносабатлар шкаласи пропорциялар ҳақида хулоса чиқаришга (икки баробар кўп, икки баробар кам, тўрт баробар оғир каби) имкон беради. Буни узоқликни (метр, сантиметр каби) ва оғирликни (килограмм, грамм) ўлчовларида кўришимиз мумкин. Агар досканинг узунлиги 3 метр бўлса, у 1,5 метрлик доскадан икки баровар узун. Ёки 170 граммлик буюм 100 граммлик буюмдан 1,7 баровар оғир. Ўқувчиларнинг ахлоқий фазилатлар, умуминсоний хислатларни эгаллаганлик даражасини аниқлаш бир қанча қийинчиликлар туғдиради. Бу шкала ёрдамида барча статистик ҳисоблар олиб борилади.

Хулоса

қилиб шуни айтиш мумкинки, номинал шкалада модал миқдорни, яъни энг кўп учрайдиган ўлчовни кўрсатиш мумкин.

Тартиб шкаласи икки томонда ҳам тенг миқдордаги ўлчов қоладиган медианани топишга ёрдам беради.

Интерваллар ва муносабатлар шкалалари ўртача арифметик ўлчамни топишга ёрдам беради.

Таълимнинг ўзига хос томони, у тарбияни ижтимоий ҳодиса сифатида педагогик фаолият, шахснинг шаклланишини ўзига бирлаштириб, ана шу учта асослардан реал педагогик жараённи тузади, бу жараён турли таълим-тарбия концепциялари, назариялари ёрдамида лойиҳалаштирилади ва таълим тизими муассасаларида татбиқ этилади.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Фойдаланилган адабиётлар

1. Денякина Л. Педагогическая диагностика как движущая сила педагогического коллектива.-Москва:Сила, 2011.-268 с.
2. Абдуллаева Ш.А. Педагогик диагностика.-Тошкент:Фан ва ахборот технологиялари, 2010.-278 бет.
3. Азизходжаева Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат.-Тошкент:Фан ва ахборот технологиялари, 2010.-110 б.
4. Амонашвили Ш.А. Обучение. Оценка. Отметка. –М.: Знание, 1980. – 96 с.
5. Йўлдошев Ж.Ғ. Таълим мақсадларини ташхислаш.- Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2007. – 210 б.

ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМДА ИЖТИМОИЙ ШЕРИКЛИКНИНГ АҲАМИЯТИ

S.A.Исмаилов
Андижон давлат университети
Ижтимоий – иқтисодиёт факултети Мустақил изланувчиси

Аннотация: *Ҳуқуқий қадриятлар ҳар бир инсон учун қадрли ва эъзозли омиллардан биридир. Маданиятли кишилик жамиятини ҳуқуқий қадриятларсиз тасаввур этиб бўлмайди. Ҳуқуқий қадриятларнинг барча учун фойдали ва ҳурматли бўлиши эса уларга нечоғли риоя этиш ва амал қилиниши билан боғлиқдир. Шу сабабли ҳуқуқий қадриятлар борасидаги тасаввурларни бойитиш, бу борадаги мутахассислар ва ёшларнинг фикрларини шакллантириб бориш аҳамиятлидир. Ушбу мақолада муаллиф ҳуқуқий қадриятлар борасидаги ўзининг тасаввурлари ва қарашларини аниқ мисоллар ёрдамида ёритиш ҳаракат қилган. Қолаверса, бугунги кунда ҳуқуқий қадриятларни ўзгартиришга бўлаётган салбий ҳаракатлар, турли хилдаги қадриятларга ташқи таъсирлар ва тажовуз ҳамда таҳдидларга доир мулоҳазалар юритилган.*

Калит сўзлар: *Ҳуқуқий қадриятлар, таълим, ижтимоий шериклик, принциплар, тарбия, ҳуқуқий маданият, ҳуқуқий онг, ҳуқуқий тафаккур.*

ВАЖНОСТЬ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА В ПРАВОВОМ ОБРАЗОВАНИИ

S.A.Исмаилов
Независимый исследователь социально-экономического факультета Андижанского государственного университета

Аннотация: *Правовые ценности являются одним из самых ценных и уважаемых факторов для каждого человека. Цивилизованное общество личности невозможно представить без правовых ценностей. И тот факт, что правовые ценности выгодны и уважительны для всех, объясняется тем, насколько хорошо они соблюдаются. Поэтому важно обогатить воображение в области правовых ценностей, сформировать мнения специалистов и молодежи в этой области. В этой статье автор попытался изложить свое видение и взгляды на правовые ценности на конкретных примерах. Более того, сегодня наблюдаются негативные действия по изменению правовых ценностей, внешние воздействия и агрессия в отношении различных ценностей, а также комментарии об угрозах.*

Ключевые слова: *правовые ценности, образование, социальное партнерство, принципы, воспитание, правовая культура, правосознание, правовое мышление.*

THE IMPORTANCE OF SOCIAL PARTNERSHIP IN LEGAL EDUCATION

S.A.Ismailov
Independent researcher of the Faculty of
Socio-economics of Andijan State University

Annotation: *Legal values are one of the most valuable and respected factors for every person. A civilized personality society cannot be imagined without legal values. And the fact that legal values are beneficial and respectful to all is due to how well they are adhered to and adhered to. Therefore, it is important to enrich the imagination in the field of legal values, to form the opinions of specialists and young people in this area. In this article, the author tried to cover his visions and views on legal values using concrete examples. Moreover, today there are negative actions on changing legal values, external influences and aggression on various values, as well as comments on threats.*

Keywords: *legal values, education, social partnership, principles, upbringing, legal culture, legal consciousness, legal thinking.*

Кириш

Ҳуқуқ – одоб-ахлоқ ва юриш-туриш қоидаларнинг қонунчилик даражасида ифоланган кўриниши ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан тартибга солинган муайян қоидалар йиғиндиси сифатида тушунилади. Ўз навбатида, ҳуқуқ жамиятда муайян вазифаларни бажаради. Ҳуқуқнинг вазифалари сифатида тартибга солиш, муайян тартиботни белгилаш, аниқ қоидаларни ифодалаш, муҳофаза қилиш, тарбиялаш, жавобгарликка тортиш кабилар эътироф этилади. Мазкур вазифалар билан ҳамоҳангликда эса ҳуқуқий қадриятлар намоён бўлади.

Ҳуқуқий қадриятлар одатда жамият аъзолари томонидан қабул қилинган, барча учун мақбул бўлган, жамият томонидан эътироф этилган ҳамда ҳамма учун бирдай қабул қилинадиган қоидалар тизими сифатида тушунилади. Масалан, оилада ота-онани ҳурмат қилиш, болаларга ғамхўрлик қилиш ва уларни тарбиялаш, кексаларни эъзозлаш масалалари жамиятнинг барча аъзолари томонидан бирдай қабул қилинади ва ҳамма учун мақбул қоидалар ҳисобланади. Қонунчиликда акс этган мазкур қоидалар эса ўз навбатида ҳуқуқий қадрият сифатида эъзозланади ва ардоқланади[44].

Айни пайтда ҳуқуқий қадриятларнинг замонавий воқеъликлар ва кишилар тасаввурининг туб ўзгаришларига ҳамоҳанглиги, юзага келаётган янги таҳдид ва хавфларга бардошлилиги масаласи бугунги кун нуқтаи назаридан долзарб аҳамият касб этаётганлигига эътибор қаратиш лозим. Жумладан, ҳаётимизга Интернет ва унда яратилган турли ижтимоий тармоқларнинг кириб келиши ўзига хос виртуал оламни юзага келтирди.

[44] Абдураупов Р. Концепция перехода к международным стандартам наращения уровня знаний, навыков и квалификаций в сфере подготовки кадров в Узбекистане // Янгиланаётган жамиятда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги: муаммо ва ечимлар мавзуидаги республика илмий-амалий конференцияси мақолалар тўплами – Тошкент: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020. – 20 б.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Бу олам ўзининг ижобий жиҳатлари билан бирга жамиятда мавжуд бўлган ҳуқуқий қадриятларга нисбатан турли таҳдидларни ҳам юзага келтирди. Бу ҳолат айниқса, ҳуқуқий қадриятлар бўлган кишининг шаъни ва қадр-қимматини ҳурмат қилиш, уни бандом қилувчи маълумотларни тарқатмаслик, давлат ва жамиятга қарши иғво ва бўҳтон тарқатилишига йўл қўйилмаслик каби қоидаларни бузилишига олиб келмоқда. Ҳақиқатга тўғри келмайдиган бундай маълумотларни тарқатган шахсларга нисбатан жавобгарликнинг муқаррарлиги каби ҳуқуқий қадриятни қўллаш учун эса ижтимоий тармоқлардаги маълумотларни олиб бўлмаслиги, кўп ўринларда “троллар” тизими ишлаши тўсқинлик қилмоқда[45].

Бундан ташқари, оилавий муносабатларга оид ҳуқуқий қадриятлар соҳасидаги бугунги дунёда кузатилаётган салбий ўзгаришлар эса алоҳида эътибор қаратадиган ва ўз вақтида зарурий чораларни кўришни тақозо этадиган ҳолатдир. Ҳеч кимга сир эмаски, бугунги кунда бир қатор Европа мамлакатларида бир жинсли никоҳга йўл қўйилиши ёки “ЛГБТ” намойишларининг мунтазам ўтказиб келиниши, дунё давлатлари ўртасидаги бўлинишларни юзага келтирмоқда. Оила тушунчасининг анъанавий асосларини сақлаб қолиш, эркак ва аёл ўртасидаги никоҳни тан олиш, жамият эркак ва аёл жинсидаги шахсларнинг анъанавий бирлигидан ташкил топиши каби қадриятларни ҳимоя қилиш бугунги кун тартибидаги асосий муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Бунинг учун эса тегишли ҳуқуқий асосларни яратиш, миллий қонунчиликда ҳуқуқий қадриятларни сақлаб қоладиган қатъий позицияни белгилаш зарурати мавжуд. Фикримизча, қонунчиликда никоҳ – эркак ва аёлнинг ихтиёрий иттифоқи эканлигига оид қоидани белгилаш ҳамда мамлакатда бир жинсли никоҳларга йўл қўйилмаслигига оид нормани қатъий ўрнатиш зарурати мавжуд[46].

-Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review) Маълумки, ҳуқуқий қадриятларни белгиловчи энг муҳим ҳужжат бўлиб “Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси” эътироф этилади. Мазкур декларация инсоннинг муҳим ҳуқуқлари борасидаги асосий ҳуқуқий қадриятларни назарда тутади. Ушбу ҳужжатда акс эттирилган ҳуқуқий қадриятлар – яшаш ҳуқуқи, шахсий дахлсизлик ҳуқуқи, эркин бўлиш ҳуқуқи ва бошқа кўплаб инсон ҳуқуқлари барча давлатлар томонидан бирдай тан олиниши ва қўлланилиши лозим. Албатта, Декларацияда келтирилган асосий қоидаларнинг барчаси Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ҳам акс эттирилган. Булар жумласига барча фуқароларнинг қонун олдида тенглиги, улар ҳуқуқларининг кафолатланганлиги, мулкдор бўлиши ҳуқуқи ва бошқалар киради.

Ҳуқуқий қадрият сифатида инсон ҳуқуқларининг таъминланганлиги, уларнинг муҳофазаси ва уларнинг бузилиши ёки ушбу ҳуқуқларга нисбатан тажовузлар эса тегишли ҳуқуқий таъсир чоралари билан ҳимояланиши қонунчилик тизимида ўз аксини топган. Шундай бўлсада, кейинги йилларда инсон ҳуқуқини ҳимоя қилиш, айниқса гендер тенглигини таъминлаш соҳасида муайян муаммолар юзага келмоқда. Ҳуқуқий қадрият сифатида аёллар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва уларга ҳурмат билан муносабат бўлиш,

[45] Набиуллина Н.М. Формирование и развитие социального партнерства в сфере образования: автореф. дис. экон наук. – М.: 2003. – 12 с.

[46] Рашидова А. И. Социальное партнерство в профессиональном образовании // Universum: Вестник Герценовского университета. 2/2012. С. 31–33.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

оилавий зўравонликларнинг олдиниши олиш, болалар ҳуқуқларини таъминлаш борасида ҳам ижтимоий ва ҳуқуқий муаммолар юзага келмоқда.

Тадқиқот методологияси

Янги Ўзбекистонда бу соҳада амалга оширилаётган ислоҳотлар давомида болалар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, айниқса муаммоли оилаларда профилактик ишларни ташкил қилиш, оилавий ва ҳуқуқий қадриятларни сақлаб қолиш, жамиятнинг асосий бўғини сифатида оиладаги ажрашишларни олдини олишга қаратилган салмоқли ишлар амалга оширилди. Лекин шунга қарамасдан, ажрашишлар сонининг ортиб бораётганлиги, алимент тўлашдан бўйин товлаш ёки атайин даромад миқдорини яшириб кўрсатиш ҳолатлари мавжуд. Бу эса ўз навбатида ота-онанинг ўз боласини вояга етгунига қадар таъминлаш борасидаги мажбуриятини бажаришига оид ҳуқуқий қадриятларга зид келади. Шу сабабли никоҳдан ажрашишда алимент фондига ажралаётган томоннинг компенсация тўлаши билан боғлиқ нормани қонунчиликда ифодалаш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Ҳуқуқий қадриятларнинг ўзгармаслиги, яъни умуминсоний қадриятлар сифатида уларнинг кишилик жамияти учун ёт бўлган элементлар ва таъсирлардан холи бўлишига фақат қонунчиликни такомиллаштириш, кишиларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини ривожлантириш билан эришиб бўлмайди [47]. Мазкур омиллар билан бирга давлат жамиятдаги институционал ўзгаришларга ҳам эътибор қаратиш зарур. Айниқса, суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятида ҳуқуқий қадриятларни сақлаб қолиш, уларнинг давлат ҳамда жамият ҳаётига муносиб ва мос келадиган қарашлар ва тушунчалар билан мувофиқлаштириб бориш лозим бўлади. Ҳозирги кунда диний-экстремистик руҳдаги ғояларнинг кириб келиши, мамлакатимизда амалда бўлган анъанавий диний ва ижтимоий қарашларга зид келадиган ақидаларни сунъий равишда киритишга турлича уринишлар кузатилмоқда. Бунда Ўзбекистон Республикасининг “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида”ги қонунида белгиланган муҳим ҳуқуқий қадриятлардан келиб чиқилиши зарурлиги қатъий риоя қилиниши зарур. Мазкур қонунда белгиланган ҳуқуқий қадрият – виждон эркинлиги, яъни ҳар ким ўзи хоҳлаган динга эътиқод қилиши ёки ҳеч бир динга эътиқод қилмаслиги қоидаси жамиятнинг барча аъзолари томонидан эътироф этилиши ва ҳурмат қилиниши лозим. Бундай Ўзбекистонда фаолият юритаётган турли диний ташкилотлар, турли дин вакиллари ва конфессияларнинг ўзаро ҳурмат ва бағрикенглик асосида амал қилишлари алоҳида эътиборни талаб этади. Мазкур қонун нормалари жамият аъзолари ўртасида тўғри талқин этиш ҳам бугунги кун нуқтаи назардан муҳимдир. Шу сабабли мазкур қонунга тегишли шарҳларни тайёрлаш ва уларни аҳоли ўртасида тушунтириш ишларини олиб бориш муҳим аҳамият касб этади.

Ҳуқуқий қадриятларни тўғри тушуниш ва уларнинг турли таҳдидларга бардошлилиги энг аввало жамият аъзоларининг хусусан, ёшларнинг бу борадаги тасаввур ва онги шаклланиши даражасига ҳам бевосита боғлиқдир. Чунки, ёшлар эртанги кун эгалари сифатида ҳуқуқий қадрият бўлиб хизмат қиладиган қоидалар ва қарашларни

[47] Тарасенко Л. В., Угольницкий Г. А. Моделирование социального партнерства в системе дополнительного профессионального образования: методология исследования. URL: http://ww.ivdon.ru/uploads/article/pdf/IVD_24_Tarasenko.pdf_2473.pdf (Дата обращения 03.09.2022)

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

белгилайди, уларни асраб қолиш ва барқарорлигини таъминлаш гарови ҳисобланади[48]. Ёшларнинг мамлакатимизда шаклланган анъанавий оила, турмуш тарзи, диний қарашлар ҳамда ахлоқ-одоб руҳида тарбиялаш эса бевосита ота-оналар ҳамда таълим ва тарбия муассасалари томонидан амалга оширилади. Бунда ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари, хусусан прокуратуранинг таълим ва тарбия муассасалари билан ижтимоий шериклигини йўлга қўйиш мақсадга мувофиқдир. Фикримизча, бу шериклик ҳар бир таълим муассасасини қамраб олиши ва ёшлар учун очиқ бўлиши, зарур ҳолларда эса онлайн мулоқот майдончаларини яратиш орқали амалга оширилиши мумкин.

Хулоса ва таклифлар

Хулоса сифатида таъкидлаш лозимки, "ҳуқуқий қадриятларнинг ўзгармаслиги" масаласини қотиб қолган, догма кўринишидаги эски, замон талабларига жавоб бермайдиган қоидалар сифатида тушунмаслик лозим. Ҳуқуқий қадрият одатдаги ҳуқуқий тартибга солиш ёки муайян тартиботни белгилайдиган норма эмас балки, умумиинсоний эътироф этилган ҳамда жамият аъзоларининг барчаси учун мақбул бўлган қоидалар сифатида талқин этилиши зарур. Бошқача айтган қонунчиликдаги ҳар қандай норма ёки ҳуқуқий қоида ҳам ҳуқуқий қадрият ҳисобланмайди. Ҳуқуқий қадрият кишилик жамиятининг асосига қурилган, унинг энг эзгу ва асосий қарашлари, турмуш тарзи билан чамбарчас боғлиқ бўлган қоидалар ва тартиботлардир. Шу сабабли қонунга итоат этиш ва уни ҳурмат қилиш, ўзга шахсларнинг ҳуқуқларини бузмаслик, турмуш кечиришда инсоният томонидан бирдай эътироф этилган ахлоқий ва ижтимоий тартиботлар асосий ҳуқуқий қадрият сифатида ўзгармасдан қолиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдураупов Р. Концепция перехода к международным стандартам наращения уровня знаний, навыков и квалификаций в сфере подготовки кадров в Узбекистане // Янгиланаётган жамиятда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги: муаммо ва ечимлар мавзуидаги республика илмий-амалий конференцияси мақолалар тўплами – Тошкент: "Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи", 2020. – 20 б.
2. Набиуллина Н.М. Формирование и развитие социального партнерства в сфере образования: автореф. дис. экон наук. – М.: 2003. – 12 с.
3. Рашидова А. И. Социальное партнерство в профессиональном образовании // Universum: Вестник Герценовского университета. 2/2012. С. 31–33.
4. Тарасенко Л. В., Угольницкий Г. А. Моделирование социального партнерства в системе дополни-тельного профессионального образования: методология исследования. URL: http://ww.ivdon.ru/uploads/ article/pdf/IVD_24_Tarasenko.pdf_2473.pdf (Дата обращения 03.09.2022).
5. Кожурова О. Ю. Социальное партнерство школы и семьи как фактор повышения их воспитатель - ного потенциала: Дис. … канд. пед. наук. М., 2011.

[48] Кожурова О. Ю. Социальное партнерство школы и семьи как фактор повышения их воспитатель-

ного потенциала: Дис. … канд. пед. наук. М., 2011.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

SO‘Z SAN’ATI - DIL KALITI

Shukurova Halima Sunnatillayevna-Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o’qituvchisi
Primkulova Dilfuza Yusuf qizi- Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya.*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda son so‘z turkumini o‘rgatish bo‘yicha didaktik o‘yinlar, rebuslar, maqollar va tez aytishlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar.*Til, so‘z, o‘zbek tili, boshlang‘ich sinf, son tartibi, “Konfetli quti”, “Akvarium baliqlari”, “Savatni to‘ldir”, rebuslar, topishmoqlar, tez aytishlar.*

ИСКУССТВО СЛОВА – КЛЮЧ К ЯЗЫКУ

Шукурова Халима Суннатиллаевна- старший преподаватель Джизакского государственного педагогического университета.
Примкулова Дильфуза Юсуф студентка 2 курса факультета начального образования.

Аннотация: *В данной статье описаны дидактические игры, ребусы, пословицы и скороговорки для обучения числовой лексике в младших классах.*

Ключевые слова: *Язык, слово, узбекский язык, начальный класс, порядок чисел, «Конфетница», «Аквариумная рыбка», «Наполни корзину», ребусы, загадки, скороговорки.*

THE ART OF THE WORD IS THE KEY TO LANGUAGE

Shukurova Khalima Sunnatillaevna- senior teacher of Jizzakh state pedagogical university.
Primkulova Dilfuza Yusuf qizi- master of faculty of “Elementary education”

Annotation: *This article describes didactic games, puzzles, proverbs and tongue twisters for teaching numerical vocabulary in elementary grades.*

Key words: *Language, word, Uzbek language, elementary grade, order of numbers, “Candy bowl”, “Aquarium fish”, “Fill the basket”, rebuses, riddles, tongue twisters.*

“Tilini tiyolgan odam — donishmand oqil,
So‘zga erk bergan odam — beandisha va noqobil”

Kirish

Darhaqiqat, yuqorida keltirib o‘tilgan Alisher Navoiy bobomizning hikmatli so‘zlari bejiz aytilmagan. Inson yaralibdiki, o‘z tili bilan yashaydi. Til ilm olishda zamon va makon g‘ovini o’rtadan ko’taradi. Til tufayli eng qadimgi ma‘lumotlarga ega bo’lamiz, hatto kelgusiga oid ma’lumotlarni ham olamiz. Koinotning hamma yeridagi ma’lumotni so‘z bilan ifodalab, bilmaganga bildirish mumkin. Har bir o‘quvchi maktabda qanchadan qancha bilim oladi. Shu bilimlarni olishga til tufayli muyassar bo‘ladi. Aks holda har bir o‘rgatilayotgan narsani, hech bo‘lmaganda uning suratini o‘quvchiga ko‘rsatish kerak bo‘lar edi. Bu albatta juda ko‘p vaqtni va joyni talab qilar edi.[1]

Bugina emas, biz til tufayli sezgi a’zolari bilan bilib bo‘lmaydigan narsalarni ham o‘rganamiz. Ko‘rinishi, shakli bor narsalarning aksi ongimizga o‘rnashishi mumkin, lekin shaklsiz

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

narsalarni biz faqat so‘z shaklida o‘zlashtiramiz. Xuddi shuningdek mavjudotning ko‘rinmas ichki jihatlarini ham so‘z shaklida o‘zlashtiramiz va til vositasi bilan o‘zgalarga tushuntiramiz.

So‘z bu bitmas-tuganmas javohir. So‘z bu insonlar o‘rtasidagi munosabat demakdir. Tilimizda jarang sochgan har bir kalom bizning boshqa shaxslarga, boshqa shaxslarning bizga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Hazrat Alisher Navoiy “ So‘z insonni ayladi judo hayvondin, Bilki, guhari sharifroq yo‘q ondin ” deya so‘zni moddiyatdan yuqori qo‘yganlari bejiz emas.

So‘zlash odamni inson sifatida shakllantiruvchi vosita. Ayniqsa bizning o‘z ona tilimiz hisoblangan o‘zbek tili misli xazina hisoblanib, o‘zida gavhar, la’l-u javohirlarni mujassam etadi. Ana shu xazinadan to‘g‘ri foydalanish insonning ma’naviy darajasini belgilaydi.[2]

So‘zdan o‘rinli foydalanish nutqni go‘zal qiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga gaplar tuzdirish, matnlarni hikoya qilish orqali so‘zdan to‘g‘ri foydalanish o‘rgatiladi.

Biz bilamizki, o‘zbek tili asrlar davomida sayqallanib, boyib kelmoqda. Xazinamiz rang-barang dur-u gavharlar bilan to‘lmoqda. Xo‘sh, ayting-chi, mana shunday rang-baranglik nima sababdan yuzaga kelgan deb o‘ylaysiz. Albatta, bu xilma-xillik biz bilgan so‘zlarning turli ko‘rinishlari, anglatayotgan ma’nolarining o‘zgachaligi, grammatik jihatdan turli turkumga doirligi sababidan yuzaga kelmoqda. Biz bilgan ayrim so‘zlar narsalarning sonini bildirsa, ayrimlari ularning belgilarini bildiradi, yana ba’zilari esa harakat jarayonini ifodalaydi. Ana shu jihatdan so‘zlar turli turkumlarga ajratiladi. Shu mulohazalardan kelib chiqadigan bo‘lsak, bugungi fikrimizni mustaqil so‘z turkumlaridan biri bo‘lmish son so‘z turkumi haqidagi bilimlarni kengaytirish, ularni boshlang‘ich sinflarga qanday o‘rgatish lozimligini ko‘rib chiqish orqali davom ettiramiz.

O‘zbek tili grammatikamizda son so‘z turkumi alohida o‘ringa ega. Shaxs va narsalarning sanog‘ini va tartibini bildirib, nechta?, qancha?, necha?, nechanchi? so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘z turkumi son deb ataladi. Son so‘z turkumi o‘quvchilar orasida sanoq sonlarni, taqsim sonlarni va boshqa son so‘z turkumiga oid so‘zlarni nutqda ishlatishlarida kerakli vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida shaxs va narsalarni sanashda son so‘z turkumi so‘roqlaridan noto‘g‘ri foydalanish holatlari uchrab turadi. Masalan, do‘stlari bilan muloqot jarayonida “ Qancha kitob olding? ” yoki “ Bu daftar nechta pul turadi? ” kabi noto‘g‘ri savollardan foydalanishganliklariga guvoh bo‘lamiz. Mana shunday vaziyatlar bo‘lmasligi uchun o‘quvchilarga son so‘z turkumini o‘rgatish jarayonida har bir so‘roq so‘zlarning qaysi o‘rinda qo‘llanilishini tushuntirib borish lozim. Biz bilamizki, nechta? so‘rog‘i asosan sanaladigan otlarga, necha? so‘rog‘i esa soat, vaqtni aniqlash, yil, oy yoki kunlarni so‘rashga nisbatan qo‘llaniladi. Odatda sanalmaydigan otlar bilan qancha so‘rog‘ini ishlatish lozim bo‘ladi. Demak, son so‘z turkumi ham turli savollar orqali topiladi. Sonlar tartibni yoki narsalarning miqdorini bildirishiga ko‘ra 2 ga: miqdor va tartib sonlarga bo‘linadi. Miqdor sonlar o‘z nomi bilan narsalarning son sanog‘ini bildirib, nechta?, qancha?, necha? so‘roqlariga javob bo‘lsa, tartib sonlar esa shaxs va narsalarning tartibini bildirib nechanchi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Ana endi 3-sinf ona tili darsligining 286-mashqiga e’tibor qaratamiz. Ushbu mashqda “ O‘qing. Narsa buyumlarning sanog‘ini bildirgan so‘zlarni aniqlang va ko‘chirib yozing ” deb shart kiritilgan. Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida sonlarni ularga so‘roq berish orqali o‘quvchiga toptirish lozim. Bunda o‘quvchilar avvalo otlarni topib, so‘ngra savol berib sonlarni aniqlaydilar. Chunki sonlar otlarga bog‘lanib keladi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Birinchi gapda, ya’ni “Bir tup gul yuz g‘uncha ochadi” gapida son so‘z turkumiga oid so‘zni aniqlash uchun bolalarga nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni toptirish lozim. Bu so‘zlar: “gul” , “g‘uncha”. Endi bu so‘zlarga bog‘lanib kelgan so‘zlar topiladi.

Qancha gul? – bir tup gul

Nechta g‘uncha? – yuz g‘uncha.

Xuddi shu jarayonda bolalar turli turkumlarga to‘g‘risidagi bilimlarini mustahkamlab, so‘roq so‘zlarni ham o‘rinli ishlatishni o‘rganishadi.

Keyingi 287-mashq o‘quvchilarga nafaqat sonlarni, balki son so‘z turkumiga oid so‘zlar qatnashgan maqollar va topishmoqlarni ham o‘rgatadi.[3]

Boshlang‘ich sinflarda darsni tashkil qilish, o‘tgan mavzuni mustahkamlash jarayonida turli ta'limiy didaktik o‘yinlar, boshqotirmalar, rebuslardan foydalanish dars jarayonida yaxshi samara beradi. Shuni ta'kidlash joizki, darslarda o‘tgan mavzuni mustahkamlash jarayonida tarqatma savollardan foydalanish, krossvordlar yechtirish orqali o‘quvchilar bilimini sinovdan o‘tkazish mumkin. Xuddi shu jarayonda men o‘z ijodimdan kelib chiqqan holda sizlarga “ Konfetli quti ” didaktik o‘yinini tavsiya qilaman. Quyida sizlarni ushbu o‘yin bilan tanishtirib o‘taman.

O‘yin nomi: “ Konfetli quti”

O‘yinning maqsadi: Bu o‘yinni tashkil etishdan maqsad o‘quvchilarning o‘tilgan mavzudan olgan bilimlarini mustahkamlash, ularni yanada esda saqlab qolishlariga yordam berish.

O‘yinni tashkil etish: Ushbu o‘yin istalgan 10 ta o‘quvchini doska oldiga chiqarish orqali tashkil etiladi.

O‘yinning borishi: Bunda o‘qituvchi ichiga mavzu yuzasidan savollar yozilgan konfetchalardan iborat qutini stol ustiga qo‘yadi va o‘quvchilar birma-bir konfetlarni ola boshlaydilar. Ular konfetlarni ochib, tartib bilan ularda yashiringan savollarga javob beradilar.

O‘yinni yakunlash: O‘qituvchi tomonidan savollarga javoblar to‘g‘ri berilayotganligi nazorat qilib boriladi hamda barcha o‘quvchilar javob berib bo‘lishgach o‘z o‘rinlariga o‘tiradilar.

O‘yinni xulosalash: Bunda o‘qituvchi har bir o‘quvchining javoblariga qarab baholaydi va ularni rag‘batlantirish maqsadida eng to‘g‘ri va aniq javob bergan o‘quvchiga bir dona konfet beriladi.

Ushbu o‘yinni 10 ta emas, undan ko‘p o‘quvchilar bilan ham o‘tkazsa bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shirinliksevar bo‘lganliklarini inobatga olib, ularni darsga

yanada qiziqtirish uchun ushbu o‘yin tashkil etiladi. O‘yin so‘ngida bolalarni kelasi safar yaxshi o‘qib kelishlari aytilib ularga ham xuddi shunday konfetlar berilishi aytilsa, bolalarning dars qilishlari yanada ortib, fanga bo‘lgan hurmatlari yanada oshadi degan umiddaman.

Endi dars mavzusini tushuntirish jarayonida ham foydalansa bo‘ladigan didaktik o‘yinlarga o‘tamiz. Biz yuqorida fikr yuritgan son so‘z turkumiga oid bir nechta o‘yinlar mavjud bo‘lib, men shular jumlasiga kiruvchi 2 ta o‘yinni sizlarga tavsiya qilmoqchiman. Bulardan biri “ Akvarium baliqlari ” ikkinchisi esa “ Savatni to‘ldir ” o‘yini hisoblanadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ilk o‘yin haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, ushbu o‘yin o‘quvchilarning tezkorligini, ularning sonlarni qay darajada o‘zlashtirganliklarini bilib olishda qo‘llaniladi.

O‘yin nomi: “ Akvarium baliqlari ”

O‘yinning maqsadi: O‘quvchilarning nafaqat son mavzusi, balki boshqa so‘z turkumlari bo‘yicha ham bilimlarini oshirish

O‘yinni tashkil etish: Bunda sinfdagi jami o‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadi va tartib bilan doskaga chiqarilib o‘yin bajariladi.

O‘yinning borishi: O‘qituvchi doskaga 3 ta “Ot” , “Sifat”, “Son” nomli akvariumlarning qog‘ozga tushirilgan suratini ilib qo‘yadi. Va doskaning past qismiga ya'ni oyinda “Dengiz” deb ataluvchi qismiga turli baliq shaklidagi qog‘ozlarga bir nechta turli turkumlarga oid so‘zlardan yozib yopishtirib qo‘yadi. Har bir so‘z turkumiga bir xil miqdorda baliqchalar tayyorlanadi va o‘qituvchi tomonidan bolalarga quyidagi tarzda tushuntiriladi: “Aziz o‘quvchilar, mana dengizimizdagi baliqlarga akvariumdagi baliqchalar aralashib ketdi. Sizlar ularni akvariumga joylashga yordam berasizlarmi? Mana dengizimizda bir qancha so‘z turkumlariga oid ismlar bilan nomlangan baliqchalar bor siz ularni o‘z akvariumiga to‘g‘ri joylashtirishingiz lozim. Qani marhamat, 3 ta akvariumimizga 3 ta qatordan navbat bilan chiqib ularni joylashga yordam beringlar-chi? ” Shundan so‘ng o‘quvchilar birma bir chiqib shartni bajara boshlaydilar. Bunda o‘quvchilarga ma‘lum vaqt belgilanadi.

O‘yinni yakunlash: Vaqt tugagandan so‘ng , har bir akvariumdagi baliqlar sanaladi. Bunda baliqlarning to‘g‘ri joylanganligiga ham alohida e‘tibor qaratiladi.

O‘yinni xulosalash: O‘yin so‘ngida o‘yinni to‘g‘ri tez bajargan qator o‘quvchilari g‘olib deb e'lon qilinadi va ijobiy baholar bilan rag‘batlantiriladi.

Ushbu o‘yin boshlang‘ich sinflarda morfologiya bo‘limiga oid qisqacha bilimlarni egallashlarida ham yordam beradi. Ularni tezkor bo‘lishga va o‘yin jarayonida odob axloq qoidalariga rioya etishga o‘rgatadi.

Keyingi didaktik o‘yinimiz “Savatni to‘ldir” deb nomlanadi.

O‘yinning maqsadi: Ushbu o‘yin o‘quvchilarda tartib va miqdor sonlarni farqlashga o‘rgatish hamda o‘quvchilar o‘rtasida jamoa bilan do‘stona ishlashni targ‘ib qilish.

O‘yinni tashkil etish: Sinfdagi o‘quvchilar 2 guruhga bo‘lish va past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni qatnashtirish orqali amalga oshiriladi.

O‘yinning borishi: Stol ustiga 2 ta qo‘l mehnati bilan yasalgan savatcha qo‘yiladi va doskaga meva va sabzavotlar ko‘rinishidagi qog‘ozlar yopishtiriladi. Har bir meva va sabzavot ortiga tartib va miqdor sonlar yozib chiqiladi. Bunda mevalarning ortiga miqdor sonlar, sabzavotlarning ortiga tartib sonlar yozish yoki aksincha qilib yozish yohud aralash qilib yozish ham mumkin. So‘ngra bu savatni past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar 2 guruhga bo‘lingan holda to‘ldiradilar.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O‘yinni yakunlash: Savatchalar to‘lgandan keyin o‘quvchilar o‘z joylariga borib joylashadilar. O‘qituvchi har bir savatchani to‘g‘ri to‘ldirilganiligini tekshirib chiqadi.

O‘yinni xulosalash: O‘yinni xulosalashda yaxshi ishtirok etgan va birinchi bo‘lib savatni to‘ldirgan jamoa g‘olib deb e'lon qilinadi hamda ijobiy baho bilan rag‘batlantiriladi.



Yuqorida keltirilgan o‘yinlardan tashqari o‘quvchilarga son mavzusini tushuntirish va uni mustahkamlashda sonlar qatnashgan maqollardan aytish bo‘yicha bellashuvlar o‘tkazish ham bolalarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Sanamay sakkiz dema.

Yetti o‘lchab bir kes.

Yeridan ayrilgan yetti yil yig‘lar, elidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar.

Tahlil va natijalar

Bundan tashqari bolalarning mantiqiy savodxonligini oshirish, ularni zehnli va ziyrak qilib tarbiyalashda topishmoqlarning ham o‘rni katta deb hisoblayman. Topishmoqni har darsda qo‘llash sinfning ilg‘or bo‘lishiga yordam beradi.

To‘rt yonida to‘rtta oy, boshimga berar chiroy. (Do‘ppi)

Tinmas bitta, tinglar mingta. (Radio)

Biz bilamizki, rebuslar ham topishmoqlarga o‘xshab aqlni charxlovchi vosita hisoblanadi. Rebuslar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli mashg‘ulot bo‘lib, ularning fikrlashlarini kengaytiradi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Odatiy darslardan ko‘ra o‘quvchilar uchun noan'anaviy darslar juda qiziqarli bo‘lishi hammamiz uchun siz emas , albatta. Shu boisdan har bir darsni o‘zgacha ruhda tashkil etish pedagogdan ulkan mahorat talab qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida obrazlilik kuchli namoyon bo‘lgani bois darslarda turli hikoya va ertaklarni bolajonlarning o‘zlari ishtirokida sahna ko‘rinish qilib tasvirlansa bolalarda tasavvur qilish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Xuddi shuningdek, son so‘z turkumida ham barchamiz uchun tanish bo‘lgan xonanda Sardor Mamadaliyevning raqamlar haqidagi qo‘shig‘ini bolajonlar bilan sahnalashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Yana bir muhim masala bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida muhim sanalarni xotiralariga mustahkamlash hisoblanadi. Aynan mana shu sanalar ham raqamlar bilan bog‘liq bo‘lib, shu asnosida yana bir didaktik o‘yinni e'tiboringizga havola etmoqchiman.

O‘yin nomi: “Sirli g‘or”

O‘yinning maqsadi: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muhim sanalarni eslab qolishlariga yordam berish.

O‘yinni tashkil etish: Bunda kamida 4ta o‘quvchi doskaga chiqarilib o‘yin shartlari asosida o‘tkaziladi.

O‘yinning borishi: O‘qituvchi doskaga quyidagicha qilib rasm ilib qo‘yadi. 4ta eshik va markazda sirli g‘orning asosiy eshigi. Har bir eshik ortiga muhim sanalar bilan bog‘liq bo‘lgan raqamlar yoziladi, shu jarayonda aytib o‘tish lozimki, bu 4 ta raqam birlashib ma'lum voqea sodir bo‘lgan yilni ifodalashi lozim. Ya'ni quyidagicha:

Birinchi o‘quvchi birinchi eshikni ochadi va unda 1 raqami yashiringan bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchidan “Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni” qachon?” deb so‘raydi va shu tariqa keyingi bola bilan davom ettiradi. Ikkinchi raqam 9 bo‘lishi mumkin. Bunda “Xotira va qadrlash kuni ” qachon nishonlanadi?” savolini berishi lozim. Keyingi o‘quvchiga yana 9 raqami chiqishi mumkin, shunda ustoz bolalardan Sohibqiron Amir Temur bobomizning tavalludlari qachonligini so‘raydi. Eng so‘nggi ishtirokchi oxirgi kichik g‘or eshigini ochadi va unda ham 1 raqami yashiringan bo‘ladi. O‘qituvchi 1 raqami bilan bog‘liq bo‘lgan ustoz va murabbiylar kuni haqida so‘raydi. Shu tarzda to‘rttala g‘or eshigi ochilgach sirli g‘or ham sekin ochila boshlaydi va sirli g‘orning ortida barcha topilgan raqamlardan iborat sana ya'ni 1991-yil kelib chiqadi. O‘qituvchi bolalarga qarata ushbu sana haqida ma'lumot berishlarini aytib o‘tadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O‘yinni yakunlash: O‘yin sirli g‘orning ochilishi va o‘quvchilarning xazinalar kalitiga ega bo‘lishlari bilan yakunlanadi. Bu o‘yinni yanada takomillashtirib 3 guruhga bo‘lingan holda har bir guruh uchun alohida o‘tkazish mumkin.

O‘yinni xulosalash: O‘yin so‘ngida o‘quvchilarga muhim sanalarni eslab qolishlari ta'kidlanib, faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Yana shu narsani aytib o‘tish lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yaratilgan har bir fan



bir biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Shu jihatdan qaraydigan bo‘lsak, ona tili fanida aynan son mavzusi matematika fani bilan uzviy aloqador hisoblanadi. Mashqlar bajarish jarayonida o‘quvchilarning matematik bilimlarini sinash mumkin. Ya'ni quyidagi she'riy parchalar orqali misralardagi ham sonlar topiladi ham matematik ifoda yechimiga ega bo‘lishi kuzatiladi.

O‘ynar uchta qiz bola,
Go‘yo ochilgan lola.
Do‘stlar kelishdi beshta
Aytgin, bo‘ldi ular nechta? (8ta)

Kelishardi izlab buloq,
Bir echki-yu, ikki uloq.
Anvar aytgin, nechta quloq,
Ham ularda nechta oyoq? (6 ta quloq, 12 ta oyoq)

Biz bilamizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni o‘sish va rivojlanish davrida bo‘lib, maktab yoshidagi bolalarda nutqni rivojlantirish, fikrni mantiqiy izchil bayon qilish muhim ahamiyatga ega. Aynan mana shu jihatlarni bolalarda rivojlantirish dars mashg‘ulotlarida tez aytishlar ayttirish, rasmlar asosida hikoya, ertaklar tuzdirish orqali amalga oshiriladi. Dars jarayonida “Tez aytishni tez-tez ayt”, “Ertakchi bolajon”, “Hikoyani davom ettiramiz” kabi interfaol usullardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1. Bir tup tut tagida 1tup turp.
2. Sobir 8 ta sabzini saralab sanadi.
3. 4 ta topqir topaloq topishmoq topar quvnoq.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi qayd etilgan son so‘z turkumiga oid barcha fikr va tavsiyalarni dars jarayonida qo‘llanilsa, bolalarning darsga qiziqishlari ortadi, sinfdagi faollik yanada kuchayadi. Yana bir qancha muvaffaqiyatlarga erishamizki, ular quyidagilar:

- O‘quvchilar dars davomida faol ishtirok etadilar;
- Nafaqat son so‘z turkumi, balki morfologiya bo‘limi haqidagi qisqacha bilimlarga ega bo‘ladilar;
- Son so‘z turkumiga to‘g‘ri savol berishni o‘rganadilar;
- Mantiqiy fikrlashlari rivojlanadi;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

- Nutqiy faoliyatlari yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Rustamov. “Til xususida so‘z”. “G‘afur G‘ulom”. Toshkent. 2021.
2. A. Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. “G‘afur G‘ulom”. Toshkent. 1983.
3. S. Fuzailov, M. Xudoyberganova, Sh. Yo‘ldosheva “Ona tili 3- sinf o‘quvchilari uchun darslik”. “O‘qituvchi”. Toshkent. 2019.

FIZIKA MASALALARNI MATEMATIK QONUNIYATLAR VOSITASIDA YECHISH METODIKASI

[1]Raimov G`ayrat Fayzullayevich, [2]Karasakalov Revkat Kenesovich
[1]TerDU Nazariy fizika kafedrasi katta o`qitivchisi.
[2]Termiz Davlat pedagogika instituti Matematika uni o`qitish metodikasi kafedrasi o`qituvchisi

Annotasiya: *Ushbu maqolada isbotlashga doir fizik masalalarni matematik usullarda qulay va oson yechilish usullari batafsil yoritib ko‘rsatilgan.*

Tayanch so‘zlar: *masala, yechim, standart, nostandart, vaqt, tezlik, hosila, tebranish amplitudasi, sig`im, linza, differnsial, Koshi tengsizligi.*

ФИЗИКА МЕТОДИКА РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ С ПОМОЩЬЮ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ЗАКОНОВ

[1]Раимов, Гайрат Файзуллаевич, [2]Карасакалов Ревкат Кенесович
[1]Старший преподаватель кафедры теоретической физики ТерГУ
[2] преподаватель кафедры математики и методики ее преподавания Термезского государственного педагогического института

Аннотация: *В этой статье подробно описаны удобные и простые математические методы решения физических задач, связанных с доказательствами.*

Ключевые слова: *проблема, решение, стандарт, нестандартный, время, скорость, производная, амплитуда колебаний, емкость, линза, дифференциал, неравенство Коши.*

PHYSICS METHODOLOGY FOR SOLVING PROBLEMS BY MEANS OF MATHEMATICAL LAWS

[1]Raimov Gayrat Fayzullayevich, [2]Karasakalov Revkat Kenesovich
[1]Terdu senior lecturer at the Department of Theoretical Physics
[2]Teacher of the Department of methods of teaching him mathematics of Termez State Pedagogical Institute

Annotation: *this article highlights in detail the methods of convenient and easy solution of physical problems related to proof in mathematical methods.*

Base words: *issue, solution, standard, non-standard, time, speed, derivative, vibration amplitude, capacitance, lens, differnesial, Koshi inequality.*

Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan isbotlashga doir fizik masalalar asosan olimpiada materiallarida keng qo’llanilgan bo’lib, bunday ko‘rinishdagi misollar asosan fizikadan olimpiadalarga tayyorgarlik ko‘rayotganlar uchun qo‘l keladi. Biz bu isbotlashga doir fizik masalalarimizning qisqaroq va qulayroq yechish usullarini keltirib o‘tamiz. Biz o‘rganayotgan masalalarning yechish usullari bizning shaxsiy tajribamizga asoslangan holda kelib chiqqan bo‘lib avvalgi usullardan osonroq va tushunish hamda tushuntirish uchun qulayroq. O‘ylaymizki bizning bu maqolamizdan o‘zingizga kerakli bo‘lgan zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lasiz degan umiddamiz.

Masala deb ma’lum shartlarga ko‘ra qo‘yilgan savolga javob berishni talab etuvchi har qanday jumlaga aytiladi.

Masalani yechish-bu masalani bevosita yoki bevosita mavjud bo‘lgan sonlar, miqdorlar, munosabatlar ustida amallar va operatsiyalarning mantiqan to‘g’ri ketma-ketligi orqali masalalarning talabini bajarish (uning savoliga javob berish) demakdir.

Bu bosqich masala shartidagi ma’lumotlardan foydalanib izlanayotgan kattaliklarni topishga imkon beradigan tenglik yoziladi, ya’ni matematika tiliga aylantiriladi.

- Ma’qul topilgan biror usulda yechib chiqish;

Bu bosqichda hosil bo‘lgan algebraik tenglama yechiladi.

- Hosil bo‘lgan yechimlarning masala shartlarini qanoatlantirishini sinab ko‘rish;

-tekshirish (mazkur shartlar asosida masala yechimga ega yoki yechimga ega emasligi tekshiriladi);

Masala yechimining bayonini berish;

- yechish usulini tahlil qilish (ratsional yoki umumiy yechish usuli bor-yo‘qligi haqida xulosalar).

Masalalar ularning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga imkon beradi. Bir masala bir necha usul bilan yechilsa, uni bajargan o‘quvchi, unda qo‘llanilayotgan turli faktlarning o‘zaro aloqador ekanligini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ko‘rilayotgan masalalar standart yoki nostandart bo‘lishi mumkin.

Standart masalalar deb, shunday masalalarga aytiladiki, ularning har birining yechish tartibi biror bir matematik qoida yoki tasdiqlar bilan aniq beriladi.

Nostandart masalalarni bunday yechish yo‘li, odatda, sun’iy usul (yoki «Evrik» qoida) debataladi. Nostandart tenglamalarni yechishning umumiy usuli mavjud emas. Odatda, nostandart tenglamalarni yechish uchun funksiyalarning grafiklaridan, turli xossalaridan foydalaniladi. Ma’lumki, funksiyalarni tekshirish, grafiklarini yasashda hosiladan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan nostandart tenglamalarni yechishda hosiladan foydalanish mumkin bo‘ladi va bu tenglamaning ildizlarini topish ancha osonlashadi. Demak, hosiladan foydalanib nostandart tenglamalarni yechish, shuningdek, differensial hisobning asosiy teoremalaridan keng foydalanish mumkin.

Quuyidagi maslalar yordamida namuna keltiramiz:

1. ***masala***. Avtobus A qishloqdan B qishloqqa tomon 36 km/h tezlik bilan yo’lga chiqib, har 30 min yurgandan keyin 5 minutdan to’xtab turdi. Ikki soatdan keyin shu yo’nalishida A qishloqdan 72 km/h tezlik bilan avtomobil yo’lga chiqdi va to’xtovsiz harakatlandi. Avtomobil avtobusga qancha vaqtda yetib oladi?

Yechish: Avtomobilning avtobusga yetib olish vaqtini topish uchun har ikkalasini harakat tenglamalarini tuzib olamiz.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Avtomobil uchun:
$x_1(t) = x_{01} + \vartheta_1 t = 0 + 20t = 20t;$
Avtobusning harakat tenglamasi biroz boshqacha tuziladi:

U boshlang'ich 1 soatda jami 30 min harakatda, 5 min to'xtagan va 25 min harakatlangan. 2 soatda esa 30 min harakatda 5 min to'xtagan 30 min harakatda 5 min to'xtagan 30 min harakatda min to'xtagan ……..va hokazo. 1 soatda to'xtalishlar soni $\left[\frac{60}{35}\right]$, ikki soatdagi to'xtalishlar soni i $\left[\frac{2\cdot60}{35}\right]$,…… $\left[\frac{t\cdot60}{35}\right]$, uning t vaqtdagi jami harakat vaqti $\frac{1}{60}(60t - 5\left[\frac{t\cdot60}{35}\right])$ soat, ga teng. Endi avtobusning ikki soatdagi bosib o'tgan yo'lini topamiz:
$x_{02} = 36 \cdot \frac{1}{60}\left(120 - 5\left[\frac{2\cdot60}{35}\right]\right) = 63km$. Endi uning harakat tenglamasini tuzamiz:
$x_2(t) = 63 + \frac{1}{60}(60t - 5\left[\frac{t\cdot60}{35}\right]) \cdot 36$,
$x_1(t) = x_2(t)$ shartda ular uchrashadilar.
$63 + \frac{1}{60}\left(60t - 5\left[\frac{t\cdot60}{35}\right]\right) = 72t \qquad 63 + 36t - 3\left[\frac{t\cdot60}{35}\right] = 72t$
$63 - 36t = 3\left[\frac{t\cdot60}{35}\right] \qquad 21 - 12t = \left[\frac{t\cdot12}{7}\right] \quad \frac{t\cdot12}{7} = y \qquad t = 7y/12$
$63 - 7y = 5 \cdot [y] \qquad y = \frac{38}{7}$ soni tenglamani aniq qanoatlantiradi
$t = \frac{7y}{12} = \frac{7}{12} \cdot \frac{38}{7} = \frac{19}{6} soat = 190\ minut$

2. masala. Moddiy nuqta muvozanat vaziyatidan 4 sm ga siljiganida uning tezligi 6 sm/s ga, 3 sm ga siljiganida esa 8 sm/s ga teng. Tebranish ampilitudasini (sm) da toping.

Yechim: Tebranishlarning garmonik tenglamasini yozib olaylik:
$X = Asin\omega t$ (1)
garmonik tebranish tenglamasidan vaqt bo'yicha olingan birinchi tartibli hosila garmonik tebranayotgan jismning tezlik o'zgarish tenglamasiga teng:
$\vartheta = A\omega cos\omega t$ (2)
(1) va (2) ifodalarni mos ravsihda (3) va (4) ga quyidagicha o'zgartirib yozaylik:
$\frac{X}{A} = sin\omega t$ (3)
$\frac{\vartheta}{A\omega} = cos\omega t$ (4)
(3) va (4) tenglamalrni chap va o'ng tomonini kvadratga ko'tarib qo'shib yuboramiz:
$\frac{x^2}{A^2} + \frac{\vartheta^2}{A^2\omega^2} = cos^2\alpha + sin^2\alpha = 1 \qquad \frac{\vartheta^2}{A^2\omega^2} = 1 - \frac{x^2}{A^2} = \frac{A^2 - x^2}{A^2}$
$\frac{\vartheta^2}{\omega^2} = A^2 - x^2 \qquad \omega^2 = \frac{\vartheta^2}{A^2 - x^2}$
Masala shartiga asosan 1- va 2- hol uchun ω^2 larni tenglab yuboramiz:
$\frac{36}{A^2-16} = \frac{64}{A^2-9} \qquad \frac{9}{A^2-16} = \frac{16}{A^2-9} \qquad 9A^2 - 81 = 16A^2 - 256$
$7A^2 = 175 \qquad A^2 = 25 \qquad A = 5sm$

3. masala. Sirt zichligi σ bo'lgan, zaryadlangan shar l masofada maydon potensiali φ bo'lsa, sharning elektr sig'imini hisoblang.

Yechim: Sharning elektr sig`imi va zaryadini yozib qo'yaylik:
$C = 4\pi\varepsilon_0 R\ ; \quad q = \rho\sigma = 4\pi R^2\sigma\ ; S = 4\pi R^2$
$\varphi = \frac{kq}{R+l} = \frac{4\pi R^2\sigma}{4\pi\varepsilon_0(R+l)} = \frac{R^2\sigma}{\varepsilon_0(R+l)}$ bundan:
$\varphi\varepsilon_0(R + l) = R^2\sigma$ bundan:
$\varphi\varepsilon_0 R + \varphi\varepsilon_0 l = R^2\sigma$
Tenglamani chap va o'ng tomonini σ ga bo'lib yuboramiz:
$R^2 - \frac{\varphi\varepsilon_0}{\sigma}R - \frac{\varphi\varepsilon_0}{\sigma}l = 0$ kvadrat tenglamani yechamiz:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

$D = (-\frac{\varphi\varepsilon_0}{\sigma})^2 + \frac{4\varphi\varepsilon_0 l}{\sigma} = \left(\frac{\varphi\varepsilon_0}{\sigma}\right)^2 \left(1 + \frac{4l\sigma}{\varphi\varepsilon_0}\right)$ bundan:

$R = \frac{\varphi\varepsilon_0}{\sigma} + \frac{\varphi\varepsilon_0}{\sigma}\sqrt{1 + \frac{4l\sigma}{\varphi\varepsilon_0}}$

$C = 4\pi\varepsilon_0 R = 4\pi\varepsilon_0 \frac{\varphi\varepsilon_0}{\sigma}\left(1 + \sqrt{1 + \frac{4l\sigma}{\varphi\varepsilon_0}}\right)$ Bundan:

$C = \frac{2\pi\varphi\varepsilon_0^2}{\sigma}\left(1 + \sqrt{1 + \frac{4l\sigma}{\varphi\varepsilon_0}}\right)$

4. masala. Linza oldidagi buyum bilan uning haqiqiy tasviri orasidagi eng qisqa masofa 25 sm ga teng bo'lsa, linzaning optik kuchinin (D) toping.

Yechim:

d+f=0,25 bundan: $d + \frac{Fd}{d-F} = 0{,}25$ (1)

$\frac{1}{F} = \frac{1}{d} + \frac{1}{f}$ bundan: $f = \frac{Fd}{d-F}$ (2)

Bu yerda d-maksimumga erishish uchun uning hosilasi nolga teng bo'lishi kerak:

$\frac{2d(d-F) - d^2(1-0)}{(d-F)^2} = 0$ bundan: $\frac{d^2 - 2dF}{(d-F)^2} = 0$ bundan: $d = 2F$ (3)

(3) ni (2) ni keltirib qo'ysak:

$f = \frac{F \cdot 2F}{F} = 2F$ bundan:

$4F = 0{,}25$ bundan: $F = \frac{1}{16}$

U holda:

$D = \frac{1}{F} = \frac{1}{\frac{1}{16}} = 16\ dptr$

2-usul:

$\frac{1}{F} = \frac{1}{d} + \frac{1}{f}$ bundan: $f = \frac{Fd}{d-F}$

$d + f = l$ bundan: $l = \frac{d^2}{d-F}$

$l = \frac{d^2 - F^2 + F^2}{d-F} = \frac{d^2 - F^2}{d-F} + \frac{F^2}{d-F} = d + F + \frac{F^2}{d-F} = d - F + 2F + \frac{F^2}{d-F} = (d - F + \frac{F^2}{d-F} + 2F$

Koshi tengsizligidan:

$((d-F) + \frac{F^2}{d-F})_{min} = 2\sqrt{(d-F)\frac{F^2}{d-F}} = 2F$

demak:

$l_{min} = 2F + 2F = 4F = 0{,}25$ bundan: $F = \frac{1}{16}$

U holda: $D = \frac{1}{F} = 16\ dptr$

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarning yuqori sinflarga ko'chganida matematik tushunchalarni o'zlashtirishlarida qiyinchilikalrga duch kelishadi. Bu ayniqsa, fizika darsiga qiziqtirishni uyg'otish, o'quvchilarga fizika darsiga qiziqarli o'tishi uchun o'qituvchi o'z kasbining mohir bilimdoni, izlanuvchisi, yetuk ustozi bo'lishi lozim. Fizika masalalar va ularning yechish usullarini o'rgatishda turli innovatsion pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanib tashkil qilingan darslar o'quvchilar o'zlashtirishlarini kafolatlaydi. Ularning yechish usullari mavzusi fizikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib uni 6-11-sinflarda chuqur va mukammal o'rganish kelajakda ushbu fanning fidoisi bo'lib yetishishlari uchun zamin hozirlaydi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar

1. Raimov G`. F. Maktab fizika darslarida nostandart masalalar yechish metodikasi // Namangan davlat universiteti axborotnomasi –Namangan, -2020. -7- son. -B.300-304. (13.00.00, №30). ISSN-2181-0427.

2. Raimov G`. F. Improving the solution of non-standard problems in school physics lessons // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. –Namangan, -2021. -9 – son. -B.-423-429. (13.00.00, №30). ISSN-2181-0427.

3. Raimov G'. F. Methodology of selection, construction and solution of non-standard graphics, drawings, pictures of the department of physics "mechanics" // European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: https://www.scholarzest.com Vol. 2 No. 5, may 2021 y, ISSN: 2660-5562 142 | Page 142-146.

4. Raimov G. F. Principles of didactics in computer solution of non-standard problems from physics in general secondary schools. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (102), (2021). 759-761. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-102-79 Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS Scopus ASCC: 3304.

5. Раимов Ғ. Ф. Физиканинг “Механика” бўлимига доир турли типдаги ностандарт сифат ва экспериментал масала ечиш методикаси// “Конденсирланган муҳит физикасининг ривожланиш истиқболлари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция. 2022 йил 14-15 октябрь. -Қарши. -Б. 221-223.

6. Раимов Ғ. Ф. Физиканинг “Механика” бўлимига доир турли типдаги ностандарт масала ечишни такомиллаштириш методикаси// “Конденсирланган муҳит физикасининг ривожланиш истиқболлари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция. 2022 йил 14-15 октябрь. -Қарши. -Б. 228-232

7. Раимов Ғ. Ф., Турдиев И. Ў. Физиканинг “Механика” бўлимига доир турли типдаги ностандарт график масала ечиш методикасини такомиллаштириш // “Конденсирланган муҳит физикасининг ривожланиш истиқболлари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция. 2022 йил 14-15 октябрь. -Қарши. -Б. 235-237.

TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA UNIVERSAL TA'LIM FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Maxmudova Manzura Jurayevna
Namangan davlat universiteti geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.n
Jo'rayeva Surayyo Ibragimjonovna
Namangan viloyati Chortoq tumani 12-umumiy o'rta ta'lim maktabi bashlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya. *Zamonaviy tabiatshunoslik fanida ko'rsatkichlar muammosiga turli xil yondashuvlar tahlili. Tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan ilm-fan, texnologiya va ishlab chiqarishdagi yangiliklar va o'zgarishlar.universal ta'lim faoliyatiga oid metodlar tahlili. Tabiatshunoslik fanini o'qitishga modellashtirish bo'yicha tadqiqotlar.Tabiatshunoslik darslarini amaliyotga bog'lanishi.*

Kalit so'zlar: *model, metod, uslub, onglilik tamoyili, dars, darsdan tasqari mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, sayohatlar, amaliy mashg'ulotlar, ijtimoiy-foydali mehnat, Quyosh, Oy, yulduzlar, Yer, havo, suv, toshlar, o'simliklar, hayvonlar, odam.*

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ УНИВЕРСАЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА УРОКАХ ЕСТЕСТВОЗНАНИЯ

Махмудова Манзура Джураевна
Доцент кафедры географии Наманганского государственного университета, г.f.n
Джураева Сурайя Ибрагимжоновна
Учитель начального образования средней общеобразовательной школы № 12 Чартокского района Наманганской области

Аннотация. *Анализ различных подходов к проблеме показателей в современной естественнонаучной науке. Инновации и изменения в быстро развивающейся науке, технологиях и производстве.анализ методов универсальной учебной деятельности. Исследования по моделированию преподавания естественных наук. Привязка уроков естествознания к практике.*

Ключевые слова: *модель, метод, методика, принцип осознанности, урок, внеклассные занятия, лабораторные работы, путешествия, практические занятия, общественно-полезный труд, солнце, луна, звезды, земля, воздух, вода, камни, растения, животные, человек.*

MECHANISMS FOR THE FORMATION OF UNIVERSAL EDUCATIONAL ACTIVITIES IN NATURAL SCIENCE LESSONS

Makhmudova Manzura Jureyevna
Associate professor of the Department of geography, Namangan State University, g.f.n
Zhurayeva Surayyo Ibragimjonovna
12th general Secondary Education School of chortoq District of Namangan region education teacher

Annotation. *Analysis of various approaches to the problem of indicators in modern natural science. Innovations and developments in rapidly evolving science, technology and manufacturing.analysis of methods related to universal educational activities. Research on modeling in teaching Natural Science.Linking natural science lessons to practice.*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Key words: *model, method, style, principle of mindfulness, lesson, lesson-affirming activities, laboratory work, travel, practical activities, socio-useful work, Sun, Moon, Stars, Earth, air, water, stones, plants, animals, man.*

Kirish

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim tobora fan va ish;ab chiqarish bilan integratsiyalashib, ijtimoiy rivojlanishning muhim omiliga aylanib bormoqda. Tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan ilm-fan, texnologiya va ishlab chiqarishdagi yangiliklar va o'zgarishlarni hisobga olish, ularning taraqqiyoti talablariga javob berish muammosi ta'limni mazmuni jihatidan takomillashtirishni hamda o'qitshning ilg'or usul va vositalarini amaliyotga joriy etishni talab etmoqda.xususan, Boshlang'ich ta'limda tabiatshunoslik darslarida o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyo qarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani boshlang'ich sinflarda amalga oshirishda tabiatshunoslik fani ham muhim rol o'ynaydi. Bu predmetni o'rganish kichik yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy tajribasini boyitadi, atrofimizdagi jonli va jonsiz tabiatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlar to'g'risida bilimlar to'plash ga imkon beradi. Shuning uchun ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, pedagogik o'quv predmeti sifatida tabiatshunoslikni o'qitish fanining ilmiy-nazariy va amaliy yutuqlari bilan yaxshi tanish bo'lishlari kerak. Tabiatshunoslikning o'qitish metodikasini yaxshi bilish boshlang'ich maktab o'qituvchisiga bolalarni o'qitishni to'g'ri tashkil qilish imkonini beradi. Metodika o'qituvchini tabiatshunoslikni o'qitish nazariyasi bilan qurollantirib, o'qitish mahoratini egallab olishiga im kon yaratadi[3.156].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Г. Klaus falsafiy tadqiqotlarida ma'lum bir bilim sohasidagi faktlar, narsalar va munosabatlarni u yoki bu sohaning soda, ko'proq visual moddiy tuzilishi shaklida aks ettirishni model deb ataydi. V. A. Shtoff tadqiqot obyektini aks ettirish yoki ko'paytirish orqali uni almashtirishga qodir bo'lgan model, aqliy yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim orqali tushunadi. Uning fikriga ko'ra model aqliy yoki moddiy jixatdan amalga oshirilgan tizim orqali tushunadi, shunda uni o'rganish bizga ushbu obyekt haqida yangi ma'lumot beradi. V.R.Golov o'zining "Tabiatshunoslik o'qitish vositalari va ulardan samarali foydalanish shartlari" asarida birinchi marta tabiiy jarayonlarning spontan modellari maktabda deyarli qo'llanilmasligini ta'kidladi. ushbu modellar hodisalar o'rtasidagi tashqi o'xshashlikka asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

O'quv materiallarining mazmunini ochib berishda xilma-xil o'qitish metodlaridan foydalanishga turlicha yondashish mumkin. U yoki bu metodni tan lashda o'qituvchi shuni nazarda tutishi kerakki, bu tanlash metodlar rivojlantiruv chi ta'limning vazifalarini ta'minlasin, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollash tirsin va bir paytning o'zida qayta axborot bersin, ya'ni muvaffaqiyatsizlik sababi ni aniqlash va o'z vaqtida yordamga kelish uchun o'quvchilar tomonidan yangi bilimlarning qanday o'zlashtirilayotganligini tez va aniq ko'rsatib bersin. Shunga ko'ra tabiatshunoslik darslarida amaliy ishlar, suh batlar, ayniqsa, mustaqil ishlar dan ko'proq foydalanish kerak, bunda tadqiqiy yondashish, murakkab bo'lmagan tahlil va sintez, taqqoslash va umumlashtirish, tabiat hodisalari o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarni aniqlash o'sha ishlarning majburiy tarkibiy qismlari bo'lishi lozim. Bularning hammasi o'quvchilar xotirasi, e 'tibori, tasavvuri, tafakkuri faollashtiradi, tushun cha va ishonchning vujudga kelishiga bilimni yaxshiroq egallashga, o'zlashtirgan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llay olish uquvlarini

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarning sezgilari qabul qilib olishlari va zehni rivojlanishlariga ta’sir etuvchi ko‘rgazmali qurollar va texnika vositalari hamda ekskursiyalar o‘tkazilishi bilimlarning o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Tabiatshunoslikni o‘qitish jarayonida maktab bolalarida ilmiy dunyoqarash asoslari shakllantiriladi (o‘qituvchi tabiat jismlari va voqea-hodisalarining moddiyligini ulaming o‘zaro bog‘liqligini izchillik bilan ochib beradi, tabiatda sodir bo‘ib turadigan doimiy o‘zgarishlarni xarakterlaydi va hokazo), estetik tuyg‘u, tabiatga muhabbat, uning to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish va muhofaza etishga intilish tarbiyalanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun eng muhimi ta’lim-tarbiya tizimini tushunib olish, tabiatshunoslikni o‘qitish asoslarini, uning uchun xos bo‘lgan shakl, metod va uslublarni o‘quvchilarning bilish faoliyatlariga rahbarlik qilishni o‘rganib olishdir. Shuningdek, o‘z o‘lkasining tabiati va qishloq xo‘jaligi xususiyatlarini yaxshi bilishi, o‘quvchilar bilan ish olib borishda o‘lkashunoslik materiallaridan muntazam ravishda foydalanib borishi zarur [9]. Bu masalalarning barchasi mazkur o‘quv qo‘llanmada to‘liq yoritilgan bo‘lib, unda asosan “Tabiatshunloslik o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasining pedagogik va uslubiy basoslari, o‘qitish usullari, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar bayon etilgan. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi tabiatshunoslikni o‘qitishda bolalarni har tomonlama tarbiyalashning mazmuni va metodlarini ochib beruvchi pedagogik fandir. U pedagogikada ishlangan tadqiqotlarga asoslanadi va o‘z predmetini o‘qitish mazmuni hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda uning metodlaridan foydalanadi. O‘quvchilarga tabiatni o‘rgatib borish bilan o‘qituvchi ularni ta’limni davom ettirish va amaliy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilimni o‘quv va ko‘nikmalar bilan qurollantiribgina qolmay, dunyoqarashi, irodasi, xarakterini ham shakllantiradi, aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shunga ko‘ra tabiatshunoslikni o‘qitishning shakl va metodlarini ishlab chiqadi. O‘qitish jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan qismlarni: predmet mazmunini, o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatini, fanni o‘qitishni va ko‘nikmalarni egallab olishni o‘z ichiga oladi. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasining vazifalari qatoriga o‘quv fani sifatida tabiatshunoslik mazmunini aniqlash, o‘qitishning metod va uslublarini tadqiq etish, zarur o‘quv jihozlarini tayyorlash kiradi. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi faqat o‘qitish jarayonini ta’riflash va tushuntirish bilan cheklanib qolmay, balki qoidalarni ham ishlab chiqadi, o‘qituvchi ularga asoslanib, shu fan bo‘yicha bolalarni muvaffaqiyatli ravishda o‘qitishi mumkin.

Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi o‘qituvchining tayyorlanishidan tortib, to o‘quv materialini o‘zlashtirish natijalarini, jumladan, sinfdagi, uydagi, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni hisobga olishgacha barcha o‘qitish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. O‘qitish amaliyotini har tomonlama o‘rgatish va natijalarni keyin ijodiy umumlashtirish asosida o‘qitishning muayyan qonuniyatlari belgilanadi hamda uni yanada yaxshilash bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqiladi. Chunonchi, o‘rganilayotgan narsalarni bevosita qabul qilish qonuniyati asosida predmetli o‘qitish, qo‘llash bo‘yicha aniq tadbirlar ishlab chiqiladi[10].

Tabiatshunoslikni metodikasi o‘rganadigan va ishlab chiqadigan masalalarga quyidagilar kiradi:

1) o‘quv fani sifatida tabiatshunoslik fanining ta’lim va tarbiyaviy ahamiyati, uning tarbiya tizimidagi o‘rni;

2) o‘quv materialining mazmuni va uni taqsimlanish tizimi;

3) o‘qitish metodlari va o‘quv ishlarini tashkil etish shakllari

4) o‘quv materialini, o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayoni va o‘qitish natijalarini hisobga olish[11];

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tabiatshunoslik darslarida nazariyaning amaliyot bilan bog‘lanishini amalga oshirib borishda o‘quvchilarning amaliy faoliyati ularning nazariy bilimlarni o‘zlashtirib olishga bo‘lgan intilishlarini bo‘shashtirmasligi lozim. Amaliy ishlar uchun shunday ob’ekt va tajribalarni tanlash kerakki, bunda ular nazariy tamoyillarni tasdiqlasin va bilimlarni chuqurlashtirish uchun xizmat qilsin.

Tabiatshunoslikni o‘qitishda nazariyani amaliyot bilan bog‘lanishi, uning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi nazariy bilimlarning chuqurlashishi, shuningdek, amaliy faoliyatga tayyorlashga yordam berishi kerak. O‘rganiladi gan nazariy bilimlarNing mazmuniga qarab, dars va darsdan tashqari mashg‘u lotlarning har xil shakllari, masalan, laboratoriya ishlari, sayohatlar, amaliy mashg‘ulotlar, ijtimoiy-foydali mehnatdan foydalanish mumkin.

Tabiatshunoslikni o‘qitishda o‘quvchilarning ongliligi va ijodiy faolligi tamoyili. O‘quvchilarning ongliligi va ijodiy faolligi tamoyili:

1) o‘quvchilarning o‘qishga ongli va ijodiy munosabatda bo‘lishlarini;
2) o‘rganilayotgan materialni tushunib olishlari va tushunganlarini ifodalay olishlarini;
3) o‘qishning ijodiy xarakterda bo‘lishini ;
4) bilimlarni amaliyotda ongli qo‘llashni va ularni ishonchga aylanishini o‘z ichiga oladi.

Onglilik tamoyilini amalga oshirishda bosh rol o‘qituvchiga taalluqlidir, u o‘quvchi oldida turgan vazifalarni aniq qilib ifodalashi va ularni yaxshi baja rishga qiziqish uyg‘otishi kerak. O‘qitishda onglilikni namoyon bo‘lishining oliy shakli o‘quvchilarning ijodiy faolligidir, u gerbariy, maket, model tayyorlash, o‘tkazilgan kuzatishlarni tavsiflash va o‘qituvchi taklif qilgan mavzu bo‘yicha bajarilgan ishlar asosida kichik axborot tayyorlash bilan bog‘liq bo‘ladi.

Tabiatshunoslik darslarida nazariyaning amaliyot bilan bog‘lanishini amalga oshirib borishda o‘quvchilarning amaliy faoliyati ularning nazariy bilimlarni o‘zlashtirib olishga bo‘lgan intilishlarini bo‘shashtirmasligi lozim. Amaliy ishlar uchun shunday ob’ekt va tajribalarni tanlash kerakki, bunda ular nazariy tamoyillarni tasdiqlasin va bilimlarni chuqurlashtirish uchun xizmat qilsin.

Tahlil va natijalar

Tabiatshunoslikni o‘qitishda nazariyani amaliyot bilan bog ‘lanishi, uning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi nazari bilimlarning chuqur lashishi, shuningdek, amaliy faoliyatga tayyorlashga yordam berishi kerak. O‘rganiladigan nazariy bilimlarning mazmuniga qarab, dars va darsdan tasqari mashg‘ulotlarning har xil shakllari, masalan, laboratoriya ishlari, sayohatlar, amaliy mashg‘ulotlar, ijtimoiy-foydali mehnatdan foydalanish mumkin.

Tabiat — Quyosh, Oy, yulduzlar, Yer, havo, suv, toshlar, o‘simliklar, hayvonlar, odamlar — bular hammasi tabiat. Tabiatshunoslik tabiat, tabiat hodisalari haqidagi fandir. Tabiatshunoslikni kuzatish deganda atrof borliq ning jism va hodisalarini rejali ravishda, maqsadga yo‘nalgan holda ongli tashkillangan qabul qilish tushuniladi.

Tabiat hodisalari jonsiz va jonli tabiatda ro‘y beradigan barcha o‘zgarishlar. Tabiatshunoslik bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati-bunda dars larda olingan bilimlar kengaytiriladi, chuqurlashtiriladi va konkretlashtiriladi, tabiatni organishga qiziqish uy otiladi, o'quvchilar faolligi va mustaqilligi rivojlantiriladi.

Tabiatshunoslik bo‘yicha sinfdan tashqari ommaviy ishlar - bularga ekskursiyalar, tanlovlar, diapozitiv va kinofilmlar ko‘rsatiladigan tematik kechalar, har xil tadbirlar (qushlar kuni, gullar bayrami, hosil bayrami va boshqalar) kiradi. Tabiatshunoslik bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarning guruhlari: ommaviy ishlar, guruh ishlari, individual ishlar.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tabiatshunoslik bo‘yicha sinfdan tashqari adabiyot o‘qishning ahamiyati -bu bolalarda tabiat to‘g‘risidagi kitoblarga muhabbat va qiziqishni oshiradi, uni chuqurroq idrok qilishga imkon beradi, tafakkur va nutqni rivojlantiradi, atrof tabiatga munosabatni tarbiyalaydi.

Tabiatshunoslik tasavvurlari va tushunchalarini shakllantirishda tafakkur va nutq katta rol o‘ynaydi. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi tabiatshunoslikni o‘qitishda bolalarni har tomonlama tarbiyalashning mazmuni va metodlarini ochib beruvchi pedagogik fandir.

Demak, sezgi va idrokdan tasvirga, so‘ngra tushunchaga yo‘l voqelikni uning muhim, muntazam aloqalari va munosabatlarida o‘quvchilar ongida eng to‘liq aks ettirish yo‘lidir. Darsda turli xil texnika va ish usullaridan foydalanish, bolalarda mavjud bo‘lgan g‘oyalardan foydalanish, turli ko‘rgazmali qurollardan foydalanish o‘qituvchida umumiy tabiatshunoslik tushunchalarini shakllantirishga yordam beradi. Tushunchalarni shakllantirishda o‘qituvchi taqdimotida muayyan tizim muhim rol o‘ynaydi, agar ta’lim jarayonining barcha qismlari yetakchi g‘oya bilan bog‘langan bo‘lsa va uni ochish va tasdiqlashga xizmat qilsa, erishiladi.

Xulosa

o’rnida shuni aytish mumkinki, o‘qituvchi narsa va hodisalarning asosiy belgilari va xususiyatlarini ochib beradigan suhbatlar tayyorlashga jiddiy yondashishi kerak. Bolalardan faqat xotira bilan ishlashni va dastur materialini ongli ravishda emas, balki mexanik ravishda o'zlashtirishni ko‘rsatadigan savollarni qo‘ymaslik kerak. Savollarni shunday shakllantirish kerakki, ularga berilgan javoblar o‘quvchilarning berilgan ta'riflarni tushunishlarini ko‘rsatadi. Shunday qilib, masalan, savol berish mumkin emas: manba nima? Okean nima deyiladi? Va hokazo.Siz avval bolani daryoning manbasini rasmda, diagrammada, xaritada ko‘rsatishga taklif qilishingiz kerak, so‘ngra daryo yoki oqimning manbai nima deb ataladiganligini so‘rang. O'quvchilarni turtki beruvchi va qo‘shimcha savollar bilan so‘roq qilish mumkin emas, chunki ular bolalarning tabiat hodisasi mazmunini tushunishlarini ochib bermaydi, balki ularni eslab qolishga undaydi. G‘oyalar va tushunchalarni yaratish bo‘yicha izchil ishlarni olib borish, tushunchalarning mazmunini to‘liq anglashga erishish kerak, chunki faqat bunday bilimlar e‘tiqodga aylanadi. Bolalar tomonidan tabiiy ob’ektni maqsadli idrok etishni tashkil etishning muhim sharti - bu uning namoyishini o‘qituvchining tushuntirishi bilan uyg‘unlashtirish. Displey tabiatda yoki kino, tele ko‘rsatuv namoyishi, devor rasmiga qarash, tajriba paytida, mavzu darsida bo‘lishi mumkin. Ushbu ish uslubi maktab o‘quvchilari ongida so‘z va tabiat hodisasi yoki ob'ektining o'ziga xos tasviri o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlaydi. Bundan tashqari, o‘qituvchi o‘quvchilardan tabiat hodisalari yoki narsalarni rasmlarda, kolleksiyalarda va gerbariyada ko'rsatish va ular haqida gapira olish qobiliyatini izlashi, bu hodisaning xarakterli xususiyatlariga to‘xtalib o‘tishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”Toshkent.2021 yil.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 5 июлдаги “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги ПФ-5106-сонли Фармони //www.lex.uz
3. Азизходжаева. Н.Н.Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. –Т. : 2006. – Б. 156
4. “Boshlang'ich ta ’lim” (1 -4 - sinflar uchun o‘quv dasturlari).7- maxsusson. —T., 1999.
5.Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari
J. “Xalq ta’limi”, 1997, 4-son.
6. Yo‘Idoshev J. Yangi pedagogik texnologiya. J. “Xalq ta’limi”, 1999

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

7. Yo ‘Idoshev J. Pedagogik innovatsiyalami hayotga tatbiq etishninj tashkiliy asoslari. J. “Xalq ta’limi”, 1999- yil, 4-son.
8. Mahmatmurodov Sh.M., Ziyadullayev X.Z., Nuriudi»nva M.l Boshlang'ich ta’limning milliy-istiqloliy muammolari. T., 1996.
9. Nuriddinova M.l. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi: tarixi; va nazariy asoslari (muammoli leksiyalar kursi). Samarqand, 2003.
10. Nuriddinova M.l. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi: uslub va shakllari (muammoli leksiyalar kursi). Samarqand, 2003.
11. Tursunov Q.M., Nuriddinova M.l. Boshlang'ich sinflarda ekologik tarbiya asoslari (o'quv qo'llanma). Samarqand, 2003.
12. **www.ziyouz.com kutubxonasi**

UDK: 372.878

SHAXS KAMOLOTINING SHAKLLANISHIDA MUSIQA VA TARBIYANING UZVIY BOG‘LIQLIGI

Xasanova Navbahor Xamraqulovna
Katta o‘qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
navbahor66@umail.uz

Annotatsiya. *Maqolada ta’lim umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi orqali yoshlarning musiqiy savodxonligini va estetik tarbiyasini rivojlantirishda musiqaning o’rniga oid ko‘rsatmalar berilgan. Shuningdek, bugungi kunda musiqa ta’limi jarayonida o‘quvchilarda musiqa san’atiga nisbatan qiziqish va havaslarining ortib borishi va bu san’atning yoshlar ma’naviy kamolotidagi ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *musiqa madaniyati, estetik tarbiya, milliy madaniyat, ta’lim muassasalari, milliy qadriyatlar.*

Аннотация. *В статье даны указания на роль музыки в развитии музыкальной грамотности и эстетическом воспитании молодежи через музыкальное образование в общеобразовательных школах. Также в процессе музыкального образования сегодня отмечается возрастающий интерес и увлеченность учащихся музыкальным искусством и значение этого искусства в духовном развитии молодежи.*

Ключевые слова: *музыкальная культура, эстетическое воспитание, национальная культура, образовательные учреждения, национальные ценности.*

Abstract. *The article provides instructions on the role of music in the development of musical literacy and aesthetic education of young people through music education in general education schools. Also, in the process of music education today, the increasing interest and passion of students in the art of music and the importance of this art in the spiritual development of young people have been highlighted.*

Keywords: *music culture, aesthetic education, national culture, educational institutions, national values.*

Kirish

Respublikamizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar barcha sohalardagi kabi bo‘lajak o‘qituvchilarning zimmasiga ham katta vazifalar yuklaydi. Hozirga kunda, musiqa madaniyati fani birdaniga shakllangan fan emas, balki murakkab taraqiyot yo‘lini bosib o‘tgan fan sifatida e’tirof etilmoqda. Bu ta’lim mazmunida har bir xududning san’ati va musiqa madaniyati, urf–odatlari marosimlari, badiiy an’analarida o‘z ifodasini topgan. Shuni alohida takidlash lozimki, hayotni va atrofdagi go‘zallikni bilmay turib to‘laqonli badiiy ijodni amalga oshirib bo‘lmaydi.

O‘quvchilarni ma’naviy dunyosini boyitish, borliqni idrok etishda uning yaxlitligi, takrorlanmasligi va uyg‘unligini anglash, hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatida ifodalash orqali tafakkurini o‘stirish, ijodkorlikni rivojlantirish, innovatsion g‘oyalarni yaratish hamda kundalik hayotga tadbiq etishga o‘rgatish hozirgi kunning o‘qituvchisi oldiga qo‘yilgan dolzarb masaladir.

Shuningdek, o‘quvchilarni ma’naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini rivojlantirib, ijodiy mahorat, badiiy–estetik didini o‘stirishda, kasb–hunarga yo‘naltirish bilan birga, jismonan baquvvat bo‘lib, sog‘lom turmush tarziga amal qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish aynan musiqa mashg‘ulotlarida amalga oshiriladi.

Asosiy qism

Musiqa madaniyati o‘quv predmeti o‘quvchilarning ma’naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini rivojlantirishga, milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o‘stirishga xizmat qiladi [1].

Musiqa san’ati estetik did, xissiyot, idrokning bitmas tuganmas manbaidir. Inson yuragini va aqlini zabt etuvchi maftunkor dunyosidir. Inson doimo go‘zallika intilishi va kundalik hayotida shu go‘zallik qoidalariga amal qilish kerak.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalashda estetik tarbiyaga alohida e’tibor berilishi juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan jarayondir. Ushbu masalani yechishda musiqa san’atining o‘rni beqiyosdir va estetik tarbiyaning eng asosiy omilidir.

Mamlakatimizning ma’naviy yuksalishi ko‘p jihatdan milliy qadriyatlarimizni qayta tiklashni chuqur anglash, qalb bilan his etgan holda keng ko‘lamda targ‘ibot qilish, va eng muhimi yosh avlodni tarbiyalashni izchil taqozo etadi. Bu borada musiqiy qadriyatlarimiz alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, o‘zbek halqi musiqasiga mansub turfa shaklli kuy-qo‘shiqlar xalqimizning chinakkam bebaho ma’naviy boyliklarini tashkil etadi.

Musiqa o‘zining betakror tabiati bilan o‘quvchilarning ma’naviy dunyosiga katta ta’sir qilish kuchiga ega. Zero, kuy va ohang ta’sirida o‘quvchilarda xissiyot olamining o‘sishi, idrok va tafakkurning shakllanishi, ezgulikka intilishi, go‘zallikni sevish, tabiatni asrash, oila Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagi tobora ortib boradi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. “Musiqa ko‘ngilga axloqan muayyan ta’sir ko‘rsatish quvvatiga ega, hamonki, musiqa shunday xislatga ega ekan, u yoshlarni tarbiyalash predmetlari qatoriga qo‘yilmog‘i lozim”, – deb aytgan edi qadimgi buyuk yunon faylasufi Arastu [2]. Shunday ekan musiqiy ta’lim orqali o‘quvchi–yoshlarni tarbiyalash o‘ziga xos pedagogik yondashuvni talab etadi.

O‘zbekiston mustaqilligi tufayli buyuk ajdodlarimizning boy tarixiy qadriyatlari, ming yilliklarni qamragan betakror va jozibali madaniyatimizga asoslangan ma’naviy merosimizni tikladi. Jamiyatimizning taraqqiyotini yuksaltirishning iqtisodiy va siyosiy omillari singari o‘ta zarur bo‘lgan yana bir muxim asosi borki, usiz mustaqillikni mustahkamlash, ko‘zlangan ozod va

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

obod Vatan, erkin va farovon jamiyat qurishga erishish mumkin emas. Mustaqillik iqtisodiy va siyosiy isloxatlar bilan qatorda odamlar ongi va dunyoqarashida, odob–axloqi, iymon–e'tiqodi, bilim saviyasi va ruhiyatida madaniyati va ma'naviyatida tub asosli o'zgarishlar bo'lishini taqozo etadi.

Bugungi kunda musiqa insonning shakllanishida muhim rol o'ynaydi; uning hissiyoti va ruhiyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri bolalarni nafosat olamiga olib kirish va ularga ma'naviy tarbiya berishdir. Bunda o'qituvchi bolalarni muhim bir musiqa asari bilan tanishtirib uni ifodali "jonli" qilib ijro etib, o'quvchilar diqqat e'tiborini jalb etadi, ularning nutqini o'stirish, fikrlash qobilyatini, dunyo qarashini kengaytiradi, emotsional his–tuygularga ham faol ta'sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirish emas, balki o'quvchilar ongini, voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his–tuyg'ularning shaklan tuzilishi nazarda tutiladi. O'qituvchining darsga ijobiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi, musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlaydi, hayot va san'at o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida tinmay ishlashi, ya'ni bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib ongini oshirish yo'llarini takomillashtirib borishi lozim [3]. Musiqa darslari olib boriladigan sinf xonasi namunali jihozlangan bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Texnika vositalari metodik ko'rgazmali qurollar pianino cholg'u asbobi va o'zbek xalq cholg'u asboblari bilan jihozlangan bo'lishi dasturdan foydalanib dars reja konspektlarini tuzib, yangi texnologiyalarni qo'llab olib borilishi kerak. Shunday qilib, musiqa darslarining barcha faoliyatlarini maqsadi va mazmuni darsni mazmunlarini yoritib, hayot bilan bog'lab darsning hamma qismlarini bir–biri bilan uzviy bog'lab olib borishini talab etiladi. Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarni musiqiy madaniyatini mukammal kamol toptirish, ularni musiqiy savodxonlik malakalarini yanada yuqori saviyada rivojlantirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu vazifalarni amalga oshirishning eng muhim omillaridan biri o'quvchilarni dastlabki musiqiy–nazariy bilimlarini chuqur o'zlashtirishlariga erishishdan iboratdir.

Darslarda berilayotgan dastlabki musiqiy–nazariy bilimlarni chuqur va mukammal o'zlashtirishlari ularni qo'shiq kuylash, musiqa tinglashda uni ongli idrok qilish va tahlil qila bilishlariga samarali ta'sir etadi. Shuning uchun ham har bir darsda o'quvchilarni nafaqat kuylash, musiqa tinglashga oid ko'nikma va malakalarini o'stirishga, balki, ularni musiqiy–nazariy bilimlarni, chuqur va mukammal o'zlashtirib borishlariga e'tibor berish va nazorat qilib borish kerak bo'ladi. Bolalikda aql–farosat, axloqiy ko'nikmalarni tarbiyalash bilan bir qatorda, ularda chiroyli, nafis, go'zal narsalardan zavq ola bilishni, go'zallikni dag'allikdan, qo'pollikdan tez ajrata olish qobiliyatini tarbiyalashimiz kerak. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarni tozalikka, tartiblilikka, go'zallikni sevishga o'rgatish kerak. Buning uchun avvalo mashg'ulot olib boriladigan xonadagi barcha buyumlar did bilan tanlab, joylashtirilgan, toza, saramjon–sarishta bo'lgani ma'qul. Chunki bolalarga ikki xil narsa ko'proq ta'sir qiladi. Birinchisi bolaning ko'ziga tez–tez tashlanadigan buyumlar, odamlar o'rtasidagi munosabat bo'lsa, ikkinchisi bolaning o'ziga bevosita tegishli bo'lgan narsalar – kiyim–kechak, idish–tovoqlar, kitoblar, o'yinchoqlar, yozuv stoli va boshqalardir. Bola o'z buyumlarini asrab, avaylab, toza–ozoda, saramjon–sarishta qilib yurishga o'rgansa, u yoshi ulg'aygan sayin go'zallikning murakkab ko'rinishlarini tabiatdagi uyg'unlikni, san'atdagi go'zallikni payqab olish uchun tayyorlana boradi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Musiqa mashg‘ulotlarida texnika vositalaridan foydalanish, did bilan chizilgan rasmlar, estetik badiiy asarlar va sahna o‘yinlari orqali bola ongiga singdirib boriladi. Shuningdek turli janrdagi badiiy asarlarni o‘rganish, so‘zlarni yodlash, jumladan, ertak, rivoyat, hikoyalarni o‘rganish orqali bola so‘z qudratidan zavqlanadi, hayajonlanadi, ta’sirlanadi. O‘zini sirli voqealar ichida yurgandek his etadi, butun vujudi quloqqa aylanadi, turli kechinma, kayfiyat, his–tuyg‘u qalbini qamrab oladi. So‘z qudrati uni sehrlab, butunlay o‘ziga jalb etadi, ergashtiradi. Musiqa ohangi yordamida idroki oshadi. Respublikamiz taraqqiyoti va o‘zgarishlarga boy hozirgi paytda yoshlarning har tomonlama komol topishi davr talabi va ehtiyojidir. Yosh avlodni ma’naviy baquvvat, bilimli, o‘z mustaqil Vatanimizdan fahrlanish tuyg‘usiga boy kishilarni tarbiyalash zamonamizning dolzarb mavzusi hisoblanadi. Bu esa ta’lim–tarbiya oldidagi murakkab, keng ko‘lamli muammolardan biridir [4].

Tarbiyalash deganda har tomonlama yetuk, o‘zida ahloqiy poklik, ma’naviy boylik va jismoniy barkamonlikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirish nazarda tutiladi. Tarbiya tizimida musiqa san’ati yetakchi o‘rinda turadi. Hozirgi kunda musiqa san’atni inson tarbiyasidagi roli ortib bormoqda. Yoshlarimizni ma’naviy yetuk, komil inson etib tarbiyalashda musiqa tarbiyasining roli shak–shubhasiz kattadir. Maktab yoshlarga bilim asoslarini singdiradi. U bolani ilmiy dunyoqarashining shakllanishi va mustahkamlanishi yo‘lida asosiy poydevor bo‘lib hizmat qiladi.

Xulosa

Shunday ekan umumta’lim maktablarining boshlang’ich sinflarida dastlabki musiqa ta’limi va tarbiyasining asosiy maqsadi – o‘quvchilarga musiqa san’atini go‘zallik qonunlari asosida o‘rganish malakasini singdirish va ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishdir. Boshlang‘ich sinflarda musiqa madaniyati darslari umumiy ta’limning axloqiy-estetik tarbiya berish tizimining ajralmas bir qismi bo‘lib hisoblanadi. Shunga ko‘ra 1-sinfdan boshlab darslarni izchil, tizimli va ilmiy asosda tashkil etilishi o‘quvchi-yoshlarni ta’limning keyingi bo‘g‘inlariga ma’lum tayyorgarlik bilan borishlarini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi va tarbiyasi konsepsiyasi. – T; XTV, 1995 yil. 1-2 bet.
2. Tafakkur gulshani. V.Voronsov kompozitsiyasi. G‘.G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san’at” nashriyoti. T: 1981–yil. 159 b.
3. M. Abralova. Musiqa. 2–sinf uchun o‘quv qo‘llanma. – T; – O‘qituvchi, 2009 yil.
4. Umumiy o‘rta ta‘limning milliy o‘quv dasturi. 2021–yil.
5. M.Bo‘ronov. “O‘zbekistonda ma’naviy–marifiy siyosatning tadrijiy rivojlanishi”. T.: Ma’naviyat, 2016 yil.
6. Muminova M. R. Development and current status advanced science and technology. Vol. 29, No. 8, 2020.
7. Mamarasulzoda Z. “O‘zbek musiqa namunalarini to‘plash va yozib olish tarixi”. Jizzax, 2022–yil.
8. Karimov I. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent. Ma’anaviyat, 2008. 140–143–bet.
9. Qudratov I., Abdukarimova E. “Musiqa ta’limida fanlararo aloqadorlik”. Samarqand, 2015. 29–bet.
10. G.M. Sharipova, D.F. Asamova, Z.L. Xodjayeva. “Musiqa o‘qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari”. Toshkent, 2014.
11. Xolmirzayev O. Yoshalar kamoloti va musiqa. Журнал дошкольного образования, 3 (3), 2021.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

12. Р. Кадыров II Музыкальная педагогика. Учебное пособие. Ташкент, 2005. – стр. 52.
13. Омонов Х. “О развитии музыкальных традиций Узбекистана и Азербайджана. Архив Научных Публикаций JSPI, 1 (10), 2020. – стр. 1–2.
14. Омонов Х. Некоторые страницы из жизни ю.г. кон: преданный душой узбекской музыке. Архив Научных Публикаций JSPI, 1 (10), 2020. – p. 1–3.
15. Омонов Х. A look at the history of Uzbek music. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(10), 2020. – p. 1–7.

ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ЎҚУВ ФАОЛИЯТИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ ШАКЛ ВА МЕТОДЛАРИ

Йўлдошев Фарҳоджон Бахтиёр ЎҒЛИ
Жиззах давлат педагогика университети ўқитувчиси

Аннотация: *Мақолада ўқувчиларнинг ўқув фаолиятини назорат қилиш шакл ва методлари ўз ифодасини топган. Шунингдек, муаллиф бошланғич таълим жараёнида педагогик текшириш бир неча босқичларда амалга ошириш хақидаги фикрларини келтирган.*

Таянч тушунчалар: *диагностика, коррекция, назорат, Текшириш, ўқитиш, ҳисобга олиш, ташхис қилиш, шкалалаш.*

FORM AND METHODS OF MONITORING STUDENTS' STUDY ACTIVITY

Yuldoshev Farkhodjon-teacher of Jizzakh state pedagogy university

Abstract: *Forms and methods of monitoring students' educational activities are expressed in the article. Also, the author gave his opinion on the implementation of pedagogical examination in several stages in the process of primary education.*

Key words*: diagnosis, correction, control, inspection, training, accounting, diagnosis, scaling*

ФОРМА И МЕТОДЫ КОНТРОЛЯ ЗА УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ СТУДЕНТОВ

Йулдошев Фарходжон- преподаватель Джизакского государственного педагогического университета

Аннотация*: В статье выражены формы и методы контроля учебной деятельности студентов. Также автор высказал свое мнение о проведении педагогической экспертизы в несколько этапов в процессе начального образования.*

Ключевые слова: *диагностика, коррекция, контроль, проверка, обучение, учет, диагностика, масштабирование.*

Кириш

Сўнгги йилларда мамлакатда таълим-тарбия тизимининг сифати ва самарадорлигини ошириш, таҳсил олувчиларда замонавий билим ва кўникмаларни шакллантириш, таълим тизимлари ҳамда илм-фан соҳаси ўртасида яқин ҳамкорлик ва интеграцияни, таълимнинг узвийлиги ва узлуксизлигини таъминлаш борасида тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Шу билан бирга, миллий таълим-тарбия тизимининг амалдаги ҳолати уни замон талаблари асосида модернизация қилиш, ёшларни юксак билим-маърифат

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

эгалари, жисмоний ва маънавий соғлом инсонлар этиб тарбиялаш, таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог ходимлари нуфузини ошириш, уларнинг самарали фаолият юритиши учун зарур шарт-шароитлар яратиш бўйича изчил чора-тадбирларни амалга оширишни талаб этмоқда. Шу жиҳатдан олганда, бошланғич таълим узлуксиз таълимнинг бир поғонаси сифатида баҳоланар экан, ундаги таълим жараёнида ўқувчиларнинг ўқув фаолиятини назорат қилиш шакл ва методлари муҳим ўрин эгаллаши аниқланди.

Асосий қисм

Таълим жараёнининг муҳим таркбий қисмларидан бири – **назорат ва ҳисобга олиш**дир. Бу тушунчалар ўзига хос моҳият ва хусусиятларга эга. Ўқитувчи назорат ва ҳисобга олишни тўғри ташкил этса, таълим жараёнининг самарадорлиги ортади. Бунинг учун ўқитувчи ўқувчининг ўқув материалларини ўзлаштириш даражасини аниқлаб бериши лозим.

Назорат умумий ўрта таълимда таҳсил олувчининг билим, кўникма ва малакалари даражасини аниқлаш, ўлчаш ва баҳолаш жараёнини англатади. Аниқлаш ва ўлчаш текшириш деб ҳам аталади.

Текшириш – назоратнинг таркибий қисми бўлиб, унинг асосий дидактик вазифаси ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида тескари алоқани таъминлаш, педагог томонидан ўқув материалини ўзлаштириш ҳақида объектив ахборот олиниши, билимлардаги камчилик ва нуқсонларни ўз вақтида аниқлашни таъминлашдир. Текширишнинг мақсади нафақат ўқувчининг билим даражаси, сифати, шунингдек, унинг ўқув меҳнати ҳажмини ҳам аниқлашдани борат.

Бошланғич синфларда педагогик диагностика ва коррекция ўтказиш учун ўқувчиларда ўқиш, математик, грамматик каби саводхонликни аниқлашга устуворлик берилади. Масалан, математик саводхонликни диагностика қилиш –шахснинг математик фикрлаш ва реал ҳаётдаги турли муаммоларни ечишда уларни математик ифодалаш, қўллаш ва шарҳлай олиш қобилиятини ташхислашга айтилади. Ушбу диагностика тури бўйича ўрганилаётган ўқувчи шахси ҳодисаларни тасвирлаши, тушунтириши ва олдиндан айтиш учун математик тушунчалар, жараёнлар, далил ва воситалардан фойдаланиш кўникмаларига эгалиги аниқланади. Бунинг учун турли масала, мисол, тест ва топшириқлардан фойдаланиш мумкин.

Нафақат таълим тизимида, балки бошқа соҳаларда ҳам ютуқларга эришиш учун асос бўладиган, келажакда ҳам инобатга олинадиган саводхонлик, катталар ҳаётининг турли жабҳаларида муваффақиятли иштирок этишлари учун муҳим омил ҳисобланади.

Бошланғич таълим жараёнида педагогик текшириш бир неча босқичларда амалга оширилади. Яъни:

1. **Ўқувчиларнинг билим даражасини олдиндан аниқлаш**. Одатда, у ўқув йили бошида ўқувчилар томонидан аввалги ўқув йилида ўзлаштирилган билимлари даражасини аниқлаш мақсадида ўтказилади. Бу каби текшириш, шунингдек, ўқув йилининг ўртасида янги бўлим (курс)ни ўрганишга киришилганда ҳам ўтказилиши мумкин ва ўринли.

2. Ҳар бир мавзуни ўзлаштириш жараёнидаги жорий текширишдир. Жорий текшириш таълим олувчилар томонидан ўқув дастурида белгиланган айрим алоҳида элементларни ўзлаштириш даражасини ташхислаш имконини беради. Мазкур текширишнинг асосий вазифаси алоҳида олинган муайян вазиятни ўрганишдир. Бундай

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

текшириш шакл ва методлари турлича бўлиб, улар ўқув материали мазмуни, мураккаблиги, ўқувчиларнинг ёши ва тайёргарлиги, таълим босқичи ва мақсадлари, муайян педагогик шароитларга мувофиқ белгиланади.

3. Оралиқ текшириш билим, кўникма ва малакаларни текшириш. Ўқувчиларнинг ўқув материалининг муайян боб ёки бўлимлари бўйича ўзлаштирган билим, кўникма ва малакалари даражасини аниқлаш, баҳолаш шакли. Янги мавзуни ўрганиш билан бирга ўқувчилар аввал ўзлаштирилганларни такрорлайдилар. Такрорий текшириш билимларни мустаҳкамлашга кўмаклашади, бироқ ўқув ишлари босқичини тавсифлаш, билимларнинг мустаҳкамлик даражасини ташхислаш имконини бермайди. Ташхиснинг бошқа шакл ва методлари билан бирга қўлланилсагина ушбу текшириш кутилган самарани беради [1,18] .

Ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакалари диагностика қилингандан сўнг ўрганилган ўқув материалининг структуравий элементларидаги бўшлиқларни тўлдириш, ўртасидаги ўзаро алоқаларни ўзлаштириш сифатини ошириш учун ўтказилади. Ўқувчилар билимини тизимлаштириш ва умумлаштириш учун педагогик диагностика ва коррекция таълим жараёнининг барча босқичларида амалга оширилиб боради.

Назорат, шунингдек, ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражасини баҳолаш ва таҳлил қилишни ҳам ўз ичига олади. Ўзлаштириш табеллари, синф, гуруҳ журналларида баҳолар шартли белгилар, код сигналлари, хотирлаш белгилари ва ҳоказолар баҳо кўринишида қайд этилади.

Ўқувчининг ўзлаштириш даражасини баҳолаш учун назорат якунлари (натижалари) асос бўлади. Бунда ўқувчилар ишининг ҳам сифат, ҳам миқдор кўрсаткичлари ҳисобга олинади. Миқдор кўрсаткичлари кўпроқ баллар ёки фоизларда. Сифат кўрсаткичлари эса аъло, яхши, қониқарли ва ҳоказо баҳоловчи фикрлар ёрдамида қайд этилади. Ҳар бир баҳоловчи фикрга олдиндан келишилган (белгиланган) маълум балл, кўрсаткич (масалан, ўрин – 1, 2, 3, 4 ва ҳоказо) тайинланади.

Назоратнинг тури ўқув ишини ташкил этиш шаклига боғлиқ. Ўқитувчи мавзудан келиб чиқиб, назоратнинг қуйидаги шаклларидан фойдаланади:

1) назоратнинг оммавий (фронтал) шаклига кўра ўқитувчи ўқувчиларга материалнинг маълум бир ҳажми бўйича савол беради, ўқувчилар унга қисқача жавоб қайтарадилар. Бу каби сўраш кўпчилик ўқувчини бир вақтнинг ўзида назорат қилишни таъминлайди ва бутун гуруҳни фаоллаштиради. Аммо бу назоратни ўқувчиларнинг билим даражасини ҳар томонлама аниқлаш учун қўллаб бўлмайди;

2) назоратнинг гуруҳли шаклига кўра ўқувчиларнинг маълум бир қисми назорат қилинади. Ўқитувчи томонидан ўқувчилар гуруҳига вазифа берилади ва уни гуруҳ муайян вақт оралиғида бажаради. Лекин масалани ҳал қилишда бошқа ўқувчилар ҳам иштирок этишлари мумкин.

3) назоратнинг индивидуал шаклидан ҳар бир ўқувчининг билим. кўникма ва малакалари даражасини мукаммал ташхислаш учун фойдаланилади. Назоратнинг бу шаклида, одатда ўқувчилар жавоб бериш учун синф ёзув тахтаси олдига чақирилади:

4) назоратнинг уйғунлаштирилган (комбинацияланган) шакли индивидуал назоратни оммавий ва гуруҳли шакллар билан бирлаштиришни тақозо этади. Бу назоратдан йирик ҳажмли мавзуларни бир вақтнинг ўзида барча ўқувчилардан сўраш мақсадида фойдаланилади, ҳар бир ўқувчига алоҳида топшириқ берилади ва бир вақтда бир неча ўқувчини текшириш имконияти юзага келади;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

5) ўз-ўзини назорат қилиш таълим жараёнида ички қайтар алоқани юзага келтиришга хизмат қилади ва психологик мезонларга асосланади. Унинг самарадорлиги ўқитувчининг касбий маҳоратига боғлиқ бўлади.

Ўқувчиларнинг фаолиятини назорат қилиш методлари қуйидагилар: **оғзаки текшириш, ёзма текшириш, амалий топшириқларни бажаришга асосланган текшириш, уй вазифаларини текшириш.**

Оғзаки текшириш. Бу метод билимларни назорат қилиш ва баҳолашнинг анча кенг тарқалган анъанавий усулларидан биридир. Текшириш чоғида ўқитувчи ўқувчиларга ўрганилган мавзунинг мазмунидан келиб чиқиб, савол-жавоб усули асосида амалга оширилади. Ушбу усул айрим ҳолларда суҳбат усули деб ҳам аталади. Оғзаки текширишда ўқитувчи ўрганилаётган мавзуни алоҳида қисмларга ажратади ва уларни ҳар биридан ўқувчиларга саволлар беради. Бироқ, ўқувчиларнинг нутқини ўстириш ҳамда уларнинг чуқур ва мустаҳкам билимга эга бўлишлари учун улардан шу ёки олдинги мавзуни бутунлай эсга туширишни талаб қилиш мумкин.

Кенг тарқалганлиги ва самарали эканлигига қарамай оғзаки текшириш айрим камчиликларга ҳам эга. Чунончи, уни қўллаш жараёнида: нисбатан кўп меҳнат сарфланади; дарс мобайнида 3-4 нафар ўқувчинигина билимини текшириш мумкин. [2,28]

Ёзма текшириш. Ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларини назорат қилиш ва баҳолашнинг энг самарали усулларидан бири бўлиб, уларнинг ижодий қобилиятларини баҳолаш имконини беради. Унга кўра ўқитувчи алоҳида мавзу ёки ўқув дастурининг маълум бўлимини ўтиб бўлганидан сўнг ўқувчиларнинг билимларини назорат қилиш ва баҳолашни ташкил этади. Ёзма текшириш назорат иши, иншо, баён, диктант ва бошқалар ёрдамида олиб борилади. Ушбу жараёнда ўқитувчининг бажарилган иш билан танишиб чиқиши, унинг сифатини текшириши учун кўп меҳнат ва вақт сарфланади. Ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида бевосита алоқанинг йўқлиги сабабли унинг фикрлашини кузатиш имкони бўлмайди.

Амалий топшириқларни бажаришга асосланган текшириш. Амалий ҳаракатлар (спорт, меҳнат ҳаракатлари)нинг тўғрилигини кузатиш ёки олинган натижаларга таянишдан иборат бўлади. Текширишнинг бу шаклидан ўқувчиларнинг табиий фанлар бўйича билимларини ҳисобга олишда кенг фойдаланилади.

Уй вазифаларини текшириш. Ўқувчиларнинг ўзлаштиришини назорат қилиш учун улар томонидан уйга берилган вазифаларнинг бажаришларини текшириш катта аҳамиятга эга. Уй вазифаларини текшириш ўқитувчига ўқувчиларнинг ўқув фаолиятига бўлган муносабатини, ўрганилган материални қанчалик эгаллаганлигини, уй вазифаларини бажаришдаги мустақиллик даражасини аниқлашга имкон беради.

Шкалалаш. Аниқ жараёнларни рақамлар тизими ёрдамида моделлаштириш. Унинг турли услублари сифат тавсифларини миқдорий ўзгаришларга айлантиришга ёрдам беради.

Дастурий таъминот. Мақсад асосида муайян ҳолат даражасини сифат ва миқдорий кўрсаткичларда белгилашга имкон берувчи Moodle, Wordpress, PHP, Turbo Site, Bandicam, Audisity, Movavi Video, Editor Plus, AutoPley, Media Studio 8, Macromedia Flash бажарилган электрон ахборот синов воситаси.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Педагогик амалиётда Moodle, Wordpress, PHP, Turbo Site, Bandicam, Audisity, Movavi Video, Editor Plus каби дастурий воситалардан фойдаланиш мумкин. Бунда бир қатор афзалликлар кўзга ташланади. Улар қуйидагилардир:

1) назорат учун вақтнинг кам сарфланиши;

2) назарий ва амалий билим даражасини объектив шароитда аниқлаш имконининг мавжудлиги;

3) бир вақтда кўп сонли ўқувчилар билан назоратни ташкил этиш мумкинлиги;

4) билим натижаларининг ўқитувчи томонидан қисқа муддатда текширилиши;

5) барча ўқувчиларга бир хил мураккабликдаги саволлар берилиб, улар учун бир хил шароитнинг яратилиши.

Ўқувчилар билимини баҳолашнинг беш балли тизимининг эскирганлиги, замон талабларига жавоб бера олмагани уни рейтинг тизими асосида баҳолаш услуби билан алмаштиришни тақозо этди.

Хулоса

Шундай қилиб, умумий ўрта таълим тизимида, шу жумладан бошланғич таълимда хам ўқувчиларнинг таянч ва фанга оид компетенцияларининг шаклланганлик даражаларини баҳолаш мезонлари ҳар бир фаннинг мақсад ва вазифалари, шунингдек, синф. гуруҳдаги ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражасига таянган ҳолда белгилаш керак. Баҳолаш мезонларини ишлаб чиқишда ўқувчиларнинг оғзаки жавоб беришлари, кўникма ва малакаларига, компетенцияларига алоҳида-алоҳида ёндашиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдуллаева Ш.А. Педагогик диагностика.-Тошкент:Университет, 2019.-310 б.
2. Асадов Й.М., Турдиев Н., Акбарова С., Темиров С., Бабаджанов С. Ўқувчиларда компетентсияларнинг шаклланганлигини ташхислаш ва коррексиялаш методикаси.-Тошкент: Қори Ниёзий номидаги ЎЗПФИТИ босмахонаси, 2016.-158 б.
3. Зарипов, К. Педагогическая диагностика в системе непрерывного повышения квалификации учителей: автореф. дисс. . д-ра пед.наук / К.Зарипов.- Ташкент, 1990. 35 с.
4. Ингенкамп К. Педагогическая диагностика.- Москва “Педагогика”, 1991.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ACTIVE AND PASSIVE VOCABULARY: TEACHING VOCABULARY TECHNIQUES

Zebo Botirova Khakimjon kizi, PhD
Senior Teacher,
Department of English Language and Literature,
World Languages Faculty, Namangan State University,
UZBEKISTAN
e-mail: ziziko_90@mail.ru

Annotation. *The goal of this article is to talk about different forms of vocabulary and how to teach it in the classroom. Considering English is a living language, determining the exact number of words in the languages is challenging. New terms are continuously being introduced, while some are being phased out due to inactivity. We all have our own particular lexicon that is unique to us. Obviously, there is a lot of overlap from one individual to the next, but the specific set of terms in one person's vocabulary will be different from the next.*

Key vocabulary. *Vocabulary, teaching, techniques, language, active, passive, methods, tool, students*

Introduction

The lexicon, or set of lexical items in a language, is referred to as the vocabulary. The term lexicon first used in English in the early 17th century, referring to a book providing an alphabetical list of a language's words and definitions. The word "lexicon" comes from the Greek word "lexis." It has taken on a more abstract definition, particularly in linguistics, referring to a language's complete stock of meaningful units, which includes not just words and idioms, but also portions of words that express meaning, such as prefixes and suffixes.

Words are the building blocks of language,' as they are referred to. These are extremely effective instruments. We'll need a lot of words so that we may choose the right tools for the job, just like we would with any other endeavor. We require a large vocabulary. A good vocabulary is one that (a) meets our demands, (b) inspires confidence, (c) aids comprehension, (d) is diverse, and (e) is precise.

Vocabulary types include

Vocabulary is classified into two sorts based on how it is used: Active Vocabulary and Passive Vocabulary.

Active vocabulary

The words in one's active vocabulary are those that can be used in speech and writing. He is fully aware of the meaning of those words. The productive side of language is referred to as active vocabulary. It is made up of terms that one can confidently employ since he understands their meanings and applications.

Words must be continually added to the active vocabulary of the children in order to provide proficiency in spoken and written language. A language's active vocabulary necessitates:

- The use of the appropriate word at the appropriate time.
- The ability to recollect words on the spur of the moment.
- Grammatical accuracy, which includes the use of proper tenses, inflections, and word order.
- Fluency and capacity to replicate accurate sounds, pronunciation, intonation, rhythm, and other aspects of speech.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Passive vocabulary:

The Passive Vocabulary is made up of words whose meaning can be deduced from their appearance in other people's speech or writing, but which we are unable to employ in our own speech or writing due to a lack of familiarity with them. When a person has passive vocabulary, he or she does not know the exact meaning of a word and does not use it in communication. Depending on the competition, he may only understand the meaning of that word to a limited level. The receptive aspect of language is referred to as passive vocabulary. Passive vocabulary necessitates:

- Vocabulary recognition in speech or writing.
- A working knowledge of major grammatical pieces or forms.
- The ability to stimulate the senses of huge groupings of words quickly.

A skilled communicator seeks to switch from passive to active terminology. After a few years, it's clear that words from the passive vocabulary have shifted to the active vocabulary. When it comes to learning active vocabulary, there are no hard and fast rules. The student's passion and effort are the sole requirements, along with some clear instructions. At no point in the educational process has vocabulary been given a prominent place in the curriculum. It has been demoted to a secondary rank in favor of university-level syntax. The undergraduate student must have a sufficient vocabulary and syntax base. Vocabulary is the more fluid of the two, and as a result, it should be given same weight in the English curriculum as the choice of structures. Vocabulary instruction is critical, particularly for students who come from regional medium schools and have had little exposure to English.

A language instructor must be familiar with vocabulary teaching approaches that he can use in the classroom. A language teacher must first understand the fundamentals of vocabulary teaching before implementing vocabulary teaching approaches. These principles are-

- To determine the word's frequency.
- To determine the application of words in various circumstances – the selection of vocabulary items is critical.
- It's best to start with a simpler word.
- Items must be sequenced, graded, or ordered in some way.
- Vocabulary improvement or enrichment includes both active and passive vocabulary.
- Inferring meaning from context or familiarity with the usage.

Techniques of teaching vocabulary:

There are a variety of vocabulary teaching strategies, some of which are listed below:

- Using images or audio-visual aids: To some extent, the language instructor should be able to draw in order to teach vocabulary. He should draw a picture of animals, birds, fruits, and vegetables, for example. Other audio-visual aids can be used by the teacher to appropriately teach vocabulary.
- Showing genuine things or models: The teacher should show the pupils real objects or models that he or she can easily bring into the classroom. For example, a stick, a stone, a map, a clock, and so on.
- Miming or performing an action: To teach some terms, the teacher should really execute the activity in front of the class, such as walking, writing, or laughing.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

- By framing illustrative sentences: These sentences should be constructed in such a way that the meaning of the words emerges as clearly as crystal from the context. The train, for example, left the station at 6.55 p.m. I was unable to capture it. I was late for the train. It should be always kept in mind that this type of sentences should be simple in structure.
- Associating with existing words: The teacher should attempt to relate a new word with a word that the pupils are already familiar with. This can be accomplished by posing questions and providing instances of synonyms and antonyms. It's also a good idea to use a thesaurus.
- Identifying the lexical set: When teaching vocabulary, the ability to identify the lexical set is crucial. Accelerator and breaks, for example, are words from a lexical set.
- Breaking words into component units: The meaning of words should be explained by breaking words down into their component units and providing the meaning of each unit separately, and then giving the combined root + affix meaning. For instance, words such as 'inject', 'eject', and 'deject' could be explained as follows:
- Despite some limitations, the analytical method will at least give us the core meaning from which other meanings have diverged.
- Exposure of different contexts: Learners should be exposed to different kinds of contexts in which a word may be used, to ensure its proper usage. One context does not ensure mastery of the word. The teacher should give proper guidance to the students to work with the new words actively, regularly and systematically.
- Selecting the bases and their order of presentation: The selection of bases and their order of presentation should be made in accordance with their frequency of use and proliferation, i.e., those that are more prolific should be introduced first. It has been asserted that more than 240 words have sprouted out of the Latin word 'spectare' meaning to 'see'.
- To give some importance on word-formation: The teacher should teach the different affixes (prefixes and suffixes) and their functions should be taught in order to give proper interpretation of a new word. Words can be grouped into clusters on the basis of their affixes. Knowing the meaning of a prefix or a suffix will definitely help learners to understand the meaning of a word.
- Crossword puzzles: Crossword puzzles help in studying vocabulary. Almost all the English newspapers have crossword puzzles. The teacher should produce adequate crossword puzzles for the sake of teaching vocabulary. This is a useful tool in building one's vocabulary.
- Word games: The teacher should play some word games with the pupils from time to time in the classroom. This will benefit pupils much because the process of acquiring vocabulary will become a fun activity.
- Giving equivalents in mother-tongue: Most of the students may not be acquainted with all the terms in the target language. But those terms can be taught through the medium of their mother-tongue. The barrier of understanding the meaning of some specific words can be removed in this way.
- Encourage the students to use a dictionary: Students should be always encouraged to use a dictionary. It is always beneficial to use a monolingual dictionary. To get a wide exposure to the language, it is an essential act which the students should be advised to perform.

These are the fundamental methods for teaching vocabulary. When teaching vocabulary, a teacher can employ a variety of unique ways at his discretion. Until and unless the teacher develops a comfortable atmosphere in the classroom, vocabulary teaching will be ineffective.

Conclusion

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

One of the most serious issues that EFL students face is a lack of vocabulary. They are unable to articulate their ideas as well as they would like due to their limited vocabulary, and they are unable to comprehend the concepts that are communicated to them. Their restricted vocabulary hinders their listening comprehension, writing, and reading ability. As a result, a systematic vocabulary-building program that falls under the language-teaching curriculum is required.

References

1. Brewster, J., Ellis, G. and Denis Girard. (2003). The Primary English Teacher's Guide. Harlow Essex, England: Pearson Education Limited
2. Hiebert, E. H. and Kamil, M. L. (2005). Teaching and Learning Vocabulary: Bringing Research to Practice. London: Lawrence Erlbaum Associates.
3. Takac, V. P. (2008). Vocabulary Learning Strategies and Foreing Language Acquisition. Series Editor: David Singleton, Trinity College, Dublin, Ireland. Toronto: Multilinguals Matters Ltd.
4. Botirova, Z. X. Q. (2020). THE IMPORTANCE OF AGE FACTORS ON TEACHING ENGLISH IN GRADES 5-6. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *2*(11), 381-384.
5. Botirova, Z. H. K. (2020). DEVELOPING OF LEXICAL SKILLS IN ENGLISH IN SECONDARY SCHOOLS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *2*(1), 199-203.
6. Botirova, Z. H. K. (2019). DEVELOPING OF LEXICAL SKILLS IN ENGLISH IN SECONDARY SCHOOLS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *1*(11), 274-278.
7. Valiyeva, S. A. (2020). ACTIVE METHODS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. *Theoretical & Applied Science*, (1), 701-705.
8. Jalolov, S. (2019). ROLE OF PEER OBSERVATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *1*(12), 274-277.
9. Akmalovna, V. S., & Abduvaliyevich, J. S. Modular Training in Teaching Foreign Languages. *International Journal on Integrated Education*, *3*(1), 13-14.
10. UZBEKISTAN, N., & Isroilovich, U. I. (2020). METHODOLOGY OF PEDAGOGICAL SCIENCE AND ACTIVITY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, *8*(2).
11. Israilovich, I. U. (2019). Practical Strategies to Teach Vocabulary Through Games in EFL Beginner Classes: the Case Study of Some Secondary Schools in Namangan Region. *International Journal on Integrated Education*, *2*(6), 94-96.
12. Israilovich, I. U., & Abdillajanovna, S. S. (2019). The english language is the one that unites different cultures. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *9*(4), 68-71.
13. Umrzoqov, I. I., Botirova, Z. H., & Sharipova, S. A. (2019). HOLIDAY AS A FORM OF PROJECT ACTIVITY. *Мировая наука*, (3), 65-67.
14. Botirova, Z. H. K. (2019). DEVELOPING OF LEXICAL SKILLS IN ENGLISH IN SECONDARY SCHOOLS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *1*(11), 274-278.
15. Jalolov, S., & Botirova, Z. (2016). THE ROLE OF MOTIVATION IN THE SECOND LANGUAGE LEARNING ACQUISITION. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1752-1754).
16. Botirova, Z. X. (2021). PERSONALITY-ORIENTATED APPROACH TO TEACHING ENGLISH VOCABULARY. In *МИРОВАЯ НАУКА 2021. ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 6-8).
17. Umrzoqov, I. I., Botirova, Z. H., & Sharipova, A. S. (2019). DISTINCTIVE FEATURES OF ENGLISH LANGUAGE. *Экономика и социум*, (3), 66-67.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

18. Umrzoqov, I. I., Botirova, Z. H., & Valiyev, Q. O. (2019). ENGLISH LANGUAGE AND ITS VARIETIES. *Экономика и социум*, (5), 214-216.
19. қизи Ботирова, З. Х. (2020). PRINCIPLES OF TAKING INTO CONSIDERATION LANGUAGE SKILL OF STUDENTS IN TEACHING VOCABULARY OF ENGLISH. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *2*(3), 351-355.
20. Kizi, B. Z. X. (2022). EXERCISE ANALYSIS DESIGNED TO DEVELOP LEXICAL COMPETENCE IN 6TH GRADE ENGLISH TEXTBOOKS. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, *2*(1.5 Pedagogical sciences).

СПОСОБЫ МОТИВАЦИИ УЧЕБНО-ДИДАКТИЧЕСКОГО МАТЕРИАЛА ПРИ ИЗУЧЕНИИ КУРСА «ДЕТСКАЯ ЛИТЕРАТУРА» ДЛЯ БАКАЛАВРОВ НАПРАВЛЕНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И СПОРТИВНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ, РУССКИЙ ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ

Азмиева Э.Э.
доцент, завкафедры русского языка и методики преподавания Ташкентского государственного педагогического университет имени Низами
E-mail: azmieva_@umail.uz

Абстракт: *В статье освещается мотивация теоретических и практических знаний относительно природы познавательной и учебной мотивации, предназначенных для курса «Детская литература», ориентированные на будущую профессиональную деятельность будущих учителей направление начальное образование и спортивно-воспитательная работа, русский язык и литература.*

Ключевые слова: *мотивация, курс, концепция, детская литература, успешность обучения, принципы, факторы.*

METHODS OF MOTIVATION OF EDUCATIONAL AND DIDACTIC MATERIAL IN THE STUDY OF THE COURSE "CHILDREN'S LITERATURE" FOR BACHELORS OF PRIMARY EDUCATION AND SPORTS AND EDUCATIONAL WORK, RUSSIAN LANGUAGE AND LITERATURE

Azmieva E.E.
Associate Professor, Head of the Department of Russian Language and Teaching Methods, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
E-mail: azmieva_@umail.uz

Abstract: *The article highlights the motivation of theoretical and practical knowledge regarding the nature of cognitive and educational motivation intended for the course "Children's Literature", focused on the future professional activity of future teachers, the direction of primary education and sports and educational work, Russian language and literature.*

Key words: *motivation, course, concept, children's literature, learning success, principles, factors.*

BOSHLANG'ICH TA'LIM VA SPORT-TARBIYAVIY ISHLAR, RUS TILI VA ADABIYOTI YO'NALISHLARI BAKALAVRLARI UCHUN "BOLALAR ADABIYOTI"

KURSINI O'RGANISHDA O'QUV-DIDAKTIK MATERIALNI RAG'BATLANTIRISH USULLARI

Azmieva E.E.
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rus tili va o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri., Dotsent
E-mail: azmieva_@umail.uz

Annotatsiya: *Maqolada "Bolalar adabiyoti" kursi uchun mo'ljallangan bilim va o'quv motivatsiyasi tabiatiga oid nazariy va amaliy bilimlarning motivatsiyasi, kelajakdagi o'qituvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga qaratilgan boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiya ishlari, rus tili va adabiyoti.*

Kalit so'zlar: *motivatsiya, kurs, kontseptsiya, bolalar adabiyoti, ta'limning muvaffaqiyati, printsiplar, omillar.*

The article highlights the motivation of theoretical and practical knowledge about the nature of cognitive and educational motivation intended for the course "Children's Literature", oriented to the future professional activity of future teachers in the direction of primary education and sports and educational work, Russian language and literature.

Keywords*: motivation, course, concept, children's literature, learning success, principles, factors.*

Введение

Потребность в поиске наиболее эффективных путей психологического сопровождения мотивации образовательной деятельности обусловлена современным состоянием образовательной системы нашей страны. Исследователи и практики единогласны во мнении, что мотивационный компонент учебной деятельности на любом из образовательных уровней далек от своего оптимального состояния. Нет единой системы, которая бы поддерживала мотивацию обучающихся на должном уровне и при этом соответствовала бы общепринятым парадигмам образовательной деятельности, в том числе и требованиям концепции непрерывного образования [1]. Данная статья представляет собой попытку рассмотрения проблемы мотивации учебно-дидактического материала для бакалавров направления начального образования и спортивно-воспитательной работы, русский язык и литературы.

Литературный обзор

Впервые термин «мотивация» употребил А. Шопенгауэр в статье «Четыре принципа достаточной причины» (1900-1910) [2]. Затем этот термин прочно вошел в психологический обиход для объяснения причин поведения человека и животных.

Эффективность того или иного методического приема формирования профессиональных знаний. Умений и навыков, успешность проведения занятия во многом определяются теми психологическими закономерностями, которые лежат в основу учебно-познавательной деятельности студентов.

Такая зависимость обусловлена не просто связью психологии и методики, а их взаимопроникновением.

На успешность обучения большое влияние оказывают различные факторы: мотивы; интересы; ценностные установки и потребности; навыки по переработке информации;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

полученные ранее знания, умения и навыки (база обучения); общеобразовательный уровень. Мотивы и интересы-важнейшие из этих факторов[3].

Проблема мотивации учебной деятельности традиционна для педагогической психологии. Изучением ее роли, содержания, видов мотивов, их развития и целенаправленного формирования занимались в разные годы.

Цель должна соизмеряться с возможностями студентов. При этом, проектируя занятие, педагог должен быть внутренне готов к тому, чтобы принимать оперативные решения и вносить в ткань занятия необходимые изменения.

Убеждение студентов необходимости в использовании дидактического материала на семинарских, практических занятиях:

Использование дидактического материала способствует активизации мысли, убеждать студентов в необходимости получаемых знаний. Особенно важен этот способ мотивации при применении практических методов обучения.

Методология исследования

Преподаватель на каждом занятии должен акцентировать внимание на использование дидактического материала, которые будут необходимы обучающимся в дальнейшей практической деятельности.

К способам решения исследуемой проблемы мотивации учебно-дидактического материала для бакалавров направления начального образования и спортивно-воспитательной работы, русский язык и литературы относим, прежде всего, следующие:

- трактовка интереса, его активизация у будущих учителей в процессе изучения курса «Детская литература»;
- акцентуация новых направлений образования, педагогического, в частности;
- целеполагание и прогнозирование практических результатов (их критерии);
- выявление возможности курса «Детская литература» в мотивации у будущих учителей и усиление акцента в учебной программе «Детская литература» на детский, в частности, фольклор;
- педагогическая система;
- требования к педагогическому процессу;
- принципы и факторы, обусловливающие успешное практическое решение проблемы;
- связь учебных занятий и внеаудиторной работы по активизации интереса у будущих учителей к детскому; требования к разработке программы; для внеаудиторных занятий особенности и специфика внеаудиторных занятий по углубленному изучению детской литературы;
- требования к лекциям, практическим, семинарским, самостоятельным заданиям, творческим работам студентов, их тематика (для целевого учебного и внеаудиторного изучения детской литературы);
- требования к преподавателю курса «Детская литература», студентам;
- стимулы мотивации будущих учителей к курсу «Детская литература»;
- результативно-диагностический аспект.

Интерес будущих учителей направление начальное образование и спортивно-воспитательная работа, русский язык и литература мотивация в процессе изучения курса «Детская литература» рассматривается с точки зрения проблемы исследования. Так,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

исследуемый интерес студентов трактуется следующим образом: это осознанный профессионально-личностный интерес, направленный на удовлетворение определенных личностных и конкретных, более глубоких (чем учебные) профессионально-познавательных потребностей; интерес, будущих учителей начальное образование и спортивно-воспитательная работа, русский язык и литература , направленный на обогащение и совершенствование конкретно-предметных знаний (по детской литературе), необходимых для более качественной педагогической подготовки к предстоящей работе в образовательной сфере.

Активную мотивацию в исследуемом контексте мы рассматриваем как интерес, для которого характерны следующие особенности:

- повышенный эмоционально-положительный характер (активное желание, эмоциональное расположение, увлеченность);
- целеосознанность; знание сущности данного интереса, его специфики и особенностей, роли и значения в учебной и будущей профессионально-личностной деятельности;
- осознание: необходимости высокого уровня данного интереса; его социально-личностной и профессионально-личностной направленности; четкой профессионально-личностной роли, значения и перспективы; необходимости в устойчивом, широком, глубоком и интенсивном познавательном интересе; интеграции состоявшегося активного познавательного интереса в склонность к его совершенствованию – до уровня потребности в глубоком его удовлетворении на внеаудиторных занятиях, в целенаправленной самообразовательной деятельности;
- стремление актуализировать свой активный интерес к детской литературе в различных полекционных заданиях, теоретико-практических и методических работах с последующей их социализацией на различных коммуникативных уровнях (в группе, во внеаудиторной работе, на студенческих конкурсах, конференциях);
- профессионально-личностная самоактуализация в период педагогической практики с последующей самооценкой. В этой связи важно учесть новые направления современного образования.

В национальной модели, в Программе по подготовке кадров органически переплетаются интересы и потребности государства, личности, общества, что акцентируется в следующих направлениях образования, в том числе и педагогическом:

- личностно-ориентированное образование на психолого- педагогической основе (с условиями для развития и саморазвития личности, до уровня совершенной);
- внимание интересам и потребностям обучающихся в профессионально-личностных целях;
- демократизация образования;
- дифференциация и индивидуализация образования (с учетом интересов, склонностей, потребностей), обеспечивающие развитие и саморазвитие личности обучающихся;
- гуманизация образования с соответствующей организацией и содержанием образования (в целях формирования гуманистического мировоззрения, соответствующих знаний и навыков; гуманитаризации мышления и сознания);
- профессионально-качественное образование;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

- духовно-нравственное воспитание на богатых, самобытных культурно-исторических традициях народа, общечеловеческих ценностях, достижениях мировой и отечественной педагогики, в том числе, и прежде всего, народной;
- социально-общественное воспитание социально активной личности специалиста, создание условий для личностно-профессионально-социальной самореализации.

Анализ и результаты

Цель – активизация интереса будущих учителей к детской литературе в процессе аудиторного и внеаудиторного изучения курса.

Задачи:

1. Мотивация важности, значимости и необходимости знаний курса «Детская литература» для будущих учителей направление начальное образование и спортивно-воспитательная работа, русский язык и литература.
2. Раскрытие и ознакомление студентов с наиболее интересными элементами знаний, раскрывающими сущность и возможности глубокого изучения в учебном процессе (на лекциях, практических, семинарских занятиях по курсу «Детская литература» и во внеаудиторное время).
3. Реализация разработанной педагогической системы активизации интереса будущих учителей на основе разработанных теоретико-педагогических предпосылок, передовой технологии и инновационной методики.
4. Привлечение студентов – будущих учителей к внеаудиторным занятиям по углубленному изучению детской литературы.
5. Усиление воспитательного фактора в исследуемом процессе.
6. Теоретико-практическая помощь преподавателям курса «Детская литература» по активизации у будущих учителей направление начальное образование и спортивно-воспитательная работа, русский язык и литература.
7. Достижение в педагогическом процессе прогнозируемых критериев активизации интереса будущих учителей направление начальное образование и спортивно-воспитательная работа, русский язык и литература к курсу «Детская литература».

Выводы

Исходя из этого предпринята попытка мотивации теоретических и практических знаний относительно природы познавательной и учебной мотивации, предназначенных для курса «Детская литература», ориентированные на будущую профессиональную деятельность будущих учителей направление начальное образование и спортивно-воспитательная работа, русский язык и литература.

Использованная литература:

1. Мотивация образовательной деятельности : учебное пособие / О. А. Шляпникова ; Яросл. гос. ун-т им. П. Г. Демидова. – Ярославль : ЯрГУ, 2014. – 124 с.
2. Маслоу А. Г. Мотивация и личность. — СПб.: Евразия, 1999. — 478 с. ISBN 5-8071-0016-6
3. Цветкова, Р.И. Мотивационная сфера личности студента: условия и средства ее формирования / Р.И. Цветкова // Психологическая наука и образование. - 2006. - №4. - с.76-80.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

БЕЛБОҒЛИ КУРАШ БЎЙИЧА ЎТКАЗИЛАДИГАН МУСОБАҚАЛАРДА ТЕЗКОР ТЕХНИК УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ

Артиқов Зохиджон Собирович
Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети, п.ф.б.ф.д. (PhD), доцент,.
Чирчиқ шаҳри, Ўзбекистон
artikov@mail.ru тел:

Аннотация. *Мазкур мақолада белбоғли кураш бўйича мусобақаларда юқори тезкорлик билан бажариладиган техник усуллардан фойдаланиш самарадорлиги ва унинг натижавийликка таъсири таҳлили ёритилган.*

Калит сўзлар: *белбоғли кураш, мусобақа, техник усуллар, малакали белбоғли курашчилар.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ БЫСТРЫХ ТЕХНИЧЕСКИХ ПРИЕМОВ В СОРЕВНОВАНИЯХ ПО БОРЬБЕ НА ПОЯСАХ

Артиков Зохиджон Собирович
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, доктор философии, доцент,. Город Чирчик, Узбекистан
artikov@mail.ru

Аннотация. *В данной статье проведен анализ эффективности использования скоростных технических приемов в соревнованиях по борьбе на поясах и ее влияние на результаты.*

Ключевые слова: *борьба на поясах, соревнование, технические приемы, высококвалифицированные борцы.*

THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF FAST TECHNIQUES IN BELT WRESTLING COMPETITIONS

ARTIKOV ZOKHIDJON SOBIROVICH
Uzbekistan State University of Physical Culture and sports, p.f.b.f.D. (PhD), associate,.
Chirchik City, Uzbekistan
artikov@mail.ru

Annotation. *This article analyzes the effectiveness of the use of high-speed techniques in belt wrestling competitions and its impact on the results.*

Keywords: *belt wrestling, competition, techniques, highly qualified wrestlers.*

Тадқиқотнинг долзарблиги

Бугунги кунда белбоғли кураш Жаҳоннинг турли давлатлари, уларда яшовчи аҳоли, айниқса болалар ўртасида ўта жозибали, ўзига ром қилувчи спорт тури сифатида тан олинмоқда. Белбоғли кураш спорт турини миллатимизнинг қадимий қадрияти ўрнида унинг салохиятини янада кўтариш, ушбу спорт турини юртимиз ва жаҳон хамжамиятида янада оммавийлашаётган спорт турларидан бири маълумки, мамлакатимиз мустақилликка эришгач, кўплаб спорт турлари қатори миллий курашимиз бўлган белбоғли кураш ҳам жадал ривожланиб келмоқда. Бунга асосий сабаб юртимизда ўтказилиб келинаётган уч босқичли тизим “Умид ниҳоллари” “Баркамол авлод”

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

“Универсиада” ўйинларидир. Чунки аввалари фақатгина водийда Тошкент ва Тошкент вилоятларида белбоғли кураш билан шуғулланиб келишар эди. Ҳозирги кунга келиб воҳа вилоятларидан ҳам кўплаб Республика, Осиё, Жаҳон чемпионлари етишиб чиқмоқда. 2005, 2006, 2007 йилларда белбоғли кураш бўйича ўтказилган Жаҳон чемпионатларида миллий терма жаъмоа аъзолари бўлган Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия институти талабалари юқори натижаларга эришиб келган. Кейинги йилларда чет давлатлар мураббийлари Ўзбекистон тажрибасини ўрганиб турли мусобақаларда муносиб қаршилик кўрсата бошлашди.

Улар биздан авваломбор кифтлаш, қўлни етказиб ушлаш ва айрим техник усулларни ўрганишди. Биз бу борада тўхтаб қолмадик, масалан белбоғли курашда белбоғни тўғри ушлаш рақиб устидан эллик фоиз ғалабани билдиради. Кейинги йилларда биз университет талабаларига бошқача, яни тескари ушлаш амалини ўргатдик ва бу борада кўплаб юқори натижаларга эришдик [1].

Тадқиқотнинг мақсади

Белбоғли курашда замонавий техник усулларни тезкорликда бажариш бўйича модул ишлаб чиқишдан иборат.

Тадқиқотнинг натижалари ва мухокамаси.

Юртимизда азал азалдан белбоғли кураш усуллари кўтариш билан бажарилган, масалан ўнга ва чапга кўтариб ташлаш, қайтарма усулида ташлаш, кўтариб тўсиб ташлашлар кўпроқ халқ орасида ёки курашчилар орасида кенг тарқалган. Муқаддам бизнинг университетимиз талабалари бўлмиш, мамлакат терма жамоа аъзолари Б. Тўхтасинов, Э. Сотволдиев, З. Артиқов ва бошқалар жаҳон чемпионатларида иштирок этиб келган даврда ушбу спортчиларимиз Европа курашчиларининг кўкракдан ошириб ташлаш усулига қаршилик кўрсата олишмас эди.

Биз Европалик курашчиларнинг айнан шу усулини ўргандик ва биз мураббийлар билан бу усулга қарши ҳимоя ишлаб чиқдик. Белбоғли кураш бўйича 2012 йилда Қозоғистоннинг (Астана) шахрида бўлиб ўтган жаҳон чемпионатида Элбек Сотволдиев ва Зайлобиддин Артиқовлар кўкракдан ошириб ташлаш усулини чиройли бажариш орқали ҳаммани лол қолдирган эди. Ҳозирги кунда ўтказилаётган мусобақаларда ёшларимиз орасида ҳам шу усул кенг тарқалган. (1-жадвалга қаранг).

1-Жадвал

Рақибни ёнига ўтиб кўкракдан ошириб ташлаш модули

<table>
<tr><td colspan="3">Рақибни ёнига ўтиб кўкракдан ошириб ташлаш</td></tr>
<tr><td>2. Қўлларни бир хил ҳолатда ушлаш</td><td>6. Гавда юқорига ва кўприк ҳолатига тушириш</td><td>3. Ўнг ёки чап оёқ билан рақибни ёнига ўтиб</td></tr>
<tr><td rowspan="2">4. Хар иккала қўллар билан кўкракка сиқиб</td><td rowspan="2">1. Паст туриш ҳолати</td><td rowspan="2">5.Оёқларни бир хил ҳаракатда бажариш</td></tr>
<tr><td>7. Гавда, қўл ва оёқлар бир вақтда ҳаракатланади</td></tr>
</table>

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Биз томондан ишлаб чиқилган методиканинг қай даражада ахамиятли эканлигини ва танланган мавзунинг долзарблигини асослаш учун мураббийлар ҳамда спортчилар ўртасида сўровнома ўтказилди. Сўровномада иштирок этган 50 нафар спортчи ва 30 нафар мураббийлар сиз “белбоғни қайси ҳолатда ушлашни хохлайсиз” ёки “шогирдларингизга белбоғни қандай ушлаб курашишни ўргатасиз” деган саволимизга спортчи ва мураббийларнинг 61 фоизи анъанавий шаклда яни чап қўллар рақибнинг ўнг ёнидан ўнг қўл эса чап қўлга яқин ҳолда деган жавобни беришган бўлса, респондентларнинг 26 фоизи и иккала қўлларни тенг ушлаган ҳолатда ўргатиш керак дейишган, респандентларимизнинг 13 фоизи эса машғулотларда қийин бўлса мусобақада осонлигини инобатга олиб белбоғни кенг боғлаб тескари ушлаш орқали беллашувларни ташкил қилишини айтишган. Биз респондентларга машғулот жараёни ва мусобақаларда олиб борган тадқиқотларимиз натижаларини визуал равишда ва видеотасмага ёзилган ҳолатда намойиш қилиб бердик ва тахлилларимиз натижалари билан таништирдик. Шунингдек, мураббийларга белбоғни тескари ушлаб ўнгдан чапга қайтариб ташлаш усулини бажариш бўйича ишлаб чиққан модулимизни тавсия қилдик. (2-жадвалга қаранг).

2-Жадвал

Белбоғни тескари ушлаб ўнгдан чапга қайтариб ташлаш модули

<table>
<tr><td colspan="3">Белбоғни тескари ушлаб ўнгдан чапга қайтариб ташлаш</td></tr>
<tr><td rowspan="2">2. Чап қўлни ўнг қўлга яқин ушлаган ҳолда турилади</td><td>6. Гавдани ўнга ва чап томонга ҳаракатлантириш</td><td rowspan="2">3. Ўнг оёқ олдинга чап оёқни орқага қадамлаб</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1. Ўрта туриш ҳолати</td></tr>
<tr><td>4. Чап қўл юқорига ўнг қўл пастга тортади</td><td rowspan="2">5.Ўнг ён билан кўтариб чап оёқ билан тўсиш</td></tr>
<tr><td></td><td>7. Гавда, қўл ва оёқлар бир вақтда ҳаракатланади</td></tr>
</table>

Белбоғли курашда техник усулларни бажаришга қараганда ҳимояланиш қийинроқ бўлиб қолмоқда. Чунки ҳимояланишнинг уч хил йўли мавжуд қўл билан тираб (блок), қадамлаб ёки сакраб ўтиб қаршилик кўрсатиш мумкин. Лекин курашчи ҳимояланиш мақсадида рақиби биқинига қўлини тираб юрса ҳакам томонидан жазоланади, агар рақиб хужум қилганда харакатни тўхтатиш мақсадида рақибининг оёқлари ёнига қадамлаб босиб қўйса, қадамлаган курашчига жазо огоҳлантириши берилади [3].

Курашчи ҳужум пайтида оёқда қолиш учун сакраб ўтса қайтарма усулига тушиб қолиши мумкин. Шуни айтиш мумкинки, ҳозирги замонавий белбоғли курашда ҳимояланишга қараганда қарши ҳужум ёки ҳимояга хос техник усуллардан фойдаланиш кўпроқ самара бериши мумкун. Сўнги йиллар давомида мураббийларимиз томонидан белбоғли кураш бўйича ўтказиб келинаётган аксарият ҳалқаро мусобақаларда етакчи курашчиларнинг тажрибаси, уларнинг ҳужум, ҳимоя ва қарши ҳужум камбинациялари визуал ёки видеокамера ёрдамида тасвирга олиниб, ушбу техник-тактик ҳаракатларнинг илмий асослари ўрганилмоқда [2].

Хулоса

Бу борада бир қатор илмий татқиқотлар ўтқазиб келинмоқда. Татқиқот натижалари асосида белбоғли курашчига хос устувор жисмоний сифатларни прапорционал тартибда ривожлантириш ва уларни қарши хужумда қўлланиладиган техник усулларни барбод

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

қилишга мос тактик элементлар шакллантириб борилмоқда. Айни кунда белбоғли курашчилар машғулотларини, унда қўлланиладиган жисмоний ва техник машқларни иновацион техналогиялар асосида шаклантириш сирларини очиб берувчи махсус ўқув қўлланмаларни таёрлаш кераклигини билдиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Алиев И.Б. Кураш билан шуғулланувчи талаба-спортчиларни машғулот юкламаларининг оптимал нисбатлари. /дисс. ...п.ф.н.,Т., 2012. – 30 б.
2. Мирзақулов Ш.А. Ёш белбоғли курашчиларнинг жисмоний тайёргарлиги. / Халқаро илмий-амалий анжуман “Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари назарияси ва услубиятининг замонавий муаммолари”, II қисм. Тошкент, 2015, - Б. 83-84.
3. Mirzaqulov Sh.A. Belbog`li kurash nazariyasi va uslubiyati., T., 2014.

ПЕДАГОГИКАДА ТИЗИМЛИ ТАҲЛИЛ НАЗАРИЯЛАРИ ВА КОНЦЕПТУАЛ ҒОЯЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Ахорова Умида Хамидуллаевна
Наманган Давлат Университети таянч докторанти

Аннотация. *Ушбу мақолада педагогикадаги тизимли таҳлил назариялари, жумладан, тизим назарияси, тизим назариясининг асосий объектлари, тизим назариясининг умумий тадқиқот йўналишлари ва тизим классификацияси ҳақида маълумотлар берилган. Ушбу соҳа ривожига ҳисса қўшган шарқ мутафаккир олимларининг концептуал ғоялари келтирилган.*

Таянч иборалар: *Тизим назарияси, таълимотлар, педагогик тизимли таҳлил, “Авесто”, «Қобуснома», тизим, тизимлар олами, тарбия, анализ, синтез, дедукция, индукция, ақлий тарбия, эстетик тарбия, жисмоний тарбия, ахлоқий тарбия, тизимли амалиёт.*

ЗНАЧЕНИЕ ТЕОРИЙ СИСТЕМАТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА И КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ ИДЕЙ В ПЕДАГОГИКЕ

Ахорова Умида Хамидуллаевна
Базовый докторант Наманганского государственного университета

Аннотация. *В данной статье представлена информация о теориях системного анализа в педагогике, включая теорию систем, основные объекты теории систем, общие направления исследований теории систем и системную классификацию. Представлены концептуальные идеи восточных мыслителей, внесших свой вклад в развитие этого направления.*

Ключевые слова: *теория систем, учения, педагогический системный анализ, «Авеста», «Кошмар», система, мир систем, образование, анализ, синтез, дедукция, индукция, умственное воспитание, эстетическое воспитание, физическое воспитание, нравственное воспитание, систематическая практика.*

THE SIGNIFICANCE OF SYSTEMATIC ANALYSIS THEORIES AND CONCEPTUAL IDEAS IN PEDAGOGY

Akhrorova Umida Khamidullaevna
Basic doctoral student of Namangan State University

Annotation. *This article provides information about theories of systems analysis in pedagogy, including systems theory, the main objects of systems theory, general areas of research in systems theory, and systems classification. The conceptual ideas of Eastern thinkers who contributed to the development of this trend are presented.*

Keywords: *System theory, teachings, pedagogical systematic analysis, "Avesta", "Nightmare", system, world of systems, education, analysis, synthesis, deduction, induction, mental education, aesthetic education, physical education, moral education, systematic practice.*

Кириш

Одамларнинг ҳаётий шароитининг ўзгариши уларнинг ўзгартиради, натижада ижтимоий алоқалар характери ҳам ўзгаради. Ундан чиқди, жамиятнинг тизими ҳам шунга мувоффиқ ўзгаради. Шунга кўра тизимли таҳлилнинг ривожи XX аср яримида илмий-техникавий вазифаларнинг вужудга келиш билан пайдо бўлди. Бунда асосий ўринни мураккаб объектларни ташкил этиш ва амалга ошириш, билиш ва амалий тадбиқ этиш жараёнлар эгаллайди. Бу ўз навбатида мураккаб объектларнинг ўзига хос хусусиятларини алоҳида тадқиқ этиш заруратини талаб қилади. Мазкур вазифалар ижтимоий амалиётда тадбиқ этилиши заруратини вужудга келтиради. Йирик вазифалар ечимини топишда кўп қиррали техника бир-бири билан боғлиқ мураккаб тизимга айланиб боради. Чунончи, мураккаб ижтимоий бошқарувда техникавий-технологик ёндашувлар асосида ижтимоий муносабатлар ривожини таъминлашга қаратилган барча соҳаларнинг ўзаро боғлиқ ҳаракатлар уйғунлигини талаб қила бошлайди. Тизимли таҳлил мустақил тадқиқот йўналиши сифатида 1950 йилларда АҚШда қуролли кучларни техник жиҳатдан ривожлантириш, космосни ўзлаштириш, давлат бошқаруви аппаратини такомиллаштириш, ишлаб чиқариш қувватларини тақсимот қилиш, ишчи кучи ва ускуналарга бўлган талабни белгилаш, турли маҳсулотларга эҳтиёжларни аниқлаш каби йирик бизнес вазифаларини бажаришда қўлланилади. Аммо, 1960-1970-йй. тизимли таҳлил методларининг ҳисоб машиналарга киритилиши мураккаб вазифаларни амалга ошириш воситалари сифатида назарий моделларни яратиш имкониятлари вужудга келади. Тизимли таҳлил имкониятларидан интенсив фойдаланиш шароити кенгайган сари мақсадли-режавий дастур бошқарув методлари яратилди. Жумладан, у ёки бу муаммони ҳал этиш мақсадида ташкилот фаолиятини ташкил этишда инсон ва моддий ресурсларни ҳисобга олувчи махсус дастурлар ишлаб чиқилади. Натижада турли соҳалар фаолиятини тадқиқот қилишга қаратилган тизимли таҳлилнинг турли мактаблари пайдо бўлди.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили

Тизим назарияси. Замонавий маънодаги тушунча шаклида тизимли ёндашув 1950-1960 йиллардан ривожлана бошлади. Бундай ёндашув ривожи икки йўналишда – назарий ва амалий шаклда параллел равишда олиб борилмоқда.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Назарий йўналишда турли концепциялар изчиллик билан жиддий ўрганиладиган тизимга бирлашиб, мустақил илмий соҳа – тизим назарияси пайдо бўлади. Тизим назарияси тўғрисидаги мумтоз асарлар сирасига австриялик биолог Людвиг Берталанфи ва унинг издошлари асарлари киритиш мумкин. Ушбу соҳанинг энг кўзга кўринган вакиллари сифатида А.Пуанкаре, А.Богданов, А.Колмогоров, В.Арнолд, И.Пригожина, Р.Акофф, Э.Ласлони киритиш мумкин. Аммо тизимли ёндашув ривожига у ёки бу кўринишда ҳисса қўшган олимларнинг ҳақиқий рўйхати анча узундир. Тизимли қонуниятларни ҳам умумий кўринишда ҳам алоҳида соҳаларда тадқиқ этган муаллифлар санаб бўлмас даражада кўп. Алоҳида ишлар ва йўналишлар доирасида тизимли ёндашув, тизимли таҳлил ва бевосита тизим назариясининг ўзида мужассам этган турли шарҳларни учратиш мумкин. Моҳият жиҳатидан тизимли ҳисобланадиган кўплаб илмий ва фалсафий ишлар амалга оширилган бўлиб, уларнинг на номланишида ва на аннотациясида «тизим» сўзи учрамайди. Бундан ташқари, ҳар бир илмий соҳада – халқаро муносабатлардан тортиб менежментгача – тизимларнинг айнан ўша соҳа доирасида хулқ-атвор қонуниятларини ўрганувчи мумтоз асарлар мавжуд.

Тизим назариясининг асосий объектлари табиий ва сунъий, жонли ва жонсиз, реал ва мавҳум, уларнинг пайдо бўлиш ва ривожланиш қонуниятларидан иборат. Ушбу назария тарафдорлари нуқтаи назарича, дунёда барча нарса тизимдан иборат. Бошқача қилиб айтганда, ҳар қандай ҳодиса ва объектни бир тизим сифатида тасаввур қилиш мумкин. Шу маънода тизим назарияси якунланган ёки тўлиқ эмас, аксинча у турли ўлчамли ғоялар, назарий моделлар ва умидбахш кашфиётлар йиғиндиси бўлиб, жавоблардан кўра саволлар кўпроқдир.

Педагогик фаолиятда тизимли таҳлилнинг назарий ва амалий аҳамият бугунги кунда икки даражада номоён бўлмоқда. Бу биринчидан, назарий ва иккинчидан амалий фаолият билан боғланади ва шу йўналишга қаратилади. Иккаласи ҳам педагогика деб номланади. Уларни фарқлаш, яъни назарий қисми нималарни, амалий қандай вазифаларни қамрай олиши тизимли таҳлилнинг вазифаларига киради. Назарий педагогика тадқиқоти ўзининг мақсад, тушунча ва маълум қонун-қонуниятларга эга бўлиб амал қилади. Таълимнинг моҳиятига дахлдор бўлган ғоялар, қарашлар, таълимотлар мажмуаси сифатида қаралади. Амалий педагогика назарий ютуқлардан фойдаланган ҳолда таълим жараёнлари сифатини оширишга қаратилган моделларни конструкциялайди, тадбиқ қилади, янги моделларини жорий қилади. Бу ўз навбатида мукаммал технологиялар асосида амалда таъминлашга хизмат қилади. Шундай қилиб, амалий педагогиканинг асосий категорияси – бу педагогик технология. Шу ўринда педагогик фаолиятда тизимли таҳлил назарий таъминот билан амалиёт ўртасидаги тафоввут муаммоларини ўрганиш ва самарали қарорлар қабул қилиш функциясини амалга оширади.

Педагогик тизимли таҳлил, тизимли моделлаштириш ва конструкциялаш, тизимли амалиёт инсон тафаккури маданиятининг энг юқори наъмунасини рўёбга чиқаришга хизмат қилади. Шу жиҳатдан замонавий педагогика тизимли тадқиқод билан шуғулланиши ва тегишли билимларга эга бўлиш даврнинг талабига айланмоқда. Педагогик тизимли таҳлил, тизимли моделлаштириш ва конструкциялаш, тизимли амалиёт билан боғлиқ қарашлар Ғарб олимлари асарларида ҳам атрофлича ўрганилган. Жумладан, юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, «Умумий тизимлар назарияси» асосчиси австро-америкалик биолог Берталанфи Людвиг Фон (1901-1972) 1934-1949 йилларда Канада ва АҚШ

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

университетларида, кейинчалик 1949 йил Вена университети профессори лавозимларида фаолият олиб борган. “Дунёнинг биологик манзараси”, “Назарий биология”, “Ақл, одамлар, амаллар”, “Тизимлар назарияси” асарлари муаллифи. 1954 йилда “Умумий тизим назарияси таҳлил жамияти”га асос солади. Унинг илмий ютуғи биологияда очиқ тизим назариясини кашф этишида. Унда хужайраларининг алоҳида хусусиятлари фаолияти умумий яхлит ҳолатга келиши ва яна мустақил, аммо боғлик элементларини аниқлайди. Ёпиқ тизимлардан очиқ тизимлар фарқини белгилайди. Берталанфи тизим назариясининг фанлараро умумий дастурини ишлаб чиқиш таклифини билдиради. Унинг асосий вазифаси: 1) тизим функционаллигини таъминловчи аниқ туридан қатъий назар умумий тамойиллари ва қонуниятларини ишлаб чиқиш; 2) ножисмоний назариянинг хусусиятларини белгилашда фойдаланиш; 3) Илмий билишнинг синтез методологиясини яратиш. Бу дастур кибернетики ёки синергетиканинг ривожланишига олиб келди. Кейинги даврларда Берталанфи тизим назариясини инсоннинг тафаккури ва физиологиясини таҳлил этишда қўллашга уринади [2].

Тадқиқот методологияси

Тизим классификацияси. Дунё тизимининг қисмлари

турли тизим классификация белгилари бўлиб саналади. Классификация деб, тадқиқотчини қизиқтирадиган хусусиятларига кўра тадқиқот объектини ўрганадиган илмий услубларга айтилади. Келиб чиқиш белгиларига доимий алоқада бўлган тизимларда фарқланади.

Аждодларимиз табиат ва коинот сирларини ўрганиш, инсон фаолияти ва ҳаёти табиат билан гармонияда мавжудлигини таъминлаш фалсафасини эгаллашга интилишлари ҳайратга солади. Мустақиллик йилларида маънавий меросимизни ўрганиш асносида қадимий таълимотларимизда инсон, жамият ва табиат муносабатларининг яхлит ҳамда ўзаро боғлиқ ҳодисалар моҳияти очиб берилганлигига гувоҳ бўлмоқдамиз.

Ана шундай миллий руҳиятимизнинг маънавий ва ахлоқий манбаси бўлиб келаётган куч – «Авесто»дир. Мазкур тарихий асарда, инсоннинг шу даврда табиатга, сувларга, боғу-роғларга муносабати, таълим-тарбия, инсоннинг ахлоқий комиллиги, маърифий етуклиги, руҳий соғломлиги масалалари устувор қўйилади. Тизимлар олами таълимоти “Авесто” асарида осмон-ер-инсон уйғунлиги фалсафаси мантиғи билан боғлиқ қонуниятлар сирини англаш унга мувофиқ ижтимоий муносабатлар яратилганлигини кузатамиз. Жумладан, тарбия - ҳаётнинг энг муҳим тиргачи (таянчи) бўлиб ҳисобланишига алоҳида эътибор қаратилади. Ҳар бир ёшни шундай тарбиялаш зарурки, у аввало яхши ўқишни ва сўнгра эса ёзишни ўрганиш билан энг юксак поғонага кўтарилсин. Болалар ёш пайтиданоқ дарахт кўчати ўтқазиш, уй-рўзғор қуролларини ясаш, ерга ишлов бериш ва чорва билан шуғулланишга ўргатилиши шарт. Ҳар бир инсон ўзи ўсиб-улғайган (заминни) мамлакатни энг яхши ва гўзал мамлакат деб тушунмоғи тўғрисидаги ғоялар табиат билан инсон ўртасидаги гармонияни ифода қилади [4]. Инсоннинг атроф-муҳитни билиши умумий тузилишига ва босқичларига турлича ёндашишлар билан таълим жараёнларини қуриш мантиғини белгилаб беради.

Олам яхлитлиги масалалари ўрганган мутафаккир Муҳаммад ал-Хоразмий ҳисобланади. Муҳаммад ал-Хоразмий (IX аср) билиш назарияси ривожланишига катта ҳиссасини қўшган. У биринчи бўлиб коинот объектларининг ҳаракатлари ҳамда ердаги нуқталарининг жойлашишини жадвал кўринишида акс эттириб, тажриба-кузатиш ва

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

тадқиқотлар методларини илмий жиҳатдан асослаб берди. Ягоналикнинг бирлиги тамойили, шунингдек, алоҳида ва умумий, индукция ва дедукцияларнинг моҳиятини аниқлаштирди; математик масалаларни ечишнинг алгоритмик методини ишлаб чиқди. Бу методдан бугунги кунда ҳам фойдаланиб келинмоқда.

Абу Наср Форобий (X аср) ўзидан олдинги алломалар ғояларини ўрганишни давом эттиради. Унингча бирор нарсани билишга интилган инсон аввало унинг маълум ҳолатини ўрганади, ўзлаштирилиши зарур бўлган билимларга йўналтиради. Аллома фанлар классификацияси, шунингдек, билиш фаолиятини ташкил этишга оид тавсияларни ишлаб чиқади. Яхши назариётчи бўлиш учун дейди, - Абу Наср Форобий, - қайси фан билан шуғулланишидан қатъий назар қуйидаги учта шартга амал қилиш керак:

1.Фан асосида ётувчи барча тамойилларни яхши билиши;

2.Ушбу тамойил ва маълумотлар асосида зарур хулосани чиқариши, яъни, мулоҳаза юритиш қоидаларини билиши керак;

3.Хато назарияларни исботлаб бериш ва бошқа муаллифлар фикрларини таҳлил қилишни, шунингдек, ҳақиқатни ёлғондан ажратиш ва хатони тузатишни билиши зарур, дейди. Бундай таълимотлар бугунги кунда тизимли таҳлилнинг назарий асосларини чуқурроқ тушунишга хизмат қилади.

Абу Наср Форобий бобомиз кишилик жамиятини ривожлантиришда инсон омили билан боғлиқ педагогик тизим қонуниятлари ҳақида улкан меърос қолдиради. Унинг фалсафий қарашлар орқали таълим-тарбияга оид фикрларини илғаш мумкин. У ўзининг "Ақл ҳақида рисола", "Фалсафадан олдин нимани ўрганиш керак", "Субстация ҳақида", "Фалсафа манбалари", "Логикага кириш", "Идеал жамоа ҳақида", "Бахт-саодатга эришув тўғрисида" каби машҳур асарлари мавжуд.

Асарларда бош ғоя инсон салоҳияти ва унинг қобилиятлари жамият тизимини вужудга келтирувчи етакчи омил сифатидаги қарашларида намоён бўлади. У икки нарсани инсон ақлига хос дейди:

1) Табиатдан олинган табиий жумбоқлар.

2) Таълим-тарбия натижасида эришилган ирода ва истакка мос интилиш.

Демак, унингча педагогика, бу-муайян йўналишда мураббий, ўқитувчи раҳбарлигида тарбияланувчи шахснинг ирода ва интилишларини бошқариш санъатидир. У бу фикрини ривожлантириб, таълим-тарбия ёш авлод шахсини шакллантиришнинг воситаси эканлигини таъкидлайди ва уларнинг вазифаларини кўрсатиб беради. Унингча, таълим фалсафа ва назарий билим асосларини эгаллаш демакдир. Тарбия - ўқитувчи, педагог, мураббийнинг ёш авлодга муайян ахлоқий хулқ-атвор нормаларини шакллантириш ва социал тажрибани ўзлаштиришга қаратилган амалий кўникмаларини шакллантириш фаолиятидир.

Муаллиф анализ ва синтез, дедукция ва индукция услубларини шарҳлаб берди. Унингча, анализ ёрдамида бўлакларга ажратилган предметларни синтез ёрдамида ўрганиш лозим. Индуктив услубда анализ ёрдамида алоҳида нарсалар, фактлардан умумийликка қараб борилади, дедуктивда эса синтез йўли билан умумийликдан хусусийликка ўтилади. У асосий таълим услуби деб ишонтиришни кўрсатади. Улгурувчилар учун ёки ўзлаштирувчилар учун абстракт тафаккур воситасида, ўртача ўзлаштирувчилар учун эса кўргазмалилик воситасида бу метод қўлланилади. Унинг ишонтириш услуби ҳозирги суҳбат, ҳикоя ва маърузаларни ўз ичига оладиган оғзаки услубларга мос келади. Бундан

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ташқари Форобий педагогик фикрларидан ўқитувчи ва ўқувчи ўртасидаги муносабатлар тўғрисидаги фикрларни ҳам илғаймиз. Унингча, ўқитувчи жуда ҳам қаттиққўл ёки жуда юмшоқ кўнгил бўлмаслиги керак. Қаттиққўллик ўқувчиларни унга қарши қаратади. Ортиқча оқ кўнгиллик, юмшоқлик устоз шахсини, унинг фанини ҳурмат қилмасликка олиб келади. Ўқитувчи ва ўқувчи муносабатлари ҳамиша ҳурмат ва ишончга асосланган бўлиши лозим [5].

Бола тарбияси борасида муҳим манбалардан бири бу Кайковуснинг «Қобуснома» асаридир. Бу асарни баъзан Шарқ педагогикасининг қомуси деб бежиз айтишмайди. Мазкур асарда таҳсил берувчи ва таҳсил олувчи тоифалар маълум бир тизим турларига ажратилганлиги муҳим методологик ёндашув сифатида диққатга моликдир. Жумладан:

-бири улким, билур ва билғонини билур. Ул олимлардур, унга тобе бўлмоқ керак;

-бири улким, билмас ва билмағонин билур, ул қобилдур, унга ўргатмоқ керак;

-бири улдурким, билур ва билғонин билмас, ул уйқудадир, уни бедор қилмоқ керакдур;

-бири улким, билмас ва билмағонин билмас, у жоҳилдир, ундан қочмоқ керак [6].

Мазкур асардаги қарашлар таълим-тарбия олувчиларнинг таснифи келтирладики, у бугунги таълимнинг босқичма-босқич турли йўналишларда, қобилият ва иқтидорга қараб шакллантирилишини билдиради.

Таҳлил ва натижалар

Таълим-тарбия соҳасида улкан мерос қолдирган яна бир аллома Абу Али Ибн Сино фақат ҳаким эмас, балки буюк муаллим сифатида ҳам боланинг табиатини тарбилаш сирларини чуқур ўрганган. У "Етти санъат" системасидан фарқ қилиб, ўқув предметлари қаторига одоб, астрономия, медицина, мантиқ, фалсафа, табиатшунослик, тил ва фиқҳларни киритади. Унинг таълим-тарбия системаси қуйидагилрни ўз ичига олади:

1. Ақлий тарбия.
2. Эстетик тарбия.
3. Жисмоний тарбия.
4. Ахлоқий тарбия.
5. Касб-ҳунар тарбияси.

Ибн Сино асосий эътиборни болаларни мактабда ўқитиш ва тарбиялашга қаратди. Ўзининг "Манзил тадбири" асарининг алоҳида бўлимини "Болаларни мактабда ўқитиш ва тарбиялаш" деб атади. Унингча, мактабда болаларни жамоа қилиб ўргатишнинг аҳамиятини қуйидагича кўрсатади:

1) Агар болалар биргаликда таълим олсалар, уларда зерикиш бўлмайди. Уларнинг фанни ўрганишга бўлган қизиқиши кучаяди. Болалар бир-бирларидан орқада қолмаслик учун мусобақалашади. Бу эса боланинг ўқишини яхшилайди.

2) Суҳбатларда улар бир-бирларига китобларда ўқиган ёки катталардан эшитган қизиқарли ҳикояларни айтиб берадилар. Бу уларнинг нутқини ўстиради ва хотирасини мустаҳкамлайди.

3) Болалар бир-бирларини ҳурмат қилишга ҳам бир жойга тўпланишганда яхши ўрганишади. Фақат мусобақалашиш эмас, ўртоқларига ўқув материалларини ўзлаштиришга кўмаклашадилар, бир-биридан яхши одатларни ўрганадилар [5].

IX-XII аср Ўрта Осиё педагогик фикрлар тараққиётида Абу Райҳон Берунийнинг ҳам ўз ўрни бор. Берунийнинг педагогик қарашлари унинг фалсафий, психологик қарашлари

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

билан чамбарчас боғлиқдир. У бу ҳақда алоҳида асар ёзмаган бўлсада, бу соҳадаги ғоялар унинг барча асарларида ўз аксини топган. Унинг таълим тарбия ҳақидаги фикрларини қуйидаги босқичларда ўрганиш мумкин: 1) Таълимнинг онглилиги; 2) кўргазмалилик, 3) системалилик ва изчиллик, 4) асосланганлик, 5) назариянинг практика билан боғлиқлиги, 6) дарслик олдига қўйиладиган талаблар.

Абу Райҳон Беруний Беруний билишни узлуксиз, тўхтовсиз давом этадиган жараён сифатида тушунади. Алломанинг фикрича, инсоният борлиқнинг ҳақиқий моҳияти, ҳозирча номаълум бўлган жиҳатларини келажакда билиб олади.

Берунийнинг таъкидлашича, таълимда кўрсатмалилик муҳимдир. Чунки у таълимни ишончли, аниқ ва қизиқарли қилади, кишининг кузатиш қобилиятини ва тафаккурини ривожлантиради. Муаллифнинг фикрича таълим илмий асосга қурилиши керак. У "Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар" асарида аниқ бўлмаган фактларни аниқламасдан хабар қилишдан, шубҳасиз тўғри бўлган шубҳаларни, маълумга номаълумни аралаштирмасдан сақланиш кераклигини айтади.

Юсуф Хос Ҳожиб «Қутадғу-билиг» асари [7], Низомулмулкнинг «Сиёсатнома» асари [8], Ж. Румий қарашлари [9], Амир Темурнинг “Темур Тузуклари”, Бобурнинг “Боборунома” асарлари А.Навоийнинг сўнги асарларидан “Маҳбуб ул Қулуб”, кейинчалик Бедил, Давоний, Кошифий ва кўплаб мутаффакир адибларнинг қарашларида олам, борлиқ, инсон ва унинг маънавий олами, комиллик тарбияси масалалари борасида чуқур ғояларни берадики, бу ғоялар инсоннинг маънавий қиёфасини белгиловчи улкан қадриятлар сирасига киради.

Маълумки, XIX асрга келиб Туркистонда маърифатпарварлик ҳаракати оммавий тус олади. Жадидчилар ижтимоий тизимни ўзгартириш вазифаларини, аввало, маънавият соҳасини ривожлантириш орқали амалга оширишга эътибор қаратадилар. Бунинг учун улар янги усулдаги мактабларни ташкил этиш, газеталар чиқариш, дарслик ва ўқув қўлланмаларни нашр этишни, ғарбнинг янги маданият ва технология услубиятларини ўрганиш заруриятини, уни Туркистонда тарғиб этиш орқали миллий - дунёвий таълимни юзага келтиришни, маънавий ҳаётни янгилаш ва бойитиш, миллий ўзликни англашни юксалтиришга ва уни ягона бир тизимга солиш лозимлигини асослашга интилганлар. Улар жамият тараққиётининг асосини таълим-тарбия белгилайди, деган тўғри фикрга келади

Бундай қадриятларни маънавий мерос сифатида асраб-авайлаш, келгуси авлодларга таълим орқали сингдириш муаммолари билан А.Авлоний [10], М.Абдурашидхонов [11], М.Беҳбудий ва бошқа кўплаб миллатпарварлар асарларида ўз ифодасини топган. М.Беҳбудий педагогика масалаларига ижодий ёндашди. У мураббий-педагог сифатида бола табиатини чуқур ўрганди, ўз ўқув дастурларига болага ҳар томонлама пухта билим берувчи илмларни киритди. Ўқув предметлари қаторидан одоб, жуғрофия, табиатшунослик, тил, фиқх, ҳандаса ва бир қанча замонавий билимлар ўрин олди. Унинг таълим-тарбия системаси қуйидагиларни ўз ичига олади: 1) Ақлий тарбия. 2) Ахлоқий тарбия. 3) Диний тарбия. 4) Эстетик тарбия. 5) Ҳуқуқий тарбия [11].

Хулоса ва таклифлар

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, кўриб турганимиздек, Ўзбекистонда таълим-тарбиянинг улкан ва беқиёс мероси мавжуд. У бугунги кунда замонавий тизимли таҳлилнинг илмий ва амалий бойликларини ташкил этади. Аммо, тарихий-маънавий меросимиз ижтимоий фанлар предмети таркибига киритилган эмас. Фақат улар ҳақида

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

баёний маълумотлар билан чекланиб, маърифий асарларнинг тулиқ моҳияти таълим-тарбия тизим методологиясига таркибига айланмаган. Зеро, таълим – тарбия жараёнларини мукаммал бошқариш, тарбиявий услубларни уйғунлаштириш, миллий қадриятларни ёшлар онгига сингиришнинг самарали технологияларини такомиллаштириш орқали тизимли таҳлил назарияларини тадбиқ этиш ва самарадорликка эришиш мумкин бўлади

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Берталанфи Л. Общая теория систем: Критический обзор // Исследования но общей теории систем. — М.: Прогресс, 1969. — С. 23-82.
2. Тожиев М,Зиёмуҳаммадов Б Миллий педагогик технологияни таълим-тарбия жараёнига тадбиғи ва уни ёшлар интеллектуал салоҳиятини юксалтиришдаги ўрни.Т.:"MUMTOZ SO'Z",2010й, 32-33-б.
3. Отамуродов С. «Авесто» миллий ғоямиз манбаи // Жамият ва бошқарув. № 2. 2002. Б-34.
4. Аҳророва З. Жадид педагогика асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2004. 7-бет.
5. Кайковус "Қобуснома". Т. «Ўқитувчи», 2006, 50-бет.
6. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. –Т:, Фан, 1971. Б. 649-651.
7. Низомулмулк Сиёсатнома. -Т.: 1997. –Б. 75
8. Румий Ж. Ичингдаги ичингдадир. -Т.: Ёзувчи, 1997. –Б. 51
9. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. Т.: Маънавият. 1998.
10. Беҳбудий М. Китобат ул-атфол.-Самарқанд: Типография Г.И.Демурова. 1908 йил, 27-бет.

УЎК:796.032.011:015.84

ОЛИМПИЯ АНЪАНАЛАРИ АСОСИДА ТАРБИЯЛАШ ИШЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети, Спорт фаолияти ва санъат факултети, Спорт фаолияти кафедраси доценти, п.ф.б.ф.д, (PhD). Мамазиятов Дониёрбек Бахтиярович
E-mail: dmamaziyatov@gmail.com

Аннотация *мақола Олимпия ҳаракатининг асосий идеаллари ва анъаналарини замонавий ривожлантиришда Олимпия таълимотининг ролини акс еттиради. Инсон фаолиятининг енг муҳим вазифалари, Олимпия ҳаракати доирасида ёшларнинг билим, тажриба ва қобилиятларини шакллантириш ва уларнинг инсонпарварлиги ушбу модданинг асосий масалаларидир.*

Калит сўзлар: *Олимпия ҳаракати, спорт, билимлар тизими, олимпия ўйинлари, мусобақа, педагогик фаолият, усуллар.*

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ НА ОСНОВЕ ОЛИМПИЙСКИХ ТРАДИЦИЙ

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова
Факультет спортивной деятельности и искусства
Кафедра спортивной деятельности
д.ф.п.н. (PhD), доцент Мамазиётов Дониёр Бахтиярович

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Бўлажак технология таълими ўқитувчилари ижодкорлигини шакллантириш орқали олий таълим уларга касбий фаолиятида муҳим вазифани - ўз лойиҳаларида ишлаб чиқаришнинг ҳам технологик имкониятларини, ҳам жамиятнинг эҳтиёжларини олдиндан кўра билиш қобилиятини ҳал қилишга ёрдам беради.

Хулоса. Бўлғуси педагогларнинг ижодкор, юқори малакали технологик эгаси бўлишида, талабага ўқув-тарбия жараёнида унга нафақат объект сифатидагина қаралишидадир. Яъни талаба тайёр билимларни қабул қилиб олувчи эмас, балки билим олиш, ўзлаштиришда субъект сифатида қаралиши зарур. Таълим жараёнида талабанинг фаоллашига, масъулият ҳиссининг ошишига, ўқув жараёнининг иштирокчисига, мустақил таълим ола билиш кўникмасини шакллантиришга алоҳида эътибор бериш, бўлғуси ижодкор педагогнинг шаклланишига замин яратилади. Бўлажак технологик таълими ўқитувчилари ўз билимкўникма малакаларини оширишни мунтазам равишда ижодкорлик изланишлари шаклида ташкил этиши ва маълум мақсадга йўналтириши зарур. Бунда:

– ижодкорлик сифатларини ўзларида шакллантиришлари;

– ижодий изланишлар жараёнини бошқаришга мойил бўлиши;

– ижодкорлик бўлажак ўқитувчининг педагогик, психологик ва назарий тайёргарлигига боғлиқ бўлишини эсда тутиши лозим. Бўлажак технологик таълими ўқитувчилари бир вақтнинг ўзида ҳам индивид, ҳам ижодкор, ҳам шахс шу билан бирга субъект хисобланади. Албатта бу тўрт кўрсатгич бирдек узлуксиз тараққий этиши, шаклланиши ва узлуксизликда такомиллашиб боришини таъминлаш лозим. Бундай ҳолат тизимли ёндашув асосида бўлғуси ўқитувчини профессионал педагог сифатида махсус ғоявий ҳамда ижтимоий тайёргарликка эга бўлган индивидуал етук шахс бўлиб шаклланишига хизмат қилади. Бу эса, ўз навбатида, юқори салоҳиятли, рақобатбардош ўқитувчиларнинг янги авлодини тайёрлашга катта имкониятларни беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш / Монография. – Т.: “Фан”, 2004. 33-бет.
2. Муслимов Н.А. ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси / Монография. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2013. 41-бет.
3. Муслимов Н.А. Олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларнинг малакасини ошириш технологиялари. Монография, “Фан” нашриёти, 2011. 17 б.
4. Очилов М. Муаллим - қалб меъмори. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2001. 281-б
5. Ш.Б.Турсунова “O’qituvchi kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari”T.N.Qori Niyoziy nomidagi O’zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti “UZLUKSIZ TA’LIM” ilmiy uslubiy jurnal 80-83 бетлар
6. Ш.Б.Турсунова “Texnologik ta’lim sifatini oshirishda bo’lajak o’qituvchi ksabiy kompetensiyasining o’rni” “Ijodkoro’qituvchi” Ilmiy uslubiy jurnal 347 бет

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

УДК: 372.878

К ВОПРОСУ МУЗЫКАЛЬНО–ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ

Муминова Мукаддас Рискуловна
Преподаватель,
Джизакский государственный педагогический университет,
mukaddasmuminova78@gmail.com

Аннотация. *В статье раскрывается содержание творческого подхода к профессиональной деятельности в системе образования, раскрывается творческий подход к профессиональной деятельности как фактор достижения эффективности в музыкальном образовании.*

Ключевые слова: *музыкальное образование, система образования, профессиональная деятельность, креативный подход, эффективность, фактор, образование, интерактивные методы.*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta'lim tizimida kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish mazmuni bayon etiladi. Maqolada kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish –musiqa ta'limida samaradorlikka erishish omili sifatida ochib beriladi.*

Kalit so'zlar*: musiqa ta'limi, ta'lim tizimi, kasbiy faoliyat, ijodiy yondashish, samaradorlikka erishish, omil, ta'lim, interfaol metodlar.*

Abstract *The article reveals the content of a creative approach to professional activity in the educational system, reveals a creative approach to professional activity as a factor in achieving effectiveness in music education.*

Keywords: *music education, education system, professional activity, creative approach, efficiency, factor, education, interactive methods.*

Введение

Развитие музыкально – эстетического воспитания в Узбекистане на современном этапе общества предусматривают разностороннее развитие с приоритетом духовного совершенствования посредством включения "в духовно культурную сферу" при адаптации образования к личностным интересам и потребностям, создания условий и действенных механизмом реализации интересов личности на основе интеграции образования и культуры.

Эстетическое воспитание подрастающего поколения на всех витках исторического развития общества всегда было объектом исследования, педагогики. Это объясняется влиянием огромной роли искусства на воспитание развитой личности. Оно включает в себя формирование эстетических взглядов, вкусов и идеалов активных борцов за прекрасное в жизни, систематическое последовательное расширение художественных знаний, развитие способностей и потребностей видеть красоту в повседневной жизни.

Произведения искусства, богатые по–своему идейному содержанию, воспитывают у подрастающего поколения художественный вкус, способствуют культурному росту и развитию самопознаниям воспитывают любовь к творческому труду, к природе родного края, любовь к Родине.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

С приобретением Узбекистаном независимости и суверенитета в стране большое внимание уделяется возрождению духовности, бережному отношению к богатому культурному наследию народов.

Основная часть. Младший школьный возраст является важнейшим периодом формирования и становления личности. Знания и умения, приобретаемые в этом возрасте, усваиваются мгновенно, фиксируются на всю жизнь и теряются в последнюю очередь при старческой деградации и патологии мозга.

Вышеизложенное дает основание утверждать, что основы формирования всесторонне развитой личности будущего специалиста закладываются в этом возрасте.

Школьное образование является важным системе непрерывного образования в нашем регионе и независимо от форм и способов его получения решают следующие задачи:

– целенаправленная и систематическая подготовка детей к обучению в школе, развитие их индивидуальных способностей и одаренности;

– приобщение детей к и национальным общечеловеческим этическим и культурным ценностям, интеллектуальное развитие ребенка;

– формирование основ высокой духовности и нравственности;

– укрепление физического и психического здоровья детей [1].

Для реализации целей и задач последовательного развития подрастающего поколения национальная по подготовке кадров предусматривает ряд мер:

– обеспечение приоритетной подготовки квалифицированных кадров воспитателей и педагогов;

– внедрение в учебно–воспитательной процесс эффективных психолого–педагогических методик, обеспечивающих раскрытие способностей и интересов детей, удовлетворение их растущих потребностей;

– создание условий для духовно–нравственного воспитания школьников на основе богатого культурно–исторического и духовного наследия народа и общечеловеческих ценностей [2].

В воспитании всесторонне развитой личности особая роль отводится видам таких как музыкальному искусству, изобретательному искусству, скульптуре, архитектуре, народному творчеству, прикладному искусству и другие.

Главной функцией искусства в этой процессе является предоставляет личности возможности познания прекрасного, достижение эстетического начала в жизни, то есть помочь человеку раскрыть для себя мир реально существующей красоты. Через красоту в искусстве человек идет к нравственной истине.

Из истории нашей страны нам известно, что проблемам эстетического воспитания подрастающего поколения придавали большое значение. Мыслители средневекового Востока: Абу Наср аль Фараби (873–950), Абу Райхон Бируни (973–1050), Абу Али ибн Сина (980–1037)[49], они в своих трудах по данному аспекту уделяли особое внимание, считая воспитание и обучение, основой как для интеллектуального, так и для духовного развития личности в целом.

[49] http. Wikipediya.ru

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Абдулла Авлони, Гафур Гулям, Хамид Алимжан считали, что необходимо создать условия для эстетического совершенствования молодого поколения, для проявления неисчерпаемых их талантов.

Ученые и педагоги Узбекистана также внести большой вклад в разработку проблемы эстетического воспитания школьников средствами искусства. (И. Муминов, М. Хайруллаев, С. Шермухамедов, С. Аннамуратова, С. Файзуллина, Ш. Курбанов, К. Мамиров, Ш. Жанайдаров, Б. Азимов, Х. Нурматов, И. Ревес, Ф. Халилов, Д. Каримова, Г. Шарипова, Э. Шаинская и другие.

Большое внимание вопросам эстетического воспитания детского возраста уделяется педагогами и психологами России (А. Запорожей, И. Сакулина, В. Екизеева, Л. Венгер, В. Мухина и многие другие).

С установлением Независимости перед музыкальным искусством Узбекистана открылись широкие перспективы и обозначился круг новых творческих проблем, требующих осмысления и решения. “Закон об образовании”, “Национальная программа по подготовки кадров”, постановление первого президента страны Ислама Каримова “О государственной программе укрепления материально–технической базы и дальнейшего улучшения деятельности школ Музыки и Искусства на 2009–2014 годы” определили приоритетные направления развития одной из самых важнейших сфер духовности – Музыкального Искусства.

Оглядывая ретроспективный путь, пройденный музыкальным искусством за период Независимости, отрадно отметить, что оно поднялось на качественно новый профессиональный уровень, далеко шагнуло вперед благодаря перспективам, открывшиеся молодой Республике. Провозглашение Узбекистаном своей Независимости в 1991 году поменяло отношение народа к национальной музыкальной культуры. Стали возрождаются традиции, стили, жанры различных видов искусств, но с заметными изменениями, на которые не могло не наложить отпечаток времени. Современные тенденции появились во всех пластах музыкального искусства – и в фольклоре, и в жанрах профессиональной музыки устной традиции и в композиторском творчестве.

В 1990–е годы наблюдалось “…та же система национальной молодежи плюс зародившаяся на её базе и получившая активное развитие новая система так называемого европейского многоголосия композиторского творчества творчество, принёсшая с собой свой арсенал средств форм, жанров, стилей и соответствующих им исполнительства”[50]. В этом ключе протекало творчество: А. Мансурова, М. Бафоева, Д. Сайдаминовой, Д. Янов–Яновского. 21 век дал огромную свободу творческой мысли, орентиров на использования прежних достижений в совершенно–новом понимании.

Творчество композиторов Узбекистана первого десятилетия 21 века–безусловно, новый этап в развитии, национальной музыки проблематики обогащение художественных средств, разнообразных стилей новых жанровых сочетаний использования технологии в создании партитур и многое другое Снижения внимании к европейским жанрам усиливает интерес к иным способам выражения творческой мысли, новых стилевых комплексов, жанровых сочетании, несмотря на то, что явно снижается общая творческая активность

[2] Янов–Яновская “одна культура–две традиции. Янов–Яновская”. Узбекская музыка 21век. – Т:. 2007. – с. 214, Янов–Яновская “одна культура–две традиции. Янов–Яновская” Узбекская музыка 21век. – Т:. 2007. – с. 214.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

авторов. И вместе с тем есть основание говорить возросшем, интересе, наиболее чутких музыкантов к веянием современной и свежим языковым и стилевым решением о более равномерном развитии жанров из–за некоторого оживления сфере камерного творчество[51].

Популярными становятся такие жанры как: поэма – фантазия то есть более свободные от канонов, формы выражения.

За годы независимости музыкальное искусство Республики прошло очень интенсивный рост, достигло успехов и побед, что позволяет говорить об обретении нового более высокого уровня развития в сравнении с предыдущими этапами. Это и обязывает ко–многому и выдвигает круг новых актуальных проблем. Среди них такие как: Созданием новых учебников и учебных пособии с применением инновационных технологии учебных программ на модулезаций учебного процесса, издании учебных пособии и хрестоматии по формированию музыкальной культуры подрастающего поколения как в классных так и во вне классных мероприятиях в учебном воспитательном процессе.

На современном этапе у нас в республике во всех педагогических институтах, и педагогических колледжах, обще образовательных детских школах, школа искусство и других детских учреждениях учащаяся молодёжь занимается музыкой, получает музыкальное образования и воспитания. Традиционными стали проведения (праздника наврузи), (санъат байрами), (Ашула байрами) (Праздники песен), различное радио и телефестивали и конкурсы музыки это яркое свидетельство торжества национальная музыкальная воспитания учащихся молодёжи в Узбекистане.

Однако, все это еще не достаточно отвечает современным требованиям массового музыкально–эстетического воспитания подрастающего поколения. Так как требованиям действующей национальной программы кадров направлено на формирование всесторонние развитой и личности в целенаправленную систему формирующую музыкальную культуру, способствующую повышению мировоззрения учащихся, в свете требований сегодняшнего дня. В Узбекистане мало издано учебных пособий, и другой различной литературе по музыкальному воспитанию, фильмов и их реализации во всех воспитательных учреждениях нашей Республики.

Большое значения в деле пропаганды инструментального творчества, имеют средства массовой информации (телевидения, радио, печать и другие), которые сегоднешние дни оказывают большую помощь в развитие и эстетических качеств подрастающейся поколения а также действующие ансамбли, оркестры народных инструментов об этом свидетельствуют проводимые ежегодно конкурсы (Мархабо талантлар), (Шарк тароналары), (Различные университеты) и другие.

Активное участия учащихся в народном художественном творчестве способствует самораскрытию личности, способствует проникновению эстетического начала в повседневную трудовую и общественную жизнь их деятельности.

Эстетическое воспитания у учащихся молодёжи формируется под влиянием разнонаправленных факторов – традиционного народного творчества, фольклора,

[51] Янов–Яновская “Говорят музыканты Узбекистана: двадцать лет спустя…” (Музыкальная академия) 2004. – с. 62. Янов–Яновская “Говорят музыканты Узбекистана: двадцать лет спустя…” (Музыкальная академия) 2004. – с 62.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

органично связанного с природой, бытом, обычаям узбекского народа и профессионального искусства, воздействующего преимущественно через средства массовой коммуникации.

Поэтому процесс формирования профессионально – значимых качеств учащихся во многом характеризуется меры соединения слоя фольклорного искусства. А их единство наиболее полно достигается в народных ансамблях песни и танца, сольных исполнениях. Таким образом, музыкально – эстетическое воспитание подрастающего поколения, в Узбекистане имея своей целью, формирование высокой эстетической культурной личности, используя, все свои формы и средства для достижения этой цели параллельно собственно эстетическим эффектам дает результаты и в других направлениях воспитания. Об этом был издан приказ президент Республики Узбекистана Ш. Мирзиёева.

Выводы

Сохранившиеся до наших дней исторические музыкальные исторические музыкальные трактаты созданные: Фараби, Ибн Синой и другими мыслителями Средней Азии в Узбекистане, и бытовые музыкальные инструменты служившие средством оптимизации музыкально – эстетического воспитания являются ярким примером существования черт и характера узбекской музыки. Все вышеупомянутые явилось основной музыкальной – эстетической культуры учащийся молодёжи в Узбекистане, на современном этапе.

Приказ Президента Республики Узбекистан: “о мерах по дальнейшему развитию деятельности организаций культуры и искусства, творческих союзов и средств массовой информации, созданию дополнительных условий для стимулирования труда работников сферы”

Использованные литературы

1. Янов – Яновская “одна культура – две традиции. Янов – Яновская” Узбекская музыка 21 век – т 2007. – с. 214.
2. N. Hasanova. O‘zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin – qizlarning o‘rni. Актуалный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26–27 yanvar, 2017.
3. Muminova M.R. Development and current status of Uuzbek pop music in modern approaches and innovations of teaching the science of music culture. International Journal of Advanced Science and Technology, Vol. 29, No. 8, 2020.
4. Hasanova N. Methods and ways to develop the musical feelings of students in the lessons of music culture. Архив Научных Публикаций JSPI, 1 (42), 2020.
5. Hasanova N. O‘zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin–qizlarning o‘rni. Актуалный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26–27–yanvar, 2017.
6. Xolmirzayev O. Yoshalar kamoloti va musiqa. Журнал дошкольного образования, 3 (3), 2021.
7. Р. Кадыров II Музыкальная педагогика. Учебное пособие. Ташкент, 2005. – стр. 52.
8. Омонов Х. “О развитии музыкальных традиций Узбекистана и Азербайджана. Архив Научных Публикаций JSPI, 1 (10), 2020. – стр. 1–2.
9. Омонов Х. Некоторые страницы из жизни ю.г. кон: преданный душой узбекской музыке. Архив Научных Публикаций JSPI, 1 (10), 2020. – p. 1–3.
10. Омонов Х. A look at the history of Uzbek music. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(10), 2020. – p. 1–7.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ЁШЛАР МУСИҚА МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ОБЪЕКТИВ ВА СУБЪЕКТИВ ОМИЛЛАРИ

Фарғона давлат университети Мусиқа таълими ва маданият кафедраси ўқитувчиси
Турсунова Лайло
e-mail: ilmiy@inbox.ru

Аннотация: *Мазкур мақолада жамиятнинг янги тараққиёти босқичида ёшлар мусиқа маданиятини юксалтириш, такомиллаштириш юзасидан бир қатор тизимли ишлар амалга оширилаётганлиги, мусиқа маданияти оламни билиш, ҳис қилиш, идрок этиш ва унинг гўзалликларидан лаззатланишнинг алоҳида бир шакли эканлиги ва ёшларнинг мусиқий маданиятини юксалтиришнинг объектив ва субъектив омиллари фалсафий жиҳатдан таҳлил қилинади.*

Калит сўзлар: *мусиқа, мусиқа маданияти, мусиқий мерос, санъат,объектив ва субъектив омиллар, ижрочилик санъати, баркамол авлод, баркамол шахс, маданий қадриятлар, мақом, достончилик, фольклор.*

ОБЪЕКТИВНЫЕ И СУБЪЕКТИВНЫЕ ФАКТОРЫ СОДЕЙСТВИЕ МОЛОДЕЖНОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЕ

Преподаватель кафедры музыкального образования и культуры Ферганского государственного университета
Лайла Турсунова
e-mail: ilmiy@inbox.ru

Аннотация: *В данной статье на этапе нового развития общества проводится ряд планомерных работ по повышению и совершенствованию музыкальной культуры молодежи, познанию мира музыкальной культуры, что это особая форма ощущения, восприятия и наслаждения ее красотами, а также философски анализируются объективные и субъективные факторы повышения музыкальной культуры молодежи.*

Ключевые слова и выражения: *музыка, музыкальная культура, музыкальное наследие, искусство, объективные и субъективные факторы, исполнительское искусство, зрелое поколение, зрелый человек, культурные ценности, статус.*

OBJECTIVE AND SUBJECTIVE FACTORS PROMOTION OF YOUTH MUSIC CULTURE

Lecturer at the Department of Music Education and Culture, Fergana State University
Laila Tursunova
e-mail: ilmiy@inbox.ru

Annotation: *In this article, at the stage of the new development of society, a number of systematic works are carried out to increase and improve the musical culture of young people, to understand the world of musical culture, that this is a special form of sensation, perception and enjoyment of its beauties, and also philosophically analyzes the objective and subjective factors of increasing the musical culture of youth.*

Key words and expressions: *music, musical culture, musical heritage, art, objective and subjective factors, performing arts, mature generation, mature person, cultural values, status.*

Кириш

Ҳар қандай маданият ва санъатнинг шу жумладан, мусиқа маданияти ва санъатини юксалишида жамият зиёлилари қатлами асосий роль ўйнайди. Улар доимо миллатнинг донишмандлиги ва тарихий тажрибасига суянади.

Ёшларнинг мусиқий маданиятини юксалтиришда халқнинг миллий маданий, тарихий мероси катта аҳамият касб этади. Дастлабки йиллардаги тажрибалардан шу нарсалар аён бўлмоқдаки, анъанавий мусиқий мерос ва мутафаккирларнинг ёшларда мусиқий маданиятни шакллантиришга хизмат қиладиган фикрлари ва қарашларидан фалсафа ҳамда педагогикада унумли фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Ёшлар мусиқа маданиятини кенгайтирмай, уларда миллий мусиқа маданияти ва санъатини ривожлантирмай туриб, маънавий ҳаётда пайдо бўлган ва асоратли из қолдирган инқирозларни бартараф этиб бўлмайди. Шунинг учун ҳам ёшларнинг мусиқа маданиятини юксалтирмоқ учун дастлаб мактабгача таълим муассасалари, кейин мактабларда ўтилаётган мусиқа маданияти дарслари сифатини тубдан яхшилаш, мусиқа ўқитиш методикасини такомиллаштириш, ёш авлод қалбига миллий мусиқа оҳангларини олиб кириш, айниқса, муҳимдир.

“Бугун биз мамлакатимизда миллий тараққиётнинг мутлақо янги босқичига қадам қўймоқдамиз. Ҳаётимизнинг барча жабҳаларида амалга оширилаётган жадал ўзгариш ва янгиланишлар маданият ва санъат соҳасида ҳам изчил давом эттирилмоқда”[1,344].

Ёшларда мусиқа маданиятни юксалтириш уларнинг олий таълим муассасасигача бўлган ҳаётий тайёргарлигига кўп жиҳатдан боғлиқ бўлади. Бунда уларнинг олий таълим муассасаларига маълум амалий кўникма ва малакаларга эга ҳолда келишлари, уларда ҳис-туйғу, тафаккур-ирода сифатлари маълум даражада шаклланган бўлиши, миллий мусиқа маданиятига нисбатан қизиқиш хусусиятининг мавжудлиги шахснинг камол топиши учун асосий замин бўлиб ҳисобланади.

Миллий мусиқа маданияти модернизацияси турли омиллар таъсир кўрсатадиган динамик жараён бўлиб, миллий мусиқа маданиятининг бир-бирини такрорламаслиги, уларнинг фарқли жиҳатлари ва ўзига хос томонлари, омиллари мавжуд. Бундай омилларни икки гуруҳга ажратиш мумкин: объектив ва субъектив. Объектив ва субъектив омиллар эса, ўз навбатида агрессив ва позитив характерга эга бўлиши мумкин.

Ижтимоий ҳаётнинг объектив ва субъектив омиллари бир-бири билан диалектик тарзда ўзаро таъсир қилади. Мазкур жараёнда объектив омиллар ҳал қилувчи рол ўйнайди. Мусиқа маданияти модернизациялашувини таҳлил қилиш, унинг агрессив жиҳатларини олдини олиш ва позитив жиҳатларини амалиётга тадбиқ этиш интеграция жараёнининг муҳим томонларидан бири эканлиги ўз аксини топган.

“Мусиқа маданияти ва санъати инсоннинг ижтимоий фаол мавжудот бўлиб шаклланиши билан ҳамоҳанг тарзда одамзоднинг табиат ва жамиятдаги ўрни ва фаолиятини бегиловчи меҳнат, ижод ва яшаш шароитлари натижаси сифатида пайдо бўлади[3,31]”.

Мусиқа маданияти оламни билиш, ҳис қилиш, идрок этиш ва унинг гўзалликларидан лаззатланишнинг алоҳида бир шаклидир. У гўзаллик ва мукаммаллик қонунлари асосида яшайди ва ривожланади. У шу маънода мусиқа – дин, фан ва фалсафа билан бир қаторда туради, инсондаги инсонийликни камол топтиради, олам сирларини кашф этади.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Миллий мусиқа маданияти муайян бир миллатнинг ҳис-туйғу ва кечинмаларини ифода этади, шунинг учун ҳам унга миллийлик хосдир. Унда миллатнинг бутун кечмиши, тарихи, фантазияси, миллий руҳи, эстетик диди, орзу ва армонлари, қувонч ва ташвишлари, дард ва аламлари мужассам бўлади. Шунинг учун ҳам миллий мусиқа санъатисиз Ватан мустақиллиги учун фидоий инсонларнинг вояга етишини хатто тасаввур ҳам қилиб бўлмайди.

Жамиятнинг янги тараққиёти босқичида ёшлар мусиқа маданиятини юксалтириш, такомиллаштириш юзасидан бир қатор тизимли ишлар амалга оширилаётган ҳозирги даврда ёшлар орасида мусиқа санъатига, унинг ижтимоий натижаларига ижобий муносабат шаклланмоқда. Айниқса, аждодларимиз босиб ўтган маданий тараққиёт йўлини чуқур таҳлил қилиш, тафаккур тарзини ўзгартириш, ёшлар фаоллигини таъминлашда мусиқа маданияти анъаналари мезонларига янгича ёндашув ҳамда омилларини ишлаб чиқиш барқарорликни таъминлов ва юксалтирувчи куч. Бу эса ёшларнинг оммавий ижтимоий фаоллигига эришиш учун замин тайёрлайди.

Миллий мусиқа барча санъатлар ичида ўзининг мутлоқ эркинлиги ва нафис билан алоҳида ажралиб туради. Уларни ўрганмай ва уларга таянмай туриб, миллий маданиятимизнинг маънавий-руҳий пойдеворини яратиш ҳам, шунингдек, ёшлар мусиқа маданиятини юксалтириш, аждодлар анъаналарига содиқ ватанпарвар авлоднинг вояга етказиш мумкин эмас.

Мусиқа санъатининг миллий маданиятни ривожлантиришдаги ўрни ва роли бениҳоя катта. Аҳмад Дониш айтганидек, “...хақиқий бахт бойликда эмас, аксинча, маънавий ҳаётни мушоҳада этишда, шахснинг мусиқачилар, қўшиқчилар, шоирлар билан бўлган мулоқотларидан оладиган ҳақиқий маънавий роҳатида, лаззатланиши ва қониқишидадир”[4,150].

Ҳар қандан маданият, жумладан, мусиқа маданияти ҳам бошқа халқлар санъати билан узвий боғлиқликда ривожланади, бироқ ҳеч қачон у миллий заминдан ажраб, узилиб қолмайди. Ўзбек миллий мусиқа маданияти ва санъати маҳаллий халқларнинг миллий оҳанглари заминида шаклланиб келган. Ҳар бир миллий маданият учун айни вақтда умуминсонийлик хосдир, умуминсонийлик миллийлик орқали намоён бўлади. Мусиқа маданиятининг миллийлиги мазкур халқнинг узоқ тарихий кечмиши, турмуш ва ҳаёт тарзи, меҳнат маданияти ва миллий анъаналар билан узвий боғланган бўлади. Миллий мусиқа маданияти ва санъати халқ ҳаётининг бадиий акс-садоси сифатида вужудга келади. У кишиларнинг кайфияти ва меҳнат фаолиятига, шунингдек, уларнинг миллий тафаккурига жуда кучли таъсир кўрсатади.

Мусиқа санъати кишиларнинг табиат билан ўзаро мулоқотида, уларнинг ижтимоий билим ва тажрибалари натижасида ўз аксини топади. Халқларнинг мусиқа санъатидаги яқинлик ва муштараклик ҳам мазкур халқлар турмуш тарзи, ҳаёт фалсафаси ва ҳиссий кечинмаларида намоён бўлади. Лекин шунга қарамай, дунё халқларининг ҳар бири, жумладан, ўзбек халқи кўп асрлик тарихи мобайнида ўзига хос такрорланмас бадиий маданият яратганлар.

Ёшлар мусиқа маданиятини юксалтиришнинг объектив омилларидан яна бири мусиқа санъатининг ижтимоий ҳаётда ўзига хос ўринга эга бўлиб, мазкур жараён миллий маданият ривожига қўядиган янги талаблардир. Жумладан, Мақом – мусиқа санъати ривожлантириш, фольклор санъатини тиклаш, бахшичилик санъатини ривожлантири

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

бўйича Президентимизнинг Фармон ва Қарорлари ҳамда 2018 йилда Термиз шаҳрида ташкил этилган “Бахшилар мактаби”нинг, Миллий Мақом марказлари ва мактабларининг ташкил этилиши, шунингдек, 1997 йилдан буён катта йўлни босиб ўтган “Шарқ тароналари” мусиқа фестивалининг ўзига хос шаклланиб бориши ёшлар мусиқа маданияти юксалтиришнинг объектив омиллари сифатида кўрсатиш мумкин. Мазкур мактаблар бахшичилик, миллий Мақом санъати анъаналарини ўрганиш ва уларни давом эттириш, истеъдодли ёшларни кашф қилиш ҳамда тарбиялашда муҳим аҳамият касб этмоқда.

“Шарқ тароналари” фестивали бугунги кунда ЮНЕСКО томонидан мусиқа оламининг йирик халқаро форуми сифатида эътироқ этилгани ва бу ибора дунё бўйлаб баралла янграётгани, ҳеч шубҳасиз, унинг нуфузи ва аҳамияти тобора ортиб бораётганлигидан далолат беради[2,443].

Ёшлар мусиқа маданияти мазкур соҳасида бўлаётган ўзгаришлар ва янгиланишларга жавоб бера олиши, унинг негатив таъсирини олдини олиши ҳамда ўзўзини бойитиб бориши лозим. Масалан, фольклор, миллий Мақом ҳамда бахшичилик санъати – халқ бойлиги бўлиб, ўз бойлигини асраб қола олган халқ эса бахтлидир. Шунга кўра, мусиқа маданиятининг пойдевори бўлган мазкур санъат дурдоналари асосида ижро этиладиган куй ва қўшиқлар ёшлар мусиқа маданиятини юксалтиришда субъектив омил сифатида фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Ўз-ўзидан кўриниб турибдики, ёшларнинг ахлоқий, маънавий ва руҳий тарбиясида жуда катта ўринга эга. Фольклор, миллий Мақом ҳамда бахшичилик санъати қайси мавзуга мансуб бўлишидан қатъий назар, уларда адолат, иймон, меҳр муҳаббат, инсонийлик, мурувват, яхшилик қилиш, самимийлик, ота-онани эъзозлаш, Ватанни севиш каби бир қанча хислатлар улуғланади, иллатлар қораланади. Шунинг учун ҳам фарзандларимизга болалигиданоқ мазкур санъатлар асосида тарбиялаш жуда муҳимдир.

Ҳар бир авлод маданиятни янгитдан яратмайди, балки мавжуд маънавий меросга таянади. Лекин, ҳар қандай ҳолатда ҳам маданиятни кўр-кўрона қабул қилмайди. Инсонпарварлик, меҳнатсеварлик, адолатпарварлик каби тушунчаларни ўз ичига оладиган ҳамда абадийликка даҳлдор ва ёшларимиз хотирасида ҳамиша барҳаётлиги билан ажралиб турадиган санъатни маданий мерос сифатида қабул қилинади. Ҳамроқул қори, Мамат бува Сатторов, Болтабой Ражабов, Мулла Тўйчи Тошмуҳаммедов, Жўрахон Султонов, Уста Олим Комилов, Юнус Ражабий, Маъмуржон Узоқов, Комилжон Отаниёзов, Ғанижон Тошматов, Расулқори Мамадалиев, Муроджон Аҳмедов сингари улуғ санъаткорлар яратган асарлари шулар жумласидандир. Уларнинг миллий мусиқа санъатидан баҳра олганлиги ва уни янги босқичга кўтарганлиги билан алоҳида ажралиб туради.

Фахриддин Умаров, Таваккал Қодиров, Берда Довидова, Фаттоҳон Мамадалиев, Шерали Жўраев, Ортиқ Отажонов, Муҳаммаджон Каримов, Ҳасан Ражабий, Муножот Йўлчиева қўшиқлари, Турғун Алиматов куйларининг катта иштиёқ билан тингланиши ёшлар мусиқа маданиятини юксалишига, ёшлар миллий тафаккурига, миллий руҳи ва бадиий-эстетик дидини шаклланишига туртки бўлади.

“Энг муҳими, бугунги кунда мусиқа санъати навқирон авлодимизнинг юксак маънавият руҳида камол топишида бошқа санъат турларига қараганда кўпроқ ва кучлироқ таъсир кўрсатмоқда”[5,141].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Абадийликка даҳлдор бўлган буюк санъат асарлари бутун бир тарихий даврнинг маънавий-эстетик савиясини ўзида яққол акс эттиради. Шу маънода ўлмас мусиқа асарларининг дунёга келиши тасодиф эмас, балки бадиий-эстетик тараққиётнинг қонуниятли маҳсулидир. Улуғ аждодларнинг ана шундай анъаналарини давом эттириш, мамлакатда миллий мусиқа санъатини кенг ривожлантириш ёш авлоднинг бурчидир.

Миллий мусиқа санъатида руҳнинг ўлмаслиги, узоқ аждодлар билан бугунги авлодлар маънавиятидаги ворислик, руҳий яқинлик кўзга яққол ташланади. Бугунги ёшларга аждодлар руҳи ва кечмишини сингдирмоқ, уларнинг қонида аждодлар шижоати ва жасоратини жўш урдирмоқ учун, шоира Саида Зуннунова таъбири билан айтганда, тарихдан сўзлаш эмас, балки битта "Чўли Ироқ"ни чалиб бериш кифоядир.

Мусиқа маданияти ва санъатида аждодларимизнинг минг йиллар оша оҳангларга тизилган мангу барҳаёт руҳлари нақшланган. Шунинг учун ҳам Ўрта аср мумтоз мусиқа меросини асраб-авайлаб ва уларни ўрганиб, ёш авлодга безавол етказиб бериш санъат аҳли ва муқашуносларнинг бурчидир.

"Барчамизга аёнки, куй-қўшиққа, санъатга муҳаббат, халқимизда болаликдан бошлаб, оила шароитида шаклланади. Уйида дутор, доира ёки бошқа чолғу асбоби бўлмаган, қўшиқнинг ҳаётбахш таъсирини ўз ҳаётида сезмасдан яшайдиган инсонни бизнинг юртимизда топиш қийин, десак, муболаға бўлмайди[5,141].

Ўтган даврлар мобайнида мамлакатимизда анъанавий ижрочиликда мусиқий фольклор янги босқичга кўтарилди. Мусиқий фольклорни халқимизнинг этник жойланиши шароитидан, барча воҳаларнинг урф-одатлари нуқтаи назардан келиб чиққан ҳолда табиий ижровий кўриниши, кийимлари ва ўзига хос мусиқа созларидаги мусиқий кўриниши сақланиб қолган. Янгилик сифатида халқ фольклор ижрочилигининг миллий эстрада йўналишига уйғунлашган ҳолда янги ижровий намуналари ҳам намоён бўлмоқда. Бу кўринишлар халқ мусиқий фольклор ижодиётини янгиланиш босқичига кўтарилганидан далолат беради. Республикамизда ушбу жанрда ижод қилаётган "Беш қарсак", "Бойсун", "Гулёр", "Омонёр", "Гулчеҳралар", "Достон", "Бесперде", "Орзу", "Ёр-ёр!", "Чавги", "Моҳи Ситора" сингари кўплаб ансамблар ўзларининг ёрқин ижодлари билан намуна бўлмоқдалар.

Яна бир халқона мусиқий йўналиш мумтоз анъанавий мусиқий ижрочилиги соҳасида ҳам эътиборли ишлар амалга оширилмоқда. Асрлар қаъридан аждодларимиздан бизга мерос бўлиб келган халқ анъанавий мусиқамиз ўзига хос тарзда давом этмоқда. Айниқса, кейинги йилларида халқ мумтоз қўшиқчилиги, халқ бахшичилик санъатини ривожлантириш борасида бир қатор ишлар амалга оширилди. Бу борада ўз даврида Президент фармони билан "Ўзбекистон Республикаси халқ хофизи", Ўзбекистон Республикаси халқ бахшиси" фахрий унвонларининг таъсис этилиши ушбу соҳага бўлган эътибордан далолатдир.

Халқ мусиқа ижодиётини илмий таҳлил қилиш, мусиқа илмини амалиёт билан боғлаш борасида ўзбек мусиқашунос олимларининг хизматлари беқиёс бўлмоқда. Натижада қатор ўқув-услубий қўлланмалар, монографиялар, илмий мақолалар чоп этилмоқда. Илмий изланиш натижасида янги-янги илмий-тадқиқот ишлари юзага келмоқда.

Улуғ аждодларимиз ўз мусиқа маданиятининг инсон шахсини камол топтириш, олижаноб инсоний фазилатларни тарбиялашдаги аҳамиятига юксак баҳо берганлар.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Жумладан, мусиқа санъатининг барча турлари кишиларга бадиий-эстетик завқ берибгина қолмай, илмий тушунчалар билан ифодалаш ғоят мушкул бўлган олам сирлари ҳақида билимлар берилиши, ҳаёт ҳақиқатини бадиий-эстетик воситалари орқали идрок этишга яқиндан ёрдам кўрсатишини ўзларининг асарларида баён этганлар.

Хулоса

Ўзбек мусиқа маданиятида халқимизнинг узоқ тарихи, орзу-армонлари, ҳаёт ҳақидаги билим ва тасаввурлари мужассамлашгандир. Ҳар бир ҳалқнинг маънавий салоҳияти, жаҳон маданияти ривожига қўшган ҳиссаси унинг мусиқий маданияти билан белгиланади.

Ватан тарихи воқеа ва ҳодисалар тарихидан иборат эмас, балки маънавий юксалиш тарихидир. Ҳозирги халқимиз тамонидан асраб авайлаб келинаётган ва абадийликка дахлдор мақом мусиқалари, халқ анъанавий қўшиқлари донишманд ва ижодкор аждодларимизнинг буюк кашфиёти, маънавий камолоти сари ташланган салмоқли қадамидир.

Янги Ўзбекистонда маънавий қадриятларимизнинг тикланиши, ўзбек мусиқа маданияти янги босқичга чиқиши, улуғ устозларнинг ижоди ва фаолиятини, уларнинг ўзига хос ва бетакрор ижрочилик маҳоратини ҳар томонлама чуқур ўрганиш ва тарғиб этиш ҳамда мусиқа маданиятининг объектив ва субъектив омиллари ўрганиш учун катта имкониятлар яратди. Бу эса, мусиқа маданияти тарихида ўчмас из қолдирган ҳар бир санъаткор ҳеч шубҳасиз, ўзи яшаган давр руҳини, мухлисларнинг эстетик диди, маънавий эҳтиёжлари ва салоҳиятини ўзида тўла мужассамлаштирган асарлари билан замондошларининг маънавий эҳтиёжларини қондиришга ҳаракат қилганлар. Шунга кўра, ёшлар мусиқа маданиятини юксалтиришда мусиқа санъати дурдоналари билан унинг (мусиқа маданиятининг Л.Т.) ривожига салмоқли ҳисса қўшган буюк санъаткорлар ҳаёти ва ижодини чуқур ўрганиш катта тарбиявий ва маърифий аҳамиятга эгадир.

Шахсни камол топтиришда мусиқа санъати ва маданиятининг ўрни ва аҳамиятини очиб бериш, биринчидан, инсон ва унинг моҳияти масаласини, Иккинчидан, маърифатли кўламини, учинчидан, маънавий камолотда мусиқа эга бўлган имкониятларни аниқлаш демакдир[6,69].

Энг муҳими, ёшлар мусиқа маданияти юксалтириш ҳақида фикр юритар эканмиз, аввало, навқирон авлоднинг юксак маънавият руҳида камол топиши, шунингдек, мусиқий маданиятини шакллантириш, дунёқарашини кенгайиб бориши каби мусиқанинг субъектив ва объектив омиллари бошқа санъат турларига қараганда кўпроқ ва кучлироқ таъсир кўрсатишини таъкидлаш ўринлидир.

Хулоса ўрнида шуни айтиш керакки, бугунги кунда ёшлар мусиқа маданияти юксалтириш, уларнинг бадиий ва эстетик дунёқарашини шакллантиришда қуйидаги: достончилик, шеърхонлик, қўшиқ, лапар, ўлан каби омиллардан кераклича фойдаланиш зарур. Мана шу омилларнинг бардавом бўлиши эса устоз-шогирд анъаналарига боғлиқ.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. –Т.: Ўзбекистон. 4-том. – Б. 344

2. Мирзиёев Ш.М. халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Т.: Ўзбекистон. НМИУ. 2018. 2-том. –Б. 443

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

3. Феруза Асқар. Мусиқа ва инсон маънавияти. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2000. –Б. 31
4. Ҳамидов Ҳ. Ўзбек анъанавий қўшиқчилик маданияти тарихи. –Т.: Ўқитувчи нашриёти. 1996. –Б. 150
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият. 2008. –Б. 141
6. Қамбаров А., Маннопов С., Нажметдинова М. Ўзбек санъати тарихи. –Фарғона нашриёти. 2021. –Б. 69

НУТҚ ФАОЛИЯТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА БОЛАЛАРГА КИЧИК ЁШИДАН БОШЛАБ ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАТИШ АҲАМИЯТИ

Шахноза Хикматуллаевна Акбарова
Ўзбекистон халқаро ислом академияси, Мумтоз шарқ филологияси факультети, Чет тиллари кафедраси ўқитувчиси,
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: *Мақолада кичик ёшдаги болаларнинг нутқ фаолиятининг шаклланиши, нутқ ўстириш жараёни ва болаларнинг мактабгача бўлган даврида эгаллаган энг муҳим жиҳатлари, ҳамда ушбу даврда чет тилларни ўрганиш аҳамияти ҳақида сўз боради.*

Калит сўзлар: *нутқ фаолияти, мактабгача таълим, болалар боғчаси, таьлим, алоқа.*

Аннотация: *В статье говорится о формировании речевой деятельности детей раннего возраста, процессе речевого развития и наиболее важных аспектах дошкольников, а также о важности изучения иностранных языков в этот период.*

Ключевые слова: *речевой деятельности, дошкольник, детский сад, обучения, общения.*

Annotation: *The article talks about the formation of the speech activity of young children, the process of speech development and the most important aspects that children acquire in the preschool period, as well as the importance of learning foreign languages in this period.*

Keywords: *speech activity, preschool, kindergarten, education, communication.*

Кириш

Нутқ фаолиятини шакллантиришда тил воситалари, шунингдек, ҳамсуҳбатнинг гапларини аниқ ва тўғри идрок этишга имкон берувчи кўникмалар орқали фикрларни тўлиқ, аниқ ва тиниқ ифодалаш малакаларини шакллантириш зарур. Нутқ фаолиятининг туғилиш жараёни олимлар томонидан ҳар доим ҳам бир хил талқин этилмайди. Унинг муҳим жиҳатлари А.А.Леонтьев томонидан қуйидаги кетма-кетликда ажратиб кўрсатилган: 1) мотивация - у нутқни ишга солиш механизми ҳисобланади; 2) нутқнинг мақсади; 3) нутқ мазмунини шакллантириш-бу босқичда сўзловчи нима ҳақда сўзлашини билади, аммо қандай ифода этишни ҳали билмайди; 4) фикрнинг сўзга айланиши [3].

Психолог олима И.А.Зимняя эса нутқ фаолиятини қуйидаги фазаларга ажратган:

1) уйғотиш-мотивацияли фаза бу бўлажак натижа сифатида фаолият эҳтиёжлари, мотивлари ва мақсадларининг мураккаб ўзаро ҳаракатидан иборат бўлади;

2) чамаланган-тадқиқот фазаси, бу фаолият ва режалашни амалга ошириш шартларини нутқ фаолиятини “Ким билан”, “Қаерда”, “Қачон”, “Қанчалик узоқ” амалга

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

оширилишини аниқлаш кўзда тутилган ички мазмунни ташкил қилинишини тадқиқ этишга йўналтирилган бўлади;

3) бажарувчилик фазаси-бу нутқ ҳаракатлари ва улардан кўпчилиги нутқнинг сенсомотор даражасининг уйғониши ва идрок этилишига мансуб операцияларининг яхлит мажмуаси ҳисобига амалга оширилади [2].

Тадқиқот Методологияси

Нутқ фаолиятининг уйғонишида энг муҳим, ишга солувчи, асос бўлувчи ва фурсати билан ўз аксини фикрда топадиган сабаб юзага чиқади ва ички нутқ ёрдамида ташқи нутққа ўтиш жараёни амалга оширилади. Бу коммуникатив фаолиятни амалга ошириш бўйича ишни режалаштириш ва ташкил этишда умуман муҳим фурсат ҳисобланади.

Таҳлиллар ва натижалар

Е.И.Тихееванинг педагогик қарашларида болалар нутқини ривожлантириш масалалари асосий ўринни эгаллаган бўлиб, у кичик ёшдаги болалар нутқини мактабгача тарбия шароитларида ривожлантиришнинг муайян тизимини яратган. У тадқиқотлари асосида нутқ ўстириш ақлий ривожланиш билан биргаликда амалга оширилади; болалар атрофдаги оламни билиш жараёнида она тилини эгаллайдилар; нутқ ижтимоий муҳитда, катталар ва тенгдошлари билан мулоқот жараёнида ривожланади; болалар нутқи фаолиятда, ижтимоий алоқалар кенгайиши шароитида ривожланади; нутқни ривожлантиришни бошқариш бола ҳаётининг барча даврларини ўз ичига олиши лозим; нутқ ўстириш болалар боғчасининг бутун педагогик жараёни билан муайян даражада боғлиқ, деган фикрларни билдиради. Ушбу фикрлардан келиб чиқиб, оғзаки нутқ болаларнинг мактаб таълимига тайёргарлигининг асоси ҳисобланади, шу боис бола ҳаётининг дастлабки йиллари оғзаки нутқни амалий ўзлаштиришга қаратилиши даркор, деган хулосага келади [4].

Демак, бола мактабга боргунига қадар болалар нутқини ўстириш қуйидаги жараёнларни ўз ичига олади:

1) нутқнинг равонлигини шакллантириш;

2) нутқни тинглашни ривожлантириш;

3) нутқ мазмуни, шакли ва тузилиши устида ишлаш.

Нутқнинг равонлиги бу фикрнинг равонлиги демакдир. Бола кўриб, эшитиб қабул қилганини тўғри идрок этиб, фикр юритишга ҳаракат қилади ва бу унинг гап-сўзлар шаклида ифодалай олишида акс этади.

Болалар гапиришдан кўра икки баробар тезроқ тушунадилар. 3 ёшидан бола мияси худди катталардек икки баробар фаолроқ ишлайди. Кухл таъкидича, чақалоқ ва ёш болалар иккинчи тилни ўрганиш бўйича истеъдод соҳибидирлар. Унингча, чақалоқлар ҳамма тилда товушларни ажрата оладилар, катталар эса фақат она тилидаги товушларни ажрата оладилар [9].

Н.С. Сайидраҳимова ўз тадқиқотида Р.Якобсоннинг қуйидаги фикрига қўшилган ҳолда шундай ёзади: “Болалар нутқида дастлабки фонологик янгиликлар болалар нутқида талаффуз этилган товушларга аниқлик кирита олиш имконияти туғилган 10-12 ойлардан бошланади. Р.Якобсон назариясига кўра, “боланинг фонологик ривожланиши дастлабки

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

нутқий паталогиянинг акс таъсири сифатида намоён бўлади” сўнгра шундай хулосалайди: катталарнинг тилга бўлган талабларидан йироқ бўлган боланинг сенсомотор ривожланиш босқичларида болалар нутқи ўзининг алоҳида фонетикасига эга бўлади. Ушбу бошланғич фонетика бола томонидан аста-секин уларни ўраб турган катталар тилининг моделига мос келадиган асосий фонологик системанинг қурилиши учун асос бўлади [8].

Эрта болалик даврида болада мулоқотга эҳтиёж пайдо бўлади ва у буни энг содда нутқ воситалари орқали қондиради. Аввало, нутқ ижтимоий ҳодиса, мулоқот воситаси сифатида юзага келади, кейинроқ теварак- оламни билиш, ўз хатти-ҳаракатларини режалаштириш воситаси сифатида ҳам намоён бўла бошлайди. Бола физиологик ривожланар экан, борган сари мураккаброқ тил бирликларидан фойдаланади: луғат бойлигини кенгайтиради, ибораларни ўзлаштиради, сўз ясалиши, сўз ўзгаришлари ва сўз бирикмаси ҳамда синтактик конструкцияларни амалий қўллаш малакаларига эга бўлиб боради [5].

Кўринадики, болаларнинг психик ривожланиши уларнинг нутқи орқали намоён бўлади, шу боис лингводидактик жиҳатларга алоҳида эътибор қаратиш керак бўлади. Мактабгача ёшдаги болаларда тақлидчанлик хусусияти айниқса унинг нутқи ривожланишига катта ижобий таъсир кўрсатади.

Она тилидаги нутқни эгаллаш ва ўстириш боланинг мактабгача бўлган даврда эгаллаган энг муҳим жиҳат ҳисобланиб, болаларни тарбиялаш ва уларга таълим беришда асос сифатида кўрилади. Бу даврда мактабгача ёшдаги болалар нутқида луғат бойлигининг сезиларли ўсиши кузатилади. Бир қатор психолог, лингвист олимлар болаларнинг икки ёшдан то беш-олти ёшгача бўлган даврда гапиришни деярли қийналмай ўрганиб олишларини таъкидлаб ўтишган [89].

Уч ёшдан етти ёшгача болалар гапларнинг тузилишини ўзлаштирадилар. Тўрт ёшли болаларда мураккаб гапларнинг биринчи тузилмалари қайд этилади. Мактабгача даврда боланинг луғат бойлиги сифат таркиби жиҳатдан қуйидаги тарзда ривожланади:

1) бир ёшга тўлган болаларнинг барчасини ҳам тили чиққан деб бўлмайди, бундай болалар ҳали гўдак ҳисобланиб, улар овқатланиш эҳтиёжи билан билан боғлиқ сўзларни чала тарзда талаффуз қилиш кузатилади;

2) икки ёшли болалар луғати ўз яқинлари, ўйинчоқларининг номлари билан бойиб бориши кузатилади, лекин уларнинг талаффуз қилиш даражаси ҳали тўлиқ бўлмайди;

3) уч ёшли болаларнинг айримларининг нутқи равонлашади улар атрофларидаги ўзларига таниш нарсаларни барчасини, саноқ, ранг номларини луғатларида қўллайдилар;

4) тўрт ёшга қадам қўйганида болалар луғати маиший ҳаётда дуч келадиган ҳаракатлар ва буюмлар номлари, 10-20гача санаш, рангларни, ҳажм-шаклни фарқлаш, озиқ-овқат маҳсулотлари, сабзавот, мевалар билан тўлдирилади;

5) беш ёшга қадам қўйганида кундалик турмушда ишлатиладиган буюмлар, уй жиҳозлари билан табиий ҳодисалар номлари, уй ҳайвонларининг номлари, турли материаллардан фаол фойдаланиш кузатилади;

6) олти ёшда бола нутқида сифат ва хусусиятлар (нордон, оч ҳаворанг, мустаҳкам, қаттиқ) ифодаланади. Материаллар, уй ва ёввойи ҳайвонлар ҳамда уларнинг болалари ҳақидаги билимлар кенгайтирилади.

7) етти ёшда сўз бирикмаларига антоним ва синонимлар топиш рўй беради, сўзларнинг кўп маънолилиги муайян даражада ўзлаштирилади, ясама сўзлар мураккаб

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

тузилишли сўзларни мустақил ташкил этиш, ўхшаш ва яқин сўзларни танлаш жараёни боради [6].

Ушбу даврларни К.И.Чуковский қуйидагича таърифлаган: кичикроқ ёшдаги (уч-тўрт яшар) болаларга тилни "кучли ҳис этиш" хусусияти хос. Уч ёшдан тўрт ёшгача болада лингвистик қобилият, айниқса, юқори намоён бўлади. Айрим тадқиқотларда таъкидланишича, саккиз ёшга етганда боладаги бундай "тилни ўткир ҳис этиш" заифлашади. Тўққиз ёшдан кейин миядаги тил механизмларининг эгилувчанлиги камаяди ва янги шароитларга осон мослаша олмайди. Бола мияси тил ўрганишга мос қобилиятга эга, бироқ ёш катталашган сари бу қобилият камайиб боради[7].

Хулосалар

Айнан шу ҳолат хорижий тилларни кичик ёшидан бошлаб ўзлаштирадиган болаларнинг барчасига ҳам бирдай тааллуқли, дейиш мумкин. Бироқ чет тил бола учун она тилидан кейинги иккинчи тил бўлгани учун бола ўзининг она тили заҳирасида бор бўлган сўзлардан фаол фойдаланишга, ўзи билган сўзларнинг иккинчи тилдаги номларини аниқлашга ҳаракат қилади, демак, унинг луғатининг бойиши жадал кечади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Avilova KH, Gulyamova M, Akbarova SH. Creating Authentic Reading Materials for EFL Learners In Uzbekistan //PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(1): 2730-2742. p:2731.
2. Зимняя И.А. Лингвопсихология речевой деятельности. – М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: МОДЭК, 2001.
3. Леоньтев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. Издательство: – Красанд, 2010. – 216 с.
4. Литвинова Л.Н. История дошкольной педагогики. – М.: Просвещение, 1989.
5. Машарипова У.А. Инновацион таълим шароитида бошланғич синф ўқувчиларининг нутқ маданиятини шакллантириш методикаси: Дисс... пед.фан. бўйича фалсафа док. – Т.: 2018. – Б.22.
6. Палкина А. В. Речевое развитие дошкольников в психолго-педагогических и лингвистических исследованиях // Мир науки, культуры, образования. – Москва, 2010. - № 3 (22). – С. 246.
7. Протасова Е. Ю. Ролина Н. М. Методика обучения дошкольников иностранному языку: учебное пособие. – М:, 2010. –С.40.
8. Сайидраҳимова Н.С. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари: Дисс. ...фил. фанл. ном. – Ф.: 2004. - Б.29.
9. kizi Eshboeva, D. A., Akbarova, S. K., ugli Hafizov, A. A., & ugli Asrorov, I. F. (2022). PSYCHOLINGUISTIC FEATURES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO PRESCHOOL CHILDREN. *Journal of Positive School Psychology*, *6*(2), 4509-4518.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ПЕРСПЕКТИВЫ ПЛАНИРОВАНИЯ ПОДГОТОВКИ К СОРЕВНОВАНИЯМ С УЧЕТОМ ВЕСОВОЙ КАТЕГОРИИ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ БОРЦОВ НА ПОЯСАХ

Тойчиев Тохиржон Саходиллаевич
Преподаватель факультета физической культуры НамГУ, Узбекистан, Наманган
tohirjonto'ychiyev1984@mail.ru

Аннатация: *В этой статье представлена информация о процедурах планирования предсоревновательной подготовки с учетом весовой категории высококвалифицированных борьбе на поясах. Кроме того, особое внимание было уделено методологии планирования с учетом весовой категории соревновательной подготовки высококвалифицированных борцов на поясах.*

Ключевые слова: *высококвалифицированный, борьбе на поясах, весовая категория, мог бы соревноваться, подготовка, планирование, опрос, респондент, микроцикл, мезоцикл, макроцикл, тренировка, система.*

PROSPECTS OF PLANNING PREPARATION FOR COMPETITIONS TAKING INTO ACCOUNT THE WEIGHT CATEGORY OF HIGHLY QUALIFIED WRESTLERS ON BELTS

Toychiev Tokhirjon Sakhodillaevich
Teacher of the Faculty of physical culture of NamSU, Uzbekistan, Namangan
tohirjonto'ychiyev1984@mail.ru

Annatation: *This article provides information about the procedures for planning pre-competitive training, taking into account the weight category of highly qualified wrestlers on belts. In addition, special attention was paid to the planning methodology, taking into account the weight category of competitive training of highly qualified belt wrestlers.*

Keywords: *highly qualified, belt wrestling, weight category, competition, preparation, planning, circulation, survey, respondent, microcycle, mesocycle, macrocycle, training, system.*

ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ БЕЛБОҒЛИ КУРАШЧИЛАРНИНГ ВАЗН ТОИФАСИНИ ИНОБАТГА ОЛГАН ҲОЛДА МУСОБАҚАОЛДИ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Тўйчиев Тохиржон Саходиллаевич
НамДу Жисмоний маданият факултети ўқитувчиси, Ўзбекистон, Наманган
tohirjonto'ychiyev1984@mail.ru

Аннатация: *Ушбу мақолада юқори малакали белбоғли курашчиларнинг вазн тоифасини инобатга олган ҳолда мусобақаолди тайёргарлигини режалаштириш муоммолари ҳақида маълумотлар келтирилган бўлиб. Бундан ташқари юқори малакали белбоғли курашчиларни мусобақаолди тайёргарлигини вазн тоифасини инобатга олган ҳолда режалаштириш методикасига алоҳида тўхталиб ўтилган.*

Калит сўзлар: *Юқори малакали, белбоғли кураш, вазн тоифаси, мусобақаолди, тайёргарлик, режалаштириш, муоммолар, сўровнома, респондент, микроцикл, мезоцикл, макроцикл, машғулот, тизим.*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Соревнование с учетом весовой категории высококвалифицированных борцов на поясах позволило создать методологию совершенствования системы планирования и содержания тренировок и разработать рекомендации по ее внедрению на практике.

При составлении опроса по теме Т. Усманхаджаев, Р. Саламов, Ф. Керимов, Ш. Хонкельдиев, А. Абдуллаев, Р. Халмухамедов, В. Шин Г. Абдурасулова С., Таджибаев Ш., Мирзакулав, Н. Азизов, A.In учебники, пособия, статьи и тезисы из научных исследований Хамиджонова и других, этот вопросник был разработан для устранения проблем в сообществе, изучения теоретической информации высококвалифицированных борцов на поясах, обоснования системы планирования подготовки соревнования с учетом весовой категории.

На основе анализа вышеуказанной научной литературы был проведен опрос с целью изучения теоретической и практической ситуации планирования подготовки к соревнованиям с учетом весовой категории высококвалифицированных борцов на поясах и выявления проблем в планировании. Опрос был проведен среди всех 48 тренеров, работающих в сфере тренерской работы по борьбе на поясах в Наманганской области, и ответы были указаны в процентах.

Анализ проведенного опроса показал, что (см. таблицу 3.1) продолжительность вашей тренерской карьеры (77%), очень нравится, в целом нравится (15%), трудно сказать (8%), респонденты, как вы оцениваете процесс сортировки детей в спорт и направлять их на занятия спортом в спортивную школу, где вы проводите занятия? в нашем вопросе о содержании респонденты выразили мнение, что (15%) являются отличными, (19%) на хорошем уровне, (27%) на плохом уровне, (39%) на неудовлетворительном уровне. Сравнивая результат опроса с научно-методической литературой, мы можем видеть, насколько тема актуальна.

Анализ опроса показал что продолжительность вашей тренерской карьеры (35%), 15-20 лет деятельности (22%), а тренеры работали 10-14 лет (20%), работали 6-9 лет (23%), а тренеры работали на 1-5 лет.

Согласно второму пункту анкеты, 1 разряд (9%) тренеров, кандидатов в мастера спорта, тренеров КМС (32%), МС (14%) мастера спорта были определены для работы в качестве тренеров. Также мастером спорта международной категории стал ММС (14%).

По вашему образованию было установлено, что специалистами работают тренеры с высшим образованием (29%), имеющие диплом о среднем специальном образовании (22%), незаконченное высшее (32%), магистр с высшим образованием (17%).

В Наманганской области далее последовали ответы на анкету о возрастных ограничениях тренеров, занимающихся борьбой на поясах. Было обнаружено, что в возрасте до 18-25 лет (31%), тренеры в возрасте до 26-35 лет (22%), тренеры в возрасте до 36-45 лет (22%) и тренеры в возрасте 46 лет и старше (18%).На начальном подготовительном этапе количество сеансов с большой нагрузкой за один день было в два раза больше (31%) за один день, если были респонденты, которые выбирали количество раз (49%) на вопрос о содержании. Говоря три раза в день (8%), хаттоки говорил четыре раза в день (8%). Как видно из приведенных выше данных, было обнаружено, что 69% тренеров не имеют достаточного понимания планирования в содержании этого вопроса.

На начальном подготовительном этапе ответы наших респондентов на вопрос о содержании количества занятий с большой нагрузкой за один день были организованы

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

следующим образом. На однодневных сессиях, как и должно быть один раз (21%), если бы наши респонденты выбрали. Этот вопрос был определен респондентами (56%) как два раза. В то время как 17% респондентов (6%) выбрали, что они должны быть три раза, они были четыре раза (6%).



Рисунок 1.1. Количество занятий с большой нагрузкой за один день на начальном подготовительном этапе

Ежедневную продолжительность спортивных тренировок (распределение по часам) 4% респондентов определили как один час, 65% выбрали как два часа, так как должно быть три часа (21%). Мы можем наблюдать, что респондентам было предписано три с половиной часа (10%).

Спортсмены могли бы соревноваться в циклах подготовки, какие циклы вы используете в содержании вопроса, если (15%) респондентов выбрали микроциклы, (13%) составили мезоциклы, (17%) было отмечено, что макроцикл выбрали для планирования тренировок, и было отмечено, что 55% респондентов выбрали респонденты (55%) не имели представления о планировании.

На что вы обращаете внимание при предоставлении нагрузок соревновательной подготовки борцов с поясами разных весовых категорий на вопрос о содержании респондентов (36%) дается одинаковая нагрузка на борцов всех весов, (28%) таблица учебного заведения составлена на основе, (19) загрузки даны с учетом спортивных достижений, (17%).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Рисунок 1.2. На что вы обращаете внимание, когда даете нагрузку борцам за пояса, которые могли бы соревноваться

Спортсмены с поясами разных весовых категорий вернут вес на предсоревновательной тренировке какой тип тренировки вы используете на вопрос о содержании респондентов (26%) из общей физической подготовки с использованием ОФП, специальной физической подготовки, состоящей из СФП и технико-тактической подготовки (29%), использующей респонденты выбрали спортивную диету и сауну (11%), в то время как независимый контроль (34%).

По собственному опыту было замечено, какой вес вернут высококвалифицированные борцы на поясах перед соревнованиями (14%), если респонденты установили 1-3 кг, (19%) респонденты установили ответ 4-5 кг. (28%), было установлено, что до 6-7 кг респондентов (39%), до 8-10 кг вернули спортсмены вес.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



Рисунок 1.3. Какой вес вернут квалифицированные борцы на поясах перед соревнованиями

На сколько кг веса бойцы с поясом в какой весовой категории вернутся к этому вопросу, у бойцов в 55-60 кг респондентов (37%) наблюдалось возвращение до 8-10 кг, у бойцов в 66-73 кг - до 6-7 кг, респондентов (21%), респондентов (12%), борцы в весовой категории 100-100+ - до 1-3 кг.

Использованные литературы

1. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва услулияти. ЎзДЖТИ нашриёт-матбаа бўлими. 2018.-С. 198-190.
2. Керимов Ф.А. Якка кураш элементларига эга бўлган харакатли ўйинлар. Илмий техника ахборроти-пресс, 2020.-79 б.
3. Керимов Ф. А. Спорт сохасидаги илмий тадқиқотлар. Тошкент, 2021, 334 б.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

БАЛАНДЛИККА САКРОВЧИЛАР ТЕХНИКАСИНИ БИОМЕХАНИК ТАҲЛИЛИ

Тухтабоев Низом Турсуналиевич
Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети ҳузуридаги Жисмоний тарбия ва спорт илмий тадқиқот институти директор ўринбосари, профессор. Чирчиқ шаҳри, Ўзбекистон
tnizom@mail.ru

Аннотация: *Ушбу мақолада баландликка сакровчиларни техникасини ривожлантиришда югуриб келиш, депсиниш, учиш ва қўниш фазалари чуқур ўрганилиб, уларни техникасини биомеханик таҳлил қилиш асосида спорт натижаларини яхшилашга қаратилган.*

Калит сўзлар: *Баландликка сакровчилар, спорт натижалари, интеграл тайёргарлик, вертикал тезлик, бошлангич учиш тезлиги.*

БИОМЕХАНИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕХНИКИ ПРЫГУНОВ В ВЫСОТУ

Тухтабоев Низом Турсуналиевич
Узбекского государственного университета физической культуры и спорта научно-исследовательского института физической культуры и спорта, Заместитель директора, профессор. Город Чирчик, Узбекистан
tnizom@mail.ru

Аннотация: *В данной статье глубоко изучены фазы бега, приземления, отталкивания и приземления в развитии техники прыгунов в высоту, и на основе биомеханического анализа их техники направлено на улучшение спортивных результатов.*

Ключевые слова: *Прыгуны в высоту, спортивные результаты, интегральная подготовка, вертикальная скорость, начальная скорость полета.*

BIOMECHANICAL ANALYSIS OF THE TECHNIQUE OF HIGH JUMPERS

Tukhtaboyev Nizom Tursunaliyevich
Deputy Director, Professor of the Research Institute of Physical Culture and Sports of the Uzbek State University of Physical Culture and Sports. Chirchik city, Uzbekistan
tnizom@mail.ru

Annotation: *In this article, the phases of running, landing, repulsion and landing in the development of the technique of high jumpers are deeply studied, and based on the biomechanical analysis of their technique, it is aimed at improving sports results.*

Key words: *High jumpers, sports results, integral training, vertical speed, initial flight speed.*

Долзарблиги

Енгил атлетика спорт турини ривожлантириш, келгусида юқори спорт натижаларига эришиш, машғулот юкламаларини спортчиларнинг тайёргарлик даражасига мос равишда режалаштириш, йиллик юкламалар ҳажмининг бажарилиш шиддати, қўлланиладиган восита-усулларини бажарилиши бўйича машғулотларни олиб бориш, баландликка сакровчиларни машғулот юкламаларини режалаштиришда спортчиларни индивидуал хусусиятларини инобатга олган ҳолда режага киритиш, юқори малакали спортчиларни

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

тайёрлашда уларнинг интеграл тайёргарлик имкониятларини шакллантириш бўйича соҳа мутахассислари томонидан етарлича ўрганиб чиқилган [5]. Машғулотларни режалаштириш билан бир қаторда уларни техникасини ривожалантиришда баландликка саровчиларда биомеханик томондан ўрганиш спортчининг юқори натижа кўрсатишда муҳим аҳамият касб этади [4]. Кўпгина ҳолларда биомеханика назарий механика ва материалларнинг мустаҳкамлиги муаммоларини кўриб чиқишда обьект сифатида инсон ҳаракатлари жуда муҳимдир [7]. Баландликка сакровчиларни биомеханик таҳлили бўйича кўплаб олимлар иш олиб боришига қарамасдан ҳозирда ҳам ушбу муаммо долзарблигича қолмоқда.

Тадқиқотнинг мақсади

Баландликка сакровчиларни техникасини ривожлантиришда биомеханик таҳлил қилишдан иборат.

Тадқиқот натижалари ва унинг муҳокамаси

Учиш фазаси оёқ ердан узилгандан бошлаб то тана ерга теккунгача бўлган даврни ўз ичига олади. Депсинишдан сўнг оёқ ердан узилиб, унинг у.о.м. сакраш турлари ва усулларига қараб ҳаракат траектория турлича йўналади. Бу траектория учиб чиқиш бурчагига, бошланғич учиш тезлигига ва ҳавонинг қаршилигига боғлиқдир. Сакрашнинг учиш фазасида ҳавонинг қаршилиги унча катта бўлмайди, бироқ мусобақлашиш жараёнида уни эътиборга олиш зарур [2].

Учиб чиқиш бурчагининг якуний тезлиги (сакровчи югуриб келаётганда ҳосил бўлган горизонтал тезлик билан депсиниш натижасида ҳосил бўлган вертикал тезликнинг якуний тезлиги) йўналиши билан горизонт ўртасида ҳосил бўлади. Югуриш бошланиши билан баландликка сакрашни кўриб чиқамиз. Оғирлиги 70 кг бўлган спортчи югуриш стартидан планкадан сакраб ўтишини қуйидаги 1-расм расмда кўришимиз мумкин.

Белгиланган баландлик h = 245 см (жаҳон рекорди), Учиш тезлиги V = 6 м/с. Бир жойдан баландликка сакраш спортчининг оғирлик марказини a=0,6 м га кўтаради деб фараз қилсак, югуриш кинетик энергиясининг қайси қисми сакраш энергиясига айланишини аниқлаймиз.

Агар спортчи оғирлик марказининг бошланғич баландлиги h=1 м бўлган ҳолда 245 см баландликни забт этса, бу сакрашда спортчининг масса маркази 145 см баландликка кўтарилади дегани эмас. Аслида бу баландлик камроқ. Эътибор беринг, тизимнинг оғирлик маркази геометрик нуқта деб аталади, унинг координаталари маълум формулалар билан ҳисобланади. Спортчининг оғирлик маркази унинг ичида жойлашган бўлиб, ҳеч қандай ҳолатда ва одамнинг бирон бир йўналишида эмас, балки шаклда кўрсатилган ҳолатда бўлади. 1-расмда оғирлик маркази планкадан тахминан 0,1 м пастда ва қолган 0,7 м югуриш энергияси билан енгиб ўтиш керак.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



1-rasm. Balandlikka sakrash sxemasi

Биз тўғридан-тўғри сакраш моментини кўриб чиқамиз. Юқорида айтиб ўтилганидек, баландликка сакровчи (2-расм) h = 2,4 м баландликда планкани енгиб ўтиши керак. Сакраш пайтида унинг оғирлик марказининг баландлиги h = 1 м. b = 0,8 м чизиқдан ўтадиган вертикал текисликка сакраш амалга оширилган нуқтадан масофани олайлик.



2-расм. Сакраш моментини ҳисоблаш схемаси

Депсиниш вақтидаги ишқаланиш коэффициенти f = 0,9, depsinish депсиниш тоғрилигини ҳисоблаш давомийлиги ⊚t = 0,4 s, УОМ ердан максимал баландлиги 2,3 m.

Таянчдан депсиниш вақтида F импулс сакровчига таъсир қилади. Импулснинг координата ўқларидаги проекцияларини топиш мумкин. Импулснинг вертикал компоненти бошланғич позициядан оғирлик кўтарилиш марказининг баландлиги билан белгиланади.

Ҳисоблаш натижалари график шаклида кўришимиз мумкин.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



3-расм. Траектория диаграммаси

Баландликка сакровчига таъсир қилувчи кучларни кўриб чиқамиз.

Таянч реакцияси N мушаклардаги кучлар орқали аниқланиши керак. Уни аниқлаш учун оёқнинг мувозанатини кўриб чиқинг (4-расм). 4-расмдаги Q белгиси оёқ бўғимнинг реакция жавобини билдиради. О марказга нисбатан моментлар тенгламаси кўринишга эга бўлади.

Югуриб келиб сакрашнинг ҳамма турларида оёқ депсиниш жойига тез ва шиддат билан қўйилади. Оёқнинг ерга қўйиш пайтида эса оёқ деярли тўғри бўлиши керак. Шунда тос-сон, тизза ва тўпиқ бўғимларининг таянч фазасида юзага келадиган катта куч келиши натижасида жароҳат олиш эҳтимоли камаяди, оёқ букилгандаги амортизацияси тарангроқ ва оёқ ёзилганда унинг фойдаси кўпроқ бўлади. Оёқ депсиниш жойига қўйилаётган пайтда таянч нуқтаси ҳамма вақт сакровчи танаси у.о.м.нинг эрдаги проекциясидан сал олдинда бўлади. Бу масофа баландликка сакраётганда энг кўп, қолган сакраш турларида эса анча кам бўлади



4-rasm. Oyoqning rasmi

Сакровчи У.О.М. учишнинг биринчи ярмида текис секинлашиб кўтарилади, иккинчи ярмида эса текис тезланиб туша бошлайди. Сакровчи у.о.м.нинг кўтарила бошлаш нуқтаси унинг ерга тушиш нуқтасидан баландда бўлгани учун у.о.м.нинг пастга тушиш масофаси унинг юқорига кўтарилиш баландлигидан кўпроқ бўлади. Шунинг учун траекториянинг пасайиш қисми тикроқ бўлади. Таянчсиз фазада сакровчи у.о.м.нинг парабола шаклидаги траекторияси баландликка сакрашда, узунликка сакрашда, жойдан ва югуриб келиб

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

сакрашда хар хил бўлади. Бундай фарқнинг сабаби асосан учиб чиқиш бурчаги ҳам, учишнинг бошланғич тезлиги ҳам турли эканидадир.

Хулоса ўрнида, траекториянинг баландлиги депсиниш тугаш пайтида сакровчининг У.О.М.дан хаёлан ўтказилган горизонтал чизиқдан траекториянинг энг баланд нуқтасигача бўлган перпендикуляр масофа билан ўлчанади. У депсингандаги вертикал тезликка боғлиқ.

Учиш фазасида сакровчининг ҳеч қандай ички кучи у.о.м. траекториясини ўзгартира олмайди. Сакровчи ҳавода қандай ҳаракатлар қилмасин, У.О.М. ҳаракат қилаётган параболик эгри чизиқни ўзгартира олмайди. Сакровчи учишдаги ҳаракатлари билан фақат тана ва унинг айрим қисмларини U.O.M.ga нисбатан қаерда бўлишини ўзгартириши мумкин.

Бундан ташқари, баландликка ишқаланиш кучи таъсир қилади, бу ҳолда бу ҳисобга олинмайди. Бинобарин, югуриш бошланишидан баландликка сакрашни биомеханик ўрганиш вазифаси ҳаракат қилувчи кучлар схемасига кўра ҳаракатнинг кинематик хусусиятларини аниқлашга қисқартирилади.

Фойдаланилган Адабиётлар

1. Акбаров А. Sport biomexanikasidan praktikum. Ch.,2020. Б.36-38
2. Olimov M.S., To'xtaboyev N.T., Soliyev I.R., Ortiqov X.T. O'rta va uzoq masofaga yugurish uslubiyati. T.: 2016. – 154 b.
3. Olimov M.S., Shakirjanova K.T., Rafiyev H.T., To‘xtaboyev N.T., Smurigina L.V. Yengil atletika nazariyasi va uslubiyati / darslik. T.: 2018. - 872 b.
4. Olimov M.S., Shakirjanova K.T., Rafiyev H.T., Smuriygina L.V., To‘xtaboyev N.T. Yakkakurash, koordinatsion va siklik sport turlari “Yengil atletika”. / darslik. T.: 2018. - 376 b.
5. Тарасов В.К. Биомеханика. – ТулГУ, 2009. – 170 с.
6. Рузамухамедов К.Ф. Юқори малакали баландликка сакровчи қизларнинг ҳаракат қобилиятлари // Фан спортга. Илмий назарий журнал. Чирчиқ, 2021. № 8. Б. 9-12 [13.00.00, №16] .
7. Рузамухамедов К.Ф. Ўзбекистоннинг етакчи баландликка сакровчиларининг мусобақалашув жараёнидаги кинематик кўрсаткичлари // «Замонавий таълим-тарбия жараёнини ташкил этишнинг устувор йўналишлари, ижтимоий ва педогогик-психологик асослари» республика илмий амалий конференция 2022 йил 16 апрель Б. 412-417.
8. Xo’jamkeldiyev G’.S. Yengil atletikani o'rgatish metodikasi. O'quv qo'llanma. Chirchiq.: O’zDJTSU nashryoti, 2021.-188 b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

MILLIY TARBIYALANGANLIK MEZONLARINI BAHOLASH

NamDU tadqiqotchisi, Baxtiyor Xolmirzayev

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ishlab chiqilgan milliy tarbiyalanganlik mezonlarini baholash maqsadida, baholash mezonlarini ishlab chiqildi. Baholash mezonlari orqaliy o'quvchilarni milliy g'ururini mustahkamligi, irodasini baqquvvatligi, mustaqil fikrni rivojlanganligi, tafakkurda o'zlikni unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash, hurmat qilish kabi fazilatlarni qay darajada qaror topganligini aniqlash mumkin.*

Kalit so'zlar: *milliy g'urur, mezon, mutaffakir, intellektual, sivilizatsiyasi, saodat, tarbiya, axloq, ma'naviy, hukamo, xulq, vatanparvarlik, vijdon, ong.*

ОЦЕНКА КРИТЕРИЕВ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ

Соискатель НамГУ Бахтиер Холмирзаев

Аннотация: *В данной статье были разработаны параметры оценивания критериев оценки национального воспитания, разработанных для внеклассных занятий. Посредством данных критериев оценки можно определить, в какой степени у учеников сформированы такие качества, как чувство национальной гордости, сила воли, развитость самостоятельного мышления, самосознание, стремление сохранять и уважать священные ценности предков.*

Ключевые слова*: национальная гордость, критерии, мыслитель, интеллектуал, цивилизация, счастье, воспитание, нравственность, духовность, государство, поведение, патриотизм, совесть, сознание.*

EVALUATION OF NATIONAL EDUCATION CRITERIA

Researcher of NamSU, Bakhtiyor Kholmirzayev

Abstract: *In this article, evaluation criteria were developed in order to evaluate the national educational criteria developed in extracurricular activities. Through the assessment criteria, it is possible to determine to what extend the students have determined such qualities as strength of national pride, strength of will, development of independent thought, not forgetting the identity in thinking, presenting and respecting the sacred values of ancestors.*

Key words: *national pride, criterion, thinker, intellectual, civilization, happiness, education, morality, spiritual, government, behavior, patriotism, conscience, consciousness.*

Kirish

Yurtimizda olib borilayotgan yuksak islohatlarning mazmuni yosh avlodni ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bugungi kunda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish ijtimoiy xarakterga ega. Binobarin, o'quvchilarda milliy tarbiya orqaliy milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish ularni Vatan ravnaqi, yurt obodligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilishga undaydi. Bu esa sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirish, uning qamrovini keng olib borish hamda samaradorligini oshirish vazifasini qo'yadi.

ISSN: 2181-0427

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni va “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda ushbu ilmiy ishimiz ham muayyan darajada xizmat qiladi [1; 2; 3].

Asosiy qism. Milliy g‘urur haqida tushuncha:

“Milliy g‘urur (iftixor), – shaxs yoki ijtimoiy guruhning milliy o‘z-o‘zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy-ma’naviy meros, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro‘-e’tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha”[4].

Milliy g‘urur - bu milliy iftixordir. Milliy iftixor millat o‘zini yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir. Milliy g‘urur va milliy iftixor bir kuchli ruhiy holatki, u tufayli tarixiy birlik, qon-qarindoshlik, til, madaniyat, ma’naviyat, iqtisodiy hayot va kelajak birligi millat vakillarining qalbidan chuqur o‘rin oladi[5].

- ✓ Millatning yutuqlari, obro‘-e’tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq bo‘lmaslik;
- ✓ Xalqi, millatining taqdiri uchun jonkuyar bo‘lish;
- ✓ O‘z millatining moddiy-ma’naviy merosini asrab-avaylash;
- ✓ Xalq odatlari, an’analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish to‘g‘risida qayg‘urish;
- ✓ Xalqi, millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish.

Milliy tarbiya haqida tushuncha:

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig‘indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi[6].

Hukamolardan biri: – “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdur[7]”. Yetuk hikmat egasi Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur[8]” deya takidlab o’tganlar.

Yosh avlodning milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishda milliy tarbiya ijtimoiy xarakterga ega. Binobarin, yoshlarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish ularni Vatan ravnaqi, yurt obodligi va xalq farovonligi yo‘lida fidokorona mehnat qilishga undaydi.

Milliy tarbiya – yoshlarning milliy g‘ururini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan barkamol insonlar etib tarbiyalashda eng muhim vosita bo’lib xizmat qiladi.

Milliy tarbiya – yoshlarning tafakkurida o‘zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish, “Men o‘zbek farzandiman” deb g‘urur va iftixor bilan yashashiga undovchi ulkan kuchdir.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Milliy tarbiya o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g‘urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odob, fidoyilik fazilatlari shakllantiriladi. Bu fazilatlarni qanchalik darajada shakllanganligini bilish maqsadida, quyidagi mezonlarni ishlab chiqildi.

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING MILLIY TARBIYALANGANLIK MEZONLARINI BAHOLASH	
Vatanni anglash	
Yuqori daraja	Har bir kishi vatani bo’lishini va o’zining Vatani – O’zbekiston ekanini yaxshi biladi; tug’ilib o’sgan Vatani O’zbekiston haqida ifodali misollar bilan fikr yurita oladi. Har bir o’quvchi O’zbekiston, o’lka, tarix, hozirgi hayot, mustaqillik, islohotlar yutuqlari haqida yoshiga mos tushunchalarga ega; Vatanni tashqi dushmanlardan himoya qilgan qahramonlar jasorati haqida faol hikoya qilib bera oladi; ularga o’xshashga harakat qiladi; O’zbekiston davlat ramzlari, Prezidenti haqida hikoya qilib bera oladi.
O’rta daraja	Vatani – O’zbekistonligini biladi; o’lka tarixi, hozirgi hayoti haqida tushunchalar bera oladi. Vatanning tarixi, himoyachilarining jasoratidan xabardor; O’zbekiston davlat ramzlarini biladi.
Past daraja	Vatan haqidagi tushunchalari mavhum; O’zbekiston tarixi, hozirgi hayoti haqida tushunchalari to’liq emas; Vatan himoyachilari, ularning jasoratlari haqida bilimlari darajasi past; O’zbekiston ramzlari haqida tasavurlari xira.
Qoniqarsiz daraja	Vatani – O’zbekiston haqida tushunchalarga ega emas; Vatan himoyachilarini, tarixini bilmaydi va befarq; O’zbekiston davlat ramzlarini tanimaydi.
Milliy g’urur	
Yuqori daraja	Dunyoda millatlar ko’pligi, o’zining ana shulardan biri – o’zbek xalqiga mansubligini puxta, qoniqish bilan ijobiy anglaydi; «O’zbek xalqi» tushunchasining madaniy mohiyatini yaxshi tushunadi; o’zining xalq o’g’li, qizi sifatida burchlarini chuqur anglaydi; o’zbek tilida ravon, toza so’zlaydi va bunda boshqalarga yordam beradi.
O’rta daraja	O’zining o’zbek xalqiga mansubligini anglaydi; «o’zbek xalqiy» tushunchasini ochib bera oladi; undan o’z xalqi nimalarni kutayotganini biladi; o’zbek tilida ravon, to’g’ri so’zlaydi.
Qoniqarsiz daraja	O’zining qaysi xalqqa mansubligini anglamaydi; xalq oldidagi burch tushunchasiga ega emas; ona tiliga loqayd munosavatda.
Milliy odob-axloq	
Yuqori daraja	Doimo, hamma joyda atrofdagilarga «assalomu alaykum» deyishni kanda qilmaydi; xalq ichida «yaxshi xulq», «yomon xulq» deb vaholangan xatti-harakatlarni juda faol farqlaydi va o’z munosabatini bildiradi; barchani «siz»laydi, o’zidan katta va kichikni doimo izzatlaydi; sinfdagi, ko’cha, mahalla, qishlog’idagi do’stlarining o’qishi, ishlaridan doimo xabardor; muallim-ustozni samimiy hurmat qiladi; uyat so’z, so’kishni hatto urishgan paytida ham tilga olmaydi; bolalarni yuqoridagi sifatlarni egallashga rag’batlantiradi; ota-ona, oila a’zolariga mehrini so’zda ham, muomalada ham, amalda ham, ular borliklarida ham, yo’qliklarida ham doimo namoyon qilib turadi; barcha qarindoshlarining ismlari, yaqinlik darajalarini

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

	mukammal biladi va faxr bilan aytib yuradi; aka-opasini, ota-onasini sevadi; ajdodlari haqida hikoya qilib bera oladi.
O'rta daraja	O'zidan kattalarga «assalomu alaykum» deb salom beradi; «yaxshi xulq»ni «yomon xulq»dan ajrata oladi; o'zidan katta o'qubchilarni ham «siz»laydi; sinfdoshlari, do'stlari hayotidan xavardor, muallimlarni maktabda, sinfda hurmat qiladi; o'g'il va qiz bolalarga bir xil munosabat bildiradi; so'kinmaydi; ota-onasiga so'zda, muomalada, amalda mehrini namoyon qilib turadi; barcha qarindoshlarining nomlari, ajdodlarining tarixini biladi; aka-opalarini hurmat qiladi; bobo-bubilarini izzatlaydi, xizmatlarini bajaradi.
Past daraja	Onda-sonda kattalarga salom berib turadi; «yaxshi xulq» va «yomon xulq»larning farqini bilmaydi; do'stligi manfaat asosiga qurilgan, o'tkinchi; atrofdagilarga dag'al, befarqlik bilan munosabatda bo'ladi; qizishgan paytida uyat so'zlarni ishlatadi, so'kinadi, ota-onasiga mehri past; qarindoshlarining kimlikla-riga qiziqmaydi, aka-opalari bilan munosavati yaxshi emas; bobo-bubilarining izzatini joyiga qo'ymaydi.
Qoniqarsiz daraja	Nazorat qilinmayotgan paytida hech kimga salom bermaydi; yomon xulqning yomonligini bila turib yoqlaydi, namoyon qiladi; samimiy do'sti yo'q; muallimlarni masxara qiladi; muomalasi qo'pol, dilozor; uyat so'z, so'kish-larni ko'p ishlatadi; ota-onasiga mehrsiz; qarindoshlarini hurmat qilmaydi; aka-opalari bilan ko'p urishadi; bobo-bubilarini pisand qilmaydi.
Vijdoniylik	
Yuqori daraja	Doimo va hamma joyda rost gapiradi; yaxshi xulqqa ijobiy, yomon xulqqa salbiy munosabatini doimo amalda bildiradi; ko'nglidagi gapni, fikrni ochiq mukammal ifodalay oladi; aytgan so'zi bilan uning amali doimo va hamma joyda mos keladi.
O'rta daraja	Rost gapirishi kerak bo'lgan vaziyatlarda indamaydi yoki yolg'on aralashtirib so'zlaydi; yaxshi va yomon xulq-larni farqlamaydi va ularning namoyon qilinishiga befarqligini ko'rsatadi; aytgan so'zi va amali orasida tafobutlar ko'p uchraydi.
Qoniqarsiz daraja	O'z foydasini ko'zlab, ongli rabishda yolg'on gapiradi; yomon xulq namunalarini qo'llab-quvvatlaydi va o'zida namoyon qiladi; so'zi va ishi bir-biriga zid.
Mafkuraviy onglilik darajasi	
Yuqori daraja	Barchani teng ko'radi; ko'cha, guzar, qishloq, mahalla, millat, qarindoshchilikka qarab ajratish, imtiyoz berish, cheklashga qarshi turadi; o'zbek xalq allomalari hayoti, xizmatini yaxshi biladi, o'rnakli misollar keltiradi; O'zbekiston barcha o'zbekistonliklarning yagona Vatani ekanini targ'ibot qiladi. Ma'naviy tahdidlarni, ularning tarixini, zararini yaxshi biladi. Ularga qarshi kurashga da'vat etadi.
O'rta daraja	Barchani teng ko'rishni ma'qullaydi; o'zbek xalqi allomalari hayoti, qilgan xizmatlari haqida tushunchalarga ega; o'z Vatani O'zbekiston ekanini anglaydi.
Past daraja	Mahalliychilik, qarindoshchilik, o'g'il va qiz bolaga qarab ajratishni ma'qul ko'radi; o'zbek xalqi allomalari hayoti, xizmatlari haqida bilimlari yuzaki.
Qoniqarsiz daraja	«Boshqa mahalladan», «boshqa millatdan», «qarindosh, begona» deb sinf bolalarini ajratadi; bir-biriga qarshi qo'yadi; o'zbek xalqining allomalari, ularning merosi bilan qiziqmaydi, «ommaviy madaniyat», xorijiy narsalarga o'ch va ularni targ'ib qiladi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O‘RTA VA YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING MILLIY TARBIYALANGANLIK MEZONLARINI BAHOLASH	
Vatanparvarlik	
qori daraja	Turkiston, O’zbekiston haqida tasavurlari keng. Yolg’iz Vatani O’zbekiston ekanini e’tiqodga aylantirgan; O’zbekistonning kelajagi buyukligiga so’zsiz ishonadi; istiqlol tarixi, mamlakatimizda sodir bo’layotgan muhim voqealarni, islohotlar yutuqlarini yaxshi biladi; O’zbekiston va uning buyuk farzandlari bilan faxrlanadi; O’zbekiston vatanparvarligi mohiyatiga ega bo’lgan tadbirlarda faol ishtirok etadi; o’lka tabiatini e’zozlaydi, bu ishga boshqalarni ham chorlaydi; o’zini O’zbekiston himoyasiga tayyorlay boradi; fidoyi; O’zbekiston tarixi, kelajagiga befarqlik, yot g’oyalar namunalarini uchratsa, murosasizligini namoyon qiladi.
O’rta daraja	O’zbekiston tarixi, hozirgi hayoti haqida tasavvurlarga ega; O’zbekistonning kelajagi buyukligiga ishonadi; respublikamizda sodir bo’lgan muhim boqealar, tarixiy siymolar xizmatlari, millat shoniga shon qo’shgan kishilar haqida bilimlarga ega; o’lka tabiatini avaylaydi; harbiy-vatanparvarlik malakalariga ega; faol; O’zbekistonga befarqlik, vatanga befarqlik hollarini qoralaydi; o’z kelajagini O’zbekiston kelajagi bilan birligini tushunadi.
Past daraja	O’zbekistonning tarixi, hoziri va kelajagi haqida mustaqil fikrga ega emas; Respublika hayotiga oid muhim boqealarni bilmaydi; tabiatni e’zozlaydi; ijtimoiy faoliyatda sust; Vatanga befarqlik hollarini anglamaydi.
Qoniqarsiz daraja	O’zbekistonning hayoti, taqdiri bilan qiziqmaydi, bu haqda o’ylamaydi; tabiatni, atrof-muhitni bemalol ifloslashtiraberadi; o’zini Vatan himoyasiga tayyorlashdan olib qochadi; vatanparvarlikning namoyon bo’lishi namunalarini qabul qilmaydi yoki istehzo bilan munosavat bildiradi.
Milliy g’urur	
Yuqori daraja	O’zining yetti pushtini, milliy farzandlik burchlarini chuqur anglaydi; o’zbek xalqiga uning san’ati, an’analari, tili, madaniyatiga hurmatini doimo va hamma yerda namoyon qiladi; millat tarixi, allomalari haqida chuqur bilim va minnatdorlikni namoyon qiladi; manqurtlik, milliy majhullik, millat tarixi va taqdiriga befarqlikni ko’rganida millatdoshla-rini qaytarishga faol harakat qiladi; «o’zbekchilik»ning barcha ilg’or qirralarini taraqqiyparvarlik bilan uyg’unlashtirishni dasturilamalga aylantira boradi.
O’rta *daraja*	O’zining o’zbek xalqi oldida farzandlik burchi borligini anglaydi; o’zbek xalqini, tilini, madaniyatini, san’atini hurmat qiladi; xalq tarixi, allomalar meroslarini biladi, hurmat qiladi; manqurtlik, milliy majhullik, millat tarixi va taqdiriga befarqlikni qoralaydi; o’zining milliy mas’uliyatini anglaydi.
Past daraja	O’z xalqi oldidagi har qanday burch, mas’uliyatni his qilmaydi; o’zbek san’ati, tarixi, madaniyati, tiliga, allomalari merosiga e’tiborsiz; manqurtlik, milliy majhullik, ona xalqi tarixi va taqdiriga befarq; «o’zbekchilik»ning eng ilg’or qirralaridan bexavar va qiziqmaydi.
Qoniqarsiz daraja	O’zbek xalqi oldidagi har qanday burch, mas’uliyatni inkor qiladi; o’zbek xalqi tarixi, san’ati, tili, allo-malari merosiga bepisand munosavatda bo’ladi; milliy majhul, ona xalqi tarixi va taqdiriga befarqlikni, boshqa millat milliyligini o’z milliy qadriyatlari-dan ustun qo’yadi; «ommaviy madaniyat»ning salbiy namunalariga ko’r-ko’rona taqlid qiladi.
Vijdoniylik	
Yuqori daraja	Doimo va hamma joyda daxldorlikni, rostgo’ylikni namoyon etadi va targ’ib qiladi; aytgan so’zi va qilgan ishi doimo, hamma joyda bir xil; a’lo

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

	o'qish kerakligini biladi va a'lo o'qiydi; burch, mas'uliyatini doimo, hamma joyda sifatli vajaradi; bijdoni sof, pok; sinf, maktab, jamoa hayotidagi tadbirlarda ko'ngilli, faol ishtirok etadi; nohaqlik, adolatsizlikka doimo va hamma joyda murosasiz; noinsoflik, vijdonsizlikni ko'rganida so'z yoki yomon ko'rish bilan unga qarshiligini namoyon qiladi.
O'rta daraja	Rostgo'y, so'zini amalda namoyon qilishga harakat qiladi; a'lo o'qish kerakligini biladi va yaxshi o'qiydi; burch, mas'uliyatini yaxshi vajaradi; bijdonli, sinf, maktab, jamoa hayoti va tadbirlarida ishtirok etadi; nohaqlik va adolatsizlikni yomon ko'radi; noinsoflik, bijdonsizlikni yoqtirmasligini namoyon qiladi.
Past daraja	Rost va yolg'onni aralash gapirib turadi; so'zi va amali orasida farq mabjud; a'lo o'qish kerakligini biladi, biroq o'rtacha o'qiydi(a'lo o'qishga harakat qilmaydi), burch, mas'uliyatni his qilmaydi; sinf, maktab, jamoa hayotidagi tadbirlarda faqat talab qilingandagina ish-tirok etadi; nohaqlik va adolatsizlikning mohiyatini tushunmaydi; noinsoflik, bijdonsizlikni ko'rganida loqaydligini namoyon qiladi.
Qoniqarsiz daraja	Yolg'onchi; huda-behuda qasam ichaberadi; loqayd; so'zi va amali bir-biriga zid; a'lo o'qish kerakligini biladi va yomon o'qiydi; burch, mas'uliyatini tan olmaydi; faol qatnashishi kerakligini bila turib, sinf, jamoa hayoti-da tadbirlardan qochib yuradi; nohaqlik va adolatsizlikning mohiyatini bila turib, o'zida namoyon qiladi; noinsoflik, bijdonsizlikni rag'vatlantiradi, targ'ibot qiladi.
Millatlararo muloqot madaniyati	
Yuqori daraja	Vatanining gullab-yashnashining sharti – barcha millatlar do'stligi va totuvligiga bog'liqligini chuqur anglab etgan; jahonning har bir millati o'zbek millatidek go'zal an'ana, madaniyat sohibi ekaniga, millatlar o'zaro farqli va tengligini e'tiqodga aylantirish; millatlararo munosavatlarini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarda faollik, tashabbuskorlik ko'rsatadi; O'zbekistonga sadoqatli barcha xalqlarga hur-mat tuyg'usini bildiradi; O'zbekiston xalqlarining har bir vakiliga hurmat bildiradi; millatlararo muloqot, munosavatlarni yomonlashtirubchi fikr bildirgudek bo'lsa, unga dadil, asosli qarshi turadi.
O'rta daraja	Barcha millatlar huquqlarining tengligini yaxshi anglaydi; boshqa millatlar vakillari bilan muloqotga kirisha oladi; millatlararo munosavatlarini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarda qatnashadi; O'zbekiston xalqlariga hurmat hissi bor; millatlararo munosavatlarni yomonlashtirubchi fikr bildirilganda bunday fikrga qo'shilmaydi.
Past daraja	Faqat o'z milliy an'analarini qadrlaydi; avaylab asraydi; boshqa xalkdar milliy an'analariga e'tiborsiz; boshqa millatlar vakillari bilan muloqotdan o'zini tortadi; millatlararo munosavatlarni takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarda talab qilinsa, qatnashadi; millatlararo munosabatlarni yomonlashtirubchi fikr bildirilganida uning zararli ekanini anglamaydi.
Qoniqarsiz daraja	Boshqa millatlar madaniyati, urf-odatlarini kamsi-tadi; boshqa millat vakillari bilan yomon munosavatda bo'ladi; o'z xalqini boshqa xalqlardan ustun qo'yadi; mil-latlararo munosavatlarni yomonlashtirubchi fikrlar bildiradi va shunga mos xatti-harakatlar qiladi.
Milliy odob-axloq	
Yuqori daraja	Ota-onaga samimiy, yaqin, mehrini doimo va hamma joyda bildirib turadi; o'zbekona axloq me'yorlariga insoniylikni saqlab qolish kafolati sifatida ongli, e'tiqod bilan amal qiladi; ajdodlarga, yoshi ulug'larga hurmat-ehtiromni doimo va hamma joyda namoyon qiladi; mehmondo'stlikni so'z

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

	va amalda namoyon qiladi; o'zidan katta, yoshu qarini samimiy hurmat qiladi; jahli chiqqanida o'zini odob me'yorida idora qila oladi; shodlik va motam madaniyatining sohibi (to'y, motam marosimlarida o'z o'rnini, xizmatini biladi va faol amalga oshiradi); milliy odobga zid xatti-harakatlarni doimo va hamma joyda faol qoralaydi.
O'rta daraja	Ota-onasini hurmatlaydi; o'zbekona axloq me'yorla-rining rioya qilinishiga xayrixoh; yoshi ulug'larni hurmat qiladi; mehmondo'st; jahli chiqsa o'zini idora qila oladi; marosimlarda o'zini tuta oladi; milliy odobga zid xatti-harakatlarni yoqtirmaydi.
Past daraja	Ota-onasining hurmat, izzatini joyiga qo'ya olmaydi; o'zbekona axloq me'yorlariga befarq munosabatda bo'ladi: manfaatli bo'lsa, biror kishi ko'rib, kuzatib turganini, baholashini sezsa, yoshi ulug'larni hurmat qiladi; mehmondo'stlik madaniyatini tushunmaydi; tengqurlarini «sen»laydi; qizishsa, o'zini idora qila olmaydi; marosimlarda o'zini tuta olmaydi; milliy odobga zid xatti-harakatlarni befarq, bemalol kuzatadi.
Qoniqarsiz daraja	Ota-onasini xo'rlaydi; qaqshatadi; dilozorlik qiladi; o'zbekona axloq me'yorlariga eskilik sarqitlari, «madaniyatsizlik» deya munosabatda bo'ladi; yoshu qarilarni hurmat qilmaydi; so'kinadi, barchani sensirashga moyil; johil; marosimlarda buzg'unchilik qiladi; milliy odob me'yorlarini surunkali buzib yuradi.
Mafkuraviy onglilik darajasi	
Yuqori daraja	Jonajon Vatan – O'zbekistonning jahon va Markaziy Osiyoda tutgan mabqeini, bir va butunligini chuqur, asosli anglaydi; O'zbekiston hukumati va Prezidenti ichki va tashqi siyosati haqida yoshiga mos darajada xabardor; milliy Davlat manfaatlarining guruhiy, firqaviy, mahalliy, qon-qarindoshchilik manfaatlaridan ustunligini teran anglaydi, dalillar bilan asoslaydi; O'zbekiston xalqining mafkuraviy birligiga zid tashqi (boshqa davlatlardan) va ichki (millatchilik, mahalliychilik, guruhbozchilik va boshqa) bo'linishlarga qarshi tura oladi.
O'rta daraja	O'zbekistonning mustaqilligi, taraqqiyot yo'li, ichki va tashqi siyosatidan xavardor; milliy davlat manfaatlarining guruhiy, firqaviy, diniy, mahalliy, qonqarindoshchilik manfaatlaridan ustunligini tushunadi; milliy istiqlol mafkurasiga zid tashqi yoki ichki harakatlarning zararini anglaydi.
Past daraja	O'zbekistonda sodir bo'lgan va bo'layotgan islohotlar haqida tushunchalari sayoz, yuzaki; milliy davlat manfaatlarining ustun turishi shartligini anglamaydi; milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini tushunmaydi.
Qoniqarsiz daraja	O'zbekistonning jahon va Markaziy Osiyodagi o'rni, mavqei bilan qiziqmaydi; shaxsiy, guruhiy, diniy, mahalliychilik manfaatlarini milliy davlat manfaatlaridan ustun qo'yadi; milliy istiqlol mafkurasiga zid xatti-harakatlarni yoqlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ishlab chiqilgan metodlar va tavsiyalar asosida o'quvchilarda shakllantirilgan milliy tarbiyalanganlikni, qay darajada rivojlanganligini baholash mezonlarini orqaliy aniqlanish kerakligi isbotlandi. Umid qilamizki, bu kabi ko'lamdor ishlarni amalga oshirishda biz ham munosib xissamizni qo'shamiz!

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-540-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

PQ-4884-son
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон
4. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 397 b.
5. Asqarova O‘. Milliy g‘urur. –T.: O‘qituvchi, 2002-234 b.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarbiya
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud ahloq Toshkent, Tip.Lit “Par. Sots. Revolyuts” 1917 y. B.4.
8. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud ahloq Toshkent, Tip.Lit “Par. Sots. Revolyuts” 1917 y. B.6.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA KASBGA YO‘NALTIRISH.

Xusanova Feruza Zohidjonovna
Namangan davlat universiteti Boshlang‘ich ta’limda aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi.
Gmail: E-mail-feruza.xusanova81@mail.com

Annotasiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda kasbga yo‘naltirish vositasi sifatida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish shakllari, o‘quvchilarning ota-onalari bilan kasbga yo’naltirish ishlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: kasb, darsdan tashqari mashg‘ulot, rolli o‘yin, ekskursiya, kasbiy yo‘nalish.*

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ОРИЕНТАЦИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ ВНЕКЛАССНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ.

Хусанова Феруза Зохиджоновна
Наманганский государственный университет, преподаватель кафедры методики преподавания точных и естественных наук в начальных классах.
Gmail: E-mail-feruza.xusanova81@mail.com

Аннотация: *В данной статье представлена информация о формах организации внеурочной деятельности как средства профориентации в начальной школе, профориентации учащихся с родителями.*

Ключевые слова: *профессия, внеклассная деятельность, ролевая игра, экскурсия, профессиональное направление.*

CAREER ORIENTATION IN ELEMENTARY SCHOOL OUTSIDE THE CLASSROOM ACTIVITIES.

Khusanova Feruza Zohidjonovna
Namangan State University is a teacher of the Department of Teaching Methods of Exact and Natural Sciences in Primary Education.
Gmail: E-mail-feruza.xusanova81@mail.com

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Abstract: *This article provides information on the forms of organizing extracurricular activities as a means of career guidance in primary school, and career guidance of students with their parents.*

Key words*: profession, extracurricular activity, role play, excursion, professional direction.*

Kirish

Ma'lumki, yaqinda, davlatimiz rahbarining 11-maydagi farmoni bilan 2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur tasdiqlandi. Unda ilg'or xorijiy tajriba asosida ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilik kasbining nufuzini yuksaltirish, inklyuziv ta'limni rivojlantirish, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, infratuzilmani yaxshilash, sohani raqamlashtirish bo'yicha dolzarb yo'nalishlar belgilangan. Bu yo'nalishlarning har biri o'nlab aniq vazifalardan iborat. Ular har bir tuman va shahar kesimida ishlab chiqilgan "yo'l xaritalari" asosida amalga oshirilmoqda. Maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish masalasiga ham to'xtalib o'tildi. "Barkamol avlod" maktablari faoliyati va infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha besh yillik dastur ishlab chiqish, ularda "STEAM" yo'nalishlari bo'yicha to'garaklar tashkil etish vazifasi qo'yildi.[52]

Hozirgi vaqtda zamonaviy mamalakatning o'zgaruvchan sharoitlariga ishonch bilan moslashgan muvaffaqiyatli shaxsni shakllantirish va rivojlantirish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Maktab o'quvchilarini tog'ri va oqilona kasb tanlashga tayyorlash maktab ta'limi va tarbiyasining muhim vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili

Tadqiqotchi S.B. Umarovning "Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish texnologiyasi" mavzusidagi nomzodlk ishigda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish texnologiyasi mazmuni aniqlanib, mazkur texnologiyani ishlab chiqish mezonlari yaratilgan hamda o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik faoliyat tizimi ishlab chiqilgan. [53]

Z.S.Ochilovning "Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida 8-9-sinf o'quvchilarini kasbga yo'llashni shakllantirish" mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida kasbga yo'llash prinsiplari ilmiy asoslangan, o'quvchilarni me'moriy va texnikaviy kasbga yo'llashni shakllantirishda maktab chizmachilik xonasi va chizmachilik bo'yicha sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning pedagogik xususiyatlari aniqlanib, fan va texnika taraqqiyoti davrida chizmachilik ta'limining tarbiyaviy usul va metodlari amaliy jixatdan ishlab chiqilgan. Shu bilan birga chizmachilik bo'yicha sinfdan tashqari ishlar mazmuniga qo'yiladigan talablar, o'quvchilarni kasbga yo'llash darajasi mezoni va ko'rsatkichlari aniqlangan, chizmachilik bo'yicha sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'llash tizimini takomillashtirish yo'llari belgilab berilgan, hamda o'quvchilarni sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda kasbga yo'llashni shakllantirishning asosiy omili va vositasi bo'lmish chizmachilik bo'yicha sinfdan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi va tarbiyaviy ishlarning o'ziga xos prinsiplari ishlab chiqilgan.[54]

---

[52] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 11 майдаги "2022-2026 йилларда халқ таълимини ривожлантириш бўйича миллий дастурни тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-134-сон фармони

[53] Умаров С.Б. Умумий урта таълим мактаблари укувчиларини касб-хуиарга йуналтириш технологияси: Д ис.... пед.фан.ном. - Тошксит: Низомий номидаги ТДПУ, 2005. -159 б.

[54] Очилов. З.С. Синфдан ташкари тарбиявий ишлар жараёнида 8-9 синф укувчиларини касбга йуллашни шакллаитириш: Дис. ... пед.фан.ном. Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2005.- 159 б

ISSN: 2181-0427

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada boshlang‘ich maktabda kasbga yo‘naltirish vositasi sifatida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish shakllari, o‘quvchilarning ota-onalari bilan kasbga yo’naltirish ishlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kasbiy o‘zini o‘zi belgilash uchun asos o‘smirlikdan ancha oldin kasblar dunyosini aniq va vizual tasvirlash bosqichida qo‘yilishi kerak. Shu sababli, kasbga yo‘naltirish ishlarida muhim o‘rin yosh o‘quvchilarga tegishli.

Bolalarni erta kasbga yo‘naltirish asosan bolalarning qiziqish doirasini aniqlash va bu sohani yangi kasblar haqidagi bilimlar bilan boyitish bilan izohlanadi. Rivojlanish jarayonida bola o‘z ongini kasblar dunyosi haqidagi turli g’oyalar bilan to‘ldiradi. U keng ma’noda kattalar kuzatuvlariga asoslanib, haydovchi, hamshira, o‘qituvchi va boshqalarning harakatlarini o‘ynashga harakat qiladi.

Ushbu bosqichda ma’lum bir asos yaratiladi, unga professional o‘zini o‘zi anglashning keyingi rivojlanishi asoslanadi. Shuning uchun kasblar olami haqidagi taassurotlarning eng xilma-xil turlarini yaratish juda muhim, shunda keyinchalik ushbu material asosida o’quvchi kasbiy sohani yanada mazmunli tahlil qilishi mumkin.

Tahlillar va natijalar

Kasbiy yo‘nalish - bu shaxsning kasbiy o‘zini o‘zi belgilashiga, o‘z ishonchliligi va qobiliyatidan o‘zi va jamiyat uchun eng katta foyda keltiradigan bo‘lajak mutaxassisni shakllantirishga yordam beradigan chora-tadbirlar tizimi. Kasbga yo‘naltirish o‘quv fanlari, sinfdan tashqari ishlar, ota-onalar bilan ishlash orqali amalga oshiriladi.

Boshlang’ich sinflarda kasbga yo‘naltirishning asosiy vazifasi kattalar bilan bevosita muloqot qilish yoki ularning ishini kuzatish jarayonida bolaning kasblar haqidagi tasavvurlari va xabardorligini kengaytirishdir.

Kasbga yo‘naltirish vositasi sifatida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish shakllari.

Kasbiy ta’lim bolaning maktabdagi birinchi kunlaridan boshlab, barcha darslarda boshlanadi va maktab, oila va jamoatchilikning o‘zaro ta'sirida butun pedagogik jamoa tomonidan amalga oshiriladi. Maktabning birinchi yilidanoq o‘quvchilarning kasbiy rivojlanishini samarali boshqarish uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Kasblar dunyosi haqida tasavvurni shakllantirish, kasb-hunarning inson va jamiyat hayotidagi rolini tushunishga yordam berishdir. Sinfdan tashqari ish o‘quv ishlariga nisbatan ma’lum afzalliklarga ega, chunki u turli xil faoliyat turlarini tashkil qilish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, an’anaviy va innovatsion ish shakllari va usullarini optimal kombinatsiyada qo‘llash imkonini beradi. Kasb-hunarga yo‘naltirish darslari uchun asosiy motivatsiya o‘yin motivatsiyasi bo‘lib, u ta’lim motivatsiyasiga aylanadi. Bola o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishda manfaatdor shaxsga aylanadi, chunki u kattalar hayotining turli sohalarida o‘zini sinab ko‘rishi mumkin. Har bir darsda ma’lum bir kasb ko‘rib chiqiladi, o‘quvchilarning kasblar dunyosi haqidagi tushunchalarini kengaytirish, shuningdek, o‘yin jarayonida ko‘rib chiqilayotgan kasbga nisbatan qobiliyatlarini o‘rganish imkoniyati mavjud. Bola voyaga yetganida ongli ravishda tanlashi uchun uni eng yaqin atrof-muhitdan boshlab, taniqli odamlarning kasblaridan boshlab, bolalar har kuni ishini kuzatadigan maksimal kasblar bilan tanishtirish kerak.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Sinfdan tashqari kasbga yo‘naltirish ishlari turli yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: ekskursiyalar, sinf soatlari, darsdan tashqari mashg‘ulotlar, turli ish sohalari mutaxassislari bilan uchrashuvlar, tanlovlar, ko‘rgazmalar, to‘garaklar va maxsus kurslar.

Muzeylar, san’at galereyalari, kutubxonalar, teatrlarga tashrif buyurib, kichik yoshdagi o‘quvchilar nafaqat go‘zallik olamiga qo‘shilibgina qolmay, balki rassom, kutubxonachi, aktyorlik kasblari haqida ham ma’lumot olish imkoniga ega bo‘ladilar.

Dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda kichik yoshdagi o‘quvchilar turli kasb-hunarlar haqida she’rlar o‘qiydilar, topishmoqlar yechishadi, sahna ko‘rinishlariga ega bo‘ladilar, mehnatga oid maqollar tuzadilar, ota-onalarning kasblari haqida gapiradilar, viktorinalarida qatnashadilar.

Masalan, turli kitoblarni o‘qiyotganimizda o‘z kasbi tufayli mashhur bo‘lib ketgan turli qahramonlarni uchratamiz.

Biz har kuni duch keladigan kasblar haqida gapiramiz.

